



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI TO‘PLAMI

Toshkent
2024-yil, 17-aprel

UO‘K 82.09:801.73

KBK 83.3

“O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Матн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 360 b.

Mas’ul muharrir:

Q.Yo‘ldoshev
pedagogika fanlari doktori, professor


Tahrir hay’ati:

Rahmonova Sh.,
filologiya fanlari doktori, dotsent;
Matyoqubova T.,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Ahmedov H.,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Jabborova M.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Madaminova M.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Dedaxonova M.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Nazarova D., katta o‘qituvchi;
Maqsudov H., o‘qituvchi;
Oripova M., o‘qituvchi;
Muhammadaliyeva Sh., o‘qituvchi;
Berdiyeva D., o‘qituvchi.


Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Ona tili va adabiyot ta’limi” fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasidan “O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar” mavzusida 2024-yil 17-aprelda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

ISBN: 978-9943-8958-5-0



O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALALARI



ALISHER NAVOIYNING ANTROPONIMLARDAN ISTIORA SAN'ATINI YARATISH MAHORATI

Nishonboy Husanov,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning antroponimlardan tasviriy vosita sifatida foydalanish mahorati istiora san'ati misolida ochib berilgan. Antroponimlarning barcha turlari — tarixiy, real, diniy, to'qima ismlar Navoiy asarlarida nominativ vazifadan tashqari uslubiy ma'no va vazifa bajarib kelgan.

Kalit so'zlar: antroponim, badiiy san'atlar, istiora, shaxs nomi, o'z ma'no, ko'chma ma'no, mahorat.

O'zbek mumtoz adabiyotida, xususan XV asr yodgorliklarida badiiy san'atlarning 100 dan ortiq turidan foydalanilgan. Bu she'riy san'atlar aksariyat hollarda ikkiga — ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratiladi, ammo “ayrim san'atlar borki, ular ham ma'noga, ham lafzga daxldor va o'zaro mushtaraklik xususiyatiga ega” (1:125). Badiiy san'atlar bo'yicha tadqiq olib borgan olimlarning ba'zisi bunday san'atlarni “mushtarak, ya'ni har ikkisinin xususiyati mavjud” (Y.Is'hokov) desa, boshqasi “qorishiq san'at” (V.Rahmonov) atamasini ma'qul ko'radi.

Asarlarining badiiy qiymati ijodkorlarning tasvir vositalaridan qay yo'sinda foydalanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotda tasviriy vositalardan voqea-hodisalarni obrazli qilib tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, u yoki bu narsaning xususiyati, xarakteri, ko'rinishini qisqa, ifodali, obrazli qilib tasvirlash uchun foydalanilgan (2:10).

Badiiy asardagi boshqa so'zlar qatorida antroponimlar ham tasviriy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida qo'llanilgan badiiy san'atlar nomi hozirgi adabiyotshunoslikda faol ishlatilsa-da, tilshunoslikda alohida terminlar bilan nomlangan. Jumladan, so'zlarning ko'chma ma'nolari XV asr yodgorliklarida majoz, istiora deyilsa, hozirgi tilshunoslikda metafora, metonimiya, sinekdoxa deyiladi. Badiiy asardagi boshqa so'zlar singari antroponimlar ham majoziy ma'nolarda qo'llanilgan. Ularning majoziy-ramziy ma'nolari, xususiyatlari istiora san'atida yaqqol namoyon bo'ladi. Istiora ma'naviy san'atlardan biri bo'lib, arabcha استعاره “oriyatga olish” degan ma'noni anglatadi. Atoulloh Husayniyning yozishicha “Istiora majozning bir nav'idur va majoz haqiqatning ziddidir. Haqiqat lafzni, o'z yasog'i, ya'ni nimani mo'ljallab yasag'on bo'lsalar, o'shul ma'noda qo'llamoqtin iborattur. Majoz lafzni o'z yasog'idin o'zga ma'noda yasog'u lafzu o'shul ma'no orasindagi biror aloqayu munosabatqa asoslanaroq qo'llamoqtin iborattur” (3,219). Demak, istiorada so'z ko'chma ma'noda ishlatiladi va u tashbehij bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Navoiy asarlarida antroponimlar ham o'ziga xos istioralarni hosil qilgan.

Aning shavkatin beadam topibon,

Necha Ahmad istab ahad topibon (4,SI, 28)

“Saddi Iskandariy”dan olingan bu baytda Muhammad payg'ambarning me'roj tunida Buroqqa minib Tangri inoyatiga va cheksiz shavkatga (ulug'vorlik) muyassar bo'lgani hamda qancha Ahmadlar (payg'ambarlar) buni istagani bilan Ahad (Tangri) tanlagani bo'lishi ochib berilgan. Ahmad va Ahad so'zlaridan foydalanib shoir tanosub va istiora san'atini qo'llagan.

Muhammad antroponimi iboralar bilan birga qo'llanilib istioralarni hosil qilgan.

Nur dema, boriqai sarmadiy,

Boriqa yo'q, sha'shai Ahmadiy (4,HA, 27)

Birinchi yaratilgan inson yuzida nur, abadiy yashin, yo'q, balki quyosh shu'lasini porlab turar edi. Demak, bu baytda Ahmad “quyosh”ni ifodalagan.

Besh navbat g'ulg'ulakim, yo'q hadi,

G'ulg'ula yo'q, dabdabai Ahmadiy (4,HA, 273)

Navoiy Hirot shahrini ta’riflab yozadi: bunda har kun besh marta cheksiz g‘ulg‘ula bo‘ladikim, bu g‘ulg‘ula emas, balki Ahmad (Muhammad)ning dabdabasidur. Shoirning “dabdabai Ahmadiy” birikmasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan, ya’ni nomoz ma’nosini (besh marta o‘qiladigan nomoz) anglatadi.

Muhammad antroponimi o‘ziga xos istioralar - ismlar bilan ifodalangan: “Ul Hazratning nuri qadamiyatidakim zot bahrining avvalgi junbushida ul durri bebaho lam’asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi’asi lam’a ko‘rguzdi va durjdin durjga intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohga yetti” (4,HA, 26). Navoiy bu ismni matn mazmuni va tuzilishidan kelib chiqqan holda qo‘llagan; Safiyulloh ya’ni Ollohning tanlagani (Odam Ato) va Abdulloh - “Ollohning quli” (Muhammad). Muhammad alayhissalomning sifat-ismlaridan biri Mustafodir.

Davlat talab aylasang xudodin,

Bosh tortma shar’i Mustafodin (4, LM, 263)

Qoyda azm etsa Sulaymon, sen dalil,

Mustafog’a ul sifatkim Jabroil (4, LT, 32)

Mustafo arabcha so‘z bo‘lib, “tanlangan” degan ma’noni anglatadi. Muxtor ismi Muhammad alayhissalomning 99 nomlaridan biri bo‘lib, “erki o‘zida”, “erkin” degan ma’nolarni anglatadi.

Shar’ qonunini diqqat bila mar’i tutqon,

Soliki jodai Ahmadi, Muxtor qani (4, NSH, 680)

Baytda shariat qonunlariga qattiq rioya qilib Muhammadning (Muxtorning) qoidalariga amal qiluvchi suluklar qani deya nido qilingan.

Rasulilloh, Rasul alayhissalom birikmalari ham asarlarda Muhammad alayhissalomni ifodalab kelgan:

Kim Rasulilloh anga bo‘ldi ayon,

Mushkili hallin bu nav’ etti bayon.

K-ey fuzul ayvonida o‘lturg‘uchi,

Lofi vahdatdin “Anal-haq” urg‘uchi (4,LT, 225)

“Lison ut-tayr”da tasvirlanishicha, Rasulliloh Mansur Hallojning tushiga kirib, unga “Anal-haq” (men Xudoman) so‘zining ma’nosini tushuntiradi va izohlaydi.

Ulusni tutti Navoiy so‘zi aning birla,

Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis (4,G’S, 92)

Habibulloh so‘zi ham Muhammad alayhissalomning ismi sifatida qo‘llanilgan.

Ruhga daa’b Habibulloh ishi oyini,

Nafs Bujahlilik asbobini aylab mabsut (4,FK,285). Baytda Habibulloh Bujahlga nisbatan qarshi ma’noni bildirib kelgan.

Qahramonlarning ismi boshqa bir shaxs nomi sifatida kelgan va istiorani hosil qilgan. Yusuf antroponimi ba’zan boshqa qahramonning o‘rnida qo‘llanilgan:

Andin bo‘lub ul guruh afgor,

Itgon Yusufni talabgor (4,LM, 82)

Navoiy Qaysni Layli ishqida aqlu hushidan judo bo‘lib dashtda yiqilib qolganini, bundan voqif bo‘lgan qarindoshlari (guruh) o‘z Yusufni (Qays) topish uchun shoshilganliklarini ta’riflab Qays so‘zi o‘rnida Yusufni ishlatadi.

Antroponimlar turli narsa va holatlarning ma’nosida qo‘llanilib o‘ziga xos istiora hosil qilgan.

Ko‘ngluma ko‘hi hamu mujgonlaring kirmish, valek

Ne ham ul tog‘din, bu metinlarki Farhodimda bor (4,FK, 196)

Bu baytdagi Farhod so‘zidan shoir mahorat bilan foydalanib ism va ko‘ngul ma’nolarida ko‘llangan hamda istiora san’atini yaratgan.

Chu Bahman sipohi tuzib anjuman,

Yer Isfandiyorin qilib Ruyintan,

Bu Isfandiyor aylabon chun sitez

Solib olam ahli aro rustaxez (4, SI, 210).

Shoir tabiatni mahorat bilan tasvirlaydi: qahraton qish lashkarlari o'z bazmini boshlab yer yuzini o'ziga o'q o'tmas kiyim qilib olsa. Yer esa bu sovuq bosqiniga chidamay, olam ahlini isyon-g'alayonga keltirsa. Misolda Isfandiyor - yerni, Bahman — qahraton qishni, ro'yintan ya'ni Isfandiyorning laqabi - o'q o'tmas kiyimni ifodalab istiora, talmih va tanosub san'atlarini hosil qilgan.

Bunday so'z birikmalari ko'chma ma'noda qo'llanilgan va o'ziga xos istiorani hosil qilgan. Masalan, Iskandar so'zi bilan qo'llaniluvchi birikmalar:

1) Ziyo Iskandari - dunyo:

Ziyo Iskandari holi tabahdin,

Ko'rub navmid o'zin bir Xizri rahdin (4,FSH, 613)

2) Xurshidi Iskandariy - quyosh:

Chu xurshidi Iskandariy ochti chehr,

Skandardek ofoq uza soldi mehr (4,SI,315)

3) Oyinai Iskandariy — jahondagi hamma narsani

ko'rsatuvchi oyna:

Jom Jam hay'atining mazhari ul,

Balki oyinai Iskandari ul (4,FK, 692)

4) Skandar mulki- tiriklik suvi:

Xizr umriyu Skandar mulki topqan yorsiz,

Obi hayvon ichsa, zahr begumondurkim, ichar (4,NSH, 183)

5) Saddi Iskandariy-Iskandar devori (asar nomi):

Skandarga til tortib ozar kibi,

Dedim oni "Saddi Skandar" kibi.

Tanosub bila aql nom ovari,

Dedi otini "Saddi Iskandariy" (4,SI,523)

"Sulaymon ahd" birikmasi esa yodgorliklarda shoh - Husayn Boyqaroni anglatib kelgan:

Kimki erur qaysaru hoqoni ahd,

Qaysaru xoqon ne, Sulaymoni ahd (4,HA, 178)

Navoiyning badiiy mahorati shundaki, u "Sulaymoni falak" iborasini falak. va quyoshta o'xshatadi.

Tutub holig'a tun ifriti motam

Sulaymoni falak ko'rguzdi hotam (4,FSH, 439)

Shoir fikricha, Tun devi kechaning holig'a motam tutub, falak Sulaymoni o'zining porloq uzugi (quyosh)ni olamga ko'rsatadi.

Doro so'z birikmasi tarkibida kelganida quyidagi ma'nolarni anglatadi

1)Doroyi jahon - sevgili:

Mug'anniy bir navoye tuz, Navoiy nag'mai ko'rguz

Ayoqchi, tomsa tut, to'qqizki Doroyi jahon keldi (4,G'S, 455)

2) Doroyi a'zam - buyuk shoh: Husayn Boyqaro:

Yo falak qaddin xam aylab, kelturub bir halqa yoy,

Ixtiyor aylaydurur Doroyi a'zam xidmatin (4,BV, 477)

3) xurshid dorosi - quyosh:

Chu xurshid dorosi etti kamin

Kamingoh anga bo'ldi Mag'rib zamin (4,SI, 169)

Luqmon va Suqrot ismlari ham birikmada alohida ma'noni anglatadi:

Quyosh Suqroti chun yer qildi maskan,

Kecha Luqmoni bunyod etti shevan (4,FSH, 184)

Shoir Luqmonning qora rangli (habash) ekanligiga ishora qilib tunning qoralig'ini majoziy tasvirlangan hamda istiora va tanosub san'atlarini hosil qilgan.

Baqo mulkiga chun Kisro qo'yub yuz,

Berib ziynat aning mulkiga Hurmuz (4,FSH, 557)

Xaylu taba’ Hurmuzu Xusrav anga

Mulki Sulaymoncha qalamrav anga (4,HA, 178)

Birinchi baytda Hurmuz o‘zinint nominativ vazifasida yo‘llanilgan, ikkinchi baytda esa o‘z va ko‘chma ma’nolarda ishlatilgan: xalqi va unga buysunganlar Hurmuzdan Xusravgacha (kun chiqishdan, kun botishgacha) yoyilgan. Demak, Hurmuz kun chiqish joyi ma’nosida qo‘llanilgan.

Xusrav ismi asarlarda ko‘plab istioraviy ma’nolarni ifodalab keladi. Ayniqsa, boshqa so‘zlar bilan birga ibora tarzida kelganda o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydi: Xusravi rum-rum shohi; Xisravi xovar-mashriq shohi, quyosh; xisravi Zang-Habash shohi, kecha; Xisravi anjum-yulduzlar shohi, quyosh va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rafiddinov S. Majoz va haqiqat (Atoyining poetik mahorati). - Toshkent: Fan, 1995. - 154 b.
- 2.Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. - Toshkent: Fan, 1977.- 152 b.
- 3.Atoullloh Husayniy. Badoyi’u-as-sanoyi’. Forschadan Alibek Rustamov tarjimai. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1981. - 400
- 4.Navoyi asarlarining shartli qisqartmalari;
SI- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Sakizinchi jild.Xamsa. Saddi Iskandariy. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluku Ajam. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 710 b.
HA- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Oltiinchi jild.Xamsa. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 806 b.
LM- Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.Yettinchi jild.Xamsa. Layli va Majnun. Sab’ai sayyor. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 693 b.
LT- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.To‘qqizinchi jild. Lison ut tayr.Majolis ul-nafois.Mahbub ul-qulub.Munshaot.Vaqfiya.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 766 b.
FSH — Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Oltiinchi jild.Xamsa. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 806 b.
LT- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Tzo‘qqizinchi jild.Lison ut- tayr.Majolis ul-nafois.Mahbub ul-qulub. Munshaot. Vaqfiya. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2011. - 806 b.
G‘S - Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.Birinchi jild.Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2011. - 801 b.
BV- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.Uchinchi jild.Xazoyin ul-maoniy. Badoe’ ul-vasat. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2011. - 761 b.
FK- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.To‘rtinchi jild.Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi -nashriyot matbaa uyi, 2011. - 837 b.
NSH- Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.Ikkininchi jild.Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2011. - 769 b.

FE'L ASOSLI GAPLARNING KONTRAGENT VALENTLIGI

Ravshanxo'ja Rasulov,
filologiya fanlari doktori,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada fe'l asosli gaplarning kontragent valentligi haqida gap boradi. Kontragent valentligining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: fe'l, valentlik, agens, kontragent, aktant.

Tilshunos Ch.Fillimor tomonidan kiritilgan kontragent termini [Апресян Ю.Д. 127] (1969) fe'lda qayd etilgan jarayonning ikkilamchi bajaruvchisini ifoda etadi. Kontragent so'zi ma'nosida fe'ldan anglashilgan holatni (yoki harakatni) yuzaga keltiruvchi shaxs ifodalanadi. Demak, bu holda kontragent bilan agens mohiyatan o'zaro mos, muvofiq bo'ladi. Haqiqatan ham bajaruvchi xarakterdagi bu parallellik mantiqiy asosga egaligi bilan ajralib turadi, ya'ni fe'l ma'nosida qayd etilgan holatning bajaruvchisi (protssessori) faqat agens emas (agens akti), shuningdek, kontragent hamdir (kontragent akti). Agens va kontragent holatning bajaruvchisi, uni o'zida moddiylashtiruvchi aktant bo'lib reallashadi. Aniqrog'i, agens va kontragent - subyekt, ayni vaqtda, obyekt xarakterida ham bo'ladi. Ammo agens va kontragentning fe'lda aks etgan jarayonning bajaruvchi sifatidagi o'xshash faoliyati — kontragentning mantiqiy — semantik jihatdan agensga o'xshashligi kommunikativ jiddiy farq qilishiga ko'ra o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi. Shunga ko'ra ular boshqa — boshqa aktanlar sifatida baholanadi.

Y.D.Apresyan ta'biri bilan aytganda, "...bu ikki aktantning (agens va kontragentning - R.R.) faoliyati bir - biriga mos kelmaydi: predikat kontragent faoliyatini emas, butunlay faqat subyekt (agens R.R.) faoliyatini tasvirlaydi" [Апресян: 127, Слюсарева: 107]. Chunki subyekt va predikat munosabati hukmning asosidir. Qolaversa, bu munosabat grammatik ega va kesim aloqasidir, gapdir. Bizningcha, shunga ko'ra predikat subyekt (agens) faoliyatini xarakterlaydi.

Agens va kontragent orasidagi farq quyidagi fikrda yana ham aniq bayon etiladi: "Kontragent valentligi ko'rsatuvchi shaxs... agens valentligi qayd etuvchi shaxsdan farqli holda mustaqil emas" [Кычкараев: 30]. Demak, kontragent mantiqiy — semantik jihatdan hukmning - gapning asosini (yadrosini) bevosita tashkil qiluvchi hisoblanmaydi. Uning kommunikativ faolligi o'z-o'zidan ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu semantik — grammatik jihatdan qat'iy tasdiqlanadi. Kontragent valentligini reallashtiruvchi so'z sintaktik jihatdan fe'l predikatni xarakterlovchi bo'lak (tobe component) sifatida mustaqillikka ega bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, kontragent valentligiga ega fe'l kesimli sintaktik birliklardan maqsad agensning holatini ko'rsatish — uning fe'lda ifodalangan holatning asosiy bajaruvchisi ekanligini qayd etish, tema xarakteridagi mantiqiy subnekt (agens) — bosh bo'lakka xos rema xarakteridagi belgi — xususiyatlarni "ko'rsatish", tema — rema munosabatini konkretlash va shu haqda muayyan axborot berishdir. Demak, agens va holat orasidagi aloqa faol, kuchli bo'lsa, kontragent va holat orasidagi aloqa esa unga nisbatan faolsiz, kuchsizdir. Agens yetakchi, kontragent agensga ergashuvchi, unga "taqlid qiluvchi"dir. Agens fikrning diqqat markazidagi asosiy, yetakchi aktant bo'lsa, kontragentning yetakchiligi nisbiydir. U agensga nisbatan "tobe", ammo lokalis, obyekt, adresat, holat va sabab kabi aktantlarga nisbatan esa "hokim"dir. Kontragentning faolligi agens faolligining davomi sifatida yuzaga keladi. Shuningdek, kontragent agensga "tegishli" - u bilan birgalikda reallashishiga ko'ra xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, agens holati kontragentga "namuna" sifatida voqe bo'ladi. Anig'i, agens holati mantiqan kontragentga o'tadi, unda davom etadi. Ammo aksincha emas.

O'zbek tilidagi holat fe'llarida agensni anglatuvchi so'z bosh kelishikda (nominativda), kontragentni qayd etuvchi so'z esa ot (ba'zan olmosh) + bilan qolipidagi analitik shaklda kelishiga ko'ra ajralib turadi. Ko'rinadiki, agens valentligining realizatori bosh bo'lak, kontragent valentligining realizatori esa ikkinchi darajali bo'lak bo'lishiga ko'ra ham o'zaro farqlanadi.

Agens valentligini reallashtiruvchi so‘z nutqiy joylashishiga ko‘ra kontragentga nisbatan propozitsiyada, kontragent valentligining realizatori esa doimo postpozitsiyada kelishiga ko‘ra ham farq qiladi.

Agens fe‘l predikatda ifodalangan holatning subyekti (predikativ birikma) — sintaktik gapdagi mutlaq hokim komponent bo‘lsa, kontragent ham fe‘l predikatdagi holatning subyekti, ammo sintaktik kesimga nisbatan mutlaq tobe komponent (obyektli birikma) hisoblanadi.

Agens va kontragent aktantlar faoliyatida aktiv, asosiy bajaruvchiga nisbatan asosiy agens [Ахманова О.С.: 31], unga nisbatan passiv, asosiy bo‘lmagan agensga — kontragentga nisbatan ikkinchi darajali agens terminini qo‘llash uning logik — semantik va grammatik mohiyatiga to‘la mos keladi.

O‘zbek tilidagi holat fe‘llari kontragent valentligining realizatori — analitik tuzilishdagi nutq birligi semantik jihatdan akad. A.N.Kononov ta‘biricha “komitativ munosabat” ifodalaydi [Кононов: 359]. Kontragentni reallashtiruvchi so‘z agens holatini birgalikda, hamkorlikda amalga oshirgan, shu jarayonda faol qatnashgan shaxsni bildiradi. Qiyoslang: Tojixon bolalari bilan turibdi (A.Qahhor). Demak, komitativ munosabat kontragent valentligi realizatorining semantik asosini tashkil qiladi. Bu ham ekstralingvistik, ham semantik — sintaktik tasdiqlanadi.

Shunisi xarakterliki, analitik formada — kontragent valentligi realizatorida ifoda etilgan birgalik ma‘nosi bevosita holat fe‘lining birgalik nisbati bilan semantik munosabatga kirishadi. Anig‘i birgalik ma‘nosini anglatuvchi fe‘lning birgalik nisbati va komitativ munosabatning nutqiy ifodasi mazmun planiga ko‘ra o‘zaro bog‘lanadi. Bundan esa kontragent valentligi realizatori bilan birgalik nisbatidagi holat fe‘lining o‘zaro munosabati masalasi yuzaga keladi.

SHuni ta‘kidlash kerakki, birgalik ma‘nosiga ega kontragent realizatorini ma‘no imkoniga ko‘ra biriktiruvchi holat fe‘llari nutqda faqat aniq nisbatda qo‘llanishiga ko‘ra xarakterlanadi. Demak, valentlik munosabati fe‘lning muayyan nisbat shaklida bo‘lishiga ko‘ra yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, aniq nisbatdagi holat fe‘ligina kontragent valentligiga ega bo‘ladi. Qiyoslang: Xotini o‘lib, ikki yosh bola bilan qolibdi (S.Ahmad).

Kontragent valentligi realizatori bilan birgalik nisbatidagi holat fe‘lining o‘zaro bog‘lanishi formal — nazariy jihatdangina, semantik — sintaktik jihatdan esa ushbu semantik sintagmalarda holat fe‘lining birgalik emas, balki aniq nisbatda bo‘lishi qonuniydir. Chunki kontragent valentligi realizatorining — analitik formaning birgalik ma‘nosini ifodalashi uning nutqda bilan ko‘makchili shakllanishidan yuzaga keladi. Aytmoqchimizki, komitativlik ma‘nosi holat fe‘lining birgalik nisbatida kelishi bilan bog‘liq emas. Shuningdek, kontragent asosiy agens ham emas. Birgalik nisbatidagi fe‘l asosiy agens bilan — uning birdan ortiq tipi bilangina bog‘lanadi. Chunki uning bosh, asosiy vazifasi agensni tasvirlash, uning rema qismini hosil qilishdir.

Demak, holat fe‘lining birgalik nisbatida qo‘llanishi kontragentni emas, balki agens realizatorining ko‘plik shaklida kelishini talab qiladi. Fe‘l birgalik nisbatining mantiqiyliqi bevosita asosiy agensning miqdoriy ortiqqligi bilan o‘lchanadi. Chunki fe‘lning birgalik nisbati agens vazifasidagi logik sub’ektlarning birgalikdagi faoliyatini ifoda etadi.

Kontragent valentligini reallashtiruvchi so‘zning birgalik ma‘nosi esa, aytilganidek, bevosita uning analitik formada shakllanishidan yuzaga keladi. Kontragent faoliyati agens faoliyatiga nisbatan qo‘shimcha, ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda, kontragent realizatoridagi birgalik ma‘nosi agens faoliyatiga qiyosan olinganda, yana ham konkretlashadi. Shuning o‘zi ham kontragentning fe‘l predikatda ifodalangan holatga munosabati agensga nisbatan faolsizligini ko‘rsatadi. Chunki kontragentning faoliyati agens faoliyatiga ko‘ra, u orqali, diqqatga sazovor bo‘ladi.

Agensning holat fe‘lli sintaktik konstruksiyalarda faolliqi, miqdoran minimalligi, kontragentning ham yetakchisiga “moslashishi” va analitik tuzilishda kelishi ularning holat fe‘lining birdan ortiq, ammo teng huquqli bo‘lmagan aktantlari ekanligini ko‘rsatadi. Aytilganidek, birgalik nisbatidagi holat fe‘li mantiqiy ravishda agensning birdan ortiqqligini talab qiladi. Bu — aksioma, ammo kontragent analitik tuzilishda — komitativ munosabatda — realizatorida ifodalangan shaxsning miqdoridan qat’iy nazar birgalik nisbatidagi holat fe‘li, shuningdek, aniq nisbatdagi holat fe‘li bilan bevosita bog‘lanadi. Uning semantik-morfologik o‘zgarishi shart emas. CHunki kontragent

ikkinchi darajali bajaruvchidir. Qiyoslang: Turdi ikkita bola bilan turibdi (F. Musajonov). Turdi (va Ahmad) ikkita bola bilan turishibdi.

Fe'l birgalik nisbatida qayd etilsa, unga birikuvchi agens va kontragent valentliklarining realizatorlari u bilan semantik — grammatik moslashadigan bo'lsa, bu holda kontragent yo'qoladi, ya'ni analitik formaning bilan komponenti ellipsisga uchraydi. Kontragent realizatori esa bosh kelishikli shaklda agensga o'tadi. Gapda u kabi mutlaq hokim komponent sanaladi, fe'l predikat tomonidan xarakterlanadi. Bu holda semantik — grammatik teng huquqli birdan ortiq faol bajaruvchilar yuzaga keladi. Ularning realizatori birgalik nisbatidagi holat fe'lining birdan ortiq ("uyushgan") agensini ifodalaydi. SHundagina semantik — sintaktik to'g'ri, fikr ifodalash jarayoniga to'la muvofiq nutq birligi (gap) yuzaga keladi. Qiyoslang: U onasi bilan ... qoldi (Mirmuhsin). U, onasi ... qolishdi.

Demak, fe'l birgalik nisbatida shakllanganda, agens polisubjekt xarakterida bo'lishi yoki kontragent agensga o'tishi, grammatik bosh kelishikda qayd etilishi shart. Bu holda agens va kontragent (agens) faoliyati birgalikda amalga oshishi, muayyan holatni birgalikda, hamkorlikda bajarishi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z-o'zidan holatning bir necha shaxs tomonidan bajarilishini agnatuvchi birgalik nisbatining semantik asosini tashkil qiladi. Binobarin, birgalik nisbatida ifoda etiluvchi holatning birdan ortiq shaxs ishtirokida bajarilishi aslida agensga — sintaktik egaga qaratilgan fikrdir. Shuni shaxs xarakterliki, kontragentni ifoda etuvchi so'zlar gapda doimo sintaktik reallashgan bo'ladi. Ularning sintaktik reallashmasligi mumkin emas. Chunki kontragentning gap konstruktsiyalarida sintaktik reallashmasligi kontragent valentligini butunlay yo'qotadi. Predikat esa, asosan, agensni xarakterlagani uchun nutqda qayd etilmagan kontragentni ifodalamaydi. Demak, kontragentning sintaktik reallashishi shart, mutlaqo zarurdir.

Kontragent valentligiga ega holat fe'lli sintaktik konstruktsiyalarda agens ba'zan ifodalanmaydi. Ammo uning kim yoki nimaligi, qaysi shaxsligi predikatdan — shaxsli fe'ldan anglashilib turadi. Sintaktik reallashmagan agens potentsial imkoniyat bo'lib, tema xarakteridagi presuppozitsiyani hosil qiladi. Demak, agens fe'l predikatdan uning subyekti sifatida muayyan holati bilan anglashilib turadi.

So'z, ba'zan so'z birikmasi orqali reallashuvchi kontragent aktanti o'zbek tilidagi "davomli", "ijro" va "fiziologik" integral semali holat fe'llarida kuzatiladi. Chunki bu leksik — semantik guruh holat fe'llari semantik imkoniyatga ko'ra kontragent (shaxs) bilan bog'lanishiga ko'ra ajralib turadi. Ushbu holat fe'llari gap konstruktsiyalarida kesim vazifasini o'taydi.

O'tirmoq, yotmoq, qolmoq, turmoq "davomli", qo'riqlamoq "ijro" va qizarmoq, terlamoq "fiziologik" integral semali holat fe'llarining shaxs aktantli kontragenti otda kuzatiladi. Ot ba'zan ko'plik va egalik qo'shimchasi bilan shakllanishiga ko'ra miqdoriy ortiq va tegishlilik ma'nosini ham beradi. Obyektli birikma komponentlarining birikuvi uchun "shaxs" semasi klassemata vazifasini o'taydi. Masalan: Chol o'g'li bilan o'tiribdi (O'z. xalq ertak). ...divanda Shukur Alfiya bilan yotardi (N. Normurodov). U tun bo'yi mijja qoqmay qishloqni aylandi, drujinasi bilan yo'llarni... qo'riqladi (H.G'ulom). Savdogar ikki o'g'li bilan terlab ketibdi (O'z. xalq ertak). U do'stining bolalari bilan birga ko'chada turibdi (G'. Jahongirov). U onasi bilan birga qoldi (Mirmuhsin).

Oxirgi gap konstruktsiyasida komitativ munosabatni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish, subyektning diqqat — e'tiborini shunga tortish maqsadida kontragent valentligining realizatori bilan kontakt postpozitsiyada birga so'zi qo'llanadi [Yana qarang: Кононов: 299, Шоабдурахмонов va b. 406]. Bunday gaplarda kontragent valentligi realizatori — analitik forma birgalik tushunchasini kuchli, ortiq darajada anglatishiga ko'ra xarakterlanadi. Birgalik ma'nosi davomiylik xususiyatga ham ega bo'ladi. Chunki birga so'zi "bir bo'lib", "qo'shilishib", "birgalikda" [O'zbek tilining izohli lug'ati, 1 tom, 117] kabi ma'nolar bilan keladi. Yana qiyoslang: Ular bilan birga maydonda turibdi (Toshkent oqshomi).

"Davomli" integral semali yotmoq fe'lining kontragenti vazifasidagi shaxsni bildiruvchi ot atributiv birikmada kelib, izohlanmish sifatida shaxs ma'noli izohlovchiga ega bo'ladi. Bunda izohlovchi + izohlanmish bir butun holda kontragent valentligining realizatori hisoblanadi. Masalan: Mana bugun ham Mansur o'z o'rtog'i Slavka bilan qirg'oqda yotibdi (Shuhrat).

“Davomli” integral semali turmoq holat fe’lining kontragenti reallashgan ot birdan ortiq so‘z formasida har biri shaxs ma’noli izohlovchiga ega bo‘ladi. Bunday sintaktik konstruksiyada reallashgan kontragent (shaxs) agensga tegishliligi va ta’kidlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu ma’no munosabati izohlanmish sifatidagi egalik affiksli so‘z formasidan, gap mazmunidan ifodalanib turadi. Bu holda ham birgalik ma’nosi kuchayadi. Masalan: U xotini Malika, o‘g‘li Qosim bilan tashqarida ... turibdi (S.Yunusov).

Turmoq holat fe’lining shaxs aktantli kontragenti kishilik olmoshlarida ham qayd etiladi. Ba’zan ayni olmoshlar ko‘plik affiksli shaklda ham keladi. Masalan: Sen bilan turibman bu kun betma-bet (A. Oripov). Ular bilan birga maydonda turibdi (Toshkent oqshomi).

Yuqorida tahlil obyekti bo‘lgan kontragent valentligiga ega holat fe’llariga — obyektli birikmalarga boshqaruv aloqasi nuqtai nazaridan yondoshish ham maqsadga muvofiqdir. Chunki fe’l boshqaruvida kuchli va kuchsiz boshqaruvni farqlash qabul qilingan [Панов, 1979: 25].

Tilshunoslikka prof. A.M.Peshkovskiy tomonidan kiritilgan kuchli va kuchsiz boshqaruv [Пешковский, 1956: 285] jihatidan turmoq, qolmoq, yotmoq, o‘tirmoq “davomli”, qo‘riqlamoq “ijro”, qizarmoq va terlamoq “fiziologik” integral semali holat fe’llari (hokim komponent) kontragentning realizatori — analitik forma (tobe komponent) bilan kuchsiz boshqaruvda bo‘ladi. Chunki hokim komponentlar (holat fe’llari) bilan tobe komponentlar (kontragent realizatori) orasidagi o‘zaro bog‘lanish, aloqa zaruriy hisoblanmaydi. Bu bog‘lanish hokim komponentlarning — holat fe’llarining leksik — grammatik xususiyatlaridan bevosita kelib chiqmaydi [Розенталь, 1976: 500]. Boshqacha aytganda, kuchsiz boshqaruvda hokim va tobe so‘zlar orasidagi munosabat fakultativ xarakterda bo‘ladi. Chunki turmoq, yotmoq qolmoq o‘tirmoq, qo‘riqlamoq, terlamoq kabi fe’llarning leksik ma’nosi ularda tobe komponentning (masalan, kontragent valentligi realizatorining) bor yoki yo‘qligi bilan belgilanmaydi [Панов, 1979: 13. Кононов, 1980: 216]. Demak, tobe komponentning (otning ...) fe’l bilan ana shunday bog‘lanishi, aloqasi kuchsiz boshqaruv hisoblanadi [Пешковский, 1956: 286]. Yana qiyoslang: U eshik tagida ukasi bilan turibdi (O‘z. xalq. ertak.).

Xullas, 1) kontragent valentligining realizatori ma’nosida holatni bajaruvchi haxs ifodalanadi. U agensga nisbatan ikkinchi darajalibajaruvchisanaladi; 2) o‘zbek tilidagi holat fe’llarining kontragentini reallashtiruvchi so‘zning ot (ba’zan olmosh) + bilan modelli analitik formada shakllanishi tipik bo‘lib, u (kontragent realizatori) sintaktik jihatdan vositali to‘ldiruvchi hisoblanadi; 3) kontragent valentligining realizatori agensga nisbatan doimo postpozitsiyada kelishiga ko‘ra fe’l kesim bilan bog‘lanib, ob’ektlilik birikmani tuzadi; 4) kontragent valentligini reallashtiruvchi analitik forma komitativ munosabat ifodalaydi; 5) kontragent valentligiga ega holat fe’llari faqat aniq nisbatda keladi; 6) komitativ munosabat ifodalovchi kontragent valentligining realizatori va holat fe’lining birgalik nisbati orasidagi munosabat o‘ziga xosdir; 7) gapda kontragentni ifoda etuvchi analitik forma doimo sintaktik reallashgan bo‘ladi. Uning sintaktik reallashmasligi kontragent aktantining butunlay yo‘qolishiga olib keladi; 8) o‘zbek tilidagi “davomli”, “ijro” va “fiziologik” integral semali holat fe’llari kontragent valentligiga egadir. Ushbu holat fe’lli birikmalar kuchsiz boshqaruvni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 1 tom. 2006 yil.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М., 1956.
3. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. — М., 1976.
4. Панов М.В. Современный русский язык. М., 1979.
5. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв). Л., 1980.
6. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика.
7. Н.А.Слюсарева. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка.
8. Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке.
9. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.
10. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.

O'ZBEK DRAMALARIDA METAFORALARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nurislom Xursanov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Renessans ta'lim universiteti dotsent v.b.

Annotatsiya

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan metaforaning ikki tomonlamaligi, bir tomondan, u xalqning lingvistik tajribasidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, til ijodkorligi uchun imkoniyat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Mazkur maqolada o'zbek dramatik asarlarida qo'llanilgan metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: drama, metafora, kommunikatsiya, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq.

Til o'yini, neologizmlar tilning estetik tomonining takomillashuvini qayd eta oladi. Ikkala holatda ham metafora atrofimizdagi dunyo va undagi tajribamizning dirijyori ekanligi ayon bo'ladi. Metaforaning asosiy vazifasi lingvistik va madaniy jamiyat vakillariga tanish olamga boshqacha qarash imkoniyatini berish, shu bilan birga tanish obyektlarda tashqi obyektlar va yangi qirralarni kashf qilishdir.

Tilshunoslar, tarjimonlar, faylasuflar, psixologlar, filologlar, kognitiv olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar metafora tilning rivojlanishi va uning imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, fikr va tajribani uzatishda ulkan rol o'ynashini isbotlaydi. O'tmish va hozirgi boy madaniy va tarixiy tajribani umumlashtirgan holda odamlar ko'p hollarda metaforalarni qo'llash orqali muloqotga kirishadilar, bu borada o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va tajribalarini oshkor qilish va tinglovchiga yetkazishga yordam beradi.

Metaforani o'rganishga kognitiv-pragmatik yondashuv doirasida asosiy e'tibor muallif va qabul qiluvchi faoliyatining shaxsiy va ijtimoiy jihatlariga qaratilgan. Shu munosabat bilan badiiy adabiyotda metafora tasvirlanganda kommunikativ jarayonning shaxsiy va ijtimoiy-madaniy jihatlarini hisobga olinadi. Bu uchta asosiy komponentni o'z ichiga olgan ikkilamchi nominatsiya belgilarini o'rganish zarurligini anglatadi: kognitiv, lingvo-pragmatik, lingvokulturologik. Metaforada aks ettirilgan eng muhim jarayonlar hayotiy tajribani kontseptuallashtirish, ya'ni bilimlarning minimal tuzilmalarini taqsimlash va turkumlashtirish, ya'ni ularni kategoriyalarga birlashtirishdir [Алефиренко, 2021-271]. Bu lingvokognitiv jarayonlar konsepsiyalarning paydo bo'lishi va shakllanishida ishtirok etadi va metaforani lingvopragmatik jihatdan o'rganish imkoniyatini belgilab beradi.

Dramalar matnini tahlil etish jarayonida tadqiqotchi nutqning manologik, dialogik va polilogik ko'rinishlarini tahlil uchun olishi mumkin. Dramalar matni asosan nuqtning ushbu uch ko'rinishi asosida qurilgan bo'ladi. Tilshunos olim

L. Raupovanning qayd etishicha, dialogik nutq ham, monologik nutq ham uch ko'rinishda bo'lishi mumkin: ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq. Cho'lponning „Kecha va Kunduz“ romanida Miryoqubning „men“ bilan suhbat dialogik nutq xarakterida, lekin ifoda tarzi ichki nutq shaklida berilgan. Parallel nutq - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishidir. Bu nutq shakli ko'pincha qahramonlar o'rtasidagi dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga bo'lgan munosabatni bildiradi [Raupova, 2021:24].

O'zbek va ingliz dramatik diskursida tahlil uchun tanlangan matnlarda metafora pragmatik ma'nosining uchta asosiy jihatiga diqqat qaratish lozim [Демьянков, 1984:197-222]:

- 1) ma'lumot beruvchi, tavsiflovchi;
- 2) nazorat qilish (harakatlarni boshqarish, boshqalarning fikriga ta'sir qilish);
- 3) ekspressiv.

Ushbu hissiy muloqot misolida vijdon o'rniga metaforik shakllanishning guvohi bo'lishimiz mumkin, bildirilgan har bir fikr emotsional semantikaga ega. Bu hissiy muloqotning o'ziga xos parametrlari,

birinchidan, sabab — qahramonning hayajonlanish holati, his-tuyg‘ular bosimi, ikkinchidan, obyekt, hissiy rag‘batlantirish, ya’ni bu metaforik shakllanishni yuzaga keltiradigan xarakterdir [Khursanov, 2022:26]. Shunday qilib, taqdim etilgan metaforadan foydalanishning maqsadi ma’ruzachining boshqa xarakterga bo‘lgan hissiy munosabatini va ushbu ma’lumotni qabul qiluvchiga hissiy ta’sirini tushuntirishdir. Metafora nutqda lisoniy birlik sifatida qo‘llaniladi va o‘ziga xos lingvistik yukni tashishga xizmat qiladi. Shuning uchun metaforaning tildagi rolini aniqlash uchun uni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Rus tilshunosi V.K.Xarchenko metaforaning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi [Харченко, 2008:224]:

Nominativ funksiya: metaforalarning nominativ funksiyasi kontesktida yaqqol namoyon bo‘ladi. Nominativ funksiyaning voqelanishi ham an’anaviy tasvir vositalari, etnik xoslik elementlari bilan bevosita bog‘liq. Masalan, tahlilga tortilgan dramalarda quyidagi nominativ funksiya bajargan metaforalar aniqlandi:

Usta Boqi: Mamlakatimizning territoriyasi xuddi shu yerga kelganda tugaydi. U yog‘i boshqa mamlakat. Mana shu parda chegara. U yog‘i xotin poshshoning yurti. Bu poshsholikning o‘z qonuni, o‘z urf-odatlar bor (Said Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni. 1-parda).

T o ‘ x t a. Yig‘lamang. Ammo-lekin bilasizmi, oyimning unvonlari qanaqa?

N i g o r a. Bilaman, shaharda u kishini General kampir deb atashar ekan.

Axborot funksiyasi: axborotning birinchi xususiyati metafora orqali uzatilgan tasvirning butunligi, panoramasining yorqinligini namoyon etishdan iborat. U panoramali tasvirning vizual tabiatiga tayanadi va ma’lum bir leksikaning gnostik mohiyatiga yangicha qarashga majbur qiladi. Har qanday metafora uchun asos, ya’ni xomashyo sifatida, metaforik ma’nolarni yuzaga kelshida asos bo‘lgan aniq so‘zlar majmui olinadi. Metaforaning shakllanishi, paydo bo‘lishi uchun inson keng lug‘at boyligiga ega bo‘lishi kerak.

Mnemonik funksiya: metafora ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. U ilmiy-om-mabop adabiyotlarda tushuntirish funksiyasini bajarish bilan bir qatorda xalq topishmoqlari, maqollari, adabiy aforizmlaridagi janr yaratish va falsafiy tushunchalar, ilmiy nazariyalar va gipotezalardagi evristik vazifalarni ham yoritishga xizmat qiladi.

F a r m o n. Hukumatnikini joni qattiq. Yubormaysanmi? Otaginang shundoq Azim sher bo‘lib bir gapimni ikki qilgan emas.

Matn hosil qilish funksiyasi: metaforaning matn yasovchi xususiyatlari uning turtki berish, kengaytirish, ya’ni tushuntirish va davom ettirish qobiliyati deb ataladi. Matn hosil qilish effekti tasvir panoramasini, metafora kabi axborot xususiyatlarining natijasidir, uning tuzilishidagi obrazli aks ettirishning plyuralizmi yangi ma’nolar hosil bo‘lishi natijasida shakllanadi.

Janr hosil qiluvchi funksiyasi: metaforaning ushbu fuksiyasi muayyan janrni yaratishda ishtirok etuvchi va hosil qiluvchi vazifasi sifatidagi xususiyatlari tushuniladi. Polyak tadqiqotchisi S.Gayda janr va uslub o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bor deb hisoblaydi. Darhaqiqat, topishmoq va maqollar, hikoya va madrigallar, lirik she’rlar va aforistik miniatyuralar uchun metafora zarurdir.

Hissiy-baholovchi funksiya: metafora nutqni qabul qiluvchiga ta’sir qilishning zaruriy vositasidir. Matndagi yangi metafora nutqning emotsional va baholovchi reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Konspirator funksiya: bu metafora natijasida yuzaga kelgan ko‘chma ma’noni yashirish uchun ishlatiladigan funksiya sanaladi.

Diskurs va uning tahlili bo‘yicha qator izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar Sh.Safarov, A.V. Zelenshikov, N. Mahmudov, Z. Pardayevlar diskurs nazariyasining muhim tushunchalari va ularning talqini bo‘yicha o‘z mulohozalarini ilgari surishgan [Safarov, 2008:320; Зеленшиков, 1997:208-209; Махмудов, 1986:29; Пардаев, 2013:104]. Metaforani muhokama qilish ko‘pincha metafora o‘z su-byektlarini „ramka“ga solishini kuzatish bilan boshlanadi, bu esa tinglovchilarni ularni har qanday muayyan taklif mazmunidan tashqariga chiqadigan ma’lum bir „nur“da „ko‘rish“ga olib keladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, metafora keng voqelikka ishora qiluvchi signal sifatida voqelanadi va keyingi tafsilotlar mundarijasini belgilaydi.

O'zbek tilidagi dramatik diskursda voqelangan metaforalar diskursning presuppozitsiya, implikasiya singari elementlarining yuzaga chiqishida faol ishtirok etadi. Bunda metaforalarda tasvir obyekti o'zbek mentaliteti doirasida faol qo'llanadi hamda axborot tashish, ekspressivlikni oshirish funksiyalarini bajaradi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Raupova L.R. Qo'shma gap diskursning tarkibiy qismi sifatida. Monografiya. — Toshkent: "MALIK PRINT CO" 2021. — B. 24.
2. Алефиренко Н. Ф. Фразеология в свете современных лингвистических парадигм / Н. Ф. Алефиренко — М.: Элипс, 2008. — 271 с.
3. Демьянков, В. З. О формализации прагматических свойств языка / В. З. Демьянков // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. — М.: ИНИОН АН СССР, 1984. — С. 197—222.
4. Зеленшикова А. Б. Пропозиция и модальность. Изд-во С.-Петербург, ун-та, 1997. -С. 208-209.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1986. — B. 29.
6. Khursanov NI. The Ratio of Verbal and Non-verbal Components in Dramatic Discourse (on the Example of Works in Uzbek and English). Abstract of Dissertation for PhD. Andijan State University. Andijan. — 26. 2022.
7. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. — Samarqand. 2013. B-104. 37;
8. Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. Toshkent-2008. — B. 320-119.

AMALIY TILSHUNOSLIK OBYEKTINING TARIXIY ILDIZLARI

Muazzam Dedaxanova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Bugungi kunda tildan amaliy foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani sababli tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlar jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur maqolada amaliy tilshunoslik oldida turgan ana shu dolzarb masalalarning yuzaga kelishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: strukturalizm, deskriptiv tilshunoslik, antropotsentrik paradigma, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik.

XXI asrga kelib, lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish, til ta'limida nazariyani amaliyotga bog'lash ko'nikmasini rivojlantirish kabi masalalar dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tildan amaliy foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi natijasida, yangi asr tilshunosligi zimmasiga yuklatilayotgan ijtimoiy buyurtma sifatida, amaliy tilshunoslik muammolari bilan shug'ullanishga jiddiy kirishish talab qilina boshlandi. Bu esa jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan o'zbek substansial-pragmatik tilshunosligi, korpus tilshunosligi, o'quv lug'atchiligi, amaliy leksikografiya, lingvoma'naviyatshunoslik, lingvistik ekspertologiya kabi zamonaviy fan yo'nalishlarining yaxlit ilmiy maktab sifatida shakllanishiga olib keldi.

Aslida ushbu masalalarni yoritishga bo'lgan ehtiyoj bugun kunda yangilik sifatida yuzaga kelgani yo'q. Uning tarixiy ildizlari sistem-struktur paradigmanning asoschisi F.de Sossyurga borib taqaladi. "F.de Sossyurning fikricha, til "o'z ichida va o'zi uchun" o'rganiladi. Ya'ni til strukturasi va til sistemasi boshqa sistemalardan izolyasiyalangan holda sinxron aspektida tadqiq etiladi" [4].

Yaxlitlik va sistemaviylikni tadqiqotning muhim tamoyili sifatida belgilovchi sistem-struktur paradigma XX asr boshlaridan Boduen de Kurtene hamda F.de Sossyurlarning g'oyalari asosida shaklla-

na boshladi. Keyinchalik strukturalizm turli maktablarga ajraldi: funksionalizm (Praga strukturalizm maktabi), glossematika (Kopengagen strukturalizm maktabi), deskriptiv tilshunoslik (Amerika strukturalizm maktabi) [Qarang: Madjidova R.U., Muxitdinova X.S., Sultonova Sh.M., 2016.; O‘rinboyev B., Musayev A., 2022.]. Mazkur maktablar bilan bog‘liq bo‘lgan tamoyillar, shuningdek, distributsiya, transformatsiya, bevosita ishtirokchilar bo‘yicha tahlil, binar oppozitsiya singari ilmiy tadqiqot metodlari sistem-struktur paradigma ichidagi miniparadigmalar sifatida baholanishi mumkin [4].

Bugungi dolzarb masalalar borasida Amerika deskriptiv lingvistika maktabining ahamiyati alohida e‘tiborga loyiq. Amerikaning mashhur lingvisti va antropologi Frans Boas (1858-1942) ilmiy qarashlari asosida bu maktab 1933-1957-yillarda AQShda vujudga keldi. F.Boas Amerika hindularining tasviri grammatikasiga bag‘ishlangan asarlarida barcha tillarni tasvirlashning yagona tamoyilini inkor qilishga va aniq tilning o‘z mantiqi asosida, tilning “ichidan” induksiya yo‘li bilan o‘rganishga chaqirgan edi. F.Boasning ishini Eduard Sepir (1884-1939) hamda Leonard Blumfild (1887-1949) davom ettirdilar [Madjidova R.U., Muxitdinova X.S., Sultonova Sh.M., 2016: 38].

Sepir tilshunoslikda etnolingvistika yo‘nalishining shakllanishiga asos solgan bo‘lsa, L.Blumfild tilni tasvirlashning metodini psixologiyadagi bixeviorizm (hatti-harakat psixologiyasi) oqimiga mosladi. Shunga ko‘ra til so‘zlashish jarayonida qator fiziologik stimullar va reaksiyalar: qabul qilish, eshitish, tinglab tushunish, bunda tashqi ta‘sirning o‘rni va ahamiyati kabilardan iborat bo‘ladi. Mazkur olimlarning fikricha, til tashqi va ichki aloqalarga ega bo‘lgan signallar (xabarlar) sistemasi bo‘lib, u metalingvistika va makrolingvistika qismlaridan iborat. Ma‘lumki, metalingvistika tilning og‘zaki faoliyati: tashqi holatini o‘rganib, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, mentalingvistika, paralingvistika (til atrofidagi hodisalar, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar) kabi fanlarni birlashtiradi. Makrolingvistika ifodalar to‘g‘risidagi fan bo‘lib, matn (nutq bo‘lagi) bilan shug‘ullanadi. Matn bo‘laklari - fonema va morfemalar muayyan izchillik, ketma-ketlikdagi til birliklaridir. Aynan shu deskriptiv lingvistikani shakllantirdi. Deskriptiv lingvistika matnni har tomonlama tasvirlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosida distributsiya tushunchasi yotadi. Distributsiya muayyan til birligi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yoki mumkin bo‘lmagan kontekstlar yig‘indisi, ya‘ni gap bo‘laklarining bir-biriga nisbatan joylashish o‘rni, tarkibi, birikishi va qo‘llanish xususiyatidir. Ushbu qarashlar tilni sistema sifatida o‘rganish, til va nutqni farqlashga qaratilgan hozirgi zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi [Qarang: Madjidova R.U., Muxitdinova X.S., Sultonova Sh.M., 2016: 38-39].

Sistem-struktur paradigmada tilning yadrosi izchil o‘rganildi, endi tilning boshqa sohalar bilan aloqadorligini tadqiq etish masalasiga o‘tildi. Til va tafakkur, til va ruhiyat, til va jamiyat, til va madaniyat, til va mentalitet, til va kompyuter kabi yo‘nalishlarga doir izlanishlar amalga oshirila boshlandi. Bu munosabatlarni yoritish jarayonida “inson” markazda turadi, u o‘ziga xos “oltin ko‘prik” vazifasini o‘taydi. Shu jihatdan ushbu paradigma “antropotsentrik paradigma” deb nomlanadi. Ushbu paradigma asosida tilshunoslikda turli xil yangi fanlar yuzaga keldi: mentalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmlingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi. Shunga ko‘ra antropotsentrik paradigma o‘z ichida turli miniparadigmalariga bo‘linib ketadi: kognitiv paradigma, etnolingvistik paradigma, sotsiolingvistik paradigma, psixolingvistik paradigma, neyrolingvistik paradigma, lingvokulturologik paradigma, pragmatik paradigma [4].

Tilshunoslik XIX asrda “NIMA — tilshunoslik” sifatida “Til nima?” degan savolga javob bergan bo‘lsa, XX asrda u “QANDAY — tilshunoslik” sifatida “Til qanday tuzilgan?” degan muammoni hal etish bilan shug‘ullandi. XXI asrda esa tilshunoslik “NEGA — tilshunoslik” sifatida til hodisalari mohiyatini tushuntirish va talqin etish, ya‘ni “til germinenitikasi” muammosi bilan shug‘ullanmoqda [4].

Darhaqiqat, tilshunos olim B.Mengliyev ta‘kidlaganlaridek: “Til egalarining lisoniy imkoniyatlaridan pragmatik foydalanish samaradorligi masalalari bilan shug‘ulladigan o‘zbek amaliy tilshunosligining milliy xarakterdagi sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmlingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo‘nalishlari rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg‘un. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va globallashuv asrida o‘zbek tilining global til korpuslariga qo‘shiluvini ta‘min-

lash tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda" [Mengliyev B., 2019.]. Shunga ko'ra bugungi kunda tilni o'rganish va o'rgatish, savodxonlik, notiqlikka emas, tilni genderologik jihatdan tadqiq etish, nutq terapiyasi, pragmatik tahlil, professional muloqot, tahrir san'ati, tarjima masalasi, elektron lug'atlar va til korpusi yaratish, lingvistik ekspertiza kabi masalalar muammosini hal etish borasida ham amaliy tilshunoslik bilan bog'liq tadqiqotlarga talab ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madjidova R.U., Muxitdinova X.S., Sultonova Sh.M. Umumiy tilshunoslik" fanidan ma'ruzalar matni. 4-bosqich bakalavr talabalar uchun. Toshkent — 2016.
2. Mengliyev B. Jamiyat amaliy filologik tadqiqotlarga nechog'lik muhtoj? Kun.uz // 2019.22.08.
3. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma). — Toshkent, "Oltin kitob" nashriyoti, 2022.
4. Tilshunoslikda paradigma va uning kelib chiqishi (<https://azkurs.org/i-bob-tilshunoslikda-paradigma-va-uning-kelib-chiqishi.html?page=9>)

O'ZBEK TILIDA SINTAKTIK DERIVATSIYA USULLARI

A.Madaminov,
filologiya fanlari nomzodi,
Berdaq nomidagi QQDU dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ism MSBlari sodda SBlarining aniqlovchi yoki boshga gap bo'laklarini olib kengayishidan hosil bo'lishi haqida so'z boradi. Ism MSBlarining kontaminatsiya usul bilan yasalishi asosan, ot, fe'l qisman esa sifat, son, taqlid so'z va olmosh kabi so'z turkumlarining hokim bo'lak vazifasida kelgan holatlarida sodir bo'ladi. Maqolada ism MSBlarining kontaminatsiya usul bilan yasalishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: derivatsiya, kontaminatsiya, deskriptiv, hokim va tobe qismlar, qiyosiy, hokim bo'lak, atributiv munosabat, til birligi, sodda so'z birikmasi.

Ism MSBlari sodda SBlarining aniqlovchi yoki boshga gap bo'laklarini olib kengayishidan hosil bo'ladi. Chunki ular so'z kengaytiruvchilari sifatida hokim bo'lak vazifasidagi ism so'z turkumlarini har tomonlama deskriptiv tarzda aniqlashga qaratilgan. Masalan: "Tez yordam"ga qoyil bolish kerakki, o'n minut o'tar-o'tmas kattagina yog'och quti ko'targan ayol hamshirasi bilan Abrobnikiga yetib keldi ("Olmos kamar", B. 34). Bu gapda katta yog'och quti, ayol hamshira SBlari quti ko'targan sifatdoshi yordamida murakkab fikrni ifodalab, kontaminatsiya usuli yordamida murakkab otli so'z birikmasi hosil qiladi.

Ism murakkab SBlarining yasalishi ikki tomonlama yuz beradi. Chunki ular tarkibidagi hokim va tobe qismlar derivantlari fikrni aniqlash, to'ldirish maqsadida kengayib keladi. Ism so'z birikmalari quidagi xususiyatlarga ko'ra hosil bo'ladi:

a) sodda SBlarining tobe qismi kengayishi natijasida: Ehtimol, bunday tuyg'uni u murg'ak chog'i belanchakda yayrab yotganicha ona allasiga g'arq bo'lgan onlari ham kechirmagandir (H.Nazir). Bu yil erta bahorgi bug'doy har yilgidan mo'l bo'ldi. Keltirilgan misollarimizda: g'arq bo'lgan onlar, bahorgi bug'doy Blarining tobe qismi ona allasiga g'arq bolgan, erta bahorgi kabi tobe qismlarning kengayishi yordamida murakkablashdi;

b) sodda SBlarining hokim bo'lagi aniqlovchi vazifasidagi so'zlar hisobiga kengayishi natijasida. Bunday hollarda sintaktik derivatsiyaning konversiya usuli yuz beradi: Soldat bodom qovaqlari ostida chaqnaq turgan qop-qora ko'zlarini jalanglatib (Oybek). Og'irligi yetmish kilo keladigan bitta semiz arabi qo'chqor eltdim ("Qahqaha", B. 27). Keltirilgan misollarda hokim bo'lak vazifasidagi so'zlar gop-qora ko'zlar, arabi qo'chgor kabilar bilan murakkablashib, o'zidan oldingi so'zlar hisobiga yoyilib keladi. Natijada, tobe qism bilan yanada kengayib, murakkab so'z birikmasini hosil qiladi. Biz bu holda kon-

tominatsiya usuli bilan Blarining yasashini quidagicha ifodalashimiz mumkin: bodom qovoqlari ostida chaq nab turadigan qop-qora ko‘zlar, og‘irligi yetmish kilo keladigan bitta semiz arabi qo‘chqor kabi.

Demak, yuqorida keltirilgan misollarda ham murakkab SBlari sodda so‘z birikmalarining kengayishi tufayli hosil bo‘lgan sintaktik butunlikdir. Bu, albatta, so‘zlovchining biror shaxs yoki narsani, voqea-hodisalarni aniqroq ifodalashiga va bu yoyiq birikmani hosil qilgan so‘zlarning leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlarini ochib berishga bog‘liq bo‘ladi. Asosan, bu holat ularning hokim bo‘lak vazifasida kelgan so‘z turkumiga ham taalluqlidir. Ko‘pincha hokim bo‘lak vazifasida ot yoki ot vazifasidagi boshqa so‘z turkumlari kelsa, ular biror tushunchani ifodalash uchun aniqllovchi yoki boshqa so‘zlarni olib kengayadi. Agar fe‘l turkumiga oid so‘zlar kelsa, ular to‘ldiruvchi va hol vazifasidagi so‘zlar yordamida yoyilishi mumkin. Ammo barcha hokim bo‘lak vazifasidagi so‘zlarning kengayish imkoniyati bir xil darajada emas.

Ot va fe‘l turkumidagi so‘zlarning kengayishi imkoniyatiga qaraganda sifat va ravishlarning kengayish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Son, olmoshlarning ayrim turlari esa sodda so‘z birikmasining hokim so‘zi vazifasida kelganda ham, tobe bo‘lak vazifasida kelganda ham umuman aniqllovchilar olib kengaymaydi. [Расулов Р., 1992: 12.]

Demak, ism MSBlarining kontaminatsiya usul bilan yasashi asosan, ot, fe‘l qisman esa sifat, son, taqlid so‘z va olmosh kabi so‘z turkumlarining hokim bo‘lak vazifasida kelgan holatlarida sodir bo‘ladi. Asosan ular quidagi hollarda yuz beradi:

1. Hokim bo‘lagi sifat bilan ifodalangan ism MSBlarning yoyilishi. Sifat so‘z turkumining hokim so‘z vazifasida kelib MSBlarni hosil qilish xususiyatlari ancha chegaralangan. Faqat bu holat ayrim sifatlar doirasidagina yuz beradi: Bundan bo‘lim mudirining ham quvonchi cheksiz, yashi shogird yetishtirayotganidan xursand (“Tashvishli dunyo”, B. 153). Yoshi o‘ttizlarni qoralab borayotibdi-yu, hali on to‘rt kunlik oyday tiniq, juda yosh ko‘rinadi (“Tashvishli dunyo”, B. 46).

Misollardan ko‘rinadiki, yaxshi shogird yetishtirayotganidan xursand, o‘n to‘rt kunlik oyday tiniq kabi MSBlarining hokim bo‘lagi vazifasidagi xursand, tiniq kabi sifatlar kelib, ular so‘z kengaytiruvchilari sanalgan toldiruvchi va aniqllovchili MSBlari hosil qilgan. Bunday SBlar derivatsiyasida operator vazifasini sifatdoshning yotgan va -day, -dek o‘xshatish shakllari bajaradi. Unda hokim bo‘lak vazifasidagi sifat ma‘no jihatdan yana ham konkretlashadi: Uning ovozi xuddi sayroqi qushning ovoziday yoqimli, suvday tiniq, baxmalday mayin edi (“Ko‘hna dunyo”, B. 45) kabi. Hatto hokim so‘z vazifasida kelgan yasama sifatlar ham -day affiksi yordamida o‘zidan oldingi sifatdosh bilan yoyilib MSBlarini hosil qiladi. Ular ko‘pincha konversiya usuli orqali birikib, murakkab tushunchalarni anglatadi. Masalan: Shukurov go‘yo dam olishga emas, rasmiy ish bilan kelgan odamday, qoshlarini chimirib, kulimsirab kelardi (“Diyonat”, B. 246). Aslida MSB hosilasi rasmiy ish bilan kelgan odam otli birikma bolib, ular bir butun holda -day affiksi yordamida o‘xshatish ma‘nosini hosil qiladi.

Bunday o‘shatish ma‘nosini ifodalaydigan MSBlar nutqimizda juda kop bolib, ular asosan -day, -dek derivantlari yordamida yuzaga keladi. Masalan: Qoratosh yonbag‘riga tirmashayotgan ayiqdek, mashina karnay-surnay nag‘masi ustiga telba yirtqichdek yelib borardi (Sh.X.).

Xullas, hokim bo‘lagi sifat bilan ifodalangan MSBlarning tobe qismi atributiv munosabatni ifodalashi jihatidan otli murakkab so‘z birikmalaridan farq gilmaydi.

2. Hokim so‘zi olmosh bilan ifodalangan MSBlar derivatsiyasi. Bunday SBlarning tobe qismi hokim bolakni aniqlab va to‘ldirib keladi. Masalan: Mayli, omon bo‘lsin, tangrimdan tilaganim shu (O‘.H.). To‘rtinchi kursdagi o‘ziga ishongan yigitlarning hammasi Faridaga kongil qoygan edi (O.H.). Ko‘pincha bunday MSBlari tarkibidagi tobe so‘zlar garatqich kelishigi -ning operatori yordamida hokim so‘z hisoblangan olmoshni kengaytirib keladi: “Darvoqe, eshitganman, xaloyiqni isyonga boshlagan mard yigitlarning biri u bo‘lgan edi”. (O.H.). “Qog‘ozda bo‘sh ko‘ringan joylarning hammasi band”, - dedi (P.Qodirov). Ba‘zan esa chiqish kelishi -dan operatori yordamida ham hokim bo‘lagi olmosh bilan ifodalangan MSBlar hosil bo‘ladi: “Bor, taqsir, - dedi, kabinetga sig‘may tashqaridagi bolmada qolganlardan biri” (M.I.). Ammo olmoshlar yordamida yuzaga kelgan bunday ism MSBlar nutqda juda kam uchraydi va ular sifatdosh yoki kelishik qo‘shimchalari yordamida birikib yoyiq bo‘lak vazifasida keladi.

Biz yuqorida tahlil obyekti hisoblangan ism so'z birikmalarining, deyarli, ko'pchiligi tobe qismining kengayishi natijasida paydo bolgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, faqat tobe yoki har ikkala bo'lakning kengayishi natijasida ham MSBlari shakllanadi. Masalan: Onalik mehridan tug'ilgan bu teran donolik ham, kampirning ko'z yoshlari bilan sugorilgan bu tiniq so'zlar oldida o'z atlarining butun mudhish shafqatsizligini ham domla mana endi tushundi ("Diyonat", B. 85]. Bu gap tarkibida SBlar onalik mehridan tug'ilgan bu teran donolik, kampirning ko'z yoshlari bilan sug'orilgan bu tiniq so'zlar kabi ikki tomonlama yoyilgan. Bu gapda ikkala qismning operatori vazifasini -gan sifatdosh shakli bajaradi. Hatto ikki va undan ortiq sifatdosh o'ramlar uyushgan holda bitta hokim bo'lak vazifasidagi otli birikmaga tobelanishi mumkin: Yoshi qirqlarga borib golgan bolsa ham, o'zini yaxshi salagan, pardoz-andozni joyiga qoygan kohlikkina bir ayol obkom sekretaridan tap tortmay, ancha dadil gapirdi ("Diyonat", B. 154). Mazkur gap tarkibida o'zini yaxshi saqlagan, pardoz-andozni joyiga qo'ygan, kohlikkina bir ayol kabi sifatdosh o'ramlar uyushiq shaklida hokim bo'lak vazifasidagi otni har tomonlama aniqlaydi.

Ko'pincha MSBlar tarkibida hokim so'zlar alohida-alohida qo'llanilib, o'z aniqlovchisi vazifasidagi so'zlar bilan uyushiq holda ketma-ket kelishi mumkin: Ko'ksi orden-medallarga to'lgan yigitlar, g'ijim ro'molga o'ralgan xotinlarini yetaklab, bolalarini opichlab bog' darvozasidan kirib kelardi ("Ufq", B. 515). Keltirilgan gapda yigitlar, xotinlar kabi hokim bo'lak vazifasidagi so'zlar alohida-alohida o'z aniqlovchilari yordamida uyushiq holda alohida-alohida tushunchalarni ifodalaydi.

Ayniqsa, bunday atributiv munosabatdagi otli MSBlardan yozuvchilar personajning xulq-atvori, qiyofasi va xarakterini va turli xususiyatlarini ochib berish maqsadida keng foydalanadi. Masalan: Boshiga oq salla o'ragan, kaltagina uchburchak soqoli uzunroq qoramtir yuziga yarashib tushgan novcha bir alloma edi (O.Yoqubov). Sochi kalta qirqilgan, tagi platformali yashil tufli kiygan bu juvon Alibekning xotini Nasiba edi (P.Qodirov). MSBlarning tobe qismi tarkibida uyushib kelayotgan aniqlovchili birikmalarining hokim bo'lagi ot bilan ifodalanib, ular sifatdoshning -gan operatori yordamida birikadi. Ba'zan bunday sifatdosh o'ramlar orasida ayrim aniqlovchi vazifasidagi so'zlar yoki ravishdosh shakllar ham kiritiladi. Masalan: Siyrak sochlari tozg'igan, lunjlari ichiga botib, kampirdahan bo'lib golgan Qudratxo'ja uyquli ko'zlarini qisib, ishshayib turibdi ("Diyonat", B. 125). Yuzi oftobday tiniq, timqora sochlari to'pigga tushgan, husn-malohatda tengsiz bu juvon - Oynisa edi ("Diyonat", B. 126).

Demak, aniqlovchili SBlarida tobe bo'lak yoyiq va uyushgan holda hokim bo'lak vazifasidagi otni turli xususiyatlariga ko'ra ta'riflaydi. Shuning uchun ham ular so'z kengaytiruvchilari sifatida gapning turli bo'laklarini shakl va ma'nosiga ko'ra har tomonlama murakkablashtiradi.

Xullas, keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ism SBlarining derivatsiyasi asosan konversiya va kontominatsiya usullari yordamida amalga oshib, operator vazifasini sifatdosh, ravishdosh shakllari, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar va o'xshatish-qiyoslash shaklini yasovchi affiksalar bajarib keladi. Ularning bir butun holda murakkablashish jarayonida aniqlanmish vazifasidagi so'zning ot bilan ifodalanishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki hokim bo'lak vazifasidagi otning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama ochib berish maqsadida bir nechta aniqlovchilar ishtirok etadi. Masalan: Boy-basti kelishgan, mo'ylovi endigina sabza ura boshlagan, tol chiviqday nozik bu yigitchada o'z elining hamma fazilatlarini bor edi ("Ko'hna dunyo", B. 3). Keltirilgan gapda yigitchaga xos xususiyatlar har tomonlama ta'riflangan bo'lib, unda yozuvchi sifatdosh o'ramlardan keng foydalangan. Natijada otli MSBlarini hosil qilishda bir nechta predikativ xarakterdagi atributiv birikmalar ishtirok etgan va bir butun holda murakkab tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. — Т.; 1992.
2. Бердиалиев А. Ўзбек тилида сўз бирикмалари. — Т.; 1990.
3. Turniyozov N. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. — Samarqand, 1990.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SHAKLDOSH SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Davlatyor Jumashov,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida omonim so‘zlar, ulardan tashkil topuvchi omonimik qatorlar ham katta sonlarni tashkil qiladi. Maqolada Alisher Navoiy asarlarida omonim so‘zlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: omonim, semantika, omonimik qatorlar, presuppozitsiya, qiyosiy, sinonim va antonim, leksik ma‘no, til birligi, fonetik o‘zgarishlar.

Omonimlar ham sinonim, antonim va polisemantik so‘zlar kabi tilda tizimni tashkil qiluvchi ma‘lum leksik-semantik kategoriyadir. Omonim termini haqidagi ma‘lumotlar maxsus lingvistik lug‘atlar-da izohlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida omonimlarning o‘rganilishi uzoq tarixga ega bo‘lib, Alisher Navoiy nomi bilan bog‘lanadi [Бафоев Б., 1985: 35]. Bunda Alisher Navoiy omonimlar haqida maxsus termin qo‘llamay, masalani misollar asosida izohlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida omonim so‘zlar ham, ulardan tashkil topuvchi omonimik qatorlar ham katta sonlarni tashkil qiladi. Shoir shakldosh so‘zlarning she‘riyatdagi o‘rni va roli haqida “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida quyidagicha yozadi: “Yana she‘rda barcha tab’ ahli qoshida ravshan va majmu’ fusaqo oldida mubarhandurki, tajnis va iyhom bag‘oyat qulaydur. Va bu farxunda iborat va xujasta alfoz va ishoratda forsiydan ko‘prak tajnisimiz lafz va iyhomangiz nukta borki, nazmga mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va san’atdur”.

Omonimlarning leksik-semantik va leksik-grammatik ma‘nolari, ularning til materiali va tuzilishiga ko‘ra guruhlariga bo‘lib tadqiq qilinadi [Санакулов У., 2004: 83].

Sinonim va antonim so‘zlar bir xil so‘z turkumiga taalluqli bo‘ladi. Omonimlarda esa bu tamoyilga amal qilinmaydi. Omonimlar so‘z turkumlari orasida tadqiq qilinganda, u quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. Ot turkumidagi so‘zlar omonimlashadi. Tub so‘zlar ayoq, ayog‘ - piyola, qadah va ayog‘, ayoq - insonning yurish a‘zosi:

Ey Navoiy, dayr aro tutsa ayog‘ ul mug‘bacha,

No‘sh etib olma ayog‘idin aning o‘lguncha bosh (G‘.S. 277).

Bel - “gavdaning ma‘lum qismi” va bel - “ish quroli” ma‘nosidagi so‘zlar omonimlashadi:

Toshirg‘a toshu xishtu bel aroba,

Tutub Chin ichra obod-u xaroba (F.Sh. 328).

Bel in garchi kamar topmay kamohi.

Vale zarrin kamarlardur sipohi (F.Sh. 443).

Ilik so‘zi omonimik qator tashkil qilib, ilik - “qo‘l”, ilik - suyak ichidagi yog‘simon modda; ilik - darvoza yoki eshikning zanjir solib yoki qulflab bekitilishi, narsalarning qoziq mixlarga osib qo‘yilishi kabi ma‘nolarda qo‘llanadi: “...bir o‘g‘ul berdikim, bir ko‘z va bir ilik va bir oyog‘i yo‘q erdi” (TA. 299). Yeguliklardin agarchi qo‘y muchallaridin ba‘zig‘a ot qo‘yuptilar, ammo orqani va oshug‘lug‘ ilikni va yon so‘ngakni va qoburg‘ani va ilikni va o‘rta ilik va bo‘g‘uzlag‘uchini turkcha ayturlar” (ML. 116).

Bundagi ilik - qo‘l va ilik - suyak, iligi polisemantik aloqalarning yiroqlashuvi va uzilishi natijasida ikki mustaqil ma‘noli so‘z - omonimlar paydo bo‘lgan.

Omonimik qatorda to‘rtta so‘z keladi. Bunda os - juni yumshoq va oq rangli hayvon, os - kiyim, os - tegirmon toshi va os - geografik nom ma‘nolarida uchraydi:

Jahon sho‘xin aruse qilg‘il ixlos,

Ki kiymish tun bila kundan kishu os (NSH. 680).

Chu ozim bo‘lub jonibi osu Rus,

Bo‘lub yuzlari vahmidin sandarus (SI.1297).

“Yerga farsh soldi va tulku va os va tiyin terisin ul kiyarg‘a qabul qildi” (TM. 186). Uch so‘z so‘z

omonimik qator tashkil etib, tosh - yer jismlarining bir turi; tosh - tashqari; tosh - og'irlik o'lchovi, tarozi toshi ma'nolarida keladi:

Junun toshi urub har yon yangi dog'imni afgor et,
Ichimdan loladek ishq ichra toshimni namudor et (NSH. 98).

Tuz aylab tarozu iki boshini
Temurdin yasab, muhr etib toshini (SI.1285).

Butub havziki andin ruh olib qut,
Ushoq tosh tegrasida la'lu yoqut (FSH. 335).

Omonimik qator fonetik o'zgarishlar asosida bo'lib, bunda so'z oxiridagi bir tovush uning ma'nosi-ni o'zgartmagan holda tushirib qoldiriladi. Kaf - qo'l, oyoqning yuza va ostki qismlari, kaf - suv, suyuqliklar qaynatilganda yuzaga chiqadigan ko'pik, kaf - adabiy termin:

Bazmaro gar yo'q may bila daf,
Ham yomon ermas un bila kaf (G'S. 326).
Kaf - mafo'ilun "nun"ining isqotidur, to mafo'ilu qolg'ay (MA. 139).
Qabarchuq kafi poyida har taraf,
To'a durri maqsud ila ikki kaf (SI. 1400).

2. Omonimik qator ot va fe'l turkumidagi so'zlardan bo'lib, bunda, odatda, ikki so'zgina omonimik qator hosil qiladi: gard - zarra, chang, to'zon; gard - fors-tojikcha "gashtan" - qaytmoq, aylanmoq fe'lining buyruq shakli:

Fano taylasonini qilg'ay kafan,
Kafan bas anga, balki g a r d i jahon (SI. 1400).
Alisher Navoiy g'azallarida omonim bir g'azal ichida va bir baytda berilishi mumkin. Gard omonim so'zi bir g'azalda uchraydi:

Dudi oh ermas ko'ngul uyin qaro qilg'onda dard,
Chun yiqldi ishq zulmidin havog'a chiqti gard.
Tez uyur davringda, ey soqiy, sipehr oso qadah,
Barham urmasdin burun majlisni charxi tez gard (NSH. 124).
Ich - ichi, ichkari, ichkarisi va ich - ichmoq fe'lining buyruq shakli:
Bahoriy ravza topqoch zebu tazyin,
Ichu tashig'a gulgun oyin (FSH. 335).

Yetishsa ishqaro yuz mehnatu qadah ich,
Nafas-nafas qo'yubon may to'la-to'la ich (G'S. 117).
Olma - meva va uning daraxti; olma - ikkinchi shaxs buyruq fe'li:
Yuz uza siymin zanaxdoningda xatti mushkbo'y,
Utka koygon olmadin sreki chikkon dud erur (FC. 154).

Ey Navoiy, dayr aro tutsa ayog' ul mug'bacha,
No'sh etib olma ayog'idin aning o'lguncha bosh (FC. 277)
Fors-tojikcha sol - yil va sol - ikkinchi shaxs buyruk fe'li:
Vasl mumkin yo'k vale hijronda har dam yuz balo,
Mundok ofat mubtalosi moxu sol o'lmoq kerak (FC. 351).

Ko'ngul komini ko'y, gar xud mening devona ko'nglumni.
Toparsen uyla yuz parkandu sol har itga bir parkand (FC. 133).

3. Ot va sifat turkumidagi so'zlar omonimik qatorni tashkil etadi. Bu omonimik qator kompo-

nentlari ham deyarli ikki so‘zdan iborat: But, sanam ma’nosini atovchi - but va but - to‘liq, mukammal ma’nosidagi so‘zlar shakldoshlikda keladi:

Va’dai vasl ayladi ul oy, xamono kelgusi,

Tiyyg‘i hajridin shikof o‘lg‘on ko‘ngul bu so‘zga but (BV. 89).

Bo‘lmasa ul but qoshi mehrobim ichra jilvasoz,

Qiblag‘a kofirmen, ar bosh indurub qilsam namoz (FC 230).

Omonimik qator uch so‘zdan iborat bo‘lib, ko‘k - falak, osmon; ko‘k - rang turi: ko‘k - musiqa asbobi:

Ko‘k po‘yay cayr ila talabgor sango.

Kun sorg‘oribon ishqda bemor sango (FC. 741).

Ko‘k g‘azoli chunki kofur uzra mushkafshon bo‘lur.

Kavkabafshon ko‘zlarimdin ul quyosh pinhon erur (FC. 180).

Dedim taronayi jonbaxsh mutribo sen xud.

Firoq sozi tuzub o‘lturur k o‘ k i cholding (FC. 378).

Bulardan tashqari, yana ko‘k so‘zi otlashib, kiyim ma’nosida ham keladi: “Tarix ahli muttafiqdurlarkim soch qirmoq va ko‘k va qaro kiymak ul motamdin qoldi” (TM. 194). Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ko‘k so‘zining ma’nolarini sanab ko‘rsatadi: “Va ko‘k lafzin ham necha ma’ni bila iste’mol qilurlar [Абдурахмонов Ф., Рустамов А., 1981: 10]. Biri ko‘k - osmonni derlar. Yana ko‘k ohangdur. Yana ko‘k - tegrada ko‘klamakdur. Yana ko‘k - qadog‘ni ham derlar. Yana ko‘k sabza va o‘langni dag‘i derlar”.

Adabiy termin sifatidagi bayoz - turli shoirlar she’rlaridan olib tayyorlangan to‘plam va bayoz - oq, oq rang ma’nosidagi so‘zlar shakldoshdir:

Xatmudur yoxud b a y o z i d a yuzining kilki sun’

Xo‘bdug‘ tug‘rosini zangor ila qildi savod (FC. 138).

Yana bir ravza rangi sarbasar nur.

Bayoz ichra kirib, andokki kofur (Fsh. 337).

Xor - tikan va xor - kamsitish, qiynash ma’nosidagi so‘zlar:

Bulbul kibi xushgo‘y Navoiyni qilib xor.

Ul gulni ko‘rung jonibi badguy tutubtur (FC. 193).

Bas, nedur ko‘z gar xayoling xayliga manzil emas.

Har qaro bir o‘t yeri davrinda kirpik xoru xas (FC. 248).

Rang bildiruvchi nofarmon va otlashgan nofarmon - itoatsiz. buyruqqa qaramaydigan ma’nosidagi so‘zlar omonimlashadi:

Tog‘yeki o‘zin solmadi farmon ichra.

Ko‘y nofarmon xalqni tug‘yon ichra (NJ. 26).

Osru nofarmondur ul gulkim, libosidur binafsh,

Garchi gulruxlar erur bori oking farmonida (BV. 530).

Omonimik qatorni arabcha sifat turkumidagi savod (mazkur polisemantik so‘z ma’no variantlarining bir ma’no uyasidan uzoqlashgan va yana otlashgan ma’no variantlari ham bor) qora tus, qoralik; qorong‘u, qorong‘ulik, qorong‘u kecha: uzoqdan ko‘ringan qora, nishona, belgi kabi ma’no turlari va yana savod - shahar. o‘lka; joy, xudud, nihoyat, savod - xat-savod, yozuv. bilim ma’nosidagi so‘zlar shakldoshdir:

Xil’atin aylabmudur ul sho‘xi siyminbar karo,

Tun savodi birla kiygandek maxi anvar karo (FC. 50)

Bu yanglig tiyra xar birning savodi.
Savodi ichra xar yon togu vodi (fsh. 400).

Necha kun chun manozil qat' qildi.
Cherik Arman savodig'a yeyildi (Fsh. 499).
Xatmudur yoxud bayozida yuzining kilki sun',
Xubluk tugrosini zangor ila kildi savod (FC. 138).

Uchunchi oy ravon buldi sa vodi,
Burungi yilda kur'on bo'ldi yodi (FSH. 317).
Adaddin kup kema bori yaroglik.
Savodi bir muazzam shaxr choklik (FSH. 422).

4. Son va ravish turkumidagi so'zlar omonim bo'lib keladi. Besh - son ma'nosida va besh-ortiq, ko'p ma'nosi bilan:

Ul bino aylab ajabtur elni mehmon aylamak,
Ulki bu uy ichra besh kun mehmoni b e sh emas (FC. 241).

5. Ot va ravishlar omonimik katorlar hosil etadi: Burun - ilgari, oldin va burun - nafas olish organi ma'nolari:

Subha torini yig', ey shayxki, bir lahza burun.
Taktilar mug'bachalar rishtayi zunnor mango (FC. 32).

Aylag'ondek mardumi obi burun kuz mardumin.
Emdi ul naf' aylamish xayli bani odamni suv (FC. 529).
Tob - jingalak, o'ram, tob va tob-chidam, quvvat, qudrat ma'nolari:
Hajri t o b i ichra kim ko'rmish bu jismi zordek,
Kim topibdur bark shakli o'tka tushgan tordek (FC. 356).
Zulfini ochmish sabo yuziga chikmish t o b i mul
Zulfu yuzi aksidin tuniga tushmish dolugul (FC. 401).

6. Ravish va fe'l turkumidagi so'zlar bir omonimik qatorda keladi: holat ma'nosini bildiruvchi tik va tikmoq fe'lining ikkinchi shaxs buyruk shaklidagi tik til birliklari:

Ey Navoiy, ul Masihodan quyosh chun urdi zaxm,
Oni Iso ignasiyu mehr tori birla t i k (NSH. 335).

Ul sorig' to'nlug' erur turg'onda ta'zimga tik,
Shulakim xoshokni kuydurgali bo'lg'ay biyik (FK. 336).
7. Omonimik qator fe'l va son turkumiga kiruvchi so'zlardan bo'ladi:
Yetmish-ma'lum bir miqdordagi son atamasi va fe'l shakli - yetmish:
Adudur olti jihatdan manga chu yetti falak.
Ne sud yoshim agar oltmish va gar yetmish (FK. 247).
O'qidin par chiqormishmenkim, ul turki xadang afgan.
Qayonkim g'amzasining novakin chek, manga ye t m i sh (BV. 210).
Yetti - son va yetti fe'l shakli:
Demay yetti obou turt ummahot.
Ki xilqat tuni kiydi chun koinot (FC. 713).

Xanjaring jonimga yetti ko'kraginga sanchilib.
Novaking yonimga ulgurdi iyodatqa kelib (FC. 75)
va boshqalar.

8. Ot va son turkumidagi so'zlar bir omonimik qatorda keladi:

To‘quz, to‘qquz - son va to‘quz - dasturxon, sovg‘a ma’nosida:
Zixi javlongahing aflok uza maydoni sav adno.
Burokingga t o‘ q u z gunbaz, bu t o‘ q q u z gunbazi xazro (FC. 27).

Chun yeti qot yerga kirgung oqibat holo ne sud.
Har sipexr ajnosidin olingg‘a tortarlar t o‘ q u z (NSH. 210).
Yuz - son va yuz - inson tanasining ma’lum qismi ma’nosi:
Zixi xusnung zuxuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz gavgo (FC. 22).

Nedin yuz gul ochar ishk o‘tidin bulbul kibi Vomik,
Yuzingdin gar uzori bogida gul ochmadi aero (FC. 22)
Yuqorida, asosan, tub so‘zdan tashkil topgan omonimik qatorlar ko‘rib chiqildi [Абдурахмонов F., Рустамов A. 1973: 10]. Navoiy uch so‘z turkumiga aloqador va yasama so‘zlar omonimik qatorlar hosil qiladi:

Butgar - sakam, but yasovchi usta va butgar - butgarmoq fe’lining asosi:
Har buti butkarg‘a parastishda mast.
O‘ylakim but sajdasida butparast (XA. 65).

Iki raxna sori ravon bordilar,
Gachu xisht ila butkardilar (SI. 1414)
Omonimik qatorda va fe’l turkumiga kiruvchi so‘zlar bo‘lib, ko‘p ma’noli so‘z qatnashadi:

a) ot - ism ma’nosida:
Dedi shohi Kashmir bevahmu bok,
Ki oti edi Mallu ibni Mabok (SI. 1368);
b) ot - hayvon ma’nosida:
Yetmaklik erur mushki maksadga nedinkim bor.
Ko‘z xirau, tun tiyra, ot oqsog‘y yo‘l burtok (BV. 321);

v) ot - otmoq fe’lining asosi;
Chun xanjari hajring manga qat’ etti hayot.
Bori g‘amu darding o‘qini tinmayin ot (G‘S.746);
g) ot - shuhrat, shon, dovrug ma’nosida:
Dedim: “Yaxshirok boda ul zuhddin,
Ki qilg‘ay kishi shuxratu uchun (FC. 694).

Omonimik qatorda ot turkumidagi so‘zlar ularning ayrimlari ko‘chma qo‘llanadi:

a) pay - muskul ma’nosida:
Hajr aro, ey xizri farrux pay qo‘lum tutqim, erur
Po‘ya urmoqtin bu vodiy ichra bag‘rim tolg‘udek (FC.352);
b) pay - yoy tayyorlashda foydalaniladigan hayvonlar tanasidan olinadigan maxsus et, singir ma’no-
sida:

Qirqqondin iki-uch kun o‘tubon bo‘lmish edi.
O‘ylakim xangi pay etgaylar iki dilkash (BV. 583);

v) pay - oyok, qadam ma’nosida bo‘lib, fors-tojikcha po - poy so‘zining fonetik varianti sifatida ke-
ladi:

Men aylab necha oy biyobonni tay.
Yeturguncha bu mulku kishvarga pay (SI 1370).

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan omonimik qator hosil qilu-
vchi so‘zlarning nihoyatda ko‘pligi shu faktlar asosida keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Тошкент, 1985.
2. Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихининг ilk даврлари. - Тошкент: Ғафур Ғулом, 2004.
3. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент, 1981.
4. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. - Тошкент, 1973.
5. www.literature.uz.
6. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
7. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F7>

ZIDDIYATLI MULOQOTNI YUZAGA KELITIRUVCHI AYRIM OMILLAR

Y. Shirinova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Annotatsiya

Mazkur maqolada kommunikatsiya jarayoni, kommunikatsiyaning insonlar o'rtasida kechadigan turi — muloqot, muloqotda ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan omillar haqida mulohaza yuritiladi. Ziddiyatli muloqotga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablar, bunday muloqotdan murosa bilan chiqib ketish strategiyalari tahlil qilinadi. Muloqotda axborot va hissiyotlar almashinuvidan tashqari manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lishini hisobga olib, o'zaro hurmat munosabatini saqlagan holda muloqotga kirishish lozimligi yuzasidan xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, muloqot, ziddiyat, strategiya, notiqlik, faol tinglovchi, verbal, noverbal, integratsiya.

Kommunikatsiya inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Kommunikatsiyasiz inson tashqi olam bilan munosabatga kirisha olmaydi. Zero, insonning har qanday faoliyati zaminida uning atrofdagi olam (boshqa insonlar, tabiat, sun'iy intellekt hosilalari) bilan kommunikatsiyasi yotadi.

Kommunikatsiya o'ziga xos, muhim jarayon bo'lgani bois lingvistika, psixologiya, pedagogika, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik singari ko'plab sohalar nuqtayi nazaridan tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda tilshunoslik ilmida barcha muammolar diqqat markaziga insonni qo'yishga doir antroposentrizm yondashuvining faollashuvi kommunikatsiya masalasini har tomonlama va chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi [Shirinova, Iskandarova, 2023: 84; Shirinova, 2022; Shirinova, 2023: 85].

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, kommunikatsiyaning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bevosita insonlararo kechadigan kommunikatsiya muloqotdir.

Muloqotga kirisha olish inson tafakkuri rivojlanganligi va ijtimoiy hayotga integratsiyalashgani belgisidir. Bu qobiliyat inson tug'ilganing boshlab, umrining so'ngiga qadar nutq ontogenezi jarayoniga parallel ravishda dinamik harakatda bo'ladi: ma'lum davrda inson faol muloqot bilan shug'ullanishi natijasida takomillashishi yoki, aksincha, muloqot muhitidan biroz yiroqlashganida susayishi mumkin. Har bir insonning o'zi yashab, faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatda o'rni bo'lishini istaydi, aslida ham (yaxshidir, yomonidir) o'rni bor. Ammo inson jamoadoshlari tomonidan qanday munosabat bilan qarshi olinishi ko'p jihatdan uning notiqlik darajasi, muloqot qobiliyatiga bog'liqdir.

Muloqot qobiliyatining rivojlanganlik darajasi bevosita inson psixologiyasi bilan bog'liq. Bugungi kunda tilshunoslik zaminida kommunikatsiya nazariyasi va amaliyoti, madaniyatlararo kommunikatsiya singari qator fanlar rivojini kuzatishimiz mumkin. Mazkur fanlar muloqotga samarali kirishish hamda ziddiyatli vaziyatlardan mohirlik bilan chiqib keta olish, verbal va noverbal muloqot vositalaridan to'g'ri foydalana olish ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Samarali muloqotga kirishish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Notiqlik.
2. Faol tinglovchilik.
3. Tana tilidan to‘g‘ri foydalanish.
4. Ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta olish.

Tabiiyki, zo‘r notiq hamisha suhbatdoshining diqqatini jalb qila oladi, fikriga ishontira oladi va kommunikativ maqsadiga boshqalarga nisbatan osonroq erisha oladi.

Mohirona gapira olish bilan bir qatorda, tinglay olish ham aslida bir san‘at. Ma‘lumki, har bir insonda o‘zligini namoyish etish ehtiyoji, tinglanish xohishi mavjud. Muloqot jarayonida so‘zlovchi tomonidan ta‘sir ko‘rsatilganida ikkinchi tomondan javob reaksiyasi qaytsagina, kommunikatsiya jarayoni sodir bo‘lgan hisoblanadi. Inson faol notiq sifatida juda chiroyli, o‘rinli va faol gapirib ham muayyan darajada kommunikativ maqsadga erishishi mumkin, ammo ikki tomonlama munosabat o‘rnatish uchun tinglay olish ham muhimdir. Ya‘ni so‘zlash va tinglash nisbatini to‘g‘ri ushlay olish maqsadga muvofiqdir. Muloqot davomida tana tilidan to‘g‘ri foydalana olishning ham ahamiyati katta. Chunki tana tili noverbal nutq bo‘lib, verbal nutqni to‘ldirishi, inkor etishi, o‘rnini bosishi mumkinligi ma‘lum. Nihoyat, inson ziddiyatli muloqot vaziyatidan to‘g‘ri yechim topib, murosaga kelib chiqib keta olishi ham uning kommunikativlik kompetensiyalari yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi.

Muloqotdagi ziddiyat va undan chiqib keta olish masalasi alohida diqqatga sazovor masalalardan biridir. Bu holatni psixologlar shaxslararo muomaladagi to‘siqlar, deb atashadi. Muomaladagi to‘siqlar — bu ziddiyatlar paydo bo‘lishiga imkon yaratuvchi juda ko‘p omillardir. Bu to‘siqlar muomalaga kirishuvchi shaxslarning maqsadlari va ehtiyojlari bir-biriga mos kelmasligi oqibatida yuzaga keladi [Ma‘murova, Abdullayeva, Yusupjonova, 2021: 206].

Ziddiyat — (lot. conflictus — qarama-qarshilik, konflikt) — kommunikatsiyaga kirishuvchi tomonlarning, ya‘ni kommunikatsiya subyektlarining turli qutbli, o‘zaro zid qarashlari, maqsad-muddaolari, manfaatlarining o‘zaro mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan muammoli vaziyat, zidliklar kurashi. Ziddiyat istiqboldagi nizolar, urushlarning ibtidosi bo‘lishi mumkin, shuning uchun ham uni quyi bosqichdayoq bartaraf etish lozim. Umuman muloqot jarayonida yuzaga keladigan anglashilmovchiliklar kuchli hissiy-ruhiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Muloqot jarayonida 1-kommunikant tomonidan kodlangan va aloqa kanali orqali yuborilgan xabar ikkinchi kommunikant tomonidan qabul qilib olinadi, dekodlanadi va idrok etiladi, o‘z navbatida, mazkur xabar 2-tomonda turli emotsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar suhbatdoshingizdan siz taxmin qilgan reaksiyaning qaytishini istasangiz, xabarni aniq, to‘g‘ri va tushunarli tarzda kodlashingiz, sifatli aloqa kanali orqali (turli xalaqit beruvchi omillar, shovqinlardan imkon qadar xoli ravishda) uzatishingiz zarur. Kommunikativ aktlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning eng katta qismi kodlanuvchi xabar bilan dekodlangan xabarning o‘zaro muvofiq emasligiga bog‘liq. Mazkur nomuvofiqliklar asosan Bernar Verberning “Nisbiy va mutlaq bilimlar entsiklopediyasi” kitobidan olingan “Urinish” muammosidagi quyidagi sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

1. Ayni paytda men nima deb o‘ylayman?
2. Men nima demoqchiman?
3. Nimani aytgandek tuyuldim?
4. Men nima dedim?
5. Nima eshitishni xohlaysiz?
6. Nimani eshitdim deb o‘ylaysiz?
7. Nimani eshitdingiz?
8. Nimani tushunmoqchisiz?
9. Tushundim deb o‘ylaganingiz?
10. Nimani tushunganingiz?

Muloqotda qiyinchiliklar paydo bo‘lishining o‘ndan bir ehtimoli bor. Ammo baribir harakat qilaylik... [Bernar Veber].

Darhaqiqat, Bernar Verber qayd qilib o'tgan 10 banddan birortasida nomutanosiblik bo'lsa, muloqotda anglashmovchilik va pirovardida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, ziddiyatli muloqot asosan o'zaro yaqin bo'lgan insonlar o'rtasida ko'proq kuzatiladi. Chunki shaxs tashqi jamiyat muhitida ijtimoiy roli taqozosi bilan o'zining nutqini nisbatan kuchliroq nazorat qiladi, yaqinlari davrasida esa o'zini emotsional jihatdan ancha erkin (borligicha) tutadi, o'z xohish-istaklari, manfaatlarini ochiq bildiradi. Tabiiyki, bunday ochiqlik oila a'zolari o'rtasida muhosasizliklar tez-tez kuzatilishiga sabab bo'ladi. Ko'p hollarda insonning oila a'zolari nazaridagi xulqi, madaniyati yuzasidan xulosalar (ko'pincha salbiy, chunki ular ko'proq kamchiliklarga urg'u beradilar) tashqi jamiyat tomonidan unga beriluvchi bahodan (asosan ijobiy, chunki bunda ko'proq erilishgan muvaffaqiyatlarga e'tibor qaratiladi) farq qiladi.

Ziddiyatli muloqotni nazorat ostida ushlab, uni ijobiy hal qilish mumkinmi?

Buning uchun kishidan o'z emotsiyalarini nazorat qilish, qalbaki sabablardan haqiqiy sabablarni ajratib olish, ziddiyatni lokallashtirish, faqat himoyaga diqqatni qaratishdan qochish, tashabbuskorlikni o'z qo'lida ushlab turish talab etiladi. Ziddiyatni hal etishning to'rtta yo'li mavjud: bo'ysundirish, kompromiss, qochish va integratsiya. Oxirgi yo'l eng qiyin, lekin uni amalga oshirish mumkin. Ziddiyatli vaziyatlardan chiqishni bilmaslik, har qanday kishi uchun muomala jarayonida paydo bo'ladigan ko'plab kundalik qiyinchiliklarni yengib o'tish, jismoniy va psixik sog'liqqa putur yetkazuvchi emotsional stresslarga olib keladi [Ma'murova F., Abdullayeva N., Yusupjonova M., 2021: 206].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishayotganda na faqat xabar va hislarni almashinishimizni, balki bu o'rinda bizning manfaatlarimiz to'qnashuvi sodir bo'lishi hisobga olib, mavridli, oqilona, samimiy, ziyonsiz muloqotga kirishishimiz maqsadga muvofiqdir. Tog'ri, muloqotga kirishishimizning eng asosiy stimuli muayyan ehtiyojimizni qondirishga qaratilgani bois kommunikativ maqsadga maksimal darajada erishishga intilamiz, biroq bu boshqalarning manfaatlarini so'ndirib qo'yish evaziga bo'lmagani, har ikki tomon uchun ma'qul yechim, murosa bilan chiqib ketilgani ma'quldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бернар Вербер. Энциклопедия относительного и абсолютного знания//Между тем ... | Цитата из книги Бернар Вербер. Энциклопедия относительного и абсолютного знания (citaty.info)
2. Ma'murova F., Abdullayeva N., Yusupjonova M. Pedagogik muloqot jarayonida ziddiyatlar va psixologik to'siqlar bilan bog'liq muammolar // "Экономика и социум" №2(81) ч.1 2021 www.iupr.ru; PEDAGOGIK MULOQOT JARAYONIDA ZIDDIYATLAR VA PSIXOLOGIK TO'SIQLAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR — тема научной статьи по наукам о здоровье читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)
3. Shirinova, Y., Iskandarova G. (2024). Inson — madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>
4. Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. (в формате PDF) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ (researchgate.net)
5. Ширинова, Е.Т. 2023. "Некоторые соображения о коммуникации". Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91> DOI: <https://www.doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339>

INTERNET MULOQOTI SINTAKSOPRAGMATIKASI

Muhabbat Madaminova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Ushbu maqolada internet tarmog‘ining o‘zbek segmenti foydalanuvchilari o‘rtasidagi grafik, imlo, leksik va sintaktik vositalar va muloqot xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi muloqot imkoniyatlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda boy manba bo‘la olishi, internet diskursi atamasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: internet muloqoti, internet diskursi, sintaktik vositalar, illyustrativ vositalar, shakl, mazmun, til, nutq.

So‘nggi yillarda tilshunoslik sohasida internet tarmog‘idagi muloqot muammosini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Internet muloqotini batafsil tadqiq qilishga intilishning sabablaridan biri bu an‘anaviy muloqot me‘yorlaridan farq qiladigan tamoyillar shakllanayotgan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloggerlarning faol ommalashishidir. Tadqiqotchilarning fikricha, bugungi jamiyat hayoti internetning asosiy maqsadi bo‘lgan ma‘lumot olish vazifasi keyingi planga o‘tib, muloqot maydoni sifatidagi ahamiyati ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, internet diskursi kommunikantlarning birgalikdagi tezkor va samarali faoliyatini ta‘minlovchi nostandart muloqot shakli deb hisoblash mumkin. Internet muloqotida nutqning informativ, fatik, ixtiyoriy funksiyalarini amalga oshirishning o‘ziga xosligini shaxsiyat, e‘tiroz, ustunlik, hamdardlik, hissiylik, mavjud stereotiplar va idrok mexanizmlarining o‘zgarishi kabi tamoyillar belgilaydi.

Internet tarmog‘ining o‘zbek segmenti foydalanuvchilari o‘rtasidagi grafik, imlo, leksik va sintaktik vositalar va muloqot xususiyatlarini tadqiq qilish bugungi muloqot imkoniyatlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda boy manba bo‘la oladi.

Internet tarmog‘i, ya‘ni cheksiz muloqot doirasi shakllanishi natijasida qandaydir ma‘noda yozma (vizual) va qaysidir ma‘noda og‘zaki bo‘lgan ma‘lum bir oraliq muloqot turi paydo bo‘ldi. Qabul qilish usuli nuqtai nazaridan, albatta, nutq vizual, ya‘ni ko‘zlar orqali qabul qilinadi. Shu bilan birga, suhbat davomida uzoq vaqt tanaffus qilish mumkin (asinxron), yuzma-yuz og‘zaki muloqot jarayonida esa bu hol yuz bermaydi. Xabar jo‘natuvchi javobni tezlik bilan olishi yoki uzoq kutishi mumkin. Joriy yozma matn darhol uzatiladi va qabul qilinadi, biroq adresatning bandligi, elektron pochtaga kirish imkoniyati, texnik muammolar, vaqt farqlari va hokazo sabablar bilan bir necha kun ichida javob olish mumkin [Трач А.С, 2010:34-39].

Internet tarmoqlarida tanish va notanish odamlar bilan hamkorlik, do‘stlik munosabatlari o‘rnatiladi, turli-tuman illyustrativ vositalar, audiovizual, musiqa va boshqalar orqali axborot va fikr almashiladi, umumiy maqsadlar odamlarni birlashtiradi. Shu tariqa, jamiyatga internet diskursi tushunchasi kirib keldi. О.К.Мелниковaning ta‘kidlashicha, ushbu termin masalasida tilshunoslar orasida yakdillik mavjud emas. Shuning uchun atama kompyuter diskursi, virtual diskurs, tarmoqli diskurs, elektron diskurs, onlayn diskurs, elektron muloqot kabi turli variantlarda qo‘llanmoqda. Nazarimizda, biz uchun eng ma‘quli, internet diskursi atamasi, chunki internet tushunchasi atamasining boshqa versiyalarida keltirilgan barcha ma‘no ottenkalarini o‘z ichiga oladi. Eng mashhur aloqa vositalaridan biri sifatida internet zamonaviy tilga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Biz ham О.К.Мелниковaning ushbu fikrini qo‘llab-quvvatlaymiz [Мелникова,2018:30-33].

Internet diskursi yangicha toifadagi alohida muloqot turi sifatida o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish vositalari, o‘zgacha muloqot shakllari, internetning zamonaviy jamiyat hayotida yetakchi mavqega egaligi bilan tavsiflanadi.

Verbal diskursda nutqimiz mimika, imo-ishora va ohang kabi nolingvistik vositalar bilan boyitiladi. Internet muloqotida ana shu vositalarning o‘rnini qoplash uchun tinish belgilari, grafik belgilar, tasviriy belgilardan foydalanish imkoniyati mavjudki, bu muloqot jarayonini osonlashtiradi va ta‘sir

kuchini oshiradi. Lisoniy va nolisoniy vositalarning kamroq qo'llanishi orqali ko'proq va kengroq mazmunni ifodalash tamoyili doirasida xabarni uzatishda vaqt va kuchni tejash maqsadida til birliklari bilan birga grafik va audiovizual belgilar ham ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda internet tarmog'i yangi axborot muhiti, yangi muloqot amaliyoti, dunyoni idrok etishning yangi turini shakllantiruvchi zamonaviy madaniyat, zamonaviy belgi hodisasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, internet tugallangan bir hodisa emas, chunki u hali rivojlanishning boshida turibdi.

C.B.Бондаренко virtual olamdagi ijtimoiy tarmoqlar strukturasi hisobga olgan holda, virtualdagi ijtimoiy jamoat tabiatan ob'yektivligini va real dunyoda mavjud bo'lgan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlariga (albatta, virtual makonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda) bo'ysunishini qayd etadi [Бондаренко,2004:15].

Tilshunoslar internet tarmog'ini nutq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish va tilda yangiliklar yaratishning samarali asosi sifatida tan oladilar [Шмелева,2012:68-71]. Shuni ta'kidlash kerakki, elektron muloqot sohasida texnik vosita orqali uzatiladigan matn ko'rinishida bu yozma nutq, lekin til qurilishi va muloqot uslubi nuqtai nazaridan og'zaki nutq sifatida tavsiflanadi.

Shu bilan birga, internetda shaxsning o'zini erkin tutishi, psixologik to'siqlarning bartaraf bo'lishi, diqqatni natijadan, ya'ni matnlarni iste'mol qilishdan o'zgartirib, ularni yaratish jarayoniga o'tish, shubhasiz, tilga nafaqat ijod qilish vositasi, balki o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish shakli sifatida yangicha munosabatni shakllantiradi. Internet muloqotining asosiy belgilari sifatida giperintertektuallik va so'zlashuv uslubining yozma shaklini ko'rsatish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri gapiriladigan og'zaki nutq internetda muqarrar ravishda yozma (aniqrog'i, bosma) shaklda uzatilishi kerak [Виноградова,1985:79].

Shunday qilib, dunyo tilshunosligida diskursning yangi turi — yozma so'zlashuv nutqining shakllanganligi tan olindi. Og'zaki so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan fonetik, leksik, grammatik nomuvofiqliklar, ya'ni til me'yorlaridan chekinishlar internet diskursining yozma shaklida ham amal qila boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Трач А.С. Особенности использования письменной речи в сети Интернет. // Известия ЮФУ (Южный федеральный университет) Раздел I. Проблемы современной филологии. — Таганрог, 2010. — С. 34-39.
2. Мельникова О.К. К вопросу об определении термина Интернет-дискурс // Казанский вестник молодых ученых. Теоретические и практические вопросы современной лингвистики. 2018, том-2 — №4. (7). — С. 30-33.
3. Бондаренко С.В. Социальная структура виртуальных сетевых сообществ. — Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 2004. — С. 15.
4. Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. — С. 68-71.
5. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. — Казань, 2004. — С. 63-67; Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. — М., 1985. — С. 79-128.

PRAGMALINGVISTIKADA XUSUSIY DISKURS VA UNING XUSUSIYATLARI

Akbar Ruziyev,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU Kechki bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada kinossenariylarda diskurs tahlilni amalga oshirish omillari, ssenariyning badiiy qimmatini belgilovchi vositalar, unda ifodalangan asosiy g'oyani ochib berish usullari, aynan kinossenariylar-

ning lingvistik, sotsiologik, gender va pragmalingsvistik xususiyatlarini aniqlash masallari haqida so‘z yuritiladi. Muallif kinossenariysini o‘ziga xos san‘at turi sifatida tahlil qilishga alohida e‘tibor berish, kino nutqining lingvistik tahlilida film nutqining yozma manbalarida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos vositalarni e‘tiborga olishga aloqador tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: diskurs, diskursiv tahlil, kinossenariy, lingvistik, sotsiologik, gender, pragmalingsvistik, kino yozuvlari (transkriptlar), yozuvlar (taglavhalar va subtitrlar).

Annotation

The article discusses the factors of discourse analysis in film scripts, the means of determining the artistic value of the script, the methods of revealing the main idea expressed in it, the examples of determining the linguistic, sociological, gender and pragmalingsvistic characteristics of film scripts. Paying special attention to the analysis of the author’s film script as a unique art form, gives recommendations related to the consideration of the specific tools that appear in the written sources of the film speech in the linguistic analysis of the film speech.

Key words: discourse, discursive analysis, film script, linguistic, sociological, gender, pragmalingsvistics, film records (transcripts), records (captions and subtitles).

Nutqni har xil aspektlarda tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar turli fan tarmoqlarining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Nutqning muloqotga uzatishdan boshlab to qayta ishlash va qabul qilish jarayonlari muayyan lingvistikaga oid fan yo‘nalishlarida alohida tadqiq qilinadi. Nutqning kommunikantlar tomonidan qabul qilinishi va o‘zlashtirilishi har bir muloqot ishtirokchilarida individual xarakter kasb etadi. Ana shu individualliklarni tadqiq etuvchi lingvistik fan sohasi pragmalingsvistika sanalsa, uning asosiy masalalaridan biri sifatida diskursni ko‘rsatish mumkin.

Fransuz tilidagi discours so‘zi (lotincha discursus - harakat, suhbat, muloqot) “diskurs” deb tarjima qilinadi (kamroq - nutq, nutq turi, matn, matn turi). Diskurs mohiyatan ta’rif uchun murakkab tushunchalardan biri hisoblanadi. Ammo, shunga qaramay, bu ko‘pincha qo‘llaniladigan va funksional jihatdan qulay atama. Dastlab fransuz tilshunosligida “diskurs” so‘zi umumiy nutq yoki matnni bildirgan. [Миронова Н.Н.1997 : 158]

E.Benevinitse diskurs mohiyatini izohlashda nutq rejasi (nutqqa tayyorgarlik bosqichi) va tinglovchi tomonidan o‘zlashtirish jarayonida o‘rtadagi masofani diskurs deb izohlaydi. [Stubbs M 1983: 272]

Diskursni matn lingvistikasining predmeti sifatida, nutq tahlilini esa uning usullaridan biri sifatida o‘rganib, T.M.Nikolaeva nutqni “bir qator mualliflar tomonidan deyarli bir xil ma’nolarda qo‘llaniladigan matn lingvistikasining noaniq atamasi” deb hisoblaydi va asosiylarini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) dialog;
- 2) matnning og‘zaki-so‘zlashuv shakli;
- 3) ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan gaplar guruhi;
- 4) bog‘langan matn;
- 5) berilgan, og‘zaki yoki yozma nutq ishi. [Крючечников Н.В 1964: 19]

Kelajakda matn lingvistikasining atamasi sifatida “diskurs” ta’rifi matn doirasi bilan cheklanib qolmaydi va “bu matn yangilanadigan shartlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi”. [Ермоленкина Л.И. 2017: 37-40.] Bunday holda, Kryuchechnikov tomonidan taklif qilingan nutq ta’rifini eslash o‘rinli bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu hodisani tavsiflashda birinchi o‘rinni egallagan T.A. van Deyk “nutq oqimi sifatida, til o‘zining doimiy harakatida, tarixiy davrning xilma-xilligini, ham kommunikantning, ham kommunikativ vaziyatning individual va ijtimoiy xususiyatlarini o‘zlashtiradi, muloqot sodir bo‘ladi”. [Дейк Т.А. 1989: 312]

Diskurs mentalitet va madaniyatni aks ettiradi, ham milliy, ham umumiy, ham individual va xusssiy mohiyat kasb etadi. Van Deyk umumiy, xusssiy, individual diskurslarni tasniflar ekan, ularni ichki tuzilishiga muvofiq ham guruhlariga ajratib chiqadi. Shunga ko‘ra, nutqning turli talqinlarini ko‘rib chiqib, van Deyk ushbu atama fanda bir necha ma’nolarda qo‘llanilishini ta’kidlaydi:

- keng ma’noda diskurs (murakkab kommunikativ hodisa sifatida) nutq, yozma, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan komponentlarga ega bo‘lishi mumkin;

- tor ma'nodagi diskurs (matn yoki suhbat sifatida) kommunikativ harakatning yozma yoki og'zaki mahsulotidir;

- muayyan suhbat sifatida diskurs har doim muayyan muhitda va muayyan kontekstdagi ba'zi aniq obyektlar bilan bog'lanadi;

- diskurs muayyan kommunikativ harakatlar bilan emas, balki og'zaki ishlab chiqarish turlari bilan bog'liq bo'lgan suhbat turi sifatida;

- diskurs janr sifatida (masalan: yangiliklar nutqi, siyosiy nutq, ilmiy nutq);

- muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hamjamiyat yoki butun madaniyatning umumashtirilgan ifodasi sifatida. [Дискурс. diskursmyblog.ru/tag/diskurs/.]

H.Ne'matov, B.Mengliev, A.Botirova hammuallifligidagi "Tilshunoslikning falsafiy masalalari" kitobida konsept mohiyati shunday izohlanadi:

"Bilimlar sistema xarakteriga ega bo'lmas ekan, u tasavvurligicha qoladi. Barqaror (sistema)lashgan bilimlar konsept tabiatiga ega bo'ladi. Tushuncha darajasiga ko'tarilish uchun tasavvur munosabatlar tizimiga kirishib, konsept darajasiga, ya'ni sistemalashgan bilim darajasiga, so'ngra bu konsept juz'iyliklardan, manzaraliliklardan xoli bo'lishi, yuksak umumiylikka ko'tarilishi lozim. Tasavvurning yuksak darajasidan konsept hosil bo'ladi". [Неъматов Х, Менглиев Б., Ботирова А 2020 : 55-59]

Shunga ko'ra, turlarning keyingi mazmunan bo'linishi allaqachon aniqlangan umumiy sohalar doirasida, asosan, "diskurs" nomini atributiv kengaytirish orqali amalga oshirilmoqda: nutq matni "pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar" bo'yicha turlarga bo'linadi [Апутьюнова Н.Д. 1990: 136—137], nutq "inson mavjudligining turli usullari"ga muvofiq turlarga ajratiladi [Карасик В.И. 2004: 390], "odamlar o'rtasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sir jarayoni" bilan birga keladigan ijtimoiy omillar tufayli va boshqalar [Воркачев С.Г. 2007: 13—22]. Bugungi kunda rus lingvistik adabiyotida nutqning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularning ro'yxati, albatta, ochiqligicha qolmoqda:

— shaxsga yo'naltirilgan diskurs (kundalik va ekzistensial) va maqomga yo'naltirilgan diskurs - institutsional (siyosiy, ma'muriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, sport, ilmiy va boshqalar);

— milliy diskurs (rus, nemis, ingliz va boshqalar);

— diskurs-esseistik, yangiliklar va boshqalar;

— munozarali, polemik va boshqalar;

— ommaviy axborot vositalari diskursi, internet diskursi va boshqalar;

— argumentativ, informatsion, ifodali, reklama, kinoyali nutq va boshqalar;

— fantastic diskurs, detektiv, ksenofobiya va boshqalar.

Agar bu yerga diskursning qo'shimcha, yangidan-yangi semantik mundariyasini (ijtimoiy-marosim, madaniy-tarixiy, tibbiy-pedagogik va boshqalar) ham qo'shsak, u holda nutq turlarining soni, aytish mumkinki, cheksizlikka intiladi.

Muloqotda milliy, umumiy va individual, xususiy mentalitet va madaniyat aks etadi. Demak, "... muloqot murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, u matndan tashqari matnni tushunish uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillar (dunyoni bilish, fikr-mulohazalar, jo'natuvchining munosabati, maqsadlari) ni ham o'z ichiga oladi". Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ta'rif zamonaviy davr matniga oid ko'plab lingvistik tadqiqotlar uchun asosdir. Xususiy diskurslar mohiyatan muayyan bir etnik, kulturologik, tarixiy, dinamik, sotsiologik va shu singari keng maydonni qamrab oladi va aynan xususiy diskurslarning lingvistik mohiyatini o'rganish, izohlash tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

Til aloqa vositasi sifatida quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) pragmalingsvistikada til aloqasini tavsiflashning asosiy tushunchasi faoliyat tushunchasidir;

2) til kommunikantlarning dinamik o'zaro ta'siri vositasidir;

3) tilning faoliyati uni qo'llashning situatsion va ijtimoiy-psixologik konteksti bilan uzviy bog'liqdir.

Adresantning ma'lumotni qabul qiluvchiga jo'natuvchi sifatidagi pragmatik yo'nalishi ikkalasi tomonidan til vositalarini tanlashda topiladi. Potensial oluvchilarning quyidagi turlari aniqlandi:

- 1) aniq, haqiqiy;
- 2) faraziy;
- 3) yagona;
- 4) ommaviy [Голубкина Л.В. 1974. : 36.].

Har bir aniq holatda, kommunikativ vaziyatning tabiatini hisobga olgan holda, murojaat qiluvchi nutqiy o‘zaro ta’sirda (o‘zaro ta’sirda) o‘z munosabatini, niyatini va taktikasini amalga oshirishga yordam beradigan lingvistik vositalardan foydalanadi. Tilning pragmatikasi savol tug‘ilgan joyda boshlanadi:

Kommunikativ niyat asosida yotgan g‘oya yoki motiv intensiya (lot. — niyat) deb ataladi. Ma’ruzachi maqsadli ravishda o‘z niyatini maksimal aniqlik va izchillik bilan ifodalashi kerak bo‘lgan shunday til vositalarini tanlaydi. Nutq xulq-atvori strategiyasi unga kommunikativ niyatning aniq (yaxshi) va yashirin (yomon) ifodasi o‘rtasida tanlovni talab qiladi. Bayonotda noaniqlik bo‘lsa, kommunikativ kompetensiya yordamga keladi, bu esa uni qabul qiluvchi tomonidan to‘g‘ri talqin qilinishini ta’minlaydi.

Kinossenariylarda qahramonlar nutqining pragmatik dasturini tahlil qilish ham ssenariy muallifi, qahramon va aktyor uchligining matnda ifodalangan, harakatda ko‘rsatilgan pragmatik dasturini ochib berishga xizmat qiladi. Kinossenariylarda diskurs tahlilni amalga oshirish ssenariyning badiiy qimmatini belgilash, unda ifodalangan asosiy g‘oyani ochib berish, aynan kinossenariylarning lingvistik, sotsiologik, gender va pragmalingvistik xususiyatlarini aniqlash, qolaversa, tomoshabinga badiiy estetik qiymati yuqori mahsulotni taqdim etishga yordam beradi.

Kino ssenariysini o‘ziga xos san’at turi sifatida tahlil qilishga alohida e’tibor beriladi. Tilshunoslar tadqiqot materiali sifatida badiiy filmni tanlar ekan, ularni qiziqtiradigan asosiy mavzu, eng avvalo, kino nutqidir. Lingvistik tahlilda foydalanish mumkin bo‘lgan film nutqining yozma manbalari quyidagilarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Bu manbalarning har birini batafsil tahlil qilishdan oldin “kino tili”, “kino nutqi” va “kino matni” kabi asosiy atamalarga aniqlik kiritish zarur. Kino tili sof kinematografiya tushunchasi bo‘lib, u kinematografiyadagi ekspressiv vositalarning butun majmuasini qamrab oladi: kadrlar, montaj, musiqiy hamrohlik, ovoz effektlari, yaqin planlar, uzoq va panoramali kadrlar, temp, mimika va imo-ishoralar, personajlar nutqi yoki diktator va boshqalar. [Лотман Ю.М. 2005 : 704] Kadr kino tilining asosiy elementi sifatida tan olingan. Yu.M.Lotman “kinomatn”, “hikoya” va “kino hikoyasi” atamaları sinonim sifatida va “turli ramkalar zanjirining mazmunli ketma-ketligini” ifodalaydi deb ta’riflaydi. “Kino nutqi” (film nutqi, kino nutqi) atamasi Sara Kozloff, Ketlin Lunin kabi amerikalik tadqiqotchilarning asarlarida qo‘llaniladi va filmda yangraydigan kino dialogini bildiradi. [Маневич И.М. 1959 : 34] Boshqacha qilib aytganda, film nutqi - bu film saundtreking qahramonlar nutqini o‘z ichiga olgan qismi. Amerikalik tadqiqotchilarga ergashib, biz kino nutqida ham filmdagi ovozni, ham qog‘ozga tushirilgan kino dialogini tushunamiz.

Umuman, kino tili va uslubi xususidagi yirik tadqiqot 2009-yilda “Aleksandr ko‘chasi” elektron akademik ma’lumotlar bazasi nashriyoti (Alexander Street Press L.L.C.) tomonidan yakunlangan. 1009 ta skriptni o‘z ichiga olgan elektron skript kutubxonasi bo‘lgan “American Scripts Online”ni kompilyatsiya qilish uchun Chikago universiteti bilan hamkorlik qildi, ularning aksariyati ilgari hech qachon nashr etilmagan.

Ssenariy badiiy asarning o‘ziga xos shaklidir. U dramatik asar va texnik hujjatning xususiyatlarini birlashtiradi.

Skript hujjati quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- 1) uni xodim (ssenariy bo‘limining doimiy xodimi yoki shartnoma asosida ishlaydigan xodim) tomonidan yaratish;
- 2) uni ish beruvchi tomonidan belgilangan muddatda yozish. Masalan, allaqachon nashr etilgan adabiy asar asosida ssenariy yozish uchun ssenariy tugallanishi kerak bo‘lgan sana prodyusserning film huquqlarini sotib olgan sanasi bilan belgilanadi;
- 3) ssenariy - bir guruh ijrochilar (prodyuser, muharrir, boshqa ssenariy mualliflari va boshqalar) ishining natijasi;

4) matnda aniq ijrochilar, ko'pincha operator uchun mo'ljallangan texnik ma'lumotlarning, shuningdek umumiy qabul qilingan qisqartmalarning mavjudligi;

5) versiyalash - barcha oldingi versiyalarni saqlab qolgan holda skriptning yangi versiyasiga o'zgartirishlar kiritiladi. Ba'zan skript loyihasining bir nechta versiyalari ularning keyingi jamoaviy muhokamasi uchun yaratiladi;

6) ishlab chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'liqlik (ishda studiyaning texnik imkoniyatlarini hisobga olish zarurati ta'kidlangan).

Ssenariylarning tarkibi va tuzilishi haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) badiiy shakl - dialog va mulohazalar; syujet, avj nuqtasi, tanbeh;

2) to'liq emaslik — ssenariy, xuddi spektakl kabi, uning asosida badiiy asarni keyingi yaratishga mo'ljallangan va bu jarayon davomida o'zgarishlar kutilmoqda;

3) personajlarning realistik nutqi - nutqning jonli spontan dialogga maksimal darajada yaqinlashishi;

4) ssenariyning salmoqli qismi professional yozuvchi tomonidan yaratilgan. Ssenariy filmga aylantirilishi mumkin bo'lgan rejissyorlik ishlanmasi bo'lishidan oldin u uzoq tayyorgarlik va shakllanish jarayonidan o'tadi.

Ssenariy ustida ishlashning dastlabki bosqichi ssenariy (adabiy, ijodiy) ilova (konspekt) yaratish hisoblanadi. Ilova - bu "material va mavzuni, g'oyani, syujet va personajlarning konturlarini o'z ichiga olgan, shakllantirilgan, ishlab chiqilgan, nisbatan tugallangan g'oya". [Серль Дж.Р, А.Л.Блинова 1986: 242—264.] Skriptning to'liq versiyasi bilan tanishishdan oldin, prodyuser yoki muharrir skript ilovasini o'qiydi.

Ssenariy muallifi adabiy ishining navbatdagi, to'rtinchi turi ssenariyning xomaki variantini (qoralamasini) yozishdir. Skript loyihasining formatiga qat'iy talablar qo'yiladi. Shuning uchun bugungi kunda u odatda maxsus kompyuter dasturlari yordamida tuziladi. Tarkibiy jihatdan, skript loyihasi ikki komponentdan iborat:

- ekspozitsiya (biznes/ekspozitsiya);
- dialog (dialog).

Ekspozitsiyaga quyidagilar kiradi:

- voqea joyining tavsifi;
- personajlarning tashqi qiyofasini tavsiflash;
- texnik ma'lumotlar.

Diskurs ssenariyning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u syujetni rivojlantirish va personajlarni ochish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kino diskursi uchun eng kuchli, xarakterli, ma'no va tasvirga boy so'z va iboralar tanlanadi, ular eng ifodali va ta'sirli kino nutqiga tarjima qilinadi. [Формановская Н.И. 1998: 291]

Kinossenariylarda diskurs keng va xilma-xil namoyon bo'ladi. Nutqiy vaziyatning turfaligi, o'zaro konfliktli obrazlar nutqi va xatti-harakatlarining o'ziga xos majmui diskurs tahlilni amalga oshirish zaruratini paydo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Миронова Н.Н. Дискурс-анализ оценочной семантики. Учебное пособие. — М.: НВИ, ТЕЗАУРУС, 1997. - 158 с.
2. Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. Oxford Blackwell, 1983. 272 p.
3. Крючечников Н.В. Роль надписей в драматургии фильма / Николай Васильевич Крючечников. -М.: ВГИК, 1964. — 19 с.
4. Ермоленкина Л.И. Дискурсивная личность в коммуникативном пространстве современного радио// Вестник Томского государственного педагогического университета. 2017. Вып. 2 (179). — С. 37-40.
5. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация [Текст] / Т.А. ван Дейк. — М.: Прогресс, 1989. — 312 с

6. Неъматов Х, Менглиев Б., Ботирова А. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. Германия: Globe Edit. 2020. — Б. 55-59.
7. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. - С. 136—137.
8. Формановская Н.И. Коммуникативно-прагматические аспекты единиц общения / Н.И. Формановская. — М.: Русский язык, 1998. — 291 с.

LINGVISTIK TAHLILDA LUG‘ATLARNING O‘RNI VA XORIJDA O‘RGANILISHI

Farog‘at Kurbanova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maxsus tizimga solingan tilni kompyuterga xoslash foydalanuvchilarning vaqtini tejaydi va ko‘p lug‘atlarni izlab yurishdek mashaqqatli ishdan xalos etadi. Barcha izlanishlar, olimlarning tinimsiz, mashaqqatli izlanishlari faqat bir narsaga, ya‘ni inson manfaatlariga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kompyuter lingvistikasi, “Artificial Intelligence”, uslubiy xato, psixologik-kibernetik asoslar;

Xorijda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami juda keng. Ayniqsa, AQShdagilari izchilligi, qamrab olingan muammolar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Nashr qilinayotgan tematik to‘plamlardan tashqari “Computational Linguistics” (Kompyuter tilshunosligi) nomli jurnal ham nashr etiladi. AQShda Kompyuter tilshunosligi assotsiatsiyasi mavjud bo‘lib, bu uyushma kompyuter tilshunosligi bilan bog‘liq ko‘plab tashkiliy va ilmiy ishlarni amalga oshiradi. AQShda ikki yilda bir marta COLING konferensiyasi o‘tkaziladi. AQShning 10 ta universitetida kompyuter lingvistikasi fakultetlari mavjud. Kompyuter tilshunosligining muammoli masalalari ana shu fakultetlarda o‘zining mutaxasislari tomonidan ko‘rib chiqilgan holda yechimi izlanmoqda. Shuningdek, Niderlandiyada “Artificial Intelligence” (Sun‘iy intellekt) jurnali chop etiladi. Bu jurnal ham kompyuter muammolari yechimiga, yangi yaratilayotgan dasturlar ustida bosh qotirishga undamoqda. MDHga a‘zo mamlakatlarda ham kompyuter lingvistikasi bo‘yicha muhim izlanishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, rus kompyuter tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Unda quyidagi yo‘nalishlarni alohida ta‘kidlab ko‘rsatish mumkin: 1. Mashina tarjimai (MT). 2. Avtomatik tahrirlash (AT). 3. Til o‘rgatish jarayonini kompyuterlashtirish (avtomatik tarzda tilga o‘qitish — ATO‘). 4. Statistik tadqiqotlar (ST). Y.N.Marchuk tarjimini modellashtirish metodlari va uni avtomatlashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan holda bugungi rus kompyuter lingvistikasiga asos solgan olimlardan hisoblanadi. Shuningdek, ko‘plab rus, ukrain, moldovan olimlari ham mashina tarjimai masalalari bilan shuG‘ullanishgan, ularning izlanishlari kompyuter lingvistikasida muhim o‘rin tutadi. Xususan, bu sohada ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlanganini alohida ta‘kidlash lozim. Sohani yanada chuqurroq o‘rganish ochilmagan qirralarning ochilishini ta‘minlaydi.

Ayniqsa, o‘tgan asrning 60 — 80-yillarida mashina tarjimai xususiyatlarini ishlab chiqishga yo‘naltilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ta‘kidlanganidek, mazkur tadqiqotlar rus tili bo‘yicha jahon kompyuter tarmoqlarida ma‘lumotlar bazasi yaratilishi, buning natijasi sifatida rus tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga tarjima qiluvchi dasturlarning vujudga kelishi uchun asos bo‘ldi. O‘zbek tilida ham shu kabi ma‘lumotlar bazasini yaratish bugungi kundagi eng dolzarb vazifadir.

Rus tilshunosligida kompyuter tilshunosligining yana bir yo‘nalishi matnlarni avtomatik tahrirlashdir. Mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar sirasiga R.R.Kotov, V.Y.Berzon, V.G.Britvin, I.A.Melchuk, L.I.Belyaeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belonogov, I.S.Duganova, A.B.Kuznetsov kabilarni kiritish mumkin. Ushbu olimlarning asosiy xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta‘minot yaratib berishgan. Buning natijasida kompyuterlardagi ruscha

matnlarni tahrirlovchi dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud. Ya'ni bunda noto'g'ri yozilgan so'zning tagiga qizil chiziq chiziladi, so'z to'g'ri yozilganidan so'ng chiziq yo'qoladi. Ko'rinadiki, bu dastur, asosan, imloni tekshirishga mo'ljallangan, unda uslubiy xatolarni aniqlash ko'zda tutilmagan.

Ta'kidlash lozimki, bunday dasturlarni ishlab chiqish uchun til birliklarining nafaqat fonetik, semantik, morfologik xususiyatlari, balki aynan sintaktik — valentlik xususiyatlari hisobga olingan lingvistik ta'minot yaratish lozim bo'ladi. Rus tilshunosligida avtomatik tarzda tilga o'qitish yo'nalishida ham izchil tadqiqotlar olib borilgan. Ular oliy va o'rta maktabda til o'qitishni optimallashtirishning psixologik-kibernetik, semiotik, lingvostatistik, injener-lingvistik va lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Xususan, G.G.Piotrovskiyning o'quv qo'llanmasida EHM vositasida o'qitish, ya'ni lingvodidaktik vazifalarni kompyuter yordamida yechish, til o'rgatish jarayonini optimallashtirish, o'qituvchi lingvistik avtomat (O'LA) uchun nutqiy materiallarni tayyorlash (tanlash) kabi masalalar tadqiq qilingan. Tadqiqotlar natijasida ko'plab o'qituvchi lingvistik avtomatlar uchun lingvistik ta'minot yaratilgan bo'lib, bu dasturlar rus tilini o'qitish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tezaurus tizimi bir qancha davlatlarda samarali o'rganilgan. Shulardan biri bo'lgan rus tilshunolariga tayanib tahlil etganimizda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin, ya'ni rus tilshunosligida tezaurus quyidalarni o'z ichiga oladi:

1. Morfologiya va sintaksisga aloqadorligi.

2. Talaffuz qilinishi.

3. Ma'nolar tarkibi:

A) so'zning asl ma'nosi

B) sinonimi

C) antonimi

D) giperonimi

E) giponimi

4. Qarindosh so'zlar.

5. So'zlarning etimologiyasi.

6. Frazologizmlarda qo'llanishi.

7. Boshqa tillarda qo'llanishi.

Masalan, tezaurus terminining o'zini olib ko'radigan bo'lsak:

1. Morfologiya va sintaksisda

O'zak tezaurus — tezaurusning, tezaurusga, tezaurusdan, tezaurusni

Ko'plikda — tezauruslar

Predmet, ot so'z turkumiga mansub, turlanadi.

2. Talaffuz qilinishi

Birlikda [tʲɪˈzavʊs], ko'plikda [tʲɪˈzavʊslar]

3. Ma'no tarkibi

Tezaurus — so'zning hamma ma'nolarining birlashtirib til tomonidan ta'rif etilishi, semantikaga (so'z ma'nosiga) oid so'zlar orasidagi munosabat.

Hozirgi paytda semantikaga va lingvistikaga oid matnlar yetarli darajada tahlil qilinmagan.

A) sinonimlari - Ideografik luG'at

B) Antonimi

C) Giperonimi LuG'at

D) Giponimi

E) Qarindoshlik so'zlari

F) Eng yaqin qarindoshlik so'zlari

4. Etimologiyasi

Yunonchadan (θησαυρός) olingan bo'lib, "qimmatbaho narsa, bitmas-tugunmas xazina" ma'nosini anglatadi.

5. Frazelogizmlarda yoki turg‘un birikma shaklida qo‘llanishi

Lingvistikaga oid tezaurus

Statikaga oid tezaurus

Logika (mantiq)ga oid tezarus

6. Boshqa tillarda qo‘llanishi

Buyuk Britaniyada: thesaurus

Germaniyada: Thesaurus

Niderlandiyada: thesaurus, Bolgariyada: tezaurus

Portugaliyada: tesauo, Fransiya: thésaurus, thesaurus

Chexiyada: tezaurus, Ispaniyada: tesauo, tesoro

Italyada: thesaurus, Malayziyada: መመዝናዎ

Atroficha olib qarasak, informatika keng ma’noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq fan, texnikalarning xilma-xil tarmoqlari birligini o‘zida namoyon etadi. Kompyuterlar inson faoliyatida katta qulayliklar, yengilliklarni yaratadi.

Tezaurus bir necha darajalarga bo‘linadi. Tezauruslar darajalanishini tuzish muammosi esa yangilik emas va bir necha yillar davomida mamlakatimiz va chet elning qator lingvistlari (V.V.Morkovkin, L.P.Stupin, K.Marello va b.) e’tiborini tortgan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko‘rsatilgan leksigrafik asarlarning alternativ darajalari yaratildi. Ammo, bizning nazarimizda, mualliflar tezaurus turlarini tanlashda ayrim vaqtlarda darajalanishning umumiy kriteriyalar prinsipini nazarga olmaganda har doim ham bir xil usullarni qo‘llamaydilar, shu yo‘l bilan uning mantiq‘i buziladi. Bundan tashqari, keltirilgan darajalanishlar yetarli darajada tizimli va lug‘at-tezauruslarning barcha turlarini aks ettirmaydi. Shunga qaramay, bu masalaning avvalgi ishlanmalari ijobiy, ahamiyatli tajribalar beradi va biz hozirgi kunda ularga tayanib o‘zimizning lug‘at-tezauruslar darajalanishini yaratishga harakat qilaymiz.

Darajalanish, asosan, ingliz tilining zamonaviy tezauruslar materiallari asosida, bosma va elektron variantda ifodalangan qayta paydo bo‘lgan leksikografik hosilalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu darajalashga quyidagi kriteriyalar (mezonlar) asos qilib olingan:

1. So‘zlik birliklari o‘rtasidagi ma’noviy bog‘lanishlar turi.
2. So‘zlik hajmi.
3. So‘zlikning generallashuvi (asoslashishi).
4. Leksemalar qiymatini ishlab chiqish.
5. Leksemalarning grammatik-stilistik malakasi.
6. Leksemalar faoliyatining namoyishi.
7. Berilgan tillar soni.
8. Leksemalarni sistemaga solish uchun ishlatiladigan semiotik vositalar turi.

Darajalash O.M.Karpova va I.Burxanovlar tomonidan avvalroq yaratilgan darajalashga, shuningdek, inglizlar tomonidan tadqiq qilingan 30 dan ortiq lug‘at-tezauruslar ko‘rinishlaridan olgan shaxsiy natijalarga asoslangan. Darajalashda foydalaniladigan terminologiya V.V.Morkovin, Y.N.Karaulov, I.Burxanov, K.Marellolar tomonidan leksikografik apparatga kiritilgan. Darajalash mezonlari va O.M.Karpovalar tomonidan ifodalangan; mezonlar ta’riflari esa L.P.Stupinga tegishli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. — Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
2. Пулатов А., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси (ўқув қўлланма). — Тошкент, 2009.
3. Пулатов А.К. Тексты лекций по математической и компьютерной лингвистике (электронный вариант).
4. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. — Тошкент, Академнашр, 2011.
5. Раҳимов А. Компьютер лингвистикаси асослари. Тошкент, Академнашр, 2011.

O'ZBEK PUNKTUAGRAMMALARINING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTD O'RGANILISHI VA USLUBIY VAZIFA BAJARISH TALQINLARI

Gulshoda Shoniyozova,
Toshkent axborot texnologiyalari va menejment universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada punktuagrammalarining semantik, intonatsion va uslubiy vazifalari haqida ma'lumot berilgan. Misollar berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: Punktuagramma, intonatsiya, kulminatsiya, uslub, pragmatika

Tinish belgilari yozma nutqni to'G'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'G'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi. Punktuatsiya sintaktik fonetika, gap ohangi bilan uzviy bo'lgan. Ohang (intonatsiya) ovozning rang-barang tovlanishi: tinch boshlanishi, ko'tarilishi (kulminatsiyasi), pasayishi, susayishi, tugallanishi; tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho'ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomlilik, takrorlanishi kabilarda ko'rinadi. Ohang juda murakkab bo'lib, urg'u, pauza, melodika kabilar uning komponentlari hisoblanadi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifasini ohang boshqaradi.

Mustaqil O'zbekiston — kelajagi porloq davlatdir.

Mustaqil O'zbekiston — kelajagi porloq davlatdir?

Mustaqil O'zbekiston — kelajagi porloq davlatdir!

Mustaqil O'zbekiston — kelajagi porloq davlatdir!..

Bu gaplarning birinchisida xabar ohangi, ikkinchisida so'roq, uchinchi va to'rtinchi gaplarda esa his-hayajon, sevinch, mamnunlik ma'nolari ifodalanganidir. Gaplardagi tire ishorasi esa ta'kid ma'nosini kuchaytiradi. Bunday mazmuniy munosabatlar og'zaki nutqdaintonatsiya yordamida ifodalanadi, yozma nutqda esa punktuatsion belgilar yordamida ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, yozma matndagi ma'noni (maqsadni) tinish belgilari vositasida aniq tasavvur qilish mumkin. Punktuatsiya bilan ohang qanchalik yaqin bo'lmasin, ular o'ziga xosligi, qimmatli jihatidan har xil baholanadi: ohang (gap ohangi) -birlamchi, material tushuncha; punktogrammalar (tinish belgilari) -hosila; ohangning mahsuli, uni aks ettiruvchi shartli simvollaridir. Gaplar orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifodalashda ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar orqali ifodalanadi. Gapning grammatik qurilishi ham tinish belgilarining ishlatilishini belgilab beradi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi. Gap ohangi asosida tinish belgilari qo'yiladi. Undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta, tire tugallangan ohang bilan, vergul kichik to'xtam bilan, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire esa izoh ohangi bilan talaffuz qilinadi. Punktuatsiya -yozuv oynasi. Yozuv orqali ifodalangan har bir gapning mazmuni, ma'no turlari va sintaktik qismlari orasidagi turli munosabatlarni aniqlashda punktuatsiyaning o'rni muhimdir. Punktuatsiya yozuvchi va o'quvchi (kitobxon) o'rtasidagi ijtimoiy aloqa aralashuvni ta'minlashda ham muhimdir.

Antroposentrik tilshunoslikda yangi yo'nalishlardan biri pragmalingvistika hisoblanib, har bir lingvistik hodisaning pragmatik aspektida o'rganilishi bugungi tishunosligimizdagi dolzarb masalalardan biridir.

Pragmatika tushunchasi juda keng ma'noda bo'lib, insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi. Nafaqat insonga xos bo'lgan ijtimoiy xatti-harakatlar balki borliqdagi barcha narsa-predmetlarga xos bo'lgan harakatlar ham pragmatikaga doir. Masalan: g'isht quyuvchi asbob-uskunalarining ishlash jarayoni. Pragmatika so'zining ma'nosi ham grekcha pragmos

so‘zidan olingan bo‘lib, “ish”, “harakat” demakdir. Demak, biz pragmatikani umumiy ish harakat deb oladigan bo‘lsak unda lingvistik pragmatika (bugungi kunda lingvopragmatikava pragmalingvistika deb ham atalmoqda)nima? degan savol tug‘ilishi tabiiy hol. Bugungi kunda lingvistik pragmatikaga doir ko‘p manbalarda pragmatika va lingvistik pragmatika terminlari bir biridan farqlanmaydi.

Pragmatik yondashuv asosida punktuatsion belgilarning o‘rganilish tilshunosligimizdagi muhim vazifalardan biridir. Chunki tinish belgilarining o‘rni, ishlatilishi gapning butun mazmuniga ta‘sir qiladi.

Tinish belgilarning yozma nutqda qo‘llanishiga oid barcha funksiyalarni alohida-alohida ko‘rsatmay, ularga xos umumiy tomonlarni va yozma nutq jarayonida ko‘proq uchraydigan holatlarni ta‘kidlash bilan cheklanamiz. Tinish belgilari yozma tekstdagi mazmunni (ma‘noni, fikrni) aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: “Sho‘rim kursin! Shahodat! Kel! (Oybek) Birinchi gapda his-hayajon, ikkinchisida undov, uchinchisida buyruq ma‘nosi ifodalangan. Tinish belgilari, butun gapga xos umumiy mazmuniy munosabatlarni ifodalabgina qolmay, gap qismlariga xos - semantik munosabatlarni ham bildirish xususiyatiga egadir: Bolamga yana bir til tegdir — soqolingni bittalab yulaman, och arvoH (Oybek) It huradi — karvon o‘tadi. (Maqol) Shu yo‘l bilan bordik — yetdik murodga, She‘rimiz kasb etdi baloG‘at, kamol. (Uyg‘un) Keltirilgan qo‘shma gaplarning birinchisida shart, ikkinchisida ziddlik, uchinchisida sabab-natija munosabatlari ifodalangandir. Bunda tire qo‘shma gapni tashkil etuvchi gaplar orasidagi turli semantik aloqalarni (ma‘nolarni) anglatishiga qaramay, bir sintaktik vazifani — gaplarning birini ikkinchisidan ayirish vazifasini bajarmoqda. Bir tinish belgini bunday turli ma‘noda ishlatilishi punktuatsion polisemiya sanaladi. Bir tinish belgining turli xil funktsiyani bajarishi esa punktuatsion omonimiya hisoblanadi. Ba‘zan gaplardagi mazmun murakkab bo‘ladi. Bunday choqlarda tinish belgilari qo‘sh qo‘llanadi: Chambarchas payvandmi shunchalar mehri?! (F.Usmonova)

Tinish belgilari yozma tekstdagi gap bo‘laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o‘zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi— soedinenie, bo‘linishi — otdelenie, ajralishi— obosoblenie, ayrilishi — vdelenie kabilar) ni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Masalan: Onam, opam, akam, bobom, buvim va men—hammiz ayvonda dastgurxon atrofida davra qurganmiz. (O.) Opam Karomat—hali paranjisiz yosh qiz—maktabdan qaytadi. Birinchi gapda uyushiq bo‘laklar biri-ikkinchisidan vergul vositasida, ikkinchi gapda esa izohlovchi (hali paranjisiz yosh qiz) tire vositasida ajratilgandir. Verul belgilarining qator - ikki yoki undan ortiq qo‘llanilishi, asosan, gap oxirida, ba‘zan gap boshi yoki o‘rtasida ham kuzatilib, u bilan bo‘liq ayrim holatlar kuzatish mumkin. Masalan: [vergul + tire] — “Kamtarlik, - deydi Hamid Olimjon, - donolik yo‘lining boshlanishi” yoki [vergul + tire + ko‘p nuqta] - Xalos, xalos, - dedi mufti, - ...ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bolur. (A.Qodiriy) [qo‘sh tirnoq + vergul + tire] — “Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi”, - deydi ToG‘ay Murod. [so‘roq + undov + qavs + vergul] - Undan ko‘nglimni tamom sovitib yuboradigan xususiyatni atayin izlagan damlarim bo‘idi, shunday xususiyatni topguday bo‘lsam, oramizdagi inja munosabatiarga barham berilishiga bahonayi sabab bolarmikan degan xayollarda yurgan paytlarim bo‘ldi, biroq izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi iztirobiarimizning ilohiyligi?!), yo‘q, behuda ketdi desam yolG‘on aytgan bo‘laman. (X.Do‘stmuhammad) [so‘roq + undov + ko‘p nuqta + qo‘sh tirnoq + qavs + vergul] - Yozuvchining bu fikri (“Qaydasan go‘zalim?!”), dunyoqarashi uning yaxshi niyatda ekanini ko‘rsatadi [Валгина,1979:6 c]. Xulosa qilib aytish mumkinki, vergul tinish belisi pragmatik jihatdan yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to‘g‘ri ta‘minlash va yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma‘noni aniqlashtirish, farqlash hamda yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ko‘rsatib berish uchun ahamiyatli bo‘lsa, grammatik jihatdan esa gap qurilishini aniq belgilash - gap bo‘laklari, sodda yoki qo‘shmaligi, uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, undalma, kiritmalar, bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasidagi munosabatni ko‘rsatish, muallif va ko‘chirma gaplarni ajratish, yozma nutqni ixcham va ravon bayon qilish uchun ahamiyatlidir. Punktuatsiya va ohang ikki xil nutq turiga xos mustaqil kategoriyalar bo‘lib, bir-biriga teng kelmaydi, punktuatsiya intonatsiyaning yozuvdagi ifodasi emas. Ularning o‘zaro aloqadorligi haqida gapirilganda ohangning gapdagi darajasi hisobga olinadi. Punktuatsiya va intonatsiya munosabati alohida tadqiq manbai bo‘lib, eksperimental o‘rganishni talab etadi.

Tinish belgilari yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi—soedinenie, bo'linishi — otdelenie, ajralishi — obosoblenie, ayrilishi — vdenie kabilar) ni ko'rsatish uchun qo'llanadi. Tinish belgilari o'rtasida sinonimik munosabat mavjud. Ammo bu sinonimik munosabat har qanday o'rin almashinishlardan farqlanishi kerak, degan fikrdamiz. Mana masalan: Oyog'iga qizil saxtiyon etik, ustiga ko'k movut chakmon kiyib, belini kumush kamar bilan bog'lagan, boshiga esa qunduz telpak kiyib, uchiga qizil popiltiriq taqib olgan (bu popiltiriq amirlik alomati edi) amir Sulton Jondor tarxon ichkariga kirmoqchi bo'lib bir qadam bosdi-da, ikkilanib to'xtadi (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi"). Gapdagi muallif izohi sifatida keltirilgan kiritma har ikki tomondan qavs — () bilan ajratilgan yoki o'rab olingan. Bu belgini bemalol tire — (—) yoki vergul — (,) bilan bemalol ajratish mumkin [Bu qo'llanishlarni odatdagi vergul, tire, qavsning ishlatilishidan farqlash maqsadida qo'sh vergul, qo'sh tire, qo'sh qavs tarzida ham ishlatadi]. Xo'sh, bu kabi almashinishlar gapning mazmuniga yoki ifoda ottenkasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bizningcha, hech qanday! Bunday paytda bu har uchala tinish belgisi gapning grammatik qurilishi uchun xizmat qilayapti, xolos. Ma'no ottenkalarini farqlash vazifasini zimmasiga olmayapti. Shunday bo'lgandan keyin, ularni sinonimik tinish belgilari deb bo'lmaydi. Bu qo'llanishlarda biron-bir stilistik farqlanishlar sezilmaganligidan keyin ularni mutlaq sinonimlar yoki dubletlar tarzida qarash to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Chunki ular bu almashinishlarning barchasida bir xil semantik mazmunga ega va bir xil grammatik vazifani ado etmoqda.

Hozirgi kunda punktuatsiyaning roli ortib, uning funksiyasi va qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Bu hodisa respublikamizda matbaachilik, matbuot va nashriyot ishlarining keng rivojlanishi, o'zbek yozuv madaniyatining taraqqiy etishi, kishilar savodxonligining oshishi va ularning o'z amaliy faoliyatlarida nutqning barcha formalaridan foydalana olishlari, adabiy til ta'sirining kengayishi, adabiy til funksional stillarining paydo bo'lishi va takomillashuvi- nutq madaniyatining keng ko'lamda ravnaq topishi va o'sishi bilan izohlanadi. Punktuatsiyaning tilshunoslikning boshqa sohalari: sintaksis, orfografiya, grafika bo'limlari, shuningdek, adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi fanlari bilan hamkorlikdagi taraqqiyoti davomida oydinlashib boradi.

Puntuagrammalar semantik nuqtayi nazardan ma'no farqlashga yordam beradi:

Suv keldi // cho'llarda hayot boshlandi

Ana uvlar dahshat shamoli // Ko'kni qora bulut quchadi. (Temur Fattoh)

Yuragida qanday dard bor // mana bu menga sir. (Oybek)

Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi // yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi.

(Asqad Muxtor)

Mening bir jaydari falsafamdir shu// Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A.Oripov)

Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi

Hamma ishlaringizda to'G'ri bo'ling// odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli

bo'lsin! (Hadis)

Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi // yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, punktuagrammalarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Ularning har biri semantik, uslubiy, intonatsion vazifa bajaradi. Shuning uchun ham punktuagrammalar nihoyatda ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilida tinish belgilarning ketma-ket qo'llanilishi va ularning o'zarovsinonimik munosabatlari. Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o'qituvchisi. Maqola.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. — 13-bet.
3. Mahmudov N, Madvaliyev A, Mahkamov N. O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. T.: "O'zbekiston". 2015.

4. Alimuhammedov R. “Qadimgi turkiy til bitiklarida punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatiladigan ishoralar”. Xorijiy filologiya”.1-son.T.:2016.
5. Bahriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. T.: “Akademnashr” 2015.
6. G‘ulomov A. O‘zbek tili punktuatsiyasi.T.: “O‘qituvchi” 1992.
7. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida punktuatsiya. Toshkent.1995.

O‘ZBEK TILIDA SINESTEZIYANING VOQELANISHI

Mavludaxon Oripova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada sinesteziya neyrologiya, psixologiya va lingvistikaning o‘rganilish obyekti bo‘lgan murakkab kognitiv jarayon ekanligi hamda sinesteziyaning leksik ma‘no taraqqiyotidagi o‘rni ochib berilgan. Sinesteziya metaforalar oddiy o‘xshatishlar emasligi, ular murakkab kognitiv jarayonlar natijasi ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sinesteziya, sinestetlar, neyrolingvistika, kognitiv faoliyat, ma‘no taraqqiyoti, fonosemantika, metaforalar.

Dunyoning yaxlitligi tushunib bo‘lmaydigan darajada haqiqatdir. Olamni bilish jarayoni va uning tilda aks etishi ham yaxlit bo‘lib, bu ayni paytda tilda yangi bilim nazariyalari bilan sug‘orilgan idrok va fikrlash orqali amalga oshiriladi. Borliqni anglashda idrok va badiiy tafakkurning yaxlit tizimidagi sezgilarning o‘rni ham ahamiyatli. Sezgilarning bir-biri bilan o‘zaro ta‘sirining o‘ziga xos shakli bu — sinesteziya. Biroq olamni sinesteziya anglash sinesteziyani o‘rganishning yuqori saviyadagi tadqiqot darajasida olib borishni talab qiladi. Bunday tadqiqotlar ilmiy tajribalarga asoslangan tarzda olib borilmasa, sinesteziya, uning tilda aks etishi - idrok etish patologiyasi deb qaraladi.

Bizga ma‘lumki, antroposentrik tilshunoslikda til o‘z egasi bilan birga tadqiq qilinmoqda. Boduen de Kurtene ta‘kidlaganidek, tillar, nafaqat, tovush va grammatik tuzilishi bilan farq qiladi, balki turlicha madaniyat, turlicha dunyoqarash, turlicha yashash tarzi va psixologiyaga ega bo‘lgan sohibining tilga ta‘siri bilan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan murakkab neyropsixologik jarayon hisoblangan sinesteziyaning tilda aks etishini o‘rganish bugungi tilshunoslik uchun ham muhim masala hisoblanadi. Sinesteziya lisoniy hodisa sifatida o‘zbek tilshunosligida monografik planda tadqiq qilinmagan.

M. Mirtojiev va M. Yo‘ldashevlar o‘z monografiyalarida sinesteziyaga asoslangan metaforalarga qisqacha to‘xtalib o‘tishgan bo‘lsa, tilshunos olim

N. Mahmudov “Tuyg‘ular taloshi yoxud sezgilar hamkorligi manzaralari” maqolasida Rauf Parfi she‘riyatiga murojaat qilib, sinesteziya metaforalarning badiiy tahlilini yoritgan. M. Hakimova “Ma‘noni sinesteziya orqali o‘rganish” ilmiy maqolasida sinesteziyaning fonosemantika va leksik ma‘no taraqqiyotidagi o‘rniga to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqotning maqsadi: sinesteziya kognitiv, neyropsixologik jarayon sifatida talqin qilinib, uning tilga ta‘siri masalasi tadqiq etiladi. Masalan, sinesteziyaning fonosemantikaga, nom tanlashga, so‘z ma‘no taraqqiyotini belgilashga, nutqiy ma‘nolarning shakllanishiga ilmiy ta‘siri masalasi o‘rganiladi.

Sinesteziya va uning obyektiv voqelikni idrok etish va tilda aks ettirishdagi rolini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega, chunki u bizga nafaqat turli davrlarda olamni kognitiv bilishdagi o‘rnini, balki zamonaviy jamiyat muammolarini hal qilishda, ya‘ni zamonaviy texnologik sintez muammosini muvaffaqiyatli hal qiladi. Xususan, 1993-yil matematik va yozuvchi V. Vernor VISION -21 simpoziumida so‘zlagan ma‘ruzasida “Yerni inson paydo bo‘lishi bilan taqqoslaganda biz o‘ta kuchli o‘zgarishlar yoqasida turibmiz, deb ta‘kidlaydi. Ushbu o‘zgarishlarning sababi shundaki, texnologiyaning rivojlanishi muvaffaqiyatli ravishda inson aqlidan yuqori bo‘lgan aqlga ega bo‘lgan subyektlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Kompyuterlar “ongli” bo‘ladi va g‘ayritabiiy aql paydo bo‘ladi. Texnika, kompyuter tarmoqlari g‘ayritabiiy aqlli mavjudotlar sifatida “o‘zini o‘zi anglay oladi” [Буданов,2006: ст 79].

Vernor tomonidan ushbu fikrlar 30 yil avval ilgari surilgan bo'lsa, bu qisqa yillar davomida fan va texnika shu darajada shiddat bilan rivojlandiki, inson qo'li bilan amalga oshirilishi kerak bo'lgan mehnat faoliyati inson omili tomonidan yaratilgan "sun'iy intilekt" vositasida amalga oshirilmoqda. Texnika olamga xukmron bo'lgan davrda olamni kognitiv anglashga aql - bovar qilmagan holatlarni, tabiiyki, sezgilar orqali idrok qilinadi va bu tilda akslanadi. Bu inson omilining borliqda kechayotgan tub o'zgarishlarga tez moslasha olishini ta'minlaydi.

Sinesteziya termini grekchadan olingan bo'lib, birgalikda his qilish degan ma'noni beradi. Sinesteziya muayyan sezgi a'zolarining ta'sirlanishi orqali boshqa sezgi a'zolarida ham shunga mos tuyg'ularning paydo bo'lishidir [<https://ru.wikipedia>].

Biz sinesteziyani bilishning muhim tarkibiy qismlaridan biri deb qarar ekanmiz, demak, kognitiv salohiyatni shakllantirishda kognitiv asos vazifasini o'taydi va uning asosida "sezish va tushunish" yotadi.

Olamni bilishda sezgilarning ahamiyatini sharqdan yetishib chiqqan buyuk mutaffakirlardan Farobiy "Fanlar tasnifi" asarida va Ibn Sino "Kitob un-najot" asarlarida chuqur yoritib o'tganlar.

Farobiy sezgi a'zolari vositasida hosil qilinadigan bilimlarni hissiy bilish natijalari — mahsulot deb ataydi va uni atroficha tasnif qiladi. Uning fikricha, buyum va hodisalarning muayyan fizik xususiyatlarining sezgi a'zolariga ta'siri natijasida inson bu buyumlar va ularning xususiyatlari haqida ma'lum bir bilimga ega bo'ladi. Bu bilim asosan buyum va hodisalarning tashqi belgilarini, ya'ni aksidensiyalarini ifodalaydi. Inson hissiy bilish vositasida buyumning tashqi ko'rinishi, tuzilishi haqida bilimga ega bo'ladi, lekin buyumning mohiyatini bila olmaydi. Bu haqida Farobiy shunday deb yozadi: "Tashqi sezgilar sof tushunchalarni qabul qilmaydi, ularni (moddiy substrat bilan) aralashtirib yuboradi va qabul qilayotgan obyekt yo'qolgandan so'ng ularni mustahkamlaydi. Sezgi (masalan) Zaydni insonning sof tushunchasi sifatida qabul qilmaydi, (real) insonni unga faqat son, sifat, o'rin, vaziyat va boshqa (kategoriyalar) emas, balki yanada ko'p sonli holatlarning taaluqli bo'lishini qabul qilmaydi. Agar bu holatlar inson (tushunchasining) haqiqiy mohiyatiga kirganda, unda ular hamma odamlar uchun umumiy bo'lardi [Farobiy, 1998: 137-138].

Demak, Farobiyning fikricha inson sezgilar vositasida yakka buyumlarning juz'iy jihatlarinigina biladi va ular haqida empirik tushuncha hosil qiladi. Lekin sezgilarning biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bir sezgi boshqa bir sezgiga o'z vazifasini berish orqali inson olamda mavjud bo'lgan ayrim mavhum tushunchalarni kognitiv idrok eta olishi va uni tilda akslantirishidir. Sezgilarning bunday vazifalari lingvistikaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri fonosemantikada yaqqol ko'rinsa, sinestezik metaforalarda esa murakkab tushunchalar mohiyati sezgilar orqali sodda ochiq lanadi.

Sinesteziyaning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri olamda faqatgina eshitish orqali idrok etish mumkin bo'lgan holatlarni turli ranglarda ko'ra olish. Bunda tovushlar rangli ko'rinadi. Sinesteziyaning bu turi tilshunoslikda fonosemantikaning rivojiga kata hissa qo'shgan.

Bugungi kunda fonosemantika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, tovushlarning ma'noga ega ekanligi masalasini ilgari suradi.

Bunda Evropa tilshunosligida tovushlarning rangga, shaklga, hidga, xarakterga egaligi kabi masalalar va bir qator erishilgan natijalar ham mavjud. Masalan, rus tilshunosligida tovushlarning turli ranglarga o'xshatilishini quyidagi rasmda ham ko'rish mumkin:

Tovushlarning rangga, hidga, shaklga, xarakterga ega ekanligini biz qabul qila olmasak ham, onomastika sohasida quyidagi jihatlar e'tiborli. Masalan, antroponimlarning o'zi nomlayotgan shaxsga ta'siri, toponimlar, antroponimlar, zoonim va gidronimlarning naminatsiya masalasi hamda leksema fonetik qobig'ining kishilar ruhiyatiga ta'siri va boshqa masalalar.

Bu o'rinda tashkilot, korxona va boshqa muassasalarning hamda reklama matnlarining tovush tomonini xalq ruhiyatiga va tafakkuriga ta'siri masalasi ham kun tartibiga qo'yilishi mumkin.

Sinesteziyaning fonosemantikaga ta'siridan tashqari so'z ma'nosiga ta'siri, ya'ni leksik ma'no taraqqiyotidagi o'rni ko'proq ilmiy ko'rinish kasb etadi. Sinesteziya lingvistik birlik sifatida jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy ishlar unchalik ko'p emas. Shvetsariyalik tilshunos St. Ulman...so'z semantik taraqqiyotida tabu, evfemizm, sinesteziya kabi psixik hodisalar ham o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, deb yozadi. K.

Baldinger sinesteziyani psixik hodisa emas, fiziologik hodisa deb, ma’no taraqqiyotlaridan biri sifatida qaraydi. Rus tilshunosi V. A. Zveginsev ham so‘z semantik taraqqiyotini mantiqiy-semantik hodisalar nuqtayi nazaridan turib tahlil qilishni yoqlaydi. Shuningdek, bunga u, xalq tarixi va tilning tarkibiy xususiyati bilan bog‘liq holda tahlil etishni ilova qilish kerak, deb hisoblaydi [Звегинцев, 1957:236].

O‘zbek tilshunosligiga doir adabiyotlarda sinesteziyaga metaforaning bir ko‘rinishi sifatida qarashlar uchraydi. Tilshunos olim M. Mirtojiyev sinesteziyani metaforaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi.” Sinesteziya metaforaning shunday bir ko‘rinishiki, unda hosila ma’noning ma’lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma’noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o‘xshatilgan bo‘ladi. Referentlar tamoman boshqa-boshqa sezgilar bilan qabul qilinsa ham ular xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o‘xshatilgan hech qanday o‘xshashlikka ham hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, mayin so‘zining genetic ma’nosi tola yoki u bilan bog‘liq buyumning belgisini ifoda etadi. Bu so‘zning hosila ma’nosi ovosning ohista va yoqimli belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlarining umuman sezgiga ta’sir etish xususiyatlari o‘zaro o‘xshatilgan va shunga ko‘ra hosila ma’no yuzaga keltirilgan, ya’ni sinesteziya sodir bo‘lgan” [Mirtojiyev, 2010: 99].

Xuddi shu kabi har bir xalq egalarida muayyan sezgi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘ular boshqa bir tuyg‘uga o‘xshatiladi va bevosita tilda akslanadi. Bu o‘rinda ikki sezgining o‘zaro qorishiqqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o‘ziga xosligi haqida gap boradi, ya’ni bu jarayonlar lingvokulturologik yondashuv asosida ilmiy tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilida shirin leksemasi ta’m bilish sezgisi orqali his qilinuvchi tuyg‘uni — belgini ifodalaydi va u iste’mol qilinadigan narsalarga nisbatan qo‘llanadi. Shirin so‘zini ovozga, ya’ni eshitish orqali his qilinuvchi narsalarga, hidga, ko‘rinishga nisbatan qo‘llash sinesteziyaga misol bo‘ladi: shirin choy — (o‘z ma’nosida), shirin ovoz, shirin so‘z — (eshitish sezgisi orqali), shirin bola — (ko‘rish sezgisi orqali), shirin hid — (hidlash sezgisi orqali).

1. Sening birlan shirin so‘zim, Zahar yutsam shakar bo‘lg‘ay. (E. Vohidov)
2. Hamsuhbatim, Ham ulfatim, Jajji shirin go‘daklar. (E. Vohidov)

Demak, sinestezik metaforalarda umuman o‘xshamagan voqeliklar bir xil nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tilda millatning ruhiyati yashaydi. Muayyan bir xalqning ruhiyati, madaniyati, olamni anglashdagi o‘ziga xos qarashlari uning tiliga, jumladan leksikonida mavjud leksemalarning ma’no taraqqiyotiga ta’sir qilmay qo‘ymaydi. Olamni sinestezik bilish orqali ham tilda muayyan nominatsiyalar yaratilgan hamda u shu xalq ruhiyatini o‘zida aks ettiradi. Va aksincha, til elementlarining shakli — tovush qobig‘i ham inson ruhiyatiga ta’sir qila oladi. Nutq jarayoni vaziyatidan kelib chiqib, lisoniy va nutqiy birliklarni to‘g‘ri qo‘llash, tashkilot va mussasalarning nomlarini to‘g‘ri tanlash, reklama matnlaridagi so‘zlarning aytilishi va eshutilishi masalalariga e’tibor qaratish maqsadga erishishda belgilovchi omillardan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайцева М.Л. “Чувствознание”: когнитивный потенциал синестезии. Вестник, 2010.
3. Зайцева М.Л. Синестезийное восприятие произведений искусства: обогащение и гармонизация когнитивных процессов. - 2016.
4. Звегинцев В. Л. Семасиология. — М.: МПУ. 1957. — С. 236-261.
5. Йўлдошев. М. Вячеслав Ли шеърийатининг лингвопоетик хусусиятлари. <https://koryo-saram.ru/vyacheslav-li-sheriyatining-lingvopoetik-hususiyatlari/><https://ru.wikipedia.org/>
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. — Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. — Б. 5.

TARIXIY DIGNITONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Maqsuda Xusanova,
Renessans ta'lim universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada tarixiy dignitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari tablil qilingan. Dignitonim tushunchasi, ularning shakllanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: unvon, leksema, ko'lam, tarixiy, xon, bukmidor

Qadimgi turkiy tillarga xos xususiyatlar hozirgi turkiy tillarda kuzatiladi. Turk xoqonligi davrida qo'llangan leksemalarning katta qismi hozirgi turkiy tillarda iste'mol qilinadi [Aydarov, 1971: 380]. Tilshunos olim E. Begmatov "Qadimgi turkiy lug'at" ga tayangan holda qadimgi turkiy tilga xos 2 500 dan ortiq leksemaning hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishini hamda mazkur leksemalar turli yo'nalishdagi tushuncha ifodalari bo'lib, yigirmaga yaqin leksik-semantik guruhga mansubligini ta'kidlaydi [Begmatov, 1985: 65]. Shu o'rinda onomastikaning ko'lamlaridan biri bo'lgan dignitonimlar haqida to'xtalib o'tsak. Dignitonim lotin tilidagi "dignitas" so'zidan olingan bo'lib, "qadr qimmat, xizmat yoki taqdirlashga loyiq ish" kabi ma'nolarni bildiradi. "Dignitonim — faxriy unvonlar, mansablar va sh.k. atoqli ot" [Begmatov, 2013: 37]. Dignitonim haqida o'zbek tili terminologiyasida boshqa ma'lumotlar uchramaydi. Mazkur mavzu tadqiq etilmagan. Har qanday xalq tarixida muayan tarixiy qimmatga ega bo'lgan unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon)lar ta'sis etiladi va ular ma'lum davrda faol qo'llanadi. Unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon) nomlariga narsalar, voqea-hodisalarning mazmunidan kelib chiqib maxsus nomlar beriladi. Mana shu nomlar onomastikada dignitonim (davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta'sis qilingan unvonlar)lar deb yuritiladi. Demak, dignitonim inson aqliy, g'oyaviy va badiiy faoliyati mahsuli bo'lgan unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon) nomlarining atoqli otlaridir. Dignitonimlar o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ega bo'lib, ularning shakllanishi tengsizlik kuchayib, tabaqalanish yuzaga kelgan davrga borib taqaladi. Qadimda mansab - unvonlar bir xil qiymatga ega bo'lgan. Ba'zi dignitonimlarni ma'nosi avlod vakillari uchun notanish. Ushbu nomlarni ma'nosini o'rganish tarixiy so'zlarni ma'nosini aniqlashga, tariximizni bilishga undaydi. Tarixiy dignitonimlar xalq hayotining turli davrlarida vujudga kelgan, xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti tarixi, madaniyati va tili haqida muayyan qimmatga ega ma'lumotlarni ifodalovchi qadimiy unvon nomlaridir. Tarixiy dignitonimni ma'nosini to'xtalib o'tsak.

Shad unvoni. Bitigtoshlar, eng avvalo turkiy xalqlarning yozma adabiyoti namunalaridir. Bu bitigtosh ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlab 712-716-yillarda yozilgan. To'nyuquq Qopog'on va Bilga xoqonlarning ham maslahatchisi bo'lgan. To'nyuquq bitigini o'zi tirikligida yozdirgan. "Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig'i shad edi. Unvon ol, dedi. Unvon oladigani men edim — Bilga To'nyuquq". Tosh bitiklarda qayd etilishicha, Tunyuquq qahramonliklar ko'rsatib, shad unvonini olishi eramizning 700 (yetti yuzinchi) yillarida ro'y bergan. Shad unvoni qondosh va biror beklik yoki viloyatga hokimlik qilgan shohzodalarga berilgan [Nasimxon Raxmon, 1993: 40].

Aksariyat turkiy tillarda qo'llanuvchi mansab va unvon nomlari mavjud bo'lib, ushbu leksemalar o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tatar, ozarbayjon, boshqird tillarida qo'llanib kelgan. Bu leksemalar bek, biy, otabek, oqsoqol, xon [Mo'minova, 2000: 6] va hokazolar.

Xoqon so'zi xon ma'nosini ifodalagan: Bu termin mavjud adabiyotlarning ko'pchiligida turkiy qatlamga mansubligi qayd etilgan. Ba'zi turkologlar, jumladan, N.A. Baskakov ushbu so'z kelib chiqishi xitoy tiliga aloqadorligini ko'rsatadi [Baskakov, 1989: 61]. N.A. Baskakov ta'kidlashicha, "xon" so'z qadimgi turkiylar, mo'g'ullar va qadimgi bolg'arlarda "davlat boshlig'i" ma'nosida qo'llangan, bu so'z xitoycha kuan- xon so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli [N.A. Baskakov, 1985: 42]. Tilshunos olim H. Dadaboyev ushbu so'zning etimologiyasini G. Dyorfer tadqiqotlariga asoslangan holda bayon

qiladi [Dadabayev, 1991: 61]. V-VI asr yodnomalaridagi bitiklarda ham xoqon termini uchraydi. Bu termin unvonni ifodalash uchun uyg‘urlar, mo‘g‘ullar, xitoylar, manjurlar saroylarida ishlatila boshlangan. Mo‘g‘ullar tangalarida kaan (hoqon ma’nosida) so‘zi uchraydi. Xoqon so‘zi tobatlar davrida ham uchraydi. Shimoliy Mug‘ulistonda III asrda hukmronlik qilgan Linxan tobatlarning 67-hukmdori sifatida o‘zini xon deb atagan. Shundayqilib xon termini xoqon atamasi bilan bir xil darajada qo‘llanilgan [Brokgauz F.A., Yefron I.A., 2013: 524]. Sh. Rahmatullayev xon va xoqon so‘zlarini izohlarkan, xon (kichikroq davlatning mutloq hukmdori, shoh) va xoqon (yirik davlatning mutlaq hukmdori, ulug‘ xon) [Rahmatullayev, 2000: 401] ekanligini ta’kidlaydi.

Xon dignitonimi “xon, sulton, davlat boshlig‘i” kabi ma’nolarni bildirgan. U quyidagi ma’nolarni anglatgan: 1. xon, imperator. 2. xon faqat xonlar avlodidagi sultonlarga berilgan. Asli bu so‘zning genetikasi xitoy tilida -ke (ulug‘) va kuan (xon) birikishidan hosil bo‘lgan. Qadimgi bitiktosh yodgorliklarida ham xon termini ishlatilgan. Turk bo‘dun qanin bilmayin Tabg‘achga adrilti, ya’ni Turk xalqi xonini topolmay, Tabg‘achdan ayrildi [Is’hoqov, Sodiqov, Omonov, 2009: 11]. V.V. Bartold ta’kidlagandek, qadimgi turk tilida qan > xon holatda qo‘llangan. Ba’zi arab tilidagi manbalarda, ya’ni “At-Tuxfa” asarida qan fonetik holatida uchrab, “xon, sulton” ma’nolarini anglatadi. Xoqon so‘zi XI-XIV asr yodnomalarida “davlat boshlig‘i” ma’nosini bildirgan [Dadabayev, 1991: 61]. Ma’lumki, turkiy tillar tarkibida x tovushi mos bo‘lmaganligi tufayli boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagi x harfi portlovchi q bilan aytilgan va yozilgan. O‘rta Osiyo mo‘g‘illar tomonidan ishg‘ol qilingandan so‘ng davlatni Chingizxon boshqara boshlagan. Shundan buyon Chingizxonning avlodiga xon unvon tariqasida berilgan. “Yunusxon va Esan Bug‘raxon Vaysxonning o‘g‘lonlari edi” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2014: 9]. Demak, xon bir qabilaning boshlig‘i ma’nosini bildirsa, xoqon leksemasi xonlarning xoni ma’nosini anglatadi.

Podshah leksemasi hukmronlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh degan ma’noni anglatadi. Podsho(h) leksemasi xalq og‘zaki ijodida faol qo‘llangan. Mazkur unvoni sinonimi sulton, xon leksemalari ishlatiladi.

Sulton leksemasi oliy xukmdor, podsho ma’nosida Navoiy asarlarida uchratamiz. Sulton unvoni buyuk davlatlarning oliy unvoni bo‘lib, to mo‘g‘ul istilosiga qadar qo‘llangan. Keyinchalik, Temuriylar davlat davrida faxrli, sharaflı sifatida keng iste’molda bo‘lgan. “Dehli Sulton A’loddinning ilgida edi. Bu tabaqa sayyidtur. Temurbek Dehlini olg‘onda Dehli hukumatini bularning otalarig‘a berib edi” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2014: 270].

VIII asrda Markaziy Osiyoni arablar bosib oldi [Karimov Sh, Shamsutdinov, 1997: 137]. Arablar istilosidan keyin turkiy xalqlarni davlat boshqaruvida diniy ulamolar asosiy o‘rini egallaydi. Diniy hamda dunyoviy bilimi yetuk shaxs xalifa, sayyid, shayxislom, vali, imom kabi unvonlar berilgan.

Sayyid leksemasi 1. Payg‘ambar avlodidan; 2. Boshliq, yo‘lboshchi. Ma’lumki, musulmon hukmdorlari tomonidan sayyidlarga hurmat-izzat ko‘rsatilgan. Sayyid Ali Hamadoniy — tasavvuf olimi. Amir Temur bilan diniy masalalarda suhbatlashgan. Ikki yuzga yaqin risola yozgan [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2014: 134].

Shayx — tasavvufning tariqatiga kirgan shaxslar. O‘rta Osiyoda diniy bilimga ega kishilar va ulamolar ismiga qo‘shib aytilgan unvon bo‘lib, yoshi kattalarga hurmat yuzasidan ishlatiladi. Shuningdek, diniy fanlarni chuqur bilgan olimlar va diniy yo‘lda katta obro‘-e’tibor shaxslarga nisbatan ham qo‘llangan. A. Otajonova shayx so‘zi unvon, mansab nomlari asosida paydo bo‘lgan etnonim ekanligini [Otajonova, 1997: 43], A. N. Baskakov esa “hurmatli va axloqli odam; jamoa, qabila boshlig‘i; erkaklar monastiri boshlig‘i” [Baskakov, 1979: 235] deb ta’kidlaydi. “Uning avlodlari ham Temuriylarga sadoqat bilan xizmat qilgan. Bobur Alibekning Shayx Ali Bahodir avlodi ekanini ta’kidlab o‘tgan” [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2014: 14].

Umuman, mansab - unvon ifodalovchi dignitonimlarni turli davrlar manbalari asosida o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, chunki har bir davrda o‘ziga xos dignitonimlar yuzaga kelgan. Siyosiy-iqtisodiy munosabatlarning, holatlarning o‘zgarishi natijasida yangi leksemalar paydo bo‘ladi, ilgaridan qo‘llanib kelgan ba’zilari esa iste’moldan chiqib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aydarov G.Yu. Yazik orxonskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti VII veka. — Alma-Ata, 1971.
2. Baskakov N.A. Russkiye familii tyurkskogo proisxojdeniya.-M.: Nauka, 1979.-S.235.
3. Baskakov N.A. Tutulı i zvaniya v sotsialnoy strukture byvshego Xivinskogo xanstva//Sovetskaya tyurkologiya. 1989. № 1. — S. 61.
4. Baskakov N.A. Tyurkskiye elementi v "Slove o polku Igoreve". — M.: Nauka, 1985. — S. 42.
5. Begmatov E.Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. — T.: Fan, 1985. — B.65-73.
6. Begmatov E.A.O'zbek tili antroponimikasi. — T.: 2013. — B.37.
7. Brokgauz F.A., Yefron I.A. Ensiklopedicheskiy slovar. — M.: 2013. — B. 524.
8. Dadabayev X. Obshchestvenno — politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazyichnykh pismennykh pamyatnikax XI-XIV vv. — Toshkent. 1991. — S. 61-63.
9. Is'hoqov, Q.Sodiqov, Q.Omonov. Mangu bitiklar. — Toshkent. 2009.
10. Karimov Sh, Shamsutdinov R.Vatan tarixi.-K.1. — T.: O'qituvchi,1997. — B. 137-142.
11. Mo'minova A. Q. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi .Fil.fan. nom.ilmiiy dar.olish uchun.diss.avtoref. — T.: 2000. — B. 6.
12. Nasimxon Raxmon.Turk xaqonligi. —T.: 1993. — B. 40.
13. Otajonova A.Xorazm etnotoponimlari. —T.: Fan, 1997. — B. 43.
14. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. —T.: Universitet, 2000. — B. 401-402.
15. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. — Toshkent. 2014

AFG'ONISTON O'ZBEK SHEVALARIDA ISHLATILGAN RAVISHDOSH QO'SHIMCHALARI

Feada M. Samadbek

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bu tadqiqotda Afg'oniston o'zbek shevalarida mavjud bo'lgan ravishdosh qo'shimchalarini aniqlashga harakat qilingan, standart o'zbek tilida o'rin tutgan yoki o'rin olmagan ravishdosh qo'shimchalarining borligi va ma'nolarini aniqlashga harakat etildi. Ravishdosh qo'shimchalari bilan aloqali kompilyatsiyalar esa Afg'oniston o'zbek tilida so'zlashuvchilar tomonidan tuzilgan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, O'zbek tili, Afg'oniston o'zbek shevalari, ravishdosh qo'shimchasi.

Qarluq, qipchoq va o'g'uz shevalari asosidagi Afg'oniston o'zbek dialektlari, ayrim fonetik va morfologik farqlarni hisobga olmaganda, ko'p holatda bir-biriga o'xshaydi. Afg'onistonda o'zbek tili, Afg'onistonda bir joyda yoki alohida hududlarda yashaydigan o'zbek, qarluq, qirg'iz, qipchoq, qozoq, tatar va boshqalar, Turk qabilalariga mansub odamlar tomonidan gapiriladi. Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar qarluq, qipchoq, chig'atoy, qo'ng'iro't va qatag'on o'zbeklariga bo'linadi. Bizning tasbitlarga ko'ra, chig'atoy deb atalgan turk jamoasi Qunduz va Badaxshonda, qo'ng'iro't o'zbek qabilalari esa Mozori Sharif atrofida yashaydi. Chig'atoy va qo'ng'iro't o'zbeklarining tillari ham o'zbekchaga juda yaqin. Bu qabilalarning barchasi asosan Afg'oniston shimolida yashaydi va o'zbek tilida so'zlashadi. Yana Afg'oniston o'zbeklari orasida yashaydigan tatar, qozoq, qirg'iz, qipchoq, uyg'ur, qoraqalpoq kabi turk qabilalariga mansub bo'lgan kishilarning ko'pchiligini va o'tmishdan beri birga yashab kelgan o'zbeklarning tillarida gaplashganlarini ham aniqlashtirdik. Bu qabilalarga mansub ba'zi odamlar ham siyosiy va bunga o'xshash sabablarga ko'ra o'z kimliklarini yashirganlarini ko'rdik. Afg'onistonda ming, qipchoq, qatag'an, saroy, mo'ytan, burg'e kabi [Barlas, 1994:129-139] yuzga yaqin o'zbek qabilalari yashamoqda [Jarring, 1939:29]. O'zbek turklari orasida yashagan turk qabilalari, ba'zi tovush va shakl tuzilmalarining ishlatishi mavzusida konservativ harakat qilib, tillaridagi ba'zi tovush va shakl xususiyatlarini saqlab qolganlar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi, Afg‘oniston o‘zbek shevalariga tegishli tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qilishdir. Zamonaviy turk shevalari sohasidagi shevashunoslik, tarixiy turkiy shevalar muammolarinig yoritishida juda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek shevalaridan foydalanib tayyorlangan ravishdosh qo‘shimchalari, Afg‘oniston o‘zbeklari orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan ravishdosh qo‘shimchalaridir. Qishloqlarda yashaydigan o‘zbeklar o‘rtasida qilinadigan kompilyatsiyalar bilan birga bu raqamning yana ortishiga ishonamiz. Tadqiqotimizga mavzu bo‘lgan material Afg‘onistonda; Foryob, Javzijon, Saripul, Samangon, Bag‘lon, Qunduz, Taxor, Badaxshonda yashaydigan va ona tili o‘zbekcha bo‘lgan o‘zbeklardan hozirlangan.

Afg‘oniston o‘zbeklari, asosan Qatag‘an va Turkiston oti bilan ikki geografik mintaqaga bo‘lingan Afg‘onistonning shimolida yashaydilar. Qatag‘an mintaqasi Qunduz, Taxor, Bag‘lon va Badaxshon viloyatlarini qamrab olgan bo‘lib, Samangondan va Mozori Sharifdan Hirotgacha bo‘lgan hudud “Turkiston” nomi bilan toniladi. Shimoliy Afg‘onistonni tashkil etuvchi (Badahshondan Hirotgacha) mintaq, 1890-yillargacha O‘rta Osiyodagi Turkiston xonliklarining [Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklari] hududlarini o‘z ichiga olgan. Mintaqa ayni paytda, Ural tog‘laridan Hindukush tog‘larigacha cho‘zilgan Katta Turkiston geografiyasining janubiy qismini tashkil etmoqdadir. Darhaqiqat, Shimoliy Afg‘onistonni mamlakatning boshqa qismlaridan ajratib turuvchi Hindukush tog‘larining shimoliy etaklari hozirgacha Band-i Turkiston (Turkiston chegarasi) nomi bilan bilinmoqda. Shuning uchun Afg‘onistonning shimoli, Turkiston deb ataladi.

Ikki o‘zbek davlati, Temuriylar va Bobur sulolalarining bugungi Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonni qamrab olgan keng bir geografiyada asrlar davomida hukmronlik qilishlari natijasida Afg‘onistondagi o‘zbek aholisining soni ko‘payib ketdi.

O‘zbeklar Afg‘onistonning Foryob, Javzijon, Saripul, Samangon, Bag‘lon, Qunduz, Taxor, Badaxshon, Hirot, Mozori Sharif va Kobul viloyatlarida yashaydilar. O‘zbeklarning eng zich yashaydigan hudud Foryob va Taxor viloyatlaridir. O‘zbeklar, Badaxshon viloyatining “Argu, Xosh, Jurm, Bahorak, Kishm, Teshkon, Darayim, Yaftal, Varduch, Fayzobod, Shahri-Buzurg, Pomir, Qiri” tumanlarida yashaydilar. Nasablari chung, barak, rubobiy, argu va tatar qabilalariga mansub. Shuningdek, mintaqada; Qirg‘izlar, Qozoqlar, Qarluqlar ham yashaydilar.

O‘zbeklar, Mozori Sharif viloyatining Balx, Chorbo‘lak, Chimtol, Davlatobod, Kaldor, Toshqo‘rg‘on, Kishindi, Mormul, Sho‘lgar, Zoriy va Hayraton tumanlarida yashaydilar. Javzijon viloyatining Shibirg‘on, Oqcha, Darzob, Fayzobod, Xo‘jaduku, Murdiyon, Qo‘sh tepa tumanlarining markazida va qishloqlarida, ko‘pinchalik turkmanlar bilan birga yashaydilar. Ayniqsa Mozori Sharif va Shibirg‘onning ayrim qishloqlarida oz ham bo‘lsa tatar va qozoqlar bor. Tatarlar va qozoqlarning ko‘pi Oktyabr inqilobidan keyin Rossiya to‘proqlaridan qochib Afg‘onistonga ko‘chib o‘tgan. Saripul aholisining taxminan hammasi o‘zbeklar ekani aytiladi. O‘zbeklar; Saripul markazida, Balxob, Go‘sfandi, Sangchorak, Sayyod, So‘zmaqala tumanlarida yashaydilar. O‘zbeklar shimolda, jumladan Foryob viloyatining markazida; Maymana, Almor, Qaysar, Andxo‘y, Bilchiroq, Davlatobod, Gurzivon, Xonchorbog‘, Qaramqul, Qo‘rg‘on va Shirintagob, Jumabozor, Pashtunko‘t tumanlarida yashaydilar. Aytish joizki, yuqorida tilga olingan ayrim mintaqalarda o‘zbeklar soni kam. Bag‘lon markazida va Burka tumanida o‘zbeklar yashaydi. Bag‘lon o‘zbeklarining hammasi qipchoq urug‘iga mansubdir.

Afg‘oniston o‘zbek tili shevalarida aniqlangan ravishdosh qo‘shimchalarini oddiy, qo‘shma ravishdosh nomida ikki asosiy sarlavha ostida to‘planib tekshirildi.

1. Oddiy Ravishdoshlar

1.1. –[i]b[-ايب]: O‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan ravishdosh qo‘shimchasi —Ib, o‘tmishdan boshlab hozirda davom etayotgan ish-harakatni ifodalovchi fe‘llar [gapirib yubor- / گپيريب يوبار] yasash bilan birlikda, ikki fe‘lni birlashtirishda [olib kel- / اليب كيل] ishlatiladi. Qo‘shimchaning inkor shakli —may/-مى bo‘ladi [Rahmatullayev, 2010:194]. Undosh harflar bilan tugagan fe‘l negizlariga kelgan bu qo‘shimcha, eski turkchadan beri turkiy tillarning har bir davrida ancha ko‘p qo‘llanilganidek Afg‘oniston o‘zbek shevalarida ham ancha ko‘p ishlatiladi. Ketib[کيتيب], ko‘rib[کوريب], qorishtirib[قاريشتيريب], boqib[باقيب], ko‘rishtirib[کوريشتيريب], uxlab[اوخلب]. Men kelib uni ko‘rdim [مين کليلب اونی کورديم]. Men

o'ltirib qo'shiq aytim [مین اولتیریب قوشیق ایتیم].

1.2. -A[ه-]: -A ravishdosh qo'shimchasi bilan hosil qilingan ikkilanishlar bilan harakatning uzoq vaqtdan beri davom etganligi va jarayoni borligini ko'rsatadi [Öztürk, 1997: 230]. Afg'oniston o'zbek shevalarida ikkilanishlarda ko'p qo'llaniladi: O'yla o'yla[اويله اويله], ko'ra ko'ra[کورہ کورہ], keta keta[کیتہ کیتہ], o'qiya o'qiya[اوقیہ اوقیہ], jiya jiya[جیہ جیہ] va hokazo. Shu kitobni o'qiya o'qiya jonim chiqti[شو کتابنی اوقیہ اوقیہ جانیم چیتقی].

1.3. -may[می-]: Bu qo'shimcha inkor ma'noli ravishdosh fe'llar yasaydi [Öztürk, 1997:235]. Afg'oniston o'zbek shevalarida ko'p ishlatiladigan ravishdosh qo'shimchasidir. Masalan: chiqmay[چیتمی], ketmay[کیتمی], olmay[المی], ko'rmay[کورمی], bilmay[بیلمی]. Seni ko'rmay keldim[سینی کورمی کیلیم]. Bormay sizni ko'raman[بازارمن سیزنی کورہ من]. Tuz olmay keldim[توز المی کیلیم].

2. Qo'shma Ravishdoshlar

2.1. -gancha[گنچه-]: -gan affiksining -cha o'xshatish kelishigi qo'shimchasi bilan o'lush tirgan tuzilish, asos gapdagi ish-harakat bilan ayni paytda yuzbergan yoki uning uslubini bildiruvchi ravishdosh yasaydi. [Gültekin, 2010:1446]. Ushbu ravishdosh qo'shimchasi Afg'oniston o'zbek shevalarida juda keng shaklda ishlatiladi. Masalan: uyga borgancha[اویگہ بارگنچه], uydan kelgancha[اویدن کیلگنچه], ko'rgancha[کورگنچه]. Onam bozordan qaytgancha nonimdi xalos qildim[آنم بازاردن قیتگنچه نانیمدی خلاص]. Tashqariga chiqqancha yog'mir boshladi[تاشقاریگہ چیقگنچه یامیر باشله دی].

2.2. -ganga[گنگہ-]: Bu qo'shimcha, ravishdosh qo'shimchasi -gan / گن- va o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi -ga / گہ- bilan tarkiblashuvi natijasida yasaladi. -ga / گہ- qo'shimchasini jo'nalish kelishigi qo'shimchasi sifatida tushinish mumkin, lekin bu qo'shimcha Afg'onistonda yashaydigan qarluq va qipchoq millatiga mansub o'zbeklar orasida -da / ده- bilan birga ko'p ishlatiladigan o'rin-payt qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha, qipchoq va chig'atoy turkchasidagi -ganda / گندہ- / -kanda / کندہ- affixlari bilan ayni vazifani bajaradi [Argunshah, 2013:155]. Qo'shimcha o'zbek shevalarida bo'lgani dek ayni ma'nosi bilan uyg'ur turkchasida ham mavjudligini saqlab kelmoqda [Öztürk, 1997:242]. Afg'oniston o'zbek shevalarida -ganga / گنگہ- ravishdosh qo'shimchasining egalik shakli ham qo'llaniladi: min gipirgan(ım)ga u ko'p xafa bo'ldi. [Men gapirgan(im)ga u ko'p xafa bo'ldi]. [Sen kelganga men choy ichaydim.] Bu tuzimda ish-harakatni bajaruvchi shaxsni bildirmoqchi bo'linsa, —gan qo'shimchasi bilan +ga qo'shimchasi orasiga egalik qo'shimchalari keltiriladi [Gültekin, 2006: 53].

2.3. -ganda[گندہ-]: Bu qo'shimcha, -gan / گن- sifatdosh qo'shimchasi bilan -da / ده- o'rin-payt qo'shimchasidan tashkil bo'lgan. -ganga / گنگہ- ravishdosh qo'shimchasi bilan ayni vazifani bajaradi. Qo'shimchaning tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, Xorazm davrida -g'anda / غندہ- / -ganda / گندہ- / -qanda / قندہ- / -kanda / کندہ- / -qanda / قندہ- / -ganda / گندہ- / -qanda / قندہ- / -kanda / کندہ- sifatida ishlatilganligi ko'rinadi [Yavuz, 1982: 2010]. Ushbu affiks Afg'oniston o'zbek shevasida ham egalik shaklida hamda egaliksiz shaklda qo'llaniladi. Masalan: Kelganimda [کیلگنیمدہ], ko'rganingga [کورگنینگگہ], ko'rganingizga [کورگنینگیزگہ], urganimda [اورگنیمدہ] va boshqalar. Men borganida uni ko'rdim [مین بارگندہ اونی]. Boshimdi divorga urganda boshim qonadi [باشیمدی دیوارگہ اورگندہ باشیم قانہ دی]. Siz boshqa bir shahirga ko'chganingizda biz ko'p g'amgin bo'ldik [سیز باشقہ بیر شہرگہ کوچگنینگیزدہ بیز کوپ غمگین بولدی].

2.4. -arda/-irda[ایردہ-]: Bu ravishdosh qo'shimchasi, -ar/-ir hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi va -da o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasaladi. Chig'atoy turkchasida -arda, -irda, -rda shaklida turlari mavjud. Xorazm turkchasi davriga tegishli "Mu'inu'l-Mur'id"da -arda, -irda, -rda, -yirda shakllari bilan ishlatilgan [Toparlı, vb. 2008: 83-84]. Xorazm va chig'atoy turkchasida ko'p ishlatiladigan bu ravishdosh qo'shimchasi Afg'oniston o'zbek shevalarida ham yasaliib va keng bir shaklda ishlatilmoqdadir. Masalan: Kelarda / کیلردہ / ko'rarda / کورردہ / kelirda / کیلیردہ / olirda / آلیردہ / icharda / ایچردہ / minarda / مینردہ / qolirda / قالیردہ va boshqalar.

2.5. -aytigan[ایتیگن-]: O'zbek tilida —adigan, -[y]digan umuman kelasi zamon sifatdosh qo'shimchalari sifatida qo'llanilmoqda [Atak, 2004: 61]. Rıdvan Öztürk, —digan qo'shimchasini; tur- yordamchi fe'li bilan, gan o'tgan zamon eshitilganlik shakli qo'shimchasining qaynashib birlashgani bilan hosil

bo‘lganini aytibdi [Öztürk, 1997:226]. Ketaytiganga ko‘rdim [کیتە-یتینگندە کوردیم]. Men choy ichaytiganda Foruq keldi [مەن چای ایچە-یتینگندە فاروق کیلدى]. Taxor va Badaxshon o‘zbek shevalarida bu qo‘shimcha —aytikan [ایتیکان-], aytigan [ایتینگان-] shaklda [jihatigan / جیهیتینگان] ishlatilmoqda. —aytigan ravishdosh qo‘shimchasi, ayni paytda mayl qo‘shimchasi sifatida ham qo‘llaniladi: yotaytigandi [یوتایتینگندى]. ketatigandi [کیتەتینگندى]. Yiyatigan [ییهیتینگان].

2.6. -a yatganda [-ه یاتگندە]: Bu qo‘shimcha, -a ravishdosh qo‘shimchasini olgan fe‘l bilan -yot yordamchi fe‘liga -gan sifatdosh qo‘shimchasi va -da o‘rin-payt qo‘shimchasining qo‘shilishi orqali yasalgan. Masalan: Men ketayotganda uni ko‘rdim [مەن کیتە-یاتگندە اونى کوردیم]. Men ko‘rayotganda u qo‘limdan oldi [مەن کور-ه یاتگندە او قولیمدن آلدی]. Mezdi ko‘tarayotganda belim og‘ridi [مەن کور-ه یاتگندە بەلیم اوغریدى]. Men qo‘shiq eshitayotganda yog‘mir yog‘div [مەن قوشیق ایشیتە-یاتگندە یاغمیر یاغدى].

2.7. -gandan so‘ng [-گندە سونگ]: Ushbu qo‘shimcha, -gan sifatdosh affiksi bilan —dan chiqish kelishigi affiksining tarkiblanishidan o‘rtaga chiqqan tuzilmaga so‘ng ko‘makchining qo‘shilishi orqali yasalgan. Afg‘oniston o‘zbek shevalarida ko‘plab ishlatiladi. Masalan: Sen kelgandan so‘ng u ketti [سەن کەلگندە سونگ او کیتتى]. Men maktubdi yozgandan so‘ng osh yedim [مەن مکتوبدى یازگندە سونگ آش ییدیم]. [سوالگە جواب بیرگندە سونگ استادیم تبریک ایتتى]. Savolga javob bergandan so‘ng ustodim tabrik aytti [سوالگە جواب بیرگندە سونگ استادیم تبریک ایتتى].

2.8. -moqcha [-ماقچە]: Bu ravishdosh qo‘shimchasi, sof fe‘l -moq [-ماق] qo‘shimchasi bilan -cha [-چە] o‘xshatish kelishigi qo‘shimchasinin birlashuvi orqali yasalgandir. Grammatika kitoblarida uchramagan bu ravishdosh qo‘shimchasi Taxor viloyatida qo‘llanilgani tasbit etilgandir. Masalan: Olmoqcha [الماقچە], bormoqcha [بارماقچە], kelmoqcha [کیلماقچە] va boshqa. Ushbu ravishdosh qo‘shimchasini gapda ishlatilganini ham shunday ko‘ra olamiz: Men bormoqcha hech kimdi o‘rga [u yerda] ko‘rmadim [مەن بۆرماقچە هیچ کیمنى اورگە کورمەدیم]. Men nondi yemoqcha ular ketti [مەن نەندى یېماقچە اولر کیتتى]. Men maktubdi yozmoqcha sen kutgin [مەن مکتوبدى یازماقچە سەن کوتگین]. Maktab achilmoqcha yana kelaman [مکتەب آچیلماقچە ینە کیلە-مەن].

2.9. -gincha [-گینچە]: Bu qo‘shimcha, xorazm turkchasi —gincha, -guncha, -kincha, -kuncha qo‘shimchalarining misoli uchraydi [Ata, 2002: 90]. Qipchoq shevalarida qo‘shimchaning boshidagi -g tovushi ba‘zan tushib qoladi: Jovun jovincha ichkariga kirdim [Ata, 2002: 90]. Chig‘atoy tilida —g‘incha, -gincha tarzida qo‘llanilgan. Bugunki kunda isa, chuvosh, qirg‘iz, tatar, boshqird, qoraqalpoq va no‘g‘ay turkchalari dek ko‘plab shevalarda qo‘llanilgan, juda ishlavchan bir ravishdosh qo‘shimchasidir [Hünerli, 2012: 91]. Ushbu qo‘shimcha Afg‘oniston o‘zbek shevalarida ayrim paytda zamonni cheklash uchun ham ishlatiladi. Misollar: Men kelgincha siz yotidingiz [مەن کیلگینچە یاتیدینگیز]. Men kelgincha u ketti [مەن کیلگینچە او کیتتى]. Yog‘mir yog‘gincha ichkariga kirdim [یاغمیر یاغگینچە ایچکاریگە کیردیم]. U uxlagincha ustiga ko‘rpa tayladim [او اوخلە-گینچە اوستیگە کورپە تیلهدیم].

2.10. -gani [-گنى]: Bu qo‘shimcha, qadimgi turk tilida -moq uchun ma‘nosini anglatadigan -gali ravishdosh qo‘shimchasi bilan bir xil vazifani bajaradi [Ercilasun, 2015: 186]. Chig‘atoy tilida -gali, -qali shaklida sabab va zamon vazifalari bilan ishlatilgan [Argunshah, 2013: 154]. O‘zbek tilida ham ushbu qo‘shimchaning zamon va sabab bildiruvchi ikki xil vazifasi borligidan bahs etilgandir [Mirzoyev vb., 1966: 138-142]. Bu qo‘shimcha Afg‘oniston o‘zbek shevalarida, faqat maqsad vazifasi bilan ishlatilmoqda. Misollar: Seni ko‘rgani keldim [سەنى کورگنى کیلدیم]. Sabza [yashillik] yig‘gani keldim [سبزه ییغگنى]. Hadiya olgani uchun ketayotman [هەدیە آلگنى اوچون کیتە-یاتمن]. Uxlagani keldim [اوخلەگنى]. Sotkani bozorga kettim [ساتکنى بازارگە کیتتیم].

2.11. -arga [-ارگە]: Afg‘oniston o‘zbek shevalarida xuddi qipchoq va tatar tillarida bo‘lgani dek —moq uchun ma‘nosida ish-harakatning sababini ko‘rsatuvchi ravishdosh qo‘shimchasi, gapda zamon ravishdoshi vazifasini ham ifodalaydi. Misol uchun: Tikarga [تیکرگە], olarga [الرگە], ko‘rarga [کوررگە], bilarga [بیلرگە]. Uni ko‘rarga mushkilimni [muammomni] aytaman [اونى کوررگە مشکلمنى ایتە-مەن]. Men sovuq suv icharga bo‘g‘ozim og‘riydi [مەن ساووق سوو ایچرگە بوغازیم اوغریدى].

2.12. -dicha [-دیچە]: Qarluq va qipchoq shevalarida ham uchraydigan bu qo‘shimcha, qipchoq tili da misollarini ko‘rganimiz dek -dichoq ravishdosh qo‘shimchasining oxirida [q] tovishining tushishi bilan hozirgi Afg‘oniston o‘zbek shevalarida mavjudligini davom ettirmoqda. Masalan: Aytidicha [ایتدیچە], keldicha [کیلدیچە], oldicha [آلدیچە], ko‘rdicha [کوردیچە], bo‘ldicha [بولدیچە]. Bu qo‘shimcha egalik affiksi

bilan ham ishlatila oladi: Siz keldingizcha biz ko'p sevindik [سيز كېلدىڭىزچە بىز كۆپ سەۋىندىك]. Sen ayog'ingdi sindirdingcha men ko'p g'amgin bo'ldim [سەن اياغىڭدى سىندىرگىنچە مەن كۆپ غەمگىن بولدىم].

2.13. -moqdan [-ماقدن]: Bu qo'shimcha sof fe'l affiksi -moq va -dan chiqish kelishigi qo'shimchasining birlashgani bilan yasaladi. Masalan: Pul bermogdan charchadim [پول بېرماقدن چارچەدىم]. Choy ichmogdan qornim shishti [چاي اىچماقدن قارنىم شىشتى].

2.14. -masdan [-مىسدن]: Bu ravishdosh qo'shimchasi, -mas sifatdosh qo'shimchasi bilan —dan chiqish kelishigi qo'shimchasining birikmasidan hosil bo'lgan. Shevalarda bu qo'shimchaning —masta shakli ham uchraydi. Bu ravishdosh qo'shimchasi, Afg'oniston o'zbek shevalarida juda ko'p qo'llanilmogda. Ko'rmasdan [كورمىسدن], bilmasdan [بىلىمىسدن], chiqmasdan [چىقىمىسدن]. Seni ko'rmasdan ketmayman [سەنى كورمىسدن كېتىمەن]. Onam, men dars o'qimasdan, meni uydan chiqarmadi [ئەنەم، مەن درس اوقىمىسدن، مەنى ئۇدان چىقارمەدى].

2.15. -madan [-مەدن]: Qadimgi turkiy tildan beri uyg'ur matnlaridan boshlab xorazm, qoraxoniylar davrlarida qo'llanilgan bu qo'shimcha ham zamonni hamda vaziyatni bildiradi. Turkiya, Ozarbayjon, turkman, qozoq, qoraqalpoq, no'g'ay, oltoy, qirg'iz, qrim, xakas va chuvash tillaridagi kichik tovush o'zgarishlari bilan ko'rilgan bu qo'shimcha standart o'zbek tilida hozir ham mavjud [Karaagaç, 2013: 386-387]. Afg'oniston o'zbek shevalarida —madan ravishdosh qo'shimchasi ham ko'proq ishlatiladi. Misollar: Kelmadan [كىلمەدن], qochmadan [قاچمەدن], ko'rmasdan [كورمەدن], urmadan [اورمەدن]. Men kelmadan sen ketma [مەن كىلمەدن سەن كېتە]. Yuzini yuvmasdan choy ichma [يۈزىنى يۇۋمەدن چاي اىچمە]. bolalarni yotqizmasdan yotmadi [بالەرنى ياتقىزمەدن ياتمەدى].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Afg'oniston o'zbek shevalarida qo'llanilgan ravishdosh qo'shimchalari, umuman standard o'zbek yozuv tilidagi ravishdoshlarga mos bo'lgani bilan birga o'zbek tilida uchramaydigan ravishdosh qo'shimchalari ham mavjud. Afg'onistonda o'zbek tilini asosan tatar, qarluq, qipchoq kabi turk qabilalariga mansub odamlar so'zlashadi. Bu qabilalar bir xil tilni ishlatish bilan birga, mintaqadan mintaqaga ko'ra farqli ravishdosh qo'shimchalari ham topilmogda. Ko'rinib turibdiki qadimgi turkiy tildan beri xususan chig'atoy yozuvida qo'llanilgan ko'plab ravishdosh qo'shimchalari [-arga, -madan, -gani vb.] hozirgi Afg'oniston o'zbek tilida yashab kelmogda. Hozirgi Afg'oniston o'zbek shevalarida standart o'zbek yozuvida ko'rinmagan -madan ravishdosh qo'shimchasining misollari aniqlangan.

Sof fe'l va -cha o'xshatish kelishigi qo'shimchasidan tashkil bo'lgan -makcha qo'shimchasi faqat Afg'oniston o'zbek shevalarida uchraydi. Taxor va Badaxshon o'zbeklari orasida -ib ravishdosh qo'shimchasi -madan -gan ma'nolarida qo'llanadi.

Tur- yordamchi fe'li bilan -gan o'tmish zamon qo'shimchasidan yasalgan -aytigan, Qarluq va Qipchoq shevalarida ko'ringan bu qo'shimcha, Qipchoq tilida misollari uchraydigan -dicha ravishdosh qo'shimchasining oxiridagi [q] tovushining tushishi bilan yasalgan -dicha ravishdosh qo'shimchasi standard o'zbek yozuvida topilmagan.

Boshqa tomondan -dicha, -gicha, -aytigan ravishdosh qo'shimchalarining ham zamon affiksi hamda ravishdosh affiksi o'laroq ishlatilgani aniqlangandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Argunshah Mustafa. Çağatay Türkçesi. —İstanbul: Kesit Yayınları, 2013. —B. 155.
2. Ata Aysu. Harezmi-Altın Ordu Türkçesi Türk Dilleri Araştırmaları Dizisi: 36. —İstanbul: Kitap Matbaası, 2002. —B. 90.
3. Atak H. Şule. Özbek Türkçesinde Sıfat-Fiil ve Zarf—Fiiller. —Balıkesir: Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi, 2004. —B. 61.
4. Barlas K. Afganistan Türklerinin Dünyü ve Bugünü Türk Kültürü (371). —Ankara: TAKE, 1994. B.129-139.
5. Ercilasun Ahmet B. Kutadgu Bilig Grameri-Fiil. —Ankara: Gazi Üniversitesi Yayınları, 1984. —B. 186.
6. Gültekin Mevlüt. Afgan Özbekçesinin Seripul Ağzında —GAn Eki [Çev. Esra Yavuz]. Turkish Studies, 2010. Sayı:5-1. —B.1438-1451.

7. Gültekin Mevlüt. Asiyabad’dan Özbek Türkçesi Metinleri. – Niğde: Net-Pa Yayınları, 2006. –B. 53.
8. Jarring Gunnar. On The Distribution of Tribes In Afghanistan. Lunds Universitets, 1939. Lund Printed. Arsskrift N. F. Avd. 1. B. D. 35.
9. Karaağaç Günay. Türkçenin Dil Bilgisi. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2013. –B. 386-387.
10. Mirzoyev M. Usmanov S. Rasulov İ. O‘zbek Tili. –T.: O‘qituvchi Nashriyoti, 1966. –B. 138-142.
11. Öztürk Rıdvan. Uygur ve Özbek Türkçelerinde Fiil. –Ankara: TDK Yayınları, 1997. –B. 230.
12. Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi Adabiy O‘zbek Tili. – Toshkent: Mumtoz So‘z, 2010. –B. 194.
- Toparli R. Argunshah M. Mu’inu’l-Mur’id. – Ankara: TDK Yayınları, 2008. –B. 83-84

O‘ZBEK TILIDA JARGON, ARGO VA SLENGLARNING QO‘LLANISHI

Marhabo Erkinova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada sotsiolektning turlari: jargon, argo va slenglar haqida bayon qilinadi. Bir-biriga yaqin bo‘lgan tushunchalarning o‘xshash va farqli tomonlariga e‘tibor qaratiladi va misollar keltiriladi. Jargon, argo va slenglar ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chetdan o‘zlashgan so‘zlar keng ommaga tezda yoyila boshlanib, nutqda reallashmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida slenglarning qo‘llanishi ko‘plab uchramoqda. Tadqiqotimiz jargon, argo va slenglarni o‘zaro solishtirib, ularning xususiyatlarini aniqlab olishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: sotsiolekt, jargon, argo, sleng, argotizmlar, jargonazimlar, slengizmlar, yoshlar nutqi, yasama til, zamonaviylik.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lib, axborot uzatish va axborot qabul qilish qurolidir. Til nafaqat kommunikativ aloqa vositasi, balki inson tabiatini aks ettiruvchi vositasidir. Tildan foydalanuvchi shaxs nutqiy faoliyati jarayonida nutq vaziyatidan, ruhiyati, ijtimoiy holati, kasb-kori, yoshi, jinsi, tafakkuri kabildan kelib chiqqan holda foydalanadi. Tildagi so‘zlarning qo‘llanish darajasi shu til egalari doirasida bir xil emas. Ba‘zi so‘zlar ular tomonidan birdek foydalanilsa, ba‘zilari esa ma‘lum hududda yashovchi yoki ma‘lum kasb-hunar bilan shug‘ullanuvch kishilar nutqidagina qo‘llanadi.

Bugungi kunda dunyoda mavjud bo‘lgan tillarning barchasida sotsiollashuv jarayoni izchil amalga oshmoqda va sotsiolingvistika nomli maxsus tilshunoslik yo‘nalishi aynan tilning mana shu jihati bilan shug‘ullanadi. “Sotsiolekt termini lingvistikada XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. U sotsio - jamiyatga bo‘lgan munosabat va dialekt so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, rus tilidagi “социальный диалект” (ijtimoiy dialekt) birikmasining qisqargan shaklidir. Sotsiolekt — umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Standart tildan farqli o‘laroq, sotsiolektda ba‘zi o‘rinlarda chetga chiqish mumkin. Til ham xuddi tashqi ko‘rinish singari sinflar haqida guvohlik beradi [Elova D., Safarova G., 2021: 67]. Sotsiolekt verbal xulq va ijtimoiy ahvolning muvofiqligini ifodalaydi. Sotsiolektlar turli ijtimoiy guruhlar tomonidan faol qo‘llaniladigan, jonlilik, ichki yashirin munosabatni ifodalay olish kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘zlardir.

Sotsiolektlar kommunikatsiyaning butun bir tizimini ifodalamaydi. Chunonchi, u so‘zlar, so‘z birikmalari, sintaktik konstruksiyalar, urg‘u xususiyatlari va h.k. ko‘rinishidagi nutqning o‘ziga xosligidir. Sotsiolektlar asosini milliy tildan deyarli farq qilmaydigan lug‘at va grammatika tashkil qiladi. Masalan, jinoyatchilar argosida o‘ziga xos ma‘no, xususan, metaforik ma‘no kasb etgan so‘zlar mavjud: ment — “militsoner” etap qilish — “qamoqqa jo‘natish”, narkota — “narkotik, giyohvand moddalar bilan shug‘ullanish” va h.k. Biroq mazkur so‘zlarning turlanishi, tuslanishi va gapdagi bog‘lanishi umumtil qo‘liplari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Hatto, so‘zlar ham umumtil leksikasiga mansub bo‘ladi.

Sleng, argo, jargon odatda sinonim so‘zlar deb qaraladi. Lekin ularning kelib chiqishi va qo‘llanilishini chuqur o‘ganilib qaralsa, ular o‘rtasida juda katta farqlar borligiga amin bo‘lamiz. Argo — jargondan

qaysidir darajada maxfiy til (aynan chetdagi begonalar tushunmasligi uchun yaratilgan ma'lum bir guruh tili) bo'lganligi bilan ham farq qiladi. Shuning uchun ma'lum guruh nomi va undan keyin argo so'zi qo'llaniladi: ("воровское апро", "апро офеней"). Tilshunos olim Roberining kichik lug'atida esa argo atamasi umum qo'llaniladigan atama sifatida "jinoiy muhit tili", lingvistik atama sifatida esa "ma'lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan texnikaga oid bo'lmagan leksika" sifatida berilgan. Argoning etimologik kelib chiqishi — "corporation des jeux" — "qora niyatli kishilar jamoasi" sifatida izohlangan.

Jargon va argolar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar rus tilshunosligida, turkologik ishlarda, so'ngra o'zbek tilshunosligida, ya'ni o'zbek tili grammatikalarida, jumladan Sh.Shoadburahmonov va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida, M.Mirzayev, I.Rasulovlarning "O'zbek tili" kitobida, S.Usmonovning "O'zbek tili" kitobida, B.O'rinboyevning "O'zbek so'zlashuv nutqi" nomli monografiyasida, M.Tursunpo'latovning "Узбекская разговорная речь" nomli monografiyasida, G.Sattorovning "Jargon va argolar" nomli maqolasida ma'lumotlar berilgan. Argotizmlar va jargonizmlar, asosan, jonli so'zlashuvda tor doirada ishlatiladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari mavjud [Jamolxonov, 2005: 201]. Argotizm va jargonizmlar — biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotlar, poraxorlar va boshqalarning "yasama tili"dir. Shuning uchun argo va jargonlar ijtimoiy dialektlar deb ham yuritiladi [Jamolxonov, 2005: 201].

Jargon ham qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi (frans. jargon). Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishlari, yoshiga ko'ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqida ishlatiladigan va ma'nosini boshqalar ko'p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Masalan, programmistlar jargoni, aslzodalar jargoni, o'g'rilar jargoni, artistlar jargoni va h.k. Masalan, harbiy hizmatchilar jargoni: [dux] (yangi kelgan askar), [salyaga] (1-2 oy xizmat qilgan askar), [fazan] (xizmatning yarmini o'tagan askar) [ded] (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), [diskoteka] (oshxona naryadi);

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining o'ziga xos tarzda qo'llanishi bilan farqlanadi:

- 1) otarchilar jargoni: yakan (pul);
- 2) o'g'rilar jargoni: xurmo (buxoro tillo tangasi);
- 3) mahbuslar jargoni: maymun (oyna), timsah (qaychi), oq kaptar (geroin), yashil (militsiya);

Jargonga xos leksemalar tez-tez yangilari bilan almashib turadi. Jargonlar ochiq va yopiq turga bo'linadi. Agar sotsial guruh o'z xatti-harakati, qarashlari va maqsadini yashirish uchun jargon ishlatasa, bunday jargonlar yopiq jargon deyiladi. Bunga o'g'rilar, mahbuslar va bezorilarning jargonlari misol bo'ladi. Ayrim soha vakillari va soha guruhlarini nutqiy tejamkorlik uchun, ba'zan o'zlarini ajratib ko'rsatish uchun jargon qo'llaydilar.

Argo (fransuz. argot) ayrim professional yoki sotsial guruhning o'ziga xos tilidir. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko'p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo'ladi. Argo tili o'z grammatikasiga emas. Unda umumxalq tili grammatikasiga tayaniladi [Sayfullayeva, 2010: 98]. Argo nutqda ikki maqsadning biri uchun qo'llaniladi:

- 1) kommunikasiya predmetini sir tutish;
- 2) o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatish,

Misollar: 1. Bizga ziyofat malhuz emas. Ne'mati jannatni keltir (Hamza.) Malhuz emas — o'ylangan emas, ne'mati jannat — yor, mahbuba. 2. Tanzil deng, taqsir. (Hamza.) Tanzil — foyda.

Ilmiy grammatikalarda jargonlarga "buzilgan til" deb ta'rif berilgan, lekin argolarga ta'rif berishda o'g'rilar nutqida uchraydigan ba'zi so'zlarni, ya'ni jargonlarga argolar qo'shib yuborilgan. Argolar ham fransuzcha "buzilgan til bo'lib, ular ham ayrim ijtimoiy guruhlar tilida mavjud so'zlarning uchrashi bilan xarakterlanadi. Argotizmlar asosan o'zbek tilida mavjud so'zlarning boshiga, o'rtasiga, oxiriga turli qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi. So'zlashuv nutqida qo'llanuvchi argotik qo'shimchalarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. -za, -zo, -ze, -zi, -zor, -zir, -zo', -zu, -oz;
2. -fa, -fash, -fi, -bi, -di;

3. -ra,-ru,-ur,-ro,-re va boshqalar.

Masalan: 1. Sa-fan-ga-fa bi-fir ga-fap afay-ta-fa-ma-fan. (Men senga bir maxfiy gap aytaman) (Jonli nutqdan).

Ushbu gapda —fa,-fi,-fan qo‘shimchalari so‘z o‘rtasi va oxirida ishlatilgan.

2. Ma-ran-ga-ra bi-zir ki-fi-shi-fi-da-fan xa-fat ke-fel-di-fi. (Menga bir kishidan xat keldi).

-ra,-zi,-fi,-fe,-fa qo‘shimchalari so‘z o‘rtasida, oxirida qo‘llanilgan.

3. A-zay-ti-zib qo‘-zuy,ma-zan-ga-fa ke-ze-re-zak e-ze-re-maz. (Aytib qo‘y menga kerak emas).

4. Yo-zoq bo-zor-ma-zay-ma-zan. (Yo‘q bormayman) . (Jonli nutqdan).

5. Ma-ron sa-ra-ni-ri ya-rax-shi-ri ko‘-zo‘-ra-za-ma-dan. (Men seni yaxshi ko‘raman). (Jonli nutqdan).

-ro,-ra,-ri,-zu kabi qo‘shimchalar so‘zning o‘rtasida, oxirida kelgan. Misollardan ko‘rinib turibdiki, argolar ham jargonlar kabi nutqning o‘ta g‘aliz ko‘rinishi bo‘lib, salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Argo - jargondan farqli o‘laroq, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo‘llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til. Masalan, o‘g‘rilar argosida shmon qilmoq, gopstop qilmoq iborolari “o‘g‘irlamok” ma‘nosida, giyohvandlar argosida dori “giyohvand modda” ma‘nosida ishlatiladi. Argolar jargonga nisbatan o‘zining yashirinlik xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shunirig uchun ular ko‘prok jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va h.k.lar nutqida uchraydi.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o‘zaro so‘zlashuvni boshqalardan maxfiy sir tutishdir. Shunga ko‘ra jargonlarning yaratilish yo‘llari ham ko‘pincha tilning so‘z yasash sistemasiga to‘g‘ri kelmaydi. Ular o‘ziga xos sun‘iy, shartli so‘zlardir. Jargonlar ko‘pincha tildagi so‘zlarning tovush tomonining o‘ziga yaraSha, so‘zlarni buzib ko‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga ma‘no berish yo‘li bilan hosil kilinadi. Ijtimoiy argo va jargonlarni o‘zbek tilida abdal tili deb ham yuritilgan. Qadimda maddohlar va kalandarlar o‘z niyatini boshqalardan yashirish maqsadida o‘zlari uchungina tushunarli bo‘lgan abdal tilidan foydalanganlar. Bundan tashqari bu ijtimoiy jargonlar salbiy ahamiyat kasb etganligi uchun argo deb ham yuritiladi. Masalan, loy, sokka, kusok, qurug‘i (pul); tuz (aklli) kabi kimorboz o‘g‘rilar argosi. Tohir Malikning “Shaytanat” asaridan misollar keltiramiz. Vey bratan, man o‘zim borganman. Sokka yo‘g‘idi karzga bergan. (I k, B. 45) Sen bu o‘yinda ikkita xatoga yo‘l ko‘yding. Birinchisi akademikni “tuz” deb bilding (I k, B. 206) Argo va jargonlar shevaga xos so‘zlarni qo‘llash va laqab qo‘yish bilan ham bog‘lik bo‘ladi. Talabalar, yosh yigit-qizlar orasida orasida laqab qo‘llash holatlari ham uchraydi. Masalan, yambuk, mallosh, yalqov, siptaxonim, tulkixon, dollar, aeroport (tepakal ma‘nosida), pakaxonts, qovuncha, aylanay, oshqovoq, qizil kostyum, troll, azroil, qora sharpa, Reks, Germon, yoshlar ittifoqi raisi, hokim, domla, mash, maqqi, hazrat, taqsir kabilar.

Qo‘llanilgan laqablarda so‘zlovchining obyektga nisbatan baho ottenkalari, metofarik o‘xshatishlar namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda ham qahramonlar portretining ayrim kirralarini ochib berishga muvaffaq bo‘ladi. Asadbek va Hosil boyvachchaning laqablaridan, ularning kuch-kudrati, qanday odam ekanligini bilib olishimiz mumkin. Kesak polvon xonaga kirib, Qilich bilan so‘rashib olgunicha 1-2 da-kika vaqt o‘tdi. (I k. B. 65) Asadbekning o‘ng qo‘l a‘yonlaridan bo‘lgan Haydarga bu laqab qaddi-bastiga karab emas, balki o‘g‘irlik qilib yurganida, pul bor deb o‘ylab, belbog‘idan kesak chiqqani uchun berilgan. Yana xarakter xususiyatida ham muhim masalalarga kesak ushatishday yengil karashi kuzatiladi.

“Argo”, “jargon” fransuzcha (argot, jargon)dan kelib chiqqan, “sleng” inglizcha (slang)dan olingan. Bu uch termin ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. Biroq mazkur terminlar ortidagi yashirin tushunchalarni chegaralab olish maqsadga muvofiqdir.

Sleng “slang” — ingliz tilidan olingan bo‘lib, oddiy, og‘zaki leksikaga xos so‘zlar. Sleng - G‘arb tilshunosligi an‘analariga xos termin sanaladi. “Sleng” terminiga haligacha aniq ta‘rif berilmagan. Turli lug‘atlarda va sotsiolingvistikaga oid adabiyotlarda uning “jargon” (guruhlar jargoni, yoshlar jargoni) terminiga yaqin turishi qayd qilingan. Sleng so‘zining qachon paydo bo‘lgani noma‘lum, biroq u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda “haqorat” ma‘nosini anglatgan. 1850-yillarga kelib, mazkur termin “noqonuniy” oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo‘llanila boshladi. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo‘llaydigan slang-lingova

“rang-barang” aholi foydalanadigan argot singari sinonimlari ham paydo bo'lgan. O'zbek tilshunosligida sleng yoshlar nutqiga xos birliklar sifatida qaraladi.

Sleng - muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarining og'zaki nutqida qo'llaniladigan, emotional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar. Slenglar ko'proq yoshlarning nutqida uchraydi.

Sleng jonli, harakatdagi til shakli bo'lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarishdan ta'sirlanadi. Sleng qo'llanish doirasiga ko'ra: hammaga ma'lum va barcha tomonidan qo'llanuvchi umumiy sleng (general slang) va muayyan guruhlariga ma'lum bo'lgan, tor doirada qo'llanuvchi xususiy sleng (special slang)ga ajraladi [3: 69]. Slenglarning ko'p so'zlari va iborolari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo'ladi. Chunki aksariyat slenglar ko'chma ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, slengizmlar ko'pincha chet tillardan, ularning dialektlaridan va jargonlaridan o'zlashtirilgan bo'ladi. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka”, “stukach” rus tilidan, “yuzer” (user), “chat” (chat), ingliz tilidan o'zlashtirilgan. Umuman, argo, jargon va sleng sotsiolektning turlari hisoblanadi. Mazkur til shakllarining har biridagi o'ziga xos xususiyat u yoki bu guruhlarining kasbiy alohidaligi yoki ularning boshqa jamoalardan ijtimoiy cheklanganligiga bog'liqdir. Kompyuter jargoni (sleng) kasbiy cheklangan subkodga, o'g'rilar argosi, talabalar slengi ijtimoiy cheklangan subkodlarga misol bo'ladi. Ba'zan guruh ham kasbiy, ham ijtimoiy alohidalik kasb etadi. Bunday guruhning nutqi ham kasbiy, ham ijtimoiy jargonning xususiyatlariga ega. Masalan, askarlar jargonini olsak, binobarin, harbiylik kasb sanaladi, bu kasb bilan shug'ullanuvchilar esa boshqa jamoalardan alohida, o'z holicha yashaydi.

Slenglar til iste'molchilari tomonidan qo'llanilib, jonli so'zlashuv nutqi bilan bog'liq bo'lgan, yozma nutqda esa umuman foydalanilmaydigan, biroz hazil, kinoya, ironiya ma'no bahosini o'zida qamrab olgan, ma'lum ijtimoiy guruh (asosan yoshlar) nuqtida faol qo'llaniladigan so'zlardir. Ayrim manbalarda slenglar yoshlar nutqida faol qo'llaniluvchi so'zlar deb ta'riflanib, zamonaviylik uning asosiy belgisidir deyiladi. Tilda qo'llanilayotgan ayrim so'zlar vaqtlar o'tishi, avlodlar almashinuvi bilan ularning tildan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira olmaydi va yangi avlod (yoshlar) ma'lum ma'noda o'zlarining “til muhiti” ni shakllantirib oladi. “Sleng tushuniladi, ammo tushuntirib berilishi qiyin. Slenglar o'ziga xos yangi so'zlarni bizga namoyon qiladi [Bultakova, 2022:157].

Slenglarning shunday jihati borki, ular ma'lum vaqtlar o'tgach, iste'moldan chiqib ketishi mumkin va uning o'rinini yangi bir muqobili egallaydi. Slenglarning ko'p so'zlari va iborolari (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo'ladi. Chunki aksariyat slenglar ko'chma ma'noda ishlatiladi Ayrim olimlar, xususan, T.I. Arbekova slengni izohlar ekan, turg'un birikma bo'lib, hissiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadigan til birliklari slengni tashkil qiladi, deydi [Allamurodova S., O'zbek va ingliz tillari leksik boyligining taraqqiyoti aspektlari tahlili //Dissertatsiya. Samarqand].

Slenglarning qo'llanilishi makon nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Masalan, yoshlarning internetda qo'llaydigan slenglari: podpiska, podrobny, podpisatsiya, klass, like, trend, “hammasiga kulib qo'ydim”, “yangilikning iti”, legenda, biror bir narsaning injig'i (asosan reklamalarda eng zo'ri ma'nosida), obzor, legenda, life hack; ta'lim muassasalarida: yopmoq (sessiyani tugatmoq), vozdux (stipendiya), yaxlamoq (imtihondan o'tolmaslik), stukach (chaqimchi), Vatan (darsdan qochmaydiganlar, berilib o'qiydiganlar), Vatan xoinlari (darsdan qochganlar), chopmoq (darsni chopmoq-qochmoq), Xudoyorxonning bolasi (manmansiragan talaba - Xudoyorxonning bolasi bo'lsang ham, tartibga bo'ysin), alohida Respublika (fakultet), mustaqil ish - o'qituvchilarga beriladigan pora, chushpon-maymun ma'nosida (maktab o'quvchilari ishlatadi), Tarakan antenna (qizlarning ikki yonidan tushirilgan sochi), lakatir (chaqimchi o'quvchilar), saqich chaynaysanmi? (segaret chekasanmi?), tank (orqasida turib beradigan odami bor), “paxtakor” (ustozlarga xushomad qiladigan ma'nosida), tizza (qizlarga yaltoqlanadigan yigitga nisbatan qizlar qo'llaydi), parriot (Vatanparvar- Jahon tillari universiteti talabalari tomonida qo'llaniladi), Satilni bekorga ko'tarib yuribdi (bosh ma'nosida qo'llaydi), ko'cha-ko'ya qo'llaydigan slenglari: “ketvorgan” (qomati chiroyli), takoy kiyingan (zo'r kiyingan), sindirdi (qoyillatdi), dahshat, uxlatdi (aldadi), g'isht (hunuk), Salta oshib kalla (oxiri yomon bo'ladi), taxta (ozg'in), paxta qo'ymoq (xushomad qilmoq), “Dinozavrlar davrida qolib ketgan (fikrlashi eskicha bo'lgan inson va eski narsalarga nisbatan)”, jirafa (kech tushunadigan), osmon (kibrli), olmaxon (nozlanadigan qiz), survordi, sigir (qizlarga pul sarflaydigan yig-

itlar), Alfons (ayol kishining puliga yashaydigan erkak), Ali akaning itiday sanqima (bekorchi o‘ynab yuradigan yigitlarga), yedirdi (bopladi), tormoz, gaz, g‘ijim (o‘ziga qaramaydigan odam), turshak (xunuk), draka (urush, janjal), kompot bo‘ldim (mahliyo bo‘ldim), coco-cola bo‘lmoq (qattiq sevib qolmoq), plisos (dasturxondagi narsalarni ko‘p yeydigan odam), tapichka (yugurdak), yorib tashlamoq (maromiga yetkazib bajarish), yoqvolib (dindorni yoqvoldi, jabrdiydani yoqvoldi), ekib qo‘ydi, eshib qo‘ydi (eplolmadi), makkillamoq (gap topolmay qolish, duduqlanish), tepdimi (gapga tushundimi ma’nosida).

Xulosa qilib aytganda, sleng, argo, jargon, odatda, sinonim so‘zlar deb qaraladi. Lekin ularning kelib chiqishi va qo‘llanilishini chuqur o‘ganilib qaralsa, ular o‘rtasida juda katta farqlar borligiga amin bo‘lamiz. Argo — jargondan qaysidir darajada maxfiy til (aynan chetdagi begonalar tushunmasligi uchun yaratilgan ma’lum bir guruh tili) bo‘lganligi bilan ham farq qiladi. Slenglar til iste’molchilari tomonidan qo‘llanilib, jonli so‘zlashuv nutqi bilan bog‘liq bo‘lgan, yozma nutqda esa umuman foydalanilmaydigan, biroz hazil, kinoya, ironiya ma’no bahosini o‘zida qamrab olgan, ma’lum ijtimoiy guruh (asosan yoshlar) nuqtida faol qo‘llaniladigan so‘zlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allamurodova S. O‘zbek va ingliz tillari leksik boyligining taraqqiyoti aspektlari tahlili //Dissertatsiya. Samarqand.
2. Bultakova D. O‘zbek yoshlari nutqidagi slenglar // Problems of research and education of the uzbek language. № 1 — T.: 2022. 157-bet.
3. D.Elova, G.Safarova. “Sotsiolingvistika” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — T.: 2021. 67-bet.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — T.: “Talqin”.2005. 201-bet.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — T.:2010 . 98-bet.

MATNLARNING ASPEKTGA ASOSLANGAN HISSIY TAHLILI

Saboxat Allanazarova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Hissiyotlarni tahlil qilish (shuningdek, fikr-mulohazani o‘rganish deb ataladi) biznes va jamiyat uchun muhim ahamiyati tufayli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) ning eng faol sohalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu fikrning (ijobiy, neytral, salbiy) bahosini chiqarishga harakat qiladigan tadqiqot sohasi. Shu bilan birga, bir xil so‘zning turli gaplardagi ma’nosi qarama-qarshi bo‘lishi mumkin yoki bir xil jumladagi bir xil shaxsning qutbliligi turli jihatlarida farqlanadi. Shu sababli, matndan ma’lum obyektlar va ularning jihatlari haqidagi fikrlarni aniqlash uchun aspekt darajasidagi hissiyotlarni tasniflash taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Tabiiy tilni qayta ishlash, ijobiy, neytral, salbiy, hissiy tasnif, fikrlarni o‘rganish

Tuyg‘u leksikasi ko‘plab hissiyot so‘zlarini va ularning hissiyot qutblarini o‘z ichiga oladi. Aspekt darajasidagi hissiyotlarni tahlil qilishda muhim muammolardan biri aspektlar va jumlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni qanday modellashtirishdir. Muammoni hal qilish uchun ko‘plab usullar taklif qilingan. An’anaviy NLP sentimental bilimga asoslangan usul bo‘lib, u subyektiv matndagi mavjud hissiy leksika yoki domen leksikasiga va hissiyot qutbliligi bilan birlashtirilgan baholash birligiga tayyandir. Subyektivlik - jumlada qanchalik fikr va hissiyotni ifodalovchi so‘zlar bor ekanligini ko‘rsatadigan o‘lchovdir. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda hissiyotlar leksikonlarini hissiyotlarni tasniflash usullariga kiritish aspekt darajasidagi hissiyotlarni tahlil qilishda neyron tarmoq (NN) ustunlik qilmoqda.

1-jadval. Sentiment tahlil qilishning darajasiga ko‘ra turlari

Tuyg‘ularni aspekt bo‘yicha tahlil qilish muammosida odatda matn bitta obyektini baholashni o‘z ichiga oladi, deb taxmin qilinadi, lekin bu obyekt uning turli qismlari VA / YOKI atributlari bilan

bog'liq holda ko'rib chiqilishi tushuniladi. Aspekt bo'yicha his-tuyg'ularni tahlil qilish uchun odatiy matn - bu ba'zi mahsulot yoki xizmatlar haqida foydalanuvchilar qoldirgan sharhlar bo'lishi mumkin. Aspektlarni toifalarga guruhlash mumkin. Shuningdek, sharhlar matnlarida siz obyektning umumiy bahosini topishingiz mumkin: ajoyib restoran. Ushbu turkumni aspekt kategoriyasi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin (obyekt_butun aspekt sifatida). Matndagi borliqning biror tomoniga ishora qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan so'z va iboralar aspekt terminlari deyiladi. Restoranlar uchun bu odatda oshxona, ovqat, likobcha, xizmat ko'rsatish, interyer (mebellar) kabilar.

Shunday qilib, aspektlar bo'yicha hissiyotlarni tahlil qilish vazifasi quyidagi kichik vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Aspektni ifodalovchi terminlarni tanlash;
- Aspekt atamaları orqali toifalarga ajratish;
- Tanlangan toifalarga nisbatan aspektlarni avtomatik aniqlash.

Mavzu sohasidagi aspekt atamalarini bir necha jihatdan tasniflash mumkin. Aspekt atamalarining eng keng tarqalgan turi - obyekt, uning qismlarini yoki xususiyatlarini aniq nomlaydigan, matn muallifi tomonidan baholanadigan, masalan, osh, xizmat, zal, restoran sharhlarida aniq aspekt terminlari. Aniq aspekt terminlari ko'pincha otlar yoki ot guruhlari bilan ifodalanadi, lekin ba'zi jihatlar fe'llar bilan ham ifodalanishi mumkin, masalan, restoranlarda xizmat ko'rsatish sifatini baholashda kutish, kelmaslik, kuttirish kabi birliklarni uchraydi.

Aspekt atamalarini aniqlashning ikkinchi turiga yashirin aspekt terminlari kiradi, ular bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan jihatni (odatda ancha umumlashgan jihat kategoriyasi) ko'rsatadigan ma'noning aniq baholovchi komponentiga ega bo'lgan so'zlardir, masalan: mazali (ijobiy + taom) restoran sharhlarida), qulay (avtomobil sharhlarida ijobiy + qulaylik). Boshqa baholovchi so'zlar singari, noaniq jihat atamalar deb ataladigan so'zlar bilan birlashtirilishi mumkin. O'z bahosini o'zgartiradigan yoki kuchaytiradigan baholash modifikatorlari: juda mazali emas, uncha qulay emas.

Avtomatik his-tuyg'ularni tahlil qilish tizimlarining lug'atlari uchun bunday aspektli atamalarining ahamiyati shundaki, ular tan olinmagan holatlarda aniq atamalar muallifi (matbaa xatolari, yangi lug'at, murakkab havolalar) yashirin aspekt shartlari foydalanuvchining ba'zi jihatlar toifasiga nisbatan pozitsiyasini ajratib olish imkonini beradi.

Ma'lum bir obyektning ba'zi bir xususiyati haqida o'z fikrini ifodalashning uchinchi turi - bu sodir bo'lgan salbiy yoki ijobiy fakt to'g'risidagi xabar, bu bir vaqtning o'zida ham aspekt toifasini, ham uning foydalanuvchi tomonidan baholanishini (baholash faktlari) ko'rsatadi. Baholash faktlarining turlaridan biri bu sharhlarda qayd etilgan texnik muammolardir (Girolami, 2003, 433-b). Ingliz tilidagi texnik muammolarga havolalar ko'pincha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Biror narsa sodir bo'lganligini bildiruvchi maxsus fe'llar to'plami

(fail-muvaffaqiyatsizlik, halokat-crash, ortiqcha yuk-overload, sayohat- trip, tuzatish-fix, tartibsizlik-mess, buzish-break, ortiqcha zaryadlash- overcharge, vayron qilish-distrupt);

- Biror narsa sodir bo'lmaganligini bildiruvchi fe'llar to'plami va ko'pincha bu fe'llar inkorlar bilan, shuningdek, shakl operatorlarining fe'llari bilan (to'xtash, rad etish, to'xtatish va boshqalar) bilan tilga olinadi;

- shuningdek, ot va iboralar.

Shu bilan birga, baholash faktlari texnik muammolarga qaraganda ancha kengroq vaziyatlarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan, nomaqbul narsaning kashf etilishi:

1. Men ikki marta bu restoranda bo'lganman va ikki marta ham likopchadan soch topdim.
2. Men matrasni bir hafta oldin sotib oldim va u vodiy shakliga kirdi.

Ma'no jihatdan yaqin bo'lgan baholovchi faktlar matnda turli yo'llar bilan ifodalanishi mumkin, bu esa ularni aniqlashni qiyinlashtiradi. Matnda tez-tez uchraydigan lekin baholanmagan so'zlar, ijobiy yoki salbiy konnativ ma'no ifodalashi mumkin. Ijtimoiy-siyosiy matnlarda salbiy ma'noga ega bo'lgan bunday so'zlarga ishsizlik, inflyatsiya, turg'unlik so'zlari misol bo'la oladi. Restoran sharhlari sohasida soch, mayonez so'zlari salbiy ma'noga ega, ya'ni matnlarda bunday so'zlarning paydo bo'lishi matnning ohangi ancha salbiy bo'lishidan dalolat beradi.

Texnik sohada bunday so‘zlarda ko‘rsatilganidek, buzilishlarni bildiruvchi so‘zlar (qobiliyatsiz, avariya, ortiqcha yuk, safar, tuzatish, tartibsizlik, tanaffus). Shuningdek, “resurs muammosi” deb ataydigan yashirin baholar va jihatlarning yana bir toifasi mavjudligi ko‘rsatilgan (Lee, 2011, 884-b.). Misol keltiriladi: Bu kir yuvish mashinasi juda ko‘p suv sarflaydi (ko‘p suv iste‘mol qiladi). Shunday qilib, suv iste‘moli bu yerda jihat, suv esa resurs atamasi bo‘lib, uni ortiqcha iste‘mol qilish salbiy faktidir.

(Wang, 2009, 1982-b.) da resurs atamalarini ko‘p sonli miqdor ko‘rsatkichlari bilan, shuningdek, iste‘mol fe‘llari yonidan foydalanish asosida ajratib olish kerakligi ko‘rsatilgan. Maqolada ma‘lum iste‘mol fe‘llari, shuningdek, bir nechta ma‘lum resurslar: gaz, suv, elektr, gaz ma‘lum sonli algoritm asosida ko‘rib chiqiladi (Mikolov, 2013) maqolada restoranlar va avtomobillar haqidagi sharhlar sohasida eng ko‘p uchraydigan baholovchi faktlarni ko‘rib chiqadi. Restoran sharhlaridagi manbalarga quyidagilar kiradi:

- restoran mehmonlarni qabul qilish vaqti;
- ofitsiantlarning e‘tibori;
- oziq-ovqat bilan bog‘liq bo‘lgan uch turdagi resurslar: tarelkadagi oziq-ovqat miqdori, menyu-da tanlovning kengligi va idishlarning mavjudligi;
- restorandagi joy va bepul o‘rindiqlar;
- mijozning puli.

Ikkala sohada ham narsalarning odatiy tartibidan chetga chiqish bilan bog‘liq faktlar mavjud bo‘lib, ular odatda yo‘q bo‘lmoq, yo‘qlik so‘zlari bilan ko‘rsatiladi.

Aspekt darajasidagi hissiyotlarni tasniflash ko‘pincha adabiyotlarda tasniflash muammosi sifatida qaraladi. Mashinaviy o‘rganish ham hissiyotlarni tasniflashning asosiy usuli hisoblanadi. Bu usullar, asosan, matn ko‘rinishini va xususiyatlarni ajratib olishni o‘z ichiga oladi, masalan, so‘zlar to‘plami modellari va hissiyot leksikasining xususiyatlari, so‘ngra qo‘llab-quvvatlash vektor mashinasi (SVM) va logistik regresiya (LR) kabi hissiyotlar tasniflagichini o‘rgatish. Bunda aspekt atamaları va aspekt toifalarini aniqlash, shuningdek, mijozlar sharhlarida atamalar va tomonlar toifalariga nisbatan bildirilgan his-tuyg‘ularni aniqlash uchun boshqariladigan mashinani o‘rganish usullari tavsiflanadi. Biroq, an‘anaviy mashinaviy o‘rganish usullari odatda ko‘plab muhim xususiyatlar kontekstini modellashtira olmaydi.

Tovarlar yoki xizmatlar uchun belgi/xususiyatlarni aniqlashni avtomatlashtirish. Aspekt terminlari sifatida ko‘pincha otlar va otli birikmalari ko‘rib chiqiladi (Asuncion, 2009, 27-b.). Ismlar guruhining uzunligi 3-4 so‘zdan oshmasligi kerak. Shu bilan birga, faqat individual otlar aspekt sifatida ajratilsa, ular ko‘pincha noaniq bo‘lishi mumkin, bu, masalan, mutaxassislar tomonidan xato talqinga olib keladi (Воронцов, 2014, -с. 676). Matnlardan aspekt atamalarini ajratib olishni avtomatlashtirishning to‘rtta asosiy yondashuvi mavjud:

1. Otlar va ot guruhlariga asoslangan yondashuv;
2. Baholovchi iboralar va aspekt terminlari o‘rtasidagi munosabatlardan foydalanadigan yondashuv;
3. Nazorat ostida mashinaviy o‘qitish yondashuvi;
4. Statistik modellarga asoslangan yondashuv.

So‘zlarning chastotali xarakteristikaları asosida aspekt terminlarini ajratib olish. Aspektlar bo‘yicha nomzodlarni ajratib olish uchun ularni tahlil qilingan matn to‘plamida eslatib o‘tish chastotasi katta ahamiyatga ega (Rohman, 2013, 1-b.).

(Mimno, 2012, 1599-b.) Maqolada chastota xususiyatlari bunday oddiy funksiyalar uchun juda yaxshi ishlashi ta’kidlangan. Shu bilan birga, tez-tez uchraydigan otlar orasida juda ko‘p bo‘lmagan tomonlar mavjud, masalan, umumiy adabiy til lug‘ati, bundan tashqari, past chastotali aspekt atamaları yomon ishlangan. (Koltcov, 2014, 161-b.) da aspekt shartlarini ajratib olish uchun ma‘lumot qidirishda ma‘lum bo‘lgan tf.idf (Marchionini, 2006, 41-b.) xususiyatidan foydalaniladi, u ham hujjat darajasida, ham paragraf darajasida hisoblanadi. Sharhlar to‘plamidagi ot so‘z birikmalarining chastotalarini Britaniya Milliy Korpusining kontrast to‘plamidagi guruhlarining chastotalari bilan solishtirish orqali aspektli atamalarni ajratib olish uchun foydalanilgan.

Aspekt terminlari sifatida nafaqat alohida otlar, balki otli birikma ham ajratilsa, keyin ot so'z birikmasining uzunligini aniq aniqlash uchun qo'shimcha belgilardan foydalanish kerak. Kontekst chastotasi bilan iboraning paydo bo'lish chastotasini baholaydigan kontekstli xususiyatlar eng ko'p qo'llaniladi. Bunday belgilar nominal guruhning chegaralarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Matnlarning avtomatik hissiyotlarini tahlil qilish vazifasi murakkab muammodir. Hissiyotlarni tahlil qilishning mashhur va ommalashgan turi bu — aspekt(jihati)ga asoslangan tahlildir. Matnlarni avtomatik tahlil qilishning dastlabki natijalarini muhandislik-linivistik yondashuv asosida ham, mashinani o'rganish usullari asosida ham tezda olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Girolami M., Kab'an A. On an equivalence between PLSI and LDA // SIGIR'03: Proceedings of the 26th annual international ACM SIGIR conference on Research and development in informaion retrieval. — 2003. — Pp. 433—434.
2. Lee S. S., Chung T., McLeod D. Dynamic item recommendation by topic modeling for social networks // Information Technology: New Generations (ITNG), 2011 Eighth International Conference on. — IEEE, 2011. — Pp. 884—889.
3. Wang C., Blei D. M. Decoupling sparsity and smoothness in the discrete hierarchical Dirichlet process // NIPS. — Curran Associates, Inc., 2009. — Pp. 1982—1989.
4. Mikolov T., Sutskever I., Chen K., Corrado G., Dean J. Distributed representations of words and phrases and their compositionality // CoRR. — 2013. — Vol. abs/1310.4546.
5. Asuncion A., Welling M., Smyth P., Teh Y. W. On smoothing and inference for topic models // Proceedings of the International Conference on Uncertainty in Artificial Intelligence. — 2009. — Pp. 27-34.
6. Воронцов К. В., Потапенко А. А. Регуляризация вероятностных тематических моделей для повышения интерпретируемости и определения числа тем // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: По материалам ежегодной Международной конференции "Диалог" (Бекасово, 4—8 июня 2014 г.). — Вып. 13 (20). — М: Изд-во РГГУ, 2014. — С. 676—687.
7. Rahman M. Search engines going beyond keyword search: A survey // International Journal of Computer Applications. — August 2013. — Vol. 75, no. 17. — Pp. 1—8.
8. Mimno D., Hoffman M., Blei D. Sparse stochastic inference for latent Dirichlet allocation // Proceedings of the 29th International Conference on Machine Learning (ICML-12) / Ed. by J. Langford, J. Pineau. — New York, NY, USA: Omnipress, July 2012. — Pp. 1599—1606.
9. Koltcov S., Koltsova O., Nikolenko S. Latent Dirichlet allocation: Stability and applications to studies of user-generated content // Proceedings of the 2014 ACM Conference on Web Science. — WebSci'14. — New York, NY, USA: ACM, 2014. — Pp. 161—165.
10. Marchionini G. Exploratory search: From finding to understanding // Commun. ACM. — 2006. — Vol. 49, no. 4. — Pp. 41—46.

BUGUNGI KUNDA PIKTOGRAMMALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Shoxida Quraqova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada piktogrammalarning bugungi kundagi o'rni, ahamiyati va ma'nolarini o'rganish, insonlar hayotida ma'lumot almashish va izoblash jarayonlarida juda foydali va samarali ekanligi haqida asosli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy dunyo, piktogramma, tasvir, aloqa vositasi, semiotika.

Bugungi kunda piktografik yozuvlar dunyo bo‘ylab universal bo‘lishi va har qanday til va madaniyatlarga mos kelishi sababli, ularning ijtimoiy ahamiyati va ko‘plab sohalarda o‘rnatilishi keng tarqaldi. Ular vizual kommunikatsiyada yoki ko‘rsatish va tushuntirishda qulay va yetarli bo‘ladi va ko‘p til bilishni talab etmaydigan insonlar orasida xabar almashish imkonini beradi.

Piktogramma - buyum, predmet, joy yoki tushunchani tasvirlash orqali ifodalovchi belgi. Belgilarga asoslangan bu yozuv tizimi piktografiya deb ataladi. Qadimda aloqa vositasi sifatida foydalanilgan piktogrammalar mixxat va ieroglif yozuvlarida uchraydi. Xet va Urartu yozuv tizimlari piktografikdir. Misr sivilizatsiyalarida uchraydigan ieroglif yozuvlari piktogrammalarining asosini tashkil qiladi. Miloddan avvalgi 15000-yillarda bizgacha yetib kelgan eng qadimgi g‘or rasmlarida odamlar ko‘rgan narsalarini idrok etish orqali g‘or devorlariga chizganlar [Berger, 2005: 50].

Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha aloqa vositasi sifatida foydalanilgan piktogrammalardan turli maqsadlarda foydalanilgan. Qadimda asosan aloqa vositasi sifatida foydalanilgan piktogrammalar hozirgi kunda iqtisodiyot, savdo, siyosat va hokazolarda aloqa vositasi sifatida qo‘llaniladi. Dastlab 50 ta ramz belgilari texnologiyasini hayotga tatbiq etishda namuna ko‘rsatayotgan Amerika Grafika san‘ati instituti (AIGA) va Qo‘shma Shtatlar Transport departamenti (DOT) bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Bugungi kunda bu belgilar standartlashtirilgan va aeroportlar, vokzallar, jamoat binolari, hojatxonalar, eskalatorlar va paromlarda qo‘llaniladi.

AIGA/DOT belgilarining dizayni bilan bir qatorda, u yaxshi marshrutlash talab qilinadigan joylar uchun ko‘plab qo‘shimcha belgilarni ishlab chiqdi. AIGA orqali standart holga kelgan ushbu tasviriy belgilar piktogrammalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi [Gibson, 2009: 21]. Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlardan tashqari, 1991-yilda “Atrof-muhit grafik dizayn assotsiatsiyasi” (SEGD) transport belgilarini 108 ta yangi dizayn bilan yakunladi. Ular bugungi kunda bog‘lar va yashil hududlarda ham qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, xalqaro standartlashtirish tashkiloti ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) jamoat joylarida ishlatiladigan belgilarni standartlashtirish bo‘yicha ish olib bordi. Ushbu piktogramma to‘plamlari endi avtomobil yo‘llari, aeroportlar, hayvonot bog‘lari, muzeylar va kasalxonalar kabi jamoat joylarida qo‘llaniladi. Davlat muassasalarida yangi piktogrammalar yaratilganda, hamma tomonidan qabul qilinadigan dizaynlar yaratiladi. Hamma uchun maqbul bo‘lgan bir qator piktogrammalarni ishlab chiqish dizaynerlarning dizaynni sinab ko‘rishlari, tadqiq qilishlari, ishlab chiqishlari, o‘qitishlari va amalga oshirishlariga bog‘liq.

Yuqorida sanab o‘tilgan namunaviy ishlanmalarni hisobga olgan holda, Piktogrammalar; tibbiyot, transport, kompyuterlar va boshqalarni ifodalovchi bo‘shliqlarda foydalanish orqali kundalik hayotimizning bir qismini tashkil qiladi, chunki “belgilangan shaklda” ular joylarni, yo‘nalishlarni, harakatlarni, real dunyodagi harakatlarga (shahar, yo‘l va boshqalar) cheklovlarni, shuningdek, virtual hayot ichidagi harakatni ko‘rsatadi.

Piktogrammaning bugungi kundagi tasirini quyidagicha umumlashtirish mumkin: piktogramma yorliqdan yaxshiroq va matnni o‘qishdan ko‘ra tasvirni tanib olish osonroq. Ushbu sharh tilshunoslik, psixologiya va semiotikaning piktogrammalarining dizayni va haqiqiyliigi, tushunish va ulardan foydalanish bo‘yicha nazariy va empirik tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi. Turli usullar orasida gomogenlashtirish va dizayn vositalari sifatida tasniflash va piktogramma taksonomiyalarini yaratishga urg‘u beradi, [Amerika Grafika San‘ati Instituti, Amerika Qo‘shma Shtatlari Transport Departamenti, Symbol Signs. 1993, (14.01.2022)].

Hozirgi kunda ham piktogrammalar ko‘p joyda ishlatiladi, shu jumladan:

Transport va navigatsiya: Piktogrammalar ko‘p mamlakatlar va shaharlar bo‘yicha transport xizmatlarida yoki ko‘chada yo‘l yo‘riqnomalari, oldingi qadam o‘rinlari, eng muhim joylar va afzalliklar haqida ma’lumotlarni taqdim etish uchun foydalaniladi. Masalan, mashinaning yaqinlashishi, to‘xtab turish joyini yoki avtobus o‘rnatish joyini ko‘rsatishda.

Xizmat ko‘rsatish sohalari: Restoranlar, kasalxonalar, sayohatchilar markazlari va boshqa ommaviy joylar xodimlarini yo‘naltirish uchun, piktogrammalar ishlatiladi. Bu hammomlar, tuvaletlar, shartnoma maskanlari va boshqa hududlar uchun bo‘lib, har bir joy uchun tasvir ko‘rinishida turli matnlar qo‘llaniladi.

Xavfsizlik: Piktogrammalar xavfsizlik xizmatlarida va ko'chada turli xavfsizlik qoidalarini ko'rsatishda ishlatiladi. Ular juda ko'p turdagi xavfsizlik signalizatsiyalari, qo'yish, yengilma yoki turli huquqiy ruxsatlar haqida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi.

Tez-tez ko'rish va tarqatish: Piktogrammalar bazan ko'p vazifali joylarda, masalan, do'konlar, mehmonxonalarda, aviakompaniyalarda va boshqa joylarda, har bir bo'limda qayerda nima bo'lganini yoritish uchun ishlatiladi.

Piktogrammalar odatda oddiy va universal bo'lib, turli tillar va madaniyatlar orasida farqli emas. Ular global doimiy hayotda har xil insonlarga ma'lumot olib yetkazish uchun yordamchi bo'lib, matnning tushunchalarini tuzatishga yordam beradi. Bu esa har xil tillar bilan gaplasha olmaydigan yoki matnni o'qiy olmaydigan kishilarga foydali bo'ladi.

Piktogrammalar xususan quyidagi muammolarni hal qilishda yordam beradi:

Barqarorlik: Piktogrammalar universaldirlar, shuningdek, tarqalgan muammolar uchun to'g'ri, qulay va oddiy hal qilishga yordam beradi. Misol uchun, bir kichik quyidagi ma'lumot yoki yo'l yo'riqnomasi juda ko'p turdagi insonlar uchun qulay va yengilmasdir.

Tilni ko'rib chiqish: Piktogrammalar matnning o'rniga o'xshash bo'lib, har xil tillarni bilgan va bilmagan insonlar uchun qulaydir. Shuning uchun, ular turli mamlakatlarda va madaniyatlarda yaxshi qabul qilinadi.

Tez yetkazish: Piktogrammalar o'qitish va tushuntirishni oson qilish uchun ma'lumotni juda tezkor yetkazib beradi. Ularning yoritilishi va ma'no anglatishi, konxona ishchlari va ta'lim tizimini oson tashkil qilishni qulaylashtiradi.

Aniqlik va moslashuvchanlik: Piktogrammalar oldingi qadamni aniqroq ko'rsatishda yordam beradi. Ularning keng qo'llanilishi, ma'lumotni yoritish va qabul qilishda moslashuvchan bo'lmashliklari uchun yordam beradi.

Madaniy aloqalar: Piktogrammalar til, milliy va madaniy aloqalar ustida bo'lmay, har xil insonlar uchun mos yordamchilardir. Ularning oddiy va ko'p xil ishlatilishi, o'zaro bog'liqlikni ko'paytiradi va munosib hissiyotlar yaratadi.

Brending va tarqalgan xizmatlar: Kompaniyalar va tashkilotlar o'zlarining piktogrammalarini yaratib, ular xizmatlarini reklama qilish va o'zlarining brendlarini taqdim etishda ishlatishadi. Bu, turli modellar, xususan reklama kampaniyalarida yoki yangiliklarni taqdim etishda ishlatiladi.

Shuningdek, tezkor fikr yaratish, qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlarni yoritish va tushuntirishning oddiy va aniqlik bilan amalga oshirilishi uchun piktogrammalar juda muhimdir. Kundalik hayotda odatda har bir kishi tomonidan qo'llaniladigan ushbu piktogramma va belgilardan tashqari, jamiyatning turli qatlamlariga, masalan, turli kasbiy guruhlariga murojaat qiladigan piktogrammalar va belgilar ham mavjud. Ushbu piktogrammalar va belgilar faqat bir xil professional guruhdagi odamlarga murojaat qiladi va faqat o'sha jamoa tomonidan qo'llaniladi. Misol uchun, chet tilini bilmasa, zavodda mashinadan foydalanish mumkin bo'lmaydi. Biroq, butun dunyo bo'ylab bir xil professional guruhlar tomonidan universal ishlatiladigan mashinadagi belgilar nimani anglatishi ma'lum bo'lsa, barcha muammolar bartaraf qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, piktogrammalar bugungi dunyoda tezlik, xilma-xillik va cheklovlar tufayli yuzaga keladigan aloqa bo'shliqlarini bartaraf etish qudratiga ega. Buning uchun har bir piktogramma dizaynini to'g'ri bajarishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Amalga oshirish jarayonida maqsadli auditoriyani hech qachon orqaga qaytarmaslik va ularning jarayonda faol ishtiroki ta'minlanishi kerak. Agar zarur bo'lsa, o'quv maqsadlari uchun ta'lim olishlari kerakligini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullah, Rayan and Hübner, Pictograms, Icons and Signs, Yyy. Thames& Hudson, 2006.
2. Berger, C. (2007) Wayfinding: Designing and Implementing Graphic Navigational Systems. İsviçre: RotoVision Books.
3. Gibson, D. (2009) The Wayfinding Handbook Information Design for Public Places. New York, Amerika: Princeton Architectural Press.

4. The American Institute of Graphic Arts, United States Dept. of Transportation Symbol Signs. United States: American Institute of Graphic Arts, 1993. (14.01.2022).

XALQARO YURIDIK TERMINOLOGIYAGA LOTIN TILINING TA’SIRI

Munisa Isaqova,
O‘ZRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko‘plab tillarning leksikografiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan lotin tili haqida so‘z yuritilgan. Ayniqsa, xalqaro huquqiy terminologiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishida lotinizmlarning ahamiyati masalasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: lotin tili, so‘z o‘zlashtirish, yuridik terminologiya, xalqaro huquq, act, degree.

Terminologiya sohasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning eng muhim va faol rivojlanayotgan mavzularidan biridir. Ham mahalliy, ham chet el tilshunosligida atama nazariyasi va xususiy sektor tizimlarini tadqiq qilish, ularning rivojlanishi, tizimli, lingvistik va ekstralingvistik terminologik birliklarga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud. “Terminologiya har qanday sohada shu jumladan, huquqshunoslikda ham mavjud bo‘lib, terminlarsiz qonunchilikda fikrni aniq ifodalashga erishish mumkin emas”. [Милослоиская, 2008:123] Zamonaviy huquq lotin tili terminologiyasidan keng foydalanadi. Bu jarayon huquqshunoslikning asosini Rim huquqining ta’riflari va huquqiy konstruksiyalari tashkil etish bilan izohlash mumkin. Huquqshunos olimlar P.N. Astapenko va E.Y. Derbichova Rim huquqi barcha zamonaviy huquqning beshigi va asosidir. Barcha huquqiy tushunchalar birinchi marta Rim huquqida paydo bo‘lgan deb ta’kidlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, Rim yoki lotin huquqiy terminologiyasi Rim huquqida vujudga kelgan va xalqaro huquqning shakllanishi va faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qilgan yuridik institutlar va tuzilmalarning asosiy nomlarini o‘zida mujassam etgan universal yuridik terminolohiya ekanligini aytish mumkin. Lotin tili aloqa vositasi sifatida qariyb yigirma asr davomida jahon xalqlariga xizmat qilib kelgan. Shu sababdan ham hozirgi kunda ham zamonaviy xalqaro huquqda foydalanilib kelinayotgan atamalarning ko‘pchiligi paydo bo‘lishi etnik jihatdan lotin tiliga borib taqaladi. Bu jarayon ham o‘z navbatida bosqichma bosqich ro‘y bergan. Qadimgi lotin va german tillariga o‘tish uch davrni qamrab oladi. Qarz olishning birinchi davri: (shartli ravishda V asrgacha) asosan dehqonchilik, ekish, qurilish, va savdo sohalariga ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, lotincha Pium-mikrob. Ikkinchi davr (V-IX asrlar) nasroniylikni kirib kelishi va diniy lotin va yunon lug‘atini olib kirdi. Uchinchi davr gumanizm davrida (XIV XVI asrlar) sodir bo‘lib, tipografiya, musiqa, davlat boshqaruvi, xususan ta’lim sohalariga ta’sir ko‘rsatdi. Yangi ilmiy atamalar uchun asos sifatida klassik tillardan foydalanish hali ham mavjud bo‘lib, S.N.Grinev-Grinevich ta’kidlaganidek, ularni shakllantirishning yetakchi va eng faol istiqbolli yo‘llaridan biri bo‘lib qolmoqda. [Гринева-Гриневич, 2009: 224] Dastlab atamalar, asosan, yunon, turkiy va skandinaviya tillaridan qabul qilib olingan. Yuridik til shakllanishining keyingi bosqichlarida taxminan XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, rus huquqshunosligida lotin ildizlariga ega atamalarning o‘ziga xos “diktaturasi” o‘rnatildi. Ularning aksariyati to‘g‘ridan to‘g‘ri Rim huquqidan qabul qilingan. Bu esa yuridik texnika sohasidagi tarixiy yuksak yutuq edi. XVIII asrga kelib ko‘p tomonlama til aloqalari va rus tiliga ko‘plab yangi tushunchalarning kirishi jarayoni o‘zining boshini boshladi. Bu davrda xorijiy so‘zlarning ma’nolari rus tili orqali boshqa tillarga yetkazish zarurati kuchaydi. Rus tili vositachiligida xalqaro huquqiy terminlarning dunyo xalqlariga o‘zlashishi avvalo, hukmron tuzum bilan ham bog‘liq jarayondir. Ye.E.Birjakovaning fikrlariga ko‘ra, “qarz olish jarayoni muqarrar ravishda rus tili vositalariga qarama-qarshilik tendensiyalarini keltirib chiqaradi va rus tilidagi so‘z yasashining o‘zi so‘z hosil qilishni rag‘batlantiradi” [Биржакова,

1972:78]. Rus yuridik terminologiyasi tizimini optimallashtirish usuli sifatida terminologik qarz olish Rus adabiy tili tarixi bo'yicha tadqiqotchilar XVIII asrning ikkinchi yarmida rus adabiy tilining so'z yasash tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida "bir vaqtning o'zida bir necha so'z yasash variantlarining mavjudligini ta'kidladilar" [Винокур, 1959: 56]. Rus yuridik terminologiyasining boyish manbalaridan yana biri bu polyak tilidagi so'zlarning o'zlashtirilishidir. Masalan, Xaratya leksemasi yunon tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan bo'lib, qadimgi rus tilida o'zining semantik tuzilishini va shartnomaning yozma akt ma'nosini to'liq saqlab qoldi. Ammo u ruslarning Yunonlar bilan tuzgan shartnomalarida normativ-huquqiy hujjat, xalqaro shartnoma nomi ma'nosida qo'llanilgan. Ehtimol, so'zning asosiy ma'nosi, yozish uchun materilning nomi bilan bog'liq (papirus keyinchalik pergament) bunga to'sqinlik qilgan. Yunon tilidan bevosita olingan atalardan biri nomos leksemasidir. Bu so'z XI-XIV asrlardagi rus huquqiy hujjatlar matnlarida qonunning yuqori darajada ixtisoslashtirish ma'nosida faol qo'llanilgan. "Act" so'zi ham lotin tilidan o'zlashgan bo'lib, actus leksemasi asosida harakat ma'nosini ifodalagan. Bu so'z XVI asrda nazoratchining harakati semasini ifodalagan bo'lsa, XVIII asrning oxirigacha "hujjatlar" ma'nosida ko'plik shaklida ishlatilgan. Hozirda ham xalqaro miqiyosda keng qo'llanilib kelinuvchi decree termini lotin tilisagi decretum (farmon) so'zi oliy mansabdor shaxsning normativ-huquqiy hujjatining nomi sifatida XVI asrning ikkinchi yarmida Andrey Krubskiy matnlarida uchraydi [Попова, 2007: 32]. Ammo u obyektiv sabablarga ko'ra u rus tilida keng tarqalmagan. Qonun, farmon, qonun kuchiga ega bo'lgan masala dekreti so'zi faqat XVIII asrning yigirmanchi yillarida qo'llanila boshlandi. Pyotr I "Nizom"larida, tarjima asarlarida normativ-huquqiy hujjatning asl matnlarida xorijiy davlatlarning (qadimgi Rim, Fransiya Respublikasi va boshqalar) yoki Rossiya imperiyasining oliy organlari qonunchilik qarorlarini ko'rsatish uchun ishlatilgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ma'lumotlarga asoslanib, huquq terminologiyasining paydo bo'lishida rus va ingliz yuridik tili muhim bosqich bo'lgan deyish mumkin. Yuridik atamalarining kasbiy muloqot vositasi sifatidagi muhim xususiyati ularning hukmron sinf dunyoqarashi va mafkurasi, turli siyosiy-huquqiy nazariyalar, ilmiy yo'nalishlar, huquqiy tajriba bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta asrlar sud amaliyotidan masalan, "feodal" va "feodalizm" kabi atamalar paydo bo'lib, keyinchalik ular ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turini belgilashda aylandi. Sudxo'rlar orasida iqtisodiy fan arsenaliga kirgan "kapital" atamasi tug'ildi. Yana bir yorqin misol Jak-Jak Russo davridagi "respublika" atamasi Fransiya umuman har qanday tuzumdagi davlat ma'nosida ishlatilgan. Bu davrga kelib, lotincha riscum, rescum atamaları keng tarqaldi. Ular faol dengiz savdo huquqida va moliyaviy huquqda xavfni ifodalash uchun qo'llanilgan. Ushbu huquqiy atamalar tilga shunchalik mustahkam o'rnashib, hodisaning mohiyatini to'laqonli ifodalashga xizmat qildi. Ular jonli muloqotda o'zgarishsiz saqlanib qoldi va o'z holicha ko'plab Yevropa tillariga o'zlashdi. Yunon va lotin tillarining ta'siri Yevropa tillarining shakllanishida muqarrar hodisa bo'lib, ularning fan va madaniyat tillari sifatidagi obro'sini inkor etib bo'lmaz edi. Tadqiqot jarayonida atamalarining tarixiy ildizlarini qayta kashf etishga zarurat tuG'ildi. Ko'plab atamalar kelib chiqishi antik davrga borib taqalishi aniqlandi. Keyinchalik ular bosqichma-bosqich tarixiy jarayonda ekstralingvistik omillar ta'sirida ilmiy terminologiyaga to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachi til orqali kirib borgan. Ularning o'zlashishida yana bir muhim omillardan biri umumiy lug'at ma'nolarining kengayishi va torayishi yoki funksiyalarning o'xshashligiga asoslangan. Shunday qilib, lotin tilidagi qarzlar xalqaro lug'atga tegishli bo'lib, ular madaniy va ijtimoiy taraqqiyotning umumiy xususiyatlari bilan birlashtirilgan ko'plab xalqlarning tillarida doimo takrorlanadi.

Demak, lotinizmlarni huquqiy atamalarining shakllanish manbai sifatida ko'rib, lotin tili asosan xalqaro huquq bilan bog'liq bo'lgan huquqiy terminologiyani boyitishda katta rol o'ynagan. Binobarin, klassik tillar asosida yaratilgan atamalarining asosiy xususiyati shundaki, ular o'z navbatida xalqaro va maxsus tarjimani talab qilmaydi. Alohida atamalar tizimining kelib chiqishini tavsiflash ilmiy faoliyat sohasini rivojlantirib, mualliflar tahlilini tizimlashtirishga ma'lum hissa qo'shadi. Yuqorida tahlilga tortilgan atamalar kelajakda madaniyatlararo professional muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qator muammolarni hal qilish imkonini berishi mumkin. Klassik tillarning hozirgi ahamiyati avvalgidek bo'lmasa-da, lekin ular ilmiy terminologiyani shakllanishida va boyishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Биржакова Е. Э., Бойнова Л. А., Кутина Л. Л., Очерки по исторической лексикологии русского языка XVIII века: Языковые контакты заимствования. Л. Наука. 1972
2. Винокур Г. О. Избранные работы по русскому языку. М.: Учпедгиз. 1959.
3. Гринев-Гриневиц С. В. Введение в терминографию. М.: Либроком. 2009. 224 с.
4. Милослоиская Д. И. Современный русский язык в сфере административно — правовой и общественной деятельности. М. 2008
5. Попова Л. В. Русская юридическая терминология XVIII века в структурно-семантическом и лингвокультурологическом аспектах. Автор. Дис... канд. филол. наук. 2007 Челябинск.

ALLA MATNLARIDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI

Maftuna Mamarasulova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada alla matnlarida milliy madaniyatni aks ettiruvchi vositalar va ularning o‘ziga xosligi, lingvomadaniyatsunoslikda xalq og‘zaki ijodi namunalarining tahlil etilishiga doir tablillar o‘z aksini topgan. Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatsunoslik, milliy ruh, konsept.

Alla matnlarini lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish orqali o‘zbekona qadriyatlar yig‘indisi, madaniy an‘analar tizimi, milliy idrok intizomining allalarda qay yo‘sinda, qanday til birliklarida aks ettirishi oydinlashadi. Allada asosan oila va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq qadriyatlar, ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning boshqa xalq, boshqa millatlardan farqli jihatlarini aks etadi. Umuman, alla vositasida go‘dakda milliy ong, milliy ruh shakllanadi.

Alla janri muayyan xalqning ko‘p asrlik tajribalari, yashash sharoiti, dunyoqarshi aks etgan madaniy meros hisoblanib, undagi madaniy o‘ziga xosliklar lingvomadaniy birliklar vositasida voqelangan. Madaniyat aks ettiruvchi til birliklari lingvomadaniy birlik yoki lingvokulteremalar deb nomlanadi. Bunday lingvomadaniy birliklar — frazemalar, maqol, matal, ramz, stereotip, o‘xshatish, metafora kabilarni o‘z ichiga oladi. Alla matnlari tarkibida bunday lingvomadaniy birliklarning rang-barang ko‘rinishlari uchraydi. Jumladan, tilimizning o‘ziga xosliklarini yorqin ifoda etuvchi lakunalar birliklar, realiyalar, frazemalar, maqol, matallar, o‘xshatish va metaforalar alla matnlarida faol qo‘llanilgan. Xususan, alla matnlari tarkibida bo‘yra, holva, chopon, o‘ymali (yo‘rmali, kashtali) to‘n, guppi chopon, to‘n, tulki tepak, qalpoq, baxmal po‘stin, kamar, belbog‘, sep, angishvona, belanchak, alvonj, qo‘lbov, tandir, patir, shamchiroq, g‘aynoli, suqsur, o‘rdak, churrak, g‘urak, bedov kabi turli mavzuviy guruhga mansub realiyalar uchraydi. Alla matnlarida uchraydigan ushbu tushunchalar o‘zbek xalqiga xos madaniy belgilarni — turmush tarzi, tabiiy sharoit, tarixiy taraqqiyot kabilarni o‘zida ifoda etadi. Xususan, belbog‘, do‘ppi kabi realiyalar o‘zbek milliy madaniyatining muhim bo‘lagi sifatida yigitlarga xos bir so‘zlilik, g‘urur va oriyatning ramziy belgisi sanaladi. Ushbu realiyalar vositasida shakllangan frazemalar aynan g‘urur, oriyat kabi yigitlikka xos muhim belgilarni o‘zida aks ettiradi. Masalan, allada yigitlarga xos bo‘lgan mard jasurlik, bir so‘zlilik, g‘ururlilik xususiyatlarini ifoda etuvchi “belida belbog‘i bor” frazemasining “belbog‘ bo‘lar belida” shaklidagi varianti qo‘llangan.

Tuz tuyilar kelida, alla,

Har kim aziz elida, alla.

Yigit bo‘lsa gul bolam, alla,

Belbog‘ bo‘lar belida, alla.

Allada qo‘llangan “belbog‘ bo‘lar belida” birikmasi signifikat fikr predmetini denotativ aspektda ifodalaganda “tananing bel qismiga belbog‘ o‘ragan erkak kishi”ni anglatrsa, konnotativ aspektda mard,

bir so'zli, g'ururli kabi yigit kishiga xos ijobiy xislatga egalikni ifodalaydi. Birikmadagi "belbog'" komponenti o'ziga xos milliy madaniy belgi tashuvchi funksiyasini bajaradi. Shuningdek, alla matnlarida "tog'ni talqon qilgudek" iborasi ham mavjud bo'lib, ushbu ibora ham yigitlarga xos "kuch-quvvatlilik, zabardastlik" xususiyatlarini ifoda etib keladi.

O'zing menga qanot bo'l.

Yuragimga madad bo'l.

Tog'ni talqon qilgudek,

Palvonu boadab bo'l.

Alla matnlarida qo'llangan ushbu iboralar o'zbek yigitlari uchun etalon bo'lgan xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilmoqda.

Alla matnlari tarkibida shu kabi turli mavzuviy guruhlariga oid frazeologik birliklar uchraydi. Quyidagi alla matnida shunday frazeologik birliklardan "tirnoqqa zor" iborasi mavjud.

Alla desam, bog'im bor, alla,

Biring — olma, biring — nor, alla.

Shukronalar aytarman, alla,

Qanchalar tirnoqqa zor, alla.

Ushbu allada keltirilgan "tirnoqqa zor" iborasi bevosita farzand ne'matiga bo'lgan munosabatni ifoda etishga xizmat qiladi. "Tirnoq" ko'chma ma'noda farzand, bola ma'nolarini anglatib keladi. Tirnoq ko'rmoq — farzandli bo'lmoq, farzand ko'rmoq ma'nosini ifodalasa, "tirnoqqa zor" iborasi "farzandsizlik" ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, o'zbek millatida oila baxtining butunligi bevosita farzand tushunchasi bilan bog'lanadi, o'zbek ayoli uchun dunyoda borlikning, baxtiyorlikning bosh belgisi onalik baxti bilan o'chanadi. Shu bois ham farzand "ne'mat" sifatida baholanadi. Farzandsizlik holatining aynan "tirnoqqa zor" birikmasi orqali ifoda etilishida ham asos borki, o'zbek ayoli uchun farzandning hattoki tirnog'i (eng kichik, ahamiyati kam tana a'zosi) ham aziz. Shuningdek, farzandsizlikning qanchalik og'ir holat ekanligi tilimizda qo'llaniluvchi "Bolali uy — bozor, bolasiz uy mozor" maqolida ham o'z ifodasi-ni topgan. Ushbu maqolning alla matnida quyidagicha varinatsiya qo'llanganligining guvohi bo'ldik.

Farzandlik uyga yog'ar rahmat, alla,

Farzandsizlar chekar zahmat, alla.

Farzandlikning uyin ko'rsang — guliston, alla,

Befarzandning uyin ko'rsang — go'riston, alla.

Ushbu allada qo'llangan maqol farzandning oiladagi ahamiyatini ko'rsatadi. Farzandli uyga rahmat yog'ishining ahamiyati shundaki, milliy qadriyatlarimizga ko'ra, farzand xonadon chirog'ini yoquvchi, ajdodlarni xotirlab turuvchi bir avlodning davomchisi sanaladi. Shuning uchun ham farzandli uyga rahmat yog'ishi va bunday uy gulistondek bo'lishi aytilgan.

Alla matnlarida erkalash ifodalarining ham faol qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu erkalash ifodalari onaning butun mehru muhabbatini aks ettirish bilan bir qatorda milliy madaniyatimiz, mintale-timizni ko'rsatuvchi til birliklari sanaladi. Xususan, allada qo'llangan erkalash ifodalari ichida "sadag'ang bo'lay", "jonim sadag'a", "aylanay, o'rgilay", "jonimni qoqay" "qurboning bo'lay" kabi asosan ayollar tomonidan qo'llaniladigan "jonfido iboralar" ham borki, ularning kelib chiqishi bevosita qadimiy tushunchalar bilan bog'lanadi. Bu ta'birlar zamirida, mazmun-mohiyatida "boshqaning moli, joni uchun o'z jonini yoki molini badal qilish orqali uni saqlab qolish" e'tiqodi mavjud bo'lib, hozirgi kunda ushbu ifodalar faol qo'llansa-da, qadimiy tasavvurlar unutilgan. Bizningcha, aslida bunday iboralar qadimiy e'tiqod zamirida aynan onalarning "fidokorlik" qadriyati natijasida yuzaga kelganki, bora-bora bu iboralar zamiridagi e'tiqodlar unutilib, uning mazmun-mohiyati saqlanib qolgan va asosan ayollar tomonidan qo'llanilishi odat tusiga aylanib qolgan. Ya'ni, dastavval, ona tomonidan aytilgan ushbu ifodalar, endilikda ma'nosi torayib, erkalash ma'nosida qo'llaniladigan turg'un konstruksiyalarga aylanib qolgan.

Alla, alla, uyquchi,

Uying qayda kela qol.

Shunga jonim qoqindiq,

Ko‘zlarina ina qol,
Alla, bolam, alla-yo.

* * *

Aylaniblar ketayin,
Katan ko‘ylak etayin.
Katan ko‘ylagi kir bo‘lsa,
Yuvib oppoq etayin,
Alla, bolam, alla-yo.

* * *

Qurbon bo‘lib ketay senga, alla-yo alla,
Murodimga yetay sen-la, alla-yo alla.

* * *

Yig‘lab bag‘rim dog‘ etma, alla,
Sadag‘ang ketsin onang, alla-yo alla.

Shuningdek, allalar tarkibida rang-barang mavzuviy guruhga mansub maqol va matallar ham uchraydi. Darhaqiqat, tilning paremiologik fondi hisoblanmish maqol, matal va hikmatli so‘zlarni xalq durdonalaridan tashkil topgan va uning madaniyatidan mustahkam o‘rin olgan javohirlar sandig‘i deysish mumkin. Alla matnlarida qo‘llangan paremiologik birliklar she‘riy shaklda bo‘lganligi bois ular badiiy vosita sifatida xizmat qilgan va shakliy jihatdan turli so‘zlar qo‘shilgan yoki ayrim o‘rinlarda so‘zlar tushirib qoldirilgan. Biroq ulardagi xalq maqollariga xos mantiqiy, umumlashma xulosalar saqlanib qolgan. Masalan,

Yaxshidan ot qolar, alla,
Yomondan dod qolar, alla.
Yaxshi bilan esh bo‘lsang,
Ushalar murod, alla.

Yoki:

Yaxshiga yondoshib, yomondan qochib, alla-yo alla
Onang ko‘nglin choq qilgin, alla-yo alla.

Ushbu alla misralarida xalq maqollaridagi ma‘no va mantiq aynan ifodalangan. Paremiologik lug‘atlarda qayd etilgan “Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog“, “Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lsang, yetarsan murodga, yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, qolarsan uyatga” kabi maqollarda ifodalangan yaxshilik qilishga undash, yaxshilar bilan yaqin bo‘lishga undovchi hikmatlar yuqoridagi alla matniga singdirilgan.

O‘zga yurtida shohlar bo‘lma, alla-yo

O‘z yurtida cho‘pon bo‘lgin, alla-yo.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, lingvomadaniyatshunoslik sohasi “milliy ruh” ning tilda voqelanishini o‘rganuvchi tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til vositasida shakllangan madaniy meros — mif, afsona, rivoyat, maqol, matal va alla kabilar negizida xalq dunyoqarashi va madaniyatining o‘ziga xosliklarini tadqiq etadi. O‘zbek xalq alla matnlarida qo‘llangan madaniy o‘ziga xosliklarni ifoda etuvchi ibora, maqol, erkalash ifodalarining asosiy qismi farzand bilan bog‘liq xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. — Samarqand, 2006. — 356 b.
2. Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дис.афтореф. — Қўқон, 2019, — 40 б.
3. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. — Тошкент: Ғофур Ғулом, 2012. — 152 б.

4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. — Тошкент: Ўқитувчи, 1984. — 148 б.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар — образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили а адабиёти. — Тошкент, 2011. — №3. — Б. 19—24.
6. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Маънавият, 2013. — 320 б.

VATAN KONSEPTINING O'RIN-JOY OTLARI BILAN IFODALANISHI

Mahliyo Xolmo'minova,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada filologiyaning yangi tarmoqlariga birday taalluqli bo'lgan konsepti tushunchasi, shuningdek, Vatan konseptining milliy-madaniy xususiyatga ega ekanligi, o'ziga xosligi ko'rsatib berilgan. O'rin-joy otlari misolida ta'kidlangan xarakterli jihatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: konsept, vatan konsepti, milliy-madaniy birlik, o'rin-joy otlari.

Bugungi kun o'zbek tilshunosligida endi rivojlanish yo'liga kirayotgan yangi sohalaridan biri lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdir. Konsept ana shu ikki muhim tarmoqdan o'sib chiqqan ilmiy atama bo'lib, uning milliy-mental tabiatga egaligi, inson tafakkuri hosilasi o'laroq tatbiq qilinishi bu ikkala fan sohasining ham umumkesishuv nuqtalari bo'lib xizmat qiladi. Konsepti atamasi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining asosini tashkil qilib, antroposentrik paradigma asosida shakllanayotgan lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika fanlarida alohida ahamiyatga ega. Konsept atamasi nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyotshunoslik, falsafa, estetika fanlarining ham o'rganish obyektlaridan biri sanaladi.

Lingvomadaniy konsept ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning tuzilishi haqida turli nuqtayi nazarlar mavjud. Shu sababdan ham konsept murakkab mental kompleks sanaladi. U o'zida milliy mentalitetdan tortib, individual xususiyatlarni qamrab oladi. Shu jumladan, vatan konsepti ham milliy-madaniy xususiyatlarini bir qancha lingvokulturemalar orqali yuzaga chiqaradi. Lingvokulturemalar o'zida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi. Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma'no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to'g'ri va ko'chma ma'nosidan farqli o'laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir. V.V.Vorobyev "lingvokulturologiya — sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi. [Ивченко, 2010: 13] Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli jihatlarini professor O'. Yusupov quydagicha izohlaydi. "Lingvokulturema - o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birliigi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til — madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar

vositasida ifoda etadi”. Ular o‘z navbatida bir qancha guruhlariga ajraladi.

Vatan so‘zi izohli lug‘atdagi ta‘rifiga ko‘ra joy ma‘nosini bildiruvchi atama hisoblangani uchun, vatan konseptini ifodalovchi lingvokulturemalarning asosiy qismi toponimlar hisoblanadi.

Badiiy matnlarda, xususan, she‘riy matnlarda vatan konseptini ifodalash uchun ishlatiladigan yana ba‘zi bir so‘zlar borki, ular toponim ya‘ni joy nomlari bo‘lmasa-da, vatan konseptini xuddi toponimlar kabi yaqqol yoritib bera oladi. Ular joy otlaridir. O‘rin-joy otlari ma‘lum bir geografik hududni anglatuvchi turdosh otlar hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, toponimlar kabi joy otlari ham ma‘lum bir hududni bildirishi hamda vatan so‘zining ba‘zi bir semalari bilan ekvivalentga ega ekanligi tufayli vatan konseptini ifodalovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi:

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.
Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurti kezdin, qancha taqdirilar.
Qayga borsam suyak, boshni tik tut deb,
Tog‘laring ortimdan ergashib yurar.

Ushbu misolda keltirilgan joy otlarining barchasi hudud ma‘nosini anglatib qolmasdan, O‘zbekiston hamda vatan tushunchalari bilan ma‘lum bir semantik maydonni hosil qiladi. Semantik maydon - bu ma‘noga bog‘liq so‘zlar (yoki leksemalar) to‘plamidir. Ushbu ibora so‘z sohasi, leksik maydon, ma‘no maydoni va semantik tizim sifatida ham tanilgan. Tilshunos Adrien Lehrer semantik sohani yanada aniqroq “ma‘lum bir kontseptual sohani qamrab oladigan va bir-birlari bilan o‘ziga xos aniq munosabatlarni o‘rnatadigan leksemalar to‘plami” deb ta‘riflagan.

Har bir tushuncha nomemadan tashqari bir vaqtning o‘zida bir qancha semema hamda semalardan tashkil topishi mumkin. Nomema so‘zning ifoda plani, shakli, semema esa leksik ma‘nosi hisoblanadi. Ayni shu leksik ma‘no (semema) bo‘linmas birlikdan iborat emas, balki tarkibiy uzvga egadir. Leksik ma‘noning mana shu elementi semadir. Nemis olimi M.Filipp, ayniqsa belgi tushunchasi bilan sema tushunchasini farqlash tarafdori ekanini aytgani holda, buni, sema ma‘no yani semema komponenti bo‘ib, belgi, referent komponentidir, deb izohlaydi. [Filipp, 1998: 221]

Aynan shunga ko‘ra yuqorida ajralib ko‘rsatilgan o‘rin-joy otlari o‘zining ma‘lum bir semalari orqali vatan konsepti bilan uzviy bog‘liqdir:

Bedapoya — ayn. Bedazor — beda ekilgan, beda o‘tib turadigan maydon. [8, 2020: 205]

Qir - geog. Atrofdagi yerlardan biroz ko‘tarilib turgan, yassi yoki salgina gumbazsimon balandlik, tepalik. [8, 2020: 297]

Tog‘ — 1. Yer yuzasining tevarak-atrofdagi tekislik, tepalik yoki boshqa balandlikka nisbatan yakka yoki qator holda baland ko‘tarilgan, odatda, turli tosh, qattiq jismlardan iborat qismi. 2. Aholi yashaydigan tog‘li joy, o‘lka; tog‘lik. [7, 2020: 164]

O‘lka — 1. Mamlakat; 2. Mamlakatning ma‘muriy-hududiy birlikka ega bo‘lgan biror qismi; 3. Biror narsa-hodisa ko‘p bo‘lgan, ishg‘ol etgan, qoplagan. [8, 2020: 150]

Makon — (a. joy, hudud, daraja, martaba) — 1. Vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettiruvchi, materiyaning masofa va hajm bilan belgilanadigan asosiy obyektiv yashash shakllaridan biri; 2. Turarjoy, yashash joyi; maskan, vatan. [7, 2020: 531]

Ko‘rinib turganidek, berilgan otlarning barchasi yo umumiy semaga ega, yoki bir-biriga yaqin ma‘nolardan tashkil topgan. Shu bilan birga barchasi vatan konsepti bilan bitta semantik maydon tashkil qiladi deyish mumkin. Bu va bu kabi birliklar badiiy adabiyotda, xususan, she‘riyatda vatan tushunchasi ifodalashda eng ko‘p qo‘llaniladigan birliklar hisoblanadi. Bunga sabab esa toponimlar hamda o‘rin-joy otlari semantik jihatdan vatan konseptiga juda yaqin bo‘lgan tushunchalardir.

Semalar o'z navbatida bir necha guruhlariga bo'linadi. Xususan, mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi:

- 1) Atash semasi (denotativ sema);
- 2) Ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) Vazifa semasi (funktional sema) [Sayfullayeva, 2009: 100].

Tepada keltirilgan joy nomlari va otlari semalarning qaysidir bir turi bilan vatan konseptiga bog'liqdir. Joy otlarining asosiy qismi atash semasi bilan, ba'zi o'rinlarda ifoda semasi bilan vatan tushunchasini anglatgansa, joy otlari vazifa semasi bilan ushbu vazifani bajara oladi. Qisqa qilib aytganda, berilgan parchalardagi barcha birliklar: Turkiston, Turon, O'zbekiston, Bog'ishamol, Asaka, Andijon, Farg'ona, makon, o'lka, bedapoya, tog', qir.... va shunga o'xshash barcha leksemalar o'zlarining atash semalari bilan vatan konseptini ifodalagan. Aytib o'tilganidek, o'zbek she'riyatida bu kabi misollar juda ham ko'p. O'rin-joy otlari ham, nomlari ham vatan konseptining atash semasiga yaqin bo'lganligi buning asosiy sababi. Ular to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lganligi bois, ayrim nazariy ma'lumotlarda aytib o'tilgan konseptning ko'chma ma'noli so'zlarga yaqin ekani va simvollar bilan ifodalanishi bu birliklarga xos emas;

Bulardan tashqari, oronimlar, horonimlar, urbanonimlar va yana ko'plab toponimik atamalar va ularga xos birliklar mavjud bo'lib, ular ham vatan konseptini to'g'ridan to'g'ri ifodalay oladi. Chunki ular vatan konsepti bilan bir xil atash semasiga ega yoki uning semantik maydoni tarkibiga kiradi;

Toponimlar hamda o'rin-joy otlari faqatgina ma'lum bir hudud yoki joy ma'nosini anglatgani uchungina emas, balki, hududi, milliy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va yana bir qancha jihatdan butun mamlakatning taribiy qismi, ma'lum bir bo'lagi bo'lishi bilan ham vatan konseptini ifodalovchi asosiy lingvokulturologik birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold. V.V. Raboti po istorii I filologii tyurskix I mongoliskix norordov. M.: Vost.lit., 2002
2. Filipp Marte. Semantik des Dcutschen. — Berlin: WBVB, 1998.
3. Karimov. U. Konsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati. // O'zMU xabarlari, 2017.
4. Muhammad Yusuf. Alyorim qolur. — T.: Ziyo, 2019.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. — T.: Sharq, 2007.
6. Mullaxo'jayeva R. XX asr o'zbek she'riyatida vatan konsepti. www.kh-davron.uz 2018
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
9. R. Sayfullayeva va boshqa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2009.
10. Sagdullayev. A.S., Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent, 1996.
11. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. — T.: Universitet, 2014.
12. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. — T.: "Fan", 2013.
13. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта "волшебство" в сказочном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. — Ростов-на-Дону, 2010.

FRAZEOLGIK MINIMUMDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING JOYLASHTIRISH TAMOIYILLARI XUSUSIDA

Xojiakbar Abdumannonov,
Andijon davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqola filologiya fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan frazeologik minimumda fraznik tarkibiga kirgan birliklarning joylashtirish tamoyillarini o‘rganib chiqib eng maqbul variantni tanlash masalasiga qaratilgan. Ushbu maqola muallifning avvalgi nashrlarining davomi bo‘lib, filologiya fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan frazeologik minimumni tuzishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, frazeologik minimum, lug‘at, tamoyil, joylashtirish uslubi, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, antroposentrizm.

Ma‘lumki, filologiya sohasida tahsil oluvchi talabalar, bo‘lajak til o‘qituvchi hamda tadqiqotchi sifatida, tilning “nodir javohirlari” deya ataluvchi til birliklari (frazeologik birliklar)dan ma‘lum darajada xabardor bo‘lmog‘i va kelgusi faoliyatida bunday birliklardan foydalanmog‘i kerak. Bu yo‘lda talabalarga, albatta, frazeologik lug‘atlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi kunimizda tilshunoslikning antroposentrik yondashuvi til birliklarini har tomonlama tadqiq etish, o‘rganish talabini qo‘ymoqda. Bilamizki, o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida frazeologik lug‘atlar tuzish masalasi o‘tgan XX asrda keng ommalashgan. O‘tkan davr mobaynida ko‘plab bir, ikki va ko‘p tilli lug‘atlar yaratildi va nashr etildi. Ushbu lug‘atlar asosan keng omma o‘qib o‘rganishi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, ular orasida maxsus maqsad uchun tuzilgan o‘quv frazeologik lug‘atlari ham mavjud. Bunday lug‘atlar, annotatsiyada keltirilganidek, “lug‘at til o‘rganuvchi maktab, AL, kollej o‘quvchilari, OTM talabalari va barcha til bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan” [Abduganiyeva, 2014; Yusupov, 2014; Умархўжаев, Аъзамов, 2016].

Ushbu lug‘atlar o‘quv frazeologik lug‘at bo‘lsa-da, biz frazeologik minimumni amaliyotda uchratmadik. Bu esa, o‘z navbatida, bunday lug‘atga ehtiyoj mavjudligini va uni tuzishni taqozo etadi. Ushbu maqolada muallif tomonidan maxsus uch tilli frazeologik minimum tuzish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishi hamda mazkur o‘quv frazeologik minimum tuzish jarayonida lug‘at birliklarini berilishiga oid natijalar keltiriladi.

Ma‘lumki, lug‘atda uning tarkibiga kiruvchi birliklarning joylashuvi leksikografik jarayonning asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Frazeologik lug‘atda birliklarning berilishi xususida prof. M.E. Umarxo‘jayev quyidagi fikrni bildiradi: “Frazeologik birliklarning lug‘atda ko‘rsatilishi va joylashishi katta qiyinchiliklar bilan bog‘liqdir. Buning uchun, birinchidan, frazeologik birliklarning leksik tarkibini aniq belgilash; ikkinchidan, ularning bevosita muhitini aniqlash; uchinchidan, uzual variativligini o‘rnatish kerak. Bu masalalarni hal etmasdan turib, frazeologik birliklarning kerakli kontekstini aniqlash qiyin. Frazeologik birliklarning joylashuvi uchun asosiy so‘zni aniqlash, shuningdek, ularning variativligini aniqlash va lug‘atda ularning joylashishini belgilaydigan variantlar va o‘xshash strukturali sinonimlar o‘rtasidagi farqni aniqlash ham muhimdir” [Умарходжаев, 1977: 43].

Fikrimizcha, yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal qilishga A.I. Molotkov, A.M. Babkin, A.V. Kunin, A.M. Melerovich, V.M. Mokienko, L.K. Bayromova, E.I. Rogaleva, Sh.U. Rahmatullayev, M.E. Umarxo‘jayev, Z.I. Rajabovalar tadqiqot ishlarining tahlili natijalari asosidagi quyidagi frazeologik va frazeografik usullar yordam beradi:

- Qiyosiy tahlil. Frazeologik birliklarning uzual yoki okkasionalligini, ko‘p yoki kam qo‘llanilishini, bir ma‘noli yoki ko‘p ma‘noliligini, shuningdek, frazeologik variativligini aniqlashga yordam beradigan tahlil usuli.
- Statistik tahlil. Lug‘atlarni taqqoslash asosida frazeologik birliklarning chastotasini aniqlashda qo‘llaniladigan usul [Умарходжаев, 1977: 43-75].

Tanlangan frazeologik birliklarning lug'atda berilishi va joylashishi ham har qanday turdagi lug'atni loyihalashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan zaruriy masala hisoblanadi. Frazeologik lug'atlarda frazeologik birliklarning joylashishi kerakli ma'lumotlardan foydalanish va izlashni osonlashtiradigan ma'lum tamoyillarga bo'ysunadi. Bu kabi lug'atlarda, ayniqsa o'quv lug'atlarida lug'at materiallarini taqdim etish, ma'lumotni samarali o'rganish va o'zlashtirish uchun bir qator tamoyillarga rioya qilishni talab qiladi. Mavjud leksikografik nashrlarda lug'atlarda frazeologik birliklarni joylashtirishning bir nechta asosiy usullari mavjud: alifbo tartibida, mustaqil ma'noga ega so'zlarga ko'ra, grammatik usul va mavzuli (tematik) usul. Quyida ushbu usullarni birma-bir muxtasar ko'rib chiqamiz.

- Alifbo tamoyili. Lug'at maqolasini alifbo tartibida joylashtirish (frazeologik birlikning birinchi so'ziga ko'ra) leksikografiyaning an'anaviy tamoyilidir. Frazeologik lug'atlar ko'pincha frazeologik birliklarning bosh harflari asosida alifbo tartibida tuziladi. Bu foydalanuvchilarga kerakli iboralarni tezda topishga imkon beradi. Lug'atlarning aksar qismi ana shu tamoyilga muvofiq tuzilgan. Eng yangi nashri hisoblangan "O'zbek tili frazeologik lug'ati" (2022) ham shu tamoyil asosida tuzilgan.

- O'zak so'z tamoyili. Frazeologik birliklarning o'zak so'zga (mustaqil ma'noga ega so'z) ko'ra joylashish tamoyili frazeologik birlikning so'z-komponentiga ko'ra joylashishni nazarda tutadi, frazeologik birlikning ma'nosi ko'p jihatdan shunga bog'liq. Bu tamoyil asosida tuzilgan lug'atlar nashrlar orasida kam uchraydi.

- Doimiy element tamoyili. Frazeologik birliklarni doimiy elementlariga (frazeologik birlikni tashkil etuvchi yetakchi so'zlarni ajratib ko'rsatish) ko'ra joylashtirish tamoyili, ya'ni frazemalarni asosiy tarkibiy qismiga (vokabulaga) ko'ra hadlash. Misol uchun, frazeologizmlar iborada ma'lum so'zlarning mavjudligiga qarab, tuzilish tarkibi bo'yicha tartiblanishi mumkin. Bu o'xshash tuzilishga ega frazeologik birliklarni topish va tushunishni osonlashtirishi mumkin. Professor A.V. Kunin o'zining lug'atlarini tuzishda ana shu tamoyildan foydalangan [Кунин, 1984; Кунин, 1999].

- Grammatik tamoyil. Frazeologik birliklarni joylashtirishning grammatik usuli frazeologik birliklarni semantik, morfologik (struktur-grammatik) komponentiga ko'ra joylashtirishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilning muallifi D.G. Maltseva hisoblanadi [Мальцева, 1970: 356].

- Tematik tamoyil. Frazeologik birliklarning tematik joylashuvi tamoyili boshqalarga qaraganda yangiroq usuldir. Bu tamoyil frazeologik birliklarni tematik uyaga kiritishni nazarda tutadi. Ma'lumki, nominativ til birligi sifatida frazemalarni mavzu yoki foydalanish sohasiga qarab ajratish mumkin. Tematik tamoyilning o'ziga xos xususiyati - umumiy mavzuga, faoliyat sohasiga yoki tilning o'ziga xos tomoniga taalluqli frazeologik birliklar o'rtasidagi semantik aloqaga e'tibordir. Tematik joylashtirish muayyan sohadagi iboralarni topishni osonlashtiradi. Masalan, "inson xarakteri", "kuch", "baxt", "boylik" va boshqa ma'nolarni anglatadigan frazemalar bir mavzu ostida beriladi. Lug'atda tematik joylashuv, ayniqsa, foydalanuvchi ma'lum bir faoliyat sohasi uchun frazeologik birliklarni qidirganda foydali bo'lishi mumkin, masalan, ilmiy, adabiy yoki kundalik suhbat jarayonida. Bugungi kunda bu tamoyil alifbo bilan bir qatorda qo'llanilmoqda.

Frazeologik birliklarni lug'atlarda berilishi bo'yicha asosli yondashuv "O'zbek tili frazeologik lug'ati"da quyidagicha berilgan: "Frazeologik lug'atda lug'at maqolasini so'z-komponentdan kelib chiqib emas, balki bevosita iboraning o'zi bilan boshlash ma'qul. Chunki bunda ibora lug'atga yaxlitligicha kiritiladi. Lug'atga kiritish asosi qilib so'z-komponent olinsa, ibora lug'atga uning tarkibida necha so'z-komponent bo'lsa, shuncha marta kiritiladi, bu bilan lug'atning hajmi asossiz ravishda kengayib ketadi. Eng muhimi shuki, lug'atdan foydalanuvchi o'zi uchun kerakli iboraga to'g'ridan to'g'ri emas, balki bir necha bosqichdan o'tibgina yetib boradi, shunda ham ko'pincha izoh maqolachasiga emas, balki havola maqolachasiga duch keladi va kerakli iborani lug'atning boshqa bir o'rnidan qidirishga majbur bo'ladi" [Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O'razova, K. Rixsiyeva, 2022:24]

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, lug'at ichida frazeologik birliklarni berish va joylashtirish tamoyillariga asoslanib, lingvistik usullardan foydalangan holda, frazeologik minimumda iboralarni foydalanuvchilar, ya'ni filologiya fakulteti talabalari uchun alifbo tartibi qulayroq, deb hisoblaymiz.

Talabalarga ma’lum iboralarni izlash va topishni osonlashtirish uchun FM alifbo tartibida joylashtirilishi o‘rinlidir. Shuningdek, biz ilova sifatida o‘quv lug‘atiga kiritilgan frazeologik birliklar indeksini taqdim etishni mulohazali taklif deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Abduganiyeva N. Eng ko‘p qo‘llaniladigan inglizcha idiomalar (The most used English idioms) / N. Abduganiyeva. — T.: Davr Press NMU, 2014. — 256 b.
- Yusupov A.L. Inglizcha-o‘zbekcha idiomalar lug‘ati. — T.: Yangi asr avlodi, 2014 — 206 b.
- O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn]: lug‘at / Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. — 636 bet.
- Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь/лит.ред. М.Д. Литвинова. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: Рус.яз, 1984. — 944 с.
- Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь / А.В. Кунин. — М.: Рус. яз., 1999. — 512 с.
- Мальцева Д.Г. К вопросу о принципах составления толкового словаря современного немецкого языка. Учёные записки МГПИИЯ им. М. Тореца. — М., 1970, т.54. — С. 356.
- Умархўжаев М.Э., Аъзамов О.Б. Немисча-ўзбекча зооним компонентли фразеологизмлар ўқув луғати. — Андижон, 2016.— 146 б.
- Умарходжаев, М.И. Очерки по современной фразеологии. / М.И. Умарходжаев. — Ташкент: Фан, 1977. — 102 с.

YANGI O‘ZBEK YOZUVIDA UNLI HARFLARINING BELGILANISH JARAYONIDA TATAR TILSHUNOSLARINING HISSASI

Ho Lim Song,
SamDU filologiya fakulteti tayanch doktorati

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1920-1930 yillarda qo‘llanilgan o‘zbek-arab yozuvining ilk rivojlanishiga tatar yozuvi islohotining ta’siri muhokama qilinadi. Xususan, tatarcha unli harflar qanday qilib fors-arab imlosini o‘zgartirish orqali turkiy talaffuzga mos transkripsiyaning o‘zbek unli harflarini ifodalash tizimi shakllanganligi ta’lil qilinadi; Olimjon Ibrohimov kabi tatar ziyolilarining darsliklari allaqachon Turkiston jadidlari orasida mashhur bo‘lib, islohot namunasi uchun foydalanilgani haqida ham fikrlar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek imlosi, o‘zbek adabiy tili, tatar tili, Olimjon Ibrahimov, arab alifbosi, hamza.

O‘zbek milliy yozuvi ilk bor 1919-yilda nashr etilgan “Bitim yo‘llari”dan keyin 1921-yilda o‘tkazilgan til va imlo qurultoyida rasman ommaga taqdim etilgan bo‘lsa-da, oradan uch-to‘rt yil o‘tib, taxminan, 1925-yilda nashrlarda tartib bilan qo‘llanila boshlangan. Masalan, 1925-yilda zamonaviy o‘zbek adabiyotining mashhur asari A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani ana shu yozuv asosida chop etilgan (1925-yildan keyin 1926-yilda ham qayta chop qilingan.) Xususan, 1925-yilda nashr qilingan S.Zunnunining “O‘zbekcha til qarorlari” imlo kitobida o‘zbek milliy yozuvi o‘tmishdagiga qaraganda ancha mukammal va donador tizimga ega. Masalan, o‘zbek-arab yozuvi jami 32 ta harfdan iborat bo‘lib, (arabiy so‘zga xos harf 2 ta va o‘zbekcha harfdan 30 ta) 6 ta unli harfi rasman qabul qilingan: 2 ta old qator unli harfi — ئې [e], ئى [i] va 4 ta til orqa unli harfi — ئە [a], ئا [o], ئو [o‘], ئۇ [u]. [Zunnun, 1925:7]. Bu olti unlili yozuv chig‘atoy turkiy tili uchun qo‘llanilgan fors-arab yozuvining unli tizimidan ancha rivojlangan, turkiy talaffuzni ifodalashga moslangan. Biroq 1919-yildan boshlab, besh-olti yil degan qisqa muddatda, o‘zbek ziyolilari bu keskin islohotni mustaqil o‘zlari amalga oshira olishlariga ishonish qiyin, chunki tatar, ozariy, uyg‘ur kabi boshqa turkiy millatlar ham xuddi shu davrda shunday unli

belgilarni qabul qilib yozuviga kiritgan. Ushbu maqolada tatar ziyolilarining o'zbek tili unlilar tizimi rivojiga qo'shgan hissasini qayta baholab, o'sha jarayon maxsus tahlil qilindi.

Fors-arab yozuvida unlilarni yozish va o'qishda cheklangan murakkab orfografik usuldan foydalanilgan, ya'ni, cho'zg'ilar (unli tovushlar) diakritik belgilar — “harakat” bilan tartibsiz yoziladi. Buning sababi shundaki, X asrdan keyin ishlatila boshlangan yangi-forsiy til o'rta-forsiy tilga qaraganda ko'proq arabcha o'zlashma so'zlarni qabul qilgan. Shuningdek, nafaqat arabcha so'zlarni, balki asl forsiy so'zlarni o'zlaricha imloda yozishga to'g'ri keldi. Shu tarzda, chig'atoy turkiy manbalari hudud, davr, muallifning tug'ilgan joyi va etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar, asosan, arabiy, forsiy va turkiy aralashgan qoidasiz imlo bilan bitilgan. Shuning uchun ilk navbatda, unli harflar yozishiga oid ba'zi muammolar hal qilinishi kerak edi. Birinchidan, qadimgi turkiy tilidagi (eski o'zbek tili) 8-9 unli yoki yangi o'zbek tilining 6-7 unli tizimi hozirgacha faqat uch-to'rtta — ¹ [alif], و [vov], ی [ya] yoki ه [ha] harflari bilan yozilganligi.

Yozuv(nomi) ¹ [alif] ه [ha] ی [ya] و [vov]

Turkiy(XFA) /ɑ-v/ /æ/ /e/ /i/ /u/ /o/ /ø/ /u/ /y/

1-jadval. Xalqaro fonetik alifbo asosida turkiy unli tovushlarining ifodalanishi ya'ni, yagona bir harf orqali necha unli va undosh tovushlarning ifodalanishi. Masalan, vov harfi nafaqat /v/ yarim unlisini, balki orqa qator /o/ va /u/ lablangan unlilarini, bularga bog'liq old qator lablangan unlilari /ø/ va /y/ talaffuzini ham belgilaydi. Shuningdek, ya harfi tor unli /i/, o'rta keng unli /e/ va yarim unli /j/ gacha jami uchta fonemani bildiradi [Jamolxonov H., Sapayev Q., 2007: 7].

Yozuv ی [ya] و [vov]

Tovush /j/ /u/ /e/ /i/ /v/ /o/ /ø/ /u/ /y/

Misol يول قيلماق مين بيز سو اورته اوزبيك اوروش بوگون

XFA /jol/ /qulmoq/ /men/ /biz/ /suv/ /ʔorta/ /ʔøzbek/ /ʔuruʃ/ /bygyn/

2-jadval. Bir belgi bilan turli talaffuzni ifodalovchi arabcha unli harflar

Dastlabki jadid ziyolilar yuqoridagi muammolarga qarab, “imlochilar aytalarkim, imlomizdagi buzuqlikning ruhi (ichki) nuqtalari shunlardir: harakatning yetishmasligi, rohatsizligi, harakat bilan ba'zi bir harflarning bir shaklda bo'lishlari, shuning uchun yetarli harakatlar topmoq, ularni rohatlamok, harf bilan harakatning shakllarini ayirmoq kerak” [TShJ, 1922:14], deb fors-arab yozuvdagi barcha unli tovushlar uchun foydalanilgan diakritik belgilarni bekor qilib, alohida unli harflar bilan almashtirishni talab qildi. Natijada, yangi o'zbek-arab yozuvida bu harakat belgisi yo'q qilingan yoki butunlay alohida yangi harflar yaratilgan. Masalan, 1926-yilda joriy etilgan tojik-arab yozuv qoidalarida 6 xil harakat belgilari (zabar, zer, pesh, hamza, sukun, tashdid) rasmiy ishlatilganligini ko'rish mumkin [Alizoda S., 1926:12]. Aksincha, o'zbek ziyolilari faqat zabar, zer, pesh belgilarini tanlab unlilarni beshga bo'lib tasniflaganlar:

1) orqa qator, lablangan unli /b/ni ifodalovchi “fathayi mamdud (saqila)”, ya'ni to'la ust;

2) quyi-keng old qator, lablanmagan /æ/ “fathayi xafifa” ya'ni qisqa ust;

3) o'rta keng, old qator, lablanmagan unli /e/ “kasrayi saqila” ya'ni to'la ost;

4) tor, orqa qator, lablanmagan unli /u/ (yoki old qator /i/) “kasrayi xafifa” ya'ni qisqa ost;

5) o'rta keng, orqa qator, lablangan unli /o/ “zammayi saqila” ya'ni to'liq o'tru kabi. Bundan tashqari, aniq unlini ifodalashi uchun hamza belgisidan foydalanish taklif qilindi [TShJ, 1922:14].

Harakat belgilar Forsiy nom Arabiy nom Chig'atoy gurungicha XFA

⸁ zabar fatha fathayi mamdud /b/

⸂ fathayi xafifa /æ/

⸃ zer kasra kasrayi saqila /e/

⸄ kasrayi xafifa /i-u/

⸅ pesh zamma zammayi saqila/o/

⸆ sukun

ﺀ tashdidshadda

ء Hamza

3-jadval. Fors-arab yozuvidagi har xil diakritik belgilar

1921-yilgi til va imlo masalasiga oid qurultoydan boshlab 1925-yilga qadar unli tovushlar bir necha marta takomillashtirish orqali olti mustaqil harf bilan ifodalanadi.

Yug‘an ust Ingichka ust To‘la o‘tru Qisqa o‘tru To‘la ost Qisqa ost

نا	ئو	ئو	ئي	ئي	
بازار	كوز كەپەلەك	قۇش	كېل	قەش	
/boʻʒɑr/	/kʰæpælæk/	/kʰøʒ/	/qʰuʃ/	/kel/	/qʰuʃ/

4-jadval. 1925-yil rasmiy qabul qilingan o‘zbek-arab yozuvidagi unli harflar

Ammo o‘zbek-arab yozuvining yangi konsepsiyasi o‘sha davrda tatar ziyolilarining ijodiy ishlaridan ilhomlanganini unutmasligi kerak. Bugungi kunga qadar Ismoil Gaspirali (h. 1851-1914) kabi tatar-jadid mutafakkirlarining adiblari yuksak baholangan bo‘lsa, yangi o‘zbek tilining shakllanishida tatarlarining salmoqli hissasi va xizmati deyarli e‘tibordan chetda qolmoqda. Biroq, turkiy jadidchilik g‘oyalarini yoyish jarayonida normaga tushirilgan tatar tilida chop etilayotgan “Tarjimon” kabi jurnallar turli til va madaniyatga mansub turkiy xalqlar o‘rtasida millatchilikning shakllanishiga zamin yaratdi. Tatar tilida nashr etilgan gazeta va jurnallar Markaziy Osiyo turkiy xalqlariga Qora dengiz atrofiga minglab kilometr uzoqlikda tarix, madaniyat va tilga o‘xshash bir guruh qarindoshlari borligini chuqur eslatdi. Darhaqiqat, o‘zbeklardan ancha avval Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilgan tatarlar G‘arbiy yevropa millatchiligiga erta ta‘sir qilishlari tufayli adabiy til va ommaviy ta‘lim zarurligini tezda anglab yetganlar. Masalan, Abdula‘lom Fayzxon o‘g‘lining 1887-yilda chop etilgan “Tatar tiliga qisqacha ilm-sarf” imlo kitobining so‘zboshida quyidagi parcha bor;

“Bu zamondagi ilm-rivoj topgan xalqlarning har qaysida o‘z tillariga sarf va nahv tasnif qilinib, o‘zlarining maktab-madrasalarida boshqa kerakli ilmlar kabi o‘qutalardir. Bizning Qozon tatarlarimizning tilida bu vaqtgacha sarf-nahv bo‘lmaganligidan hurmatli barodarlarmizdan ulug‘-kichik foyda olsinlar uchun, ushbu tilda qisqacha ilm-sarf va nahv to‘liffa sa‘y etadi” [A.Fayzxon, 1887:3].

Ya‘ni, tatarlar o‘z xalqini rivojlantirish yo‘lidagi birinchi qadam ularning til me‘yorlarini takomillashtirish va rasmiylashtirish ekanligini erta anglab yetgan. Bunday fikrlash tarzi Turkiston o‘lkasidan anchagina oldin bo‘lgan va yangi o‘zbek tilini loyihalashda tatar tilining imlo loyihalaridan namuna sifatida foydalanilgani 1921-yilda bo‘lib o‘tgan til va imlo qurultoyidagi A.Zohriyning so‘zlarida ham aniq: “Ularning mashhur imlochilaridan “Olimjon Ibrahimov”ni olsak, ul ham arab harflarini turk tiliga qatnashdirmoqda, ko‘p batirchilik ko‘rsatgandir. Olimjon efendi so‘ng zamonda yozgan romani “Bizning Kunlar” da ham o‘z ismini ayn harfi bilan yozgan, hamza bilan yozmagan [...] Lekin biz imlo masalasini tatarlardan keyin boshlagan bo‘lsak ham, qaysi bir moddalarda ulardan ham o‘zib ketmoqchi bo‘lamiz” [TShJ, 1922:20]

Shu o‘rinda tatar tilshunoslari o‘z tillarini standartlashtirish uchun qanday yozma islohot ishlarini olib borganliklarini ko‘rib chiqishimiz lozim. Chunonchi, 1910-1918-yillargacha tatar olimlari tomonidan nashr etilgan turli darsliklarda “Chig‘atoy gurungi” tomonidan qabul qilingan imlo qoidalarining aksariyati allaqachon mavjud bo‘lgan. 1913-yilda Abdurahmon Sa‘diy tomonidan “Tilibizning sarfi” kitobi [Sa‘di A., 1913], 1914-yilda Olimjon Ibrahimov yozgan “Tatar imlosi” va 1918-yilgi “Til saboqlari” qo‘llanmalari [Ibrahimov, 1914. 1918], 1916-yilda Fotih Sayfining “Tatar tili darslari” [Alizoda S., 1916] va Zafar bin Mullo Ahmad Shokir Qosimiyning “Alifbo” [Qosimiy, 1916] darsliklari kabi tatar tili grammatikasiga oid kitoblarda faqat so‘zning oxirgi bo‘g‘inida yozilgan [ه] “hayi rasmiya” harfi alif harfi bilan teng darajaga ko‘tarildi. Bu islohot o‘sha paytda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan fors-arab yozuviga nisbatan jiddiy yangilanish bo‘lib, turkiy unli tovushlarini aniqroq ifodalash imkonini berdi.

1) [ه] harfidan foydalanilishi

Chig‘atoy turkiy lug‘atiga qo‘shimcha ravishda, ko‘pgina arab-fors tillaridan o‘zlashtirilgan holda o‘rta bo‘g‘inlardagi lablanmagan quyi-o‘rta keng unli /æ/ ko‘pincha qoldiriladi yoki alif harfi bilan al-

mashtiriladi. Chunki fors-arab yozuvining “arabiy” sifatidagi abjad qoidasiga bo'ysunib, barcha unli-lar alif, ha yoki vov harfi bilan yozilishidan boshqa iloj mavjud emas edi. Faqatgina G'arbiy Yevropa madaniyatiga ertaroq duchor bo'lgan tatar ziyolari arab yozuvidagi cheklovlarini yengib, o'z turkiy tiliga xos arab yozuvini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Natijada, tatarlar alif o'rniga “hayi rasmiya”, ya'ni [ه] harfidan faolroq foydalanib, ko'proq turkiy talaffuzga mos arab yozuvini o'ylab topdilar. 1920-yillardan 1929-yilgacha qo'llanilgan o'zbek va uyg'ur-arab yozuvida ham xuddi shunday yondashuv qo'llanilgan.

Fors-arab	بیرم	کاغذ	توبن	چای	زاره	زنگار
Tatar	بهیرم	کهغیز	توبن	چهی	بهره	زنگر
XFA	/bæjræm/	/kæx'hæz/	/jæsil/	/təbæn/	/tʃæj/	/zængær/ /bæræ/

5-jadval. Tatar-arab yozuvida [ه] harfining qo'llanilishiga misollar [Ibrahimov O., 1918:8]

2) to'liq ust /o/ bilan qisqa ust /u/ ning farqlanishi

E'tibor qilish kerak bo'lgan ikkinchi narsa, tatar ziyolilari orqa qator /o/ va /u/ unlini mos ravishda “to'lu vov” va “qisqa vov” deb yozuvda ajratadilar. Fors-arab yozuvida /o/ va /u/ farqlanmaydi, lekin turkiylar o'sha tovushlarni alohida-alohida talaffuz qilgani uchun yangi tatar yozuvida aks etirish til islohotida zarur bir rol o'ynadi. 1914-yilda nashr qilingan O.Ibrahimovning “Tatar imlosi” kitobida bu qoida turkiy dunyosida birinchi amalga oshirilgan [Ibrahimov O., 1914:7].

	طولی و او	قسقا و او					
Tatar	او	و	ئو	و	اؤ	ؤ	ئو
Fors-arab	یول اورمان	اولم	کوز	اوزون	طورما	اوچن	توش
Tatar	یول اورمان	ئولم	کوز	اوزون	طورما	ئوچون	توش
XFA	/ʔorman/	/jol/	/ʔølym/	/køz/	/ʔuzun/	/tʃurma/	/ʔytʃyn/

/tyj/

6-jadval. To'liq vov va qisqa vov harfining imlosi

3) hamza belgisini unlini ifodalash uchun foydalanilishi

Shu bilan birga, hamza diakritik belgisini ilk bor turkiy tilga moslashgan. XX asr boshida Qozon yoki Orenburgda nashr etilgan turkiy alifbo darsliklari Sharqiy va G'arbiy Turkistonga keng miqyosda kiritilganligi bois O'zbekistondagi jadid ziyolilari orasida hamzadan foydalanish masalasi tabiiy ravishda muhokama qilina boshlangan. Masalan, turkiy tillarga xos fonologik o'zgarishlarni hisobga olish uchun, old qator unli-lar /æ/, /ø/ va /y/ talaffuzlari ifodalangan harfning ustiga hamza belgisi qo'ygan, orqa qator unli-larga esa /o/ va /u/ mavjud alif harfi bilan yozishni saqlab qoldi; “so'z boshida kelgan hamza ustli bo'lsa, qolin so'zlarda alif ravishida, ingichka so'zlarda “hay” ravishida yoziladi. Ammo so'zning boshida hamza ostli bo'lsa, har vaqt “alif” ravishida yoziladi” [Alizoda S., 1916: 11].

Avvalroq aytib o'tilganidek, o'zbek-arab yozuvining rivojlanish jarayoni nafaqat Turkiston hudu-dida, balki Volga daryosi atrofidagi Tataristonda boshlangan turkiy xalqlarning organik tarmog'ida ham amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Ushbu yutuqning pastki qismida rus inqilobidan oldin turkiy savodxonlik harakatiga tatarlar rahbarlik qilgan va o'sha paytda Turkiston o'lkasiga jo'natilgan tatar o'qituvchilari Istanbul, Qozon va Orenburgda nashr etilgan yangi turkiy darsliklardan foydalanib, ma-halliy turkiy musulmon talabalariga saboq berganlar. Biroq 1920-yillardan boshlab o'zbek ziyolilari o'zlarining yangi tilini loyihalashda tatar, usmonli namunalarini olish o'rniga, o'zlarining bilim va tajri-balaridan foydalanishga kirishdilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdula'lom Fayzxon o'g'li. Tatar tiliga qisqacha ilm-sarf. — Qozon, Qozon universiteti bosmax-onasi, 1887.
2. Alizoda S. Sarfu nahvi zaboni tojik: baroi maktabhoi ibtidoiy va miyonayi tojikon. — Samar-qand, Davlati jumhuriyati ijtimoiy shuroyi Tojikiston, 1926.
3. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. — Toshkent, Nizomiddin nomidagi toshkent

pedagogika universiteti, 2007.

4. Ibrahimov O. Tatar imlosi: maktablar uchun darslik. — Qozon, Lito-tipografiya I.N.Xaritonova, 1914.

5. Ibrahimov O. Til saboqlari: Tatar tili sarfi. — Qozon, Sabah sirketi, 1918.

6. Sa’di A. Tilbizning sarfi: ibtidoiy maktablarining so‘ng’i; rushdiy maktablarining birinchi sinf shogirdlari uchun dars kitobi. — Qozon, Elektro-tipografiya, 1913.

7. Sayfi F. Tatar tili darslari: (imlo qoidalari va terminlari insho uchun savol va pilonlar). — Qozon-Upa: Sabah shirketi, 1916.

8. Turkiston sho‘rolar jumhuriyati. Til va imlo. Toshkent, Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti.

9. Zafar bin Mullo Ahmad Shokir Qosimiy. Alifbo: tashil al-ta’lim. — Qozon, Barodaron karimovlar, 1916.

10. Zunnun S. O‘zbekcha til qoidalari (Qurslar uchun imlo, qisqacha sarf-nahv). — Toshkent, O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1925.

ЎЗБЕК ЖӘНЕ ҚАЗАҚ ТІЛДЕРІ КОНТАКТЫНЫҢ КӨРКЕМ ШЫҒАРМАДАҒЫ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ

Бауыржан Сайфуллаев
Алишер Навоий номидаги
ТошДЎАТУ мустақил тадқиқотчиси

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikdagi kontakt va kontaktologiya masalasiga ma’lumot berilib, o‘zbek va qozoq tillari kontaktlari masalasiga oid ba’zi muammolarni yoritishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: kontakt, dialekt, dialektizm, bilingvizm, bilingv, interferentsiya, adstrat, substrat, sheva.

Аннотация

Қазіргі тіл білімінде ауқымды кеңістікте таралған түркі тілдерін салыстырмалы түрде зерттеу, олардың тілдік байланыстарын анықтау лингвистикалық контактология үшін және осы бағыттың қажеттілігі мен даму болашағын зерттеу бүгінгі күннің өзекті мәселесі болып табылады.

Түркі тілдес халықтар, этникалық топтар — түркі халықтары деген ортақ атаумен аталады. Түркі тілдерінің бір негізден тараған өзара туыстас тілдер екендігі олардың морфологиялық формалары мен синтаксистік тәсілдеріндегі ортақтықтан, жақындықтан да, дыбыстық жүйелері мен негізгі сөздік қорындағы ұқсастықтан байқалады.

Көп жылдық тарихы бар қазақ және өзбек тілдері қарым-қатынастарының осы тілдердің сөздік қорына із қалдырғаны сөзсіз және бұл процес әлі күнге дейін өз жалғасын табуда.

Тілдік өзгерістердің нақты себептері зерттеушілердің қызығушылығын тудырып отырғандықтан қазіргі кезеңге дейін тіл теориясында контактология саласы ең күрделі, қарама-қайшылығы мол мәселелердің қатарына жатады. Бұл мәселені шешуде тілдік өзгерістердің ішкі және сыртқы себептерін бөліп қарастыру маңызды қадам болып табылады. Тілдік жүйе элементтерінің өзара әсерінен немесе сөйлеушінің санасы мен еркінен тыс тілдің ішкі үдерістер нәтижесінде алуан түрлі өзгерістер болып жатады. Мұндайда тіл дамуының ішкі факторларына назар аудару қажет. Кейде тілдік өзгерістерге халықтың тілінен тыс себептер де, яғни әлеуметтік қарым-қатынастар, экономикасы мен мәдениетінің дамуы тағы басқа факторлардың да әсері болады. Тілдік өзгерістерге себеп болатын осындай факторлардың бірі — қандай да бір тілдің өзге тілмен қарым-қатынасқа түсуі. Тілдердің өзара қарым-қатынасы лингвистикалық, психологиялық, әлеуметтік, этнотарихы тағы басқа себептермен тығыз байланысты. Бұл күрделі, әрі көп салалы құбылыс. Халықтың белгілі

бір дәуіріндегі экономикалық, әлеуметтік, саяси, мәдени өмір тіршілігі, өзге елдермен қарым-қатынасы, әдет-ғұрпы ең алдымен оның тілінен, сөз мағынасынан айқынырақ сезіліп тұрады.

Тілдің ерекшелігі екі факторға, яғни тілдің пайда болуы мен оның басқа тілдермен қарым-қатынасқа түсуіне байланысты болады, сол арқылы тілдік қатынастар жүзеге асырылады.

Халықтардың бір-бірімен көрші тұруы, бір мемлекетте көп ұлтты халықтардың өмір сүруі және олар бір-біріне жақын көзқараста болса да, мұндай факторлар адамның сыртқы бейнесіне ғана емес, тілі мен мәдениетіне де әсер етпей қоймайды. Екі немесе одан да көп тілдер, бір-біріне туыс немесе туыс емес тілдер болсын, өзара ұқсас болады, өйткені, олар өздерінің географиялық және қоғамдық-әлеуметтік араласуы жағынан бір-бірімен қарым-қатынасқа түседі.

Адамзат тілдері өзінің даму тарихы үдерісінде басқа тілдермен үнемі белгілі-бір деңгейде контактіге түсіп отырады. Тілдік қарым-қатынас екі немесе одан да көп тілдердің өзара байланысқа түсіп, бір-бірінің құрылымы мен сөздік қорына әсер етуі болып табылады.

Бүгінгі таңда лингвистикалық контактология, лингвистика ғылымының тілдік қарым-қатынастар теориясына және контактология ғылымына ерекше назар аударып отыр. Контактология — тілдік қарым-қатынастың түрлерін, пайда болуы және дамуын зерттейтін тіл білімінің саласы. Контактология ғылымы ХІХ ғасырдың 50 жылдарында пайда болып, лингвистикада жеке бағыт ретінде қалыптасты, қазіргі кезде әлеуметтік лингвистиканың құрамдас бөлігі [Айдаров Т., 1991: 280].

Н.Б.Мечковскаяның пікірінше, лингвистикалық контактология — белгілі-бір геосаяси кеңістікте тарихи және әлеуметтік жағдайдағы қарым-қатынасқа негізделген әр түрлі тілдерде сөйлейтін халықтардың, этностардың және жеке адамдардың тілдерінің араласу үдерісін зерттейді [Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш., 1967: 456].

Лингвистикалық контактология дегеніміз — белгілі бір әлеуметтік-тарихи жағдайда екі немесе бірнеше тілдердің қарым-қатынас механизмін зерттейтін жеке лингвистикалық пән болып табылады және тіларалық ықпалдастықтың экстроллингвистика (әлеуметтік, психологиялық, этнологиялық және т.б.) факторларын, тілдік қарым-қатынастардың лингвистикалық үдерістерді байланыстыратын құбылыстарды қарастырады. Ал лексикалық контактология — қарым-қатынасқа түскен екі немесе бірнеше тілдерді барлық тілдік деңгейлеріндегі лексикалық бірліктерінің бейімделуін зерттейді [Рахмонбердиев К., 1989: 445].

Тілдердің қарым-қатынасы туралы тіл теориясының маманы Ю.Д.Дешериев “тілдік қарым-қатынас” дегенде екі немесе одан да көп тілдердің немесе диалектілердің бір-біріне ықпалы, бір-біріне енуі, бір тілдің өзге тілдерден түрлі тілдік фактілерді қабылдауы, сондай-ақ түрлі кезеңдерде болған тілдік қарым-қатынастар нәтижесі деп тұжырымдайды [Айдаров Т., 1975: 68].

Контактология теориясы субстрат, суперстрат, адстрат, билингвизм, интерференция, конвергенция, дивергенция, тілдер араласуы тағы басқа маңызды феномендермен тығыз байланысты.

Жалпы тілдік байланыс екі түрлі тілдің немесе диалектінің өкілдері бір-бірімен сөйлескенде немесе жазған кезде пайда болады. Басқаша айтқанда, екі немесе одан да көп тілдік топтардың сөйлеу қатынасы — тіл контакты болып табылады. Мысалы, қазақ пен өзбек бір-бірімен байланыс жасағанда, яғни қарым-қатынасқа түскендегі қолданылатын тіл “контакт тілі” деп аталады. Бұл ретте қазақ пен өзбек қазақша сөйлесетін жағдайда контакт тілі қазақ тілі болады, егерде өзбек тілінде сөйлесетін болса контакт тілі өзбек тілі болып табылады.

Тіл контакты нәтижесінде тілдер бір-бірінен алшақтауы немесе жақындасуы мүмкін. Осы орайда алшақтап кетуі “дивергенция”, жақындасуы “конвергенция” деп аталды. Тілдердің қарым-қатынас жасауына тиімді жағдай — адамның екі тіл жүйесін бірден қолданылуы кезіндегі — билингвизм “қос тілділік” болып табылады. Қостілділік индивидуалды немесе жеке (белгілі бір этностың жеке мүшелерінің екі тілде сөйлесіп, оны қолданылуы) және көпшілік қостілділік (белгілі бір этнос мүшелері көпшілігінің екі тілде сөйлесіп, қолданылуы) болып бөлінеді. Сонымен қатар қостілділік индивидуалды (тудырушы) және коллективтік қостілділік (қолданушы); аймақтық қостілділік (елдің жеке аймағы халқының екі тілде қатар сөйлесіп, қолданылуы); табиғи (қатар өмір сүретін екі тіл өкілдерінің қос тілді білуі мен қолданылуы) және жасанды қостілділік (әдейі,

жоспарлы түрде екінші тілді үйренуге қажетті жағдайлар туғызу нәтижесінде екі тілді бірдей білуі және қолданылуы) т.б. Адамзат тарихында бұндай жағдайлар көптен кездеседі, мысал ретінде, Өзбекстандағы қазақ ұлты өкілдерін алуымызға болады, себебі бұл киелі мекенде туылып-өскен қазақ азаматтары ең бірінші орында өздерінің ана тілін жетік меңгерсе, ал мемлекеттік тіл ретінде өзбек тілінде үйреніп, кейінірек екі тілді де меңгере алған.

1. Тілдердің қарым-қатынасы нәтижесінде интерференция, конвергенция және дивергенция деген ұғымдар пайда болған. Қазіргі кезге дейін лингвистикада интерференция құбылысына қатысты лингвистердің тұжырымдары бір жүйеге келген жоқ. Э.Хаугеннің пікірінше, “интерференция қандай да бір лингвистикалық бірліктің бір мезетте екі бірдей тілдік жүйенің элементіне айналуы жүзеге асатын лингвистикалық тоғысуы” болса [Бахтикиреева У.М., 2005: 344], У.Вайнрайх интерференцияны бірнеше тіл білу нәтижесінде кез келген тілдегі қостілді адамдардың сөйлеуінде орын алатын тілдік норманың ауытқуы деп түсіндіреді [Рахимжанов К.Х., 2005: 25].

Бұл ұғымдарға “Элеуметтік лингвистика терминдерінің сөздігінде” жеке-жеке анықтамалар берілген: “Интерференция — тілдік қарым-қатынастары кезінде екі тілдік жағдайда тілдік жүйенің өзара байланыстары сонымен қатар, қостілді адамның бір тілінің екінші тілге саналы емес әсерінің үдерісі, сондай-ақ осы ықпалдың нәтижесі. Интерференция тілдің әр қаттауында әртүрлі байқалады, мысалы, фонетикалық-фонологиялық деңгейде акцентті ажырата алмау, редукцияның белгілерін көшіру, ал морфологияда екі тілдің грамматикалық сапаларын ұлғайту интерференция болады.

Лингвистика ғылымында тілдер байланысын адстрат — тілдердің өзара қатар өмір сүруі мен жанасуы (әдетте шекаралас аймақтарда байқалады), суперстат — жергілікті халық тіліне уақыт ағымымен басқа тілдердің қабаттасуы, субстрат — қабаттасқан тілдерге негізгі тілдің ықпал етуі деген анықтамалар беріледі. Осы орайда, Өзбекстан Республикасының Қазақстан Республикасына көршілес тұрған аймақтарында қазақша, әсіресе, Оңтүстік Қазақстан халқының тілінде өзбекше адстраты және көп ұлтты киелі Өзбекстанның қазақ тұрғындары тілінде, Қазақстанда өзбек тұрғындарының тілінде суперстат яғни, жергілікті (диалектінің) тілдің ана тіліне әсері кездесіп отырады. Бұл құбылыс өзбек пен қазақтың, қарақалпақ пен қазақтың, қырғыз бен қазақтың, түрікмен мен қазақтың арасында да байқалатын құбылыс.

Контактология теориясын зерттей келе, қазақ және өзбек тілдерінің қарым-қатынасы негізінде билингвизм, тілдердің араласуы, суперстат, лексикалық кірмелер мен интерференция үдерістеріне тоқталамыз.

Өзбекстан Республикасының дерлік жер-жерлерінде қазақ ұлты өкілдері өзбектермен іргелес өмір сүруде. Ана тілі қазақ тілі болғанымен, өзбек тілінде меңгерген деп айта аламыз және бұл тілді күнделікті өмірде де қолдана алады. Басқаша айтқанда қостілділік басым.

Қазақ тілі өзбек тіліне жан-жақты әсер ететіндіктен, өзбек тілінің де қазақ тіліне фонетикалық, лексика-семантикалық, морфологиялық, синтаксистік және стильдік әсері байқалады.

Тілдік ерекшеліктері бір-біріне жақын сөйленістер (говорлар), алдымен, сөйленістер тобын жасайды, сөйленістер тобынан диалектілер құралады. Мұның өзі тілдің, оған кіретін диалектілердің құрамында ортақ және кейбір белгілердің болуына байланысты. Кейбір белгілер әдеби тілден диалектіні және бір диалектіні басқа диалектілерден ажыратып көрсетеді. Бір диалекті үшін кейбір белгі болып саналатындар басқа диалектілерге ортақ-жалпылық сипат танытып, оларды топтастыратын белгі болуы мүмкін. Кейбір белгілердің ұқсастығынан диалектілердің жалпы белгісі шығады, ол диалектілердің санын да, көлемін де ажырататын негіз болып табылады. Диалектінің бар-жоғы осы жеке-айырым белгі мен жалпы-ортақ белгінің көлеміне қарай анықталады. Кейбір белгілер тілдің:

ü Дыбыс жүйесінде: ләгән-леген, пахта-мақта, мышық-мысық т.б.

ü Грамматикалық құрылымында: оқығын, барулы, келулі т.б.

ü Лексикалық қабатында: топы, тандыр, зуала, бәдірең, таға т.б.

Қазақ диалектологиясында ұлттық тілдің құрамдас бөлігі — жергілікті ерекшеліктерді көп

жылғы егжей-тегжейлі зерттеулер нәтижесінде олардың таралу көлеміне қарай, қазақ тілінің жергілікті ерекшеліктерін говорлар сипаты басым деген түйінге келіп, қазақ тілінің жергілікті ерекшеліктерін говорлар тобына бөлетін пікір қалыптасты деуге болады. Сонымен қатар, бүгінгі күнде қазақ диалектологиясында говор терминінің орнына сөйленіс термині орнықты.

Өзбекстан қазақтарының сөйленісінде (говорында) Өзбекстандағы өзбек диалектілеріне тән аймақтық ерекшеліктер көрініс тапқанын, тіпті жергілікті қазақ жазушыларының шығармаларында да қолданылғанын айта кеткен жөн.

Тіл білімінде тілдік қарым-қатынастардың төмендегідей типтері бар. Яғни:

1. Тікелей қарым-қатынас. Мұнда әртүрлі тілде сөйлейтін этностар араласып, олардың арасында екі тілді азды-көпті бірдей меңгерген адамдар тобы пайда болады.

2. Жанама қарым-қатынас. Мұндай қарым-қатынастар аудармалар (ғылыми, көркем әдебиеттер, шығармалар, кинофильмдер, БАҚ материалдары, радиохабарлар т.б.) арқылы болады.

Қазақ тілі мен біз қарастырып отырған өзбек тілдері арасындағы тілдік қарым-қатынаста тікелей қарым-қатынас та, жанама қарым-қатынас та болған деген тұжырым жасаймыз.

Қай тілдің болмасын сырын шынайы тану үшін тілдің өзіндік заңдылықтарын білу жеткіліксіз, оның түп тамыры тіл иесі этностың ғасырдан-ғасырға жалғасып келе жатқан тарихының қалың беттерімен, мәдениетімен, мінез-құлқымен байланысты. Ұлтқа тән қадір-қасиетті танытатын тіл болса, тіл деректерінің тоғысар жері — көркем шығарма. Көркем шығарма — ұлттық болмысқа қатысты мәселелерді жинақтайтын күрделі құбылыс, біртұтас дүние. Көркем шығарма мәтінінде кездесетін әр алуан тілдік құбылыс ұлттық тілдің барлық тармақтарынан алынады. Жергілікті ерекшеліктер лексикологияда қолданылу өрісі тар, шектеулі қабатқа жатқызылады, олай болса, жергілікті ерекшеліктердің нақты көрінер, басқа танылар тұсы — көркем шығарма мәтіні.

Көркем сөз шеберлері өзіне керекті материалдарды халық өмірінен, халық тілінен алып пайдаланады. Сондықтан онда жалпыға ортақ біртұтас әдеби тілмен қатар кірме сөздер мен белгілі бір территориялық аймақта ғана айтылатын жергілікті ерекшеліктер кездесіп отырады.

Жазушы сөзбен сурет салу барысында образ іздейді, ол үшін оқырманға әсер етіп, кейіпкерді “өз тілінде” сөйлетуге тырысады. Міне, осы жағдайда диалектілер басты тілдік единица.

Прозалық шығармаларды диалектілік ерекшеліктер негізінен кейіпкерлердің тілінде қолданылады. Сонымен қатар, кейде автор сөзінде қолданылуы да орын алып отырады. Жазушылар диалектілік ерекшеліктерді көбінесе жергілікті тұрғындарды сипаттауда, халық тұрмысын шынайы көрсету, белгілі бір аймаққа тән материалдық және рухани мәдениет ерекшеліктерін беру үшін, халықтың болмысын, рухын шынайы түрде бейнелеу мақсатында қолданады. Мысалы, екінші тарауды көркем шығармадағы материалдық мәдениетке қатысты сөздерді зерттеу жұмысымызда төмендегідей топтарға бөліп қарастырдық. Яғни, ағайын туысқа байланысты сөздер, ыдыс-аяқ және үй-жай атауларына тиісті сөздер, киім-кешек және тағам атауларына байланысты сөздер, құрал-жабдық пен кәсіп-шаруашылыққа байланысты сөздер, жануарлар, өсімдік атаулары мен жер бедері атауларындағы сөздер, ғылым, өнер, мәдениет пен салт-дәстүрге байланысты сөздер, соматикалық атауларға байланысты сөздер, мөлшерді, дәрежені білдіретін сөздер, іс-әрекет семалы сөздер.

Кейіпкер образын жандандыра түсу тәсілдерінің бірі — оның тілінде сол өңірдің жергілікті ерекшеліктерін беру. Әрбір субъектінің жасына, қызметіне, өмір сүрген ортасына, күнделікті тіршілігіне қарай сөз қолданысы да басқалардан ерекшеленетіні белгілі. Олай болса, жазушы образ сомдауда осы ерекшеліктерді мүмкіндігінше мол қамтуға тырысып, экстралингвистикалық факторларды ескеріледі.

Осы орайда, туыстық атауларына, жас, жыныс ерекшелігіне, гендер категориясына жататын этнодиалектизмдердің қатарында апа, тәте, әке, ер, таға, сіңіл т.с.с. жатқызуға болады. Жоғарыда аталған сөздер Қазақстанның барлық өңірінде және Өзбекстандағы қазақ тұрғындары да қолданылатыны белгілі. Алайда оларды арнайы беруіміздің өзіндік себептері бар. Апа сөзі оңтүстік өңірінде әже сөзінің баламасы ретінде қолданылатын болса, батыс өңірінде бұл сөз өзінен жасы үлкен әйел, қыз балаға қатысты (“сестра” мәнінде), ал Өзбекстан аймақтарында өзінің туған анасына

қаратыла қолданылады. Сол сияқты тәте сөзі Жетісу өңірінде әйел адамға қатысты қолданылса, батыс өңірінде, Өзбекстан өңірлерінде де ер адамға қатысты қолданылады.

Талдауға негіз болып отырған шығармалардың ішінде жергілікті ақын Рахметолла Райымқұлов еңбектерінде жоғарыдағы туыстық атаулармен қоса ер сөзі қолданылғанының куәсі болдық.

Ер сөзі, “...Егер менің ерім Сейіт халықтың қас жауы болса, онда сол халықтың досы кім?” [PP116]. “...Иә, сол жігіт болады біздің еріміз” [PP284]. Алайда, қазақ тілінде ер сөзі көмекші етістік қызметін атқарады, ал өзбек тілінде заттық ұғымды білдіріп зат есім сөз табы, яғни күйеу мағынасында қолданылады. Қазақ тіліндегі күйеуі, жары деген туыстық атауға байланысты сөздерге ер сөзі дұрыс келмейді. Сапарбек Иманбековтың “Есімде таға жұртта жүрген кезім...” (СИ. 78.) деп басталатын өлең жолдарында таға сөзі кездеседі. Тұрап Айдаров Ташкент төңірегіндегі қазақтар тілінде нағашы орнында таға сөзі қолданылуын айтып өткен. Сөз графикалық жағынан ерекшеленгенімен, фонетикалық жағынан бірдей. Өзбек тілінің ықпалымен бұл сөз қазақ тіліне енуде. Негізінде қазақ әдеби тілінде нағашы сөзі қолданылады. Дегенмен, нағашы сөзінде жергілікті жазушылар да пайдаланылғанын айта кетуіміз керек. Жылап қалдым ақ тайлы // Нағашымды көргім кеп (МО. 24). Осы сияқты туыстық атауларға пайдаланылған сөздер осы өңірге тән атау түрлеріне байланысты.

Прозалық шығармалармен салыстырғанда, лирикалық шығармаларда диалектілік ерекшеліктер әлдеқайда аз қолданылады, оның үстіне онда негізінен лексикалық ерекшеліктер, ал фонетикалық, грамматикалық ерекшеліктер мейлінше аз. Сонымен қатар жоғарыда келтірілген поэзиялық туындыларда да дыбыстық, лексикалық және грамматикалық ерекшеліктер кездесіп отырады. Бұл жерде жергілікті тұрғындардың тіліндегі фонетикалық, грамматикалық ерекшеліктерді көрсету емес, ойын нақты беру, қысқа да түсінікті етіп жеткізу мақсатынан туындаған.

Қорыта айтқанда, екі немесе одан көп тілдердің географиялық және қоғамдық-әлеуметтік тұрғыда араласуын тілдік қарым-қатынастар деп атауға болады және тіл аралық ықпалдастыққа әлеуметтік, экономикалық, мәдени, діни, саяси, психологиялық, көршілік факторлар ықпал етеді. Солай екен, қазіргі қазақ лексикасында қазақ және өзбек сөздердің корпусын қалыптастырудың теориялық-әдіснамалық негізін құрастыру және салыстырмалы-типологиялық зерттеудің теориялық және практикалық маңызы зор және өзекті мәселелердің бірі болып табылады.

Пайдаланылған әдебиеттер:

2. Рахмонбердиев К. Ўзбек тил контактлари. Тошкент, 1989. 6-б.
3. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері. — Алматы: Мектеп, 1975. — Б. 34 — 153;
4. Айдаров Т. Проблемы диалектной лексикологии и лингвистической географии. — Алматы: Рауан, 1991. — с. 80 - 236.
5. Қалиев Ғ., Сарыбаев Ш. Қазақ диалектологиясы. — Алматы: Мектеп, 1967. — Б. 53 — 64.
6. Бахтикиреева У.М. Художественный билингвизм и особенности русского художественного текста писателя билингва: Автореф. ... доктора филол. наук. — Москва, 2005.
7. Рахимжанов К.Х. Языковые контакты и их отражения в региональной художественной литературе (на материале творчества писателей Павлодарского прииртышья): Автореф. ... канд. филол. наук. — Алматы, 2005.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY AKTLAR KLASSIFIKATSIYASI

Gulshoda Ruziyeva,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola sotsiopragmatik tahlilda nutqiy aktlar o'rni, uning turlari va klassifikatsiyasiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, lokutiv, illokutiv, perlokutiv, assertiv, direktiv, ekspressiv, komissiv, deklarativ.

Sotsiopragmatik tahlilda nutqiy aktlar nazariyasi muhim o'rin tutadi. Chunki o'zaro suhbatga kirishish, muvaffaqiyatli ijtimoiy aloqa o'rnatish so'zlovchi va tinglovchining qay darajada bir-birini yaxshi anglashi va tushunishiga bog'liq.

J.Austin o'zining "How to do things with words" kitobida til faqatgina ma'lumot yetkazish uchun-gina emas, balki ma'lum bir harakatlarni bajarishi va turli oqibatlariga sabab bo'lishi haqida so'z yuritgan. Uning fikricha, muloqot turli kommunikativ harakatlar yoki nutqiy aktlar ketma-ketligidan iborat. Ushbu nutqiy aktlar tizimli ravishda ma'lum bir kommunikativ maqsadni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. U mazkur mavzu yuzasidan Oksford va Harvard universitetlarida juda ko'plab ilmiy ma'ruzalar o'qigan. U mazkur kitobda gaplar ijro etuvchi xususiyatga ega bo'lishini tahlil qilgan.

I resign - Men ishdan bo'shayman;

I name this ship Boniface - Ushbu kemaga Boniface deb nom beraman. [Austin, J.L. 1962]

Yuqorida misollardan ko'rish mumkinki, har ikkala gapda harakat bevosita ijro etishni bildiriyapti. U yuqoridagi misollar orqali bu gaplarning maqsadi xabar berishdan ko'ra ijro etishga qaratilganligini ta'kidlaydi. Ishdan bo'shayman misolida o'sha inson rostdan ham ishdan bo'shash harakatini, kemani Boniface deb nomlayman misolida esa haqiqatdan ham kemaga nom berish harakati bo'lishini ta'kidlagan.

Austin fikricha, har bir nutq bir vaqtning o'zida 3 harakat (aktni) ifodalay olishi mumkin:

1 Lokutiv akt - gapirish, ma'lum bir bayonotni talaffuz qilish harakati;

1 Illokutiv akt - tinglovchiga ta'sir qilish maqsadida aytilgan bayonot. Bunda so'zlovchi o'z niyatini tinglovchiga bildirishni maqsad qilgan bo'ladi;

1 Perlokutiv akt - ma'lum bir nutqiy vaziyatdan kelib chiqadigan vaziyat yoki harakat.

Boshqa bir ilmiy adabiyotlarda nutqiy aktlar to'rtga bo'linadi: so'zlash harakati - lokutiv akt, gap orqali ifodalangan asosiy axborotni yetkazish harakati - propozitsional akt, so'zlovchining kommunikativ maqsadi - illokutiv akt va ma'lum nutqning tinglovchiga ta'siri - perlokutiv akt [Дорошенко А.В. 1989:77].

John Searle Austin nazariyasini davom ettirgan holda mazkur nazariyaga tizimlilikni olib kira oldi. U gap ma'nosi ma'lum bir harakatni ifodalaydi degan fikrni ilgari surdi. Ma'lum bir tilni o'rganish ma'lum bir harakatni tahlil qilishdagi quyi kategoriya xolos degan fikrni bildirdi. [Searle, J.R. 1975]

Biron bir suhbat yoki nutqiy harakat oldidan ma'lum bir sharoit bo'lishi kerakligini ta'kidlagan va quyidagi to'rt qoidalarni keltirib o'tdi:

1 Propozitsional kontent qoidasi: nutqning propozitsional qismidagi ma'noga e'tibor qaratish;

1 Tayyorgarlik qoidasi: nutqga kirish qismidan oldingi sharoitni hisobga olish;

1 Samimiylik qoidasi: nutq samimiy kechishi uchun ma'lum bir atmosferani yuzaga keltirish;

1 Muhim qoida: ma'lum bir vaziyatga an'anaviy tarzda qaysi nutqiy akt mos kelishini aniqlash.

Searl yuqoridagi qoidalarga asoslanib, nutqiy aktlarni bir necha xil turda tasniflagan:

a) Assertivlar: So'zlovchini ma'lum bir propozitsion asosga ishontirish harakati;

b) Direktivlar: Tinglovchiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilish;

c) Ekspressivlar: Ma'lum bir psixologik holatni inobatga olgan holda harakat qilish;

d) Komissivlar: So'zlovchini ma'lum bir kelgusi harakatga ishontirish;

e) Deklarativlar: reallik bilan kontentning bir-biriga mos kelgan muvaffaqiyatli suhbat.

John Searle nutqiy aktlar nazariyasi borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ammo, biron bir nutqiy aktni tushunish uchun “nutqiy vaziyat”, “nutqiy holat” va “nutqiy akt”ni farqlab olish lozim.

Austin va Searle olib borgan ilmiy izlanishlardan oldinroq nutq funksiyalari madaniyat tilida diniy harakatlarga diqqatini qaratgan nutq funksiyalari Malinovski tomonidan ikki katta guruhga bo‘lib tahlil qilingan. [Malinowski B. 1923]

Shuningdek, Aflotunning nazariyasiga tayanib, Karl Buhler ham nutqning funksiyalarini klassifikatsiya qilgan: ekspressivlik funksiyasi (tilning so‘zlovchiga qaratilganligi), konativ funksiyasi (tilning tinglovchiga qaratilganligi) va reprezentativ funksiyasi (so‘zlovchi va tinglovchidan boshqa narsalarga qaratilganligi).

Keyingi davr mobaynida Bach va Harnish [Bach, K. & Harnish, R 1979], Vendler [Vendler Z 1967] va Allan [Allan, Keith 1986] kabi olimlar ham o‘zlarining klassifikatsiyalarini keltirib o‘tishgan.

Yuqoridagi klassifikatsiyalarda turli xil farqlar bo‘lsada, Austin va Searle kabi ularning barchasi yagona maqsad - til funksiyalarining konseptual nazariyasini yaratishdir. Keyinchalik Austin klassifikatsiyasi uning shogirdi, Searle tomonidan qayta klassifikatsiya qilindi.

Yuqoridagi jadvaldan shuni anglash mumkinki, Searlning nutqiy aktlar klassifikatsiyasi so‘zlovchi va vaziyatni nutqiy akt turlariga ko‘ra o‘zgarishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Searle J. R. “What Is Speech Act?” in Philosophy in America, ed. M. Black. Ithaca, NY: Cornell University Press. 1975.
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press 1962.
3. Malinowski B. The problem of meaning. In: Halliday, M. (Ed.). Language context, and text: aspects of language in a social-semiotic perspective (3—5). Oxford: Oxford University Press. (1923).
4. Bach K. & Harnish R. Linguistic communication and speech acts. Cambridge: MIT Press. (1979).
5. Vendler Z. Linguistics in Philosophy. Ithaca: Cornell University Press. (1967).
6. Allan Keith. Linguistic Meaning. Vol. 1. London: Routledge & Keagan Paul. (1986).
7. Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах.// В кн.: Логический анализ языка. -М., 1989. с.77.

PRAGMATIK TILSHUNOSLIK VA SIYOSIY NUTQLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shaxnoza Ismatova,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosiy nutq tushunchasi, jahon tilshunosligida pragmalingvistikaning o‘rganilishi, siyosiy nutqlarning pragmatik xususiyatlari xususida to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, nutq, siyosiy nutq, rasmiy, so‘zlovchi, ritorika, stilistika

Tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo‘nalishning o‘rganish manbaini tashkil etadi. Ma’lumki, nutqiy muloqot o‘nlab - milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, in-

sonning mental faoliyati bilan bog'liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kulturologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson sub'ekti va ob'ektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi.

Professor Sh.Safarov "pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi" deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalarini belgilab beradi[Safarov, 2008: 87].

Demak, pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy siyosiy nutq ma'lum xalqining milliy-madaniy, aksiologik va uslubiy afzalliklarini aks ettiruvchi madaniy hodisadir. Siyosiy rahbarlarning nutqlari millatning lingvistik ongini o'rganish uchun muhim materialdir. Zamonaviy siyosiy nutq epideyktik nutq nazariyasi va amaliyotining ko'p asrlik taraqqiyoti natijasidir. Antik davrdan, o'rta asrlar ilmiy va madaniy an'alaridan, XVIII-XIX asrlarning ritorik va stilistik asarlaridan o'zlashtirilgan nutq, XX-XXI asrlarning ijtimoiy-siyosiy nutq hodisasiga aylanmoqda. Siyosiy nutq klassik ilmlar, jumladan, ritorika, stilistika, nutq madaniyati singari ilmlar, hamda zamonaviy yo'nalishlariga kiruvchi jamoatchilik bilan aloqa, kommunikativistika, pragmalingvistika va shu singari ilmlar tomonidan tadqiq qilinadi.

Siyosiy nutq- bu ma'lum bir holatni aks ettiruvchi, siyosat vakillarining (adresantning) individualligini ko'rsatuvchi va unga ta'sir qilish uchun ma'lum bir auditoriyaga (adresatga) qaratilgan murakkab lingvistik hodisadir. Siyosiy ritorika tomonidan ma'ruza tarkibidagi g'oyaning qadriligi ma'ruzachi va tinglovchining bir tan-u, bir jon sifatida ma'ruzani qabul qila olishi orqali aniqlanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, ma'ruzada faqat o'tib ketgan voqea hodisalar emas, balki ayni damda dolzarb bo'lgan muammolarga ham to'xtalib o'tilishi muhim.

Ma'ruzachining nutq stili, siyosiy tantanali nutqida mavjud milliy madaniy nutq stili me'yorlaridan chiqmagan holda, biroq o'z individual stilidan foydalangan holda namoyon bo'lishi kerak. Siyosiy ma'ruzachining Individual nutq stili leksikada, sintaksisda, talaffuzda va tana xatti-harakatlarida yuzaga keladi. Leksikada ma'ruzachining ko'p va tez-tez uchraydigan kalit so'zlari, hamda tinglovchining e'tiborini tortuvchi yangi so'zlarida namoyon bo'ladi. Sintaksisda, ma'ruzada stilistik o'ziga xosligining xususiyatlari sifatida eng ifodali va xilma-xil nutq shakllarining ifodalanishida. Talaffuzda, siyosiy nutqning talaffuz an'alariga mos ravishda ma'ruzachining o'ziga xos ohang bilan ma'ruzani so'zlashida yuzaga keladi. Paralingvistik xususiyatlarda, barchaga ma'lumki, so'zlovchining tana xatti-harakatining barcha ko'rinishlari (imo-ishoralari, mimikalari, qarashlari, turishi va boshqalar) individualdir.

D.Greyberning fikriga ko'ra, siyosatchi ma'lum oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi uchun, muammolarni til yordamida hal qila olishi kerak. [Greyber,1981:196].

Siyosiy kommunikatsiya mamlakat boshqaruvidek jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy siyosiy diskurs esa, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonini, madaniyatini va mentalitetini o'zida qamraydi [Анна 2009: 31].

Siyosiy diskurs - ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismidir, chunki u ular tomonidan shakllantiriladi va ayni paytda lisoniy shakl, bilim va harakatning murakkab birligi bo'lib, ularning o'zini ham shakllantiradi. Siyosiy nutqni amalga oshirish nafaqat lingvistik vositalarni, balki muloqotni belgilovchi ekstralingvistik omillarni, shuningdek, nutqning mavjudligini belgilovchi kognitiv tuzilmalarni ham o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda biz siyosiy nutqlarning pragmatik xususiyatlari xususida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan pragmalingvistika alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Semantika tarkibidan pragmatikaning ajralib chiqishi rasmiy nutqni pragmatik jihatdan o'rganish unda til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi ta'sir va samaradorligi ma'no qirralarini o'rganishga ilmiy ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Buning natijasida rasmiy matnlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish va uni idrok etish jarayoniga pragmalingvistik yondashish dolzarb masalaga aylandi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri deb e’tirof etilayotgan pragmalingvistika keng qamrovli sohaga aylandi.

Pragmatika tilshunoslikning keyingi tarmoqlaridan biri bo‘lib, u semiotika hamda tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, unda muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirilib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i deyish ham mumkin. Pragmatika g‘oyasini asosan Amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan munozaraga kiritilgan, shuningdek, yana bir Amerikalik olim Ch. Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan va “Pragmatika” terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi va vaziyatdan kelib chiqib, ma’no anglatuvchi xususiyatga ega bo‘lib, unda aniq shakl va tashqi ko‘rinish bo‘lmaydi va uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi [Eshtayeva, 2022:67].

Pragmatikaning asosiy maqsadi tinglovchida, o‘quvchiga estetik go‘zallik va estetik madaniyatni shakllantirishdir. Agar asl ma’noni tinglovchi yoki o‘quvchiga pragmatik ta’sir etmasa u berilgan matnning asl mohiyatini tushuna olmaydi.

So‘zlovchi biror nutq yaratar ekan, u o‘zining bu faoliyati bilan qabul qiluvchiga (tinglovchi) qandaydir axborotni etkazishni, kechmishlarini bayon etishni, atrofimizda kechayotgan yangiliklarni etkazishni nazarda tutadi. Bu orqali so‘zlovchi retseptorga ma’lum ta’sir ham o‘tkazadi. Retseptorga nutq orqali ko‘rsatiladigan ta’sir pragmatik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi. Asliyatdagi pragmatika yordamida nutqdagi axborot retseptorning oliy nerv sistemasiga etkaziladi va bu erda tegishli sezgilar orqali qabul qilinib ta’sirlanish yuzaga keladi.

Shuningdek, tarjima jarayonida ham pragmatik belgilarning o‘rni beqiyosdir. Tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga ko‘proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko‘pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma’lumotlaridan ham xabardor bo‘lishni talab qiladi [Мекста Анджу, 2012:92].

Tarjimada pragmatik vositalardan o‘rinli foydalanish esa asliyatda ifodalangan zaruriy ma’noni to‘la-to‘kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, tarjimaning pragmatik xususiyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lib, ularning tahlilini, tarjimada berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo‘lib mavzu bo‘yicha talabalar uchun qo‘shimcha yoki asosiy qo‘llanma sifatida o‘zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma’ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin [Анна 2009: 76,83].

Pragmatika tilshunoslik sohasi bo‘lganligi sababli, bu atamaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinonimi yo‘q. Pragmatikaning turli jihatlari mavjud, masalan, nazarda tutilgan ma’no va nutq aktlari. Bu jihatlari umuman pragmatika sohasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Rasmiy nutqda muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omillari bilan bog‘liqligi, nutqiy akt nazariyasiga oid tadqiqotlar maydonga keldi. Matnning pragmatik maqsadi, presuppozitsiya va tagma’no masalalari, modallik, baho kategoriyalariga oid izlanishlarga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Rasmiy nutqqa tizimli tarzda yondashilib, uning leksopragmatika, pragmasintaktik, morfopragmatik kabi qator tarmoqlari rivojlanmoqda.

Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D.Arutyunova, YU.S.Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning sub’ektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining “men”ini ifodalaniishi uslublarini o‘rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi [Arutyunova,1981: 78 ;Stepanov,1985:127].

Kiseleva esa pragmatikani so‘zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o‘quvchi) bo‘lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta’sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta’sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar, deya ta’rifladi. [Kiseleva,1983:96].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, siyosiy nutq diplomatik aloqalar, qonunchilik hamda ish yuritish sohalarida amal qiladi. Shu bois ushbu sohalarining har qaysisiga oid rasmiy matnlarni pragmatik maqsad orqali tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Siyosiy nutqning yozma shakli bo‘lgan ish yuritish hujjatlarida

pragmatik maqsad tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Rasmiy ish yuritish hujjatlarida so'zlovchi maqsadi, ya'ni intensiyaning ifodalanishi rasmiy hujjatning turini belgilashga xizmat qiladi. Amaliyotda rasmiy ish hujjatlarida pragmatik maqsad ifodasi uchun xizmat qilsa, ba'zilarida nutq egasining bir necha maqsadi yuzaga chiqadi. Bunday ish hujjatlari poliintensional (ko'p maqsadli) hujjatlar hisoblanadi.

Siyosiy nutqqa oid matnlarning ayrim turlari so'zlovchining shaxsiy maqsadini ifoda etsa, ba'zilar umumiy pragmatik maqsadni qamrab oladi. Bu jihatdan ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. So'zlovchi (shaxsiy) maqsadini ifoda etuvchi siyosiy nutqlar. 2. So'zlovchi va tinglovchi maqsadini ifoda etuvchi siyosiy nutqlar. 3. Umumiy (jamoaviy) maqsadni ifoda etuvchi siyosiy nutqlar.

Xulosa qilib aytganda, tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda - gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - T: O'zME, 2008.
2. С.А.Насирова. Особенности перевода метафор (на праймериз политического дискурса о коррупции). - Т. 2020.
3. G.SH.Rixsiyeva, Sh.B. Sodiqova. O'qituvchi nutq madaniyati (ma'ruzalar kursi). -T.2013.
4. С.В. Меньшенина "Классификация речей, являющихся эпидейктической речью" Вестник ЮУрГУ, №7 (47), 2005. Серия "Социально-гуманитарные науки", выпуск 4.
5. Мекста Анджу "Содержательно-композиционные и стилистические особенности русской политической праздничной речи (ЮФ Вфтериале выступлений республики РФ в 2000-2010 гг.)" Диссертация. Москва 2012.
6. В.Анна "Стилистические и лингвопрагматические характеристики публичной речи политических деятелей России в XX веке и начале XXI века" Автореф. ераславль 2009г.
7. D.A.Graber, (1981). Political Languages. In D. Nimmo, & K. Sanders (Eds.), Handbook of Political Communication (pp. 195-224). Beverly Hills, CA: Sage.
8. Pragmatika tushunchasi va uning tarjima madaniyatidagi talqini o'rganish Dildora Kaxarova Eshtayeva. Jizzax politexnika instituti. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 January 2022 / Volume 3 Issue 1
9. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. - 176 b.

MATN VA BADIY TILNI YUZAGA KELITIRUVCHI VOSITALAR

Севара Баратова,
ЎзРФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институтини кичик илмий ходими

Annotatsiya

Ushbu maqolada matn va badiiy tilni yuzaga keltiruvchi vositalar haqida firk yuritilib, matnni yuzaga keltiradigan "so'z" haqida dalililar keltirilgan. Matn va badiiy tilning go'zalligini ko'rsatuvchi "lingvopoetika" sohasi haqidagi tadqiqotlar va uning filologiya sohasida tutgan o'rni ko'rsatilgan. X.Huvaydo va So'fi Olloyor masnaviylari lingvopoetik tablilga tortilgan. Tablillar jarayonida badiiy tilning o'z so'z arsenalini mavjudligi misollar keltirish orqali isbotlangan.

Kalit so'zlar: So'z, denotativ, konnotativ, paronim, antonim, metafora, uyadosh, ramz, takrorlar, lingvopoetika, masnaviy.

So‘z (til) bandalariga Alloh vataolo tomonidan berilgan ko‘psonli ne‘matlarning eng ulug‘idir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, insonda aql-u farosat bo‘lsa-yu, buni til bilan ifoda etib berolmasa, dilidan o‘tgan quvonch-u tashvishlarini, dard-u hasratlari, hayrat-u hayronliklarini muloqot jarayonida tinglovchiga yetkaza olmasa, insonning qay ahvolga tushishi ma‘lum. Shuning uchun ulug‘ allomalar so‘zga muqaddas yaratq si-fatida qaraganlar, so‘z haqida ko‘p yozganlar. Hazrat Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da so‘zga bunday ta‘rif beradi: “...so‘z durredukim, aning daryosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur. Ko‘nguldin dog‘i so‘z durri nutq sharafig‘a sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko‘rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig‘a boqa intishor va ishtihor topar. ...sharifidin to‘lgan badang‘a ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tang‘a zahri halok xosiyati zuhur etar.

Qit‘a:

So‘z gavharidurki, rutbasining
Sharhidadur ahli nutq o‘jiz.
Andinki erur xasis muhlik,
Ko‘rguzgucha durur Masih mo‘jiz”.

Ya‘ni “...so‘z bir dur bo‘lib, uning daryosi ko‘ngildir. Ko‘ngil shunday bir o‘rin bo‘lib, unda mayda va yirik ma‘nolar to‘plangandir. ...So‘z duri ham ko‘ngildan so‘zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o‘zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi. ...yaxshi so‘zdan o‘lgan badanga toza ruh yetadi, yomon so‘zdan tirik tanga o‘lduruvchi zahar xosiyati paydo bo‘ladi. ...So‘z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashdan nutq egalari o‘jizdirlar: martabasi - yomon so‘zning halok qiluvchanligidan tortib, yaxshi so‘z bilan Isoning mo‘jiza ko‘rsatishiga qadar boradi”. [2011, 20]

Shoir inson - nutq - nutq madaniyati uchligi masalasini lirik va epik asarlarida shunday muhtasarlilik va aniqlikda beradiki, ular o‘qilganida o‘quvchi o‘zi irod etayotgan nutqning qanday mazmun va shakl-da ekanligini o‘ylamasligi aslo mumkin bo‘lmay qoladi. Masalan, bir qit‘asida shoir bunday yozadi:

Chun g‘araz so‘zdin erur ma‘ni anga,
Noqil o‘lsa xoh xotun, xoh er.
So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilki ne der. [2011, 20]

Demak, ana shu ulug‘ ne‘mat asrlar davomida ulomoyi kiromlar e‘tiborini tortib keldi va hanuz mazkur masalaga e‘tibor susaygani yo‘q. Tilning muqaddas yaratq ekanligi borasidagi bahs bundan keyin ham bardavom bo‘lib qolishi ayni haqiqatdir. Zero, Alloh vataolo yaratgan mazkur mo‘jiza doimiy ravishda kishini o‘ziga ohanraboday tortib turadi. Shundanmi, qadim-qadimdan ilm tarixida “Til ilmi” otlig‘ fan sohasi paydo bo‘lgan, bu borada yuzlab, minglab tadqiqotlar yuzaga kelgan. Shulardan biri lingvopoetika hisoblanadi.

Til, demakki, so‘z ikki tomonlama tadqiq qilinadi: lingvistika tilning mazmuniy-shakliy tomonlarini qadim yunon, arab grammatikasi ta‘sirida yuzaga kelgan fan yo‘nalishlari doirasida kommunikativ hodisa sifatida tahlil va tadqiq qilsa, adabiyotshunoslik uni poetika nuqtayi nazardan o‘quvchining tuyg‘ulari, botiniga ta‘siri vajhidan tadqiq etadi. Shu boisdan “lingvopoetika” atamasi ostida kalom qushning ikki qanoti singari birgalikda e‘tiborni tortadi. Agar muayyan asar tili faqat lingvistik tomondan baholansa, u quruq statistikaning o‘zi bo‘lib qolishi mumkin. Demak badiiy tilni tadqiq etishning asosiy ob‘yekti badiiy matn hisoblanar ekan.

Aslida, matn so‘zlar va gaplar uyushmasining muayyan bir fikrni ifodalaydigan ko‘rinishidir. Tilshunos D.Xudoyberganovanning doktorlik dissertatsiyasining dastlabki bobi xulosasida matn va matn yaratilishining antropotsentrik talqiniga quyidagicha ta‘rif beradi: “Matn yaratilishining antropotsentrik talqini, asosan, kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Kognitiv nuqtai nazarga ko‘ra matn — mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo‘lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko‘rinishidir. Kognitiv yondashuv matn yaratilishini “muallif — matn - matndan tashqaridagi voqelik” tamoyili asosida tahlil etishni taqozo etadi. Bunda matnni so‘zlovchi (yozuvchi) maqsadining ifodasi, nutq yaratilishi mahsuli, tushunish ob‘ekti hamda tushunish mahsu-

li sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. [2015, 56] Bob bo'yicha chiqargan xulosalarining birida yana ushbularni o'qiymiz: "Lingvokulturologik yondashuvlarga ko'ra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarini, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o'tuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar, tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi". [2015, 57] Demak, matn yaratilmish har bir adabiyotda biror bir narsa-hodisa haqida axborot beradi, yo'nalishiga qarab estetik vazifa ham ado etishi mumkin. Masalan, ilmiy matndan faqat ilmiy axborot olamiz. Xabar matnidani ham shunday. Ammo badiiy matnda har ikki uzv — xabar ham, ta'sirchanlik ham qabul qilinadi. Tarixiy hikoya, qissa yoki romanlarni olib ko'raylik. Masalan T.Qasimbekovning "Singan qilich" romani o'qilganida Qo'qon xonligining Xudoyorxon avlodlari hamda Xudoyorning xon sifatida olib borgan yaxshi-yomon ishlari haqida ta'sirchanlikka ega bo'lgan matn orqali ma'lumot beriladi. Xuddi shu masalaga doir Ibratning "Farg'ona tarixi" romani o'qilganida esa faqat xabar-ma'lumot olish bilan kifoyalaniladi. Xullas, matn - bog'lanishli nutqning aniq, ko'zga ko'rinib turadigan, axborot uzatadigan yoki muayyan axborot berish bilan birga estetik ta'sir ko'rsatadigan bir ko'rinishi. Shunga ko'ra matn kommunikativ vazifa bajaruvchi hamda estetik vazifa bajaruvchi xillarga bo'linadi; nasriy va she'riy shaklda bo'ladi.

Tilshunos M.Yo'ldoshev bu borada mana bunday xulosani havola etadi: matnning maqsad mohiyatida tilning ikki vazifasidan qaysi birining — kommunikativ vazifaningmi, estetik vazifaningmi — yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tipini farqlash zarur, ya'ni 1) nobadiiy matn va 2) badiiy matn. Asosiy maqsad mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni badiiy matn deyish ma'qul". [2006, 87] "...badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya-fikr-mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goh ochiq, goh yashirin, turli ishoralar, tagma'nolar, kosa tagida nim kosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash, ma'naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo'ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun ...badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini bilish ham lozim bo'ladi". [2008, 27]

Tilshunosligimizning zabardast olimi N.Mahmudovning ta'kidlashlaricha, "odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbidagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilar, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi... Estetik vazifa tilning kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta'sir quvvatini namoyon qiladi". [2006, 48-51]

Shu o'rinda yana M.Yo'ldoshevning mulohazalariga quloq tutamiz. Uning e'tiroficha, "...har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi". [2008, 95] Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda urg'u beriladi, - degan muallif rus tilshunoslari M.Gorelikova hamda D.Magomedovalarning "Lingvisticheskiy analiz xudojesivennogo teksta" ("Badiiy matnning lingvistik tahlili") kitobidan ushbu iqtibosni keltirishni lozim topadi: "Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani — kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi". [1989, 5] Ushbu iqtibos aslida yangilik emas. N.Mahmudov-u M.Mirtojiyev ham, A.Xojiyev-u A.Mamajonov ham, M.Hakimov-u M.Yo'ldoshevlar ham, boshqa lingvopoetika bilan maxsus shug'ullangan katta va o'rta avlod hamda ularning ortidan sobitqadamlik bilan kelayotgan boshqa tilshunolar ham badiiy matn xususida xuddi shunday xulosalarni ilgari surganlar. Gap ayni badiiy til xususida borganida ana shu badiiylarning mezonini qanday va qay darajada bo'lishi darkor, degan savol paydar-pay diqqatni tortib turaveradi. Ba'zan badiiy asar tiliga zeb berishga urinib, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarayotgan adiblar ham uchrab turadi.

Bu kabi adiblarning asarlar umrboqiyilgiga umid qilish qiyin. Yoxud buning tamomila aksi bo‘lgan kitoblarni - quruq fikrni tizimlashtirgan va unga nomigagina badiiylik bo‘yog‘i berilgan badiiy asarlarning (agar shunday tavsiflash mumkin bo‘lsa) uchrab turishi ham shundan. Xususan, “modern” tamg‘asi ostida yoki sharq xalqlari ma‘naviyatiga xos mayinlik, nazokat, nomuskorlikdan mutlaqo mahrum bo‘lgan asarlarning maydonga kelishi va targ‘ib qilinishi, xalq tiliga xos qochirimlarni tushunib-tushunmay asarlar tiliga ziynat maqsadini ko‘zlab tiqishtirilgan “asarlar” badiiy tili borasida zukko tilshunos olimlarimiz zabonlarini tishlab turishlari shundan emasmikan!? Muayyan she‘riy yoki nasriy asar o‘qilganda, qaniydi, o‘quvchining yetmish ikki tomirida qon shiddat bilan yugursa, qaniydi, jismi joni jimirlab-jimirlab ket-sa! Axir Navoiyni, Boburni, Muqimiy-u Furqatni, yangi zamon adiblari, Oybek, Mirtemir, A.Qodiriy, O‘.Hoshimov, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, U.Hamdani, A.O‘ktamlar o‘qilganida shunday hissiyotlar yuzaga keladi-ku! Navoiyning bir taronasi bor:

Jonimdagi “jim” ikki dolingga fido,
Andin song “alif” toza niholingga fido.
“Nun” dag‘i anbarin hilolingga fido,
Qolg‘an iki nuqta ikki xolingga fido. [2011, 724]

Ruboiyga diqqat qilinsa, lirik qahramonning “jon”i lirik personajning uch a‘zosi — zulfi, qoshi, xoli bilan bir tashbeh san‘ati doirasida muqoyasa qilinyapti. Bunda arab harflarining shakli va ma‘shuqaning sanalgan uch a‘zosi o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik e‘tiborda tutilmoqda. Ana shu qiyos asarga jon bag‘ishlab, o‘quvchini hayratga solmoqda. Yoki Bobur she‘riyatidan ayrim baytlarga, ba‘zi masnu‘larga e‘tibor qarataylik: bir bayt doirasida bir necha badiiy san‘atlarni qo‘llab, turli masalalardan mushohada yuritish va bu bilan deyilmoqda bo‘lgan fikrni she‘rxonga tez va oson, ta’sirchan tarzda yetkaza bilish an’anaviy she‘riyatning muhim xususiyatlaridan sanaladi. Shundanmi, bir qator shoirlar she‘rlarida turli xil usullar, vositalar istifoda etilib, shaklga zeb berish bilan, satrlarning o‘ynoqilgini ta’minlash, unda ilgari surilgan g‘oyani silsilaviy tarzda jimjimador chiqishiga erishish hollari ko‘p kuzatilgan. Bunday she‘rlar masnu‘ she‘rlar nomi bilan yoyilgan. Chunonchi, Zahiriddin Muhammad Bobur lirik merosida ana shunday she‘rlar anchagina uchraydi. Aslida, masnu‘ she‘rlar bitish — masnu‘ g‘azal, qasida, ruboiy qit‘alar yaratish yangi hodisa emas. Bunday she‘rlar arab, fors-tojik va turkiy she‘riyatda bir muncha uzoq tarixga ega. “Masnu” arabcha so‘z, asosi “sun” — san‘at demak. Ko‘pligi “masnuot”. Lug‘atlarda “yaratilgan, bezatilgan, bezakli qilib ishlangan” ma’nolarida ishlatilishi aytilgan. Adabiy istiloh sifatida “san‘at ichra san‘atlarga yo‘g‘rilgan satrlar” degan ma’noda tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Bobur she‘riyatida masnu‘ bo‘la oladigan baytlar ham, alohida olingan masnu‘ she‘rlar ham bor. Bir baytda lirik qahramonning yor va diyordan ayrilganlik azob-uqubatlarini antonim, va metaforalar yuzaga keltirgan tazod, tashbeh, istiora va boshqa san‘atlar vositasida berishga erisha olgan:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rib rahm ayla, ey lolaruh, bu chehrayi zardim. [1996, 43-44]

Agar e‘tibor berilsa, baytda badiiy san‘at vazifasini o‘tamagan biror so‘zning o‘zi yo‘q. Baytda uyadosh so‘zlar yuzaga chiqqan tanosub yetakchi badiiy san‘at bo‘lib oldinga chiqyapti. Chunki, “xazon yaprog‘i”, “sarg‘armoq”, “chehrayi zard” bir holatni, “gul yuzing”, “lolaruh” yana bir ma‘no guruhi-ni tashkil etuvchi so‘zlardir. Shuningdek, bu so‘zlar uyushuvi anglatgan umumiy ma‘no keyingi so‘zlar guruhi anglatgan umumiy ma‘no bilan ziddikni ham hosil qilyaptiki, buni hech ikkilanmay tazodga yo‘yish mumkin. “Xazon yaprog‘i” — ramz, unda ayriliqning eng yuqori doiradagi tasviri namoyon bo‘lgan. Bu birikmada oshiqning ma‘shuqadan bir umrga ayrilgani yoki bir umrlik hijronning qismatga aylanishiga ishora mavjud. Ayni damda, lirik qahramon va Bobur qismatdosh. Zero muallifning o‘zi ham yoru diyoridan mosuvo; binobarin lirik qahramon ham yorining hijronida xazon yaprog‘i sifat sarg‘aygan; har ikkalasi ma‘shuqa va sun‘i naqqosh - Yaratgandan rahmu shafqat tilab turmoqqa haqli. (bu o‘rinda muallif va lirik qahramon taqdirdosh bo‘lib, kechinmada uyg‘unlashib ketadi. — S.B.) Birikmadan keyin kelayotgan yordamchi so‘z (yanglig‘) misradagi asosiy o‘xshatishni yuzaga keltiradi. Ma‘shuqaning “gul yuzi” — metafora (istiora). Mazkur orqali ikki ob‘ekt — ma‘shuqa va ona yurtning bemisl timsoli chizilyapti: “gul” — qizillik, qizillik esa tomirlarda jo‘sh urib oqayotgan sog‘lom va

navqiron qon - hayot belgisi. Bu holatda ma'shuqa va yurt timsollari uyg'unlashib, bir butunlikni tashkil qiladi. Bundan keyin kelayotgan "hajr" va undan so'ng o'rinlashgan "sarg'ardim" so'zi shoirning yor va diyordan ayrilg'ini ifodalabgina qolmay, shu ayriliqdan bag'ri qon bo'lgan shoirning shu ondagi ruhiy holatini tasvirlashga bo'ysundirilgan. "Sarg'arish" — bemorlik. Bu ham — metafora (istiora). Bobur ayni shu so'z tagzaminiga o'zining ham yor, ham diyor ishqida tan bemor-u umid notavon bo'lgan qismati tarixini singdirib yuborgan. Baytning keyingi misrasidagi "lolaruh" istiorasi va "chehrayi zardim" birikmalarida ham oldingi misralardagi mazmunning mantiqiy davomini ko'ramiz. Bularning hammasi birlashib, baytda hech bir kutilmagan mubolag'ani yuzaga keltiradi. Shoir ana shunday usullar bilan har bir baytini bezab borishini boshqa g'azallarida ham uchratish mumkin. Chunonchi:

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor. [1996, 59],

Baytda mumtoz she'riyatda eng ko'p istifoda etilgan "lab" timsoli manzarga aylangan; ma'shuqaning labi, demakki, huddi gulning endi ochilishga yaqinlashib qolgan g'unchasi misol va yoki oshiqqa jon bag'ishlaguvchi kalima uchun juftlangan lablari singari oshiqning bag'rini tilka-pora qilib tashlaydi, ko'zidan qonrangli ko'z yoshlarni ravon qiladi. Bu timsol o'zidan keyin bir necha timsol va holatlarni ergashtirib keladi. Bu - yana tanosubning sinalgan ko'rinishi. Lab qizil, inchinun oshiqning ma'shuqa labi shavqida ko'zidan qip-qizil qon to'kishi ham ishonarli. Modomiki, oshiq shunday mushkulot girdobiga tushibdimi, holining yomon bo'lishi ham tabiiy; "so'rorim" so'zi — shakldosh so'zning bir matnda ikki xil ma'noga ishora qilishi - iyhom. Iyhom — shubhaga solish demakdir. Aynan shu o'rinda mazkur so'zni ikki xil ma'noda anglash mumkin. Birinchi galda, oshiq ma'shuqadan nima uchun bu holga tushganini bilmoqqa o'tinmoqda. Ikkinchi tomondan, oshiq o'z yoridan shafqat tilab, lablaridan o'pmoqlikni iltijo qiladi. Bu birmuncha ochiq, botil tuyulsa ham, ayni o'rinda oshiqning ma'shuqaga benihoya yaqinligini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, baytdagi qofiyalar bayt mazmuniga pardo bo'lgan holda unga alohida ohang — musiqiylik bag'ishlab, deyilmoqda bo'lgan fikrning hazin va ravon bo'lishiga, bir nafas bilan bayon qilinishiga olib kelgan.

Boburning masnu' she'rlarini tekshirgan ustoz R.Vohidov bular she'rda san'atlar majmuasini keltirishgina bo'lmay, muayyan g'oyani yuzaga chiqarishda vosita bo'lgan til birliklari ekanligini ta'kidlagan. [2008, 41-44] Olimning yozishicha, "uning (Boburning — S.B.) bunday she'rlari shunchaki san'at-pardozlik namunasi bo'lmay, muayyan g'oyani yuzaga chiqarish, ma'shuqaning siyratiga mos suvratini chizish, she'r ixlosmandi qalbida go'zallikka nisbatan shavq-u zavq uyg'otish, misralarning ta'sir quvvati va uzoq esda saqlanishini ta'minlash kabi ulug'vor maqsadlar yo'lida xizmat qiladi." [2008, 42]

Boburning bir masnu'sida yetakchi she'riy san'at sifatida takrir yoxud bargardonish (qaytarmoq, muayyan nizom asosida takrorlamoq, iltizomga yaqin) tasvir vositasi asosiy o'ringa chiqadi. Sharq she'riyatida takror so'zlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash san'at darajasiga ko'tarilgani ilgaridan ma'lum. Ammo bu o'rinda takrorni su'iste'mol qilish she'rning badiiy mohiyatiga salbiy ta'sir qilishini ham aslo unutib bo'lmaydi. Takror qachonki shoir maqsadiga to'kis xizmat qilsagina, o'zining vazifasini o'tagan bo'ladi. Adib Ahmad bir hikmatida "Ko'ni bo'l, ko'ni qil, atin ko'ni, Ko'ni teyu bilsun xalayi sani" der ekan, [2003, 204] "ko'ni" so'zini to'rt marta takrorlaydi. Takror na shaklga, na mazmunga salbiy ta'sir etgan. Bilaks, she'rda birgina so'zni aniq bir maqsad va nizom asosida takror ishlatib, to'g'rilik (rostlik, halollik, vijdonlilik) naqadar ulug' fazilat ekanligini ta'kidlashga muvaffaq bo'lgan. Shunday ekan, takririlar she'rdagi g'oyaning aniq va ta'sirchan chiqishiga xizmat qilsagina, san'at darajasiga ko'tarila oladi.

Bobur masnu'larida takrir aynan keltirilmaydi, balki tardi aks (teskari qilib takrorlash) pardozida havola etiladi va ularda yuzaga kelgan ta'kidni ikki hissa yuqori darajada ifodalashga bo'ysundiriladi:

Tishing dur, labing marjon, qading gul, xating rayhon,
Yuzing hur, soching anbar, so'zing mul, menging menon.
Menon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzing hur,
Rayhon xating, qading gul, marjon labing, tishing dur. [1996, 74]

Masnu'da so'zlar emas, so'z birikmalari hamda sodda yig'iq gaplar guruhi ishtirok etgan. Birinchi bayt misrasi oxiridagi takrir moddasi ikkinchi bayt misrasi avvalida keladi. Masnu' talabi bo'yicha takrir

qat’iy nizomga tayanishi lozim ekan, Boburning mazkur bo‘lgan masnu’sida bir xil nizom o‘xshatilmish va o‘xshatish orasida, to‘g‘risi, mushabbah va mushabbah bihi orasida bo‘lyapti. Avval ma’shuqaning o‘xshatilayotgan bir a’zosi va keyin unga mos tashbeh havola etilmoqda. So’ngra esa bu tizim teskari qilib hammasida emas, ayrimlaridagina qaytarilyapti. Buni shunday tushunish mumkinki, birinchi va ikkinchi misradagi kalimalar uchinchi va to‘rtinchi misralarda tahrirga uchraydi: xating rayhon — rayhon xating, labing marjon — marjon labing, soching anbar — anbar soching, menging menon — menon menging kabi. Masnu’da shoirning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, misralar tuzilishida ham o‘zgacha tus olgan, ya’ni birinchi misra to‘rtinchi misrada ters kelib, alohida ta’sirchanlikni hosil qiladi. Yana-da to‘g‘risi, ikkinchi misrani tugallagan o‘xshamish uchinchi misrani boshlab beradi va birinchi misrani boshlab bergan kalima bilan masnu’ she’r yakun topadi. Yana bir mulohazaki, “yuzing xur”, “tishing dur”, “qading gul”, “so‘zung mul” birikmalari tardi aksga uchramaydi. Buning ham sababi borgan o‘xshaydi. Agar bu kalimalar teskari takrorlanganida, kutilgan ma’no yuzaga chiqmay qolishi mumkin bo‘lgan va shuning uchun Bobur ushbu o‘rinda ikkala birikmani o‘zgarishsiz qoldirgan. Masnu’ to‘rtlikdagi so‘zlarning lug‘aviy hamda badiiy ma’nolari ham manzarni vasfini to‘laqonli idrok qilishga safarbar etilgan: ma’shuqaning tishlari misoli dursifat oppoq va yaltiroq, lablari esa marjondek, qaddi-qomati xuddi ochilgan guldek chiroyli, lablari ustidaga mayin tuklar yangi chiqqan rayhondek tekis va xushbo‘y; yuzi jannat xurlarining chehrasi yanglig‘ chiroyli, sochi mushk rangi kabi qora va anbar hidli, so‘zi kishini mast qilguvchi sharobga monand, mengi, ya’ni labi ustidagi xoli e’tiborni tortar darajada rang olgan, uni qora ham deb bo‘lmaydi, ko‘kka tovin, ko‘k esa kishining jon taslim qilayotgan jasadiga kuch-u quvvat bag‘ishlaydi. Albatta, keltirganimiz sharh nisbiy. Boburning ushbu masnu’sidan ma’shuqa vasfining turli jihatlarini topish mumkin. Ma’shuqa surati va siyrati, uning takrorlanmas go‘zalligini bilish uchun esa ilohiy bir ma’rifat kerak, masnu’ she’r zamiriga yashiringan uxroviy ma’noni tushunib yetish zarur.

Shoir Furqatning peyzaj lirikasida ajoyib bir g‘azal mavjud - shartli ravishda “Fasli navbahor o‘ldi” deyiladi. Bu g‘azalning mavzusi va tasvir yo‘nalishi Amiriy zamonlariga borib taqaladi. Fazliy, Amiriy, Xotif, Ado singari shoirlar ham shu mazmun va shaklda g‘azallar bitganlar. Furqatniki, yengilroq qaralsa, ana shu g‘azalga tatabbu’. Biroq ma’nida Furqat hammasidan ilgarilab ketgandek taassurot uyg‘otadi. G‘azalning matla’si bunday:

Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,

Do‘stlar g‘animatdur, sayr eting gulistonlar. [1960, 198]

Zohiran e’tibor qilinsa, gap tabiatdagi o‘zgarishlar — zimiston (qish) o‘z o‘rnini bahorga bo‘shatib berayotganligi, bahor ham o‘tkinchi, qisqa fursatda o‘tib ketadi, shuning uchun gulistonlarni sayr etib qoling, deganday odatiy chaqiriq bayt mazmuniga singdirilganday. Aslida shundaymikan? Mayli, shunday ham deylik. Lekin ko‘ngil to‘ladimi? Aslo! Bayt mazmunida Insonning bu yorug‘ dunyoga nima uchun kelganligi, bolalik davri (zimiston) tugab, navqironlik, yoshlik, umrni, uning navqironlik davrini qadrlashga yetganligi (fasli navbahor), shuning uchun berilgan g‘animat umrni risoladagidek o‘tkazishga, Allohni tanish, Uning ma’rifatini egallab, o‘zligini anglashga sa’y qilishi lozimligi uqtirilmayaptimikan!? Axir, Allohning Insonga ato etgan umrni sevis, uning qadriga yetish, dunyoning chiroyi va maftunkorligiga uchib, unga aldanmaslik necha zamonlardan buyon nosehlar tomonidan uqtirib kelinadi-ku! Hazrat Navoiy tomonidan bejiz “Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz”, deyilmagan-ku! Darhaqiqat, bu dunyo aldamchi - Insonni xuddi o‘n besh kunlik kelinchakdek o‘ziga maftun etadi, yuragida fitnalar uyg‘otadi, Yaratgan buyurgandek yashashdan chalg‘itadi. Buni g‘azalning keyingi baytlari ham dalillaydi:

Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam yog‘di abri naysonlar. [1960, 198]

“Subhidam” -tong, tunning eng oxir nuqtasi, demakki, kunning ibtidosi; Kun esa insonning butun umri. Kunning sabzalari (ko‘m-ko‘k maysalari) umrning yoshlik bilan bog‘liq bosqichlari. Tong chog‘i shabnam tushishi naqadar go‘zallik: bahor bulutlari bahoriy yomg‘irlarni yog‘ishi, gullardan tomayotgan tomchilar xuddi shabnamdek mavjud go‘zallikka yanada chiroy baxsh etadi.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o‘zni,

Nargis ochubon ko‘zni intizori yoronlar. [1960, 198]

Bu bayt o'zidan oldingi baytning mantiqiy davomi. Shoir tevarak-atrof go'zalligiga yana urg'u bermoqda. Dunyo yanada chiroy ochib, Insonni chalg'ityapti: nastaran guli yuzini yuvib, yosuman pardoz-andoz qilib, sochlarini tarab, "g'ozadan yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang" (Furqatning satri) bo'lib, nargis ohu ko'zlaridek ko'zlarini yumib-ochib, Insonni o'ziga chorlayapti; uni ma'rifatdan chalg'itishga, zohiriy go'zalliklar orqali aldashga harakat qilyapti. Bunga aldanish oson. Nechukkim, zohiriy, yolg'on dunyoga aldanish Insonning qonida bor. Biroq Furqatning lirik qahramoni bunday emas. Keyingi baytlarda ham o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan mo'l oziqlanib, takrorlanmas timsollar olamini yaratadi. Natijada asarning badiiy tili nafaqat bahorning manzarasi xususida kommunikativ ma'lumot beradi, balki g'azaldagi har bir so'z, har bir kalima nafosat-u fasohati bilan, estetik quvvati bilan takrorlanmas ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy tilning o'z so'z arsenali mavjud. Bu qatlam denotativ (o'z) ma'noda bo'lmay, asosan konnotativ (ko'chma, baholash) ma'noda keladi hamda muallifning badiiy niyatini yuzaga chiqarar o'laroq, she'rda estetik fonni yuzaga keltiradi. Bularni ishimiz uchun asosiy ob'ekt bo'lgan ramziy hamda so'fiyona asarlardan olingan iqtiboslar orqali ko'zdan kechiraylik:

a) sinonimlar: bu toifaga kiradigan lug'aviy birliklarning shakllari turlicha bo'lib, biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo'lgan; biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin emas-u, biroq kontekstda ishlatib bo'ladigan, uslub talabi bilan biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mutlaqo to'g'ri kelmaydigan til birliklariga ajralib ketadigan ma'nodosh leksemalardir. Masalan, So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin"da dominant "odam" bo'lgan sinonimik qatordagi "kishi", "inson", "bashar", "qul", "banda" singari turli konnotatsiyalarga ega bo'ladigan so'zlarni qo'llaydi. Adashgan kimsalarga nisbatan matn mazmunidan kelib chiqib, "aqli piyoda" "ahli ko'toh", "mag'zi yo'q bosh" kabi ko'plab metaforik birikmalar ham shu so'z o'rnida kelgan. "Jannat" teonimi o'rnida "bihisht", "firdavs", "bog'i jinon" "ujmoh", "rizvon"; "do'zax" so'zi bilan bir qatorda "jahannam", "jahim", "tamug'" "saqar", "nor" kabi so'zlar istifoda qilingan. Eng muhimi, sinonimik qatordagi har bir so'z matn (bayt, misra, fragment) mazmuniga monand istifoda etilgan. So'zni qo'llashda biror o'rinda matn mazmunidan chekinish hollari sezilmaydi. Masalan, "tamom" leksemasi "hamma" so'zi dominant bo'lgan sinonimik qatorga kirmaydi. Biroq So'fi Olloyor matnida shu sinonimik qator doirasida ishlatgan: So'rar tongla tamom a'zolaringdin. (2018, 104) Huvaydoning "Rohati dil" manzumasining til arsenalida ham shunday.

b) antonimlar: zid ma'noli juftliklar ham zikri borayotgan asarda obraz yaratish, timsollar mohiyatini yoritish va ta'sirchanlikni oshirish muddaosiga yo'naltirilgan: Agarchi zohiru botin desa dars; [2018, 14] Boshing ko'b yuqori qilma, egilg'il; [2018, 17] Ichursa zahr, ani bilmak kerak shahd; [2018, 23] Agar bo'lsun desang yengil og'irlar; [2018, 23] Erur rahmatdin ayrilg'on qabohat; [2018, 24]

d) omonimlar: ta'bir joiz bo'lsa, "Sabot ul-ojizin"da omonim so'zlar nihoyatda ko'p ishlatilgan. Buning sabablari ko'p, bizningcha. Muallif o'zbek tilida shakldosh so'zlarning boshqa tillarga qaraganda ko'p ekanligi hamda o'quvchini muayyan masalaga diqqatini jalb etish va xayolini sochilmasligini nazarda tutib, shakldosh so'zlarga anchayin ko'p o'rin bergan. She'rshunoslikda tajnis atalmish shakldoshlik baytlarga alohida ta'sirchan kuch bergan. Kitobdagi ayrim baytlarga nazar tashlansa, to'liq omonimlar, omafon, omaformalarni ko'rish mumkin. Bir necha baytni keltiraylik: Agar tosh chaynasa, eldin chiqib tosh, Kishiga egmagay himmatli qul bosh. (2018, 53) Ya'ni: himmat-u g'ayratga ega odam, garchi eldan tashqari chiqib, tosh chaynasa ham bandaga boshini egmagay, tama' qilmagay. Bu o'rinda ikkala "tosh" so'zi tajnisni hosil qilib, tom ma'nodagi "tosh"ni hamda "tashqari" lafzi bildirgan ma'niga ishora qilmoqda; Ta'ma qilma toparg'a zar nigorin, Bu zar mehri buzar dinning hisorin. (2018, 53) Ya'ni: oltin-u kumush mahbubingga aylanib, uni qo'lga kiritaman deya tama' qilma. Chunki bu zar, bu dunyo mehri din qal'asini buzadi. Masnaviy baytda ikki o'rinda kelgan metaforaning ("zar nigorin" va "bu zar") ikkinchisi, ikkinchi misradagi "buzar" fe'li bilan tajnisi tomni yuzaga keltirgan; Arig' jisming agar bo'lsin desang sog', Sanoch og'zin san och, (2018, 67) albatta, kamroq yoki: Yegil kam kecha turmoqdin yesang g'am, Bo'lur ish kam agar ko'p to'lsa ishkam. (2018, 67)

e) paronimlar: talaffuzi yaqin, biroq yozilishi hamda lug'aviy ma'nosi turlicha bo'lgan so'zlar: Nadam nurin ko'ngildin qilma noyib, Agar toib erursan ketma toyib. Baytda birinchi "toib" so'zi, asli "tav-

ba” bo‘lib, bu o‘rinda “tavba ahli” ma’nosida kelgan. Baytda, modomiki, tavba aholidan ekansan, yana to‘g‘ri yo‘ldan toyib ketma, ma’siyatdan saqlan, deyilmoqda. (2018, 65) Yoki: “Oting chiqdi ibodat ahli xalqa, Egurdin halqa, shubha solma halqa”. (2018, 100)

f) metaforalar: o‘xshatishning murakkab bir turi bo‘lib, unda o‘xshatish vositalari bo‘lmaydi. She’rshunoslikda istiora deb yuritiladi. Metaforada so‘z tamomila ko‘chma ma’noda ishlatiladi. “Sabot...”dan uch-to‘rt bayt olaylik: “Agar Fag‘furi Chindur, Qaysari Rum, Muhabbat ahlini oldida ma’dum”, “Muhabbat jomidin topsa kishi bahr, Na qilsun mulki moli Movarounnahr”, “Ko‘ngil mulkiga bir oliy sifatdur, Muhabbat ganji bog‘i ma’rifatdur”, “Xaridor ul erur juz niyati fard, Ko‘ngil ko‘nglakiga yuqtirmagay gard” (2018, 104)va h.

g) o‘xshatishlar: o‘xshatishda bir predmetni ikkinchi bir predmetga nisbatlash-qiyoslash bo‘lib, bu konstruktsiya tabiiy ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi. Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi. O‘xshatishlar o‘xshayotgan ashyo ifodasi tarkibidagi —dek, -day, kabi, yanglig‘, singari, misli, o‘xshash, monandi kabi qo‘shimcha va ko‘makchi so‘zlar vositasida yuzaga keladi: qizil guldek yuzi. Bu o‘rinda o‘xshatishning to‘rtala talabi ham mujassam: a) mushabbah — o‘xshatilayotgan narsa (yuz), o‘xshayotgan ashyo (qizil gul), o‘xshatish vositasi (-dek), o‘xshatish sababi. Sharq mumtoz poetikasida bular mushabbah, mushabbahi bihi, odoti tashbeh, va jhi shaboh deb yuritiladi. Huvaydo “Rohati dil”da o‘xshatishlardan samarali foydalangan: “Oqizib jola yanglig‘ obi diyda Alam tortib bag‘oyat yig‘lar erdi, Terak yafrog‘i yanglig‘ titrar erdi” (1994, 81), “Yuzi erur qizil guldek, tozasitek” (1994, 91), “Ko‘zi o‘ynab turar misli g‘azole” (1994, 90), “Tutuq aylab samodin yerga ul nur, Yetar ul qabrg‘a monandi yamg‘ur” (1994, 53) va hakozi.

h) ramzlar: ramz (simvol)da bir so‘z ko‘chma ma’noda boshqa maqsadda, bir o‘xshatish ma’nosida istifoda qilinadi. Ramz (simvol) - grekcha “symbolon” so‘zidan olingan bo‘lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a’zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo‘llanilgan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo‘lib, aniq tasavvur etish qiyin bo‘lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko‘z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Misol uchun ayyorlikni ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Lekin tulkinning juda ayyor jonivor ekanligi ma’lum va uni ko‘rsa bo‘ladi. Shu bois badiiy adabiyotda tulki ayyorlik ramzi sifatida qabul etilgan. Burgut, arslon, ohu, bulbul, tuya va xokazo jonivorlarning timsollarini ham ramziy ma’noda qo‘llash mumkin. Masalan, Cho‘lpon “binafsha” so‘zida oyoqlar ostida toptalgan butun bir xalq timsolini yaratgan. Nishotiyning “Husn va Dil” masnaviysida biror bir timsol yoki manzil yo‘qki, ular ramziy ma’noga ega bo‘lmasin.

i) uyadosh so‘zlar: bir mazmuniy doiraga kiruvchi so‘zlar uyadoshlikni hosil qiladi. “Rohati dil”da o‘qiymiz: Xudog‘a qul, Muhammad ummatisen, Qiyomat kun umidi shafqatisen. (1994, 72) Bular — ilohiyot uyasiga mansub so‘zlar; ular vositasida muallif kishini hushyorlikka, gunohga yetaklovchi ishlar qilmaslikka chaqirmoqda. Yoki “Sabot...”da: Quloq, ko‘zdin, qo‘lingdin, polaringdin So‘rar tongla tamom a’zolarindin. (2018, 104)

k) takrorlar: “Nabining amriga qilsang itoat, Saodatdur, saodatdur, saodat” (2018, 59), “Yetar oxir tavakkul aylagan qul, Tavakkul qil, Tavakkul qil, tavakkul. (2018, 93) “Kishi sanchiq so‘z aytsa, san chiq ondin, Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin”. (2018, 104) Takrorlar ba’zan misra boshida, o‘rtasida, oxirida kelib ham estetik fonni yaratishga bo‘ysundirilgan o‘rinlar ham zikr etilgan kitoblarda talaygina uchraydi.

l) Zikr etilayotgan kitoblarda aforizmlashgan misralar ham borki, bular ham badiiy til hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. “Sabot ul-ojizin”dagi mana bu baytlarda aforizm tamsil asosiga qurilgan bo‘lib, baytning ta’sir quvvatini oshirgan: “Hama a’zo raiyatdur, ko‘ngul — shoh, Omonliq bo‘lg‘usi shoh adlidin roh” (2018, 111) yoki “Kulib mehmon oldig‘a chiqg‘il, ey qul, Shajar mevadin oldin ko‘rsatur gul”. (2018, 117)

Badiiy tilni yuza keltiruvchi vositalar shular bilangina kifoyalanmaydi. Maqollar, metonimiya, sinekdoxa, graduonimiya, partonimiya, sinesteziya, izofa, idioma va boshqa vositalar ham badiiy tilning ta'minot manbalari hisoblanadi. So'z yoki birikma, gap, matn aytilganlar shaklida namoyon bo'lar ekan, shubhasiz, badiiylilik yuzaga keladi va o'quvchiga mumkin qadar estetik ta'sir ko'rsatish maqomini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, 4-jild. Favoyid ul-kibar - T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011. - B. 20.
2. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. - Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2015. — B. 56.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - T.: Fan, 2008. — B. 27.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va tilning estetik vazifasi// Filologiya masalalari. № 2 (11). 2006. — B. 48-51.
5. Gorelkova M.I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. — M.: Russkiy yazik, 1989. — B. 5.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. - T.: Sharq, 1996. - B. 74.
7. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. -T.: Ma'naviyat, 2008. - B. 41-42.
8. Rashid Zohid. Ravoyihur rayhon. So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin" sharhi. -T.: Sharq, 2018. - B. 104.
9. Xo'janazar Huvaydo. Rohati dil. —T.: A.Qodiriy nom, xalq merosi nash, 1994. - B. 81.
10. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. I jild, (Tuzuvchilar prof. M.Rahmon, H.Boltaboyev). — T.: Fan. 2003. — B. 204.
11. Furqat. Tanlangan asarlar. II tomlik, I tom. —T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. - B. 198.

SIYOSIY NUTQ DISKURSIV AMALIYOTNING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Elbek Ro'ziyev,
Termiz davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy lingvistikada diskurs tushunchasi, uning ma'nosi hamda ifoda xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan. Lingvistik diskursning alohida turi hisoblangan siyosiy diskurs borasida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy tilshunoslik, siyosiy lingvistika, siyosiy nutq, diskurs

Bugungi kun tilshunosligida alohida tarmoq sifatida shakllanib borayotgan diskurs, zamonaviy antroposentrik nazariyalar, pragmatik yondashuvlar asosida o'rganilayotgan tadqiqotlarda asosiy predmet vazifasini bajarmoqda. Jahon mamlakatlari o'rtasidagi integratsion munosabatlar, faol va samarali siyosiy muloqotni shakllantirish vazifasini muhim qilib qo'yimoqda. Davr taqozosiga ko'ra jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan va mukammallashib borayotgan siyosat sohasi hamda ular tilidagi o'zgarishlar, xususan, shunga bog'liq holda tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, siyosiy lingvistika borasidagi tadqiqotlarni kuchaytirish lozim ekanligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mohiyatini anglash asnosida davlat tili, yuridik-huquqiy hamda siyosat tilining xususiyatlarini tadqiq etish tilshunoslik oldiga muhim tadqiqotlarni olib borish zaruriyatini belgilaydi.

Jamiyatning demokratlashuvi va ijtimoiy ong hamda tafakkurning taraqqiyoti natijasi jamiyatni boshqaruvchi rahbar shaxslar nutqini ham tadqiq etish dolzarbligini ifodalamoqda. Shu asosda tilshunoslikda yangi soha — siyosiy lingvistika, siyosiy tilshunoslik sohasi yuzaga keladi. Siyosiy lingvistika hozirgi zamon tilshunosligida faol sohalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bakalavriat, magistratura dasturlarida "Siyosiy lingvistika" alohida fan sifatida ham o'rgatilm-

oqda [5]. Uning fan sifatida obyekti, predmeti ishlab chiqildi. Siyosiy lingvistikada asosiy e’tibor siyosiy til, siyosiy kommunikatsiya va diskurslarning muhim xususiyatlarini tadqiq etishga qaratiladi. Shuningdek, siyosiy lingvistikada mafkuraviy g‘oyalarning siyosiy matnda ifodalanishining eng muhim metodlari, ularning ilmiy mazmuni tahlil etiladi. Siyosiy lingvistika va lingvopolitologiya atamalarini bir ma’noda qo‘llash holatlari ko‘p uchraydi. Siyosiy tilshunoslikda nafaqat uning asl holatini, balki unga yondosh bo‘lgan jarayonlarni o‘rganishga oid yondashuvlar ham mavjudki, bu xususan, siyosiy metofoforani o‘rganish, kognitiv lingvistika doirasida perlokutiv ta’sir o‘tkazishni belgilash kabi. Ba’zan lingvopolitologiya atamasi xuddi shu yo‘nalishga ishora qilish uchun ishlatiladi. Biroq, ayrim tadqiqotchi-olimlar, siyosiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarning mazmunan xilma-xilligini inobatga olgan holda, “lingvopolitologiya” atamasini siyosatshunoslik uchun muhimroq bo‘lgan sohalar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlab o‘tadi [Борисова, 2015:29].

Diskurs atamasining asl lug‘aviy ma’nosi lotin tilidan (discursus so‘zidan) kirib kelgan bo‘lib, “harakat“, “aylanish“, “suhbat“, “muloqot“ degan ma’nolarni anglatadi. “Diskurs” lingvistik termin sifatida birinchi marta 1952-yilda amerikalik olim Z.Harrisning “Discourse analysis” kitobida keltirilgan [Harris, 1952:16]. Diskurs atamasiga lingvistik lug‘atlarda ham turlicha izohlar keltirib o‘tilganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, T.Jerebilo tomonidan yozilgan “Lingvistik terminlar lug‘ati”da diskurs terminiga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Discourse (nemischa diskurs, fransuzcha diskurs, inglizcha discourse) ikki xil ma’noni ifodlashi belgilangan: 1) asl ma’no - oqilona fikrlash. 2) Keyin bu atama dialog ma’nosida qo‘llanila boshlandi [Жеребило, 2010:94].

Ingliz olimlarning asarlarida diskurs atamasining ma’nosi dastlab izchil matn sifatida berilgan bo‘lsa, undan keyin matnning og‘zaki-so‘zlashuv shakli, dialog, ma’no jihatdan bir-biriga bog‘langan gaplar guruhi kabi ma’nolarni ifodalagan.

Siyosiy diskurs har doim siyosiy tizimning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Siyosiy diskursda vo-sitalar va usullar bilan ifodalangan xalqchillik ruhi kuchli bo‘ladi. Bu siyosiy diskursning oldiga qo‘ygan maqsadlariga mutanosib ravishda vazifalariga bog‘liq bo‘ladi. Negaki, xalq ruhiyatiga hamda tiliga mos so‘zlar va iboralar auditoriyani o‘ziga jalb qila oladi. Siyosiy nutq institutsional aloqa sifatida talqin etilib, shaxsga yo‘naltirilganidan nutqdan farqli o‘laroq, u ma’lum bir professional yo‘naltirilgan belgilar tizimidan ya’ni lug‘at, frazeologiya va paremiologiyadan foydalanadi.

XX-asrning 90- yillari o‘talariga kelib ushbu yo‘nalishda bir qator diqqatga sazovor ishlar paydo bo‘ldi (Altunyan, Proskuryakov, E. Sheygal, V.Deyk kabi olimlar). Aynan mana shu tadqiqotlar siyosiy lingvistikaning keyingi taraqqiyotida katta o‘zgarishlarni olib keldi. 2003-yili bu fan bo‘yicha rus tilidagi ilk qo‘llanma — A.P.Chudinovning “Siyosiy lingvistika” kitobi yozilgan. Bundan keyin E.V.Budayev boshchiligidagi hammualliflar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi [Будяев, 2011]. Siyosiy lingvistika bo‘yicha mavjud ilmiy ishlar orasida E.I.Sheygalning “Siyosiy diskurs semiotikasi” nomli dissertatsiyasi muhim o‘ringa ega hisoblanadi [Шейгал, 2005].

Siyosiy nutq tushunchasi haqida fikrimizni davom ettirar ekanmiz, siyosiy-rasmiy diplomatik nutq haqida professor Q.Sodiqov izohlarini berib o‘tsak: Siyosiy, rasmiy-diplomatik nutq deganda xoqonlar, xonlar, sultonlar, davlat arboblarning el-ulusga qarata aytgan so‘zlari, rasmiy murojaati, yorlig‘i, hukumat idoralariga ko‘rsatmalari, turli yurt egalari bilan o‘zaro yozma muloqoti anglashiladi[Sodiqov,2022:524]. Bundan ham anglashimiz mumkinki, til tarixida rasmiy murojaat matnlari, yorliqlarni, hukmdor tomonidan yuborilgan elchilik yozishmalarini ham siyosiy nutqqa kiritishimiz mumkin.

Bu jihatdagi tasnif diaxron holatda siyosiy nutqni o‘rganishda muhim ekanligini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, siyosiy nutqning tarixiy ko‘rinish shaklini bugungi kunimida faqat manbalar asosida o‘rganish mumkin. Shu bilan manbalarda ifodalangan o‘zaro muloqot nutqini agarda u siyosiy doiraga aloqador bo‘lsa, uni siyosiy nutqning og‘zaki ko‘rinishi sifatida belgilasak, bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, siyosiy nutq, turkiy rasmiy uslubning, davlat hujjatchiligi, diplomatikaning shakllanishi va takomili bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ulus egalari nomidan bitilgan qadimiy bitigtoshlar, tarix kito-blari, yorliqlar, buyruq va ko‘rsatmalar, xonlar o‘rtasidagi rasmiy yozishmalar, vasiqalarda tamg‘alanib qolgan. Ushbu hujjatlar til tarixining turli bosqichlarida amal qilgan siyosiy, rasmiy-diplomatik nutq,

uning o'ziga yarasha belgilarini o'rganishda muhim manbalar bo'lib xizmat qiladi; rasmiy muloqotning lingvokulturologik, etik-estetik, xalqaro-diplomatik o'lchovlarini aks ettiradi[Sodiqov, 2022:524].

Muxtasar tarzda fikrimizni xulosa qiladigan bo'lsak, siyosiy diskurs murakkab o'rganish obyekti, chunki u turli fanlar - siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya, tilshunoslik chorrahasida joylashgan va muayyan siyosiy vaziyatlarda qo'llaniladigan nutqning shakli, vazifalari va mazmunini tahlil qilish bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harris Z.S. Discourse Analysis: Reprints. "Papers on Formal Linguistics". — The Hague, 1952.
2. Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр.и доп. — Назрань: ООО "Пилигрим", 2010.
3. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. — Toshkent: Akademnashr, 2022.
4. Будаев Э.В., Ворошилова М.Б., Дзюба Е.В., Красильникова Н.А.; отв. ред. А.П.Чудинов; Современная политическая лингвистика: учебное пособие / Урал. гос. пед. ун-т. -Екатеринбург, 2011. -252 с.
5. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса . Дис...д-ра филол. наук: 10.02.01 10.02.19 - М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки, [Электронный ресурс]).
6. Борисова Е.Г. Политическая лингвистика или лингвополитология? Политическая лингвистика: проблематика, методология, аспекты исследования и перспективы развития научного направления: материалы междунар. науч. конф.(Екатеринбург, 27.11.2015)
7. <https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/19970.pdf>

TILSHUNOSLIKDA TOLERANTLIK KENG TUSHUNCHA SIFATIDA VA UNING TALQINI

Gavharoy Yormatova,
FarDU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola "Tolerantlik" tushunchasining kommunikativ jihatlarini verballashuvini ya'ni tilga ko'chishi-ni yoritishni maqsad qiladi. Tolerantlik turli jamiyatlarda turlicha qarashlar va madaniyatlarni tushunishga yordam beradi va u turlicha ko'rinishlarda namoyon boladi,ushbu maqolada bu tushuncha batafsil yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Tolerantlik, verballashuv, pragmatika, matn, sotsiolingvistika, sotsial psixologiya.

Tolerantlik tushunchasi kommunikatsiya davomida ko'p millatli jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro ishonch va hurmat-millatlararo hamjihatlikning poydevori, mamlakatdagi xalqlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Millat va elatlarning bag'rikengligi, o'zaro hurmati — jamiyat madaniyatlik darajasining ko'rsatkichi, davlatdagi millatlararo totuvlikning asosi va shu bilan birga kelgusidagi muvaffaqiyatli rivojlanishning eng muhim sharti hamdir. Tolerantlik tushunchasi ingliz olimi P.Medavar tomonidan ilmiy hamjamiyatga 1953 -yilda ko'chirib o'tkazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun tizimining chidamliligini ifodalash maqsadida taklif etilgan.

Falsafada qomusiy lug'atda tolerantlik chidam va sabr-toqat sifatida talqin etiladi. Shuningdek, bu tushunchani bag'rikenglik bilan bog'lab, "o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli, chidamli bo'lish, bir-biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishidir. Biron bir insonda yoki biron bir begona madaniyatda bizga nimadizr yoqmasligi mumkin, biroq ular o'zgalarning huquq va manfaatlariga ziyon etkazmasa, joriy qonunlarni buzmasa ularning mavjudligi va rivojlanishini tan olishimiz kerak".

Shunday ekan, tolerantlik o‘zgalarning xatti-xarakati va fikr mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga toqatli, chidamli va kengfe‘llik bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. O‘zgalarning fikriga, mulohazalariga va e‘tiqodlariga tabiiy ravishda bo‘ysunishni anglatmaydi. Ijtimoiy ishga oid ensiklopedik lug‘atda tolerantlikni boshqalarning madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarini tan olish, qadrlash va hurmat qilish, ularga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish sifatida ta’riflanadi³

Zero, tolerantlik tushunchasi o‘z tarkibiga chidam, bardosh, o‘zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olgan.

Tolerantlik — hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy adabiyotlardagi eng ommabop terminlardan biri. Tolerantlikni aniqlash va uni tatqiq qilishda ko‘pgina ijtimoiy yondashuvlar mavjud, biroq bu tushunchaning to‘liq psixologik ta’rifi mavjud emas. Hozirgi kunda tolerantlikni psixologik muammo sifatida tadqiq qilinishi dastlabki bosqichni boshdan kechirmoqda. Yo‘nalganligiga ko‘ra tolerantlikni quyida turlarga farqlash mumkin:

Tashqi tolerantlik (boshqalarga nisbatan) — shaxsga atrofdagilarning ham shaxsiy qarashlari borligini eslatib turuvchi, shakllangan fikr. Tashqi tolerantlik nizoli vaziyatlarni turli nuqtai nazarlar orqali, boshqa aspekt va argumentlarni hisobga olgan holda ko‘rish imkonini beradi. Ichki tolerantlik (ichki barqarorlik) — nizoli vaziyatlarda muvozanatni tutib tura olish, qaror qabul qilib unga amal qilish qobiliyatidir.

Tolerantlik muloqotda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Dunyodagi barcha narsalarning turlicha ekanligini tushuntirish va muloqot jarayonida buni inobatga olish, shunga binoan javob qaytarish;
2. Millatlarni irqi, dini, hayot tarzi har xil ekanligini tushunish va birovlarini til muloqoti davomida kamsitmaslik;
3. Millatlar bir-biridan farq qilishini tushunish va har kimning madaniyatiga mos tarzda javob qaytarish;
4. Kishilardagi o‘zgachalikka bag‘rikenglik va sabr bilan munosabatda bo‘lish;
5. Bag‘rikenglik, sabrlik, chidamlilik kabi xususiyatlarni muloqotda e‘tiborga olish.

Hozirgi kunga kelib, bag‘rikenglik ijtimoiy munosabatlarning yangi toifasi deya talqin etilmoqda. Bag‘rikenglik hodisasining noyob mohiyati uning fanlararo xususiyatidan iborat bo‘lib, u shuning uchun ham aksariyat gumanitar fanlar tomonidan o‘rganilmoqda. Garchi bag‘rikenglik voqeligini o‘rganish sohasida ayrim natijalarga erishilgan bo‘lsa harn, bu tushunchaning ilmiy kategoriya sifatida amaliy yo‘nalish mohiyati haligacha aniq ta’riflab berilgan emas.

Tolerantlik so‘zi lotincha (tolerantia) so‘zidan olingan bo‘lib, sabr-toqat ma’nosini bildiradi. Bag‘rikenglikning ma’no va mohiyati turli xalqlarda bir-biriga o‘xshash tarzda talqin etiladi. Masalan, ispan tilida - o‘z g‘oyalardan farqlanuvchi fikrni tan olish usuli; fransuzchada - o‘zgalar sendan ko‘ra boshqacharoq o‘ylashlari yoki harakat qilishlari mumkinligiga yo‘l qo‘yish; inglizchada -sabr-toqatli, iltifotli bo‘lish; xitoychada - boshqalarga nisbatan kechiruvchan, muruvvatli, oliyjanob bo‘lish; arabchada - kechirimli, marhamatli, yumshoq, muruvvatli, rahmli, oliyjanob, sabrli bo‘lish; ruschada - nimagadir yoki kimgadir nisbatan sabrli bo‘lish, og‘ir-vazmin, chidamli bo‘lish; nimagadir yoki kimgadir toqat qilish, o‘zgalarning fikri bilan hisoblashish, iltifotli bo‘lish; o‘zbekchada - boshqalarga nisbatan bag‘ri ochiqlik, o‘zgalarning turmush tarziga, fe‘l-atvoriga, urf-odatlariga, his-tuyg‘ulari, fikrmuzohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga muruvvatli bo‘lish va h.k. ma’nolarni bildiradi. Fandagi tasniflashga binoan tolerantlikning 12 ta tipi: gender, yosfc, ma’lumot, millatlararo, irqiy, diniy, jug‘rofiy, sinflararo, fiziologik, siyosiy, seksual-yo‘nalishli, marginal tiplari mavjud. Hozirgi globallashuv sharoitida bag‘rikenglikni madaniy taraqqiyotning zarur sharti deb bilmoq kerak. Insoniyat tarixida murosasizlik hamisha mavjud bo‘lib, urushiarga sabab bo‘lgan. Diniy ta’qiblar va g‘oyaviy ziddiyatlar fanatizmga, haqoratlariga, hayot huquqlarini buzishga olib borgan. Ana shunday sharoitda xalqni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash doimo zarur bo‘lgan.

Globallashuv tolerantlik muammosiga yangi sifat va o‘tkirlik baxsh etadi. Olimlarning ta’kidlashicha, turli madaniyatlar, dinlar, sivilizatsiyalar avval ham o‘zaro muloqotda bo‘lgan, ayrim vaqtda ko‘pin-

cha keskin adovat va murosasizlik ro'y berib turgan. Ammo bularning asosiy manbalari hududiy jihatdan bolingan, bir-biridan ajratilgan holatda bo'lgan. Endilikda migratsiya oqimlari mavjud to'siqlardan oshib o'tmoqda, turli madaniyat va turmush tarzlarini jahon maydonidagi yagona makonga jipslashtirmoqda. Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning bir-biriga singib boruvchi tig'iz tarmog'i vujudga kelmoqda. Ana shunday sharoitdagi notolerantlik keskinlikni kuchaytirib, milliy darajada ham, jahon darajasida ham ijtimoiy tuzumlarning hayot faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda. Tolerantlik qobiliyati o'zga tomonning barcha fikr-mulohazalari va dalil-isbotlarini tinglash, ularni puxta mushohada qilish, o'zga tomonning nuqtai nazariga xolisona yondashish, uning yondoshuvidagi zaif va kuchli jihatiarini aniqlash, so'ngra shunga muvofiq ravishda o'z nuqtai nazari va taktikasiga tuzatish kiritish imkonini beradi. Mazmun nuqtai nazaridan olganda esa "tolerantlik" tushunchasi bilan "notolerantlik" yoki "intolerantlik" tushunchasining munosabati o'ziga xos xususiyatga egadir, chunki "tolerantlik" hamisha muayyan obyektga (obyektlarga) nisbatan kechinmalar, fikr-o'ylar va harakatlarning birmuncha cheklanishi mavjudligini nazarda tutadi; bu cheklanishning ma'nosi va yo'nalishi esa mavhumligicha qolaveradi.

Xullas, tolerantlikning mohiyatini har kim har xil tushunadi, ba'zilar uni asosan sabr-toqat deb tushunsa, boshqalar insoniyatning birligi, boshqalar huquqini hurmat qilish va boshqacha bo'lish huquqi deb tushunadi, yana boshqalar esa tolerantlikni jazavalarga, nomuayyanlik vaziyatiga, mojaro vaziyatiga chidamlilik deb tushunadilar. Ta'lim sohasidagi bag'rikenglik haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu masalada pedagogika jarayonini aniq maqsadni ko'zlab, asosli ravishda qayta qurish, chunonchi, ta'limning mazmuni, tarbiyaviy vositalari va o'quv usullarini puxta o'ylab tanlash, o'quvchi va talabalarning darsdagi va darsdan tashqari mashg'ulotlarini nihoyatda puxta o'ylab yo'lga qo'yish, awalo, bag'rikenglikni yoshlar ongiga singdirish uslubini chuqur ishlab chiqish kerak bo'ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, yoshlar ongida yangicha qadriyat tushunchasini shakllantirish ko'p jihatdan ta'lim tizimi qanday tashkil etilishiga bog'liq ekanligini unutmashlik kerak. Binobarin, O'zbekistonning barcha ta'lim muassasalarida yoshlarni ezigulik, adolat, demokratiya qadriyatlarini ruhida tarbiyalashga, ularni mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik, ijtimoiy faollik, xilma-xil axborotlardan to'g'risini tanlash va ularni tanqidiy baholashga, bilimlarning yangi-yangi sohalarini o'rganishga ishtiyoqmand qilib voyaga yetkazishga alohida e'tibor berilishi talab qilinadi.

Kishilarining mentaliteti, binobarin, umuman jamiyatning muttasil rivojlanishi insonparvarlikni modernizatsiyalash muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Shunday qilib, bag'rikenglik jamiyat turmushining barcha jabhalarida namoyon bo'ladigan jahon va mintaqa miqyosida ham, milliy miqyosda ham bo'rtib ko'rinadigan haqiqatga aylanmog'i oliy maqsad bo'lib hisoblanadi. Bag'rikenglikni zamonaviy jamiyat hayotining universal qadriyatlaridan biriga aylantirish, jahon miqyosidagi tamoyillarni kuchaytirish va milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish hayotiy konsepsiyamizning bosh maqsadiga aylanmog'i lozim.

Agar masalaga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, biz yashab turgan davrda bag'rikenglik, keng ma'noda olganda, umuman, jahondagi ilg'or tajriba zamiridagi umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini va madaniy xalqlar milliy turmushidagi yaxshi an'analarni davom ettirib, rivojlantirish barobarida o'zaro hurmat, birdamlik va hamnafaslikka zamin yaratadi.

Xullas, globallashtirish sharoitida sivilizatsiya zamirida orttirilgan va milliy madaniyatlar zaminida rivojlanib borayotgan umumbashariy qadriyatlar yuksak samarali kommunikatsion dunyoqarash texnologiyasiga aylanib, zulmsizlikni zamonaviy insonlarning kundalik turmush tarziga, jamiyat va davlatlarning hayot faoliyatiga aylantirmoqda. Kishilar orasida zamonaviy bag'rikenglik mavzusi chinakam fuqarolik jamiyati qurilganidan keyin haqiqiy maqomga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan bag'rikenglikni jamiyatda mustahkam totuvlik va barqaror taraqqiyotning pishiq-puxta poydevorini yarata oladigan insoniy ong va fe'l-atvorning tarkibiy qismi deb bilmoq darkor. Mana endi ma'naviy-ijtimoiy fazilat tariqasidagi bag'rikenglik shaxs, millat, jamiyatning qimmatbaho bisotiga aylandi, desa bo'ladi. Bag'rikenglikning mohiyati mazkur atamaning chin mohiyati namoyon bo'lishi bilan yuzaga chiqishini ana shundan bilib olish mumkin. Bag'rikenglik - ko'p ma'noli tushuncha, shu sababli uni falsafiy, tarixiy, adabiy, diniy, siyosiy va shu kabi nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoq kerak. Har qanday holatda ham bag'rikenglik tarbiyasi insonning muayyan sharoitdagi fe'l-atvorini qaror toptirishdan iborat.

Hozirda ko‘p madaniyatli ta’lim makonini vujudga keltirish muammosi ta’limning barcha bosqichlariga tatbiq etilmoqda. Etnik bag‘rikenglikni shakllantirish - miliatlararo mojarolarning oldini olish va bartaraf etishning eng to‘g‘ri yo‘lidir. Bu jarayonda turli madaniyatlarni birlashtiruvchi yagona makonni vujudga keltirishning ahamiyati katta. Buning uchun, avvalo, millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova E. Tolerantlik va hozirgi zamon. J. Falsafa va huquq. — T., 2008. — №3. — B.51
2. Abdurahmonova Z.E. yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari —T.: 2006
3. Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности. — СПб.: Изд-во, СПбГУ, 2005
4. Iskandarov E. Yoshlarda tolerantlikni rivojlantirish — psixologik muammo
5. Sifatida. 2023. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869)

IZOHLI LUG‘ATLARDAGI FARQLI, TAKRORLANMAYDIGAN TAQLID SO‘ZLAR TALQINI

Xurshida Xaydarova,
QarDU tadqiqotchisi,

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2 va 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari” dagi farqli, bir-birida uchramaydigan taqlid so‘zlar tahlil qilingan. Har ikki izohli lug‘at qiyosiy o‘rganilib, takror uchramaydigan taqlid so‘zlar statistik tahlil qilingan, illyustrativ misollar keltirish asosida aniqlik kiritilgan. Mazkur maqola izohli lug‘atlarda taqlid so‘zlarning kiritilishi, yangilanishi, rivojlanishi, farqlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni yaqindan bilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: takrorlanmaydigan taqlid so‘zlar, izoh, takroriy taqlid so‘zlar, illyustrativ misol, ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar, ko‘chma ma’no.

Taqlid so‘zlar o‘zbek tili leksikasi tarkibida muhim o‘rin tutib, tilimizning o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyishiga hissa qo‘shishda alohida ahamiyatga ega. O‘zbek tili leksikasining tarkibiy qismi bo‘lgan taqlidlarning semantik munosabatlarini tadqiq qilish, ularning mazmuniy imkoniyatlarini ochib berish, ma’nolarini aniqlashtirish, boshqa leksemalardan farqli tomonlarini ko‘rsatish, lug‘atlardagi tavsiflarining boyishiga va mukammallashtirishiga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Taqlid so‘zlarning lug‘atlarda qamrab olinish darajasini o‘rganganimizda 2 va 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da ularning berilishi bilan bog‘liq farqli yondashuvlar mavjudligini kuzatdik. Shuningdek, izohli lug‘atlardagi mavjud taqlid so‘zlarni o‘zaro qiyoslab, lug‘atlarda takrorlanmaydigan, bir-birida uchramaydigan taqlid so‘zlarni statistik tahlil qildik. Har bir tilning lug‘at sostavi keng ma’noda shu tilda ishlatiladigan barcha so‘zlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Lug‘at sostavi tilning ahvoli qandayligini, uning xilma-xil so‘zlarga boyligini ko‘rsatadi. Tilning ahvoli lug‘at sostavidagi so‘zlarning miqdori — soni bilangina emas, shu bilan birga, so‘zlarning har xil ma’nolari va ma’no ottentalari bilan ham belgilanadi [Пинхасов, 1969: 43].

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday tilning taraqqiyotida uning eng o‘zgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasi. Til lug‘at sostavida eskirishga qaraganda yangilanish va boyib borish kuchli bo‘ladi. Shu tufayli tilning lug‘at sostavi tarixiy-ijtimoiy ehtiyojlar, jamiyat hayoti ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgarib, boyib boradi. Til lug‘at sostavidagi potentsional imkoniyat, lug‘at sostavining iste’moldagi vositalariga nisbatan miqdori jihatdan ustun turadi. Lug‘at sostavidagi bunday xususiyat undagi so‘z boyligidan nutqiy jarayonda tanlab, bemalol va erkin foydalanish imkonini tug‘diradi [Хожиев, Ахмедов, 1981: 45].

Ma'lumotlarga tayanib, asos sifatida shuni ma'lum qila olamizki, 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da taqlid so'zlarning umumiy miqdori 611 tani 1,01%, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da taqlid so'zlarning umumiy miqdori 547 tani 0,64% tashkil qiladi. 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da mavjud bo'lgan 113 ta taqlid so'z 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da uchramaydi. Shuningdek, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ni o'rganganimizda unda mavjud jami taqlid so'zlarning 33 tasi 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da uchramasligini kuzatdik.

Tahlil va natijalar. 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da mavjud bo'lgan 113 ta taqlid so'zni keltirib o'tamiz. Masalan,

Vag'-vag', viz-viz, vish-vish, vov-vov, gar-gar, guv-guv, guldur-guldur, gur-gur, gurs-gurs, daqir-duqur, ding'-ding', dirk-dirk, jilpang-jilpang, inga-inga, ix, ix-ix, yilt-yilt, lim-lim, liqang-liqang, liq-liq, lov-lov, lop-lop, miyov-miyov, milt-milt, palch, tak-tak, taraq-taraq, taraq-turuq, tars-tars, taq-taq, tiz-tiz, tir, tirs-tirs, tir-tir, to'p-to'p, to'q-to'q, shalop-shalop, shalop-shulup, shalp-shalp, shalp-shulp, shap-shap, sharaqa-shuruq, shart-shart, shar-shar, shaqir-shaqir, shaq-shaq, shivir-kichir, shivir-shivir, shildir-shildir, shilt-shilt, shilq-shilq, ship-ship, shirt-shirt, shir-shir, shirq-shirq, shitir-shitir, shiqir-shiqir, shiq-shiq, sho'lq-sho'lq, yalt-yalt, yarq-yarq, qarr-qarr, qars-qars, qars-qurs, qag'-qag', qag'-qug', qirr-qirr, qix-qix, qur-qur, g'ars, g'ars-g'urs, g'art-g'art, g'arch-g'arch, g'arq-g'urq, g'at-g'at, g'at-g'ut, g'aq-g'aq, g'ag', g'ivir-g'ivir, g'iz-g'iz, g'iyt-g'iyt, g'iyq-g'iyq, g'ilt-g'ilt, g'ilq-g'ilq, g'ing-ping, g'ing-g'ing, g'ir-ra-g'irra, g'irt-g'irt, g'irch-g'irch, g'ichir-g'ichir, g'iq-g'iq, g'ovur-g'ovur, g'ovur-g'uvur, g'uvur-g'uvur, g'udur-budur, g'ujur-g'ujur, g'uj-g'uj, g'uldur-g'uldur, g'ult-g'ult, g'uch-g'uch, g'o'ng-g'o'ng, g'o'rq-g'o'rq, g'o'q-g'o'q, hars-hurs, hiq-hiq [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981] kabi.

Yuqoridagi 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'atlari" ga kiritilmagan misollarning ayrimlariga batafsilroq to'xtalamiz:

GAR-GAR taql.s.: gar-gar kekirmoq 1) ha deb kekiravermoq; 2) ko'chma nafr. Boyligidan, to'qligidan kerilib, gerdayib yurmoq. Mol-dunyo zo'rligidan gar-gar kekirib yurgan In'omjon jinoyat ustida qo'lga tushib, hibsga olindi. "Mushtum", 1963, 16 [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 186].

DAKIR-DUKUR ayn. do'pir-do'pir [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 206].

IX ayn. qix.

IX-IX ix s.takr. Hakimboyvachcha diqqat bilan ichida o'qir ekan, yuziga tabassum yoyildi. O'qib bo'lib ix-ix deb kuldi-da, dadasiga qaradi. Oybek, Qutlug' qon [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 340].

LIQANG-LIQANG ayn. likang-likang. Sabil qolgan shaloq aravamizning Qo'qon aravalaridek liqang-liqang yurishiga ham qancha shodlanamiz. "Mashrab", 1924, 12 [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 432—433]. Besh jildli izohli lug'atda likang-likang so'zi izohlangan, liqang-liqang so'zi esa keltirilmagan.

LIQQA-LIQQA ayn. liq-liq II. Uzunni liqqa-liqqa yutmoq [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 433].

PALCH taql.s. Quyuq narsaning biror joyga tushishidan chiqqan tovush haqida. Daf'ataniga o'rnidan turib.. og'zidagi nosni palch etib yiltirab turgan polga tashladi. I. Qalandarov, Shoxidamas, bargida [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 570].

G'ARS diol. ayn. qars 1.

G'ARS-G'ARS g'ars s.takr [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 653].

G'ARQ-G'ARQ g'arq-g'arq terlamog, sel-sel bo'lib terlamog, terga botmog [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 654].

G'O'RQ-G'O'RQ taql.s. Yopiq idishdagi suvning chayqalishidan chiqqan tovush haqida [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 668].

G'O'Q-G'O'Q Cho'chqa, to'ng'izlar tovushi haqida [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 668].

Yuqorida keltirilgan misollarning ko'pi takroriy taqlid so'zlar hisoblanadi. Ayrimlarining alohida qo'llaniladigan sodda ko'rinishlari 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjud. Taxminimizcha, izohli lug'atlarda so'zlar soni ortib ketishining oldini olish, shuningdek, sodda taqlid so'z ma'nosidan

takroriy qo‘llangandagi ma’nosini anglash osonligi, ularning ma’nosida deyarli katta farq sezilmaganligi sababli alohida so‘z sifatida kiritilmagan. Ayrim taqlid so‘zlarning yuqoridagi takroriy ko‘rinishi so‘z sifatida alohida berilmasa ham, izohli lug‘atlarda sodda taqlid so‘zlar tarkibida illyustrativ misol sifatida kiritilgan o‘rinlari mavjud. Quyida ularning ba’zilarini fikrimizga misol sifatida keltirib o‘tamiz:

GURS taql.s. Zarb bilan urish, urilish natijasida chiqadigan bo‘g‘iq ovoz. Og‘ilxona tarafda bir nimaning gurs etib yerga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi. G‘. G‘ulom, Shum bola. Allaqayda ko‘tarma kranning chiyillagani, so‘ng gurs etib to‘xtagani eshitildi. S. Siyoyev, Yorug‘lik.

Yuragi gurs-gurs urmoq. Shukurjonning yuragi gurs-gurs ura boshladi. O. Yoqubov, Ota izidan. Sherbek o‘z ovoizidan o‘zi qo‘rqib ketdi: yuragi objuvozdek gurs-gurs urardi. S. Anorboyev, Oqsoy [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 528].

DIRK tasv.s. Silkinib, tebranib turuvchi narsa, sapchib qilingan harakat haqida. Husan kiyikni ushlamoqchi bo‘lib qo‘l cho‘za boshlagan edi, kiyik dirk etib, yoniga irg‘idi. Y. Shukurov, Kutilmagan voqea. Tarlon dirk-dirk o‘ynadi. T. Murod, Ot kishnagan oqshom [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 626].

MIYOV 1 taql.s. Mushukning ovozi bildiradi. Sidiqjon shunday qattiq kuldiki, burchakda kulcha bo‘lib yotgan mushuk shoshib o‘rnidan turdi va Sidiqjonga qarab “miyov” dedi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 589].

2 bol. ayn. mushuk. Ana miyov.

MIYOVLAMOQ “Miyov-miyov” demoq. Devorlar orqasida, tomlar ustida kechasi bilan mushuklar miyovlab chiqdi. O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

G‘AT taql.s. Karnay, mashina signali kabilarning tovushiga o‘xshash tovushni bildiradi. .. karnaylarning g‘at-g‘ati havoni larzaga keltirdi. M. Osim, O‘ror. Yo‘g‘on kishi, xuddi g‘ozga o‘xshab, “g‘at-g‘at-g‘at” qilib kuldi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 440].

G‘IZ taql.s. (asosan takror holda qo‘llanadi). Juda tez yo‘nalishdagi uchayotgan narsaning tovushini bildiradi. Havoda ketma-ket o‘qlar g‘iz-g‘iz uchar edi. M. Muhamedov, Qahramon izidan [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 444].

Taqlidiy so‘zlar borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning ixtiyoriy hamda ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlarini taqlidan ifodalaydi. So‘zlarning ma’lum turkumlarga ajratilishi qotib qolgan, o‘zgarmaydigan hodisa emas. O‘zbek tili grammatik qurilishining rivojlanishi, yangi grammatik xususiyatlarning asta-sekin to‘plana borishi natijasida bir turkumdagi ayrim so‘z boshqa turkumga o‘tishi mumkin. So‘zlarning bunday o‘zaro o‘tish hodisasi so‘zning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarining o‘zgarishi bilan bog‘langan [Сапаев, 2009].

Shuningdek, 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ni o‘rganganimizda unda mavjud jami taqlid so‘zlarning 33 tasi 2 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da uchramasligini aniqladik. Ularning ayrimlarini yangilik sifatida, ayrimlari esa tuzilishi jihatidan farqlanishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, biyov-biyov, biljing-biljing, vang‘, dang, dang-dung, dangir-dungur, dikong-dikong, dim-dim, dong‘, dubir, kars-kars, zuv, mildir-mildir, papaq, po‘ng, xi-xi, chax-chax, chaq-chuq, chuldir-chuldir, sharr, shovur, yal-yal, yaraq, qiy, g‘ujur, g‘ult [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] kabi.

Yuqoridagi taqlid so‘zlar uchidan yangilik sifatida 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga kiritilgan ayrimlarini batafsil keltiramiz:

BIYOV-BIYOV taql.s. Qo‘biz, chang, qovuz yoki ba’zi qushlar chiqaruvchi ovoz haqida. Karnay-u surnay, qizlar hayitlarda labiga qo‘yib, biyov-biyov qilib chaladigan changdan tortib musiqa san’atimizning merosxo‘r xazinachisi bo‘ldi. Shukrullo, Javohirlar sandig‘i. Zarg‘aldoq nima-nima deganday yana “biyov-biyov” qiladi. M. Mansurov, Yombi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 253].

BILJING-BILJING: biljing-biljing qilmoq. Ko‘p gapirmoq, ezmalik qilmoq, o‘rinsiz gapni ko‘paytirmoq. Bir bedavo, ezma, chakagiga suyanagan ekan, Zuhraning uyidagi ahvoli, mashg‘ulotini surishtirib, biljing-biljing qiladi. A. Muhiddin, Aybsiz aybdor [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 260].

DANG-DUNG taql.s. ayn. dang'-dung'. Amakisi osma soatning dang-dung zangiga bir nafas qu-loq solib turdi. H. G'ulom, Zamin yulduzlari [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 555].

DANGIR-DUNGUR ayn. dang'ir-dung'ur. Arang-arang qulog'imga childirmaning dangir-dun-gur qilgan nag'masi kirar edi. A. Qodiriy, Kichik asarlar. Qishlog'imizni birrav ko'rib ketmoqchi edim. Bu yerdagi dangir-dungurni ko'rib ag'rayib qoldim, - dedi Yigitali Ibrohimovga. S. Karomatov, Bir tom-chi qon [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 555].

DIKONG-DIKONG shv. ayn. dikang-dikang. — Eh, maza, maza! — deb Popuk sevinchidan quy-onday dikong-dikong sakradi. H. Nazir, Yonar daryo [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 611].

DONG' III taql.s. Metallar bir-biriga urilganda chiqadigan tovush haqida. Temir dong' etib urildi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 645].

DUBIR, dubur shv. folk. Yurganda yoki chopganda eshitiluvchi past, bo'g'iq ovoz; dupur (ko'proq otlar haqida). Go'ro'g'lining qo'shiniga otlarning dubiri eshitildi. "Gulnorpari". Yurganda otning dubiri yerni qimirlatib ketdi. "Hasanxon". Birdan quloqlariga otlarning dubiri keldi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 654].

PAPAQ q. popoq [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 215].

PO'NG s.t. po'k. Aziza shu vaqtgacha qamchisidan qon tomib, so'zidan ilon po'st tashlagan dada-sining ichi po'ng ekanini endi tushundi. Shuhrat, Oltin zanglamas [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 328].

CHAX-CHAX taql.s. ayn. chag'-chag'. Butoqlarda minglab qushlar chax-chax sayraydi. Z.Akram-ov, Hindiston lavhalari. Bu yetmagandek, hovlining huv etak tomonidan baralla bulbullar chax-chaxi es-hitila boshladi. A.Muxtor, Buxorolik bir yigit [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 464—465].

CHAQ-CHUQ taql.s. Metall yoki metallardan qilingan asboblarning biror narsaga urilishi natijasida chiqadigan ovozni bildiradi. Temirchining "chaq-chuq" sasiga, bir kuni deng, ishxonasiga kirdi o'ynab talay bolalar. S. Ochil. Tars-turs, chaq-chuq etgan tovushlar chiqib, yuqori ko'tarilgan ketmonlarn-ing yiltiroq sirtiga to'qingan quyosh nuri yalt-yult chaqna turardi. A. Qodiriy, Obid ketmon [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008: 470].

Yuqoridagi taqlid so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lgan, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ga yangilik sifatida kiritilgan taqlid so'zlardir.

O'rganishlarimiz natijasida, taqlid so'zlar o'zbek tilining hozirda keng iste'moldagi varianti va til foydalanuvchilarining ehtiyoji asosida tanlab kiritilganligiga ishonch hosil qildik. Qayd etilgan tahlil-lar asosida xulosa qilamizki, 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 113 ta, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 33 ta bir-biridan farqli taqlid so'zlar kiritilgan. Umumiy hisobda 2 jildli "O'zbek tilin-ing izohli lug'ati" da taqlid so'zlarning umumiy miqdori 611 tani 1,01%, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da taqlid so'zlarning umumiy miqdori 547 tani 0,64% tashkil qiladi. E'tiborlisi shundaki, 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da qariyb 60.000, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 85.000 atrofida so'z bo'lishiga qaramasdan taqlid so'z turkumiga kiruvchi so'zlar miqdori 2 jildli "O'zbek tilin-ing izohli lug'ati" da yuqori ekanligi ko'rinadi. Ko'pchilik taqlid so'zlarning takroriy ko'rinishi so'zlar soni haddan tashqari oshib ketishining oldini olish maqsadida 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ga kiritilmaganligini bunga asosiy sabab sifatida keltirishimiz, taxminimizcha, to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пинхасов П. Хозирги ўзбек адабий тили, Лексикология ва фразеология. —Т.: Ўқитувчи, 1969. — Б. 43.
2. Сапаев Қ. Хозирги ўзбек тили. —Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2009. — Б. 28.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдди. Москва. Русский язык, 1981.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. —Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
5. Хожиев А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. —Т.: Фан, 1981. — Б. 45.

XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING NAMOYON BO‘LISHI

(Tohir Malik asarlari tahlili asosida)

Mashhura Yuldosheva,
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ijtimoiy muloqotda odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini hisobga olib, munosabatlarni saqlab qolish uchun boshqalarning face - yuzlaridan xabardor bo‘lishlari kerak. Insonning yuzini saqlab qolish uchun odamlar xushmuomalalikdan foydalanishlari lozim. Maqolada xushmuomalalik tamoyili sotsiopragmatikaning o‘rganish obyekti ekanligi, xushmuomalalik turlari va uni yuzaga chiqish omillari Tohir Malik asarlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pragmalingsvistika, sotsiopragmatika, pragmalingsvistik resurs, xushmuomalalik tamoyili, donolik, saxiylik, minnatdorchilik, kamtarlik, hamkorlik, hamdardlik maksimallari

Xushmuomalalik ijtimoiy tartibni vujudga keltirish uchun asos bo‘lib, jamiyat a‘zolari hamkorligining dastlabki shartidir. Insonlarning o‘zaro munosabatlarida umuminsoniy tamoyillar mavjudki, sotsial mavqeyidan qat’iy nazar jamiyatning barcha jabhalarida amal qiladi, lekin turli - tuman guruh, qatlamlarda har xil namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik hodisalari sotsolingvist va pragmalingsvistlar tomonidan doimiy o‘rganib kelinayotgan mavzu bo‘lib, jumladan jahon tilshunoslari Lakoff, Braun, Levinson, Freyzer, Lich va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xushmuomalalik keng ma’noda tilda va madaniyatda juda keng tarqalgan kommunikativ xatti-harakatlar shaklidir. Xushmuomalalikni ifodalashda turli til resurslaridan foydalanib ifodalanishi pragmalingsvistika, ma’lum bir ijtimoiy muhitda ma’lum darajada xushmuomalalikni ifodalanishi hamda ijtimoiy yo‘naltirilganligi esa sotsiopragmatikaga tomonidan o‘rganiladi. Pragmalingsvistika va sotsiopragmatikani bir-biridan ajratib o‘rganish kerak emas. Ularning ikkalasi ham pragmatikaning qirralari bo‘lib, biri tilga, ikkinchisi esa jamiyatga qaratilgan. Xushmuomalalik tamoyili ikki sohaning ham o‘rganish obyektidir. Tilning pragmalingsvistik resurslari madaniy qadriyatlarni qanday ifodalash imkonini beradi. Kommunikativ kompetensiya kommunikatorlar tildan to‘g‘ri va muvaffaqiyatli foydalanish uchun ega bo‘lgan bilim va qobiliyat turini ifodalash uchun xizmat qiladi. Pragmatik kompetensiya lingvistik kompetensiyaning asosini tashkil etadi va uni pragmalingsvistik, sotsiopragmatik kompetensiyalarga ajratishimiz mumkin. [Geoffrey Leech, 2014: 56].

Xushmuomalalik tamoyili, haqiqatan ham, pragmalingsvistika va sotsiopragmatikaning birlashadigan nuqtalaridir biridir. Xushmuomalalik shakllari va strategiyalarini tanlash pragmalingsvistikaga tegishli bo‘lsa, qachon va kimga nisbatan qo‘llanishi sotsiopragmatikaga taalluqlidir. [Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider, 2011: 86].

Muloqotda xushmuomalalik tushunchasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan hamda har bir millat, xalq va nutq jamoasining nutqiy obod tamoyillaridan biridir. Samarali muloqot uchun bu qiyomatni e’tiborsiz qoldirmaslik lozim. Xushmuomalalik tamoyillariga e’tibor bermaslik kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan omillardan biri bo‘lib, bunga rioya qilmaslik natijasida nutq samarasiz tugaydi.

Amerikadagi oq tanli politsiyachi shifokorni tekshirayotgan edi:

- Isming nima, nak?

- Doktor Pussen. Men shifokorman.

- Isming nima, Nak?

“Alvin”. [Fathur Rokhman, M.Hum Surahmat, 2017:50]

Ushbu suhbatdan ko‘rinadiki, politsiya xodimi salomlashish va xushmuomalalik tamoyillarini buzdi. Bu kontekstda suhbat a‘zolari ingliz jamiyatiga mansub bo‘lib, ularning jamiyatida salomlashish shakli odatda “janob” so‘zi bilan birga keladi. Ingliz tilida so‘zlashadigan jamoalarda hurmat bilan salomlashish “profesor” yoki “doktor” kabi kasbiy izofalar, unvonini aytish bilan salomlashiladi. Bunday izohlovchilardan foydalanish akademik va kasbiy yutuqlar uchun minnatdorchilik sifatida qabul qilinadi. Ammo

yuqorida keltirilgan parchada politsiya xodimi qayta-qayta sotsiopragmatik xatolikka yo'l qo'ydi, ya'ni yoshi kattaroq insonga "nak" — o'g'il bola deya murojaat qildi. Bu murojaat shifokorga yoqmaganligi uchun o'zining kasbini ham qo'shimcha qildi, ammo politsiyachi sotsiopragmatik bilimga ega emasligi uchun nutq odobini buzdi.

Lich (1983) hamkorlik va xushmuomalalik prinsiplarini universalligi haqida yozar ekan, ularning hamma jamiyatlarda bir xil tarzda qo'llanmasligini aytadi: darhaqiqat, sotsiopragmatikaning asosiy maqsadlaridan biri... turli jamiyatlar qanday qilib maksimalarni turli yo'llar bilan qo'llashni aniqlashdir, masalan, xushmuomalalikni muayyan vaziyatlarda hamkorlik qilishda ko'ra yuqori baho berish yoki ustunlik berish orqali bir maksimali.

G. Lich tilda xushmuomalalikni olti turdagi maksimalarga ajratadi: donolik, saxiylik, minnatdorchilik, kamtarlik, hamkorlik va hamdardlik. Nutq harakatda o'z foydasini kamaytirish orqali donolik maksimali qo'llaniladi. Saxiylik maksimali donolik maksimaliga o'xshaydi, ya'ni uhatdoshga foyda keltirishga tayyorlik orqali namoyon bo'ladi. Minnatdorchilik maksimali boshqa tomonlarni maqtash, nutq sherigiga mutanosib yordam berish orqali amalga oshiriladi. Kamtarlik maksimalida esa so'zlovchi o'z yutuqlarini eslatish, ta'kidlashdan qochadi va boshqa nutq birliklaridan foydalanib so'zlaydi. Hamkorlik maksimali suhbatda yozilmagan qoidalarga bo'ysunish tushunchasini anglatadi. So'zlovchi muloqot maqsadlariga erishish uchun atrof-muhit sharoitlariga moslashishga harakat qiladi. Ilmiy darajasi pastroq bo'lgan tinglovchilar bilan muloqot qilganda, adresat (so'zlovchi) tilning qiyinlik darajasini kamaytirishga harakat qiladi. Masalan, ko'proq ilmiy atamalarni izohi bilan aytish yoki soddaroq tushuntirish usulidan foydalanadi.

Hamdardlik maksimali bu — tashvishni ifodalash qobiliyati, go'yo suhbatdoshi (so'zlovchi) his qilayotgan narsani, voqea-hodisani, qayg'u-iztiroblarni tinglovchi ham his qilishi. Suhbatdoshining qayg'usi yoki quvonchi uning ham qayg'usi va baxti deb hisoblaydi, uning psixologik vaziyatiga tashvish va hurmat ko'rsatishga harakat qiladi.

Xushmuomalalik darajasi so'zlovchi va uning suhbatdoshining ijtimoiy mavqeyi bilan belgilanadi. Xushmuomalalik tamoyili — komunikatorlar o'rtasidagi ijtimoiy, psixologika, muvozanat do'stona munosabatlarni saqlash uchun zaruriy muloqot qoidasi. [Fathur Rokhman, M. Hum Surahmat, 2017:83]. Ya'ni ijtimoiy jihatdan suhbatdoshidan baland mavqega ega bo'lgan adresat buyruq mazmunida gaplardan foydalanadi.

Xushmuomalalikning turli darajalarini belgilashning lingvistik shakllari mavjud bo'lib, bu jamiyat a'zolarining maqomi, yoshi va jinsiga qarab aniqlanadi. Turli til madaniyatlarida yosh, ijtimoiy mavqe, ma'lumoti, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar xushmuomalalik strategiyalariga sezilarni ta'sir qiluvchi sotsial o'zgaruvchilardir.

Braun va Levinson (1987) tomonidan taklif qilingan xushmuomalalik strategiyalarining to'rt turi mavjud: bald on record (bevositalik), ijobiy xushmuomalalik, salbiy xushmuomalalik, off record (bilvositalik).

Bald on record (bevosita nutq akti) da komunikatorlar bir-biriga yaqin bo'lgan holatlarda (bir oilala vakili, do'st, yaqin munosabatga ega bo'lganlar nutqida) namoyon bo'ladi. Iltifotsiz, ochiq, to'g'ridan to'g'ri direktiv nutq aktidan foydalanadilar. Bunda qarindoshlik nomlari — umuman, shaxs otlarining qo'shilib kelishi buyruq ta'sirini yumshatish uchun xizmat qiladi. [Arin Bayraktaroglu, Maria Sifiano, 2001: 222].

1. Sabriyya, qizginam, bo'ldi, bunchalik yonib kuyaverma. [Tohir Talik, 2018: 252].

2. Xonim, "yig'la, yig'la" deb qiytayvermang. [Tohir Talik, 2018: 252]

3. E sodda bola-e, surishtiravermaysanmi, oshna — og'aynisi chiqib qolarmidi... [Tohir Malik, 2018: 216]

Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda o'zlovchi tinglovchi o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo'ladi. Shunga ko'ra, doimiylik belgisiga ega bo'lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni bosh-

lash), konnotativ (subyektiv munosabat — salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi. [M. Yo‘ldoshaliyev, 2007: 64]

Bilvosita buyruq - Bunda o‘rtadagi masofa yaqin emas, shaklan so‘roq, mazmunan buyruq aktini ifodalovchi vositalardan qo‘llanadi:

1. —Ha ... shunday demaysizmi, sizni fotihachi deb o‘ylabman. [Tohir Malik, 1990: 41].
2. — Yaxshi, - dedi u xotirjamlik bilan, - o‘zingizni bosing. Men gumonni aytdim, buncha asabiy-lashmasangiz? [Tohir Malik, 1990: 80].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arin Bayraktaroglu, Maria Sifianou, Linguistic politeness across boundaries. — John Benjamins Publishing Co., 2011. — B. 222.
2. Geoffrey Leech. The Pragmatics of Politeness. — Oxford University Press, 2014. — B. 56.
3. Fathur Rokhman, M.Hum Surahmat. Mengelola kesalahanpahaman perspektif sosiopragmatik, 2017. — B. 56.
4. Penulis; Harun Joko Prayitno. Studi Sosiopragmatik. — Surakarta: Muhammadiyah University Press, 2017. — B. 83.
5. M. Yo‘ldoshev, Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. — Toshkent, 2007. — B. 64.
6. Tohir Malik, Voy onaginan. — T.: Yangi asr avlodi, 2018.
7. Tohir Malik. So‘nggi o‘q. WWW.Ziyouz.com, 2009.
8. Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider. Handbooks of Pragmatics, — Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011. — B. 86.

TO‘RA NAFASOV ASARLARIDA TOPONIMLARNING JOYLASHISH O‘RNIGA KO‘RA IZOHI

(Koson tumani misolida)

Sarvinoz Chariyeva,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada toponimlarning joylashish o‘rniga ko‘ra nomlanishiga e‘tibor qaratilgan. Baland, chuqur, yuqori, o‘rta, quyi kabi indikatorlari bor toponimlar izohlangan. Professor T. Nafasov kitoblaridagi shunday toponimlar keltirib o‘tilib, Koson tumanidagi Nartibaland, Nartichuqur, Quyibog‘, Yuqori Obron, O‘rta Obron va Quyi Obron toponimlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, toponimika, toponim, geografiya, relyef, indikator, Koson, Nartibaland, Nartichuqur, Quyibog‘, Yuqori Obron, O‘rta Obron, Quyi Obron.

Joy nomlari geografik nomlar hisoblanib, toponimlar deyiladi. Ular toponimika bo‘limida o‘rganiladi. O‘zbek toponimikasi fanining vujudga kelishi va rivojlanishida A. Muhammadjonov, H. Hasanov, S. Qorayev, T. Nafasov, Z. Dosimov, E. Begmatov, B. Orinboyev, S. Karimov, N. Uluqov, T. Rahmatov, Y. Xojamberdiyev, M. Ramazonova, S. Gubayeva, N. Begaliyev, X. Xolmominov, O. Oripov, N. Oxunov, J. Latipov, S. Naimov, Sh. Qodirova, A. Zokirov, N. Mingboyeva, O. Begimov, T. Ernazarov, A. Turobov, S. Boriyev, A. Otajonova, A. Aslanov, Sh. Temirov, A. Ergashev, S. Ahmedov, N. Adizova, Y. Nematova, F. Otaqulov, N. G‘aniyev va boshqalarning xizmatlari katta.

Toponimikada joy nomlarining barcha turlari o‘rganiladi. Ularni oykonim (aholi yashaydigan joy nomlari), oronim (Yer yuza shakllarining nomlari), gidronim (suv havzalari nomlari, zootoponim (hayvonlar nomlari qatnashgan joy nomlari), fitotoponim (o‘simliklar nomlari qatnashgan joy nomlari), antrotoponim (kishi ismlari bilan bog‘liq joy nomlari), etnotoponim (madaniyat bilan bo‘liq

joy nomlari)ga ajratish mumkin. Bundan tashqari toponimlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma shaklda bo'ladi. Qo'shma toponimlarda esa ikki mustaqil so'z turkumi munosabatga kirishadi. Ulardan biri indikator (lot. "indico" ko'rsataman, aniqlayman) vazifasini bajaradi.

Indikator asosan kimyoviy tushuncha bo'lib, uni geografiyaga ko'chishi toponimik indikatorni yuzaga keltiradi. Asosan qo'shma toponimlarning Birinchi (ba'zan Ikkinchi) qismida keladi. Indikatorlar belgi bildiruvchi sifat indikator (katta, yangi, oq, qora, baland), miqdor bildiruvchi son indikator (uch, to'rt, besh, olti, yakka, qo'sh), o'simlik nomini bildiruvchi ot indikator (gul, arpa, tut) va hudud qismini bildiruvchi ravish indikatorlari (yuqori, ust, o'rta, quyi) hokazo shakllarda uchraydi. Yurtimizning barcha joylarida hududning ma'lum qismini ifodalagan so'zlar qatnashgan toponimlar uchraydi.

Toponimlar ma'lum hududning boshi, yuqori qismi, o'rtasi, quyi, adoq qismi, chekka yoki bo'ylarida joylashish sabablari hamda aholi hududning markaz qismini mo'ljallab, boshqa joylarni atashi tufayli kelib chiqqan.

Toponimlarning tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib, nomlanishda ham farqlar kuzatilishi mumkin. Ba'zi toponimlar aholi madaniyati, etnografiyasini bildirsa, boshqalari aholi orasida dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlanganini ko'rsatadi.

Professor To'ra Nafasov tadqiqotlarida Qashqadaryo - Surxondaryo viloyatlaridagi toponimlarga e'tibor qaratgan. Quyida olimning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" nomli kitobidan joy olgan chuqur, baland, yuqori, o'rta, bo'yi, qiya, adoq, tepa so'zli joy nomlari keltirilgan:

Chuqur: Nartichuqur, Qorachuqur; Baland: Balandi, Balandovul, Balandqo'ton, Balandchayla, Balandshox, Burjibaland, Nartibaland; Quyi: Quyibog'; Yuqori: Yuqori Obron, Yuqoriovul, Yuqoritaqcha, Yuqoriqo'ram; O'rta: O'rta Obron; Bo'yi: Annabo'yi, Ariqbo'yi; Qiya: Oqqiya, Adoq: Adoqbatosh, Adoq cho'michli, Adoq qishloq; Tepa: Asqartepa, Bag'ishtepa, Bobirtepa, Durbintepa, Yertepa, Yetimtepa, Yortepa, Jartepa, Zangtepa, Iliqchitepa, Isvanchitepa, Ispantepa, Kampirtepa, Kindiktepa, Kofirtepa, Ko'ltepa, Ko'mirtepa, Ko'chaktepa, Langartepa, Loppitepa, Maraztepa, Martepa, Ovultepa, Oqtepa, Pospontepa, Sayiltepa, Sandalaktepa, Sariqtepa, Taloqtepa, Taltepa, Tallisortepa, Tillatepa, Tostepa, Xurosontepa, Choshtepa, Shimaktepa, Egiztepa, Yaloqtepa, Qanaqlitepa, Qaritepa, Qarag'ichtepa, Qasabatepa, Qashqatepa, Qoraboytepa, Qoovultepa, Qullatepa, Qo'shmatepa, G'o'ritepa, G'o'rintepa, Havastepa, Hazortepa, Haybortepa, Haramtepa.

T. Nafasov quyidagicha izohlaydi: "Qashqadaryo hududi o'rta rang-barang geomorfologik, gidrogeologik tuzilishga ega. Shu bois qishloq nomlarini shakllantiruvchi so'zlar — ob'ekt turini bildiruvchi kalimalar ko'p...

Har davrning, ijtimoiy tuzumning aholi maskanlarini nomlash tamoyillari va talablari bo'lgan, bu talab hozirda ham amalda. Qadimiy nomlarni qabul qilgan holda har bir davr, tuzum o'z mafkurasi va ma'naviyati, madaniyati, ishlab chiqarish tarsi va xo'jalik faoliyati, tabiatga munosabati kabi ijtimoiy omillarga tayanib nomlar majmuini yaratadi. Bu jarayonda ob'ekt turini bildiruvchi, unga yondosh bo'lgan ob'ektlarni bildiradigan so'zlardan foydalanib, qishloq va boshqa tur ob'ektlar majmuini yaratadi. Bu jarayonda nomlovchi aholi jamoasining tili, etnik tarkibi katta rol o'ynaydi". [Nafasov, (1) 2009: 26]

Koson tumani hududida ham qism ifodalovchi toponimlar uchraydi. Nartibaland, Nartichuqur, Yuqori Obron, O'rta Obron, Quyi Obron, Quyibog' kabi oykonimlar shular jumlasidandir.

Koson tumani - O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida joylashgan tuman. Koson Respublikadagi dastlab asos solingan tumanlardan biri bo'lib, u 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Samarqand viloyatining Nurobod tumani, Qashqadaryo viloyatining Ko'kdala, Muborak, Qarshi, Kasbi tumanlari va Qarshi shahri bilan chegaradosh. Maydoni 1,88 ming km². Markazi — Koson shahri.

Koson so'zini etimologiyasi haqida turli talqinlar yuradi. Kushon so'zidan kelib chiqqan degan fikrlar uchraydi. "Kushon imperiyasi meloddan avvalgi 1- va melodning 3-asrlarida Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan. Aholisi yuechji qabilasi tarkibiga kirgan kushanlar bo'lgan. Kushon etnonimining o'zgargan shakli — Koson... Kushan- kusan- qoson-koson- Koson. 9-asr yodgorligi "Hudud al-olam"da Kason, Somoniy va Yoqut asarlarida Kosan". [Nafasov, (1) 2009: 147]

Nartibaland Koson tumanidagi mahallalardan biri. Aholisi o‘zbek va tojik tilida so‘zlashadi. Koson markazidan balandroq qismda joylashgan. Nartibaland so‘zini T. Nafasov asli gidronimik nomdan kelib chiqqanligini izohlaydi. “Kosonda nart- ariqlarning suvini ekinzor va kichik yonariqqa chiqarish uchun to‘siq qilinadigan band, damba. Tojikcha izofa nart +i+ baland yuksak qilib qurilgan damba, ko‘tarma to‘g‘on (yonidagi qishloq)” . [Nafasov, (2) 2009: 147]

Nartichuqur — ushbu mahalla ham Koson markazida joylashgan. O‘zbek va tojikzabon kishilar yashaydi. Aholining ko‘p qismi tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi. Bu toponim etimologiyasi ham gidronim bilan bog‘liq. “Band va dambasi chuqurroq joyda bo‘lgan ariq va shu ariq atrofidagi, uning suvidan foydalanadigan mahalla” - deb yozadi T. Nafasov. [O‘sha asar 127-bet]

Obron - Obbron Koson tumanining Yuqori, O‘rta hamda Quyi Obbron mahallalaridagi qishloq. Qadimdan aholi dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Hozirgi kunda qishloq joylashish qismiga ko‘ra uchga bo‘lingan, Ushbu so‘zning izohi va etimologiyasi haqida T. Nafasov shunday yozadi: “Qadimshunoslar va tarixshunoslar Obbronning qadimiy shakli Ofuron, Ofron bo‘lgan. 9- 12-asrlar arab sayyohlari asarlarida qadimiy nomning o‘zgargan shakli deb hisoblashadi. Som‘oniyda va Yoqut Hamaviyda Ofuron tarzida bitilgan, 16-asr vaqf hujjatlarida — Obbron...Obbron nomini ob+i+ravon (f-t) birikmasidan izohlash mumkin. Obiravon — bir tekis oqar suv (daryo, ariq, anhor) yoki chuqur ariq” [Nafasov, (1) 2009: 189]

Olim fikrining davomida bu izoh etimologiyasi hali to‘liq isbotini topmaganini yozadi. Shuningdek, Quyi Obbron toponimiga izoh berish jarayonida Quyi, O‘rta, Yuqori so‘zlari Obbron aholi punktlarining joylashish o‘rniga ko‘ra qiyoslanganligi va ular bir-biriga nisbatlanganini qayd etadi. [Nafasov, (1) 2009: 382]

Tarixshunos Poyon Ravshanov ham “Qarshi tarixi” kitobida Obbron toponimini Obrontepa nomi bilan bog‘laydi. Ma’lumotlarga ko‘ra Obrontepa Kosontog‘ etaklarida joylashgan tepalik bo‘lgan, V-VI arlarda u yerda qishloq o‘rni bo‘lgan. Aholisi kulolchilik bilan shug‘ullangan, Buni arxeologik jarayonlarda topilgan kulolchilik ashyolari va sopol idishlar ko‘rsatib beradi. P. Ravshanovning ta’kidlashicha, Obrontepada VII-VIII asrlarda faol hayot tarsi hukmronlik qilgan.

Quyibog‘ - Koson markazidan quyi qismda joylashgan mahalla nomi. T. Nafasov “Qashqadaryo qishloqnomasi” asarida ushbu joy nomini ham nazardan chetda qoldirmagan: “Quyibog‘ — Koson shahridagi mahalla. Tarkibi Quyi+ bog‘. Quyi - adoq, etak: yuqori tomonning aksi, ko‘pincha janub yoki g‘arb tomon. Bog‘ (fors tojikcha) tevaragi devor yoki g‘ov to‘siq bilan o‘ralgan, o‘rtasi uzum va mevali daraxtlar ekilgan joy...Quyibog‘ joylashish o‘rniga ko‘ra nomlangan. Quyibog‘ — quyi tomondagi bog‘ atrofidagi mahalla.” [Nafasov, (1) 2009: 392]

Joylashish o‘rnini ifoda etgan so‘zlarning izohiga ham e’tibor qaratish ham o‘rinli.

Baland — bu so‘z o‘zlashma so‘z bo‘lib, tarkibida qator undoshlar qatnashgan so‘zlar asosan, boshqa tillardan kirib kelgan bo‘ladi. —nd (baland, pisand, pand, qand, garchand, monand, farzand) qator undoshi fors-tojik tili leksikasiga xos. Baland so‘zining ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’lumotlar keltiriladi:

1. Pastdan yuqoriga tomon o‘lchami uzun; qaddi, bo‘yi uzun; novcha. Baland minora. Baland devor. Baland tom. Bo‘yi baland. Baland tog‘.
2. Yer yuzasidan yoki boshqa biror sathdan, nuqtadan yuqorida joylashgan. Baland ostona. Baland tokcha. Toshkent dengiz sathidan 480 metr baland,
3. Kuch darajasi belgilangan me’yordan ortiq, kuchli; yuqori. Baland bosim. Baland harorat. Baland ovoq.
4. Ko‘chma. Ba’zi belgi, xususiyatlarning ortiq, yuqori darajadiligini ifodalaydi. Qishloq qizining g‘ururi baland bo‘ladi.
5. Yer sathiga nisbatan yuqorida joylashgan nuqta; tepalik. Balandda, yulduzli ko‘kda, qayoqqadir samolyotlar uchib o‘tdi. [Oybek, “Quyosh qoraymas”]
6. Ko‘chma. Qadr-qimmatli, e’zozli, yuqori. Ota o‘g‘li bo‘lsang, ota nomin baland tut. (Maqol)
7. Ko‘chma. Unumli, samarali; mo‘l, ko‘p. Agar suv olib kelinsa, ming yillardan beri chorva qiylari

qatlam-qatlam bo'lib ketgan bu joyda paxtadan eng baland hosil olsa bo'ladi. [S. Ahmad, "Jimjitlik"]
Baland so'zi qatnashgan ko'plab iboralar mavjud: "Qo'li baland", "Baland oxurdan yem yemoq", "Dimog'i baland"

Quyi, chuqur, o'rta so'zlari o'zbekcha so'zlardir. Ular o'z qatlamga tegishlidir. Chuqur so'zining izohli lug'atdagi ma'nolari quyidagicha:

1. Ot. Qazilgan, o'yilgan yoki tabiiy chuqurlik, o'yi; o'ra. Birovga chuqur qazisang, o'zing yiqilasan. [Maqol]

2. Sifat. Sathdan ancha past; cho'nqir, teran. Chuqur daryo. Chuqur hovuz. Chuqur jarlik.

3. Ravish. Ichdan, o'pkadan to'lib-toshib chiqqan yoki o'pkani to'ldiruvchi. Nigora chuqur nafas oldi. [Sharq yulduzi]

4. Sifat. ko'chma Har tomonlama keng, asosli, atrofli, teran. Chuqur ma'no. Chuqur ilmiy tekshirishlar.

5. Sifat. ko'chma Kuchli; behad katta. Chuqur qayg'u. Chuqur sukunat.

6. Ravish. Yuzadan ichkariga, ich-ichiga. Chuqur botaverdi yurakka xanjar. [X. Davron].

7. Ravish. Mustahkam, qattiq. Halima Nosirovaning beqiyos san'ati, tabiiy va betakror ovozi xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi.

Xulosa shuki, har bir toponimning tarixi, tuzilishi, ma'nosi va izohini o'rganish vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib, har bir insonni o'lkashunoslik ruhida tarbiyalaydi. Professor T. Nafasov tadqiqotlarida ana shunday tuyg'ular aks etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. (Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи). — Т.: Мухаррир, 2009. — Б. 432.

2. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. (Ўзбекистоннинг жанубий районлари) -Т.: Ўқитувчи. 1988. — Б. 288.

3. Ravshanov P. Qarshi tarixi. — Т.: 2016

4. "O'zbek tilining izohli lug'ati" - Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"

5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

"SHAJARAYI TAROKIMA" ASARIDA KELITIRILGAN TOPONOMIK BIRLIKLAR TASNIFI

Marjona Begmatova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Maqolada XV-XVII asrlarga oid toponomik birliklarning bir qismi Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari misolida tavsif va tasnif qilingan va shu bilan birgalikda asarda keltirilgan toponimlarning bugungi kundagi lug'atlardagi izohlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Toponomika, Toponim, Gidronim, Oykonim, XV-XVII, Abulg'oziy Bahodirxon, "Shajarayi tarokima", tasnif, tavsif.

Onomastikaning eng katta yo'nalishlaridan biri bu toponomika bo'lib, joy nomlarini o'z ichiga oladi. Geografik nomlar — bu mamlakat, shahar yoki biron bir tabiiy obyekt bilan tanishishda uning tashrif yorlig'i vazifasini bajaradi. Shu sababdan tabiiyki, toponimlarning yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, o'zgarishi, adreslik funksiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday ma'no kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Yuqorida qayd qilingandek, ushbu masalalarni aniqlash bilan maxsus fan toponimika shug'ullanadi. Shu bilan birga, joy nomlari

ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham o‘rganish obyekti hisoblanadi. Toponimika va toponimiyani bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Toponimika - geografik nomlarni paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanishi, hozirgi holati, ma’no-mazmuni, talaffuzi va yozilishini o‘rganuvchi ilmiy fandır. Toponimiya - deganda muayyan hududdagi geografik nomlarning yig‘indisi nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, toponimiya toponimika fanining o‘rganish obekti hisoblanadi [Z.Madrahimov. 2017. 8 b].

Toponimlarni, umuman onomastik birliklarni tahlil qilishda tarixiy asarlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jumladan Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asarida ham XV-XVII asrlarga oid bir qancha toponimlar keltirilgan. Hozirgi kunda ham mavjud bo‘lgan bir qator geografik hudud nomlari aynan shu asarda ham ba’zi fonetik o‘zgarishlarga uchragan, jumladan, Toshkent (Toshkent), Atil suvi (Itil daryosi), Hinduston shaklida xolda uchraydi.

Adabiyotlarda onomastik birliklarni antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, oykonimlar, oronimlar, zoonimlar, fitonimlar semantik guruhlariga ajratish an’anasi mavjud. Ammo toponomik birliklarni tahlil qilishda ko‘p xolatlarida gidronimlarni toponimlar qatoriga qo‘shiladi. Toponimlarning miqdoriy va funksional ko‘lamini aniqlash uchun ularni toponim qanday fizikaviy – geografik obyektning nomi ekaniga ko‘ra tasniflanadi [Q.Hakimov. 2016. 64-65 b].

- | | |
|---|----------------------|
| 1. Mamlakatlar, davlatlar, o‘lka (yurt)lar nomi | 2. Viloyatlar nomi |
| 3. Ma’lum bir hudud nomi | 4. Shaharlar nomi |
| 5. Qishloq (kent)lar nomi | 6. Daralar nomi |
| 7. Jazira (sahro, qumlar) nomi | 8. Tepa, qirlar nomi |
| 9. Tog‘lar nomi | 10. To‘qay nomi |
| 11. Qal’a nomi | 12. Yo‘l nomi |
| 13. Rabot nomi | 14. Darvoza nomi |
| 15. dengiz nomi | 16. Ko‘l nomi |
| 17. Daryolar, soylar nomi | 18. Quduq nomi |
| 19. Kanal, ariqlar nomi | 20. Bog‘lar nomi |
| 21. Saroy va minora nomi | 22. Mahalla nomi |

B.Qilichev “Onomastika ” o‘quv qo‘llanmasida toponimlar shu obekt nomi uchun asos bo‘lgan apellyativning ma’no mazmuniga ko‘ra : antrotoponim, gidrotoponim, topotoponim, zootoponim, fitotoponim, etnotoponim va boshqa guruhlariga bo‘ladi [M.Turdebekov. 2020, 8 b].

Huddi shu singari Z.Madrahimov ham “tarixiy toponomika” o‘quv qo‘llanmasida gidronimlar va oykonimlarni ham toponimlar sirasiga kiritadi [O‘g‘uznoma. (nashrga tayyorlovchi Baxtiyor Isabek) 2007, 15 b.].

Ushbu fikrlarga tayangan xolda “Shajarayi tarokima” asarida keltirilgan toponimlarni quyidagi guruhlariga bo‘lgan xolda tahlil qildik:

Toponimlar:

1. Mamlakatlar nomlari: Eron, Hindiston, Xitoy , Gurjiston
2. Shaharlar nomlari: Makka, Toif, Mo‘sul shahri(5-bet), , Saroy shahri (26-bet),
3. Viloyatlar nomlari: G‘ur viloyati, Shom viloyati
4. Qishloq nomlari: Yangikent (20-bet)
5. Tog‘lar nomlari: O‘r tog‘i(9-bet), Ko‘r tog‘i (9-bet), Judi tog‘i (5-bet), Qazg‘urt (14-bet), Qorachi (14-bet), Hisor (22-bet), Abulxon tog‘i (26-bet),
6. Xonliklar nomlari: Xiva, Buxoro, Qo‘qon

Shajarayi tarokima asarida 100 dan ortiq toponimlar keltirilgan bo‘lib aksariyat qismi bugungi kunda ham mavjud toponimlardir. Asarda keltirilgan bir qator joy nomlarining lug‘atlarda keltirilgan ta’riflari va bugungi kunda qaysi hududlarga to‘g‘ri kelishi:

XUROSON - Surxondaryo v. cho‘qqi. Qadimgi eroniy tilda xur (quyosh) -oson (joy) - quyoshli o‘lka, kunchiqar tomon [S.Qorayev. 2006. 69 b.].

G'UR viloyati - hozirgi Afg'onistondagi Gerirud daryosi bo'yida, Hirotdan Balxgacha, Qobuldan g'aznagacha cho'zilgan viloyat bo'lib, bu yerda asosan forsiy qabilalar yashagan.

SHOM — Suriya davlati va Damashq shahrining Sharq qo'lyozmalarida uchraydigan nomi.

XORAZM – dunyodagi eng qadimgi joy nomlaridan biri. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da (mil. avv. X–XX asrlar) Hvairizm yoki Hvayrizem shaklida, qadimiy fors yozma manbalarida – Huvarazmi va VI asrda ijod qilgan buyuk yunon tarixchisi miletlik Gekatey asarlarida esa Xorazmiya//Xorazmiya shaklida qayd etilgan. Gerodot bu ma'lumotni tasdiqlagan. Xorazm arab geograf larining (IX–XI asrlar) asarlarida Xvarizm sifatida uchraydi.

JUZ – qishloq. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumani. Yuz (juz – jelashgan shevalardagi talaffuzi) o'zbek qabilasi nomi bo'lib, qishloq shu nom bilan atalgan.

MO'SUL— Iroqning shimoliy qismidagi shahar. Dajla daryosi bo'yida. Naynova muhofazasining ma'muriy markazi. G'alla, meva, chorva mollari bilan savdo qilinadigan muhim markaz.

URGANCH - Xorazm v. shahar. Qadimgi eroniy tilda var/vara/ o'r/ur (qal'a, qo'rg'on) ganch/kent (shahar)-katta qasrli shahar. [S.Qorayev. 2006. 66 b.]

TERMIZ - shahar. Baqtriy tilida taramastha - narigi sohildagi manzil: Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi aholi maskani. Boshqacha talqin tabor (turkiy xalq) -iz (jamlik) taborlar yashaydigan qo'rg'on. Jayhun bo'yidagi obod shaharlardan. Bu shahar Xatlon va Chag'oniyonning savdo m arka-zidir..." [S.Qorayev. 2006. 61b.].

SAROY - Andijon, Qarshi t. qishloq. O'zbek xalqining tarkibidagi saroy qabilasining qishlog'i[S. Qorayev. 2006. 57 b.].

YANGIKENT - G'uzor, Ishtixon t. qishloq. Yangi qishloq, yangi qo'rg'on[S.Qorayev. 2006. 70b.].

HISOR (arabcha) — tekislikdagi qo'rg'on, qal'a; devor bilan o'ralgan istehkom. Turkiy tillarda hasar (ozarbayjoncha), asar (qo- zoqcha), isar (qirg'izcha), shevalarda esa zar kabi shakllar olgan. [S.Qorayev. 2006. 27b.]

SIRDARYO - daryo, tuman, viloyat. Sir (qadimgi turk) xalqining daryosi. Daryo nomi tuman, viloyat nomiga o'tgan. [S.Qorayev. 2006. 58 b.]

XIVA - Xorazm v. shahar. Xorazmiy tilida xiauv -a - qo'rg'oncha, kichik qal'a.

BUXORO - V., shahar. Sanskrit tilidagi vixara/vaqara/bihara (budda ibodatxonasi) so'zining turkiy, eroniy tillardagi o'zgargan shakli - buxoro - katta ibodatxona [S.Qorayev. 2006. 18 b.]

QO'QON - Farg'ona v. shahar. Eroniy ko'h (tog'),kant(qo'rg'on, shahar) tog' bag'ridagi shahar, balandlikdagi qo'rg'on. [S.Qorayev. 2006. 53.]

SAYRAM - To'raqo'rg'on t. qishloq. Ikki suv oqar joy (o'zan) orasidagi toshloq joy-sayram. Ana shunday joy atrofidagi, ikki suv oralig'idagi qishloq. [S.Qorayev. 2006. 57 b.]

QARG'ALI - Narpay, Sariosiyo t. qishloq. Qo'ng'irotlaming qanjig'ali bo'limiga mansub qarg'ali urug'i vakillarining qishlog'i. Qarg'a – totem. [S.Qorayev. 2006. 48 b.]

XITOIY – Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qishloq. Markaziy Osiyoda yashovchi xitoy, ktay qabilasini etnograflar hamda tarixchilar qoraxitoy (qorakidan yoki kidan)lar bilan bog'laydilar. [T.Nafasov. 2007. 363 b.]

G'AZNA, G'azni — Afg'onistonning Janubiy-Sharqiy qismidagi shahar, G'azni daryosi bo'yida, Kobul—Qandahor avtomobil yo'lida joylashgan. G'azni viloyatining ma'muriy markazi. Metallsozlikning qadimgi markazlaridan. Hunarmandchilikda palos, poyabzal, ip gazlama matolari va boshqalar tayyorlanadi. Jun, mo'yna bilan savdo qilinadi. Shaharning barpo bo'lgan davri ma'lum emas.

ASTROBOD– o'rta asr shaharlaridan. Hozirgi Eroning shimolidagi joylashgan kichik bir shahar bo'lib, Go'rgon deb ataladi.

QORAKO'L – Buxoro viloyatidagi tuman va shahar nomi. Qorako'l topo- nimining paydo bo'lishi, ma'nosi va tarixi o'ziga xos talqinlarga egadir. Avvalo, qora (qara) so'zi: a) rangni; b) kattalik, buyuklik, yiriklikni; d) jonli narsani (uyingda biror qara bormi? – uyingda birov bormi?); e) qo'rqinchli, yovuz kuchlarni; f) panohni, yordam berishni (sizni qora tortib keldim – sizdan panoh izlab keldim); j) baxtsizlikni; h) arab tilida esa qara shaklida uchrab, qishloqni anglatadi (qora so'zining boshqa ma'nolari

ham bor). Bularning qaysi biri Qorako‘l toponimining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin? Aslida Qorako‘l toponimining paydo bo‘lishini yuqoridagi sakkiz holat bilan ham bimalol bog‘lashga istagancha izoh topsa, uni shularga muvofiq rangiga qarab Qorako‘l, o‘lchamdan kelib chiqib Kattako‘l; atrofida majusiylar yashagani uchun Majusiylar ko‘li; odamlar ko‘p cho‘kib ketganligi uchun Yovuz ko‘li; odamlar panoh topganligi uchun Panohko‘l; baxtsizlikni ifodalaganligi uchun Baxtsizlik ko‘li; qishloqqa arablar kelib asos solganligi uchun Qarako‘l (Ko‘l bo‘yidagi qishloq) tarzida talqin qilsa bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki “Shajarayi tarokima” asari XV-XVII asrlarga oid bo‘lib, tarixiy asar va bu asar nafaqat adabiyot, balki tarix, geografiya, etnografiya fanlari uchun ham muhim manba hisoblanadi. Huddi shu singari biz tahlil qilingan toponimlar ham grammatik tuzilishi, yasalishi sof turkiycha, mo‘g‘ulcha nomlar bo‘lib, aksariyat qismi bugungi kunda ham iste’molda. Ammo ba’zi onomastik birliklar juda qadimiy bo‘lib alohida ilmiy yondashuvni va tahlilni talab qiladi. Asarda keltirilgan qabila, urug‘ nomlarining kelib chiqishi izohlangan va nomlashga asos bo‘lgan sabablar ham keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlarning asosli ekanligi, boshqa manbalarda keltirilgan yoki keltirilmaganligi ham izohlanishi lozim. Asarda keltirilgan onomastik birliklarni keng ko‘lamda, to‘liq tahlil qilish turkiy tillar tarixi, onomastika sohalari uchun katta manba bo‘lib hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима (Нашрга тайёрловчи Қ.Маҳмудов) \\\ Тошкент: Чўлпон, 1995, 47 б.
2. Bayramali Qilichev. Onomastika (o‘quv qo‘llanma) \\\ Buxoro 2023, 76 b.
3. Turdibekov Mo‘minjon. Shajarayi turk onomastikasi (Monografiya) \\\ Toshkent: Nodirabegim, 2020, 103 b.
4. Qo‘chqor Hakimov. Toponomika \\\ Toshkent: Mumtoz so‘z. 2016, 346 b.
5. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponomika (o‘quv qo‘llanma) \\\ Toshkent – Navro‘z. 2017, 130 b.
6. Ўғузнама. (нашрга тайёрловчи Бахтиёр Исабек) Тошкент: Ўзбекистон, 2007, 26 б.
7. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022, 624 b.
8. Nafasov To‘ra, Nafasova Vazira. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. \\\ Toshkent – Yangi asr avlodi. 2007, 88 b.
9. Qorayev Suyun. Toponomika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006, 318 b.

O‘ZBEK VA RUS TILIDAGI “MEHMONDO‘STLIK” KONSEPTLI MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Shohista Eshankulova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada etnosemantikani o‘rganish, o‘zbek va rus tillaridagi mehmondo‘stlik semantikasiga ega bo‘lgan barqaror birliklarni tavsiflash va taqqoslash asosida umumiy va milliy o‘ziga xoslikni aniqlash. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va rus rasm-rusmlarida mehmondo‘stlikni lingvistik konsepsiyalashning lingvistik va madaniy xususiyatlarini yoritib berish.

Kalit so‘zlar: Mehmondo‘stlik, mehmondo‘stlik semantikasi, frazeologik birliklar, etnosemantika, lingvistik konsepsiya.

Kundalik hayotda odamlarning o‘zaro ta’sirini tartibga soluvchi qadriyatlar nafaqat baholash bayonotlarida aks etadi, balki boshqa til vositalari yordamida amalga oshiriladi, masalan, ular frazeologik va

ikkinchi darajali nominatsiya belgisi sifatida tilning paremiologik fondlariga tayanadi [1, 15-bet].

“Mehmondo'stlik” so'zi va u tomonidan ifodalangan kontseptsiya milliy jihatdan o'ziga xosdir. Rus tillari ongi uchun va inson faoliyatining ahamiyati va ustuvorligi sifatida madaniyatning asosiy tushunchalari toifasiga kiradi [2, 11-bet].

Mehmondo'stlik madaniyat hodisasi sifatida har doim yordam berishga majbur bo'lgan axloq bilan bog'liq kambag'allarga, ularga samimiy kutib olish, baham ko'rish ular bilan oilaviy bayram.

Ma'lum bir tilning frazeologik boyligi shu til vakillarining mifalogik, tarixiy-etnografik, hissiy tuyg'ularini, madaniyati va urf odatini ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lganligi, lingvistik va madaniy tomonidan tubdan farq qilishi uning mehmondo'stlikni ifodalovchi frazeologik birliklarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi qadim qadimdan mehmondo'st bo'lganligi bois mehmondo'stlikni ifodalovchi maqollari talaygina. Masalan:

- 1) Mehmon -otangdan ulug'.
- 2) Osh -mehmon bilan shirin.
- 3) Qo'noqqa osh ber, otiga yem.
- 4) Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida mehmondo'stlik atamasi salmoqli o'rinni egallaydi. Birinchi misolda Mehmon “hurmat qilinishi shart bo'lgan inson” sifatida tasvirlangan bo'lsa, to'rtinchi misolda mehmonga juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligi, hattoki kichkina harakat bilan hammehmonning ko'ngliga ozor berib qo'ymaslik kerakligi ifodalangan. Tadqiqot davomida oydinlashdiki, O'zbek tilidan farqli o'laroq, ingliz tilida, sof ingliz tilida mehmondo'stlikni ifodalovchi paremlar nisbatan kamligi tufayli ayrim mehmondo'stlikni ifodalovchi paremiologik birliklarning mos variantini topish nisbatan qiyin, lekin bu kabi frazeologik birkiklarni ingliz tiliga boshqa xalqlardan o'zlashgan maqollar yordamida ifodalashimiz mumkin. Masalan:

1) Guest coming into house — God coming into house (polsha xalq maqoli) (mehmon kelgan uyga Xudo keladi) Mehmon — atoyi Xudo.

2) A constant guests never welcome. (lotin maqoli) (doimiy mehmon hechqachon xush kelmas) Oyda kelganga — oyoq, kunda kelganga tayoq.

3) Fish and guests smell when they are three days old. (hind maqoli) (uch kunlik mehmon va baliqning hidi bir xil hid taratadi) Even the most welcome guest is more than enough for three days. (venger maqoli) (hatto eng yoqimli mehmon ham uch kun qadrlanadi). Mehmonning izzati -uch kun.

Ushbu kontseptsianing “umuminsoniyli” emas uning aniq tushunchasidan dalolat beradi, aksincha, u turli ma'nolar bilan to'ldiriladi. har bir lingvokulturada va dunyoning “qiymat-ma'noli bilimi” ga aylanadi [3, 9-bet].

Rossiy yirik davlatdir, uzoq tarix va boy an'analarga ega. Bular tarixiy rivojlanish jarayonida mamlakatlar o'zlarining urf-odatlarini, urf-odatlarini va turmush tarzini shakllantirdilar, bu ularning tillari va madaniyatlarida aks etdi [4, 18-bet]. Allaqachon mehmonlarni qabul qilish marosimining tavsifi aniqlanishi mumkin shunga o'xshash ko'plab lug'at iboralari.

Ruslar har doim mehmondo'st hisoblangan xalq tomonidan bu o'ziga xos milliy xususiyat dunyoning lingvistik va frazeologik rasmlarida to'liq aks ettirilgan.

Mehmonlar hayot xabarchilari sifatida baxt va quvonch keltirishi mumkin, shuning uchun ular uyda band bo'lishadi faxriy joy. Bu maqollarda ham qayd etilgan, masalan:

O'zbek tilni etimologik jihatdan o'rganish jarayonida bu tilida boshqa tillarga qaraganda mehmondo'stlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning ko'pligi bu sohaga alohida katta e'tibor berilib kelinganligidan dalolat beradi. Bunday birliklarni turli xil ma'nolarda ishlatish o'rniga qarab o'z navbatida turkumlarga ajratish mumkin. Masalan:

- 1) Mehmonning azizligini ifodalovchi maqollar:
 - a) Mehmon — aziz, mezbun — laziz;
 - b) Mehmon izzatda, mezbun xizmatda;
 - c) Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan;

d) Mehmon —uy ziynati

2) Mehmonni siylash kerakligini ifodalovchi maqollar:

a) Osh —mehmon bilan aziz;

b) Qo‘noqqa osh ber, otiga —yem;

c) Mehmonga osh qo‘y, ikki qo‘lingni bo‘sh qo‘y;

d) Mehmon kelsa pastga tush, palov bermoq ahdga tush.

3) Mehmon har qancha ulug‘lansa ham, buning chegarasi borligini, mehmon o‘z hurmatini, izzatini bilishi kerakligini ifodalashiga ko‘ra:

a) Oyda kelganga —oyoq, kunda kelganga —tayoq;

b) Chaqirilmagan mehmon —sariq itdan yomon;

c) Chaqirilmagan qo‘noq —yo‘nilmagan tayoq

d) Betamiz mehmon mezbonni qistar.

4) Rus tilida esa “mexmondo‘stlik” tushunchasini ifodalovchi quyidagi maqollarni keltirishimiz mumkin:

a) гости ходить —надо и к себе водить;

b) позднему гостю —кости;

c) будь как дома, но не забывай, что в гостях;

d) хороший гость всегда вовремя;

e) идешь в гости —неси подарок в горсти.

Xulosa. Rus xalqlarida ham mehmonga bo‘lgan bo‘lgan izzat, ehtirom juda kuchli hisoblanadi. Ruslarda mehmon tashrif buyurgan uyga quvonch va zavq keltiradi. Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ma’lum bir mavzudagi tilning etimologik jihatiga, xalqning kundalik turmush tarziga, dunyoqarashiga, urf odatlariga, tarixiy rivojlanishiga bog‘liq holda vujudga kelgan mantiqiy xulosalarning ifodasi bo‘lmish paremalarning ifodalanishi va mazmuni jihatidan milliy xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Yuqoridagi misollar ham madaniy sharoitda vujudga kelgan bo‘lib, frazeologik qatlamni boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Judith N. Martin, Thomas K. Nakayama. Intercultural Communication in Contexts. USA, New York: Taylor sifranis group, 2003.

2. Usmanova Sh. “Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari” fanidan ma’ruzalar kursi. —Toshkent: 2014.

3. Исламджанова Х. Лингвокультурологические аспекты переводческой деятельности. Учебное пособие. —Т.: 2011.

4. Токарев Г. В. Лингвокультурология. Учебное пособие. —Тула: Издательство Т

YOZUV. YOZUVNING PAYDO BO‘LISHI

Shahboz Ismatov,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvning paydo bo‘lishi xalqimizga juda katta ahamiyat kasb etilishi ma’daniyat va tilning taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi hozirgi kundagi zamonaviy so‘zlarni sodda va ra’von tushuntirish, yetkazib berish hamda tariximizdagi yozuvlar qanday bo‘lganligi, qay tartibda ekanligi, qay ko‘rinishda bo‘lganligi aynan bir so‘zning bir gapdagi takrori tavalogiyani yuzaga keltiradi uning paydo bo‘lish tarixi unda qaysi olim va olemalarimiz jonbozlik ko‘igi haqida bilib olishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Fonetik, leksik, grammatik, iyerogliflar, shumer mixxati, piktogramma, ideografik, logografik, iyeroglifik.

Til dastlabki qarashda barqaror, o'zgarmas fonetik, leksik va grammatik sistemani tashkil etadi. Masalan: bizga fikr almashish quroli bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek tili, bobolarimizga ham, ota-onalarimizga ham birday xizmat qilib kelgan. (M.T.Irisqulov. "Tilshunoslikka kirish". 220-bet Toshkent yangi asr avlodi 2009-yil)

Aslida bu yozuvlar qanday yaratilgan, qay tartibda, qay ko'rinishda qay shaklda bo'lganligiga bir nazar tashlasak.

Grafika atamasi grek tilidagi "graphicos" so'zidan olingan bo'lib "yozilgan", "ifodalangan" degan ma'nolarni anglatadi. Bu harflarning yozilish shakllari va harf bilan tovush orasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandır. (M.T.Irisqulov "Tilshunoslikka kirish". 226-bet Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2009-yil)

Yer yuzida ilk yozuv belgilari dastlab Osiyo va Shimoliy Afrika (qadimgi Misr) xalqlari tomonidan yaratilgan. Olimlar qadimgi yozuvlarni bir necha turlarga bo'lganlar. Ulardan dastlabkisi, "eslatuvchi belgilar" deb yoki "buyimli yozuv" deb ataluvchi turlaridan foydalangan. Qadimgi yozuvning yana bir turi „rasmi yozuv“ edi. Qadimgi ajdodlarimiz turli hayvonlarning rasmlarini toshlarga, suyaklarga va G'orlarning devorlariga o'yib tushirganlar. Ular faqat rasmgina bo'lib qolmay, biror holatni anglatuvchi o'ziga xos axborot ham edi. Hayot rivojlanib borgan sari rasmi yozuvlar kishilar ehtiyojini qondira olmay qoldi. Natijada yozuvning yangi turi "So'z yozuvi" shakllandi.

Qadimgi Misr hamda Xitoy iyerogliflari, shumer mixxati va boshqalar buning dastlabki namunalari bo'ldi. Biroq iyerogliflar bilan yozish oson ish emas edi, chunki ko'p miqdordagi iyerogliflarni yodda saqlab qolish o'G'ir edi.

Hayot endi alifboli yozuv kashf etilishini talab qila boshladi. Dunyoda birinchi alifboni, ya'ni harfli yozuvni miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida qadimgi finikiyaliklar yaratishdi va u Finikiy yozuvi deb ataldi. Finikiy alifbosi 22 ta harfdan iborat bo'lib, u o'ngdan chapga qarab yozilgan. Dunyodagi hozirgi yozuvlarning beshdan to'rt qismidan ko'proG'ining asosida finikiy yozuvi yotadi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda lotin alifbosi yaratildi.

Yozuvning paydo bo'lishi juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, u ma'daniyat va tilning taraqqiyotiga ijobiy hissa qo'shdi. Yozuv voqea va hodisalarni (axborotni) uzoq masofaga yetkazish imkonini berdi. Tariximizga katta e'tibor bilan nazar soldik. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan ilm-fan texnika o'zgarishlariga bir e'tiborimizni qaratsak adashmagan bo'lamiz.

Yozuv ehtiyoj tufayli paydo bo'ldi. Boshlang'ich davrlarda xotirada saqlab qolish vositasi tabiat predmetlari bo'lgan. Predmetlar simvolikasi shunday vazifani bajargan. Masalan. qarama-qarshi qabila vakillarining navbatma-navbat trubka chekishi tinchlik simvoli bo'lgan. Slovyan qabilalarida ilgari va hozir ham mehmonni non va tuz bilan kutib olish do'stlik va hurmat belgisidir.

Yozuv jamiyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta rol o'ynaydi. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi - dunyoning turli nuqtasida paydo bo'lgan yirik siyosiy, ilmiy, texnikaviy va adabiy voqealar barcha xalqlarning mulkiga aylandi.

Agar yozuv bo'lmaganida, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha etib kelmagan bo'lar edi, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Alisher Navoiy singari buyuk siymolarning donishmandona fikrlaridan bahramand bo'la olmas edik. Yozuvning yutug'i: tilda bo'lmagan imkoniyatlar yozuvda yuzaga chiqadi. Ammo u tilning to'liq aksi emas, balki shartli va sun'iy aksidir. Yozuv tilga nisbatan kam o'zgarib, uning vazifasi ham bir muncha chegaralanganidir. Jamiyatning kelgusi taraqqiyotida radio va televizion, internet aloqa vositalari kabi yozuvdan ustunroq bo'lgan yangi vositalar ham yuzaga kelishi mumkin.

Xullas, harf yozuvi asosida paydo bo'lgan ilmiy simvolika tafakkur taraqqiyotini tezlashtirishda, fikrlash, o'ylash va isbotlashning yanada yuqori darajaga ko'tarilishida muhim rol o'ynadi va o'ynamoqda.

Tildagi uzoq yillar mobaynida yuz bergan fonetik, grammatik yaruslardagi o'zgarishlardan faqat yozuv tufayligina xabardormiz. Faqat yozuvini til evolyutsiyasi to'G'risidagi tasavvurimizni jonlantira olishi mumkin.

Yozuv o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki ma'lum bir ehtiyoj va zarurat asosida fikrni uzoq masofaga

yetkazish yoki keyingi avlodlarga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Uning o‘ziga xos xarakterli belgilari bor.

1. Yozuv mustaqil va asosiy aloqa vositasi bo‘lolmaydi, yordamchi vosita hisoblanadi.

2. Nutqni uzoq masofaga yetkazish va keyingi davrlarga qoldirish uchun xizmat qiladi. Grafik belgilar yozuvning asosiy qurolidir.

Demak, yozuv ko‘z bilan ko‘radigan va kishilar o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladigan grafik belgilar sistemasi bo‘lib, uning jamiyatda o‘ziga xos katta o‘rni va xizmati bor, ya’ni yozuv ma’lum bir masofa bilan ajralgan odamlar orasidagi aloqalarni yaxshilashda, yozma adabiyotlarni va yozma adabiy tilni yuzaga keltirishda, ma’lum bir davrda yaratilgan madaniy- adabiy yodgorliklarni keyingi davrlarga yetkazib berishda nihoyat darajada muhim rol o‘ynaydi.

Olimlar yozuvning paydo bo‘lishi va ahamiyati to‘G‘risida maxsus asarlar yozishgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy Aristotelning “Ritorika” asariga yozgan sharhida yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan. U tilshunoslikning mundarijasini olti bo‘limdan iborat deb belgilaydi va beshinchisi “yozuv qonunlari va to‘G‘ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan” ekanligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek: “tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz” shiori ostida olimlarimiz bugungi kundagi yozuv turlarini yanada mukammallashtirdi.

Bu yozuv turlaridan Piktografik yozuv. Bu atama ikki so‘zdan iborat bo‘lib, birinchi yarmi lotincha pictus (chizilgan) va ikkinchi yarmi grekcha grapho (yozaman) degan ma’nolarni anglatadi. Bu yozuv birliklarini piktogrammalar deb atashadi.

AQSh ning taniqli olimi L.Blumfild bu yozuvga misol tariqasida quyidagilarni keltiradi. Amerikaning mahalliy objibva qabilasining bir a’zosida daraxtning uzun po‘stlog‘i bo‘lgan. Po‘stloqda bir qancha shakllar chizilgan bo‘lib (tulki, boyo‘li va boshqalar), u aytadigan muqaddas qo‘shiq tartibini ko‘rsatar edi. (M.T.Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish” 220-bet Toshkent „Yangi asr avlodi”. 2009-yil)

Tushunchalar mavhum tafakkurning rivojlanishi natijasida piktografik yozuv asta-sekin mukammallashib bordi va natijada Ideografik. Logografik. Iyeroglifik (grekcha „idea” - tushuncha va „grapho” - yozaman degan so‘zlardan tashkil topgan) yozuv paydo bo‘ldi. (M.T.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” 221-bet Toshkent “Yangi asr avlodi”. 2009-yil) Logografik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilardan iborat.

Logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo‘lgan matnni ancha mufassal aks ettira oladi. Piktografik yozuvda so‘z tartibi, so‘z shakllari noaniq bo‘lsa, logografik yozuvda bu masalalar umuman hal qilingan.

Piktografik yozuv subyektivlikka, ixtiyoriylikka, yo‘l qo‘ysa logografik yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan. (A.Hojiyev “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 114-bet Toshkent. 2007-yil).

Bu yozuvlar juda murakkablashib ketdi, masalan: Logografik yozuvning biroz mukammallashgan shakli iyeroglifik yozuv deb nom olgan. Iyeroglif so‘zi grekcha “hiyeroglyphoi” so‘zidan olingan bo‘lib, u muqaddas yozuv demakdir.

Bu o‘zgarish tilshunos olimlarimiz L.Blumfild. M.T.Irisqulov. E.Yuldoshev. U. Sharipovalar bu ish ustida anchayin ter to‘kdilar. Bu yozuv turlari biz yoshlarni to‘g‘ri yozishda, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda ayni damda o‘zbekligimizni sodda va ravon so‘zlashishi bilan boshqa davlatlar orasida ajralib turishi eng asosiysi o‘zbek o‘ziga bek ekanligini baralla ayta oladigan yurt farzandlari bo‘lishiga yordam beradi. Abduhalimov Bahrom Abdurahimovich aytganlaridek “Rivojlangan ta’lim tizimi va raqobatbardosh ilm-fan yangi O‘zbekistonning eng yuksak qiyofasi bo‘lmog‘i zarur” degan fikrlariga tayanib biz yoshlar maktabgacha talimda, maktab va kollej, tehnikum, universitetlarda yaxshi bilim va ko‘nikma olib yurtimizni yanada rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishiga o‘z hissamizni qo‘sha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2009.
2. H. Jamolxonov(2005-yil) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent “Talqin”
3. Sh Rahmatullayev(2006-yil) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent
4. A.Hojiyev (2007-yil) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent 114-bet
5. www.Ziyo.net

TURK VA O'ZBEK TILLARIDAGI "ALDOQCHI SO'ZLAR"

Gulasal Xayrullayeva,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikdagi "faux amis" — yolg'on do'stlar (ikki yoki undan ortiq tilda aynan bitta yoki bir xil o'zakka ega so'zlar boshqa ma'no anglatishi hodisasi) tushunchasi hamda turk tilida "yalanci eş değerler" (eş sesteşli sözcükler) deb nomlanuvchi terminlar aynan o'zbek va turk tillari doirasida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turk tili, faux amis, yolg'onchi so'zlar, omofon.

Ma'lumki, tillarni o'zaro qiyoslab o'rganish tilshunoslikning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Negaki tillarning grammatikasini qiyoslab o'rganish bu tillarning va lahjalarining shakllanish jarayonlari, tarixiy tarqqiyoti, har bir turkiy tilning o'ziga xos rivojlanish yo'llari, ularning fonetik tizimi, leksik va morfologik xususiyatlari, lug'at tarkibi, grammatik qurilishdagi o'xshash va farqli tomonlarini yanada chuqurroq o'rganishga yo'l ochadi (Abdurasulov Y, 2009, 7-bet). Garchi tillarni qiyoslab o'rganish G'arb tilshunoslari tomonidan boshlangan deyilsa-da, aslida bu Sharqda o'rta asrlarda yuzaga kelgan bo'lib, turkiy tillarni qiyosiy o'rganishni XI asrda yashagan buyuk qomusiy olim — Mahmud Koshg'ariy boshlab bergan.

O'zbek va turk tillari ham bir umumiy oilaga mansubligi uchun qardosh tillar hisoblanadi. Shu jihatdan bu ikki tildagi so'zlar bir-biriga juda o'xshaydi. Mana shu o'xshashlik ko'pchilikni chalg'itadi. Turk va o'zbek tillarida shaklan bir xil bo'lsa-da, mazmunan bir-biriga teskari ma'no ifodalovchi so'zlar ham talaygina. Turk tilida yangi so'zni o'rganayotgan insonlar ba'zi so'zlarning talaffuzi va yozilish shaklining o'zbek tilidagi so'zlarga o'xshashini ko'rib, tarjimasi ham xuddi shu so'zga teng bo'lsa kerak, deb taxmin qilishadi. Bu esa ba'zi hollarda so'zni noto'g'ri anglashga, yanglish tarjima qilishga olib keladi.

Keling, shunday so'zlardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz:

Muz. Bu so'zni ilk marta uchratgan odam o'zbek tiliga ham "muz" deb tarjima qilishi tabiiy. Lekin bu so'z turk tilida "banan" degani. O'zbek tilidagi "muz" so'zi turk tilida "buz" deyiladi.

Kravat. Bu so'zni ham ko'pchilik yotish uchun mo'ljallangan jihoz deb o'ylashadi. Lekin unday emas. Bu so'z turk tilida "galstuk, bo'yinbog'" degani. Turk tilidagi "yatak" so'zi biz o'ylagan "kravat" so'ziga mos keladi.

Bekar. Turk tilini o'rganayotgan o'zbek millatiga mansub kishilar bu so'zga ilk bor duch kelishganda "bekor, bekorchi" ma'nolarini ifodalovchi so'z deb hisoblashadi. Ammo bu so'z turk tilida "bo'ydoq" ma'nosini anglatadi.

Para. Bu so'z o'zbek tilidagi "pora" emas, aksincha, turk tilida bu so'z "pul" demakdir. Bizdagi para esa turkchada "rüşvet" so'zi orqali ifodalanadi.

Baba. Bu so'z o'zbek tilidagi "bobo" ma'nosida qo'llanilmaydi. Turk tilidagi bu so'z "ota" semasini ifodalaydi.

Dede. Ushbu so'z ham turk tilida biz o'ylagan "dada" ma'nosida emas, balki "bobo" ma'nosida ishlatiladi.

Hala. Qarindoshlarga bog'liq mavzu o'rganilayotganda bu so'zga ham, albatta, duch kelamiz. Ko'pchilik bu so'zni o'zbekchadagi "xola" deb o'ylaydi. Ammo bu so'z "amma" degani. Xola turkchada "teyze" deyiladi.

Quyidagi jadvalda o'zbek va turk tillaridagi talaffuzdosh so'zlarning ma'no nozikliklariga to'xtalib o'tamiz:

Turkcha — O'zbekcha O'zbekcha — Turkcha

ilaç — dori iloj — çare

yurt — yotoqxonayurt — ülke

şaşırmak — hayron qolmoq shoshirmoq — acele ettirmek

tasarruf etmek — tejamoq tasarruf etmoq — harcamak
zor — qiyin zo‘r — güzel
havlu — sochiq hovli — avlu
pencere — deraza panjara — kafes
ünlü — mashhur unli — ünlü
karı — rafıqa qari — ihtiyar, yaşlı
halı — gilam hali — hala
izlemek — kuzatmoq izlamoq — aramak
ulaşmak — yetmoq ulashmoq — paylaşmak
kaynak — manba qaynoq — sıcak
havuç — sabzi hovuch — avuç
eğlenmek — masxara qilmoq aylanmoq — gezmek
üzmek — xafa qilmoq uzmoq — koparmak
yaman — yaxshi yomon — kötü
seyretmek — tomosha qilmoq sayr etmoq — gezmek
kaba — qo‘pol Ka‘ba — Kâbe
macera — sarguzasht mojaro — kavga
ayağını yerden kesmek — mashina olmoq, xursand bo‘lmoq oyog‘i yerdan uzilmoq — hava atmak

O‘zbekcha va turkchada tamoman farqli ma’nolarni anglatuvchi talaffuzdosh so‘zlar

O‘zbekcha	Turkcha
Ayiq — hayvon (turk. ayı)	Ayık — hushyor
Andisha — uyat, nomus (turk. utanç)	Endişe — xavotir, tashvish
Ariza — rasmiy hujjat (turk. dilekçe)	Arıza — kamchilik, nuqson
Bekor — ishsiz, bo‘sh (turk. işsiz, boş)	Bekâr — bo‘ydoq
Biroq — ammo, lekin (turk. ama)	Bırak — tashla, qoldir
Bobo — ota yoki onaning otasi (turk. dede)	Baba — ota, dada
Boja — (turk. bacanak)	Baca — mo‘ri
Bormoq — fe‘l (turk. gitmek)	Parmak — barmoq
Bosim — siquv, tazyiq (turk. basınç, tazyik)	Basım — bosma
Bosiq — og‘ir, vazmin (turk. ağırbaşlı)	Basık — past, tuban
Boshliq — rahbar (turk. başkan, yönetici)	Başlık — bosh kiyim
Boy — mol-mulki ko‘p odam (turk. zengin)	Bay — janob
Buyrak — inson a‘zosi (turk. böbrek)	Börek — taom turi
Chana — qor mashinasi (turk. kızak)	Çene — iyak
Chiqishmoq — kelishmoq (turk. anlaşılmak)	Çıkışmak — tanbeh bermoq
Chorva — hayvon (turk. evcil hayvan)	Çorba — sho‘rva
Cho‘zmoq-uzaytirmoq (turk. uzunlaştırmak)	Çözmek — yechmoq
Dada — ota (turk. baba)	Dede — bobo
Deyarli — qariyb (turk. neredeyse)	Değerli — qadrli, qiymatli
Domla — ustoz (turk. hoca)	Damla — tomchi
Ezgu — yaxshi (turk. iyi, hayırlı)	Ezgi — ohang
Fuqaro — vatandosh (turk. uyruk)	Fukara — kambag‘al, faqir
Gul — chechak (turk. çiçek)	Gül — atirgul
Go‘l — sodda (turk. saf)	Göl — ko‘l
Hozir — ayni payt (turk. şimdi)	Hazır — tayyor
Iflos — kir (turk. pis, kirli)	Iflas — xonavayron bo‘lmoq
Izlamoq — qidirmoq (turk. aramak)	İzlemek — tomosha qilmoq
Kasofat — falokat (turk. felâket)	Kesafet — zichlik

Ko'rpа — qalin yopinchiq (turk. yorgan)	Körpe — yangi, toza
Olishmoq — kurashmoq (turk. savařmak, mücadele etmek)	Alışmak — odatlanmoq
Ovqat — taom (turk. yemek)	Avukat — advokat
Peshin — tushdan keyin (turk. ikindi)	Peřin — naqd
Pora — korrupsiya (turk. rüşvet)	Para — pul
Qarmoq — to'r (turk. olta)	Karmak — qorishtirmoq
Reja — plan (turk. plan, proje)	Rica — iltimos
Ro'zg'or — oila, turmush (turk. aile)	Rüzgâr — shamol
Sag'ir — yetim (turk. öksüz, yetim)	Sağır — kar, garang
Salmoq — og'irlik (turk. ağırlık, nüfuz)	Salmak — qo'yib yubormoq, bo'shatmoq
Sari — tomon (turk. doğru, taraf)	Sarı — sariq
Sariq — rang (turk. sarı)	Sarık — salla
Savdo — tijorat (turk. ticaret, alışveriş)	Sevda — ishq, muhabbat
Sayin — borgan sari (turk. gitgide)	Sayın — hurmatli
Sig'inish — topinish (turk. tapınma)	Sığınıř — yashirish
Sil — o'pka kasali (turk. verem)	Sil — o'chir
Sovchi — quda (turk. dünür, görücü)	Savcı — prokuror
So'qmoq — yo'l (turk. patika, geçiyolu)	Sokmak — tiqmoq, suqmoq
Shay — tayyor (turk. hazır)	Şey — narsa
Shekilli — ehtimol, balki (turk. galiba)	Şekilli — shaklli
Tinch — sokin (turk. sakin, huzur)	Dinç — sog'lom, baquvvat
Topmoq — qidirib topmoq (turk. bulmak)	Tapmak — topinmoq
Toza — pokiza (turk. temiz)	Taze — yangi
Tufayli — sababli (turk. dolayı, sebebiyle)	Tufeyli — tekinxo'r
O'pka — organ (turk. akciğer)	Öfke — qahr, g'azab
Ushoq — uvoq (turk. ekmek kırıntısı)	Uřak — xizmatkor
Va'da — so'z berish (turk. söz)	Vade — muddat, muhlat

Turk va o'zbek tillaridagi omofonlarni solishtirishda turli ma'nolarda qo'llaniladigan so'zlarning ko'pligi e'tiborni tortadi. Bundan ko'rinib turibdiki, turk va o'zbek tillari bir-biriga juda yaqin, tushunilishi qiyin bo'lmagan, eng asosiysi, bir oilaga mansub bo'lsa-da, ulardagi talaffuzdosh va shaklan o'xshash so'zlar o'ziga xos ma'no nozikliklariga ega, ba'zida butunlay boshqa ma'noda qo'llaniluvchi so'zlar bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qardosh tillarni qiyosan o'rganish, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini kuzatish va tahlil etish yangi bilimlarni, o'sha tildagi so'zlarning semalarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga keng yo'l ochadi. Tillarni qiyosiy tahlil qilish avvaldan shakllanib qolgan eskicha qarashlarni ham o'zgartirishga olib keladi. Ayniqsa, turkiy tillarni qiyosiy tahlil va tadqiq etish lug'at boyligimizning ham oshib borishiga imkoniyat yaratadi. Bu o'z o'rnida turkologiya sohasi uchun hamda ikki qardosh xalq uchun ham juda muhim va foydalidir.


Bugungi jamiyat taraqqiyoti bitta til bilan cheklanib qolmasdan, bir nechta tillarni o'rganishni talab qilmoqda. Shu bois boshqa tillarni o'rganayotganimizda ba'zi so'zlar o'z tilimizdagi so'zlarga yaqin yoki aynan bir xilligiga duch kelamiz. Shu o'rinda so'zlarning anglatayotgan tushunchasiga, semalariga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Bu esa nutqimizni turli g'alizliklardan saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Abdurasulov Y. (2009) Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma — Toshkent: Fan.
2. Aziz Merhan. (2012) Türkçe ve özbekçe eşesli sözcük karşılaştırması. - Erzurum.
3. Dadaboyev H., Xolmanova Z. (2015) Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. — Toshkent.

4. Xolmirzayeva N., Zakirova H. (2020) Tillar doirasida so‘z o‘xshashliklari.//Tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlar: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya — Andijon.
 5. BERDAK, Yusuf. (2007) Türkçe ve Özbekçeде “Yalancı Eş Değerler”. Uluslararası Türk Dil Kurultayı - Ankara.
 6. BERDAK, Y., Mehmet, M. (1994) Sözlük Özbekistan Türkçesi — Türkiye Türkçesi, Türkiye Türkçesi - Özbekistan Türkçesi. — İstanbul.
 7. YAMAN, Ertuğrul. (2000) Türkiye Türkçesi ve Özbek Türkçesinin Söz Dizimi Bakımından Karşılaştırılması. - Ankara.
- 





TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



ONA TILI DARSLIKLARIDA "GAP BO'LAKLARI TARTIBI" MAVZUSINI O'QITISH

Dilnoza Boymatova,
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dots.v.b.*

Annotatsiya

So'z tartibi va uning o'zgarishi (inversiya) hodisasi tilshunoslik hamda unga yondosh bo'lgan adabiyotshunoslikda o'zining muayyan tadqiq obyektiga egadir. So'z tartibi logik-grammatik bo'lak va uslubiy talabga binoan tuziladi hamda uning o'zgarishi uslubiy vazifani bajaradi. Bu vazifalarni pedagogik texnologiyalar asosida tushuntirish maqolamizning asosini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: *so'z tartibi, inversiya, adabiy til, gap bo'laklari, emotsional nutq.*

Annotation

The phenomenon of word order and its change (inversion) has its specific object of study in linguistics and related literary studies. The word order is formed according to the logical-grammatical part and stylistic requirement, and its change fulfills a stylistic task. Explanation of these tasks based on pedagogical technologies forms the basis of our article.

Key words: *word order, inversion, literary language, sentence fragments, emotional speech.*

So'zlar tartibi o'zbek tilida nisbatan erkin bo'lganligi sababli gap bo'laklarini aktuallashtirish imkoniyatlari juda yuqori. Shuning uchun ham mavqeyi jihatidan intonatsiya hal qiluvchi omil bo'lib, uning kommunikativ funksiyasi deyarli barcha kontekstda ustun hisoblanadi, ya'ni xabar mazmunidagi informativ markazni belgilab beradi, shuningdek, jumлага emotsional bo'yoqdorlik berish kabi uslubiy vazifani ham bajaradi. Gapda bo'laklarning to'g'ri tartibi logik-grammatik bo'lak va uslubiy talabga binoan tuzilsa, bo'laklar tartibining o'zgarishi ko'pincha uslubiy vazifani bajarib, emotsional nutqning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi [Musayev A., 2000: 28-32]. Adabiy tildagi odatdagi tartib grammatik yoki mantiqiy-grammatik, grammatik-uslubiy talablarga muvofiq turli o'zgarishlarga uchrasa, inversiya hodisasi vujudga keladi. Inversiyani vujudga keltiruvchi va belgilovchi omillar gapning tuzilishi, gap bo'laklarining ifodalanish usuli va joylashish o'rnini, nutq xarakteri va urg'uning o'rnini kabilardir.

Gap bo'laklarining tartibi o'zbek tilida, asosan, erkindir. Gapda ularning o'rnini almashtirish har doim ham grammatik holatni o'zgartiravermaydi. Masalan: *Talabalar yozgi ta'tilga chiqishdi. Yozgi ta'tilga talabalar chiqishdi.* Bu gaplarda so'zlarning o'rnini almashtirish bilan grammatik holat o'zgarmagan. Shunday bo'lsa-da gapning mazmuniga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Odatda ega gap boshida, kesim esa gap oxirida, ikkinchi darajali bo'laklar orasida keladi. Bu esa gapdagi to'g'ri tartib hisoblanadi. Ammo ayrim hollarda gap bo'laklarining o'rnini o'zgaradi bu esa ma'noni ham o'zgartiradi. Ega bilan kesimning tartibini o'zgartirsak, ega kesim va aksincha kesim ega bo'lib qoladi. Masalan: *ikki yorti — bir butun; bir-butun — ikki yorti.*

Eganing ko'proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men keldim*), hol (*obista gapirdi*) va to'ldiruvchining kesimdan (*she'rni yod oldi*), aniqlovchining egadan oldin (*qizil gul, do'stimning akasi*) joylashuvi odatdagi, me'yoriy tartibdir. Ma'no kuchaytirish uchun muhim bo'lak kesim oldiga o'tkaziladi. Masalan: 1. *Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga ketdi* (boshqa yerga emas, Toshkentga). 2. *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg'onadan ketdi* (boshqa yerdan emas, Farg'onadan). 3. *Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda ketdi* (boshqa narsada emas, samolyotda). 4. *Kecha samolyotda Farg'onadan Toshkentga akam ketdi* (boshqa kishi emas, akam). 5. *Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha ketdi* (boshqa kuni emas, kecha). Odatdagi tartib ilmiy va rasmiy uslub uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos [Qodirov H.va b., 2022: 93].

Gap bo‘laklarining tartibini qiyidagi sxema orqali tushuntirish anchayin sodda va mazmunli bo‘ladi:

Odatdagi tartib

Ega → kesim

Aniqlovchi → ega → to‘ldiruvchi → hol → kesim

O‘zgargan tartib

Kesim → ega

Kesim → to‘ldiruvchi

Ega → kesim → hol

Odatdagi tartib:

1. Ega o‘zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: *Bilimdon talabalar topshiriqni puxta bajaradilar.*

2. To‘ldiruvchi o‘zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: *Kechagi vazifani bajarish kerak.*

3. Payt holi va vaziyat holi kesimdan oldin keladi: *Kechagi voqeani kula-kula so‘zlab berdi.*

O‘zgargan tartib

1. Ega kesimdan keyin keladi: *Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar.*

2. To‘ldiruvchi kesimdan keyin keladi: *Kezdim gulzor yang‘lig‘ bog‘larni.*

3. Payt holi, o‘rin holi va vaziyat holi kesimdan keyin keladi: *Bir doktor kelibdi Toshkentdan. Gapiydi zavqlanib.*

4. Qaratqich qaralmishdan keyin: *O‘zbekiston–Vatanim manim.*

Umumta’lim maktab o‘quvchilari uchun mavzu tushunarli bo‘lishi maqsadida quyidagi topshiriq va mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1-mashq. Berilgan gaplardagi gap bo‘laklarining odatdagi tartibini o‘zgartirib, nechta gap bo‘lagi bo‘lsa, shuncha miqdorda gap tuzing.

1. Oila farzandlardan boshlanadi. (*A.Gersen*) 2. Bolalar – jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Ularsiz jamiyat jonsiz va sovuq ko‘rinadi. (*A.Makarenko*) 3. Dunyoda go‘dakning tilidan ko‘ra antanaliroq gimn yo‘q. (*V.Gyugo*) 4. Bolalar mehnatga shodlik bag‘ishlaydilar, uning sharofati bilan hayot yanada shirin bo‘ladi. (*F.Bekon*)

2-mashq. Berilgan gaplardagi gap bo‘laklarini odatdagi tartib bo‘yicha joylashtiring.

1. Hammadan balanddir ona mansabi. (*Abdurahmon Jomiy*) 2. Boshni fido ayla ato boshig‘a, jismni qil sadqa ano qoshig‘a. (*Alisher Navoiy*) 3. Odamning mevasi farzand emish derlar bu dunyoda. (*Sayyodiy*) 4. Farzand mehri aritar g‘am zangini ko‘nguldin. (*Nodira*)

3-mashq. Quyidagi gaplardan qaysilarida gap bo‘laklarining odatdagi tartibi o‘zgargan.

I. 1. Gar bu gulshanda ano bo‘lsa gul-u sarv – ato, sen kabi tug‘mag‘usi sarvi gulandom o‘g‘ul. (*Ogahiy*) 2. Har bir daraxtning mevasi bor, ko‘ngilning mevasi esa farzanddir. (*«Otalar so‘zi»*) 3. O‘shal farzand birla shod bo‘lg‘ay, bori qayg‘usidin ozod bo‘lg‘ay. (*Sayyodiy*)

II. 1. O‘zing ham, moling ham otangnikidir. (*Hadis*) 2. Atoga kim bu yanglig‘ qilsa xizmat, o‘z o‘g‘lindin aningdek topg‘ay izzat. (*Qutb*) 3. Namozni bomdoddin keyin volidangni ziyorat qil va xizmatida bo‘l. (*Muhammad Siddiq Rushdiy*)

III. 1. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadis*) 2. Otalarning do‘stligi bolalarni yaqinlashtiradi. (*«Otalar so‘zi»*) 3. Ota-ona behad bo‘ladi xursand, farzand bo‘la olsa munosib farzand. (*Muhammad Javhar Zamindor*)

Topshiriq. Yuqoridagi gaplarni jadvalga mos ravishda joylashtiring.

	Gap bo‘laklarining me‘yoriy tartibi	Gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi

Uyga vazifa sifatida quyidagi topshiriqni berish maqsadga muvofiqdir:

She’rni ifodali o‘qing. Uni nasriy bayon qiling. Undagi gap bo‘laklarining odatdagi va o‘zgargan tartibiga diqqat qiling.

KO'KLAM KELADIR!

Ko'klamoyim yo'lga chiqqan. Ko'klamoyim qo'zg'algan,
 Ko'k ko'ylakning bitishiga, uncha ko'p ham qolmagan!
 Tiniq havo... ko'k yuzinda oppoq, harir pardadek
 Oq bulutlar, unda-munda yopilganlar parishon.
 Shu'lalarning aksi bilan, yiltillagan, yongandek,
 Kun tig'lari, qarashlarga o'tkir-o'tkir sanchilgan...
 Qip-yalong'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,
 Ko'k ko'ylakning bitishini chidamasdan kutalar.
 Qarg'alar ham qishda qilgan gunohlarni unutib,
 Uzi aytmasdan, indamasdan uchib-uchib ketalar.
 Sezgilarni uyg'otuvchi hidli gullar to'planib:
 «Biz ham yo'lga chiqdik!» deya yuborganlar bir chopar.
 Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar uyg'onib,
 Erta-indin bog'chalarga, chamanlarga oralar.
 Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,
 Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.
 Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kiradir!..

So'zning teskari yoki ekspressiv tartibida, odatda rema temadan oldingi pozitsiyaga o'tadi. Bunday turdagi gaplarda voqelikka qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik qo'shilib, asosan nazm va og'zaki nutq uchun xosdir. So'zlashuv nutqida tartib o'zgarishlari birmuncha o'ziga xoslikka ega. Chunki so'zlashuv nutqining asosiy xususiyatlaridan biri, avvalo, asosiy narsani tasdiq yoki inkorni bildirib, boshqalarni undan keyin ta'kidlashdir [Musayev A., 2000:28].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.С. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлақларининг тартиби. Филол. фан. номз....дис.. – Самарқанд: 2000. – Б. 28-32.
2. Qodirov H., Ne'matov H., Abdurayimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon nashriyot-matbaa uyi, 2022. - B. 93.

SHIORLAR REKLAMA E'LONI SIFATIDA**Shahnoza Yunusova,***filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b.***Annotatsiya**

Ushbu maqolada shiorlarning tuzilishiga ko'ra turlari va ularni yaratish usullari haqida gap bora-di. Shiorlarning o'ziga xos jihatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: reklama, shior, ктемамоним, epifora, anafora, metonimiya.

Reklama ko'p qirrali hodisa bo'lib, hozirda u hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi. Ayniqsa, tovar ishlab chiqaruvchilarning va xizmat ko'rsatuvchilarning kundalik faoliyatini reklamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki reklama jonli ijodiy jarayon. Reklamalarning qiziqarliligini va ta'sir quvvatini ta'minlashda uning matnidagi o'ziga xosliklarning o'rni beqiyosdir. Shunga ko'ra, reklamaning iqtisodiy, ijtimoiy, lingvistik va psixologik omillar hamkorligining mahsuli ekanligi masalasida xalqaro mutaxassislarining fikri yakdildir [Коровина, 2018:150-158]. Reklamaning maqsadi bo'lajak xaridorlarni mahsulot va xizmat ko'rsatuvchilar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, mijozlarni jalb

qilish va ularning tanlovlariga ta’sir qilishdan iborat bo‘lib, bunda uning matni – matn mukammalligi yetakchilik qiladi. Aksariyat reklama matnlari sarlavhadan, reklama matnidan, shiordan iborat bo‘ladi. Reklamani muvaffaqiyatli, samarali bo‘lishida ushbu qismlarning har biri o‘z o‘rniga, o‘z vazifasiga ega bo‘ladi. Ayni vaqtda, barcha reklama matnlarida bu qismlarning barchasi mavjud bo‘lavermaydi. Ba’zi reklama matnlari esa faqat shiordan iborat bo‘ladi.

Reklama jamiyatda bir qator vazifalarni bajaradi. Muhimi:

1. Reklama axborot berishi lozim;
2. Reklama ishontirishi kerak [Фарби, 2004:13].

Axborot beruvchi matnni quyidagi qismlarga ajratish mumkin.

1. Ktematonim (gr. ktemo «mulk» + onima «ism») – savdo belgisining so‘z orqali ifodalanishi.
2. Slogan (ingl. slogan «shior») – tovar reklamasini ifodalovchi qisqa shior. Lo‘nda, aniq va yodda oson qolishi kerak.

3. Ktematonimning yoki reklama qilinayotgan tovarning jamiyatdagi vazifasi g‘oyani – mazmunni qisqa, lo‘nda va tasviriy shaklda ifodalashdir. Bu jarayon bir yoki ikki jumla orqali berilishi mumkin [Максимова, 2004:158].

Qiyoslang:

evo tezlikni his et. shior

evo bilan butun olamingni o‘zgartir

ktematonim (evo) – bilan butun olamingni o‘zgartir (tavsiflovchi jumla)

Shior nima? Shior bu reklama e‘lonining eng asosiy elementi bo‘lib, u telegrammaga o‘xshaydi. Jamiyat a‘zolari shior orqali reklama matnining davomini o‘qish yoki o‘qimaslikni hal qiladilar [Нестеренко, 2003:31].

Reklama bo‘yicha mutaxassis R.Rivz fikricha, iste’molchi reklama matnidan faqat bir aniq isbotni yoki bir aniq fikrni esida qoldiradi [Медведева, 2003:27]. U M&M’s shokoladi uchun reklama shiorini yaratgan. Qiyoslang: «Таут ворту, а не в руках» (Qo‘lda emas, og‘izda eriydi). Ko‘rinib turibdiki, R.Rivz reklama qilinayotgan shokoladning eng asosiy xususiyatlaridan birini shior sifatida tanlaydi, ya’ni shokolad ustidan qiyom qo‘yilganligi uchun u qo‘lda erimaydi.

Umuman, shior bu qisqa ifodali tasviriy vosita, aforizm. Shiorlardan barcha reklama turlarida foydalaniladi. Shiorning asosi bu uning inson psixikasiga doimiy ravishda ta’sir ko‘rsatadigan so‘zlaridir. Qiyoslang: *yangi, bepul, hayot, samarali, tabiiy, arzon...*

Shiorda odatda baxt, farovon hayot, orzular ushalishining va‘da qilinishi, ifodalanishi kerak. Reklama g‘oyasining asosi sifatida shior o‘zida quyidagilarni mujassamlashtiradi.

- harakatga undash: *Chegirmalar mavsumi boshlandi! Aloqani mustaqil boshqar! Darakchiga obuna bo‘ling va yuting!*

- reklama qilinayotgan savdo korxonasiga yuqori baho berish: *Bu yerda hamma narsa bor* (supermarket haqida). *Infomed yagona tibbiy ma’lumotlar xizmati.*

Tuzilishiga ko‘ra shiorlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Bog‘langan shior. Bog‘langan shiorda tovar nomi ishtirok etadi.

Har doim Coca-Cola

2. Uyg‘unlashgan shior. Uyg‘unlashgan shiorda shior tovar nomi bilan ritmik va fonetik uyg‘unlikda bo‘ladi. *Alyumag – oshqozonga ko‘mak; Muza bilan siz, betakror pazandasiz.*

3. Erkin shior. Erkin shiorda tovar markasi alohida qo‘llaniladi [2000: 4]

Nescafe. Hammasi yaxshilikka. Shaffof. Birinchi buloq suvi! Coca-Cola. Hayot lazziati.

Shiorlar reklamalarning asosiy g‘oyasini ifodalaydi. Ularda, asosan, quyidagi tushunchalar, ma’no-lar anglashiladi: 1.Olg‘a! – tovarga undash orqali, e’tibor, diqqatni tortish. 2.Chegirmalar mavsumi boshlandi! – chaqiriq 3.Sotib oling! Iching va rohatlaning! (SIBUR)

Ijobiy fikrni beruvchi emotsional bo‘yoqdor so‘zlar reklama qilinayotgan tovardan lazzatlanish g‘oyasini beradi. Masalan lotereya reklamasi klipida yoshi katta ayol va erkak o‘rindiqda o‘tiribdi. Erkak ayolga lotereya beradi va teleekranda quyidagi shior paydo bo‘ladi. *Sevgi yosh tanlamaydi.*

Ba'zan shiorlar g'oyasi, mazmuni tovar bilan bog'lanmagan bo'ladi. Shior odatda qiyoslanish orqali ifodalanadi. *O'zing hal qil, chanqog'inga ishon! Sprite*

Shiorning yaratilishida quyidagi usullardan foydalaniladi.

1. Metafora (yun.metaphora – ko'chirish). Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro o'xshashlik asosida ko'chirilsa, metafora usulida ko'chish deyiladi. Metafora so'zning yangi ma'nolarining hosil bo'lishida faol xizmat qiladigan omillardan biridir. Metafora yordamida yaratilgan shiorlar juda ko'p. Qiyoslang: *PANTERRA STUDIO - O'zbekiston yulduzlari mehmoningiz bo'ladi!*

2. Leksik takror. So'z yoki so'z birikmalarining takrorlanishi nutqqa emotsionallik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Qiyoslang:

*Coca-Cola xursand bo'ling hayotdan,
hayotdan bahra oling!*

3. Epifora (yun.epiphora<epi-keyin+phoros-keluvchi). Epifora parallel tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat nutq figurasi [Xोजиев, 2002:134].

*Oddiy emas – toza,
nuqsonsiz toza* («Ariel» kir yuvish kukuni).

«Birinchi so'mli» tarif rejasi.

Bu milliy valyutadagi birinchi tarif rejasi.

4. Anafora (yun. anaphora – yuqoriga chiqarish). Anafora parallel tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) boshida aynan bir so'zning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish [Xोजиев, 2002:14].

Sizning raqamingiz – sizning tashrif qog'ozingiz.

Unutilmas kunlarda unutilmas ta'm «To'xtaniyoz - Ota» hammadan a'lo.

Slake yangi hayot yangi ta'm.

Credit Standart Bank yangi standartlar yangi imkoniyatlar.

Xulosa shuki, shior tuzish, yaratish o'ziga xos murakkab mantiqiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda yaratilgan muvaffaqiyatli, ta'sirli shiorlar shunchaki chiroyli so'zlar yig'indisi emas, balki samarali mehnat natijasi, davr talabi, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos lisoniy ifodalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коровина С.С., Харьков Е.В. Особенности синтаксиса рекламы в английском языке // Известия ВГПУ. Волгоград, 2018.– № 8 (131).– С.150-158.
2. Фарби Э.Д. Как создать успешную рекламу. – С.П б., 2004, С.13.
3. Стилистика и литературное редактирование. Под.ред.проф. И.Максимова. – М., 2004, С.158.
4. Нестеренко Ф.П., Бабаджанова Г.Н. Эффективная реклама. – Т., 2003, С.31.
5. Медведева Е.В. Рекламная пропаганда, или «почем опиум для народа» // Вестник МГУ. Сер.19. №1, 2003, С.27.
6. Оммавий ахборот воситаларида реклама: назария ва амалиёт. Маърузалар матни. – Т.: 2000, ЎзМУ,-46.
7. Xोजиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 2002, 134-бет.
8. Старобинский Э.Е. Самоучитель по рекламе. – М.; 1999, С.12

**XALQ DOSTONLARIDA UY-RO‘ZG‘OR BUYUM VA JIHOZLARIGA OID
MAISHIY LEKSEMALAR**
(“MALIKA AYYOR” VA “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONLARI MISOLIDA)

Manzura Narmatova,
Jizzax davlat Pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlarida uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlariga oid maishiy leksemalar tahlil qilingan. Uy-ro‘zg‘or buyumlari orasida oshxonada foydalaniladigan narsa, buyum-jihozlar insonlarning hayotida muhim o‘rin tutishi, xalqning kundalik turmush darajasi, yashash tarzi, eng muhimi, etnomadaniy holatining qay darajada ekanligini namoyon etishdagi hissasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: uy-ro‘zg‘or buyumlari, pichoq, kosa, g‘alvir, elak, lagan, chiroq, to‘rva.

Oila tizimiga xos uy-ro‘zg‘or buyumlari orasida oshxonada foydalaniladigan narsa, buyum-jihozlar juda muhim o‘rin tutadiki, ular insonlarning hayotdagi o‘rni, kundalik turmush darajasi, yashash tarzi, eng muhimi, etnomadaniy hayotining qay darajada ekanligini ham namoyon etadi. Shu boisdan xalq dostonlarida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid leksik birliklarning o‘rganilishi har qanday davrda ham ahamiyatlidir. O‘rganish obyekti sifatida olingan “Malika ayyor” va “Bahrom va Gulandom” dostonlarida aniqlangan quyidagi leksik birliklar atroficha tahlil qilib o‘tildi.

Pichoq oshxonadagi narsa, buyum-jihozlardan biri bo‘lib, kundalik - maishiy turmush tarzida qadimdan keng qo‘llaniladi. Mazkur leksik birlik qadimgi turkiy yozma yodgorliklari tilida, xususan, “Qutadg‘u bilig” matnida bicak shaklida qo‘llanilganligi haqida ayrim qaydlar mavjud [Холмуродова М. 2006: 101-106.].

Turkiy tillarning etimologik lug‘atida bu so‘zning tarkibi ikki xil talqin qilinadi: a) qadimgi turkiy tildagi “o‘tkir kesuvchi asbob” ma‘nosini anglatgan bi otidan kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi –chok qo‘shimchasi bilan yasalgan; b) qadimgi turkiy tildagi “kes” ma‘nosini anglatgan bic –felidan –(a)q qo‘shimchasi bilan yasalgan (o‘sha manba) [ESTYa, II: 160].

Eski turkiy yodgorliklarida bic –feli shaklida, “Devonu lug‘otit turk” da bichak tarzida qo‘llanilgan [DLG. Ij.:366]. Alisher Navoiyning asarlarida, masalan, “Farhod va Shirin”da bichak leksemasi “igna so‘zan” ma‘nolarida qo‘llanilganligini kuzatamiz [qarang: FSh. VIII: 90]. Ayrim ilmiy manbalarda ta‘kidlanishicha, Navoiy asarlarida pichoq so‘zi oshxona anjomi sifatida ham, harbiy qurol sifatida xanjar so‘ziga sinonim sifatida qo‘llanilgan [Мухаммадиев Х.Л. 2022: 12]. Biz tahlilga jalb etilgan dostonlarning birida oshxona anjomi sifatida ishlatiladigan pichoq so‘zi hayot uchun xavfli qurol sifatida qo‘llanilganligini guvohi bo‘ldik. Buni epik qahramonlardan biri Qalandarning yosh bolani devlar qo‘lidan qutqarish, uni ota-onasiga, qavm-qarindoshlariga omon-eson etkazish uchun qilgan muayyan hatti-harakatlarini ifadolovchi nutqida qo‘llanilganligini kuzatdik: Lekin so‘raganing bilan devlar senga Torkistonni, Malikani aytmas, “Sening nima ishing bor”, -der. Shunda sen ulay-bulay de, o‘zimni o‘ldiraman, deb jo‘rttaga bir pichoqni olib qorningga urmoqchi bo‘l [M.a.: 76].

Kosa leksemasi ham oshxonadagi narsa-buyum jihozlaridan biri bo‘lib, uning qo‘llanilishi doirasi keng qamrovda ekanligi, kishilarning kundalik- maishiy hayotida muhim o‘rin egallaganligi hech kimga sir emas. Bu leksema aslida etimologik jihatidan forscha bo‘lsa-da tilimizda va kundalik turmush tarzida qadimdan faol qo‘llanilganligi aniq: bu isbot talab etmaydigan hodisa. “Piyoladan kattaroq, asosan, suyuqlik va turli xil ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish” [O‘TIL, II: 410] nomini ifodalovchi kosa leksik birligi qadimda dastavval yog‘ochdan, so‘ngra chinnidan tayyorlanganligi ham tarixiy dalil. Bu o‘rinda birgina lisoniy dalil keltirish bilan chegaralanamiz. Yog‘och piyola, chinni piyola tarzida og‘zaki va yozma nuqta faol qo‘llanilganligini Navoiy asarlarida berilgan ayrim matnlar ham to‘la tasdiqlaydi. Masalan:

Qizil rohu yashil chinni piyola
Nechukkim sabzi sahni ichra lola [FSh. VIII: 108]
yoki

Daryo sanga tolibi navola,
Kishti kafida yig'och piyola [L.M. IX: 7].

Ko'ramizki, idish nomi oldindagi sifatlovchilar uning qanday material, ashyodan ekanligini bildiradi. Shunga o'xshash yana boshqa lisoniy hodisani biz o'rgangan xalq dostonlarining birida oltin kosa leksik birligining qo'llanganligini kuzatdik: Avazxon tanho savashdi. Qon to'kar maydon ichinda. Qilich kelar yalab-yalab, Istar ko'ngil qilar talab, Oltin kosa, gulgun sharob, ichildi maydon ichinda. [M.a.: 29, 142]. Mazkur matnda gulgun sharob quyilgan kosa idishi oltindan tayyorlanganini tasdiqlaydi.

Asosan choy ichish uchun ishlatiladigan, kosadan kichik bo'lgan idish nomi-piyola ham kundalik-maishiy hayotda faol qo'llanilgan, oshxona buyumlaridan biri sifatida qadrlangan. Shu bois mazkur so'z og'zaki va yozma nutqlarda va asarlarda bir xil darajada qo'llaniladi. Buni biz o'rgangan xalq dostonlaridan birida ham kuzatamiz: Odamman deb chiqib o'sgan elimdan, G'arib bo'ldim hech ish kelmas qo'limdan, Bir piyola choy quymading qo'lingdan, Ketdi darmonim mening, Qoldi armonim mening [M.a.:171]. Bu o'rinda ta'kid lozim: kosa va piyola leksemalari biz tahlilga jalb etgan "Bahrom va Gulandom" dostoni matnida qo'llanmagan.

G'alvir, elak leksemalari ham kundalik-maishiy leksikaga mansub bo'lib, dostonlar tilidan o'rin olgan. Ona tilimizning izohli lug'atida G'ALVIR – katta sim elak, g'alvir [O'TIL, V: 432], shuningdek, ELAK – un elash uchun ishlatiladigan, to'r qoplangan yog'och gardishdan iborat uy-ro'zg'or asbobi [O'TIL, V: 29] tarzida izoh berilgan. Xalqimiz orasida elakdan o'tkazmoq, g'alvirdan o'tkazmoq shakllari ancha faol qo'llanadi. Lekin har ikkala holatda ham bir-biriga yaqin bo'lgan ma'nolar ifodalanadi. Masalan, Elakdan o'tkazmoq shaklida a) "elab tozalamoq", "elamoq"; b) "obdon tekshirmoq", "sinovdan o'tkazmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi. G'alvirdan o'tkazmoq variantida ham bir xil ma'no ifodalanadi. G'alvirda elamoq va sinovdan o'tkazmoq [Yana qarang: O'TIL, V: 432, 29].

Ko'ramizki, g'alvir so'zi elak so'zi o'rnida qo'llanilib, sinonimlik vazifasini bajarishi ham mumkin. Ayni lisoniy holat biz tahlil qilgan "Malika ayyor" dostoni matnida ham uchradi: Avazxon bu so'zni eshitib: "Bu yomon kofir ekan, Shu tarzda Chambilga borsa, Chambil elining tuprog'ini g'alvirdan o'tkazib ketar. [M.a.: 23].

G'alvir atamasi xalq og'zaki ijodining boshqa bir namunalari, masalan, xalq maqollari matnida ham uchraydi. Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga kabi. Mazkur xalq maqolini Navoiy bobomiz quyidagi she'riy shaklga solganligidan ilm ahli-filologik olimlar xabardor, deb o'ylaymiz: Tor ichi sichqonga solib erdi g'am, Quyrug'iga bog'ladi g'irbol ham.

Demak, g'alvir leksemasi "Hayratul – abror" asarida [VII: 260] g'irbol (elak, g'alvir) shaklida qo'llangan. Elak leksemasi biz tahlilga jalb etgan "Bahrom va Gulandom" dostoni matnida uchramasa-da, bu so'z xalq dostonlarining boshqa namunalari matnida uchrashini tabiiy bir hol, deyish mumkin.

Lagan forscha so'z bo'lib, u "tog'ora", "idish", "shamdon" kabi ma'nolarni bildiradi. Ona tilimizning izohli lug'atida bu so'zga quyidagacha izoh berilgan:

1. Quyuq taomlar solish uchun mo'jallangan, tarelkadan katta yassi idish;
2. kosadan katta, ichi chuqur sopol idish tovoq [O'TIL].

Navoiy asarlari lug'atida mazkur leksik birlik (lagan, lakan) shamdon, mis lagan, mis tog'ora tarzida izohlangan [NAL: 331]. Mazkur leksema ulug' shoir asarlarida, xususan, "Hayratul – abror", "Saba'i Sayyor"da "Shamdon sham o'tkazib qo'yiladigan yassi idish" ma'nosida qo'llangan. [Qarang: HA, VII: 86; SS, X: 57].

Lagan so'zining qo'llanilish doirasi keng, ham og'zaki nutqda, ham yozma asarlarda faol uchraydi. Buni biz tadqiqotimiz obyektiga tanlangan "Bahrom va Gulandom" dostonida ham kuzatdik. Gulandom bilan Kanizak (Davlat)ning o'zaro muloqatiga oid epik bayonda lagan leksemasi uzuk solingan idish ma'nosida qo'llangan: "Buni kim berdi, Davlat? Hech kimga yo'q bu e'tiqod. Bu ajoyib uzuk ekan, Har kimda yo'qdir bu quvvat. Davlat aytar: -olib qaytdim. Changda yotgan namat-po'shdan,

Kelib lagan tutdim unga. Ko‘rsam zabun ahvoli, Yo‘q ekan yonida puli, So‘ngra uzukni berdi [B.G.: 66].

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, lagan so‘ziga o‘xshash lagun leksik birligi ham borligini yozma adabiyot manbalarida uchratdik. Masalan, M.Qoshg‘ariyning bergan izohiga ko‘ra, “lagun – ichi chuqur qilib yog‘ochdan qilingan idish. Unda sut, qatiq va shunga o‘xshash narsalar ichiladi. Yog‘och tovoq” deya izohlanganligi mazkur leksik birlikning qadimdan qo‘llanganligi ayon bo‘ldi. Biz nazarda tutayotgan lagan, lakan, lagun leksemalari “maxsus idish” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan, degan fikr xulosaga keldik.

Chiroq (chirog‘) forscha so‘z bo‘lib, “xonani, yoritish uchun xizmat qiladigan uy-ro‘zg‘or asbobi lampa [O‘TIL, IV: 493] ma’nosini ifodalaydi va kundalik-maishiy turmushda faol so‘z sifatida qo‘llaniladi. Ushbu leksik birlik xalq dostonlarida farzand yoki yaqin odam nomi sifatida ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Masalan, “Yusuf va Ahmad”dagi “Chiroqqinam, shunday yomon tush ko‘rdim” yoki “Nurali” dostoniga mansub “O‘g‘ul tugul, yo‘qdirda biror kishim, Chambilda chiroqsiz o‘tganman o‘zim” kabi matnlar fikrimizga misol bo‘la oladi. Biz tahlil qilgan “Bahrom va Gulandom”da chiroq so‘zi ham “farzandsizlik tufayli nomi o‘chib ketishi” ma’nosini ifodalaganligini kuzatamiz: Mamlakatga podshoh bo‘lgan o‘zimdi, Farzandga to‘rt qilgan ikki ko‘zimdi, Bu g‘amlardan menga o‘lim lozimdir, O‘zim o‘lgan kuni chirog‘im o‘char, Taxti baxtim, bunda davlatim ko‘char [B.G.: 6].

Tadqiqot ishimizga jalb etilgan “Malika ayyor” dostonida esa yana boshqa lisoniy holatni kuzatdik. Chiroq (chirog‘) leksemasi ko‘chma ma’nodagi “ustun, a’lo, yuqori daraja” ma’nolarida qo‘llanilganini guvohi bo‘ldik: Barchaning otasi hazrati odam, // Payg‘ambarlik anga bo‘ldi musallam, // Ibrohim, Ismoil, Makka, muazzam, // Dinlarning chirog‘i Imomi A’zam, // Muhammadga ummat, haqqa musallam, // Tashnalarga serob aylar kun bo‘ldi. [M.a: 71].

To‘rva “kichkina qopchiq”, “xalta” [O‘TIL, IV: 244] ma’nolarini ifodalaydi va kundalik-maishiy leksikada faol qo‘llaniladi. Mazkur so‘zning ayni ma’nosi “Malika ayyor” dostonidagi epik qahramonlardan G‘irotning oziq-ovqat eydigan idishi – “qopchiq”, “xaltasi”ga nisbatan ishlatilganligini kuzatdik: Jonim G‘irot, molim G‘irot, Eming kishmish, to‘rvang banot, Seni mingan topar murod, Dam-badam etkaz Chambilga [M.a: 10].

To‘rva so‘zining tovush o‘zgarishi va metatezaga uchramagan asl varianti to‘rba leksik birligi Navoiy asarlarida, xususan, “Saddi Iskandariy [SI. XI: 133] va «Nasoyim ul-muhabbat» [NM, XVII: 167] dostonlari matnida qo‘llanilganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [Абдулхайр М. 2018: 331]. Dostonlar tilidagi mazkur leksemaning forscha varianti bo‘lgan anbon so‘z birligi ham mavjudligi aniqlangan. [Qarang: LM. IX: 182]. So‘nggi yillarda nashr etilgan ba’zi mumtoz adabiyotga mansub izohli lug‘atlarda anbon lug‘aviy birligining ikki xil ma’noda qo‘llanilishi aytilgan: 1) to‘rva, xalta; 2) tasavvufda Solih va darveshlarning o‘zlari bilan olib olib yuradigan to‘rva - xaltasi. Tadqiqotimiz obyektiga kirgan “Bahrom va Gulandom” dostoni matnida to‘rva, to‘rvo, to‘bra, qop, xalta kabi uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari uchramadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmurodova M. “Qutadg‘u bilig” leksemasi. Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2019. .
2. Muhammadiyev X.L. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. Fil.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD). - Jizzax, 2022.
3. Abdulxayr M.Navoiy asarlari izohli lug‘ati.T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Layli va Majnun. IX.
5. Vohidov E. So‘z latofati. - Toshkent, 2014.
6. Devoni lug‘atit turk. 1-jild. - T.: Fan, 1960.
7. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Sab’ayi sayyor. X.
8. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Farhod va Shirin. VIII jild.
9. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (1983 – 1985).
10. B.G –Bahrom va Gulandom. - Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1986.

11. Jumanazarova G.U. "Bahrom va Gulandom" dostonninig leksikografik ma'nolari. – Jizzax: Sangzar, 2010.
12. Pirimov A., Sharofuddinov Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridagi maishiy leksikaga oid so'zlar haqida. – Urganch. Ilm sarchashmalari, 1-son, 2020.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING NUTQIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Nilufar Sultanova,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqidagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish, so'z lug'atini boyitish va so'zlashuv muloqotini yaxshilash borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *kuzatuvchanlik, nutqiy kamchilik, shaxsiy savodxonlik, maktabgacha yosh, maktabgacha ta'lim, tayyorlov guruhi, sifatli ta'lim, ilk va maktabgacha yosh.*

Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta'lim tizimida yangidan-yangi islohotlar olib borilmoqda, bu olib borilayotgan islohotlarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim farzandlarimizning kelajakda yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga sifatli tayyorlash, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining beshta sohasi bo'yicha rivojlantirish, ta'limning yangi shakllari, usullari zamonaviy – innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim va tarbiya berish bilan amalga oshirilmoqda hamda maktab ta'limiga sifatli tayyorlanishlarida zamin bo'lmoqda. Maktab hayoti 6-7 yoshli bolalarga yangi dunyoni ochib beradi. Shuningdek, bu davrda bolaning asosiy mashg'ulotlari o'zgarib, muhim vazifa, ijtimoiy burch ta'lim olish bo'lib qoladi. Aynan shu boisdan ham, tayyorlov guruhi bolalarining maktabga tayyorgarlik monitoringini ko'tarishda bolalarning qiziqishlari, xohishlari hamda ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularga maqsad qo'yish kerak. Aynan shuni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni bilim, salohiyatini o'stirish uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" uchinchi soha hisoblanadi. Bizga ma'lumki, savodxonlik masalasi hozirgi davr rivojlanishida muhim ahamiyotga ega. Shaxs savodxonlik darajasi uning keyingi hayotini sifat darajasini belgilaydi va hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Shu boisdan ham, savodli bo'lish bu bilimlar kalitiga ega bo'lish demakdir. Ravon va chiroyli so'zlashish murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayon bola tug'ilganidan boshlanib, bir qancha omillardan kelib chiqadi. Bolaning nutqi avval oilada, keyin esa maktabgacha ta'lim tashkilotida, maktab hamda jamiyatda asta-sekinlik bilan rivojlanib boradi. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" rivojlanish sohasining asosi so'zlashuv nutqini tinglash va tushunish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, yozish malakalarini rivojlantirishdir. Fikrimizcha, ushbu soha, 6-7 yoshli bolaning nutqini mustahkamlashi bilan birgalikda uning tafakkurini ham rivojlantiradi. Bolaning nutqi va tafakkurining rivojlanishi uchun talab darajasida shart-sharoitlar yaratilsa, bolaning har jihatdan barkamol, yetuk bo'lib ulg'ayishiga zamin bo'ladi. 6-7 yoshli bolaning nutqini o'stirishning muhim vositalaridan eng asosiysi bu kitob hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarning tafakkuri va uning nutqining hamma tomonlarini rasmi, rangli, ertak va hikoyali hamda she'riy kitoblardan foydalangan holda boyitib borsa, yil yakuniga kelib bolaning nutqi ravonlashadi. Lug'atida yangi so'zlar paydo bo'ladi va ushbu soha bo'yicha maktabga tayyorgarlik monitoringida kutilgan natijaga erishiladi. Masalan, atrof - olamni, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda oiladagi maishiy hayoti, ijtimoiy voqea-hodisalar, kattalar mehnati, tabiat kabilar bilan tanishish imkonini beradigan darajada rivojlantiradi. Maktabgacha yosh-

dagi bolalar nutqini boyitish manbasidan yana biri asosan kattalar nutqi, avvalombor ta’lim – tarbiya berayotgan tarbiyachi – pedagoglarning nutqi hisoblanadi. Bolalar tarbiyachi – pedagoglardan obrazli so‘zlarni, ifodali o‘qish va qo‘llash usullarini o‘zlashtiradi. Tarbiyachi o‘zi tarbiya qilayotgan bolaga o‘rnak bo‘la olishi, buning uchun tarbiyachining o‘zi nihoyat darajada sezgir bo‘lib guruhidagi har bir bolani kuzatib borishi kerak. Kuzatuvchanlik – tarbiyachi bolaning ichki dunyosiga kiraolib, uning ruhiyatida bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglay olishidir.

Tarbiyachi bolaga mashg‘ulotlari davomida, mustaqil faoliyatlarda, kunning ikkinchi qismida va boshqa jarayonlarda har xil rasmi, rangli, ertak va hikoyalarni obrazlarga kirib o‘qib berishi, bu bilan esa tarbiyachi o‘qib bergan ertak va hikoyalarni bolani xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga va bola uyda ota-onasiga, tengdoshlariga tarbiyachi o‘qib berganidek obrazlarga kirib, hayajon bilan qayta hikoya qilib berishiga erishadi. Bundan tashqari tayyorlov guruhi tarbiyachisi mashg‘ulotlarni bir-biri bilan bog‘lagan holda tashkil etsagina va ushbu tashkil etilgan mashg‘ulotlarida yangi usullardan foydalanib, bolaning mashg‘ulotga va bilim olishga nisbatan qiziqishlarini oshirolsagina kutgan natijaga erishadi. Shu bilan birgalikda bolaning nutqi o‘sadi, lug‘ati boyidi hamda uning tafakkur rivojlanib, xotirasi mustahkamlanadi. Qolaversa, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro muloqotini mustahkamlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bunday mashg‘ulotlarni samarali va mazmunli tashkil etilishi esa maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini o‘shida dolzarblik kasb etadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o‘rni va vazifasi, til va uslubiga ko‘ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar va hajviy ertaklarga bo‘linadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ertak tinglashni yaxshi ko‘radilar va ertaklardan hech ham zerikmaydilar. Ertaklar bolalar uchun sehrli tarixgina emas, balki ruhiy muammolarni hal qiluvchi shifokor hamdir. Ertaklar bolaning his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, hayotini tarbiyalaydi hamda o‘zbek xalq ertaklarining eng sara namunalari bilan tanishtiradi. Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi maktabga bolalarni tayyorlashda interfaol usullarni mashg‘ulotlar, rivojlanish markazlarda shug‘ullanishi va boshqa faoliyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishi kerakligini anglashi lozimki, bu albatta, bolaning maktab ta’limiga sifatli tayyorgarligida xizmat qilsin. Ana shunday interfaol usullardan biri bu matematika mashg‘ulotlari va ertaklarni birgalikda uyg‘un holda tashkil etishdir.

Taniqli rus olimi, bolalar adabiyoti namoyondasi Korney Ivanovich Chukovskiy shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g‘am tashvishi uchun qayg‘urish, o‘zganing shodligi uchun xursand bo‘lish, begona insonning taqdirini xuddi o‘zinikidek boshdan o‘tkazish orqali insoniylikni tarbiyalashdan iboratdir” deya aytib o‘tadi o‘z davrida. Shunday ekan, ertaklar nafaqat bolalarni tarbiyalaydi, balkim ularni sifatli va mazmunli ta’lim olishlariga ham ko‘maklashadi.

Tarbiyalanuvchilaridagi deyarli barcha nutqiy muloqotlar va ko‘nikmalar mashg‘ulotlar va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda shakllanadi. Masalan, mehnat jarayonida, o‘yin faoliyatida, faollik markazlarida shug‘ullanishda, sayr hamda ertalabki suhbatlar mobaynida bolalarning lug‘ati boyiydi, faollashadi va aniqlashadi. Bolalarni yoshligidan nutqiy tarbiyalash, atrofni o‘rab turgan olamdagi narsa va hodisalarni anglash hamda so‘zlab berish, atrofdegilar bilan munosabatini va so‘zlashishini yo‘lga qo‘yish hamda tilni - uning ovoz tarkibini, grammatik qurilishini, lug‘atini oddiy anglashga asos bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar eshitadigan hamda ma’nolarini anglaydigan, yodida saqlab qoladigan va foydalanadigan so‘zlarni sekin-astalik bilan atrof-olam bilan tanishishlarida ota-onalari, do‘stlari va tarbiyachining ma’lumotlari orqali hamda o‘zining lug‘atidagi bor so‘zlariga tayanib bilib oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ulg‘ayib borar ekan, ularning qiziqishlari va xohishlari ham o‘z o‘rnida ko‘payadi. Shu boisdan ham maktabgacha ta’lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhi bolalarini ayrim talaffuzi qiyin so‘zlarni, iboralarni o‘rganishlari bilan bir qatorda o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlarini, tez aytishlarini o‘rganishlari ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga ma’lum darajada ijobiy natijalarni ko‘rsatadi. Bizga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o‘stirish turli xil faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi. Masalan; mashg‘ulotlar, rivojlanish markazlarida shug‘ullanish, o‘yin jarayonida, ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanish davomida va boshqalar.

Shunday faoliyatlarda 6-7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi bolalarining nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi tarbiyachi mazkur jarayonning qonuniyatlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi kerak. Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, sizga havola etiladigan mazkur usul 6-7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi bolalari nutqining to'g'ri rivojlanishiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos va samarali usullaridan biri deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrdagi 255-son buyrug'i "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.
3. Asqarova. D.Q. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma.- Toshkent, 2020.
4. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. Maktabgacha pedagogika
5. Hamidova M. va boshqalar "Maktabgacha yoshdagi bolalarning kamolotiga yangicha yondashuv va uni targ'ib qilishda jamoatchilik ishtiroki". - Toshkent: O'qituvchi, 2014.

O'QUVCHILARNING IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Berdibek Yusupov,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini turkiy xalqlar adabiyoti vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, shaxs, ta'lim-tarbiya integratsiyasi, kompetentlik, turkiy xalqlar adabiyoti.*

O'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman xalqining o'ziga xos madaniyati, an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish, milliy qadr-qimmatini mustahkamlash har bir davrda ham muhim vazifalardan hisoblanib kelgan. O'zgargan ijtimoiy-siyosiy vaziyat maktab faoliyatini takomillashtirish, yangi dunyo-qarashni shakllantirish, o'quvchilar ongida o'z Vatani va xalqining oldingi hayoti bilan tarixiy bog'liqlik muhimligini tasdiqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Millat ruhiyatida, – deb yozadi taniqli ruhshunos S.I.Korolyov, – shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada ayni shu millat vakillarini muhofaza qiluvchi mexanizm rolini ham o'ynaydi. U xuddi g'alvirdek yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi". [Kopolev, 2011: 9]

"Yaponiyaga birinchi marta kelib qolgan yevropalikni, – deb yozadi I.S.Kon, – yaponiyalikning faqat xursand bo'lgandagina emas, hatto o'nta tanbeh berganga ham, yoki sizga biror qayg'uli narsa, masalan, o'lim to'g'risida gapirayotganda ham kulimsirab gapirishi, taajjubga, hatto xijolatga tushirib qo'yadi. Tajribasiz odam buni beodablik, surbetlik yoki rahmsizlik deb hisoblaydi. Aslida kulimsirash bu elda boshqacha ramziy mazmunga ega – bu bilan u og'ir vaziyatni yengillashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishlikka tayyor ekanligini ta'kidlash va shu kabi mazmunni bildiradi". [Kon, 2000: 453]

Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda turkiy xalqlar madaniyati, turmush tarzi, urf-

odatlarini, tarixi, adabiyotini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, hozirda turkiy xalqlar adabiyotini o‘rganishga umumjahon e‘tibori qaratilmoqda, biroq ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda turkiy xalqlar adabiyoti imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti.

Turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitish mazmunan ham, tashkiliy jihatdan ham shunday bo‘lganki, o‘quvchilarning o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman xalqi madaniyatiga nisbatan e‘tiborsizligi bilimlarida chuqur bo‘shliqlar yuzaga kelishiga, demak, shaxsning nuqsonli rivojlanishiga olib kelgan. Mahalliy aholining tili, urf-odatlarini, axloqi, o‘zbek zaminining barcha go‘zalligi va ma‘naviy boyliklarini bilmasdan turib, unga daxldorlik, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg‘usini chuqur shakllantirish mumkin emas. Binobarin, respublikamizda adabiy ta‘limni hududiy xususiyatlaridan kelib chiqib yangilash, qozoq tilida o‘qitiladigan maktablarda o‘quv materialini tanlash mezonlari, talqin qilish tamoyillari va o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi.

Ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda turkiy xalqlar adabiyotini o‘qitish mazmunini yangilash muammolarini muvaffaqiyatli hal etish ushbu fanni o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga uzviy bog‘liq. Fikrimizcha, ilmiy asoslash funksiyasi nazariya va pedagogik amaliyot o‘rtasida chambarchas bog‘liqlikni o‘rnatish, tadqiqot natijalarini maktab amaliyotiga joriy etish zaruratidan iborat. Bunda o‘quv fani orqali o‘qitish amaliyotini takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Integratsiya ta‘lim jarayonini tashkil etishning samarali shakli sifatida. Yuqorida aytib o‘tilgan ta‘lim tizimi mazmunan jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan yangi sharoitda o‘quv rejalari va dasturlari ham fanni o‘qitishning aniq maqsad va shartlarini, ta‘limning yangi dizaynini hisobga olgan holda yangilashni talab etadi. Ma‘lum bo‘lishicha, bilimlar assimilyatsiya vazifalariga nomutanosib bo‘lib, qo‘shimcha epistemologik ishlarni bajarish, bu bilimlarni yangi shakllarga, tuzilmalarga, ta‘lim mazmuniga, o‘quv predmetlariga rasmiylashtirish zarur. Shunda ular qabul qilinadi, o‘zlashtiriladi va keyingi avlod mulkiga aylanishi mumkin.

Majburiy o‘quv rejasini cheklash va individual fanlarni jadal o‘rganish liniyasi maktab materialini chuqurroq o‘zlashtirish va o‘quvchilarning ish yukini kamaytirish imkonini beradi, shuning uchun zamonaviy davrda pedagogik muammolarning xalqaro mohiyatini anglash tendensiyasi kuchaymoqda. Bu muammolarning eng muhim jihati integratsiyadir.

Bilimlarning eskirgan tarkibi va maktab ta‘limi mazmuni XIX–XX asrlarda paydo bo‘lgan psixologiya, sotsiologiya, etnografiya va boshqa ko‘pgina fanlarni o‘z ichiga olmaydi. Tadqiqot muammosi bilan bog‘liq holda shuni ta‘kidlash joizki, turkiy xalqlar adabiyotini jahon, rus, sharq, turkiy tili adabiyotlar, O‘zbekiston tarixi, umumiy madaniyati, etnomadaniyati kontekstida o‘rganish zarurati tug‘iladi. Shuning uchun integratsion treningni tashkil etishda boshqacha yondashuvdan foydalanish kerak.

Integratsiya (*lot. integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun* so‘zidan) tiklash, fanlarni bir-biriga yaqinlashtirish va bog‘lash jarayoni, ularni farqlash jarayonlari bilan birga sodir bo‘ladi.

Fan va ta‘limdagi integratsiya tarixiga to‘xtalganda, uning ildizlarini buyuk pedagoglar Ya.A. Komenskiy va K.D.Ushinskiy asarlaridan topamiz. Ya.A.Komenskiy bundan 400 yil muqaddam o‘zining innovatsion konsepsiyasi-pansofiyasini “barcha bilimlarni birlashtirish, yaxlit bir butunlikka integratsiyalash, o‘ziga xos fanlar va falsafa ensiklopediyasini yaratish” imkoniyatiga asoslagan edi. [Ушинский, 1992:81-85]

“Umumjahon donoligining xabarchisi” (“Pansofiya”)da ishlab chiqilgan ushbu g‘oya ta‘limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan biriga, o‘quv fanlari integratsiyasiga yaqin. Keyinchalik, bu g‘oya K.D.Ushinskiy faoliyatida o‘z aksini topgan. “Shveytsariya bo‘ylab pedagogik sayohat”ning to‘rtinchi maktubida u Berndagi maktabni tasvirlab, geografiya, tarix (umumiy va mahalliy) va tabiiy fanlarni birlashtirgan mavzuga e‘tibor qaratadi. Olim bu borada shunday yozadi: “Ammo... har uchala fanni dunyoning bir suratiga birlashtirish maqsadida ko‘plab pedagogik ishlar olib borilmoqda” [Ушинский, 1992: 8].

O‘tgan asrning 20–30-yillarida ta‘limda fanlararo aloqalar muammosi ko‘tarildi, ammo o‘qituvchilarning asosiy xatosi haddan tashqari integratsiyaga amal qilish bo‘lib, bu o‘quvchilar bilimlari buzilishiga olib keldi.

Integrasiya muammosi L.Stepashko, A.Jurinskiy, M.Maxmudov, Z.Ravkin, M.Berulava, X.Santulov, Z.Gelman, V.Zinchenko, G.Pavelitsig kabi olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Maktabda, ayniqsa, tabiatshunoslik kurslarida nafaqat gumanitar fanlarni, balki san'at elementlarini kuchaytirish tendensiyasi mavjud, chunki bu fan-texnika taraqqiyotining o'sishi bilan yuzaga kelgan bilimlarning "insoniylashuvi"ni kamaytiradi.

Fan va madaniyat integratsiyasi, Z.E.Gelman fikricha, o'quvchilarga nafaqat analitik, balki sintez qilingan mulohazalarni ham rivojlantirish imkonini beradi [Гельман, 1987: 21-34].

Integrasiya mohiyatini M.Mahmudov bir obyekt elementlarining boshqa bir obyekt tuzilishiga o'zaro kirib borishida ko'radi. Natijada ikki obyektning xossalari qo'shilish yoki yaxshilanish emas, balki o'ziga xos xususiyatlariga ega butunlay yangi obyektga ega bo'ladi [Махмудов, 1990: 59].

O'quv jarayonida integratsiyani amalga oshirish mazmuni, o'rni va uslubi haqida umumiy nuqtayi nazar mavjud emasligiga qaramay, o'quv fanlari o'rtasidagi munosabatlar mazmunli bo'lishi, o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, metodlar, sinfdan tashqari ishlar mazmunida umumiy fikr mavjud. Bu borada subyektlar o'rtasida quyidagi aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiq:

- 1) individual dastur mavzulari va savollarini ma'lum tartibda joylashtirish;
- 2) o'rganilayotgan fan mavzusini chuqurroq ochib berish va tegishli fanlarda mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun o'quvchilarning boshqa fanlar bo'yicha bilimlaridan foydalanish;
- 3) darslarda ikkita murakkab mavzudan birini ko'rib chiqish, birinchisining mavzusiga bevosita aloqador masalalar turdosh fanlarning umumiy bo'limlarini idrok etishga tayyorlash.

Integratsiya sohasidagi tadqiqotlar, avvalo, integratsiya mavzularni takrorlashni va axborotning ortiqcha yuklanishidan xalos qilishini; ikkinchidan, tafakkurni rivojlantirishi, bilimlarni o'zlashtirishning yaxlitligiga yordam berishi, hodisa va qonuniyatlarni anglashga olib kelishi; uchinchidan, ilmiy xususiyat va bilimlarni tizimlashtirishga yordam berishi haqidagi xulosalarani shakllantiradi.

O'quvchilarning yoshi, fiziologik va kognitiv xususiyatlariga tayanilib, o'quv jarayonini bir necha bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq. Bular quyidagilardan tashkil topadi:

Aloqa darajasi (I–V sinflar tayyorgarlik darajasi). Maqsad o'quvchilarga turkiy xalqlar adabiyoti o'quvchilar nutqini o'stirishdan iboratdir. Nutq malakasini rivojlantirish maqsadida adabiy materialdan ertak, maqol, matal, topishmoq, hikoya, she'r shaklida foydalaniladi. Rangli illyustratsiyalar, rasmlar, yozuvlarni keng qo'llash tavsiya etiladi. Bu daraja ko'p hollarda nutq faoliyatiga asoslanadi; tinglash va gapirish kabi malakalar singdiriladi, grammatika kuzatish amaliyoti orqali egallanadi. Masalan, Maxtumquli hayoti va ijodini o'rganishda unumli foydalanish mumkin. "Ijodkor inson ruhiyati manzaralarini o'ziga xos, boshqalarga o'xshamagan tarzda kashf etish iste'dodiga ko'ra betakrordir. Har bir iste'dod egasining o'z ruhiy olami, e'tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari, tafakkur tarzi, ta'sirlanish yo'sinining ayrimlarigina uning ijodkor shaxs sifatidagi qiyofasini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi". [Усмонова, 2007:3] Shu nuqtayi nazardan muallifni o'quvchiga yaqinlashtirish yo'llari ochiladi.

"Har qanday milliy adabiyotda, – deb yozadi professor K.Quramboyev, – buyuk so'z san'atkorlari bo'lishi tabiiy. Ular o'zlari mansub adabiyot taraqqiyotiga hissa qo'shib qolmasdan, jahon ma'naviy-ma'rifiy tafakkuri rivojida ham beqiyos rol o'ynaydi va shu orqali dunyo madaniyati tarixiga kiradi. Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida bunday ulug' siymolar ko'p. Ahamiyatli jihati shundaki, bu ijodkorlar mintaqada adabiy jarayoni taqdiri uchun birdek qayg'urgan, umuminsoniy g'oyalar ruhida o'lmas asarlar yaratishgan. Shuning uchun ham ular bir xalqning emas, bir necha xalqning ardoqli shoiri sifatida tilga olinadi, asarlari sevib o'qiladi. Qardosh turkman xalqining sevimli shoiri Maxtumquli Firrog'iyning boy ijodiy merosi buning yorqin dalilidir". [Qurambayev, 2009:3]

Mintaqaviy daraja. Bu til, adabiyot va o'lka tarixi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan badiiy asarlarni o'qishdir. Aniqroq aytganda, ta'limning ushbu bosqichida o'quvchilar ilgari olingan lingvistik va adabiy bilimlarni rivojlantiradilar. Xalq og'zaki ijodi, mumtoz va qisman zamonaviy qozoq adabiyoti namunalarini o'qish va tahlil qilish jarayonida qozoq tili bo'yicha bilimlar oshirilishi ko'zda tutiladi. O'qilganlarni tushuntirish, sharhlab o'qish, qayta hikoya qilish va yozma ravishda taqdim etishga ko'proq urg'u beriladi. Muloqotning dialog, polilog, rolli o'yin kabi shakllariga murojaat qilish zarur

bo‘ladi. Taniqli kishilarning portretlari ko‘rsatmali qurollar tarzida qo‘llaniladi. Yosh xususiyatlariga ko‘ra, bu ularning o‘lkashunoslik bo‘yicha bilimlarini rivojlantiradi. Xususan, 9-sinfda “Alpomish” dos-tonini o‘rganishda Alpomish va singlisi Qaldirg‘och, Alpomishning Qorajon bilan yoki Barchinning alplar uchrashuvlaridagi suhbat jarayonini dialoglar shaklida ifodalash topshirig‘ini berish mumkin.

Madaniy-estetik daraja (IX–XI sinflar) turkiy xalqlar adabiyotini intensiv o‘rganish kursin-ing maqsadi o‘quvchilarda turkiy xalqlar adabiyoti, san‘ati, etnik madaniyati rivojlanishining asosiy bosqichlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Bu bosqichning asosiy maqsadi majburiy adabiy-lingvistik ta‘lim berish sanaladi. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarga o‘z ona yurti etnik madaniyati, tili va tarixi haqida yaxlit idrok etishni o‘rgatishdir. Bu borada Alisher Navoiy, Bobur, Abay, Maxtumquli, Berdaq, I.Yusupov, R.Hamzatov asarlarida tilga olingan mavzularni ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy metodik davriy nashrlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, til o‘ziga xosligi va ijtimoiy ahamiyati bilan alohida o‘rin tutadi. U xalq ma‘naviy madaniyatining namoyon bo‘lishi, milliy va shaxsiy o‘zlikni anglashning asosiy shakli, bilimlarni saqlash va o‘zlashtirish muhitidir. Til va etnomadaniyat har bir xalqning milliy xilma-xilligini belgilaydigan, o‘z-o‘zini anglash darajasida bir-biriga uzviy bog‘langan ikkita sohadir. Ularni o‘rganish o‘zaro tushunishga undovchi, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan yo‘ldir, shu bois tillarni o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish ularning mazmuniga etnik-madaniy materialni izchil kiritish bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кон И.С. Ребёнок и общество. – Москва: 2000. – 453 с.
2. Qurambayev K. Adabiy jarayon. Ijod ma‘suliyati. Adabiy aloqalar. – Toshkent: Cho‘lpon, 2009.
3. Гельман З.И. История науки и культуры в системе общего среднего образования. Проб. shk. uch. – Москва: Просвещение, 1987. – Вып.
4. Королёв С.И. Вопросы психологии. – Москва, 2011.
5. Махмудов М. Региональный колледж: путь к интеграции. Народ. образ. 1990. – № 5. – С. 59.
6. Титова С.В. *Как обогородить учебный процесс: сервисы Web 2.0 в преподавании иностранных языков [Электронный ресурс]. URL: <http://www.ug.ru/archive/25763> (дата обращения: 02.06.2017).*
7. Усмонова О.Й. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини ўрганишда адабий таҳлил ҳамда талқиндан фойдаланиш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.
8. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. – Москва: Учпедгиз., 1992. Т. 1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya> .

O‘QUVCHILARNING MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARIGA INNOVATSION YONDASHUV

M.B.Zaripova

A.Qodiriy nomidagi JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarning mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali ularning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ma‘naviy-axloqiy tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, kitobxonlik, irsiyat, qayta hikoyalash, ko‘rgazmalilik.*

O‘zbekistonda bugungi kundagi maktab ta‘limi borasida islohotlar ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra, o‘sib kelayotgan yosh

avlodni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish, o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy qilish kun tartibiga kiritilayotgan muhim ta'limiy masalalardan biridir. Ta'biyki, aynan o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda ularda ijodiylik ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'z fikrlarini erkin bayon qila bilish, ya'ni ularning og'zaki nutq madaniyatini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rne kattadir.

O'qituvchi har bir olib boradigan mashg'uloti jarayonida uning nutqi u aytib beradigan voqea hodisalar yoki o'rganilayotgan ertak, hikoya, afsona va rivoyatlar jonli va qiziqarli tilda bo'lmog'i, o'quvchilarning diqqat e'tiborini tortmog'i lozim.

Chunki, o'quvchilar faqat darslikdagi matnlarni o'zlari o'qiyversa, mazkur bir xillik o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi ularda sekin-asta e'tiborsizlik ko'nikmasi hosil bo'la boshlaydi. Ularning e'tiborini o'qituvchining tirik so'zi, ohanggi, u ishlatgan darslikda mavjud bo'lgan so'zlardan farqli ya'ni, o'sha so'zlarning sinonimlarini o'qituvchi o'z nutqida qo'llay oladi. Masalaning yana bir muhim tomoni, o'quvchilarni o'qituvchining so'zlarini tinglashga o'rgatish, undan keyin eshitganlarini boshqalarga, ayniqsa sinfdosh do'stlariga aytib bera olishga ham o'rgatish lozim. Bu xildagi o'quvchilarni so'zlatish, tabiiyki ularning og'zaki nutqini oshirishda ijobiy samara beradi.

Eng achinarlisi, aksariyat o'qituvchilar sinfda o'z nutqini o'quvchilarga namoyon qilish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinfda saboq berar ekan, ayniqsa o'qish darslarida darslikdagi matnlarni, ularni imkon qadar tahlil qila bilish, o'quvchilar kutgan so'zlarni, iboralarni og'zaki aytib berish ko'nikmasini shakllantirib borish lozim.

Jahon adabiyoti namunalarini boshlang'ich sinflarda o'rganish, turli janrdagi asarlar bilan o'quvchilarni tanishtirish, mazkur asarlarni yaratgan shoir va yozuvchilar haqidagi ma'lumotlarni berish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, bugungi fan va texnikaning, aloqa vositalarining rivojlanishi bois, bolalar imkon qadar dunyo voqealaridan qisman jahon adabiyoti namunalaridan xabardor bo'lmoqdalar.

Ular sinfda o'rganayotgan, darsliklarga kiritilgan mavzulardan tashqari, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari haqidagi ma'lumotlar asosida mustaqil o'qigan asarlarini yodga olmoqdalar. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo'lsak, bolalarni jahon adabiyoti namunalari bilan tanishtirish masalasini shartli ravishda yetti bo'limga ajratish mumkin.

1. Jahon adabiyoti namunalari o'rganilayotgan sinf jamoasining qabul qilish darajasini inobatga olish. Shu bilan bir qatorda jahon adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan yozuvchi, uning yaratgan asarlari, millati haqida o'quvchilarga ma'lumot beruvchi jihatlariga e'tibor berish.

2. Jahon adabiyotida yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan bir yozuvchini ikkinchisidan ajrata olish, yozuvchining badiiy uslubi asarlarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini anglashga yo'naltirish.

3. Jahon adabiyoti namunalari asosida ishlangan rang-tasvir, teatr, kino, spektakl, multfilmlarni bir-biri bilan o'zaro qiyoslash ko'nikmasini hosil qilish;

4. O'quvchilarni mustaqil mutolaa jarayonida ularning erkinligini ta'minlash. Ya'ni, bolalarga majburiy adabiyotlarni zo'rma-zo'raki o'qishga majbur qilmaslik. Balki, nimani o'qish, qanday o'qish, o'qigan asarlaridan qanday qilib foydalanish, qancha miqdorda o'qish kerakligini bolalarning o'zlari belgilash imkonini berish;

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil mutolaa qilgan asarlari asosida jamlagan bilim va tushunchalardan iborat umumiy tasavvur zahiralaridan mashg'ulotlarda foydalanish va faol o'quvchilarni taqdirlash;

6. Jahon adabiyoti namunalarini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotda, o'quvchilarni faollik, izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirish, matnlardagi murakkab o'rinlari va ularning yechimiga oid eng muhim hamda muqobil shakllarini topishga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar tuzish, shu asosda mavzuni o'rganish jarayonlarini rivojlantirishga qaratish;

Bu usul maktab ta'limida keng qo'llanilganligi bois evristik metod nomi bilan yuritiladi.

7. Jahon adabiyoti namunalaridan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni hayajonga soluvchi, obrazilar, narsa-buyumlar yoki voqealar tasviri mavjuddir. Psixolog R.Sodiqova o'zining "Empatiya adap-

tatsiya hodisasining muhim omili”, nomli maqolasida: “Empatiya hamdardlik, ichdan his qilishlilik kabi ma’nolarni anglatishini, konkret shaxslarning emmotsional-hissiy holatlarini tushunish... aynan shu voqelikni o‘zida sinab ko‘rish tushunilishi e’tirof etiladi”.

Demak, Empatiya natijasida jahon adabiyoti namunalarida ifodalangan qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari bolalarni hayajonga soladi va ifodalanayotgan voqea-hodisalarga nisbatan ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi, o‘ylashga, fikrlashga undaydi.

Matnda ifodalangan voqea-hodisalarni xayollarida qayta jonlantiradi. Qahramonlarning o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘radi. Ko‘rinadiki, bolalar o‘ziga xos “ijod” qiladi. Shu o‘rinda bolalarning sevimli yozuvchisi Xans Kristian Andersen ijodiga to‘xtalib o‘taylik. U asli Daniyalik bo‘lib, o‘zining ajoyib va g‘aroyib ertaklari bilan jahonga tanilgan buyuk so‘z ustasi sanaladi. U o‘z ijodini ilk davrlarida roman, drama, sayohat ocherklari yozadi. Keyinchalik, tarix-ertak asarlari bilan kitobxonlar uchun maroqli bo‘lgan “Bolalar uchun ertaklar” (1835-1842), “Yangi ertaklar” (1843-1848), “Yangi ertaklar va tarix” (1858-1872) va boshqa kitoblari yozuvchining nomini bolalar o‘rtasida mashhur qildi, jahonga tanitdi. Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanadi, ularning orzu-armonlarini qog‘ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun ham Andersen yaratgan barcha ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

Andersen ertaklarining qahramonlari o‘zlarining samarali mehnatlari, aql-idroklari, axloq-idroklari bilan kitobxonlar tahsiniga sazovor bo‘ladilar. Uning “Qo‘ng‘iroqli girdob”, “Kumush tanga”, “Kolbasa sixidan sho‘rva”, “Go‘ng-qo‘ng‘iz” va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi.

Yozuvchi, bolalar uchun ertaklar yaratar ekan, u ertakchi ijodkor sifatida bu janrga o‘zgacha mehr qo‘yadi va janrni chuqur o‘rganadi. Uning ertaklari bolalarning diqqat-e’tiborini jalb etishning asl boisi, u har bir ertagiga maxsus kirish, boshlama va tugallanmaga alohida e’tibor berganligida. Eng muhimi, uning ertaklari sirli, ayni paytda sodda va an’anaviylikka xosdir. Shuning uchun yozuvchining ertaklarini dunyo bolalari eshitib katta bo‘lishgan.

Demak, yozuvchi nafaqat bolalar balki kattalar orasida ham sevimli ijodkor sanalgan. Shu o‘rinda, yozuvchining mashhurligini tasdiqlovchi hikoyalar ham mavjud bo‘lib, shulardan biri u hayotligida bo‘lib o‘tgan voqea bilan bog‘liqdir. “Bundan taxminan 130 yilcha ilgari Shotlandiyadagi bir mehmonxonada yoshi anchaga borib qolgan muloyimgina bir sayohatchi hassasini unutilib qoldiradi. Mehmonxona xo‘jayini hassaga “Daniyalik yozuvchi Xans Kristian Andersenga” degan yozuvni bog‘lab, pochtaga olib boradi. Pochta adressiz jo‘natmani qabul qiladi. Va uni parishonxotir sayohatchiga yetkazadi, chunki o‘sha paytdayoq bu ajoyib insonning nomi butun dunyoga tanish edi”.

Ma’lumki, Xans Kristian kambag‘al etikdo‘zning bolasi bo‘lib, yoshligidan sharoiti og‘irligidan 12 yoshidan movut fabrikasida ishlaydi va kambag‘allar uchun ochilgan kechki maktabda o‘qiydi. U tug‘ma iste’dodga ega bo‘lib, ixlos bilan o‘qiydi. Undagi ana shu intilishi, tirishqoqlik, vaqti kelib, dunyo adabiyoti zarvaraqlarida nomini abadiy qoldira olgani, bugunga kelib esa jahonning deyarli barcha mamlakatlaridagi bolalar uning ertaklaridan saboq olayotgani har qanday insonning havasini keltiradi. Yozuvchining hayot yo‘li, uning yaratgan asarlari endi hayotga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarga nafaqat ilm ma’rifat, balki o‘qishga ixlos va havas va intilish ham uyg‘otish tabiiydir.

Uning “Qor malikasi”, “Bulbul” kabi ertaklari avvalo adib ijodiyoti to‘g‘risidagi tushunchani boyit-sa, ikkinchidan uning ertaklari qamrab olgan mamlakatlar, ertaklaridagi qahramonlarning fe’l-atvorlari, olamning rang-barangligini o‘quvchilarga anglatish uchun amalga oshiriladi. Yozuvchining aynan bolalar tafakkuriga ta’sir qiladigan ertaklari bir necha yillardan buyon boshlang‘ich sinflarning darsliklariga kiritilmoqda.

Yozuvchining boshlang‘ich sinflarning 4-sinf darsligiga kiritilgan X.K.Andersenning “Bolalar guruhi” ertagi bolalarining yosh xususiyatlariga mos tarzda tanlangan. Mazkur ertakni psixologik empatiya metodiga tayanib o‘rganish masalasiga e’tiborni qaratib ko‘raylik. Ertakda personajlar ya’ni bolalar o‘rtasida suhbat, o‘zaro munozara, qisman tortishuvli, bahs-munozaralar aks etgan lavhalar anchagina uchraydi. Bu holatlar ertakdagi bolalarning nutqida, dialog va monologlarida o‘z ifodasini topgan.

Ertakdagi har bir bola o'z his-tuyg'ularini, e'tiroz va kechinmalarini ertakning oxirigacha ifodalashga harakat qiladi. X.Andersenning "Bolalar gurungi" ertagida insonning xohish istagi, niyati barcha tuyg'ulardan, hatto oliy maqom darajalaridan ham yuksakligi ko'rsatib berilgan.

Yozuvchining boshlang'ich sinflarning 4-sinf darsligiga kiritilgan X.Andersenning "Bolalar gurungi" ertagi bolalarining yosh xususiyalariga mos tarzda tanlangan. Mazkur ertakni psixologik empatiya metodiga tayanib o'rganish masalasiga e'tiborni qaratib ko'raylik. Ertakda personajlar ya'ni bolalar o'rtasida suhbat, o'zaro munozara, qisman tortishuvli, bahs munozaralar aks etgan lavhalar anchagina uchraydi. Bu holatlar ertakdagi bolalarning nutqida, dialog va monologlarida o'z ifodasini topgan.

Ertakdagi har bir bola o'z his-tuyg'ularini, e'tiroz va kechinmalarini ertakning oxirigacha ifodalashga harakat qiladi. X.Andersenning "Bolalar gurungi" ertagida insonning xohish istagi niyati barcha tuyg'ulardan, hatto oliy maqom darajalaridan ham yuksakligi ko'rsatib berilgan.

Bolalar ko'pincha ota-onalarining so'zlarini signal sifatida qabul qiladilar. Biz o'zlashtirib olgan bu "signallar" ichki nutq deb nomlanadigan ichki dialogni yuzaga keltiradi. Ichki nutq zaminida bolaning kelajagi shakllanadi. Ertagimiz qahramoni bo'lgan kambag'al bola boshqalarning gapini, qarashlarini o'z istaklari va orzusidan ustun qo'ymadi. Maqsadga erishish uchun eng birinchi navbatda orzu qila olish lozimligini tushunadi va bir kun kelib o'z orzusiga ham erishdi.

Kechqurun oshxonada xizmat qilib eshikdan gurung qilayotgan bolalarning o'zlarini eshitib, o'zidagi donishmandlik insonga ezgulik olib kelishga qodir bo'lishni anglab yetdi. Oradan yillar o'tgach, u boy-badavlat kishiga aylanadi.

1. Bir o'ylab ko'ringchi, insonlar nima uchun har xil toifaga ajratiladi? Sizningcha, bu qanchalik to'g'ri?

2. Dimog'dor qizchaning otasiga berilgan ta'riflardan qaysi biriga tushunmadingiz?

Xans Kristian Andersenning "Bolalar gurungi" ertagi qahramonlarining otalari haqidagi mulohazalari

2-jadval

№	Ertakda ishtirok etgan bolalar	Gurungda bolalarning ota-onalari haqidagi fikrlari
	Kamer-yunkerning dimog'dor qizi	"Men Kamer-yunker qiziman"
	Savdogarning qizi	Mening otamni bilasanmi otam yuzta bolaning hammasiga novvot sotib olishi yoki uni sohib yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qila oladimi?
	Yozuvchining qizi	Mana mening otam esa, sening otang haqida, hozirdagi dunyodagi hamma otalar haqida ham gazetaga yozishi mumkin. Oyim: "Hamma otangdan qo'rqadi", - deydi.
	Kambag'al bola	Qani endi man shularning o'rnida bo'lsam. Xullas, mendan hech qachon biror durust odam chiqmaydi. Lekin mening tomirimdan chinakam toza qon aylanayapti! Bu haqda tortishib o'tirishga o'rin ham yo'q!

3. Yozuvchi ertakdagi chiroyli qizchani nega dimog'dor deb ta'riflagan?

4. Ertakda badavlat savdogarning ziyofatida bolalar nima haqida munozara qilishadi?

5. Bolalardan qaysi birining so'zlari, fikrlari sizga yoqmadi?

6. Sizlar bolalarning o'zaro suhbatidan qanday xulosa chiqardingiz, izohlab bering.

7. O'zining nasl-nasabi bilan maqtanishni to'g'ri deb o'ylaysizmi?

8. "Bolalar gurungi" deb nomlangan ertakdagi "gurung" so'zining yana qanday so'zlar bilan izohlash mumkin?

9. Bolalar tomonidan aytilgan so'zlarni kim tomonidan aytilganligini o'z o'rniga qo'ying.

3-jadval

1.	Savdogarning qizi	A. Biz aslzodalar har qanday “sen”lardan nariroqda, qo‘lni belga qo‘yib, ularga qiyo boqmay turishimiz kerak.
2.	Yozuvchining qizi	B. Mening otamni bilasanmi, otam yuzta bolaning hammasiga novvot sotib olishi mumkin.
3.	Kibrli qizcha	S. Oyim: “Hamma otangdan qo‘rqadi”-deydi.

1. Hikoyada bolalar munozarasining bosh sababi nima edi? Nima deb o‘ylaysiz? Bu bahs uchun arziqli sabab bo‘la oladimi?

2. Bir o‘ylab ko‘ring-chi, nima uchun ziyofatda o‘tirgan bolalar safiga qo‘shila olmagan kambag‘al bolaning fikrlaridan nimani angladingiz?

3. Sizningcha kambag‘al bola obrazi, yozuvchining bolalikdagi xotiralari bo‘lishi mumkinmi?

4. Sizningcha, odamlarning boylik orttirib, katta mansab egasi bo‘lishiga nimalar sabab bo‘ladi va nimalar bu narsa uchun ahamiyatsiz? Hikoya mazmuniga bog‘lab mulohaza yuriting!

5. Bir o‘ylab ko‘ring-chi, hikoya voqealari tasvirini qanday xalq maqollari bilan bog‘liqlikda tahlil qilishimiz mumkin?

6. Ertak so‘ngida bolaning boy-badavlat bo‘lganligini yozuvchi izohlaydi? Siz yozuvchining o‘rnida bo‘lganingizda ertakni qanday yakunlagan bo‘lar edingiz?

7. Ertakdan o‘zingizga qanday foydali xulosalar chiqardingiz? Fikringizni hayot bilan bog‘liqlikda bayon qiling!

Ertak tahlilidan, shu narsa ayonki, yozuvchi o‘zining og‘ir kechgan bolaligi, uning oyoqqa turish yo‘lida chekkan zahmatlari to‘g‘risidagi tafsilotlar uni bolalar dunyosiga yaqinlashtirgan. Shu bois, u bolalardagi ruhiyatini anglay olgan psixolog-pedagog sirasiga kiradigan yozuvchilardan biridir.

X.Andersen, ko‘rinadiki “O‘zidan” uzoqqa ketmagan u hayotiy omilini asarlariga ko‘chirgan va o‘z yo‘lini ocha bilgan.”

X.K.Andersen va uning ertaklari dunyosi haqida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga ma‘lumot berish jarayonida, yozuvchining bolalar uchun yaratgan asarlarining mohiyatini, tarbiyaviy ahamiyatini yetkazish muhimdir.

Agar Andersen ertaklarini, ulardagi o‘xshash voqealarni, ayniqsa bolalar sevib o‘qiydigan o‘zbek xalq ertaklari bilan solishtirib o‘rganilsa, mashg‘ulotlar yanada qiziqarli tashkil etilgan bo‘ladi.

Buning uchun o‘qituvchi, bolalarga ertak haqidagi ma‘lumotlarni yodga solish, ularning og‘zaki va yozma shakldagi turlari, ayniqsa ertaklarning yozma adabiyotga bo‘lgan ta‘siri, umuman ertaklarning mavzu doiralari haqidagi ma‘lumotlar ertaklarning sehrli olamiga o‘quvchilarni yaqinlashtiradi. So‘ng bevosita X.Andersenning mukammal yozma ertaklari bilan o‘zbek xalq ertaklarini qiyoslab o‘rganish imkoniyati vujudga keladi. Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Egri bilan To‘g‘ri” va boshqa ertaklarni olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadiqova R Empatiya adaptatsiya hodisasining muhim omili sifatida./ maktab va hayot, - Toshkent, 2011. №2.

2. Bolalar ensiklopediyasi. - Toshkent, 2000.

3. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik. / I.Azimov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.

4. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik. / I.Azimov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021.

5. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf uchun mashq daftari / I.Azimov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022.

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TASVIRIY MATN YARATISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Zebiniso Davronova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishning lingvodic didaktik asoslari yoritilib berildi. Uni o'qitishdagi samarali yondashuvlar aniqlanib metodologik asos ishlab chiqildi. Ilmiy-tajriba sinov ishlari tahlil qilinib zarur xulosa va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: *tasviriy matn, to'rt lisoniy malaka, matn yaratish, yozma nutq, til o'qitish metodikasi, muammo, til o'zlashtirish.*

O'quvchining ona tilini o'zlashtirishda to'rt lisoniy malakani shakllantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu to'rt lisoniy malakadan biri yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirish dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda ularning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha turli metodist olimlar tomonidan turli tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ayni paytda ona tili va unga oid yo'nalishlarda ham yangilanishlar va rivojlanishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, til o'qitish metodikasini takomillashtirish borasida, ta'lim mazmunining sifatini yanada oshirish, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun o'quvchilaridan o'z fikrini mustaqil og'zaki va yozma bayon eta olishi, o'zining mustaqil fikriga va keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab etiladi.

Mamlakatimizda barcha sohalarida tub o'zgarishlar, yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Jumladan, davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish maqsadida ta'lim tizimiga, o'zbek tilini rivojlantirishga hamda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko'tarishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Unga ko'ra uch oy ichida "Davlat tili haqida"gi Qonunni takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi.

Fanning maqsadiga ko'ra o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila oladigan shaxsni tarbiyalashda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish hamda shaxsni turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash va yozma savodxonlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Biroq hozirgi kun ona tili ta'limida o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishda muammolar mavjud. Bundan tashqari o'quv darsliklarida ham o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlar ham mukammal darajada emas.

O'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha turli olimlar tomonidan turli tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

T.Ziyodovanning "Matn yaratish texnologiyasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi", N.Bekniyazovanning "Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi" (monografiya), I.Azimovanning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" (monografiya), K.Mavlonovanning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" (dissertatsiya) tadqiqot ishlari, o'quv qo'llanmalari, monografiya, metodik qo'llanmalarda hamda amaldagi "Ona tili" darsliklari yuzasidan o'qituvchilar uchun yozilgan metodik adabiyotlarda yozma ishlarni tashkil qilish, bog'lanishli nutq tuzish, matn, matn strukturasi, tuzilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

MDH davlatlari orasida tasviriy matn mavzusi yuzasidan rus olimlaridan bir qanchasi tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Jumladan, Rubinchik Lyudmila Ivanovna, Vodyasova Lyubov Petrovna, Ko-

bozeva Irina Mixaylovna va Xamaganova Valentina Mixaylovna o‘z ishlarida tasviriy matn ko‘nikmasini rivojlantirishga oid bir qancha masalalar yoritib berilgan.

Xorij olimlaridan Jeremy Harmer, Byrne, Brownlar o‘z izlanishlarida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish hamda ularning yozma nutqini rivojlantirishda tasviriy matn yaratish ko‘nimasini shakllantirish masalalari bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar olishimiz mumkin. Boshqa ko‘plab xorij olimlari va tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida hosil bo‘lgan ilmiy xulosalar bo‘yicha kerakli yo‘nalish olishimiz mumkin bo‘ladi.

Ushbu maqolada bir qancha o‘zbek va xorij olimlarining ilmiy-nazariy, metodologik qarashlariga tayanildi. Maqola mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqish, nazariy va metodik adabiyotlarni o‘rganish, darslarni kuzatish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlashish va so‘rovnomalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va ularning natijalarini tahlil qilish ishlari amalga oshirildi.

Tasviriy matn yaratishda o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradigan omillarni asosiy besh turga bo‘lishimiz mumkin.

1. Mazmun.

O‘quvchilar tasviriy matn yaratish davomida o‘z bilimlariga tayanadilar. Ammo o‘quvchilar uchun fikrlash, g‘oyalar yaratish, o‘z fikrlarini dalillash, o‘z tajribalarini ulashish biroz qiyin jarayondir.

2. Tuzilma (Struktura).

Tasviriy matn yaratishda o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon etishda, ularni qay tartibda yozishda ikkilanishlarga duch kelishadi. Matn paragraflarining qaysi birida qanday ma‘lumotni yozish, ma‘lumotlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish, ya‘ni matnning kirish qismida tasvirlanayotgan narsa haqidagi qaysi ma‘lumotlar, asosiy qismida tasvirlashda asosiy e‘tibor nimalarga qaratilishi va xulosa qismni qanday fikrlar bilan yakunlash kerak ekanligi kabi jihatlar o‘quvchi uchun ba‘zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

3. Lug‘at.

Tasviriy matn yaratish jarayonida lug‘at boyligining sayozligi, so‘z tanlashdagi xatoliklar o‘quvchilar tez-tez uchrab turadigan holatdir. O‘quvchilar matn yaratish davomida takrorlardan ko‘p foydalanishadi, matn mazmuniga, uslubiga mos so‘zlarni tanlay olishmaydi. O‘zlari tasvirlayotgan obyekttni ham istashganlaridek batafsil tasvirlay olishmaydi.

4. Grammatika.

Grammatika yozma nutqning muhim elementi hisoblanadi. Matndagi gaplarni to‘liq va to‘g‘ri shakllantirish uchun grammatik bilim muhim hisoblanadi, ammo o‘quvchilarda grammatik savodxonlik to‘liq shakllanmagan hamda ularda grammatik bilimlarini amaliyotda qo‘llashda doimo qiyinchilikka uchrashadi.

5. Imlo va punktuatsiya.

So‘zlarni to‘g‘ri yozish va tinish belgilarini o‘rnida qo‘llash yozilgan matnning mukammal bo‘lishi uchun muhim hisoblanadi.

O‘quvchilar uchun ushbu qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi bir qancha sabablar mavjud. Ana shu sabablar o‘quvchilarning tasviriy matn yaratishdagi ba‘zi noqulayliklarni yuzaga keltiradi

➤ Yozma nutqning shakllanmagani

Yozma nutq muntazam ravishda bajariladigan mashqlar natijasida shakllanib boradi, ammo o‘quvchilarning yozma nutqi qoniqarli darajada emas. Shu sababli ham, o‘quvchilar tasviriy matn yaratishdagi qiyinchiliklarga duch kelishadi.

➤ Yozishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qligi

O‘quvchilar ona tili darsi mashg‘ulotlarini, faqatgina, yozish darsi deb hisoblashadi. Yozish jarayonini esa zerikarli mashg‘ulot sifatida qabul qilishadi.

➤ Vaqtning yetishmasligi

O‘quvchi o‘z fikrini yozma holatga aylantirish ma‘lum bir vaqtni talab etadi. O‘quvchi uchun vaqtning chegaralanganligi, ularning erkin ijod qilishiga to‘sqinlik qiladi.

➤ Yozish bilan shug‘ullanmaslik

O‘quvchi yozma nutqini shakllantirish uchun doimiy ravishda yozish bilan shug‘ullanishi lozim.

Sportchilar ham ma'lum natijaga erishishlari uchun o'z ustida ishlashadi, mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanib borishadi, natijada o'zlari ko'zlagan maqsadiga yetishadi. O'quvchilarning ham yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish uchun doimiy mashg'ulotlar zarur.

➤ O'qituvchining o'quvchi yozma nutqiga fikr-mulohazasining kamligi

O'qituvchi o'quvchi yozma nutqidagi kamchiliklar va erishilgan yutuqlarga alohida e'tibor qaratishi lozim. O'quvchiga to'g'ri yo'nalish ko'rsatishi kerak.

Dastlab, tajriba-sinov ishlaridan oldin o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining bugungi holati aniqlab olindi. Tajriba-sinov natijalari quyidagicha natija ko'rsatdi:

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining dastlabki holati		
O'quvchilar soni (18 nafar)	Ball miqdorida	Foiz miqdorida
0	Yuqori (18-20)	0%
0	O'rta (14-17)	0%
18 nafar	Quyi (10-13)	100%

Natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining dastlabki holatida 100% o'quvchi quyi ko'rsatkichni qayd etishdi. Bunga sabab o'quvchilarning tasviriy matn turi bilan to'liq tanish emasligidir.

O'quvchilarning aksariyat qismi matn turlarini farqlay olishmaydi. Xususan:

- o'quvchilar uchun vazifa qilib berilgan shaxs tasviridagi matn turi bilan o'quvchilar tanish emas;
- tasviriy matn turi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

– ona darsliklarida o'quvchilar tasviriy matn yaratishda shaxs tasvirini qanday qolipda yozish, matnda aynan nimalar yoritilishi kerak ekanligi va shunga bog'liq bo'lgan mashq va topshiriqlar deyarli mavjud emas.

6-sinf o'quvchilari kundalik hayotlari davomida biror narsani, shaxsni, joyni va boshqalarni tasvirlash bilan bog'liq vaziyatlarga duch kelishadi va bunda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ammo o'quvchilarda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor kam qaratiladi. Biroq til ta'limida bunday dolzarb mavzularga e'tibor qaratilishi zarur.

Uchinchi bosqichda esa yakuniy natija olinib tahlil qilindi. Yakuniy natijalar esa quyidagicha ko'rsatkichga ega bo'ldi:

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining so'nggi holati		
O'quvchilar soni (18 nafar)	Ball miqdorida	Foiz miqdorida
4 nafar	Yuqori (18-20)	22%
8 nafar	O'rta (14-17)	45%
6 nafar	Quyi (10-13)	33%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'rt nafar o'quvchi yuqori ballni, sakkiz nafar o'quvchi o'rtacha ko'rsatkichni, olti nafar o'quvchi quyi ko'rsatkichni qayd etishdi.

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining umumiy holati				
Farqlanish darajalari		Yuqori (18-20)	O'rta (14-17)	Quyi (10-13)
Dastlabki natija	O'quvchilar soni (18 nafar)	0	0	18 nafar
	Foiz miqdorida (100%)	0	0	100%

So‘nggi natija	O‘quvchilar soni (18 nafar)	4 nafar	6 nafar	8 nafar
	Foiz miqdorida (100%)	22%	45%	33%
Samaradorlik ko‘rsatkichi		22%	45%	77%



So‘nggi umumiy natijada dastlabki va oxirgi natijalar qiyoslandi. Ushbu ko‘rsatkichda quyidalarga erishildi:

Tasviriy matn yaratish ko‘nikmasida yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 22% ga ko‘tarildi.

Tasviriy matn yaratish ko‘nikmasi o‘rtacha natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 45% ga ko‘tarildi.

Tasviriy matn yaratishda quyi natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 77% ga kamaydi.

Tajriba-sinov natijalaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘quvchilardagi eng yuqori samaradorlik 43%, eng kam samaradorlik esa 6%ni ko‘rsatdi. Umumiy holatda esa o‘quvchilarning natijalari 25% o‘ydi.



Umumiy natijada dastlabki va so‘nggi natijalar qiyoslandi. Ularning orasidagi farqlari, samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Natijalarga ko‘ra:

- tasviriy matn yaratish ko‘nikmasida yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 22% ga ko‘tarildi;
- tasviriy matn yaratish ko‘nikmasi o‘rtacha natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 45% ga ko‘tarildi;
- tasviriy matn yaratishda quyi natija ko‘rsatgan o‘quvchilar 77% ga kamaydi;
- o‘quvchilardagi eng yuqori samaradorlik 43%ni ko‘rsatdi;
- o‘quvchilardagi eng kam samaradorlik esa 6%ni ko‘rsatdi;
- umumiy holatda esa o‘quvchilarning natijalari 25% o‘ydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasining mavjud holatini aniqlash uchun olib borilgan tajriba-sinov natijalaridan shu ma‘lum bo‘ldiki, 6-sinf o‘quvchilari tasviriy matn yaratishda tasviriy matnning mazmun jihati va tasviriy matn strukturasi, tuzilishini shakllantirishda asosiy muammolarga duch kelishmoqda. Tajriba-sinov natijalari yakunida o‘quvchilar qayta tasviriy matn yozishdi. So‘nggi tajriba-sinov natijalaridan shu ma‘lum bo‘ldiki, o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar va materiallar o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirishga sezilarni ta‘sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. “O‘zbek Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. – T.:Navoiy universiteti, 2019.
4. Azimova I. Lisoniy malakalarni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari. Global ta‘lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

5. Brown, H. 2007. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. (2nd ed.). New York: Longman.
6. Mavlonova. K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2019.
7. Mavlonova K. Umumiy o'rta ta'lim jarayonida yozma ishlarni tashkil etish. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2019.

AFG'ONISTON HUDUDIDAGI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINING TARAQQIYOTI GAROVI

Hamdard Hasamuddin,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bu maqolada Afg'onistonda qanday qilib o'zbek tili va adabiyotining taraqqiyoti uchun harakat etishni muhokama etishni va bu g'oyani ta'minlash uchun bir necha masalani bayon etib sharh berdik.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston o'zbek adabiyoti, shimoliy Afg'oniston o'zbeklari, o'zbek tilida o'qitish.*

O'zbek tili Afg'onistonning ona tillaridan biridir. Bu zaminda o'zbek ajdodlari asrlar davomida yashab, uni o'z ota-bobolari vatani, deb qadrlaydilar. Hirotida temuriylar hukmronligi davri qadimgi o'zbek tili taraqqiyoti va taraqqiyotining eng yorqin davri hisoblanadi. Alisher Navoiy va bu buyuk shaxsning betakror ilmiy-adabiy ijodi mintaq va jahon adabiyoti osmonida yorqin yulduzdek porlaydi. O'sha davrda o'zbek adabiyotining eng yirik va boy klassik asarlari yaratilgan. Hirotida temuriylar hukmronligi qulagandan keyin bu zaminda o'zbek tili va adabiyotining uzoq davom etgan turg'unlik davri boshlanadi. Sivilizatsiya va madaniyatning bu o'zgarma tarafdori Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi qulagach, o'sha davrning yorqin adabiy muhiti ham yo'qoladi. Bu zaminda o'zbek tili va adabiyoti endi gullab yashnamaydi.

Keyingi asrlarda o'zbek tili mamlakatimizda og'ir davrlarni boshidan kechirdi. O'zbeklar o'z ona tilida ta'lim olish ne'matidan mahrum bo'ldilar. O'zbek asarlari va nashrlarini o'zbek tilida chop etish taqiqlandi.

Milliy kengashning 13-davrida o'zbek va turkman vakillarining ko'p yillik sa'y-harakatlari va kurashlaridan so'ng 1972-yilda o'zbek va turkman tillarida nashrlar boshlanadi. Sardor Muhammad Dovudxon va Tolibon hukmronligi davrida Afg'oniston radiosi o'zbek va turkman tillarida eshittirishlarini to'xtatgan bo'lsa, bugun Milliy radio va televideniye har kuni yarim soatdan o'zbek tilida eshittirishlar olib boradi. O'zbek tilida ko'rsatuvlar boshlanganiga qariyb yarim asr o'tgan bo'lsa-da, eshittirish vaqti hali yarim soat. O'zbek tilidagi ilk nashr "Yulduz haftaligi" 1979-yilda o'z faoliyatini boshlagan, buni o'zbek jamiyatining savodxon qatlami olqishlagan, biroq oradan o'n yildan ortiq vaqt o'tgach, bu haftalik gazetani chiqarish butunlay to'xtatilgan. Tolibondan keyingi demokratik hukumat o'z faoliyatini jonlantirishi kerak edi, buni qilmadi! (Subot, 2009: 167).

Bugungi kunda axborot va madaniyat vazirligi tizimida "Vatandaran" nashrlari doirasida o'zbek tilidagi nashrlar mavjud. "Vatandaran" jurnalining o'zbek bo'limi negadir savodli, o'qimishli o'zbek jamiyatiga yetib bormaydi. Afg'onistonda so'z va ommaviy axborot vositalari erkinligi davrida ayrim xususiy OAV ham nashrlarining bir qismini o'zbek tiliga bag'ishlagan. Shimoliy viloyatlardagi mahalliy radio va televideniylar o'zbek tilida eshittirishlar olib boradi. Bu o'zbek tili rivoji yo'lidagi ijobiy holat va qimmatli qadamdir. Ammo bu ommaviy axborot vositalarining o'zbek nashrlari mazmuni bahsli va bu maqola doirasidan tashqarida. Maktablarda o'zbek tilini o'qitish tarixi Afg'oniston Xalq demokratik partiyasining 14 yillik boshqaruvining dastlabki yillariga borib taqaladi. Ta'lim vazirligi o'zbeklar yashaydigan ba'zi maktablarda o'zbek tilida o'qitishni boshlagan edi. To'rtinchi sinfgacha o'quv rejasi

chop etilgan, ammo bu reja o‘rta maktab davri sinflariga moslashtirilmaganligi uchun muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Taxminan 15 yil muqaddam Afg‘oniston Ta‘lim vazirligi o‘zbeklar yashovchi hududlardagi maktablarda o‘zbek tilini (o‘zbek tilida o‘qilmaydi) yana o‘rgatishni boshladi. U 6-sinf-gacha o‘zbek tili darsliklarini oz adadda chop etgan, afsuski, ma‘lum sabablarga ko‘ra bu kitoblarning bir qismi o‘quvchilar ixtiyorida bo‘lmagan. Ta‘lim vazirligi va viloyatlar ta‘lim boshqarmalari omborlarida o‘zbek tili darsliklari yillar davomida saqlanganligi haqida da‘volar ilgari surildi. Ta‘lim vazirligi 15 yildan beri o‘zbek tili darsliklarini nashr etmaydi. Maktablarda o‘zbek tili o‘qituvchilari tayyorlanmagani, oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlari va o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari bitiruvchilari o‘qituvchilarni ishga qabul qilish imtihonlariga kiritilmagani, ta‘lim dasturiga o‘zbek tili darslarining kiritilmagani shular jumlasidandir. Ta‘lim vazirligi hal etilmagan boshqa muammolar (Yorqin, 2013: 76).

Hozir shimoliy va Kobul viloyatlarining yettita universitetida sakkizta o‘zbek bo‘limi mavjud. O‘quv-uslubiy materiallarning yetarli va zamonaviy ta‘minlanmagani, kafedralar o‘rtasida o‘quv dasturlari uyg‘unligi yo‘qligi ta‘lim jarayonida muammolarni keltirib chiqardi. Magistratura va doktorantura darajasiga ega mutaxassis professor-o‘qituvchilarning yetishmasligi ham mazkur kafedralarda ta‘lim samaradorligini eng past darajada ushlab turdi. Oliy ta‘lim vazirligi tomonidan har yili bir qancha o‘zbek tili va adabiyoti professor-o‘qituvchilarini do‘st O‘zbekistonga magistratura va doktoranturaga yuborish zarurati bor. Afg‘onistonda dari va pushtu tillaridan keyin o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar eng ko‘p. Hozirda afg‘on o‘zbeklari mamlakat viloyatlarining deyarli yarmida istiqomat qiladi. O‘zbek tili Afg‘onistonning turkiy tilli davlatlar, xususan, O‘zbekiston bilan aloqasining muhim elementi sifatida mamlakatimiz uchun mintaqaviy yaqinlashuv uchun yaxshi imkoniyatlar yaratib berdi va bu til Afg‘onistonda rivojlanish imkoniyatlari yuqori. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining gullab-yashnashi uchun yo‘llar ochildi, bu ham yetarli emas edi. Yuridik jihatdan o‘zbek tili mamlakat konstitutsiyasida munosib o‘rin tutmagan.

So‘nggi yillarda Afg‘oniston Respublikasi prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani mintaqada o‘zbek tilining boy va muhim tarixi haqida bir necha bor ta‘kidladi. Afg‘onistonda o‘zbek tilining mavqeini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rdi. Podshoh va ayrim davlat idoralarining o‘zbek tilida nashr etilishi va Afg‘onistonda 29-mizon (21-dekabr)ning “O‘zbek tilining milliy kuni” sifatida tasdiqlanishi o‘zbek tilining mavqeini oshirishga qaratilgan ramziy qadamlar sifatida baholanishi mumkin.

Endilikda hukumat o‘zbek tili rivojiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha boshqa katta qadamlar qo‘yishi va o‘zbek tilining Afg‘oniston aholisining salmoqli va nufuzli qismining tili sifatida mamlakatdagi mavqeini institutsionallashtirishga e‘tibor qaratishi zarur (Yovuz, 2013: 92).

Ayni kunlarda virtual yoki davomatsiz va onlayn treninglar mamlakatdagi o‘quv mashg‘ulotlarining 90%dan ortig‘ini beixtiyor va majburan qamrab olgan. Lekin biz boshida yozganimizdek afzalliklarga ega bo‘lgan har bir narsaning kamchiliklari ham bor.

Bugungi dunyoda biz har kuni internet bilan shug‘ullanamiz, to‘lovlarni to‘lashdan olib, mashina sotib olish, musiqa va filmlar yuklab olish, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlarni tekshirishgacha. Lekin internetdan foydalanish shu bilan tugamaydi. Uni virtual dunyoda o‘rganish insoniyat uchun texnologiya taraqqiyotining natijasi bo‘ldi. Axborot texnologiyalari olami va virtual ta‘lim tizimi yordamida odamlar istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olishlari mumkin.

Afg‘onistonda o‘zbeklar yashaydigan hududlarda o‘zbek maktablarini ochilishiga dastak. Ona til deganda ba‘zilar onadan o‘rganilgan til, ona so‘zlaydigan tilni tushunsa-da ba‘zilari esa birinchi bor so‘zlay boshlagan tili (bu til kishining ona tili bo‘lmasligi ham mumkin)ni tushunadilar. Haligacha tilshunoslar va mutaxassislar ona tili to‘g‘risida o‘rtoq bir fikr va nazarga kelisha olmaganlar. Hozirgi kunda ona tilni birinchi til deb ham biladilar. Haqiqatda bola birinchi bor o‘rgangan tili uning ona tili deb sanaladi.

Ona tilni sevish va unga mehr qo‘yish har kim uchun tabiiy bir holat. Ona tilida so‘zlashni har kim yoqtiradi. Mutaxassislar fikricha, har bir bola o‘z ona tilida ta‘lim olishi zarur. Ona tilida ta‘lim olgan bola tezgina o‘qish va yozishni o‘rganadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim va madaniyat ishlari bo'yicha idorasi (UNESCO) 1999-yilida fevral oyining 21-kunini xalqaro ona tili kuni deb nomlagan. UNESCOning ta'kilashicha, davlatlar maktablarda ona tilida ta'lim olish sharoitini yaratishi kerak. Haqiqatda ona tilida ta'lim olish har bir kishining insoniy haqlaridan biri sanaladi. Davlatlar o'z xalqi uchun ta'lim olish sharoitini tayyorlashi kerak (Xayri, 2010: 121).

Afg'onistonda 2000-yildan avval hech bir davrda xalqaro ona tili kuni nishonlanmagan va jamiyatdagi insonlarga o'z ona tillarida ta'lim olish haqqi berilmagan. Ammo o'tgan yigirma yilda fevral oyining 21-kuni tantanali ravishda, ayniqsa, o'zbek xalqi tomonidan nishonlanib kelmoqda.

Davlat nafaqat o'zbeklarga o'z ona tillarida savod chiqarish, o'qib va yozish uchun sharoit yaratmagan, balki dari va pashtudan bo'lak boshqa tillarda davlat idoralarida so'zlash, maktablarda ta'lim olish va ommaviy axborot vositalarida yozish man etilgani sabab Afg'oniston o'zbek xalqi ham o'z insoniy haqlaridan mahrum qolganlar. Afg'onistonning yangi konstitutsiyaga ko'ra o'zbek tili o'zbeklar mintaqalarda rasmiy til deb tan olingan. Bu qonunning 16- va 43- moddalarida davlat Afg'onistonda yashaydigan barcha elatlarga o'z ona tillarida ta'lim olish haqqini tan olgan. Afg'onistonning ta'lim vazirligi mamlakat makatblarida ona ta'limi bo'yicha aniq rejalar tuzib tadbqiq etib kelmoqda. Ammo bu sohada amalga oshiriladigan rejalar hali ham qoniqarli darajada emas va o'zbeklar yashaydigan hududlarda o'zbek tili va adabiyoti darsliklari tarqatilmagan. Masalan Badaxshon viloyatining o'zbek tili dars beriladigan maktablarga bironta darslik kitob ham yetkazib berilmagan. Shuningdek Balx viloyatining o'zbek va turkman tili dars beriladigan Bobur maktabiga ham bironta o'zbek tili darsligi berilmagan. Qolaversa, o'zbek tili darsliklari yetkazib berilgan maktablarda ham har o'nta talabadan birtasiga kitob berilgan. Haqiqat shuki Afg'oniston ta'lim vazirligi ibtidodan o'zbek talabalar sonini o'rganmasdan ma'lum bir andozada kitoblar nashr etishi bu muammoning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ta'lim vazirligi hozirgacha ham bu mushkulotni bartaraf etishga urinmagan.

Ayni holda o'zbek bolalari ta'lim oladigan maktablarda o'zbek tili va adabiyoti darsliklarini o'qitadigan malakali o'qituvchilar bo'lmaganligi ham katta muammolardan hisoblanadi. Afg'onistonda o'zbek tili qatorida har bir qanday tilni rivojlantirish uchun ta'lim vazirligining yonida ommaviy axborot vositalari roli juda katta ahamiyatga ega.

O'tgan uzoq yillar davomida o'zbek tili va adabiyoti beshigi bo'lgan O'zbekistondan ajralib qolgan Afg'oniston o'zbeklarining tili va adabiyotini rivoltantirish uchun O'zbekiston yordamiga katta ehtiyoj sezilib turibdi. O'zbek tili va adabiyoti o'nlaracha afg'onistonlik o'zbek yigitlarining O'zbekistonda malaka oshirishlari katta ahamiyatga ega (Turkar, 1981: 178).

O'zbek tili va adabiyoti bo'limi ilk bor 1984-yilda Kobul universitetining til va adabiyot fakultetida ochilgan. Bu bo'lim o'z faoliyatini Najibulla hukmronligining oxirigacha (1993-yil) davom ettirdi. Fuqarolar urushi boshlanishi bilan Kobuldagi o'zbek tili va adabiyoti bo'limi o'z faoliyatini to'xtatishga majbur qolib o'ttiz yil davomida ishlamadi.

Kobul universitetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limi necha yil yopilgandan so'ng 2018-yilda yana ish boshladi va bugungi kunda bu bo'limda Afg'onistonning turli millatlaridan bo'lgan talabalari tahsil olmoqda.

Hozir Kobul va shimoliy viloyatlar (Taxor, Bag'lon, Samangon, Balx, Javzijon, Saripul, Foryob) universitetlarida sakkizta maxsus o'zbek tili va adabiyoti bo'limi mavjud. Shuningdek, mamlakatimizning 9 shimoliy viloyatidagi o'qituvchilar malakasini oshirish muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti kafedralari tashkil etilgan. O'tgan 20 yil jarayonida yuqorida qayd etilgan viloyatlarda o'zbek tili va adabiyot bo'limlarining ochilishi Afg'oniston o'zbeklari tarixida misli ko'rilmagan va bu xalq uchun katta quvonch hisoblanadi.

Afsuski, bu kafedralar katta muammolarga duch kelmoqdaki, ularni quyidagicha aytib o'tamiz: darajali va professor ustozlarining yo'qligi: Afg'onistonda o'zbek tili va adabiyoti kafedralarida chamasi 40 ta o'qituvchi xizmat qilib kelmoqda. Ammo bu ustozlardan faqatgina bir ustoz professorlik darajasiga erishgan.

Darsliklarning kamchiligi: o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limlarida darsliklar eski manbaalar va adabiyotlarga asoslangan. Va shu sabadan bo‘limlarda dars berish uchun va iste’dodli talaba tarbiyalash uchun yangi manbaalar va adabiyotlar kerakligi juda ham zarur.

Afg‘oniston matbuotida o‘zbek tilining qo‘llanilishi qariyb 50 yillik tarixga ega. Afg‘onistonda Talabalardan keyingi yangi hukumat o‘rnatilgandan so‘ng o‘zbek tilidagi nashrlar afg‘on matbuotida ustuvorlik bo‘yicha uchinchi o‘rinni egalladi. Keyingi yillarda davlat nashrlari va ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tiliga keng o‘rin egalladi. Afg‘oniston Milliy radio va televideniyesi har kuni yarim soat uzluksiz o‘zbek tilida eshittirishlar olib boradi, biroq Afg‘oniston o‘zbeklari Afg‘oniston Milliy radio va televideniyesi doirasida mustaqil o‘zbek tilida radio va televideniye tashkil etilishini talab qilmoqda.

Afg‘oniston Axborot va madaniyat vazirligi qoshida “Vatandaran” jurnali mavjud bo‘lib, ushbu jurnalning bir qismi o‘zbek tilidagi maqolalarga bag‘ishlangan.

O‘tgan yillarda Afg‘onistonning xususiy ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilida ko‘rsatuvlar ko‘lami kengaydi. “Botir” va “Olmas” xususiy televideniylarining aksariyat ko‘rsatuvlari o‘zbek tilida. Boshqa “Oyna”, “Nur”, “Rohi Farda”, “Orzu”, “Birlik”, “Bik” va boshqalar kabi teleko‘rsatuvlar. Shimoliy viloyatlarda o‘ndan ortiq radio o‘zbek tilida nashrlarga ega.

Ayrim davlat idoralarining matbuot bo‘limi ham o‘zbek tilida axborot berishni boshlagan edi. Prezident saroyi Matbuot xizmati bu borada peshqadam bo‘lgan.

Demokratik qadriyatlar va inson huquqlariga asoslangan yangi hukumat o‘rnatilganiga bir necha yil bo‘ldi, Afg‘oniston o‘zbeklari o‘z ona tilini o‘qitish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini o‘zbek tilida olib borish, fuqarolik institutlarini tashkil etish huquqiga ega bo‘ldi.

Afg‘oniston etnik va til tarkibi nuqtayi nazaridan rang-barang mamlakatdir. Bu zamindagi qabilalarning ma‘naviy boyliklari uning madaniy boyligini yanada oshirdi. Afg‘onistondagi barcha etnik guruhlar va elatlarning madaniy hayotini rivojlantirishga e‘tibor qaratish davlat qurilishi jarayoniga yordam bermoqda. Bu borada amaliy va qat‘iy qadamlar tashlash hukumatning burchidir.

Aytish kerakki, Tolibon davlati kelgandan so‘ng yuqorida aytib o‘tganimiz ommaviy axborot vositalarning hech birisi nashr etilmaydi (Aminiy: 2016: 15).

Afg‘onistona hududida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha faoliyat etadigan to‘garaklar soni “Bobur”, “Quyosh”, “Yasaviy”, “Ishonch”, “Qarash” va “Afg‘oniston turk yozuvchilar uyushmalari”ga xulosa bo‘ladi va hozirgi sharoitda hech birisi faoliyat ko‘rsatmaydi. Shunga binoan, bu to‘garaklarni qaytadan ijod etishiga va yangi to‘garaklarning tuzilishiga dastak berish lozim.

2020-yilda O‘zbekiston va Afg‘oniston oliy ta‘lim vazirliklari orasida shartnoma imzolandi. Shartnoma asosida 181 kishi Afg‘onistonlik talaba o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha malaka oshirish uchun O‘zbekistonga keldilar. Bu talabalarning ko‘pchiligi o‘qishni tugatib Afg‘onistonga qaytdilar. Ammo afsuski, shu ilmiy munosabatlar buzilish sharofatida. Bunday ilmiy aloqalarning ahamiyatini hisobga olgan holda Afg‘oniston hududida o‘zbek tili va adabiyotini rivojlantirish uchun ilmiy munosabatlarni uzaytirish lozim.

O‘zbekiston madaniy markazlari Afg‘onistonda juda katta ahamiyatga ega, chunki bunqa markazlar ikki xalqning tarixini, ayniqsa, O‘zbekiston tarixini, madaniyatini, san‘atini va adabiyotini Afg‘oniston yoshlariga tushuntirish, ko‘rsatish, shu markazlar doirasida ilmiy hamkorliklarni amalga oshirish va bundan tashqari, mana shu markazlarda O‘zbekiston madaniyati bayramlarini o‘tkazish, O‘zbekiston adabiyoti kunlarini o‘tkazish, shoir va yozuvchlarni markazga jalb qilib Afg‘oniston yoshlariga bugungi O‘zbekistonning tarixi va madaniyati haqida suhbatlar uyushtirish va umuman olganda, O‘zbekiston xalqini dunyoga o‘ziga xos bir makon va ko‘prik bo‘lib qoladi (Akademik Shuhrat Sirojiddinov).

1978-yilgi inqilobdan keyin birinchi marta Afg‘oniston maktablarida o‘zbek tilida ta‘lim boshlandi. Ta‘lim vazirligi “O‘zbek yozuvi va tarjimai” kafedrasini tashkil etib, o‘zbek tilida darsliklar yozish uchun bir qancha o‘zbek professorlarini tayinlagan edi. To‘rtinchi sinfgacha barcha fanlar O‘zbekiston Xalq ta‘limi vazirligi maslahatchisi Orif Usmonov nazorati va maslahati bilan yozilib, chop etildi va o‘zbeklar yashaydigan tumanlardagi maktablarda o‘zbek tilida o‘qitish boshlandi.

Bu dastur yaxshi natija bermadi. Ta‘lim vazirligi o‘rta va o‘rta sinflar uchun o‘zbek tili va adabiyoti darsliklarini nashr etmadi. To‘rtinchi sinfgacha o‘zbek tilida ta‘lim olgan o‘quvchilar beshinchi sinfda

dari (fors) tilida o'qishga majbur bo'ldilar. Bu o'zbeklarda o'z ona tilini o'rganishga ishtiyoq yo'qligiga sabab bo'ldi. Dastur yaxshi boshlangan, ammo oxiri umidsizlikka uchragan. Afg'onistonlik o'zbek bolariga ona tilida ta'lim berish endi davom ettirilmadi.

Afg'onistonda Tolibon rejimi qulab, yangi hukumat tuzilgach, Afg'oniston ta'lim vazirligi o'zbeklar yasaydigan hududlardagi maktablarda o'zbek tilidagi ta'lim tizimini qayta tikladi. Ta'lim vazirligi tomonidan oltinchi sinfgacha o'zbek tilidagi kitoblar nashr etilgan.

Hozirgi vaqtda Shimoliy viloyatlardagi bir qator maktablarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitish davom etayotgan bo'lsa-da, bu maktablarda o'zbek tilini o'qitishda ko'plab kamchilik va qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Maktablarda o'zbek tili kitoblarining yetishmasligi, oliy sinflar (7-12-sinflar) uchun o'zbek tili darsliklarining chop etilmagani, maktab o'quv dasturiga o'zbek tili darslarining kiritilmagani va hokazolar maktab o'quvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolardir (Xayri, 2010: 56).

Afg'oniston o'zbek xalqining tarixida o'zbek adabiyoti va tili bo'yicha xizmat qilib mukofotlangan ziyolilarga juda oz uchraymiz. Ammo Afg'onistondagi o'zbek xalqi begonalarning har qanday zo'ravonlik va to'siqlaridan qat'i nazar, har doim o'z xalqi, o'z tili va o'z adabiyoti uchun fidokorlik qilib, jonlarini o'rta qo'yanlar. Ammo hech bir zamon ulardan munosib bir shaklda qadrdonlik bo'lmagan. Shu bois O'zbekiston bu borada juda samarali ishlarni amalga oshirishi mumkin.

Ko'ringanidek, Afg'oniston hududida o'zbek tili va adabiyotini rivojlantirish uchun bir necha tariqa va masalani sharh berib o'tdik. Garchi bu maqsad uchun tilsevar va adabdo'st ziyolilarimiz hamisha fikr va tushunchalarini bayon etganlar. Ammo afsuski siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablar bois hech bir zamon amalga oshmay qolgan. Shunga binoan, hozirgi sharoitda Afg'oniston hududida o'zbek tili va adabiyotini rivojlantirish uchun, yuqorida zikr etib o'tgan mavzulardan eng munosibi quyidagi afzalliklari uchun onlayn ta'lim deb bilamiz:

- 1- Ta'limda qulaylik;
- 2- Har doim mavjud bir o'qish turi bo'lganligi sabab;
- 3- Elektron ta'lim kurslarining moslashuvchanligi bilan optimal o'rganish;
- 4- E-learning yordamida samaradorlikni oshirish;
- 5- Elektron ta'limdan foydalanadigan kompaniyalar uchun ko'proq pul ishlash;
- 6- Yuzma-yuz ta'limga asoslangan xarajatlarni kamaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amini, K. Afg'onistonda Turkiy matbuotining qisqacha tarixi. Bayoniy nasharoti, 2016.
 2. Favzi, F. Afg'onistonda Turk kulturu va adabiyoti to'g'risida bir tekshirish. Batman universiteti xalqaro kanferensiyasi, 2013.
 3. Subot, J. 18-19 asrda Afg'onistonning siyosiy va madaniy vaziyati, Balx universiteti darsligi, 2009.
 4. Turkar, F. Turk Dunyosi qo'llanma kitobi. Madaniyat tadqiqoti enstitutining nasharoti, 1981.
 5. Xayri, O. Afg'onistonda Turkcha o'qishning tarixi. Xuroson nasharoti, 2010.
 6. Yorqin, M. H. Torix-i O'zbekon-i Afg'oniston. Xuroson nasharoti, 2013.
 7. Yovuz, S. Oh Afg'oniston. Turkiya sog'lik ishchilari sandikosi nashri, 2013.
- <https://www.bbc.com/persian/afghanistan-54613735>
<https://www.facebook.com/bbcnewsuzbekafghan/videos/1493687181488004/>
<https://tsuull.uz/uz/content/afgoniston-fuqarolarini-oqitish-talim-markazi>
<https://www.bbc.com/persian/afghanistan-54613735>
<https://8am.media/fa/about-the-uzbek-language-and-its-place-in-afghanistan/>

O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Feruza Sharopova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Kommunikativ muloqotning asosi bo‘lgan “tushunish” faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy jarayonlardan birinchisi – bu o‘rgatishning samarali usullarini belgilab beruvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni saralash hisoblanadi. Ma’lumki, o‘qitish jarayonida ko‘plab samarali, faol yondashuvlar mavjud. Ularning har biri ma’lum bir xususiyatiga ko‘ra o‘rganilayotgan obyektni tadqiq etishda o‘z hissasini qo‘shadi. Maqolada mavjud pedagogik yondashuvlar sirasiga kiruvchi yangi yondashuv va tamoyillardan bir nechitasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik yondashuvlar, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish, topshiriq turlari.

“O‘qish savodxonligi” tushunchasi matnni o‘qiy olish va uni qaysidir darajada anglash izohidan ancha murakkab jarayon bo‘lib, bu ko‘nikmani rivojlantirish uchun doimiy ishlash lozimligini bir necha o‘n yillardan buyon shu yo‘nalishda ish olib borayotgan tadqiqotchi, olim, davlat tashkilotlari va ular tomonidan o‘tkazilayotgan baholash dasturlari isbotlamoqda. O‘qib tushunish jarayonining zahirida nafaqat o‘qiy olish, balki to‘g‘ri talaffuz qilish, nutq so‘zlash, hozirjavoblik, kreativlik, o‘qib tushunilgan ma’lumotni qayta sharhlash, unga o‘z munosabatini bildirish olish, berilgan fikrga qo‘shilish yoki uni inkor qilish, chala qoldirilgan voqea-hodisalarni tassavvurini ishga solgan holda davom ettirish, sxema-diagramma ma’lumotlarini tushunish kabi bir qancha nutqiy va aqliy faoliyat turlari yotadi. Mazkur faoliyatni bajarish davomida o‘quvchi ham nutqiy, ham lingvistik kompetensiyalarni egallaydi, ya’ni, til hodisalarini o‘z nutqida qo‘llash orqali so‘zlar, jummalarni bog‘lovchi vosita, qo‘shimchalarning vazifasi va ma’nosini tushunadi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirib malaka darajasiga yetkazish uchun esa fan o‘qituvchisi eng samarali va qulay bo‘lgan o‘qitish usullaridan foydalanishi lozim. Ma’lumki, o‘qitish usullarining mazmuni, qo‘llash o‘rinlari va qo‘llashdan maqsad kabi masalalar til o‘qitishga oid yondashuv va tamoyillarda o‘z aksini topadi.

Shu paytga qadar o‘zbek (ona) tili metodikasi va nazariyasida o‘rganilgan, dars o‘tish jarayonida qo‘llaniladigan (ba’zilar qisman qo‘llanishi mumkin) mavjud yondashuv va tamoyillarni keltirib o‘tamiz. K. Mavlonova o‘z tadqiqot ishida tilga oid bir qancha yondashuvlarni keltiradi [Mavlonova, 2023: 73-94] : kommunikativ yondashuv, farqli yondashuv, funksional-semantik yondashuv, modulli ta’lim yondashuvi, pragmatik yondashuv, lingvistik jihatdan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi, kognitiv yondashuv, integrativ yondashuv, lingvometodik yondashuv, kommunikativ-faoliyatli yondashuv, ijodiy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, motivatsion yondashuv. Gazeta matnlarining tushunilishini psixolingvistik jihatdan o‘rgangan I.Azimova [Azimova, 2019:19] kvantitativ, kognitiv, psixologik va psixolingvistik yondashuvlarni; D.Yuldasheva [Yuldasheva, 2021] kognitiv-pragmatik yondashuvni o‘z o‘rganish obyektiga bog‘liqlik jihatlarini tushuntiradi.

Xorij metodikasida til o‘qitish bilan bog‘liq yana bir nechta yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga ko‘ra ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi: *konstruktivistik yondashuv, liberatsionistik yondashuv, sokratik yondashuv, integral yondashuv, muammoga asoslangan yondashuv, reflektiv yondashuv, hamkorlikdagi yondashuv, so‘rovga asoslangan yondashuv* [<https://www.linkedin.com>, innovative-pedagogical-approaches] va boshqalar.

Konstruktivistik yondashuv – bola rivojlanishini o‘rgangan shveytsariyalik psixolog Jan Piagetning pedagogik tadqiqotlariga asoslangan bo‘lib, unda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi tenglikka asoslaniladi, ya’ni o‘qituvchi dars davomida yakka hukmronlik qilmaydi. O‘quvchilar manbalardan ma’lumot to‘plash, topilmalar bilan bo‘lishish va muhokama qilish, guruh a’zolari bilan muloqot qilish orqali konstruktivistik yondashuvda shug‘ullanadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni tadqiqot jarayonida boshqaradigan, tanqidiy

fikrlashni rag'batlantiradigan, o'ylantiruvchi savollar beradigan, taxminlarni qiyinlashtiradigan va kerak bo'lganda qo'shimcha manbalar bilan ta'minlaydigan yordamchi sifatida ishlaydi. Matn yuzasidan beriladigan ba'zi topshiriqlarda muammoga yechim topish maqsadida o'quvchilar o'z taxmin variantlarini aytadilar va o'zaro muhokama qiladilar. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbuli to'g'ri javob sifatida qabul qilinadi. Bu usul o'quvchilarda fikrlash, muhokama qilish va to'g'ri variantni tanlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'z navbatida konstruktivizmning sakkizta asosiy tamoyillari mavjud:

- * Yangi olingan ma'lumot bilan hayotiy tajriba integratsiyasi.
- * Olingan bilim dunyoni tushunishning bir qismi ekani.
- * Olingan bilimni muloqot jarayonida qo'llanishi.
- * O'rganish jarayoni kontekstni talab qilishi.
- * O'rganish motivatsiyani talab qiladi.
- * O'quv materiali o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi.
- * O'rganish jarayoni o'quvchilarni izlanish va tanqidiy fikrlashga o'rgatishi.
- * O'qitish jarayonining kognitiv maqsadlar asosida loyihalaniishi.

Liberatsionistik yondashuv - Braziliyadagi ta'lim departamentining direktori bo'lgan mashhur braziliyalik o'qituvchi Paulo Freire ilgari surgan "Ozodlik muhim" shiori ostidagi yondashuv. U savodi past bo'lgan katta yoshli insonlarga atigi 45 kun ichida o'qishni o'rgatish orqali Braziliyada ijtimoiy inqilobni olib keldi. U qashshoqlik va ochlik kambag'al kattalar uchun o'rganishda katta to'siq ekaniga ishongan. O'quvchilarning o'qish savodxonligini aniqlovchi xalqaro dastur – PISA natijalarining tahlilida tushunishga salbiy ta'sir qiluvchi omillar orasida ijtimoiy-iqtisodiy ahvoning pastligi, oziq-ovqat ta'minoti (to'yib ovqatlanmaslik) kabilar ham mavjudligi keltirilgan. Bu yondashuvning maqsadi aholini ish bilan ta'minlash, bu orqali esa kambag'allikni yo'qotish deb belgilangan.

Sokratik yondashuv – ta'limdagi eng mashhur pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, yunon faylasufi Sokrat shogirdlarida tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun so'roq qilish usulidan foydalangan. Beriladigan savollar yopiq (implitsit) usulda, bir yoki bir nechta so'zli javoblarni talab qiladigan ko'rinishda bo'lgan. O'qib tushunishni aniqlashda bunday savol turlariga: *muqobil javobli test topshirig'i* (to'rtta variant ichidan bitta to'g'ri javobni tanlash lozim), *"To'g'ri-noto'g'ri" shaklidagi test topshirig'i* (hukmning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash talab qilinadi), *moslashtirish topshirig'i* (berilgan ikki ro'yxatdan bir-biriga qaysidir jihati bilan mos tushuvchi javoblarni topish talab qilinadi), *ketma-ketlikni topish* [Jalilov, 2020: 112] (berilgan javob variantlarini to'g'ri ketma-ketlikda qo'yib chiqish talab qilinadi) kabi test topshiriqlari kiradi.

Integral yondashuv – o'quvchining bilimini boshqa soha bilimlari bilan bog'lashga asoslangan bo'lib, unda fanlar ham bir-biriga bog'lanadi, masalan: pedagogika biologiya bilan kimyoni ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bog'lashi mumkin. O'quvchilar turli xil ma'lumot manbalarini tahlil qilish, bir nechta fanlardan dalillarni baholash va ushbu fanlarni birlashtirish orqali keng qamrovli bilimlarni yaratish uchun g'oyalarni sintez qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ushbu strategiya o'quvchilarni murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi haqiqiy qiyinchiliklarga tayyorlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini tan olishga va fanlararo fikrlash, tanqidiy tahlil va bilimlarni sintez qilishga yordam beradi. PISA dasturida turli uslubdagi matn turlari (badiiy, rasmiy, so'zlashuv, publitsistik, ilmiy) hamda xilma xil ko'rinishdagi (jadval, diagramma, rasm-tasvir va b.) ma'lumotlardan foydalaniladi. Bundan maqsad, o'quvchilarda har qanday ko'rinishdagi ma'lumotlarni o'qib (ko'rib) tushunish ko'nikmasini rivojlantirish deb belgilangan.

Muammoga asoslangan yondashuv – murakkab amaliy masalalarni o'rganish vositasi sifatida ishlatiladi. Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarni hal qilishni talab qiladigan muammo (vazifa) bilan tanishtiradi. Misol uchun, berilgan matndagi muammo, vaziyatni sabab-oqibat munosabati asosida tahlil qilish; muallifning matndan ko'zlagan maqsadini aniqlab, to'g'ri xulosa chiqarish kabi kognitiv topshiriqlar beriladi. O'quvchilar ma'lumotning kontekstini tushunish va potensial yechimlarini ishlab chiqish uchun faol shug'ullanishlari talab etiladi. Muammoga asoslangan ta'lim ham hamkorlikda, ham o'zini o'zi boshqaradi. O'quvchilar muammoni o'rganish va yechimlarning hayotiyligini baholash

usullarini birgalikda yaratadilar. Bu jarayonda ular o‘rganish uchun aqliy modellarni ishlab chiqishni o‘rganib, ilmiy jarayon bilan bevosita shug‘ullanadilar. Muammoga asoslangan ta‘lim, muammo noaniqlik yoki chalkashliklarni keltirib chiqarganda yaxshi ishlaydi. Masalan, matn sarlavhasiz berilganda, uning mazmuniga mos sarlavhani o‘quvchilarning o‘zlari o‘ylab topishlari; matn qismlari tartibsiz joylashtirilgan bo‘lib, ularni o‘quvchilar qayta tartiblashlari yoki bir matn orasiga kiritilgan, mazmuni qisman yaqin bo‘lgan boshqa matn qismini aniqlash kabi muammoli vazifalar berilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga mavjud tushunchalardan yangi bilimlarni shakllantirishga va qo‘shimcha ma‘lumot topishga yordam beradi. O‘qituvchi, shuningdek, o‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini tinglash va o‘z xulosalarini bildirishlari uchun imkon yaratishi kerak.

Reflektiv yondashuv – o‘quvchilarni o‘zlarining tajriba, xulosa va taxminlarini tanqidiy tekshirishga va ularni o‘rganilayotgan fan mazmuni bilan bog‘lashga undaydi. O‘quvchilar munozaralar bilan shug‘ullanish, tanqidiy fikrlash va hamdardlik tuyg‘ularini shakllantirishga o‘rganadilar. Ona tili va adabiyot darslarida berilgan badiiy asar yoki matndagi qahramonlar sifatini berilgan variantlar orasidan aniqlash yoki matnni muammoli vaziyatda to‘xtatib, “qahramonning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz” kabi savol va vazifalar berib, darsni qiziqarli va samarali olib borish mumkin.

Hamkorlikdagi yondashuv – hamkorlikda o‘rganish o‘quvchilarni o‘quv maqsadlariga erishish uchun guruhlarda birgalikda ishlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon jamoaviy ish, muloqot va shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantiradi, chunki o‘quvchilar muzokaralar olib borib, o‘z guruhlari ichida vazifalarni topshiradilar. O‘qituvchi samarali hamkorlikni ta‘minlash uchun ko‘rsatmalar va yordam beradi. O‘quvchilar muammolarni hal qilish uchun savollar berish, bir-birlarining g‘oyalariga qarshi chiqish yoki unga qo‘shilish orqali samarali muloqot, murosaga kelish kabi real vaziyatlarda faol bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

So‘rovga asoslangan yondashuv – o‘quvchilarni faol va muammolarni hal qiluvchi bo‘lishga undaydi. O‘z bilimlarini rivojlantirish uchun ular savollar berishlari, izlanishlar olib borishlari va ma‘lumotlarni tahlil qilishlari tavsiya etiladi. Masalan, kambag‘allik sabablari bo‘limida o‘quvchilarga intervyu o‘tkazish, ma‘lumotlarni tahlil qilish yoki kambag‘allikka olib keladigan omillarni tushunish uchun amaliy tadqiqotlar o‘tkazish topshirilishi mumkin. Ushbu usul tadqiqot qobiliyatlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini va kambag‘allikning murakkabligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O‘quvchilar manbalarni baholashni, ma‘lumotlarni tahlil qilishni va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar, bularning barchasi ijtimoiy fanlar va hayotning boshqa sohalarida muvaffaqiyat qozonish uchun zarurdir. PISA topshiriqlarida ham matn mazmunini baholash, voqealarni tahlil qilish, faktlar asosida xulosa chiqarish kabi talablar mavjud. Ma‘lum bir soha vakili sifatida o‘zini sinab ko‘rish maqsadida yopiq va ochiq ko‘rinishdagi savol (test) [Jalilov, 2020: 26] turlaridan foydalanish mumkin:

Yopiq shakldagi savol turlariga:

- muqobil javobli testlar;
- “to‘g‘ri-noto‘g‘ri” shaklidagi testlar;
- moslashtirish;
- ketma-ketlikni topish.

Ochiq shakldagi savol turlariga:

- qisqa javobni talab qiladigan test;
- kengaytirilgan javobni talab qiladigan test;
- amaliy test topshirig‘i (biror mahsulot yaratish yoki biror amalni bajarib ko‘rsatishi talab qilinadigan test shakli).


Javob yozishga mo‘ljallangan savollarni ham ochiq (eksplitsit) va yopiq (implitsit) shakllarda berish mumkin. Eksplitsit shaklda berilgan savolga javobni matnda ochiq holda ko‘rish mumkin bo‘ladi. Implitsit shakldagi savolga esa ko‘rib emas, balki o‘qilgan matnni mushohada qilib, xulosa ko‘rinishida javob berish talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik yondashuvlar ijtimoiy fanlar ta‘limida o‘qitish va o‘rganish tajribalarini shakllantiradigan yetakchi tamoyillar va strategiyalardir. Ushbu strategiyalar o‘qituvchilar


tomonidan o'quvchilarni jalb qilish, chuqur tushunishni va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llanadigan bir qator amaliyot va taktikalarni qamrab oladi. Konstruktivistik usul o'quvchilarning o'z tajriba va munosabatlari orqali bilimlarni faol ravishda yaratishga e'tiborni qaratadi; hamkorlikdagi usul talabalarning hamkorligi va ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradi; reflektiv usul o'z-o'zini anglashni o'rgatadi; integral yondashuv bir nechta o'rganish va qarashlarni birlashtirsa, so'rovga asoslangan usul talabalarni faol bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova K.M. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: Pedagogika fanlari doktori (DSc) diss... T.: 2023. – 278 b.
 2. Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. – T.: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, Monografiya, 2019. – 114 b.
 3. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
 4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2020. – 257 b.
- <https://www.linkedin.com/pulse/exploring-innovative-pedagogical-approaches-social-sciences-chauhan>



O‘ZBEK ADABIYOTI: TADQIQ, TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI



EGAMANLIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING YETAKCHI BELGILARI

Qozoqboy Yo'ldoshev

pedagogika fanlari doktori,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Annotatsiya

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan keyingi davr adabiyotida haq so'zni aytish, olam hodisalari, jamiyat muammolari va odam ruhiyati va taqdiriga doir haqiqatni tasvirlash ustuvorlik qildi. Shuningdek, bu yillarda jamiyat ahli kengash (sovet) tuzumi tomonidan man qilib kelingan adabiyot namunalarini "simirish"ga tashna bo'lgandi. 90-yillarning o'rtalariga kelib, adabiyot atrofidagi shov-shuvli ajiotaj bir qadar pasaydi. Tuyg'ulari tiniqlashgan, badiiy didi bir muncha yuksalgan o'zbek o'qirmanlari endi adabiyotdan siyosatgina emas, ko'proq badiiyat qidiradigan bo'ldi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, davr, millat, jarayon, madaniyat, qadriyat, fikr, badiiy tiplar.*

90-yillarning o'rtalaridan boshlab, o'zbek adabiyoti yangi voqelikning mohiyatini idrok etish, uni tushunish, tushuntirish va aks ettirishga yaraydigan badiiy usullarni izlash bosqichiga kirdi. Bu davr adabiyotida yangi g'oyalar, yangicha adabiy shakllar, kutilmagan ijodiy eksperimentlar qilina boshlandi. Ijtimoiy voqelik tubdan o'zgargan bu davrda "qaytarilgan milliy adabiyot"dan tashqari, chet el adabiyoti namunalarining ta'siri sezilarli kuchga aylangandi. Endi milliy adabiyot o'ziga yangi yo'llar izlash bosqichiga kirgandi. Bu jarayonda kengash davridagi adabiy an'analarni, hatto, u vaqtda yaratilgan ko'plab konkret asarlarni inkor etishga urinishlar yuz berdi.

Uzoq yillik kengash hukmronligi davrida senzura o'rganib qolgan o'zbek adabiyotida so'z erkinligi, istagan fikr yoki insoniy taqdirni istagan badiiy shaklda ifodalash imkoniyati yuzaga kelgani ijodkorlarni turli shakliy-mundarijaviy izlanishlarga undadi. Bu hol adabiyotning nafaqat tematik va problematik jihatlarni o'z ichiga oluvchi mazmun, balki uslub, ifoda va tasvir vositalari hamda yondashuv yo'sinlarini anglatuvchi shakl nuqtai nazaridan ham yangilanishini taqozo qildi. Unda o'zgargan davrning o'zgacha odamlari turli-tuman badiiy vositalar yordamida aks ettirila boshlandi. Shuning uchun egamanlik davri o'zbek adabiyoti ulkan bir tarixiy-madaniy, adabiy-estetik bosqichga xos qirralarni o'z fokusida aks ettirgan qabariq linza vazifasini bajardi.

Bu yillar adabiy jarayonida rang-baranglik kuchaydi. Adabiyotdagi bu turfalik adiblarning dunyoqarashi, estetik kredolari, tasvir usullari, obrazlar tizimi, uslubiy yo'nalishlarida yaqqol yuz ko'rsatdi. Shu tariqa, bu yillarda o'zbek adabiyotida ilk bor qirg'oqsiz adabiy-tasviriy plyuralizm yuzaga kelgandi. Milliy adabiyot va ijodkor: "Nega bunday yozyapsan?" tarzidagi zug'umdan qutulgani uchun bu davr o'zbek adabiyotida yangi tasvir yo'sinlari ham yaqqol bo'y ko'rsatdi.

Qizig'i shundaki, bu xil turfalik 80-yillarning ikkinchi yarmidagi kabi adabiy-uslubiy yo'nalishlar o'rtasida qarama-qarshiliklar kurashini keltirib chiqarmadi. O'zbek adabiyotining tasvir va ifoda tizimida o'ziga xos qorishqlik, sinkretizm, uslubiy chegarasizlik yuzaga keldi. Sof an'anaviy yo'sindagi ko'rkam asarlarning kutilmagan o'rinlarida modernistik lavhalar; modern ifoda yo'sinida yaratilgan bitiklarda esa, tamomila an'anaviy tasvir usullari uchrashi oddiy holga aylandi. Shu tariqa, uslubiy-ifodaviy yo'nalishlar o'rtasida odatdagi konfrontatsiya o'rniga, muayyan darajadagi konsolidatsiya yuzaga keldi. Bu davrda uslubiy yo'nalishlardagi o'ziga xoslikdan ko'ra, ijodiy individuallikda namoyon bo'ladigan o'ziga xoslikka ko'proq e'tibor qaratildi.

Egamanlikning ilk yillarida millatning sotsiomadaniy tafakkuri asosan badiiy adabiyotdan oziqlandi. Negaki, aynan adabiyot borliqning son-sanoqsiz voqea-hodisalari orasidagi munosabat va aloqalarning chigal tizimidagi eng muhim jihatlarni tezda ilg'ab olish qobiliyati bo'lmish diplastiyani shakllantirishdagi eng samarali vositadir. Bunday qobiliyatga ega bo'lmagan kishi esa, adoqsiz raqobatga asoslangan tezkor va murakkab zamonda odamga munosib ump kechira olmaydi.

Har qanday shaxs jamiyatning boshqa a‘zolari bilan ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) munosabatiga kirishmay turib, jamiyatda o‘z o‘rini topa olmaydi. Shaxsning shaxs bo‘lishi uchun jamiyat kerak, jamiyatda yashab qolish uchun esa, uning iqlimini hisobga ola bilish lozim. Buning uchun esa, kishi jamiyatga xos universal xususiyatlarni ilg‘ay olishi, ya‘nikim diplastik xususiyatga ega bo‘lishi zarur. Adabiyot alohida bir shaxsning xususiy holati tasviridan jamiyatning ko‘pchiligiga tegishli universal ma’nolar keltirib chiqarish xususiyatiga ega san‘at turi bo‘lgani uchun o‘qirmanlarga bo‘lakda butunning belgilarini ko‘ra bilishni o‘rgatadi.

Egamanlik yillarida o‘zbek jamiyatining tafakkur yo‘nalishi va madaniy-tarixiy mo‘ljallari oldingi davrlarga nisbatan butunlay o‘zgarib ketdi. Kommunistik g‘oyalarning inqirozi, yengilmas deb hisoblangan sotsialistik imperiyaning qulashi, turg‘unlik holatiga ko‘nikkan jamiyat qatlamlariga tinimsiz bezovtalik kirib kelishi, goh u, goh bu mintaqada turli sabablar bilan notinchliklar yuz berib turishi, sotsialistik devor qulatilgani uchun birdaniga dunyoga yaqinlashish voqealarning shoshqin girdibodida bo‘lishga odatlanmagan ommani dovdiratib, ongida sarosimalik paydo qildi. Natijada, 90-yillarning o‘rtalariga kelib, badiiy adabiyot bilan jamiyat, badiiy asarlar bilan o‘qirmanlar, ijodkor bilan tuzum o‘rtasidagi oldingi odatiy bog‘lanishlar chok-chokidan so‘tilib ketdi. Bu davrda kitob nusxalari keskin kamaydi, endigina paydo bo‘lgan xususiy matbuot vositalari badiiy adabiyot bilan astoydil raqobatga kirishib, uni san‘at bozoridan surib chiqarishga kirishdi. Shu vaqtga qadar mavjudlik uchun kurashishga o‘rganmagan ko‘rkam adabiyot shok holatiga tushib qoldi. Buning ustiga, odamlar ongiga ta’sir ko‘rsatish borasida elektron ommaviy axborot vositalari ham adabiyotga raqobatchi sifatida bosh ko‘tardi.

Inson hayotiga internetning yalpi bosqini, turli-tuman virtual gazeta-jurnal va elektron kutubxonalar paydo bo‘lishi ko‘rkam adabiyotni yashab qolish uchun kurashish zaruriyati oldiga qo‘ydi. U yo mavjud sharoitni hisobga olib ish ko‘rishi, yoxud ijtimoiy ongning bir turi sifatida yo‘qolib ketishi kerak edi.

Jamiyat a‘zolari yalpisiga axborot olishga ruju qo‘ydi. Axborot birvarakayiga ham bilim, ham sezim, ham badiiy zavq o‘rnini bosa boshladi. Necha yuzyilliklar mobaynida ustuvorlik qilib kelgan kitob madaniyati o‘z o‘rnini ekran va virtual madaniyatga bo‘shatib bera boshladi. Ilm-fan g‘oyat shiddat bilan o‘z mavqeini yo‘qotib bordi. Ta’limning vazifasi shaxsga bilim berishdan ko‘ra, uning tinimsiz o‘sib, semirib, ko‘payib borayotgan va har daqiqada yangilanib turadigan axborotlar dengizida cho‘kib ketmasligini ta’minlashga qaratiladigan bo‘ldi.

Bu yillarda jamiyat xuddi uzoq o‘tmishdagi “yozuvsiz va kitobsiz madaniyat” bosqichiga qaytganday bo‘lib, odamlar o‘rtasida, umuman, o‘qish, xususan, ko‘rkam adabiyotga qiziqish darajasi keskin tushib ketdi. Bu hol jamiyat a‘zolarining ongi turli-tuman axborotlar “qurog‘”i ta’sirida shakllanishiga olib keldi. Voqelik faqat “bugun”dan iborat holda gorizontal tasavvur qilingani uchun bunday tafakkur egalariga, bir tomondan, o‘tmishga e’tiborsizlik, ikkinchi tomondan esa, o‘ziga bevosita tegishli bo‘lmagani sabab tarixdagi barcha voqea-hodisalarga befarq munosabat xos bo‘lib qoldi. Bu holatlar adabiy hayotga, badiiy adabiyotning faoliyat ko‘rsatishiga, adabiy asarlarning shakl va mazmuniga ta’sir qilmasligi mumkin emas edi.

Egamanlik davri o‘zbek adabiyotining qiyofasi O. Yoqubovning “Adolat manzili”, “Osiy banda”; Sh. Xolmirzaevning “Dinozavr”; O‘. Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”; Omon Muxtorning “Tepalikdagi xaroba”, “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, “Navoiy va rassom Abulxayr”; Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”; Sh. Bo‘taevning “Qo‘rg‘onlagan oy”, “Sho‘rodan qolgan odamlar”; Z. A‘lamning “Afandining qirq bir pashshasi”; Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”, “O‘zi uylanmagan sovchi”, “Hali hayot bor”, “Soyasini yo‘qotgan odam”; Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi”, “Chapaklar va chalpaklar mamlakati”, N. Otaxonning “Bu kunlar”, “Ovul chetidagi kulba”; N. Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi, “Farishta”; A. Yo‘ldoshning “Puankare”, “Mubtalo”, Sunbulaning ilk shanbasi”; Salomat Vafoning “Ovoraning ko‘rgan-kechirganlari”; Zulfiya Qurolning “Tafakkur”, “Ajal farishtasi”; L. Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, “Quyosh hali botmagan”, Bir tomchi yosh”, “Imom Moturidiy”; I. Sultonning “Onaizorim”, “Alisher Navoiy”; U. Hamdamning “Yolg‘izlik”, “Muvozanat”, “To‘rtko‘cha”; I. Shomurodning “Mag‘lubiyat”, “Qamal”, T. Rustamovning “Dengizni ko‘rmagan odamlar” singari turli janrdagi nasriy

asarlari, A. Oripov, E. Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, F. Afro'z, Z. Mirza, O'ktamoy, H. Ahmad, Jontemir, N. Ermatov, M. Norchaeva singari shoirlarning betakror she'rlari belgilaydi.

Bu asarlarda o'zini topish va tushunishga urinib, tinimsiz ravishda o'z xatti-harakatlari, o'ylari, kechinmalarini taftish qiladigan, o'zining o'tkinchi dunyodagi muqim o'rnini tayin etishga urinayotgan kishilar hayoti va ruhiyati aks ettiriladi. Ayrim badiiy yaratilqlarda bugungi kun odamiga kuchu qudrat, aqlu zakovat o'rniga yashovchanlik, sharoitga moslasha bilish uquvi, kerakli vaqtda ko'zga tashlanmaslikni eplay olish ko'nikmasi ko'proq zarur bo'layotgani, bu hol odamlarni maydalashib, ro'zg'oriy muammolar doirasidagina fikrlaydigan kepataga solayotgani o'ta ta'sirli ifoda etildi. Jumladan, "Dinozavr" romanida aynan kuchu qudratga ega bo'lgani, global o'zgarishlar sharoitida jon saqlab qolish uchun kavaklarga bekinishni istamagan yoki buni eplay olmaydigan dinozavr kabi kuchli va yirik yaratilqlar yo'qlik dengiziga g'arq bo'lib, boru yo'qligi bilinmay yurgan qurt-qumursqa singari mayda jonliqlarning yashab qolishi ramziy yo'sinda ulkan mahorat bilan tasvirlab berilgan. Asarda qadriyatlar almashayotgan sharoitda yashashga mahkum bo'lgan turli qiyofadagi shaxslar qismati ro'y-rost tasvir etilgan.

Bu yillarda yaratilgan ayrim bitiklarda keskin publitsistik ruh hukmron bo'lganiga qaramay, adabiyot o'zining badiiylik xususiyatini saqlab qola bildi. Aytilganlardan kelib chiqib, egamanlik davri o'zbek adabiyotidagi yetakchi belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, egamanlik adabiyoti odamga ishchi kuchi, ishlab chiqaruvchi, mehnatkash sifatida yondashishdan qutuldi. Milliy adabiyot millat vakillarining *mehnatini* emas, balki ularning *shaxsiyatiga* daxldor jihatlar: ruhiyati, hissiyoti, ko'nglini tasvirlashga kirishdi. Bu adabiyot uchun odamning mehnati emas, balki *o'zi* asosiy qadriyatga aylana boshladi. Shu tariqa, milliy adabiyotning qahramonlari jug'rofiyasi kengaydi, miqyosi ko'lam kasb etdi. Odam biror ijtimoiy qatlamning vakili tarzida emas, murakkab va anglash mushkul bo'lgan oddiy bir *inson* sifatida badiiy tadqiq etiladigan bo'ldi.

Ikkinchidan, bu davr o'zbek adabiyoti oldingiday, sotsialistik tuzumning afzalligini ko'rsatish, ishlab chiqarish munosabatlari yoki siyosiy tizimni takomillashtirishga emas, shaxsning *ma'naviyatini* mukammallashtirishga yo'naltirildi. Bu hol badiiy qahramonlarni turli rakurslardan turib, eng ichkin va yashirin jihatlarigacha tadqiq etishni talab qilardi. Shu sababdan ham bu yillar adabiyoti o'ta nozik, ingichka, o'ziga xos shaxslarni tasvir qamroviga oldi. Bu hol adabiyotda *tipik* obrazlar emas, badiiy *tiplarni* tasvirlashga, ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga diqqat qaratish imkonini berdi.

Uchinchidan, bu yillar adabiyoti to'lig'icha mafkura tazyiqidan qutilgan erkin adabiyotga aylandi. Unda tayanilishi majburiy bo'lgan qarashlar tizimi belgilab qo'yilmaydigan bo'ldi.

To'rtinchidan, egamanlik adabiyotida inson, insonlararo munosabatlar g'oyat murakkab, chigal va izohlash mushkulekanini butun murakkabligi bilan aks ettirishga harakat qilinmoqda. Kengash zamonida har bir adabiy qahramonning hatti-harakati ijtimoiy jihatdan asoslanishi, turmush sharoiti iqtisodiyot qonunlariga muvofiq bo'lishi shart deb qaralardi. Natijada asarlar sxematik talablarga bo'ysundirilardi. Holbuki, bir odamning muayyan vaziyatdagi xatti-harakati sababini adiblar tugul uning o'zi ham to'la tushuntirib bera olmaydi. Ana shu holatning milliy badiiyatda moddiylashuvi insonga sirli xilqat tarzida yondashib, uning taqdiridagi chigalliklarni tasvirlash maylini keltirib chiqardi. Shu tariqa adabiyotdagi odam, hayotdagi odamga qaraganda chuqurroq, murakkabroq, o'ychilroq, ingichkaroq bo'lib qoldi.

Beshinchidan, bu davr adabiyoti dolzarblik, hozirjavoblik, zamonaviylik singari tashviqiy belgilardan voz kechilib, inson hayotidagi lahzalik holatlarni manguilikka muhrlab qo'yishga tutinilmoqda. Endilikda ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar bilan birga oddiy odam ruhiyatidagi juda oddiy bir holat tasviri ham badiiy adabiyotning tasvir ob'ektiga aylanishiga ko'nikila boshlandi. Shu yo'l bilan adabiyot faqat hayotdan nusxa ko'chirishdan qutulib bordi. Odamning o'zi chin ma'noda adabiyotning tasvir manbaiga aylandi. Bu esa adabiyotni muhim ijtimoiy hodisalar ortidan yugurib yurish zaruriyatidan xalos qildi. Mazkur holat ijodkorlarga ruhiyat qatlamlarini nozikroq idrok etish imkonini berib, milliy adabiyotda badiiy tasvirning chuqurlashuviga olib keldi.

Oltinchidan, bu davrga kelib, badiiy adabiyot ijtimoiy g'oyalarni ifodalash vositasi, inson qalbini shakllantirish va ma'naviy tarbiyaning asosiy omili bo'lishday yuksak maqomdagi funksiyasidan

ayrilayozdi. Negaki, bu davrda yashayotgan romantik kayfiyatdan juda yiroq amaliyotchi omma hayotga ko‘proq iste‘molchining pragmatik ko‘zi bilangina qaragani uchun, kim bo‘lmasin, birovga, ayniqsa, real hayotda yashamayotgan to‘qima adabiy personajlarga ergashmaydigan, ularning ta‘siriga berilmaydigan bo‘lib qolgan edi.

Bu davrda badiiy adabiyot namunalari juda kam bosildi, bosilganidan ham kamroq o‘qildi, o‘qilgan asarlarga ham o‘qirmanlar ma‘naviy-axloqiy namuna deb emas, balki asosan vaqt o‘tkazish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qarashga odatlandilar. Shu bois bu davrda adabiyot o‘zining ko‘p asrlik murabbiylik-muallimlik mavqeini boy berib, o‘qirmanlarga aql o‘rgatish, yo‘l ko‘rsatish funksiyasidan voz kechyapti.

Yettinchidan, XX asrning 80-90-yillarida jamiyatning fikrlovchi qismi badiiy asardagi personajlarga ijobiy yoki salbiy obraz tarzida qarash tajribasidan to‘la voz kechdi. Bu hol adabiyotga istalgan toifadagi odamni tasvir orbitasiga olish va uning ruhiyatidagi eng ichkin, oldinlari e‘tibor qaratilmaydigan yashirin qirralarni ham badiiy tadqiq etish imkonini berdi. Natijada o‘zbek adabiyotining obrazlar galereyasi milliy adabiyotda avvallari tasvirlanmagan turli-tuman personajlar hisobiga sezilarli darajada boyidi. Inson kayfiyati, sezimlari, kechinmalari va ruhiyat olamining oldinlari qo‘l urilmagan puchmoqlari tasvirga tortilgani, shubhasiz, adabiyotining ifoda qamrovini kengaytirdi.

Sakkizinchidan, estetik plyuralizm millatning fikr energiyasidan badiiy amal hodisasiga aylangani sababli ham yangi mingyillikda modern yo‘nalishda yaratilgan bir qator asarlar yuzaga keldi. Ularda tasvir ingichkaligi, olam hodisalariga qarash va ularni ko‘rishda universal bo‘lmagan shaxsiy tamoyillarning yetakchiligi, formal mantiq qoliplarini inkor etish, hayot haqiqatini ko‘rsatishdan ko‘ra muallifning o‘z badiiy haqiqatini aks ettirishga ustuvor ahamiyat berish singari jihatlar asosiy xususiyatlarga aylangani ko‘zga tashlanadi. N. Arslonning “Mavhumot”; A. Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, “Rang va mehvar”; X. Do‘stmuhammadning “Bozor”, “Donishmand Sizif”; T. Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” N. Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi”; I. Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” singari romanlari modern yo‘nalishga mansub asarlar o‘laroq diqqatga sazovor bo‘ldi. Ularda adabiy timsollar bilan sodir bo‘lgan voqealardan ko‘ra ularning qahramonlar ruhiyati va xayolot dunyosidagi g‘oyat chigal va tushunuksiz izlarini tasvirlashga ko‘proq e‘tibor qaratildi. Modern yo‘nalishdagi asarlarda yozuvchilar qahramonlar tafakkuri, ruhiyati va tuyg‘ulari holatini o‘zining tabiiy ko‘rinishida aks ettirishga urindilar. Garchi, o‘zbek o‘qirmanlarining katta qismi hali bu xil ifoda yo‘sinini qabul qilish tajribasiga ega bo‘lmasalarda, tasvirdagi bu yangiliklar ularning e‘tiborini jalb etdi.

Egamanlik adabiyotida modern yo‘nalishdagi qissachilik, ayniqsa, tezkorlik bilan taraqqiy etdi. Bu yo‘nalishda xilma-xil badiiy tajribalar o‘tkazildi va ularning ko‘pchiligi esda qolarli natija berganligi bilan e‘tiborni tortadi. N. Eshonqulning “Qora kitob”, “Tun panjaralari”, U. Hamdamning “Yolg‘izlik”, X. Do‘stmuhammadning “Kuza”, “Hijronim mingdir mening”, G. Ernazarovanning “Tiyramoh tushlari”, N. Jo‘raevning “Noyabr kuyi”, “Kibor”, A. Abdievning “Muallaq”, Oydin Nisoning “Hayot daraxti”, E. Boboevning “Musavvir” singari qissalarida turli tabiatli odamlarga xos g‘oyat nozik, chigal tuyg‘u va o‘ylar undan soddaroq bo‘lmagan, ammo g‘oyat jozibali usullarda tasvirlab berilgan.

Bu davrda badiiy adabiyotning mavzu doirasi kengayib, obrazlar tizimi boyigani tasvirning tabiiylashishi endilikda ko‘rkam bitiklarga nafaqat ezgu ishlar qiladigan ma‘naviyatli odamlarni, balki jamiyat hayotining eng tuban qatlamlarida hayot kechirayotgan kimsalarni ham qahramon sifatida kiritish imkonini berdi.

Qayd etilgan bu singari xususiyatlar egamanlik yillari o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining ayrim yetakchi belgilari bo‘lib, bunday jihatlarni yana ham topib, tamoyillar tizimini boytib borish mumkin. Umumlashtirib aytganda, egamanlik davri o‘zbek adabiyoti totalitar jamiyatning hukmron mafkurasi tomonidan zimmasiga yuklanadigan bir qator ortiqcha vazifalaridan xalos bo‘lib, o‘zining ichki qonuniyatlari asosida o‘sib-rivojlanayotgan badiiy-estetik fenomenga evrildi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek egamanlik adabiyoti ko‘p asrlik turkiy (o‘zbek) adabiyotining mantiqiy davomi va qonuniy merosxo‘ri sifatida dunyoga keldi. Bu davr adabiyotiga xos ayrim belgilar o‘tgan asrning

80-yillarida uch berib, 90-yillarda muayyanlashgan bo'lsa-da, milliy adabiyotning alohida bosqichi sifatida to'liq shakllanishi yangi yuzyillikning ilk choragiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbek egamanlik adabiyoti milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Bu adabiyot tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy taraqqiyot yo'sinlarini, muayyan shaxs ruhiyati manzaralarini sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz ham tasvirlash mumkinligining natijasi o'laroq yashamoqda.

Estetik plyuralizm millatning fikr energiyasidan badiiy amal hodisasiga aylangani sababli ham yangi mingyillikda modern falsafasi ta'sirida yaratilgan bir qator romanlar yuzaga keldi. Ularda tasvir ingichkaligi, olam hodisalariga qarash va ularni ko'rishda universal bo'lmagan shaxsiy tamoyillarning yetakchiligi, formal mantiq qoliplarini inkor etish, hayot haqiqatini ko'rsatishdan ko'ra muallifning o'z badiiy haqiqatini aks ettirishga ustuvor ahamiyat berish singari jihatlar asosiy xususiyatlarga aylangani ko'zga tashlanadi. N. Arslonning "Mavhumot", A. Dilmurodning "Fano dashtidagi qushi", "Rang va mehvar", X. Do'stmuhammadning "Bozor", T. Rustamovning "Kapalaklar o'yini", S. Vafoning "Ovoraning ko'rgan kechirganlari", N. Eshonqulning "Go'ro'g'li", I. Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" singari romanlari modern yo'nalishga mansub asarlar o'laroq diqqatga sazovor bo'ldi. Ularda adabiy timsollar bilan sodir bo'lgan voqealardan ko'ra ularning qahramonlar ruhiyati va xayolot dunyosidagi g'oyat chigal va tushuniksiz izlarini tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratildi. Modern yo'nalishdagi asarlarda yozuvchilar qahramonlar tafakkuri, ruhiyati va tuyg'ulari holatini o'zining tabiiy ko'rinishida aks ettirishga urindilar. Garchi, o'zbek o'qirmanlari hali bu xil ifoda yo'sinini qabul qilish tajribasiga ega bo'lmasalarda, tasvirdagi bu yangiliklar ularning e'tiborini jalb etdi.

Egamanlik adabiyotida modern yo'nalishdagi qissachilik, ayniqsa, tezkorlik bilan taraqqiy etdi. Bu yo'nalishda xilma-xil badiiy tajribalar o'tkazildi va ularning ko'pchiligi esda qolarli natija berganligi bilan e'tiborni tortadi. N. Eshonqulning "Qora kitob", "Tun panjaralari", U. Hamdamning "Yolg'izlik", X. Do'stmuhammadning "Kuza", "Hijronim mingdir mening", G. Ernazarovanning "Tiyramoh tushlari", N. Jo'raevning "Noyabr kuyi", "Kibor", A. Abdievning "Muallaq", Oydin Nisoning "Hayot daraxti", E. Boboevning "Musavvir" singari qissalarida turli tabiatli odamlarga xos g'oyat nozik, chigal tuyg'u va o'ylar undan soddaroq bo'lmagan, ammo g'oyat jozibali usullarda tasvirlab berilgan.

"NAVOYI" TAXALLUSI IMLOSI VA BADIY MA'NO MIQYOSLARI

Nusratullo JUMAXO'JA,

filologiya fanlari doktori,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Nizomiddin Alisher taxallusining, aslida, "Navoiy" emas – "Navoyi" yozilishi to'g'risidagi muammo endi ko'tarilayotgani yo'q. Bu – isbot talab qilmaydigan ayon haqiqatlardan biri. "Navoyi" yozilishi to'g'riligi – jamoatchilik orasida, matbuot sahifalarida va yana ayrim manbalarda tan olingan, oshkora e'tirof etilgan, amalda qo'llab kelingan haqiqat. Masalan, o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk jadid Abdurauf Fitrat o'z asarlarida taxallusni aslidagiday qo'llagan, asarlaridagi taxallus mustaqillik davridagi nashrlarda ham aslicha chop etildi. Tabiiyki, bu ulug' olim ongli ravishda shunday ish tutgan. Jadidchilik solnomasi bo'lmish butun boshli "Alanga" jurnali Navoyi taxallusini aslidagiday yozgan. Umuman, jadidlar davrida bu masalada keyinchalik og'ib ketish haqida ehtimol ham bo'lmagan.

Professor Hamid Sulaymon 1977 yili "Adabiy meros" ilmiy asarlar to'plamining to'qqizinchi sonida "Alisher Navoyi nomining yozilish shakllari va imlosi haqida"gi maqolasida masalaga manbashunos

sifatida yondashib, uni to‘g‘ri hal etgan edi. Hamid Sulaymon maqolasida ushbu g‘alati mashhur – mashhur xatoning kelib chiqish tarixi shunday yoritilgan: *“1937 yildan boshlab, 40 yildan buyon “Navoyi” taxallusi “navo” “نوا” so‘ziga qo‘shilgan ikki “yo” “ی” harfidan tashkil topgan yoyi nisbat “yi” “ی” ning hozirgi o‘zbek grafikasida noto‘g‘ri “iy” shaklida yozilishi qat‘iy qoida tusiga kirib qolgan... Alisher Navoyining 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik boshlangan 1930 yillarda o‘sha yillardagi imlo qoidalariga sun‘iy ravishda moslashtirish (“yi” va “iy” ni faqat bir formada – “iy” bilan) yoki ayrim qusurli qo‘lyozmalarda “hamza” orqali yozilgan nusxalarga tayanish tufayli bo‘lsa kerak, shoir taxallusini “Navoiy” shaklida yozish odat tusiga kirib bordi”*. (Hamid Sulaymon. Alisher Navoyi nomining yozilish shakllari va imlosi haqida. “Adabiy meros”. O‘zbek adabiyoti tarixidan material va tadqiqotlar, 1977 yil, 9-son, 43-bet). Demak, bundan yaqqol anglashiladiki, Navoyi taxallusini eski o‘zbek yozuvi va yangi o‘zbek lotin yozuvidan kiril (rus) yozuviga o‘tish jarayonida xato yozish ommalashgan. Hech qanday qonun-qoidasiz, ixtiyor-beixtiyor g‘alat taxallusni ommaviy ravishda ishlatish – g‘alati mashhurni keltirib chiqargan. Asli o‘zi g‘alat – xato bo‘lishiga qaramay, mashhur bo‘lib ketgan narsa xalq tilida **“g‘alati mashhur”** deyiladi. Bunday g‘alati mashhurlar ko‘p. Lekin Navoyiday buyuk mutafakkirning taxallusi oddiy g‘alati mashhur emas, u – tuzatishga loyiq va muhtoj. Hamid Sulaymonning chuqur tekshirishi natijasi, ishonchi, xulosasiga ko‘ra: *“Hozirgi yozuvimizda (taxallusning) “Navoyi” variantini qabul qilishimiz ham imlo, ham talaffuz, ham tarixiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi... Taxallus va nisbalar so‘z undosh harflar bilan tugallanganda “iy”, unli harflar bilan tugallanganda “yi” affikslari bilan yasalishi o‘zbek tili tarixiy grammatikasi va fonetikasi uchun qonuniy holat ekan, binobarin, shoir taxallusini biz ham eski yozuvda asliga muvofiq “ی” , hozirgi grafikamizda esa “Navoyi” yozish qoidasini qabul qilmog‘imiz kerak (o‘sha maqola, 44-45-betlar)”*. Afsuski, bu tadqiqot hayotiy aks-sadosiga, amaliy tatbiqiga erishmadi. Navoyi taxallusini asliga muvofiq to‘g‘ri yozish haqida na biror qoida, na biror farmon, farmoyish, qaror qabul qilindi. Oradan ko‘p yillar o‘tdi...

Atoqli navoyishunos, professor Abduqodir Hayitmetov “Meros va ixlos” kitobidagi “Tekstologik xato – bosh xato!” sarlavhali maqolasida taxalluslar imlosi masalasini ko‘tardi va mazkur muammoga ijobiy munosabat bildirdi: *“Navoiy” taxallusi ham aslida “Navoyi” deb yozilishi va o‘qilishi kerak. Chunki ulug‘ shoir taxallusi qo‘lyozmalarda shu xilda yozilgan. Masalan, Husayniy “G‘am yema, mahzun ko‘ngulkim, dilraboying kelgusi” deb boshlangan g‘azalida shoir nomini “ishratfizoying”, “humoying”, “rahnamoying”, “oying” kabi so‘zlarga qo‘fiya qiladi:*

Ey Husayniy, qilmag‘il ishrat navosinkim, bukun

Kim, gulistoni nishotimg‘a Navoying kelgusi.

“Navoiy” deb yozish shoir she‘rlarini vazn nuqtai nazaridan to‘g‘ri o‘qishni ham qiyinlashtiradi. Mazkur she‘rni ham shoir taxallusini “Navoiy” deb o‘qish mumkin emas. (A. Hayitmetov. Meros va ixlos. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent, 1985. 117-118-betlar).

Taxallusning imlosi to‘g‘risida “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 1990 yil 9 noyabr sonida bizning “To tuzdi navoyi oyati ishq...” sarlavhali maqolamiz bilan bahs-munozara ko‘tarilganida, akademik Alibek Rustamov “Navoyi” variantini qo‘llab-quvvatlagan holda, shunga qo‘shimcha bir shaklni tavsiya etgan. Uning fikriga ko‘ra, taxallus “asli “Navoiy”dir. Chunki “ی”dagi ikkita “yo” ikkita “y”ni, “zer” “i”ni bildiradi”. Ehtimol, bu fikrni arab tili grammatikasi nazariyasi jihatidan asoslash mumkindir. Lekin amalda birorta qo‘lyozma manbada taxallus qo‘shimchasining “sukun” va “zer” bilan yozilgan shaklini uchratmadik. Agar asli shunday bo‘lsa, biror manbada kotib bu muhim muammoga ishora qilishi kerak edi.

Matbuotdagi qizg‘in bahs-munozara, isbot va dalillar jamoatchilikda ishonch uyg‘otdi. Bir muddat “Xalq so‘zi” gazetasi va “Mushtum” jurnalida taxallusning to‘g‘ri imlosiga o‘tildi. Biroq taxallusni qanday yozish haqida biror qaror qabul qilinmaganligi va ma‘muriy buyruqbozlikka o‘rganilganligi sababli, jamiyat maxsus qarorga ehtiyoj sezdi shekilli, yana xato imloga qaytdi.

Biz 1998 yili “Sharq” nashriyotida chop etilgan “Istiqlol va ona tilimiz” nomli kitobimizning bir qismini ham shu muammoni yoritishga bag‘ishlaganmiz. Kitobning barcha boblarida Navoyi taxallusi aslidagidek chop etildi. Biz keyingi davrda chop etilgan barcha kitoblarimizni, shu jumladan, oliy o‘quv

yurtlari uchun tayyorlangan “O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi)” nomli darsligimizni (tendr asosida vazirlik tomonidan turli nashriyotlarda 4 marta nashr etildi), “Qaro ko'zum” g'azali tadqiqi” nomli monografiyamizni (“Muharrir” nashriyoti, T., 2021 yil), “Satrlar silsilasidagi sehr” monografiyamizning 3-nashrini (ANORBOOKS, T. 2023) va ilmiy to'plamlar hamda “Ma'rifat” gazetasidagi ko'p maqolalarimizni Navoiy taxallusining asl imlosida nashr etmoqdamiz. Nega nashriyotlar, muharrirlar va olimlar bizga to'sqinlik qilishmayapti? Chunki ular ilmiy jihatdan to'g'ri yo'lda turganimizni tushunishyapti. Biz “Kitob imlosidagi ayrim xususiyatlarga izohlar” berishga majbur bo'lyapmiz. Nega majburmiz, nega haqiqat uchun bitta o'zimiz kurashyapmiz? Navoiy taxallusini to'g'ri yozish faqat bizga kerakmi? Yo'q, jamoatchilik loqayd emas, u haqiqat qayta-qayta isbotlangan bo'lishiga qaramay, qat'iy va uzil-kesil qaror qabul qilinishiga ilhaq.

Taxallusning to'g'ri talqinini amalga oshirishga, yillar mobaynida shakllangan “Navoiy” deb yozish an'anasidan voz kechishga na navoyishunoslarda, na davlat va jamiyatda, na matbuot idoralarida jur'at yetmayapti. Aftidan, g'ayriilmiy an'ananing mustahkam o'rnashgani, xalq “Navoiy” atamasiga juda ko'nikib ketgani, buning ustiga, ayrim nomutaxassislarning o'sha g'alati mashhurni qo'llab-quvvatlayotgani aksiomani qayta-qayta isbotlashni talab qilayotganga o'xshaydi. Fizika-matematika fanlari doktori Abdulla A'zamovning “Jadid” gazetasi 2024 yil 9 fevral sonida e'lon qilingan “Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l” sarlavhali maqolasi salkam 25 yillik sukunatni buzdi va taxallusning xato imlosi to'g'riligini da'vo qildi. An'anaga sadoqat va uni buzish o'rinli-o'rinsizligi masalasida shuni aytish kerakki, ming yillik to'g'ri va muqaddas an'ana oldida Alisher Navoiy taxallusini “-iy”lashtirib yozish an'anasining umri qisqa. Aslida, qadimiy an'ana, qoida noto'g'ri buzilgan. Shuning uchun bugungi omonat an'anadan voz kechib, ota-bobolarimiz an'anasini tiklasak, xatoni tuzatgan bo'lamiz, xolos. Navoiyday ulug' zotning taxallusi haqida bahslashish shakkoklikday tuyulishi mumkin. Lekin, basharti, isbotlash, ishontirish zarurati bor ekan, bunga yana bir bor urinib, birgalashib fikrlashib ko'raylik.

A.A'zamov tab tortmasdan: *“Dabo shoir taxallusini “Navoiy” deguvchi adabiyotshunoslar yo'q emas. Bunga mutlaqo qo'shib bo'lmaydi”*, deydi. Xo'sh, *“Navoiy” deguvchi adabiyotshunoslar* kimlar? O'zimizni va boshqa maxsus munosabat bildirmagan adabiyotshunoslarni soqit qilganimizda, ular kamida akademik Alibek Rustamov, professorlar Abdurauf Fitrat, Hamid Sulaymon, Abduqodir Hayitmetov. Bir fizika-matematika fanlari doktorining butun umrini Alisher Navoiy ijodiyotini tadqiq etishga sarflagan titan adabiyotshunoslarga shak keltirishi olimlik odobiga, insof va adolatga to'g'ri keladimi? Boz ustiga, bu olimlar qo'lyozma manbalar asosida ilmiy tadqiqot olib borganlar, fizik-matematik esa zamonaviy nashrlar yuzasidan fikr yuritadi. Qo'lyozma manbalar tahlili orqaligina to'g'ri yechim topish mumkin bo'lgan navoyishunoslikning eng nozik masalalaridan biriga aralashishga, nainki aralashish, hukmfarmolik qilishga uning ma'naviy huquqi bormi? A.A'zamov, adabiyotshunoslikda ancha-muncha ish qilganiga qaramay, baribir, bu sohada nokasbiy (noprofessional), layoqatsiz (kompitentsiz) ekanligini oshkor etib qo'yadi. U: *“... atoyi, gadoyi, fidoyi, binoyi kabi shakl so'zga jo'nlik ma'no ottenogini berib, taxalluslarga xos bo'lishi lozim potetikani, shoirona injalikni yo'qqa chiqaradi. Navoiy emas, Navoiy deguvchilar aynan mana shuni e'tiborda tutayotgan bo'lsalar, buni ochiq bayon qilishlari lozim”*, deya adabiyotshunoslarni boshi berk ko'chaga tiqmoqchi bo'ladi. Adabiyotshunoslar *“buni ochiq bayon qilgan”* bo'lsalaru, A.A'zamov ko'rmagan bo'lsa, kim aybdor? O'zagi unli tovush bilan tugagan taxalluslar “-yi”, o'zagi unli bilan bitgan taxalluslar “-iy” qo'shimchasini olishi H.Sulaymonning biz eslatgan maqolasi va bizning zikr etilgan maqolamizda ochiq bayon etilgan. Katta adabiyotshunos olim Sayfiddin Rafiddinovning dissertasion tadqiqotida hamda “Haqiqat va majoz” monografiyasida ham Atoyi taxallusining to'g'ri yozilish shakli ilmiy asoslab berilgan. Bu – har xil shaxsiy mayllarga itoat etmaydigan tildagi umumiy qonuniyat.

Maqolada o'rinsiz e'tirozlar, kimga qaratilganligi noma'lum iddaolar keskin jaranglaydi. “Navosiz ulusning navobaxshi bo'l, Navoiy yomon bo'lsa, sen yaxshi bo'l”bayti haqida fikr yuritar ekan, muallif: *“Bu baytdagi navosiz va navobaxsh so'zlarini kuy bilan bog'lash g'irt bema'nilikdir”*, deya yozg'iradi. Xo'sh, kim, qaysi adabiyotshunos bu so'zlarni kuy bilan bog'labdi? Agar, mabodo, kimda-kim shunday talqin etgan bo'lsa, uni zarda qilmasdan, ochiq aytish ilmiy tanqid madaniyatidan bo'lardi.

Ilmiy asosga ega bo‘lmagan mana bu jumlagga e‘tibor bering: *“Navoyi, gadoyi, vidoyi so‘zlari lug‘atda (?) bor, ammo vafoyi, muammoyi, halvoyi, najmi, safoyi, badoyi, fanoyi, zeboyi, ziyoyi so‘zlari mavjud emas, bu so‘zlarga o‘zakdosh, “Majolis un-nafois”da zikr etilgan taxalluslar Vafoiy, Muammoiy, Halvoi, Najmiy va hokazo ekanligi shubhasiz*”. Birinchidan, dunyoda lug‘atlar ko‘p, ular turli tillarda, turli yozuvlarda, qaysi lug‘at nazarda tutilyapti? Ikkinchidan, A.A‘zamov qo‘lyozma manbalar yoki juda bo‘lmasa, navoyishunos olimi Suyima G‘aniyeva tomonidan tuzilib, nashr etilgan *“Majolis un-nafois”* ning ilmiy-tanqidiy matnini ko‘rganida, zinhor bunday da‘vo qilmas edi.

Navoyi taxallusining omonimik xususiyati, ya‘ni ikki ma‘noliligini A.A‘zamov ko‘p o‘rinda ihom san‘ati deya talqin etadi. Hatto, bir o‘rinda bor baraka qilib, *“uch qavat ihom”* deb ham yuboradi. She‘riyatda so‘zning har qanday ko‘pma‘noliligi ihom bo‘lavermaydi. Muallif tahlilga tortgan misollar ihom emas, tajnisdir. Shunda ham, agar *“Navoiy”* emas – *“Navoyi”* yozilsagina, tajnis bo‘la oladi. Ihomni tajnisdan nainki boshqa soha mutaxassisi, hatto, uncha-muncha adabiyotshunos ham ajrata olmaydi. Shu boisdan ko‘p adabiyotshunoslik kitoblari, yuzlab testlarda tajnis hodisasi ihom deya talqin etilgan. A.A‘zamov *“Qaro ko‘zum...”* g‘azali tahlilida ham ihomga to‘g‘ri ta‘rif bera olmagan: *“Ihom – she‘rdagi so‘z bir necha ma‘noga ega bo‘libgina qolmay, bu ma‘nolarning har biri ham umumiy mazmunga muvofiq kelishidan iborat san‘at, ya‘ni tajnisning nozik va nafis shakli”*. (Jahon adabiyoti, 2004 yil, fevral soni, 156-163-betlar). Bu – ihomni yetarli bilmaslik va qadrlamaslik. Ihom tajnisning turi yo shakli emas. Badiiyat ilmida har bir san‘atning o‘z o‘rni bor. Badiiyatda ihom tajnisdan baland turadi. U – juda noyob hodisa. Tajnis qo‘llashda ustasi farang bo‘lib ketgan har qanday shoir ham ihom qo‘llayolmasligi mumkin. Shoirning mahoratini ko‘rsataman deb, albatta, yo‘q yerdan ihom topib chiqarishimiz shart emas.

Ihomning juda nozik o‘ziga xosligini badiiyatshunos olim Yoqubjon Ishoqov quyidagicha tushuntiradi: *“Shoir ikki ma‘noli so‘zni she‘rda (nasrda ham bo‘lishi mumkin) shunday mahorat bilan ishlatadiki, natijada, o‘sha so‘zni har ikki ma‘nosida ham tushunish mumkin*. (San‘atning bu holati hali ihom emas – tajnis. Ihomning xos, sehrli xosiyati keyingi jumalalarda bayon etiladi – N.J.) *Biroq ma‘noning biri oshkora va ikkinchisi yashirin ifodalanadi. Shoirning maqsadi esa odatda ana shu ikkinchi yashirin ma‘noni izhor qilishdan iborat bo‘ladi”*. (Yo.Ishoqov. So‘z san‘ati so‘zligi. “O‘zbekiston”, T., 2014, 61-bet). Ihom san‘atiga Yo.Ishoqov keltirgan namunalar orasida eng yorqin misol Boburning quyidagi baytidadir:

*Labing bag‘rimni qon qildi, ko‘zumdin qon ravon qildi,
Nechun holim yamon qildi – men ondin bir so‘rorim bor.*

Baytdagi san‘atni Yo.Ishoqov quyidagicha izohlaydi: *“Baytning 2-misrasida ihom san‘ati mavjud. O‘quvchi dastlab misraning mazmunini “Nega holim yomon qildi, Men undan bir so‘ramoqchiman” tarzida tushunadi. Agarda gap ma‘shuqaning labi ustida borayotganligini e‘tiborga olsak, shoirning maqsadi boshqacha bo‘lganligi va misraning mazmuni ham chuqurroq ekanligi ma‘lum bo‘ladi: “So‘rorim bor” yuzaki qaraganda “So‘ramoqchiman” tarzida tushunilsa-da, shoirning maqsadi uning ikkinchi ma‘nosi bilan, ya‘ni “so‘rmoq” (bo‘sa ma‘nosida) bilan bog‘langan”*(o‘sha kitob, 59–60-betlar). Mana bu – haqiqiy ihom. Bunda ikkinchi ma‘noni yashirin, sirli ifodalashning sababi ham bor. Bu - ma‘noning oshkora ifodalashga mos bo‘lmagan uyatlilik xususiyatidir. Shu uyatlilikni shoir yashirish (xaspo‘shlash) maqsadida she‘r muxlisini birinchi – yuzaki ma‘noga chalg‘itadi. Faqat noziktab, zukko she‘rxongina uni ilg‘ab oladi. Ana shunday yashirin, nozik ma‘no ifodalangan tajnis ihom bo‘la olmaydi.

Nizomiddin Alisher taxallusining *“Navoiy”* shaklini inkor etib, *“Navoyi”* deb yozishimizga quyidagicha asoslar bor. Bu o‘zaro aloqador asoslar bir-biridan kelib chiqadi, bir-birini quvvatlaydi va taqozo qiladi.

1. Adabiy taxallus xalqning milliy, madaniy, lisoniy boyligi hisoblanadi va uning qismati huquqiy jihatdan o‘sha xalqning Davlat tili haqidagi qonuni ixtiyori hamda muhofazasidadir. Masalaga O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni talablariga muvofiq yondashsak, adabiy taxalluslar o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy an‘analarga muvofiqqlashtirib, aslidagidek yoziladi. Bu qonun, bevosita, Navoyi va boshqa mumtoz adiblarimiz taxalluslariga ham tegishli.

2. Eski o'zbek yozuvida taxallus “نوائى” tarzida yoziladi. “نوائى” tarzida “hamza” bilan yozilishi ayrim hollardagina uchraydi. “Hamza” belgisidan “Navoiy” yozilgani anglashilmaydi. “Navo” so'zi unli bilan tugallangani uchun, “Yo”-yi nisbat” oldidan yana bir “yo” orttirilgan va yozuvda ikkita “yo” yonma-yon “يى” tushib qolgan. Imlo qoidasiga muvofiq, shu ikki “yo”dan biri “hamza” orqali qisqartirib ifodalangan.

3. Tarixiy qo'lyozma va bosma manbalarda ham “Navoyi” shakli qo'llanib kelgan. (*Qarang: London, Britaniya muzeyi, qo'lyozma № 401, Navoyining birinchi rasmiy devoni – “Badoye ul-bidoya”ning 1482-83 yilda ko'chirilgan nusxasi; Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi, qo'lyozma № 3010, “Badoye ul-bidoya”ning 1484 yilda ko'chirilgan nusxasi; Toshkent, O'z R FA Adabiyot muzeyi, qo'lyozma № 84, “Badoye ul-bidoya”ning 1486 yilda ko'chirilgan nusxasi; Toshkent, O'z R FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma № 3984, XV asr oxirida Sultonali Mashhadiy ko'chirgan terma devon*). Asliyatga eng yaqin manbalar – shoirning o'z dastxati, deb tan olingan qo'lyozma devonida va uning “Ilk devon”ida ham taxallus “Navoyi” tarzida qo'llangan. (*Qarang: 1466 yili ko'chirilgan qo'lyozma, xattot Sultonali Mashhadiy, Sankt Peterburg, Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxona, 564-raqam*).

4. Shoir taxallusining “Navoiy” shakli o'zbek tilining talaffuz (orfoepiya) talablariga to'g'ri kelmaydi. O'zbek tili talaffuzi tabiatiga “Navoyi”dagi singari ikki unli yonma-yon kelishi (oi) xos emas.

5. Taxallusning “Navoyi” shakli – sun'iy va kitobiy. Shuning uchun ham, shoir taxallusini kitobdan o'zlashtirgan o'qimishli kishilar uni “Navoiy” tarzida bemalol talaffuz qiladilar. Kitobga suyanmagan oddiy xalq vakillarining esa bunday talaffuzga tillari qovushmaydi. Tabiiy ravishda ulug' shoirni “Navoyi” deb ataydilar va buning uchun biz ba'zan ularni savodsizlikda ayblashdek hollarga boramiz.

6. Turkiy tilda so'zlashuvchi qardosh xalqlar va boshqa ellar, jumladan, tojiklar, shoir tavallud topgan tuproqda istiqomat qiluvchi Afg'oniston o'zbeklari, afg'onlar ham Nizomiddin Alisherni “Navoyi” deb ulug'laydilar. Turk arqadoshlarimiz “Nevayi” deb yozadilar va aytadilar. Bobokalonimiz Navoyi taxallusini aytish va yozishda biz – uning vorislari – mustamlakachilik mafkurasi hukmronligi davrida nainki turkiylar, balki butun dunyoga qarshi mavqeda turdik.

7. Taxallusning “Navoyi” imlosini shoir asarlarining badiiyati qonunlari, jumladan, vazn taqozo etadi. Masalan, “Navoyi”ni “Navoiy” deb yozish tajribasi ba'zi hollarda asarlar vazni buzilib ketishiga sabab bo'lgan:

Dedim: “Erur Navoiy o'z dardig'a chorasiz”, dedi:

“Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay”.

Ushbu bayt “Badoye ul-vasat” devonidagi 616-g'azalning maqtasi bo'lib, g'azal “*Rajazi musammani matviyi maxbun*” vaznida bitilgan. Mazkur vaznning ohang tasviri quyidagicha bo'ladi:

Muftailun mafoilun muftailun mafoilun

. – V V – V – V – – V V – V – V –

Bunday ohang baytdagi taxallus “qisqa – uzun – uzun” emas, balki, “qisqa – uzun – qisqa” bo'g'inlardan iborat bo'lishini – Navoyi yozilishini taqozo etadi. Vazn talabiga rioya etsak, matnning nuqsonsiz ko'rinishi mana bu holatga keladi:

Dedi-m+ “Erur/ Navoyi o'z/ dardig'a cho/rasiz”, dedi

– V V –/ V – V –/ – V V –/ V – V –

“Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay”.

Bunda ohang to'siqdan forig' bo'lgan suvday o'ynoqlab oqadi, g'azalxon ham misraning biror nuqtasida qadalib qolmaydi. Taxallus o'zining tabiiy ohangi va imlosiga muyassar bo'ladi.

8. Qofiya qonuniyatlari ham taxallusning “Navoyi” shaklida yozilishini taqozo qiladi. Biroq, baxtga qarshi, “Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 g'azalning birortasi maqtasida Navoyi o'z taxallusini qofiya o'rnida ishlatganini uchratmadik. Ammo shoirning boshqa asarlari, jumladan, “Badoye ul-bidoya” devoni debochasida yorqin dalilga duch keldik:

Vafo bo'stonining doston saroyi,

Malomat bulbuli, ya'ni Navoyi.

Kamtarona aytilgan bu faxriyada “*saroyi*”ga “*Navoyi*” qofiya qilingan. Afsuski, birorta nashrda bu o‘rindagi taxallus ham qofiya qonuniyatiga muvofiq berilmagan. Hamma nashrlarda “Navoiy” deb yozilib, qofiya qoidasi buzilgan.

Navoyi g‘azallarida qofiya o‘rnida qo‘llangan boshqa taxalluslar borki, bu ham masalani ravshanlashtirishga xizmat qila oladi. Bunday misollarga murojaat etar ekanmiz, so‘zaro, tug‘ilishi muqarrar bo‘lgan mana bunday savolga ham javob yuzaga chiqishi tabiiy: “*Taxallusi o‘zagi unli tovush bilan tugallangan shoirlarimizni Navoyi, Gadoyi, Atoyi tarzida yozishni qonunlashtirishimiz mumkin, biroq o‘zagi undosh tovush bilan yakunlangan taxallusli adiblarimizni – Koshg‘ariy, Yugnakiy, Rabg‘uziy, Xorazmiy, Lutfiy, Gulxaniy, Uvaysiy, Ogahiy... qanday yozamiz?*” Haqli savol, chunki bu borada nomuvofiqlik, har xillik kelib chiqmasligi kerak. Negaki, asliyatda – mumtoz o‘zbek yozuvida unli bilan tugallangan taxalluslar ham, undosh bilan tugallangan taxalluslar ham bir xilda – “yo”(yo) harfi bilan yakunlangan. Demak, taxalluslar imlosidagi chalkashliklar ham arab alifbosidan voz kechib, avval lotin, keyinchalik kiril alifbosiga o‘tganimiz tarixiga borib taqaladi. Birgina taxalluslar imlosi muammosi ham ming yillik madaniy meros asliyatini tiklash va undan to‘g‘ri, to‘liq bahramand bo‘lish uchun eski o‘zbek yozuvimizni unutmasligimizni taqozo etadi.

Qofiya san‘ati va taxallus imlosiga oid misollarga o‘taylik. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining 650-g‘azali maqtasi:

*Demangiz bulbul Navoiyni, samandardekki bor,
Nazmi ichra shu‘layi Jomiyu so‘zi Xusraviy.*

Bu g‘azal nashrlarida taxallus an‘anaga ko‘ra “-iy” qo‘shimchasi bilan yozilgan va an‘anaga sadoqat yo‘lida qofiya badiiyati qurbon qilingan. Ya‘ni qofiya tizimi buzilgan. Matladagi “partavi”, “payravi” qofiyalaridan tashqari, barcha baytlardagi qofiyalar “Xusraviy”ga moslab “munzaviy”, “monaviy”, “qaviy”, “ma‘naviy” tarzida o‘zgartirilgan. Asli bularning hammasi, janrning keyingi baytlar matlaga muvofiq qofiyalanishi qoidasi hamda mumtoz o‘zbek yozuvidagi shakliga ko‘ra, “i” harfi bilan tugallanishi kerak edi.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti devonlarining nashrlarida qofiya san‘ati va taxallus imlosida turlicha – palapartish yo‘l tutilgan. “Navodir ush-shabob”ning 650-g‘azali Hamid Sulaymon nashrida maqtadan ikki bayt oldinda kelgan Navoyi taxallusi noto‘g‘ri yozilib, Abulg‘ozi, Sherozi taxalluslari qofiya talabiga muvofiq aslidagidek to‘g‘ri yozilgan:

*Navoiy istadi behush o‘ziniki abli xirad
Falakning o‘lmadi bu ishda mahrami rozi...
Bu vajh birlaki Sohobqiron debon laqabin
Atodi xisravi Sohobqiron Abulg‘ozi.
Yanaki nutq ilau ruh ila yeturdi anga
Fuyuz orifi Jomiyu rindi Sherozi.*

Agar bu o‘rinda ham taxalluslar “Abulg‘oziy”, “Sheroziy” tarzida yozilganida, bu “parizodi”, “e‘jozi”, “damsozi”, “parvozi”, “andozi”, “og‘ozi”, “rozi”, “sozi” kabi qofiya unsurlariga to‘g‘ri kelmas va g‘azal badiiyatiga putur yetar edi. Ammo, afsuski, undan 30-40 yil keyingi nashrlar, Navoyi mukammal asarlari va to‘la asarlar to‘plamida barcha taxalluslar noto‘g‘ri qo‘llanib, g‘azalning qofiya tizimi buzilgan. Davrlar osha taraqqiyot o‘rniga tanazzul.

Devonning 584-g‘azali maqtasida o‘zgacha hol:

*Navoiy nazm aro tiyg‘i zabonin uyla surdikim,
Pichog topmas uyatdin o‘zni o‘lturmakka Sakkokiy.*

Bunda qofiya badiiyati qonunlariga zid ish tutilgan. “Boki”, “choki”, “ko‘loki”, “xoshoki”, “fitroki”, “g‘amnoki”, “idroki”, “afloki”, “toki” qofiyalariga hamohang tarzda taxallus “Sakkoki” yozilishi lozim edi.

“Badoye ul-vasat” devonidagi 650-g‘azal maqtasi:

*Navoiy fardu behush o‘lg‘onin demang qachondindur,
Hamondinkim, ani mast etti vahdat jomidin Jomiy.*

Bu yerda ham taxallus an'anaga ko'ra yozilgani uchun g'azalning qofiya tartibi buzilgan. "Omi", "romi", "gulandomi", "shomi", "payg'omi", "oshomi", "ehromi", "gomi", "islomi" qofiya unsurlariga "Jomi" qofiya qilingan. Bu holda, qofiya badiiyatini saqlab qolib, taxallus "Jomi" tarzida yozilsa, asar ham kitobxon ham zarar ko'rmasdi. Qofiyadagi so'nggi tovush cho'ziq "i" unlisi.

9. Eng muhimi, adibning o'zi "Navoyi" so'zini qo'llar ekan, undan faqat taxallusni bildirish uchun foydalanmaydi, unga badiiy matn mazmuniga mos ma'no yuklaydi. Adabiy taxallus zamirida, albatta, ko'lamli badiiy muddaolar yotadiki, bu yetakchi asosni mufassal tahlil etish imkoniyati keng.

Navoyi nazmda taxallus vositasida aksari hollarda tajnis yaratadi. Baytlarda, ko'pincha, shoir "navo" so'zini bir necha marta qo'llash orqali so'z o'yini qiladi. So'z o'yini jarayonida "navo" so'zlari taxallus bilan bevosita mantiqiy, ma'naviy aloqaga kirishadi. Taxallus tarkibidagi "navo" so'ziga taxalluslik xizmatidan ko'ra mas'uliyatliroq badiiy vazifa yuklanadi. "Navoyi"ni "Navoiy" yozsak, so'z ana shu mas'ul vazifasini bajarolmay qoladi, badiiy so'zning ko'pma'noliligiga putur yetadi. "Navoyi" kalimasini faqat taxallus xizmatini o'tashga majbur etamiz, harakat doirasini cheklaymiz, asardagi boshqa so'zlar bilan mantiqiy, ma'naviy, shakliy aloqalarini uzib qo'yamiz. Birgina "G'aroyib us-sig'ar" devonida "Navoyi" taxallusining tajnisga, so'z o'yiniga asos bo'lgan ko'p ma'noli qo'llanishiga doir yigirmadan ortiq bayt uchraydi. Maqsadga muvofiq ravishda, ularning ba'zilarini sharhlab o'tish joiz ko'rinadi.

Ko'rmasam qoshing, bo'lurmen turg'onim birla fig'on,

"Voyi" erur bas, chu bo'lmasa "Navoyi" birla "nun". (G.S. 467)

Ushbu bayt shoirning o'zi taxallusini "Navoiy" emas – "Navoyi" deb yuritganidan guvohlik beruvchi eng muhim dalillardandir. Shoir maqtaning birinchi misrasida *"Mahbubaning qoshini ko'rmasam, turgan-bitganim fig'onga aylanadi"*, degan fikrni izhor etar ekan, ikkinchi misrada taxallusdan so'z va harf o'yini yaratish orqali shu holatni badiiy sharhlaydi, chiroyli asoslaydi. Ravshanki, "Navoyi" taxallusi "nun" harfi bilan boshlanadi. "Nun" harfi esa mumtoz badiiyatda mahbuba qoshining timsoliga aylangan. Mazkur baytda mahbuba qoshini ko'rmaslik – uning visoliga muyassar bo'lmaslikni ifodalab turibdi. Lirik qahramonning mahbuba qoshi vaslisiz holati "nun"idan ajralgan "Navoyi" bilan barobar. "Navoyi" "nun"idan judo bo'lganida esa, uning faqat "voyi" qoladi, ya'ni lirik qahramonning ahvoli "voy" bo'ladi. Endi taxallusni "Navoiy" shaklida yozib, baytni tahlil etib ko'ringchi, shoir ko'zlagan ma'no chiqarmikin? Aslo chiqmaydi! Demak, taxallusning "Navoiy" yozilishi xato. Bayt badiiyati, undagi shoirning o'z imzosi e'tirofi taxallusning "Navoyi" yozilishini talab qiladi.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,

Ishq abli aro navo bo'lubtur. (G.S. 161)

Bu o'rinda ham taxallusning "Navoiy" yozilishi vazn mezonini buzgan. G'azal "hazaji musaddasi axrabi maqbuzy maqsur" vaznida bitilgan:

Ma'fuvlu mafoilun mafoiyl

– – V V – V – V – ~

Ko'rinib turibdiki, taxallus ikkinchi ruknga, "-yi" qo'shimchasi esa qisqa bo'g'inga to'g'ri keladi. Demak, shaklan, taxallusning "Navoyi" yozilishi qonuniy. Endi masalaga mazmun jihatidan yondashaylik. Agar birinchi misradagi taxallusni «Navoiy» yozsak, uning ikkinchi misradagi "navo" so'zi bilan lafziy aloqadorligi saqlanadi, lekin ma'naviy-mantiqiy aloqadorligi barham topadi. Birinchi misrada "Navoyi" ikki vazifani bajarib turibdi, avvalo, shoirning taxallusini, ikkinchidan, "ishq oyatining ohangi" ma'nosini anglatayotir. "Navo"dan keyin nisbiy sifat yasovchi "-iy" qo'shimchasi yozilsa, shu ikkinchi ma'no chiqmay qoladi. Mazkur ma'no chiqishi uchun faqat forsiy izofa talab qilinadi. Izofa esa, "Navo" so'zi unli tovush bilan tugagani uchun, "-yi" tarzida qo'shiladi, taxallus "Navoyi" ko'rinishini oladi. Agar taxallus "Navoiy" yozilsa, baytdan tugal mazmun va uning tasavvuri anglashilishi uchun nimadir yetmaydi, nimadir o'z o'rnida emasday tuyuladi. Bu – taxallusdagi "ohang" ma'nosining boy berilgani, taxallus va ikkinchi misradagi "navo" so'zi orasidagi aloqaning uzilishi oqibati. Taxallusni "Navoyi" yozishimiz bilan, hamma narsa joy-joyiga tushadi va asl mazmun yuzaga chiqadi. Ushbu faxriya baytdan anglab olamizki, Navoyi o'zining ishqiy qismati, maslagi, muhabbat tarixi va lirikasi bilan ishq e'tiqodining shunday bir nodir oyatini yaratdi hamda bu oyatning sohir, ibratli, umumbashariy

ohangini kashf etdiki, u jamiki, bor insoniyatning e’tiqodiga, madhiyasiga aylandi. Navoyi tuzgan ishq oyati ohangi ishq ahlini harakatlantiruvchi, ruhlantiruvchi, hayot tarzini belgilovchi kuchga evriladi. Buni Navoyi nazmini mutolaa etgan har bir qalb aniq his qilishi mumkin.

*Navoyi suri motam bo‘ldikim, bor
Surudi ayshi afg‘on birla mamzuj. (G.S. 95)*

Bu baytda ham “-yi” qo‘shimchasi izofa vazifasini bajarib kelgan. “Navoyi” so‘zi taxalluslik vazifasi bilan birga, bayt mazmuniga muvofiq, navo, ohang, sado ma’nolarini ifodalaydi. Taxallusning “surud” so‘zi bilan parallel kelishi ular orasidagi mustahkam badiiy zanjir borligidan dalolat. Taxallus mana shularning bari hisobga olinib yozilsagina, baytdan bunday mazmun anglashiladi: *“To‘y va motam kuylari biryo‘la chalindikim (ya’ni, to‘y bilan aza bir bo‘ldi), bu xursandlik va qayg‘u qo‘shiqlari qorishib ketgan holatga o‘xshardi”*.

Taxallusga asos bo‘lgan “navo” so‘zining birlamchi ma’nolari “ohang”, “kuy”, “qo‘shiq”, “sado”lardan iboratki, uning badiiy imkoniyatlari ko‘proq cholg‘uvchi va soz bilan bog‘liq baytlarda aks etgan.

*Mug‘anniy nag‘masi jon bersa bazm ahlig‘a, tong yo‘qkim,
Navoyi rishtayi jonin eshib changiga tor etmish (G.S. 243)*

Lirik qahramonning jon rishtalaridan jonbaxsh navolar taraladi. U jon rishtasi navolaridan eshib sozanda chalayotgan changning torlariga ulagan. Demak, shuning uchun mug‘anniy yaratayotgan ohang bazm ahliga jon bag‘ishlasa, ajablanmaslik kerak.

Agar cholg‘uvchi sozi “Navoyi rishtayi joni” bilan yo‘g‘irilmasa, undan oziqlanib turmasachi? Unda, tirilishga teskari hodisa yuz beradi, bamisoli jon uziladi:

*Navosidin fano chun bosil o‘ldi, qilg‘asen, ey ishq,
Navoyi rishtayi jonin mug‘anniy udining tori. (G.S. 624)*

Halokat yuz bermasligi uchun, lirik qahramon qudratli ishqdan “mug‘anniy udining tori”ni “Navoyi rishtayi joni”dan bunyod etishni iltijo qilyapti. Asosiy maqsaddan chekinib bo‘lsa ham, qayd etish kerakki, bu faxriyalar Navoyi san‘at olamida naqadar malakali sozanda va zukko san‘atshunos bo‘lganligining dalili hamdir.

*Mug‘anniy, bir navoye tuz, navoyi nag‘maye ko‘rguz,
Ayoqchi, tomsa tut to‘qquzki, doroyi jahon keldi. (G.S. 591)*

Navoyi asarlari lug‘atlarida “nag‘ma” so‘zi – kuy, Navoyi zamonasida chalingan kuylardan birining nomi tarzida izohlangan. Bunda shoir sozandadan Nag‘ma navosini chalishni so‘rayotgan bo‘ladi. Ammo, nazarimizda, “nag‘ma” so‘zi, ayniqsa shu o‘rinda, hazilomuz, sho‘x, hajviy kuy ma’nolariga ham ega. “Nag‘ma” so‘ziga “o‘yin” va “tomosha” ma’nolari ham daxldor. Shoir bu baytda cholg‘uvchidan hazilomuz, sho‘x bir kuy chalishni so‘rayotir. Agar taxallus “Navoiy” yozilsa, taxallus va “nag‘ma” so‘zlari o‘rtasida izofa qo‘llanmasa, lirik qahramon cholg‘uvchidan bir kuy, Navoyidan yana bir kuy chalishni so‘raganday bo‘lib chiqadiki, bu badiiy mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Kamdan-kam hollarda bo‘lsa ham, badiiy mazmunga mutanosib, shartli ravishda, Navoyi taxallusi “Navoye” shaklida yoziladi. Bunda “navo” so‘zidan keyingi qo‘shimcha izofa vazifasini emas, “yo”-yi vahdat va “yo”-yi nakare – fors tilidagi birlik va noaniqlik “yo”-yi vazifasini bajaradi hamda “ye” yoziladi. Fors tilidagi bu “yo” birlik va noaniqlikni biryo‘la bildiradi va “qandaydir bir”, “shunday bir”, “biror bir” kabi ma’nolarni ifodalaydi. U qo‘llanganida, taxallusning eski o‘zbek yozuvidagi shaklida mutlaqo o‘zgarish bo‘lmaydi.

*Baski Navoye ayladi dard surudida navo,
Abli tarabni yig'latur majlisining taronasi. (G'.S. 626)*

Bu baytda "Navoye" so'zi taxalluslikdan tashqari, "shunday bir kuy" ma'nosini ifodalagan. Bu – baytdan quyidagicha yaxlit ma'no chiqishini ta'minlagan: *"Navoyi dardangez obangda shunday bir dardli, mungli kuy chaldi, ya'ni shunday bir g'amgin ruhdagi nazm yaratdiki, uning tegrasida butun dard abli to'plandi, ya'ni Navoyining dardkash nazmiga dard abli aks-sado bera boshladi. O'zaro dardlashayotganlar majlisining mungli navosi aysb-ishratda, shod-xursand kun kechirayotganlarni ham yig'latib yubordi"*.

"Yo'q Navoiy bedil oromi g'am ichra, ey rafiq" (barcha nashrlarda shunday), deb yozishdan tayinli bir mazmun chiqmaydi. Chunki bu satrdagi ikki "yo"-yi vahdat..." o'z o'rnida yozilmagan, bir qo'shma so'z ajratib yozilgan. "Yo"lardan birining o'rni taxallusda. Matn asliyati mana bunday yozilishi lozim:

*Yo'q Navoye bedil oromi g'am ichra, ey rafiq,
Holini, zinhorkim, ko'rsang, diloroming'a ayt. (G'.S. 84)*

"G'am ichra" qolgan lirik qahramon g'azal ixlosmandi bilan dardlashyapti. U aytyaptiki: *"Inson qayg'u-alam qurshovida qolganida, diloromsiz, ya'ni dilga yaqin, dilnashin do'stsiz biror-bir navo – hayotdan biror-bir bahra, umid, ilinj, rohat-farog'at, taskin-tasalli topolmaydi. Bedilrom kishi – benavo. Agar biror tasodif bilan diloromimni ko'rib qolsang, uni albatta, ushbu holimdan xabardor et"*. Demak, bunday dalillar ham Navoyi taxallusini asliga to'g'ri yozishimizni talab qiladi.

Yuqoridagi singari dalillarni ko'plab tahlil etish mumkin. Lekin isbot talab qilmaydigan fikrni asoslash uchun shu dalillar yetarli deb, so'zni muxtasar etdik. Tilimiz, adabiyotimiz va umuman, ma'naviyatimizda bunga o'xshash adolatli yechimini topib, so'nggi nuqtani qo'yadigan muammolar ko'p. Hozir shu so'nggi nuqtani qo'yadigan davlat tashkilotimiz bor. Ayni shunday vazifa, nazarimizda, Davlat tilini rivojlantirish departamenti tarkibidagi Atamashunoslik komissiyasi zimmasidadir. Atamashunoslik komissiyasi tadqiq etilgan muammoni xolis ekspertlar yordamida o'rganib, yakuniy qarorini chiqarib, matbuotda e'lon qilsa, masala qonuniy yechimini topgan bo'lardi.

"OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANI MAVZU VA USLUBIDA KINOYAVIY-SATIRIK RUH

Islomjon Yakubov,

filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr o'zbek milliy nasriga yangi to'lqin olib kirgan adiblardan biri – Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani mavzu va uslubida kinoyaviy-satirik ruhning ustuvorligi masalasi joriy adabiy jarayon kontekstida tadqiq etilgan. Dehqonqul obrazi sho'ro davri nasrida zavq-shavq bilan qalamga olingan "mehnat qahramonlari"ga parodiya tarzida yaratilgani misollar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: roman, adabiy qahramon, kinoyaviylik, satira, modus, mavzu, uslub, syujet, kompozitsiya, poetik mahorat

Tog'ay Murod (Mengnorov) o'zbek milliy adabiyotining o'ziga xos iste'dodli vakillaridan biridir. Uning *"Yulduzlar mangu yonadi"*, *"Ot kishnagan oqshom"*, *"Oydinda yurgan odamlar"*, *"Momo yer qo'shiq'i"* singari qissalari adabiyotimiz hazinasiga bebaho mulk bo'lib qo'shilgan. O'zbekiston halq yozuvchisi Said Ahmad Tog'ay Murod qissalarini *"Qo'shiqlar"* deb aytdi [Said Ahmad, 1994: 4]. U: *"Nazarimda, Tog'ay Murod qissa bitmaydi, nazarimda, bor ovoz bilan qo'shiq aytadi. Bu qo'shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor"* [Said Ahmad, 1994: 5] – deb yozadi.

Adabiyotshunos I. Mirzaev XX asrning 80-yillari adabiyotidagi Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sultonov singari o‘ziga xos adiblarini “*Saodatli nosirlar*”—deb ataydi [Mirzaev I., 2000: 86].

Tog‘ay Murod adabiyotimizga yangi to‘lqin olib kirgan qalamkashlardan biridir. Nosir qissalarida o‘zbekning g‘ururi, halqimizning jafokash, mehnatkash va sodda kishilari siymosini yaratish orqali o‘z zamondoshlarining tashvish va quvonchlaridan bahs etgan.

Tog‘ay Murod 1986-1992 yillar davomida o‘zining ilk romani “*Otamdan qolgan dalalar*” [Tog‘ay Murod, 2000]. asarini yozdi. Romanda qayd qilinishicha, muallif uni 1986-1991 yillar oralig‘ida yozib tugallagan. Asar 1994 yilda “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati tomonidan chop etilgan. Romanning umumiy hajmi 263 sahifadan iborat bo‘lib, o‘nta bob va 273 ta turli hajmdagi fasllardan tarkib topgan. Shuningdek, asarga “*men*” sarlavhasi ostida muallifning hayot va ijod yo‘li haqidagi o‘ziga xos ma‘lumotnomasi ham ilova qilingan [Tog‘ay Murod, 1994: 264-270]. Ushbu roman adabiyotshunos Q. Yo‘ldoshev ta‘biri bilan aytganda: “*Ijodkorning ko‘ngil ishi*” ga aylangan badiiy ijod “*o‘ziniyu Allohini tanishga uringan odamlar mashg‘uloti*” ga evrilgan bur paytda yaratilgan [Yo‘ldoshev Q. 2001].

“*Otamdan qolgan dalalar*”—ramziy roman. Unda muallif butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida yelkasi oftob ko‘rmagan, kosasi oqarmagan munis o‘zbek xalqi siymosini Dehqonqul obrazi timsolida badiiy tasvir etgan. Roman uchun yaqin o‘tmishning achchiq saboqlari mavzu-material bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq yillar mamlakatimizda hukm surib kelgan mustamlakachilik, zo‘ravonlikni fosh etgani bilan roman diqqatni o‘ziga tortadi.

Roman voqealari bosh qahramon Dehqonqul tilidan birinchi shaxsda “*men*” nomidan bayon qilingan.

Asarning birinchi bobini Turkistonning istilo qilinishi, o‘zbek xalqi milliy qadriyatlari va sharqona an‘analarni yevropacha ma‘naviy-ruhiy muhit bilan almashtirish, shuningdek, milliy vatanparvarlik tuyg‘usini barham toptirishga jon-jahdi bilan urinish voqealari tashkil qiladi. Bu bobda roman qahramoni Jamoliddin ketmon qanchalik mo‘min kishi bo‘lmasin, pichog‘ini qinidan sug‘irish yoxud ich-ichidan nafratlanish, zolimdan yiroqroq yurish bilan cheklanadi.

Tog‘ay Murod romanning keyingi bobida ona-zaminga bo‘lgan alohida mehr-muhabbatini Jamoliddin ketmonning to‘ng‘ich o‘g‘li Aqrab tarixi bilan bog‘lab hikoya etgan. Keingi o‘rinlarda esa Dehqonqul bosh qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tarzda adib uch avlod tarixi misolida katta ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirgan.

Romandagi holat va manzaralarning ta’sirchanligi xususida to‘xtalar ekan Isroil Mirzaev shunday yozadi: “*Asarda tasvirlangan ayrim keskin hayotiy voqealar fojealar oqimi o‘quvchini gangitib qo‘yishi ham mumkin, nogahoniy sanchilgan xanjardek juragingizda og‘riq paydo qiladi, asab torlaringizda zo‘ravonlik, adolatsizlik asosida qurilgan mustabid tuzumga nafratingiz oshadi, qalbingizda iztirob, anduh va dahshat tuyg‘ulari sirqiydi.*” [Mirzaev I., 2000: 89].

Tog‘ay Murod o‘lkada yangi davr, yangi sharoitda ildiz otayotgan ijtimoiy-siyosiy parokandalikni, ma‘naviy-ma‘rifiy inqirozni “*paxta fronti*”ni o‘tayotgan yoshlar hayoti misolida ko‘rsatgan.

Kun bo‘yi markazda pivaxo‘rlikdan, maishatdan bo‘shamaydigan, firqa biletiyu ko‘chma qizil bayroqni qo‘lga kiritish maqsadida “*o‘z ishiga ma’suliyat bilan yondashib*”, “*prinsipial va qattiqqo‘llik orqali xatolarini tuzatayotgan*” maktab direktori, yoki fizika, jug‘rofiya, adabiyot muallimlarining bolalar ahvoli bilan ishi yo‘q. Ular kiyim boshlari bir alfozda bo‘lgan, yuz ko‘zlarida horg‘inlik, qo‘rquv va hadiksirash zohir bolalarning qo‘llari kasov, yelkalari qing‘ir-qiyshiq bo‘lib o‘sayotgani, bolaligi –sho‘x shodon o‘ynoqi yoshligi o‘g‘irlanganligiga zarracha ahamiyat berishmaydi. Ch. Aytmatov aytganiday, “*manqurt*” lashgan, mehr-muruvvatdan, insoniy his-tuyg‘ulardan, o‘y-fikr va andishadan yiroq bu kimsalar faqat rejani bajarishnigina biladigan robotlardir. Ularda millatning farzandlarini to‘rt muchasi butun, sog‘-salomat o‘stirish tuyg‘usi ham, yoshlarni asrab avaylash fikri ham, jonajon diyor dovrug‘ini ko‘taruvchi allomalar va jahongirlarni tarbiyalash, yurtning ozod va erkin bo‘lishiga erishish orzusi ham yo‘q.

Mafkura qurboni bo'lgan maktab direktori o'z farzandlariga Roza Lukseberg, Klara setkina nomlariga ergashib, Roza, Klara kabi ismlarni qo'yganligi bilan ham cheksiz fahrlanadi. Bu bilan ham o'zining firqa ishiga sadoqatini, fidoyiligini isbotlamoqchiday bo'ladi.

Yangi o'qish yili hisobidan bir oygina o'qiganidan xursand bolalar ba'zan besh kungina o'qib paxta frontiga otlangan aka-opalariga astoydil achinishadi. Hali ularning, aksariyati xususan, Dehqonqulga o'xshagan beshinchi sinf o'quvchilari o'zlarini oldinda nimalar kutayotganini bilishmaydi. O'z farzandlari tengi yoshlarga *"o'rtoqlar"* deya murojaat qilgan direktorda birodari uchun o'rtanish, jon kuydirish yo'qligida ham kesatiq mujassam. Uning jasoratga chorlovchi xashamdor nutqida da'vatkorlik, chorlov ruxi ustivor. Qizig'i shundaki, bu da'vatni u partiya va hukumat vakili bo'lib tuman rahbarlari nomidan olib boradi. Bu bilan direktor o'zining mansabdor ekanligini ta'kidlamoqchi, *"kattalar"*ga yaqinroq ekanligini ko'rsatmoqchi, gapining siyosiy jihatdan ta'sirchanligini oshirmoqchi bo'ladi. Vaholanki, o'zi aslida tuman kattasini umrida bir marotaba loqal ko'rmaganini yashiradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar oldida viqor bilan yolg'on so'zlaydi. O'zining bu qilg'idan uyalish o'rniga tinglovchilar uni eshitishayotgani, ishonishayotganidan mag'rurlanadi.

Tog'ay Murod millat bolalari qalbidagi shijoatning so'ndirilishi, itoatkorlikning ildiz otirilishiga ulush qo'shayotgan maktab direktori va uning shotirlrini qattiq xajv ostiga oladi. Kitobxonda ularga nisbatan nafrat tuyg'ularini sahifama-sahifa kuchaytira boradi.

Rejani bajarish tashvishida bo'lgan direktor kallai saharlab bolalarni uyg'otish uchun *"Padyom,-deb - na'ra tortadi"*. *"Stroysya"* va *"Smirno"* qabilidagi frontdagi kabi buyruqlarni beradi. Kolxozchilarga oltmish kilo norma belgilangani holda hasharchilar uchun sakson kilo qilib kunlik reja belgilaydi.

U bolalarni itoat qildirish uchun qo'rqitishnig yangi-yangi yo'llarini o'ylab topadi. Bular: bolalarni holdan toyguncha ishlatish, haqorat qilish, kamsitish, jamoat izzasi berish, mensimaslik, yig'lab-siqtashiga qaramasdan kaltaklash, nafsoniyatiga teguvchi haqoratlar ostida qoldirish, og'ir yumushlarga jo'natish, go'shtsiz ovqat bilan *"siylash"* singari ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Paxta ortish, paxta tushirish, dori sepishdan tortib dalalarga butefos sepayotgan somolyotga bayroqchi bo'lish singari yumushlarni maktab o'quvchilari bajarishadi. Mazkur ishlarning qiyinligini bilishsa-da, bir kun bo'lsa-da paxta terishdan, direktor va muallimlarning zug'umlaridan qutulish uchun bolalar rozi bo'lishadi.

Paxtakorlar qani?—degan haqli savol tug'iladi. Tog'ay Murod bu savolga: *"yordamchilarga o'ligini tashlab olishadi"*, —deya izoh berganday bo'ladi. Chindan ham kitobxon direktor oldiga sarg'ayib kelayotgan brigadir, bayroq tuzatayotgan usta kabi qahramonlarni ko'rganida *"begona"*ning bolasi taqdiriga bunchalik befarq va loqayd qarayotgan kishilarning o'z yumushlarini norasidalar gardaniga yuklab bemalol yurishganidan taajublanmasligi mumkin emas. Uvadasi chiqqan va dorilar bilan bulg'angan choponni ular ham egniga ilganligi, keyin esa bu yumushni qanchadan-qancha bolalarga *"badya"* qilishganligi tayin.

Egoizm va loqaydlik tufayli hali o'n gulidan bir guli ochilmagan, shirin orzular qanotida ulg'ayayotgan Ziyod Cho'liboev dori sepilgan dalada qolib ketib nobud bo'ladi.

Ziyod Cho'liboev kekxa va mushtipar ayolning yolg'iz arzandasi ekanligini bila turib, ongli ravishda uni jahannam qa'riga yo'llashdi. Dehqonqul Jamoliddinov esa ko'zi tinib, boshi aylanadigan, tez-tez o'qchiydigan, dog'langan yog' hididan ham ko'ngli behuzur bo'ladigan darajaga yetadi, sog'lig'idan ajraladi. Direktor bemorni davolatish haqida o'ylamaydi. U bitta tekintamoqning bekorga qornini to'yg'azmaslik uchun o'choqqa o't qalatish, o'tin yig'ish singari yumushlarga jalb qiladi.

Ziyod direktordan qattiq nafratlanadi, biroq u o'z nafratini oshkor ayta olmaydi. Bor ovozi bilan kuylashni, osmonlarda uchishni orzu qiladi. O'z sinfdoshlarini samolyotda sayr qildirishni, uchuvchi bo'lishni orzu qilgan Ziyod: *"Direktor qo'l ko'tarsa-da samolyotimga mindirmayma"*—deydi Dehqonqulga. Taassufki, bu shirin orzular uning tushida bo'lgan. Shirin bir tush misoli yiroqlashgan mavhumlik qa'ridan elas-elas ko'rinuvchi sarobga o'xshab ko'rinadi. Ehtimol, bu Ziyodning erkinliklarni qo'msayotgan ruhining baqo sari safari oldidagi go'zal talpinishlaridir.

Bu yoshlar o'zlari xohlashganicha o'lan-laparlardan kuylasha olmaydi ham. Ularga *"partiya-sovet qo'shiqlaridan aytinglar"*—degan ko'rsatma beriladi. Shaxsan raykomning o'zi samolyot dori

sepadigan dalalarni borib ko‘zdan kechiradi va direktorga tanbeh bergan bo‘ladi. Biroq, tajjublanarlisi shundaki, oradan hech qancha vaqt o‘tmasdan aynan shu maktab direktori firqa safiga qabul qilinadi. U ko‘chma qizil bayroq g‘olibi bo‘ladi. Kitobxonga Mavlonovning *“men ham mana shu bolalarday bir hasharchiman”*-deyishida *“to‘g‘ri kelsa ariqdan suv ichib ketaverish”*ga tayyor turganidek qilib ko‘rsatishga urinishida qanchalik soxtalik ikkiyuzlamachilik borligi ayon bo‘ladi. Hasharchilarga oddiygina sanitariya sharoitlarini yaratib bera olmagan, hammomda yuvinib olishlarigaki homiylik qilish qo‘lidan kelmaydigan rahbarlarning xalqdan naqadar ajralib qolishgani o‘z ifodasini topgan romanni befarq mutoala qilib bo‘lmaydi.

Muallimlar eshak minib kelgan Ziyodning mushtipar onasini shtabga boshlab borishga, g‘amiga sherik bo‘lishga ham yaramaydilar. Chunki dalada qanchalab Ziyodlar g‘imir-g‘imir qilishmoqdaki, ularni nazoratsiz qoldirgani uchun direktorning dashnomini eshitishdan o‘zlarini tiyishadi. O‘zlarining tinchini o‘ylashadi, chetda yurishni *“xushyorlik”* belgisi deb hisoblashadi. G‘amli kunlarida insonga yelkadosh bo‘lish, g‘amlariga sherik bo‘lish, ko‘ngliga dalda, qalbiga taskin berish tuyg‘usidan bebahra bu kimsalarga halq o‘z farzandlari taqdirini ishonib topshirib qo‘yganidan ajablanasan.

Ziyodning sifdoshlari *“duvv-duvv yig‘lashadi”*. Ziyodning onasi *“izz-izz, yummm-yummm yig‘laydi, ovoz berib, ovoz berib yig‘laydi”*. Biroq direktor bo‘lib o‘tgan voqealarda o‘zini zarracha aybdor deb hisoblamaydi. *“Front qurbonsiz bo‘lmaydi...Bolani o‘zi paxta ichida qolibdi-da. Kim biladi, biror nimaga yo‘liqqanmi.Sizlar eskichani yaxshi bilasizlar-ku”*—deya yupatgan bo‘ldi. Musulmon farzandi, g‘amli kunda bir mo‘minga qanday tasalli berishi kerakligi, o‘zini qanday tutishi lozimligini direktor bilmaydi. Bilsa ham bunga amal qilmaydi. Tezroq kampirdan qutilish, uni qishloqqa jo‘natish payida bo‘ladi.

Sirtidan qaraganda oppoq-momiqday pokiza, yumshoqqina ko‘ringan paxtaning qora mehnati mashaqqatlari ko‘rsatilishi barobarida insonlarning o‘zligini yo‘qotishga ham paxta manokulturasiga sabab ekanligi, siyosatdagi bir yoqlamalikning qo‘pol oqibatlari haqida yozuvchi ana shunday dadil fikrlarni ko‘tarib chiqadi.

“Paxtaga yo‘liqqan”, *“paxtazorga yo‘liqqan”* avlod bolalari o‘zbekning ertasiga istiqboliga daxldor avlodning birortasi ham qo‘shiq aytmaydi. Chunki, ularning qalbida jo‘shqinlik o‘rnini g‘amginlik, quvonch o‘rnini qo‘rquv, kuch-quvvat o‘rnini horg‘inlik, majolsizlanish egallagan. Qurol yarog‘i yo‘q *“front”*ning non-choy va suyuq-quruq ovqatiga qanoat qilib, boshlari paxta ichida ko‘rinib-ko‘rinmay g‘imirlashadi. To‘p tepib o‘ynashlari, qiyqirib kulishlari, osmonga sapchishlari lozim bo‘lgan maktab sport maydonchasi, ichburug‘dan og‘rib ichidan qon o‘tayotgan bolalarning badrabxonasiga aylanadi.

Og‘iroyoqligiga ham qaramasdan, paxta dalasiga haydalib, tongdan-shomgacha paxta terib, chaqalog‘ini chala tuqqan Dehqonqulning onasi musobaqa g‘olibi bo‘lganligi, erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishga tirishgani-yu, sharqda mash‘al bo‘lishga talpinganini la‘natlaganini eslasak, jamiyatdan nafratlanishga, paxtadan hazar qilishga, muallimlarni yomon ko‘rishga bu yoshlarning haqqi bor edi.

Ziyodning onasi nega paxtazorga boqib-boqib *“voy bolam”*lab yig‘laydi? U nimalarni aytib yig‘ladi? Nega paxtazorga aytdi? Kimdan zarda qildi? Qalbida qanday tug‘yonli nafrat kezmoqda-ki, uni oshkor qilishga mushtipar onaizor ojiz? Bunday savollarga zukko kitobxon javoblarni o‘z qalbidan topadi. Inson dardini tinglashga ojiz jamiyatga, insonlik xuquqlari paymol etilgan yurtdoshlariga achinish hissi barobarida loqaydlikka, o‘zbo‘larchilikka, yolg‘on asosiga qurilgan saltanatning sirti yaltiroqligi yu ichidan chirib borayotganligiga imon keltiradi, nafrat o‘qi ydi.

Tog‘ay Murod odamlarni yakrang holda ko‘rmaydi. Roman voqealari boshdan oyoq o‘ta hazin ohangda bayon qilingan.

Yozuvchi qahramonlarini jonli inson sifatida tasvirlaydi. Ularning har biri o‘z tabiati va xarakterlar mantig‘iga ko‘ra xarakat qiladilar. U hayot xodisalarini ko‘rsatishda ham qahramonlar tabiatidan kelib chiqishga intiladi.

Dehqonqul uchinchi bobdan keyin romanning yetakchi qahramoniga aylanadi. *“Dexqonqul”*-ota-onasi unga shunday nomni tanlangani uchungina ko‘tarib yurgani yo‘q, albatta. Romanni o‘qigan har bir kitobxon uning chin ma‘nosi ila haqiqiy dexqon ekaniga zarracha shubha qilmaydi. Kuzgi yer haydashdan tortib har bir nihol, tuproq bilan tillasha olish, tabiatning notanti qiliqlariga ko‘ksini

qalqon qilib turish, har bir tup g'ozasini norasida go'dakday ardoqlash, silab-siypash Dehqonqulga rohat bag'ishlaydi. Saratonning issig'ida ham, kuzning salqinida ham, qishning qirovli kunlarida ham dalasidan beri kelmaydi. Yerdə qimirlayotgan har bir qurt-qumursqayu hashoratgacha uning sinchkov nazaridan chetda qolmaydi.

Qozoni o'n kunlab go'sht ko'rmagan, xotiniga ikki enlik yangi kuylak olib bera olmagan, boshqorong'i paytida loaqal olma bilan siylashga qurbi ham, vaqti ham bo'lmagan Dehqonboy dalasidan bo'shamaydi. Dunyo tashvishlari bilan yashaydi, tinim bilmasdan mehnat qiladi. Shunga qaramasdan u ishlayotgan kolxoz ham, brigada ham, davlatdan qarzigicha qolaveradi. Dehqonning ko'rgan kuni qursin,-deb yuboradi beixtiyor kitobxon. O'z dardi, qayg'u va armonlarini ichiga yutib yashayotgan tanti o'zbek dehqonini qadrlagisi, e'zlagisi keladi. Professor U.Normatov adabiyotshunos D.Quronov bilan suhbatida bugungi o'zbek romanchiligidagi yangicha tamoyillar, o'zgarishlar haqida so'z yuritar ekan, Dehqonqul obrazi xususida shunday deydi: *"Dadil aytish mumkinki, Dehqonqul obrazi - o'zbek adabiyotida jiddiy badiiy kashfiyot. Dehqonqul sovet davri adabiyotida zavq-shavq bilan qalamga olingan mehnat qahramonlariga parodiya tarzida yaratilgan. U - totolitar tuzum, qizil imperiya siyosati tarbiyalab yetishtirgan "mehnat kishisi", "yangi inson" timsoli"* [Quronov D., 2006: 112]. Bu adabiy parodiyada "mehnat kishisi", "yangi inson" timsoli g'oyaviy-estetik yo'sini keskin tanqid qilingan. Mavzu va uslub jihatidan satirik ruh ustivorlik qiladi.

Og'ir mehnatning tagida bag'ri qon bo'lgan Oysuluvga o'xshagan yetti yuz ellik uchta ayol ikki yil ichida o'ziga o't qo'yanida ularning faqat tanalari kuydimikin? Ushalmagan orzulari, aytilmagan nafratlari ham ularga qo'shilib kul bo'ladimi? Orqada qolgan xeshlarining yurak bag'ri o'rtanib, farzandlarining sho'ri qurimadimi? Bunday savollarga romandagi Dehqonqul oilasi misolida tegishli javob olish mumkin.

O'z amaliyu mansab kursisidan ajrab qolmaslik uchun ham o'z joniga qasd qilish orqali davrdan noroziligini bildirgan, sohta hayotga, shodlik nafasi sezilmayotgan turmushga qarshi olovda poklanish erkini ro'yobga chiqarib, isyonini nomoyon qilgan kishilarni *"esi past"*ga chiqarishdan ham toymaydigan mafkurachi Klara Xodjaeva tom ma'nosi-la marhum sobiq maktab direktorining qizi ekanligini, siyosatning qurboni bo'lgan yangi avlod vakili ekanligini namoyon etadi.

Rais boboning, iqtisodchi Xoliqovning, agronom Temirovning oilasida ahvol birmuncha tuzuk. Oddiy mehnatkashdan ajralib qolgan, ularning g'am-tashvishlaridan yiroq bunday kimsalar ham yangi davrning yaltoqchilari-Normurodga o'xshagan faollari bo'lib ko'rinadi. Ba'zan ularning ichki turmushiga ham mo'ralab ko'rsangiz, bu bechoralar ham ro'shnolik ko'rmayotganining guvohi bo'lasiz. *"Bola-baqruga boshqa qozon, kattalarga boshqa qozon qaynataman. Bilmayman, kattalar osmondan tushganmi!"*-deya Dehqonqulga noliydi raisning ayoli. [Tog'ay Murod. 1994:137].

O'zining o'zbekona udumlarini ulug'lash an'anasiga sodiq. Qo'yday yuvvosh beozor Dehqonboy kattalarning so'zini ikki qila olmaydi. Bolalarining qishki kiyimi bo'lmasa-da, ust-boshi yirtiq yamoq bo'lsa-da topgan tutganini mehmon oldiga qo'yadi. Vaholanki, sirti yaltiroq mehmonlar dehqonning haqiqiy axvolini bilishsa-da bo'yab-bejab ko'rsatishga intilishadi. Mahalliy shoirlar ham bu bobda ulardan qolishmaydilar, albatta.

Asardagi *"Barakalla"* degan kishini olqishlovchi o'zbek kalomini *"barra kalla"* shaklida qo'llayotgan *"bilag'on"* mehmonlar haqida o'ylar ekansiz, bir paytlar Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida: *"Til kelmagan narsaga qalam qanday kelsin"* [Cho'lpon, 1991: 225] degan bashorati quloqlaringiz ostida jaranglaganday bo'ladi. Yerli xalqqa bo'lgan munosabatdagi o'xshashlikning mutlaqo tasodifiy emasligini anglaysiz.

Doktor ayol Nina Sergeevnani inobatga olmaganda yigirma besh mingdan biri bo'lgan, nohaq qamoqqa olingan Dehqonqulga dili achiydigan bironta kimsani uchratmaysiz. U ko'z-ko'rib quloq eshitmagan haqorat va qilmagan aybiga iqrar bo'lishga majbur bo'ladi, sakkiz yilga qamalib ketadi. Xalqning kuchi yig'i-sig'idan nariga o'tmaydi.

Dehqonqul so'nggi damda ham qadrdon dalalari diydoriga to'yib boqib, xayr-xo'shlashar ekan, bobolarining achchiq ko'zyoshlari, otalarining peshona terlari, yag'ir yelkalari, ayollarining xazon

umriga guvoh bo‘lgan shu dalalariga achchiq-achchiq ko‘z yoshlarni to‘kadi.

Dehqonqul albatta sog‘-omon qaytishga, ozod yurtida halol mehnatining samaralarini ko‘rishga, dehqon mehnati yengillashgan kunlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga, qalbidagi mehrni shu zaminga bag‘ishlashga bo‘lgan aniq ishonch bilan ketadi. Tog‘ay Murod nurli kunlarga bo‘lgan optimistik ishonch ruhi bilan romanga so‘nggi nuqtalarni qo‘yadi.

Ko‘rinadiki, *“Otamdan qolgan dalalar”* romani jahon adabiyotining yetuk vakillari yaratayotgan aynan shu tipdagi asarlarga anchagina yaqin turadi. Asar voqealari sokingina hikoya qilinmaydi. Unda hayot voqea-hodisalari, holat va xarakterlar tasvirida anchagina keskin o‘tishlarni, syujet va ohang shiddatini kuzatish mumkin.

Tog‘ay Murod o‘z tasvir uslubiga mos tarzda romanga muvofiq shakl tanlagan, obrazlar talqinida haqqoniylikni ta‘minlay olgan.

Umuman, roman jozibali badiiy ifodalarga nihoyatda boy. Asarning tili xaqchil va ravondir. Romanda fikr mavhumligi uchramaydi, tasvirda qisqalik va aniqlik ta‘minlangan. Yozuvchi nafaqat jamiyatda, balki odamlar tabiatida, atrof-muhitda sodir bo‘layotgan nuqsonlarning tub ildizlari va mohiyati xaqqoniy ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari // Sharq yulduzi, 2001, № 1
2. Mirzaev I. Badiiy uslub sehri. Samarqand, 2000
3. Said Ahmad. Tog‘ay Murodning qo‘shiqlari // Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. T.: “Sharq” NMK Bosh tahririyati, 1994
4. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. T.: “Sharq” NMK Bosh tahririyati. 1994, 5 b
5. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. T.: Adabiyot va san‘at. 1991
6. Quronov D. “Adabiyot nadir” yoki Cho‘lponning mangu savoli. T.: Zarqalam. 2006
7. slomjon Yakubov Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
8. Yakubov I. Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024.Vol 29. Pp. 123-125
9. Yakubova S. Description of poetic images related to landscape in Jadid poetry. Uzbekistan: Language and Culture., № 3. 2022. Pp. 42-54.
10. Yokubova S.I. The Issue of way in Cholpon’s poetry // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. USA, Philadelphia. Issue 02. Volume 118.2023.Pp. 490-492.

ADABIY TANQID ADIBLAR NAZDIDA

Usmon Qosimov,

filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning barcha adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlarida milliylikka va so‘z san‘ati va badiiy mahorat masalalariga alohida ye‘tibor qaratilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Adabiy tanqid, badiiy-yestetik tafakkur, so‘z san‘ati, haqqoniy tahlil.*

Barcha asrlarda badiiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid- “ilmi naqd”ning muhim o‘rni va ahamiyati e‘tirof etiladi. Alisher Navoiy an‘analarini davom ettirgan Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorlarning munaqqidlik faoliyati, ularning tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi teran fikrlari va unutilmas xotiralari ham ana shunday ezgu maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Qodiriy g‘araz, nafsoniyat

va shaxsiyat dardlaridan toza bo'lgan tanqidga yuksak ta'rif beradi: "Hayotning yangidan-yangi muvaffaqiyatlariga boshlovchi, ma'rifat degan muammoning kaliti, madaniyat dunyosi beshigi ana shu tanqididir". [1:12] Qodiriy va Qahhorning barcha adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlarida milliylikka va so'z san'ati va badiiy mahorat masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning adabiy jarayon va tanqidning dolzarb muammolariga bag'ishlangan asarlari teranligi, tahlil va xulosalari hayotiyli va haqqoniyli bilan ajralib turadi. Ular yetuk ilmiy-adabiy saviyasi va munaqqidlik iste'dodi, badiiy-estetik tafakkuri yuksakligini ko'rsatishi bilan adiblar imizni haqli ravishda tanqid va adabiyotshunosligimizning ham asoschilaridan edi, deb atashga asos beradi.

Darhaqiqat, Qodiriy va Qahhorning deyarli barcha adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlari o'zining haqqoniy tahlil va talqinlari hamda fikrlarning muhimligi va dalillanganligi bilan adabiy jarayonga katta ta'sir o'tkazgani o'z davrida ham, bugungi kunda ham tan olinadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulla Qodiriyning 1926 yili Cho'lponning "Tong sirlari" to'plamiga yozgan ixcham ochqichso'zi ham, 1927 yildagi ilk o'zbek filmi - "Ravot qashqirlari" haqida hozir javoblik bilan bitilgan taqrizi yoki yosh munaqqid Sotti Husaynning turkum maqolalariga javoban yozilgan "O'tkan kunlar" ham "O'tkan kunlar" tanqidi ustida ba'zi izohlar"i yoxud mashhur adib Chexov mahoratini "kashf" eta olgan "Mayda hikoyalar yozganda so'zni qanday tejash kerak" kabi tahliliy maqolalari, shubhasiz, tanqid va adabiyotshunoslikning yuksak namunalari. (Sh.Ahmedova) Ularda san'at asarini o'rganishda qanday talab-mezonlarga asosan fikr yuritish, tanqidiy mulohaza va xulosalarni bevosita asar tahlili bilan va ilmiy, mantiqiy jihatdan dalillash zarurligi ta'kidlanadi. Bu xususiyatlar- bugungi kunda ham tanqid va adabiyotshunoslikda ustuvor tamoyillar bo'lib sanaladi.

Ammo adabiyot va san'at asarlariga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish va mafkura hukmronligi oqibatida iste'dodli adiblarning asarlari ham ko'p hollarda nohaq tanqidga uchragan va asossiz qoralangan. O'sha davr adabiy tanqidi professional saviyasi pastligi va asosiy funksiyasini bajara olmaganini Abdulla Qodiriy achinish bilan qayd etadi: "Tanqid so'ziga berilgan ma'no, bizningcha, durust emas. Tanqidning lug'aviy ma'nosi saralash, oroyishini olmoq degan so'zdir. Nainki yer bilan yakson etmak! Bu kungacha biz tanqid qilmoq bilan asarlikdan chiqqan va yer bilan yakson bo'lgan bir narsani ham ko'rmadik, balki mukammallashkanliginigina ko'rdik". Abdulla Qodiriy "o'zbek yozuvchilarining amiri"-deya ta'riflagan Qahhor ham adabiyot va ijodni muqaddas deb qadrlash bilan birga tanqidni ijodning ajralmas sohasi deb, unga sadoqat bilan xizmat qilgan. Abdulla Qahhorning tanqidchilik faoliyati o'zining mazmundor ko'lam, rang-barang shakli bilan ham ibratlidir. Adabiyotimizning Qahhor e'tiboridan chetda qolgan biror jiddiy muammo, voqea-hodisasi yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Yozuvchining vazifasi- yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo'lish bilan birga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo'lish ham uning vazifasiga kiradi". Bu-adabiyotning fidoiy jonkuyari bo'lgan adib va munaqqid faoliyatining tayanch-asosi edi deyish mumkin. Aslida, Qahhorning tasavvufona ruhda aytilgan, ammo hanuzgacha kitobxonlarga ma'lum bo'lmagan "Men adabiyotimizning ostonasiga bog'lab qo'yilgan itiman" degan so'zlarida ham zarracha mubolag'a yo'q. Shu bilan birga Abdulla Qahhor ijodining muhim qirrasini bo'lgan adabiy-tanqidiy faoliyati hanuzgacha o'zining haqqony bahosini olgan emas. Adibning adabiy-tanqidiy merosini o'rganish-ulkan ijodkor siymosi va uning badiiy-estetik olamini to'la tasavvur etishga yordam beribgina qolmay, balki XX asr o'zbek adabiyoti, tanqidchilik va adabiy-estetik tafakkur tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo'li va omillarini ham kengroq o'rganishga imkon beradi. Qahhorning taqriz-maqolalari va adib shaxsi hamda ijodi bilan bog'liq xotiralar bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etishi yakdillik bilan e'tirof etilishi bejiz emas. Ustozning Said Ahmad, Ma'ruf Hakim, Chustiyning ilk asarlari haqidagi taqriz va maqolalari taniqli adabiyotshunoslar ta'kidlagan idek, adabiy tanqidning yetuk namunalari bo'lishi bilan yosh adiblarga ijod sirlarini anglatib, adabiyotimiz ravnaqi yo'lida ta'sirchan omil bo'lib kelmoqda. Ular "yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati bo'lgan inson ruhiyatini chuqur yoritish, badiiy til va tasvir, janr xususiyatlari" kabi jahon adabiyotshunosligining asosiy adabiy-nazariy muammolarigacha qamrab olganligi bilan ham o'zining dolzarbligini yo'qotmay keladi. [2:476] Binobarin, Abdulla Qahhor

adabiy-tanqidiy asarlarida adabiyotimizdagi ijobiy tamoyillar bilan birga uning rivojiga to‘siq bo‘lgan jiddiy muammolar ham nozik tahlillar orqali ko‘rsatib berilgani tanqid-adabiyotshunosligimizda o‘zining munosib bahosini olganicha yo‘q. Shu munosabat bilan adibning tanqidchilikdagi yutuq va izlanishlarni adabiyotimiz manfaatlaridan kelib chiqib baholagani ham ibratomuz bo‘lganini ko‘rsatuvchi xarakterli misollardan bir-ikkitasiga to‘xtalaylik.

Ibratli bir holat: adabiy tanqidchiligidizning karvonboshilari sanalgan .Matyoqub Qo‘shjonov va Ozod Sharafiddinov maqolalarini ham Qahhor ko‘rib, tahrir qilib berganligi tanqidchiligidiz tarixining unutilmas sahifalari sanaladi. Bu jihatdan professor Sharif Yusupov xotiralari ham qimmatlidir. Darvoqe, sermahsul olim, akademik M.Qo‘shjonovning hozirgi o‘zbek prozasiga bag‘ishlangan 16 betlik maqolasi ham Qahhorning jiddiy tahriridan so‘ng 3,5 sahifa bo‘lgan va bu maqola tanqidchi-muallifga katta shuhrat keltirgan ekan. Abdulla Qahhor, eng avvalo, talantli ijodkorlar, talabchan munaqqidlar bilan bir safda turib, adabiyot va tanqidchiligidizni jahon badiiy-estetik tafakkuri mezonlari asosida rivojlantirishga bosh qo‘shadi. Ayni vaqtda, iste‘dodli tanqidchi va adabiyotshunoslar e‘tiborini adabiy jarayon va so‘z san‘atining dolzarb muammolarini hal etishga yo‘naltirishda ham mutasaddi bo‘ldi. Bu jihatdan adabiyot va tanqidchiligidiz tarixining ayrim muhim voqea-hodisalaridan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarish ham o‘rinli bo‘ladi. A.Qahhor yetuk munaqqid sifatidagi ibratli faoliyati, ulkan iste‘dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy-estetik tafakkur olamini boyitish va rivojlantirishda qanchalik muhim rol o‘ynashi, adabiy jarayon va tanqidchilik saviyasiga ijodiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini namoyon eta oldi. Qahhor nazdida, adabiy tanqid asarga xalq manfaatlar, xalq talablari nuqtai nazarilan baho beradi, buning uchun asarni mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham chuqur tahlil qilib, fazilat va nuqsonlarini ochib beradi. Tanqid adabiyotni olg‘a suradigan kuch bo‘lishi bilan yoshlar uchun maktab vazifasini o‘tashi zarur.

Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy faoliyatida iste‘dodli yoshlar tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Abdulla Qahhor talantni xalq mulki deb bilar va yosh iste‘dodlar ijodini qadrlash, ularga oqilona rahnamolik va g‘amxo‘rlik qilish bobida Navoiy va Gorkiydan so‘ng Qahhor darajasida faoliyat ko‘rsatgan ustoz adib yo‘q, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Iste‘dodli yoshlar tarbiyasiga Qahhorchalik mehnati ko‘p singgan, yoshlar ijodi va intellektual saviyasini Qahhorday chuqur o‘rgangan va ularga bu qadar kuchli ta‘sir o‘tkazolgan yirik adib kam. Bu haqiqat necha o‘nlab shoir va adiblarimizning samimiy e‘tiroflari va unutilmas nurli xotira larida aks etib turadiki, ular alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. Diyorlari. T.2007.112-b.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6-tom. T. 1971. 476-b.
3. Bahodir Karim. Bir taqiriz talqini. Nurboy Jabborov. Millatparvar.-Adabiyotimiz faxri T.2007..275-289-b.

YETTI SAYYORA: BADIY TALQIN VA ILMIY DUNYOQARASH

Marg‘uba abdullayeva,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya

Mumtoz adabiyotda badiiy asarlarning estetik ta‘sirini kuchaytirish, xalq e‘tiqodi va qadriyatlarini ifodalashda sirli raqamlardan foydalanib, go‘zal badiiy tasvirlar voqeligi aks ettirilgan. Jumladan, 3, 7, 9, 18, 40 raqamlari bilan bog‘liq qarashlar badiiy asarlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Bular ichida 7 raqami ilohiy raqam sifatida talqin etiladi. Mazkur maqolada 7 raqamini 7 sayyora tasvirlari tahlili orqali o‘rganishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, 7 sayyora, astronomik ilm, ilmiy dunyoqarash, Yusuf Xos Hojib, yetti kavokib, Alisher Navoiy, yetti sayyora, badiiy talqin.

Dunyo xalqlarida 7 raqami ilohiy va sirli raqam sifatida qadrlanadi. Shu sabab 7 raqami bilan turli qarashlar shakllangan. 7 kun, 7 mo'jiza, 7 xazina, 7 avlod, 7 iqlim, 7 rang, 7 sayyora, 7 dengiz, 7 farz va boshqalar. Hafta kunlari: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba. Yetti rang: oq, sariq, qizil, qora, ko'k, yashil, apelsin. Yetti sayyora: Qadimgi xalqlar yetti muqaddas sayyora inson hayotiga, taqdiriga, o'zaro harakatlariga bog'liq deb tushunganlar. Ular: Quyosh – Kuch-g'ayrat ramzi; Oy – Dilbarlik ramzi; Mars – Jangu jadal timsoli: Merkuriy – Donolik ramzi; Yupiter – Baxt ramzi; Venera – Sevgi ramzi; Saturn – Dehqonchilik ramzi.

Xalq og'zaki ijodida yetti raqami bilan bog'liq hikmatli so'zlar, iboralar ko'p uchraydi. Masalan, "Yetti o'lchab bir kes", "Yetti eshikning kalitini olib yuradi" kabilar. "Yetti uxlab tushimga kirmagan" "Yetti qovun pishig'i bor", jumalari esa favqulodda holatlarni tasvirlashda qo'llanilgan. "Yetti bukilib ta'zim qildi" iborasi yoki yuksak hurmat-e'tibor ko'rsatilganda, "Yetti qavat ko'rpacha ustiga o'tqazishdi", "Nomi yetti iqlimga ketgan" kabilar yetti raqamining jonli so'zlashuvda turli ma'no ottenkalariga egaligini ko'rsatadi. Yetti raqami haqidagi mifologik qarashlar afsona, rivoyat, ertak va dostonlardagi yetti bahodir, yetti dev, yetti qaroqchi timsollarida mujassamlashgan. Ertaklarda an'anaga ko'ra, go'zal malikalar, parilar yuziga yetti qavat parda tortilgan holda tasvirlangan. Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi, jonli so'zlashuv, madaniyat va san'at yodgorliklarida yetti raqamiga juda ko'p urg'u berilgan. Bu an'ana birinchidan, ajdodlarimizning o'ta qadimiy tasavvurlari va e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ularning olamni o'rganish borasidagi yuksak ilmlaridan darak beradi. Jumladan, "Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, qadimgi xorazmliklar yulduz burjlarini arablardan ko'ra yaxshiroq bilishgan. Shunga ko'ra, taqvim yaratish uchun oyni asos qilib olishgan. Oy fazalari esa 28 kun davom etadi. U to'rt davrga bo'lingan: yangi oy, birinchi chorak, to'lin oy, oxirgi chorak. Har yetti kunda davrlar bir-biri bilan o'rin almashadi. Ehtimol, yetti raqamining muqaddaslashishiga sabab bo'lgan omillardan biri shudir".

Mumtoz adabiyotning nodir namunasi bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "Yetti kavokib va o'n ikki burj haqida" maxsus bob kiritilgan. Yusuf Xos Hojibning olamning yaratilishi, koinot tuzilishi, yulduzlar harakati haqidagi astoronomik qarashlari mazkur bobda tasvir etiladi. Uning qarashicha, yulduzshunoslar yetti sayyorani yerda yotgan xasdek bilishlari kerak. Ya'ni "Yeti qat falakni yatur yamcha tut", deydi. Yusuf Xos Hojibning fikriga ko'ra, yetti falakni inson o'rganishi mumkin. Lekin to'qqizinchi falak Arshi a'lo (ediz arsh) sirlarini inson yechishga qodir emas. Asarda yetti yulduz (falak, sayyora)ni quyidagicha ataydi:

1. Sekantir – Zuhul (Saturn) sayyorsi;
2. O'ngay – Qaraqush – Mushtariy (Yupiter) sayyorasi;
3. Ko'rud-Baqirso'quna – Mirrix (Mars) sayyorasi;
4. Yashiq – Kun – Quyosh sayyorasi;
5. Sevit – Zuhra (Venera) sayyorasi;
6. Arzu – Utorud sayyorasi;
7. Yalchiq-Ay – Oy sayyorasi.

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2007 yil 49-sonida taniqli olim Qosimjon Sodiqovning "Kun burji sobit" maqolasida muhim ilmiy tahlillar amalga oshirilgan. Olimning fikricha, Sharq astronomiya ilmi G'arb ilmidan ancha ildamlab ketgan. Nikolay Kopernikning olamning aylanishi to'g'risidagi qarashlari yuzaga chiqquniga qadar, X-asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib bu haqda asosli ilmiy ma'lumotlarni qayd etgani dalillangan. Shu barobarida Q.Sodiqov hozirgi zamon astronomiya ilmida Yerning Quyosh atrofida aylanishi to'g'risidagi kashfiyotni Nikolay Kopernik nomi bilan bog'lash o'rinsiz ekani, bu kashfiyotni besh yuz yilcha burun mutafakkir bobomiz Yusuf Xos Hojib aytib ketganini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib dostonida har bir yulduzning harakati, xususiyatlari, joylashuvi haqida to'xtalib o'tadi. Asarda Yetti qaroqchi yulduz – Yetikan, Hulkar yulduzi – Urkar deb atalgan. Dostonning hamd qismida Tangri falaklarni yaratdi, u har doim evrulub (aylanib) turadi, deydi. Yusuf Xos Hojib Kuntug'di eligni Kun sifatleri, Oytuldini Oy sifatleri bilan bog'lab tasvirlaydi. Oy tug'ilishida juda kichik bo'lib tug'iladi. Kundan kunga ulg'ayib, to'lishadi. Adibning qayd etishicha, Oy Kun bilan yuz-

ma-yuz bo‘lganda to‘lishadi. To‘lin Oy olamni yoritgani singari Oyto‘ldidan olam ahli yorug‘lik topadi. Bu obrazlar ramziy xarakterda bo‘lib, Quyosh va Oy sayyorasining astronomik xususiyatlarini o‘zida ifoda etadi. Kun burji sobitligi, Falak va Yer doimiy harakatda bo‘lishi, Kun ularning markazida turishi haqidagi falsafiy qarashlari keyinchalik dunyo olimlari tomonidan ilmiy asoslandi. Bundan anglashiladiki, Yusuf Xos Hojib o‘z davri astronomik ilmi bilimdoni. U asardagi bosh qahramonlarni yulduzlar xususiyatlaridan olib, badiiy ishladi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham sayyoralar nomlari ma’lum o‘rinlarda tilga olingan. Jumladan, Baqirsuqum (Mirrix), Qaraqush (Mushtariy) yulduzlari haqida gapirib, Baqirsuqum sayyorasi mis rangida bo‘lishi, Qaraqush esa tongda chiqishi to‘g‘risida ma’lumot beradi.

“Sab’ai sayyor” dostonining hamd qismidanoq Navoiy kosmogonik bilimlaridan foydalanadi. Ollohga hamd aytar ekan, sen dunyoni barpo etganda samoni yetti gumbaz bilan yaratding, deydi. Yaratuvchiling tufayli yetti osmono‘par qasrlar yulduzlar bilan bezandi. Yetti qasr, yetti donishmand sening hikmatlaring to‘g‘risida afsonalar aytmoqda. Navoiy yetti falakni, yetti laganga o‘xshatib, ularning ichida nur taratuvchi sham bor, deydi. Yetti sayyoraning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, alohida rangi bilan ajralib turadi. Sayyoralarning aylanma harakatlari hafta, oy, yilda o‘zgarib turishi aytiladi. Navoiyning astronomik bilimlari juda chuqur bo‘lib, yetti sayyora xos barcha sifatlarni badiiy talqinda ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, tun va kun bo‘lishi, gullarning ochilishi ularning harakatiga bog‘liq. Dastlab shoir quyoshning badiiy tasvirini beradi. Subhi azal sening bilan boshlanadi. Yo‘qlik pardasini sen ochasan. Barcha jahon sen sababli mavjudlik libosini kiyadilar. Tabiatning jilvasi quyosh nuridan bahra olib, turfa go‘zalliklarni yuzaga keltirishi tasvirlanadi. Dostonning hamd bobida Qo‘yosh sayyorasi tasviri bilan Olloh madhi uyg‘unlik kasb etgan.

Navoiy “Sab’ai sayyor” dostoni 8-bobida asarni yozishdan avval tush ko‘rgani, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyini ko‘rganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, Navoiy yetti gumbaz ostida eshitgan afsonalarini yod olib, qalb sahifalariga yozib qo‘ygani aytadi. Qachon bu afsonalarni tahrir qilar ekanman, oldimga Hizrga o‘xshash bir mo‘ysafid keldi. Qasrdagi nuqsonlarni topib, yetti qasr ichiga yetti hurni o‘tqazib qo‘yasan. Yetti afsonaga yana yetti afsona qo‘shasan. Dostoningni nozik so‘zlar bilan bezatasan.

Yetti afsona ko‘rganin yona,

Degasen yetti turfa afsona. (Sab’ai sayyor, 58-bet)

So‘zi tugagach, yer o‘pib, pirga ta’zim qildim. Shu payt xursand holda uyg‘onib ketdim. Uyg‘on-gach muabbir (tush ta’burchisi) aytgan dalillardan so‘ng doston yozishga kirishganini aytadi:

Menki, topdim bu na’v ikki dalil,

So‘z demak sori ayladim ta’jil. (Sab’ai sayyor, 59-bet)

Navoiy salafilar bo‘yicha shoh Bahrom tarixini qisqacha bayon etib, endi men aytadigan qissa avvalgilardan farq qiladi deydi va Allohga shukrona keltirib, Bahrom qissasini boshlaydi. Dostonning Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan IX –bobida yetti sayyora – Zuhul, Mushtariy, Bahrom, Mehr, Zuhra, Atorud, Qamar haqida alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu sayyoralarning xususiyatlaridan kelib chiqib, mumtoz badiiy tasvirlarni yaratadi.

Dostonda Navoiy sayyoralar haqidagi mifologik tasavvurlar va xalq og‘zaki ijodidagi talqinlariga ham e’tibor qaratgan. Barcha sayyoralar nomlari yunonlar va greklar mifologiyasi xudolarining nomlaridan olingan. Merkuriy grek-yunon mifologiyasi bo‘yicha savdo sotiq xudosi, arablarda esa Utarud deb ataladi. Venera nomi sevgi xudosi sharafiga qo‘yilgan (arablarda u Zuhra nomi bilan ataladi), Uran - osmon xudosi, Neptun - dengizlar xudosi, Saturn - dehqonchilik xudosi, (arablarda Zuhul), Yupiter – momaqaldiraq xudosi (arablarda Mushtariy), Mars - urush xudosi (arablarda Mirrix) deb nomlangan.

№T/R	Sayyora nomlari	“Qutadg‘u bilig” asarida	“Sab’ai sayyor” asarida	Hafta kunlari	Ranglari	E’tiqod ramzlari
1.	Saturn	Sekantir	Zuhul	Shanba	qora	dehqonchilik xudosi

2.	Quyosh	Yashiq	Quyosh	Yakshanba	sariq	Hukmdor ramzi
3.	Oy	Yalchiq-Ay	Oy	Dushanba	yashil	Vazir ramzi
4.	Mars	Ko'rud-Baqirso'quna	Mirrix (Bahrom)	Seshanba	qizil	urush xudosi
5.	Merkuriy	Arzu	Utorud	Chorshanba	moviy	Savdo-sotiq Xudosi
6.	Yupiter	O'ngay – Qaraqush	Mushtariy	Payshanba	jigarrang	momaqaldiraq xudosi
7.	Venera	Sevit	Zuhra	Juma	oq	sevgi xudosi

Xulosa qilib aytganda, 7 sayyora haqidagi mumtoz tasvirlar qadimgi xalqlar e'tiqodi, xalq og'zaki ijodi va astronomik ilmlar hamda asar mualliflarining ilmiy dunyoqarashi asosida talqin etilgan. Mumtoz adiblar nafaqat badiiy ijod qonuniyatlari balki ilmiy dunyoqarashi bilan dunyo tamaddunida muhim o'rin tutgan. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy badiiy tasvirni ilmiy tafakkur mahsuliga aylantirgani asarlarining ilmiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Shundan bo'lsa kerak yetti sayyoraning badiiy-tasviriy ifodasi yetti iqlimni doimo o'ziga jalb qilib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: G'afur G'ulom. 1971. – 160 b.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit-turk. – Toshkent: Fan. 1960.
3. Qosimjon Sodiqov. Kun burji sobit. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2007 yil, 49-soni.
4. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. O'n jildlik. Yettinchi jild. G'afur G'ulom. – Toshkent: 2020.
5. Alisher Navoiy. Xamsa. Sab'ai sayyor. Tamaddun. 2021. – 448 b.
6. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. – T.: G'afur G'ulom. 1991. – 192 b.

“DAHSHAT” “KITOBXON JAVOBI” TAJRIBASIDA

Zulxumor Mirzayeva,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori

Annotatsiya

Mazkur maqola Abdulla Qahhorning ijodi, xususan “Dahshat” hikoyasi zamonaviy jahon adabiyotshunosligida faol bo'lgan “kitobxon javobi” (tranzaksiya) nazariysi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ontologiya, konnotatsiya, kitobxon javobi, ramz

XX asr o'zbek adabiyotini Abdulla Qahhorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning turfa janrlarda yaratgan asarlari hamma darvrlarda adabiyotshunoslar e'tiborida bo'lgan, ijodi tahliliga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Hafiz Abdusamatov, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Sanjar Sodiqov va yana ko'plab olimlar yozuvchi ijodiga xos muhim xususiyatlarni tahlil qilib, uning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi xizmatlarini ilmiy asosda ochib bergan. Abdulla Qahhor ijodi Ilza Sirtautas, Xristofor Fort, Gexard Dudek, Konstantin Simonov kabi xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan, asarlari ingliz, ispan, nemis, polyak, fransuz, yunon, vietnam tillariga tarjima qilingan. Mazkur tarjimalar yozuvchini xalqaro miqyosda tanilishiga hamda o'zbek adabiyotining jahondagi nufuzini ko'tarishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyati turli xil mafkuralar, e‘tiqodlar, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar davriga to‘g‘ri keldi. Mazkur evrilishlar zamonida barcha ijodkorlar singari Qahhor uchun ham e‘tiqod - maslagini saqlab qolish, o‘z istak-xohishlari, erki doirasida ijod qilish oson kechmadi. Uning ayrim asarlarida zamonasozlik ruhi sezilib turishi, Qahhor ham davr mafkurasi ta‘sirida qator asarlar yaratganligi inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat. Bunday asarlarning dunyoga kelishida birinchidan, Qahhor ham boshqa ijodkorlar qatorida sho‘rolar va‘da qilgan “baxtli turmush” ga ishongan, ikkinchidan, davrning shafqatsiz qatag‘onlaridan omon qolish instinkti Qahhor uchun ham begona emasdi. Mana shunga o‘xshash ob‘yektiv, sub‘yektiv omillar yozuvchiga sotsialistik realism metodi talablariga mos keladigan “Bolsheviklar”, “Qishloq hukm ostida”, “Millatchilar”, “Mirzo”, “Ming bir jon”, “Mahalla” “Sinchal-ak” kabi zamonasoz qissa va hikoyalar yozishiga rag‘bat berdi.

Uzoq yillar mustamlaka qilingan xalqlarning tafakkuri tarzi muayyan sxemalarga moslashtirilganligi sabab hayot yoki badiiy voqelikka munosabatda ham ayni qoliplardan chetga chiqolmaydi. Ayni paytda insonning onggi, tafakkur bir xil shtrixlarda shakllanmasligi ham haqiqat. Sho‘rolar mustamlakasi davridagi millatni “bir xil fikrlashga o‘rgatish” siyosatining zahar-zaqqumi, afsuski, juda uzoq yillar millat ongi, dunyoqarashiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi va ana shu stereotiplardan andoza olgan tafakkurning o‘ta sayozlashishiga, mafkuralashishiga sabab bo‘ldi. Mavjud qoliplar, xoh u adabiyotda yoki san‘atning boshqa sohalarida bo‘lsin “boshqacha bo‘lishi mumkin emas” kabi qarashlarga rag‘bat berdi va erkin fikr zamonida ham mavjud chegaralarni buzib o‘tish imkoni bo‘lmadi. Yuqoridagi yondashuv mustaqillikkacha va undan keyingi davrlarda ham Qahhor ijodiga shubha bilan qarash, uning asarlariga munosabatda “orttirish” yoki “kamaytirish” tamoyiliga ergashish holatlari kuchaydi, oqibatda talqinda muvozanat buzildi, yozuvchining ayrim asarlari yuzasidan ko‘plab haqiqatlar aytilsa-da ayrimlari ob‘yektiv bahosini ololmadi.

Aslida muayyan badiiy asarning yashovchanlik xususiyatlaridan biri undagi haqiqatlarning mutlaqlashmaganligi bilan belgilanadi. Qahhorning ayrim asarlaridagi badiiy-g‘oyaviy xulosalarning turfaligi, yozilganidan yozilmaganining muhimligi, har bir yangi davr, ijtimoiy-siyosiy muhit uchun fikr, g‘oya beraverishlik xususiyati asarlariga qayta va qayta murojaat qilish ehtiyojini tug‘diraveradi. Masalan, yozuvchining “Sarob” romaniga munosabat asar yaratilgan davrdan to bugunga qadar turli qarashlar, bahs-munozaralar asosida kechdi. O‘tgan asrning 80-yillarigacha yaratilgan tadqiqotlarda “Sarob” “millatchilikni madh etuvchi asar” sifatida qoralandi, bunday qarashlar, tabiiyki, davr mafkurasi ta‘sirida paydo bo‘lgan edi; keskin muzokaralardan keyin bu “siyosiy ayblov” inkor qilinib, “yaxshi asar” sifatida baholandi; ma‘lum muddatdan keyin esa asarga yana tosh otishlar boshlandi; muallifning asarni bir necha marta qayta ishlashi natijasida roman “o‘zbek prozasining cho‘qqi asarlaridan biri”, “o‘zbek adabiyotida realizmning qaror topishiga katta hissa qo‘shgan, haqiqiy san‘at asari” sifatida baholandi. Bunday bahslar Qahhor hikoyalari atrofida ham kechdi. Taniqli adabiyotshunos olim S. Meliyev “O‘g‘ri” hikoyasiga “umuminsoniy, barkamol badiiylilik namumasi emas, balki totalitar davrning badiiy hujjati” [Meliyev, 1995:] sifatida qaraydi va u haqidagi iliq fikrlarni inkor etadi.

Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Bemor”, “Anor” kabi tarixiy hikoyalari bir qarashda S. Meliev aytganidek, totalitar davr mahsuli sifatida taasurot qoldiradi, chunki sho‘rolar mafkurasi asosida shakllangan sotsialistik realizm metodining muhim talablaridan biri “o‘tmishni qoralash, chirkin xususiyatlarni fosh qilish, tarixni ideallashtirmaslik” dan iborat edi. Qahhor ham mana shu tamoyilga ergashib, o‘sha davrning farzandi, iste‘dodli yozuvchisi sifatida atrofidagi voqea-hodisalarni badiiy o‘zlashtirishi, muayyan ijtimoiy omillar ta‘sirida asarlar yaratganligini tabiiy holat deb qabul qilish lozim. Ikkinchidan, Qahhor hikoyalaridagi fojeaviy voqealar yozuvchi fantaziyasi emas balki o‘zi yashagan og‘ir ijtimoiy turmush, zamonasining dahshatli illatlari badiiy in‘ikosidir. E‘tiborli jihati Qahhor bu fojealarni o‘z uslubida talqin qilgan. Yozuvchi uslubidagi bu xoslik esa kichik voqeadan katta ma‘nolar chiqarishdir. Asarning ontologik xususiyati ham undagi botiniy mazmun mohiyatining yashovchanligida, o‘lmasligida, takror murojaat etish ehtiyojining mavjudligida, yangicha yondashuvlarga materilar bo‘la olishligi, yangicha tahlillarga yaroqligidadir.

Bugungi globallashtirish, integratsiyallashtirish adabiy tafakkurga ham ta‘sir ko‘rsatib, kitobxonni umumbashariy, jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik tarzda fikrklashga o‘rgatmoqda. Badiiy asarga

an'anaviy qarashlar yetovida emas, balki universal, milliy va jahoniy fikrlar, tushunchalar uyg'unligida, zamonaviy adabiyotshunoslik tamoyillari, tahlil metodlari asosida yondashib, yangi talqinlarni kashf qilmoqdalar. Xususan, 1960-70-yillarda retseptiv estetika ("o'zlashtirish estetikasi", "kitobxon javobi", reader response theory) sifatida maydonga kelgan, bugungi adabiyotshunoslik, adabiy ta'limning ham dolzarb nazariy asosi sifatida taqlin qilinayotgan mazkur tahlil metodi Qahhor asarlari yuzasidan ham yangi xulosalarni keltirib chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Retseptiv estetikaning muhim xususiyatlaridan biri badiiy asar haqidagi xulosalar o'quvchi va matn munosabatiga, o'quvchi tafakkuri dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatiga asoslanadi. O'quvchi o'z fikrlari bilan, badiiy matn mantig'iga tayanib, uning "yozilmagan qism" larini yaratadi. Bunda badiiy asardagi ma'no(lar) yoki muallifning badiiy-g'oyaviy konsepsiyasi emas balki badiiy asarning o'quvchi tuygulari, enotsional holatiga ta'siri, kechimlari natijasidagi individual xulosalar kashf qilinadi.

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulovning "O'zlashtirish estetikasi ajoyibotlari" ilmiy-adabiy maqolasida badiiy asar tabiatida kitobxon(o'quvchi) uchun ajratilgan o'rin xususida fikr yuritib, Yevropa va Rus estetikasida paydo bo'lgan retseptiv estetikani yangi soha deb baholab, o'zlashtirish, qabul qilish estetikasi istilohi bilan atagan. "Yozuvchi badiiy matnda o'z g'oyasini, qarashlarini aks ettiradi. Kitobxon badiiy matnni o'zlashtirar, unga munosabatini bildirar ekan, matn taqdiri hal bo'ladi. Uning badiiy asar sifatidagi mustaqil yo'li boshlanadi yoxud badiiy asar sifatida inkor qilinadi" [Rasulov, 2007: 97]

Nemis olimi Wolf Gang Iser o'zlashtirish estetikasida matn strukturasi va strukturaviy faoliyat muhimligini qayd etadi. [Wolfnag, 1978]. Badiiy asarning shakliy tuzilmasi kitobxonni o'qishga undaydigan muhim omildir. Yozuvchining "Dahshat" hikoyasini o'qishga tayyorlanayotgan kitobxon asar sarlavhasining o'zidayoq matn bilan munosabatga kirishadi. Hikoya sarlavhasi, vizual fikrlash ('gestalt'-«визуального мышления») asosida dastlabki farazlarini, fikr qarashlarini, yaratadi.

Ma'lumki, "dahshat" (inglizcha "terror") so'zi mohiyatan kishida salbiy tasavvurlarni uyg'otadi. Ayrim mutaxassislar bu so'z retorik konnotatsiya (o'quvchi yoki tinglovchi ongiga, tuyg'ulariga kuchli ta'sir etuvchi xususiyat) ga ega so'z ekanligini taxmin qiladilar. Chindan ham kitobxon "dahshat" da qandaydur fojeaning aks etishi, asar yoqimsiz xotima bilan yakun topishini his qiladi, o'quvchiga og'ir, tushkun kayfiyat beradi. Ammo bu fojealar qanday, qay tartibda, kimning taqdirida yuz berishini ochiqlash ishtiyoqi kitobxonda asarni teziroq o'qishiga undaydi. Asarning ilk jumlaridagi kuzak shamoli tasviri retsipentdagi qo'rquvni, dahshatni yanada oshiradi. Endi o'quvchi shamolning "yaydoq daraxtlar shoxida chiyillashini", "tomlarda vishillashini", "yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortishi" ni his qilibgina qolmay uni ehsita bohlaydi. Real hayotida sodir bo'lgan dahshatlarni o'tmish fonida qayta tahlil qiladi, baholaydi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida, jumladan, "Dahshat" da ham g'oyalar to'gridan to'g'ri, yuzaki yoki ochiq ifoda etilmaydi, fikrlar muayyan ayni paytda chuqur ramzlar orqali akslanadi. Kitobxon bu ramziy ifodalarni konkretlashtirish, aniqlashtirish orqali asardagi bo'shliqlarni, yozuvchi matn tagzaminiga yashirgan ma'nolarni yuzaga chiqaradi, matnni qayta yaratishga kirishadi.

Hikoyadagi kuzak shamoli tasviri kitobxondagi qo'rquvni, vahimani yanada oshirishi, asarga og'ir kayfiyat berishi bilan bir qatorda uning "chiyillashi", "vishillashi", "uf" tortishi orqali asar qahramonning halokatli taqdiri, uni qandaydur qiyinchiliklar, to'siqlar, murakkabliklarga duch kelishiga ishora qiladi. Chunki shamol tabiatida "buzuvchilik", "vayron qilishlik", "halok qilishlik" xususiyati mavjud.

Hikoyadagi o'quvchi e'tiborini tortadigan keyingi atribut bu-kuz fasli. Nega qish emas?! Qish ham badiiy ijodda aksar holatlarda baxtsizlik, o'lim, tushkunlikka ishora, qahramonning o'limi, umidsizlik hamda muvaffaqiyatsizlik ramzi sifatida taqlin qilinadiku. Masalan, Cho'lponning "Ko'klam qayg'usi", "Yana qor" she'rlarini eslaylik. O'zbek adabiyotida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Jahon adabiyotida ham qish kuchli tahdid, yengib bo'lmaydigan yov, kuchli raqib, hissiz inson va oxiriga yetayotgan umr sifatida taqlin qilingan holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Shotland shoiri Andrey Yang (inglizcha Andrey Young, 1885-1971) qalamiga mansub, jahonning eng sara she'rlari qatoriga kiritilgan (the best poems of the world) "Shavqatsiz ayoz" (The Hard Frost) da ham qish fasli salbiy

bo‘yoqlarda akslantirilgan. Ayni o‘rinda Xans Kristian Andersonning “Qor malikasi” klassikasida qishning ramzlardagi salbiy mohiyati aks etgan eng yaxshi namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Demak, Qahhorning “Dahshat” hikoyasida kuz voqeasi dahshatini quyuqlashtirishdan tashqari kitobxonda boshqa fikr mulohazalarga ham rag‘bat bermoqda.

Yil fasllari badiiy adabiyotda turli xil ramziy ma’nolarni ifodalaydi, ijodkorlar ham asarning badiiy-g‘oyaviy maqsadidan kelib chiqib, ulardan badiiy vosita sifatida foydalanadilar. Jumladan, yozuvchi kuz fasliga ramziy ma’nolarni individual qarashi, e’tiqodi, ifoda uslubi, milliy an’analar, tutumlar, badiiy asar g‘oyasi, diniy-madaniy kontekstdan kelib chiqib yuklaydi. Holbuki, ramziy ifodalarga munosabat sub’ektiv va talqin turlicha bo‘lishi mumkin. Aksar holatlarda ijodkorlar kuzga yoqimsiz o‘zgarishlar mavsumi sifatida qarab, asar qahramonining kelajagida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan og‘ir vaziyatlarga tayyor turishi, qahramon qabul qilgan qarorning yoqimsiz, halokatli oqibatlar kutayotganidan dalolatligini ko‘rsatadi. Kuz yo‘qotish, ayriliq, judolik, parchalanish ramzi bo‘lganligi uchun ham asar qahramonlarining o‘limiga doir fojearlar, dahshatlar aksar holatlarda badiiy adabiyotda kuzda sodir bo‘ladi.

Demak, “Dahshat” dagi kuz tasviri, kuzak shamoli kitobxonlarda faqat assosatsiya uyg‘otuvchi vosita sifatida emas balki yaqin kelajakda hikoya qahramoni taqdirida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan haloklatlar haqidagi bashoratlarga ham turtki beradi. Aslida ham “Payg‘ambar yoshidan o‘tib ketgan” cholga sakkizinchi xotin bo‘lib majburan uzatilgan Unsinning hayotida qandaydur yoqimsiz o‘zgarishlar, baxtsizlik sodir bo‘lishi tayin edi.

Kitobxon javobi nazariyasiga ko‘ra retsipent matnni mutolaa qilish jarayonida o‘z o‘tmishi va kelajagida sodir bo‘lgan va sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni taftish qiladi, asar voqeligi ta’sirida yoki mazkur voqea-hodisaga muvofiq muayyan maqsadlari, umidlarini qayta shakllantiradi, avvalgilari esa qayta chig‘riqdan o‘tkazadi. Badiiy asar qayta o‘qilganda avvalgilaridan boshqacha taassurotlar qoldiradi. Oqibatda har bir yangi mutolaa yangicha nuqtai nazarlarga, qarashlarga yo‘l ochaveradi. Birgina kitobxonning o‘zida ham biri-ikkinchisini inkor qiluvchi turfa qarashlar shakllanadi. Mutola faol jarayonga aylanadi. Ayniqsa, yangi qarashlarning tug‘ilishida o‘quvchining asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holati muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarash, hayotiy tajriba, ko‘nikmalar, avvalgi bilimlar yig‘indisi ham matnga “begona” qarashlarni tug‘ilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, 18-20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tuyg‘ularni boshidan kechirgan, anchayin hayotiy tajribaga ega 30-35 yoshli ayni retsipent endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabga esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida qarab, unga nisbatan achinish hissini tuyishi ham mumkin.

Yoki, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi onaning harakatlarini o‘quvchi o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolani fojining asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishini ham “o‘quvchi va matn munosabatlarining yakunlovchi bo‘g‘ini” [Ковылкин, 2007:153] sifatida qabul qilmoq lozim. Demak, “kitobxon javobi” nazariyasida badiiy asarga oid mavjud talqinlar, yozuvchining badiiy-estetik, ijtimoiy-g‘oyaviy maqsadlari kitobxon qarashlariga daxl qilmaydi. O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi.

Qahhor hikoyalari, jumladan “Dahshat” da ham g‘oyalar yuzaki emasligi, ma’nolar, g‘oyalarning ramzlarga burkab talqin qilinganligi bois har bir yangi jamiyat, ijtimoiy-siyosiy tuzum, yangi davr asar yuzasidan yana yangi savollar, noodatiy mulohazalarni keltirib chiqaraveradi. Masalan, kitobxonning (zamonaviy kitobxonning, ta’kid bizniki, ZM) javob nazariyasi va Iserning dinamik o‘qish haqidagi g‘oyalari Unsinning erk uchun hayotini garovga qo‘yib o‘ta og‘ir shartni bajarishi bilan bog‘liq voqelikni silliq qabul qilishi shubhali. Chunonchi insonlardagi tug‘ma omon qolish instinkti tufayli ular har doim yashashga intiladilar. Mana shu instinkt insonni har qanday fojeariy holatlarida ham o‘limdan qochishiga, nafas olishiga majbur qiladi. Ayni paytda Unsinning jasorat bilan og‘ir shartga rozi bo‘lishini dalillovchi qator sabablar mavjudligini ham e’tibordan chetda qoldirmaymiz. 1) go‘zal, qalbi orzu umidlarga to‘la Unsin qatoridagi har qanday qizning payg‘ambar yoshidagi cholga turmushga chiqish fojeasi; 2) oddiy odamlar tabiatida erkinlikka, erkin yashashga intilish kuchliroq bo‘lganligi uchun ular

aksar holatlarda o'limdan ozodlikni afzal ko'rishi ham tajribadan o'tgan haqiqatlardan biri. Unsin sakkiz oy mobaynida Olimbek dodxoga itoatda yashab kelayotgan bo'lsa ham ruhiyatida zulmga qarshi isyoni bor edi, uni yuzaga chiqarish uchun sabab yo'q edi, xolos. Shuning uchun ham u qabristonga borib, choy damlab kelish dahshatidan cho'chimadi; 3) Matyoqub Qo'shjonov aytganidek, bu dahshatga rozi bo'lgan qizning botinidagi kulfatlar qo'rqinchli shartni bajarishdan ko'p barobar dahshatliroq bo'lgani uchun ham qiz shartga rozi bo'ladi. Ammo bu sabablarning barchasi kitobxonni badiiy asar tarixiy kontekstda, asar yaratilgan davr nuqtai nazaridan tahlil qilingandagina qoniqtira olishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan fikr insondagi tug'ma omon qolish instinktiga asoslangan kitobxon esa Unsinning o'limga tik borishning boshqa, har qanday vaziyatda inkor qilib bo'lmaydigan sabablar, haqiqatlarni topishga urinadi.

Umuman olganda, Qahhor "Dahshat" ining turli rakurslardagi mutolaasi biri ikkinchisiga zid, ayni paytda qiziq va mantiqli savollarni keltirib chiqaraveradi. Maqolaning keyingi qismlarida hikoyadagi yangi zamon kitobxonida paydo bo'lgan yangicha savollarga javob topishda davom etamiz. Va ishonamizki, bunday noan'anavy qarashlardan badiiy asar ham ijodkor ham, kitobxon ham faqat va faqat yuk-saladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мелиев С. Ижтимоий ғоя зуғуми ёхуд меҳрнинг бадий кучи. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1995, 23 июнь.
2. Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. Тошкент, Шарқ, 2007. – 97 б
3. I. Wolfgang, The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. John Hopkins U P, Baltimore. 1978
4. А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.

BOLALAR SHE'RIYATIDA SHAKLIY-MAZMUNII YANGILANISH HAMDA IZLANISHLAR

Gulnoza Jurayeva,

Filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotining o'zbek adabiyotidagi o'rni hamda bolalar she'riyatidagi shakliy izlanishlar haqida so'z boradi. Hajviy she'riyat deyilganda faqat kulgi uyg'otadigan, insonlarga tabassum ulashadigan yengil she'riyatni tushunmaslik kerak, albatta. Ayniqsa, u bolalar uchun yozilgan bo'lsa, hajv zimmasiga ma'lum vazifalar qo'yilishi kerak bo'ladi. Keyingi yillarda bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi tushunchalariga nisbatan qo'yilgan "sayoz"lik tamg'asi ham balki aynan shu vazifalar bajarilmagani sababli bo'lishi ham mumkin.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, shakliy izlanishlar, hajviya, satira, yumor, adabiy tanqid, lirik qahramon, shakliy izlanish, mazmuniy izlanish, obraz, hajviy xarakter.

Ma'lumki, yangilanish zarurati inson, uning ongu tafakkuri o'sishi bilan baravar paydo bo'ladi. Bashari o'zining turli ehtiyojlarini qondirishda adabiyot, san'atdan to'g'ri ma'noda foydalanadi. Shu jihatdan, adabiyot, ayniqsa, bolalar adabiyoti bolalar ehtiyoji va ularning ehtiyoji bo'lishi kerak bo'lgan asl zarurlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. She'riyat maydonida ham u paydo bo'lgandan buyon bir qancha shakliy, mazmuniy tadrijiy yangilanishlar bo'lgan va ular ham ma'lum zarurat asosida yuzaga kelgani tabiiy. Bitiktoshlar davrida insonning kelajakka o'z kechmishlarini yetkazib berish ehtiyoji bu

davr adabiyotini shakllantirgan bo‘lsa, islom olamida inson qanday yashashi kerak degan savolga javob zarurati o‘laroq mumtoz adabiyot va takror insonning ehtiyoji sabab nasriy asarlar yaratila boshlagan. She‘riyatdagi shakliy izlanishlar bilan tengma-teng mazmuniy izlanishlar ham muhim ahamiyatga ega. Hazrat Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida:

“Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsin aning surati har ne durur”,

deb yozadi. Buyuk shoir nazmning rango-rang liboslar bilan ziynatlanishi tabiiy ekanini ta’kidlash barobarida, har qanday shaklda bo‘lishida qat’i nazar “asl anga ma’ni” ekanini ham alohida ta’kidlagan. Bugungi she‘riyatimizda kuzatilayotgan ana shunday shakliy yangilanishlar, ayniqsa, e’tiborga loyiq [3;156]. Darhaqiqat, mazmun bor bo‘lsagina u qay shaklda bo‘lmasin adabiy asar maqomiga loyiq, unga Navoiy ta’biri bilan aytganda qancha libos kiydirilsa ham arziqli. Lekin mazmunni rad etgan holda qilingan shakliy izlanishlar o‘zini oqlamaydi. Shu davrgacha bolalar uchun yaratilgan asarlarda ham shakliy va mazmuniy izlanishlar bo‘lgan. Dastlabki davrlarda mazmun didaktik xarakterda bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik “odobni odobsizdan o‘rgan” qabilidagi tarbiyaviy xarakterdagi asarlar, so‘ngra bir qadar asarlarga mazmundagi keskin o‘zgarish – ijtimoiy ma’no berish boshlandi. Bundan tashqari, bolalar adabiyotida bir qancha shakliy izlanishlar ham ko‘zga tashlangan. Bu shakliy izlanishlar struktural-kompozision yo‘nalishga yo‘l berdi. Muhimi, ular mazmun qiyomiga yetgan davrda yangi tajriba maydoni sifatida paydo bo‘ldi.

Shakliy izlanishlar borasida so‘z yuritilar ekan, Abdurahmon Akbar ijodini yodga olmay iloji yo‘qki, uning ijodida shaklga xos yangilanishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir ijodidagi asosiy yangilik sifatida ham mazkur nuqtaga urg‘u beriladi. Shoirning “Xato she‘rlar”, “Teskari sarlavhali she‘rlar”, “Raqamli she‘rlar” nomli turkumlari shular jumlasidandir. “Xato she‘rlar” turkumidagi ba’zi she‘rlar atayin xato yoziladi. O‘quvchi uni matndagi ma’noga qarab o‘zi to‘g‘rilab o‘qishi kerak bo‘ladi (xato so‘z alohida ajratib yoziladi). Ikkinchi turkum she‘rlardagi shakliy izlanishlarda esa ba’zi so‘zlarning teskari tartibda yozilishiga asoslanilgan. Aslida bundan ham so‘z boshqa bir ma’no anglatadi. Masalan, “kalit” so‘zini teakarisiga “tilak” deb o‘qiymiz. Ana shunday so‘zlar teskari sarlavhali she‘rlar yozilishiga turtki bo‘ldi”, – deb yozadi shoirning o‘zi. “Raqamli she‘rlar” da esa ba’zi ba’zi bir so‘zlarni yozishda matematik raqamlar qatnashadi:

So1, Bo1, Omonboy
Men, Salom hamda Tohir
10dan ziyod do‘konga
Kirib chiqdik 1ma-1.
(Bozorda) [3;56].

Ushbu izlanishlarda bolalar yaqqol shakliy o‘zgarishlarni anglab olishlari mumkin bo‘ladi.

“Xato so‘zlar” turkumiga kiritilgan she‘rlarda shakliy izlanishlardan ko‘zlangan maqsad (mazmun plani nazarda tutilmoqda) ma’rifiy xarakterda bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish, qolaversa, ularni mazkur xatolarni ko‘zlari bilan ko‘rib, qayta ularni takrorlamaslikka o‘rgatishdan iborat bo‘lsa, bundan ko‘zlangan yana bir keng ko‘lamli ma’no ham borki, unda o‘quvchi, kitobxon bu hayot maydonidagi xatkor inson sifatida gavdalanib, unga mazmundan kelib chiqib, xatolarini tuzatishga imkon berilayotganiga ishora qilinadi. Chunki xato yozilgan so‘zlarni mazmuniga qarab o‘quvchi ularning to‘g‘ri variantini anglab yetishi kerak bo‘ladi. Shunday ekan, ushbu shakliy izlanishlar ortida mazmunga daxl qiluvchi tushunchalar ham mavjud ekanini ta’kidlash mumkin. Mana shu jihatlari bilan shoir she‘rlarini “kutilmagan”, “noan’anaviy” deb baholash mumkin. Bu shakliy izlanishlarning barchasi mazmunga daxl qilgani mohiyat inkor qilinmaganini eslatib turadi.

“Teskari sarlavhalishe‘rlar” turkumiga kiritilgan shoir ijod namunalarida uchraydigan yangiliklarning ahamiyatli jihati shundaki, unda shoir shunchaki bolalarning so‘zlarni teskari tarzda aytish o‘yinini ma’lum pog‘ona balandga ko‘tarib, undan kalit – tilak kabi xususiyatli so‘zlarni axtaradi. Bu usul albatta boshqa ijodkorlar asarlarida ham uchraydi. Mazkur yo‘nalishda yozilgan Ikrom Iskandarning quyidagi she‘ri ancha mashhur va unda ko‘tarilgan mavzu ham dolzarb:

Men “yo‘q” dan “qo‘y” qildim,
“yo‘q” so‘zini teskari o‘qib.
“Ovsar” “rasvo” bo‘ldi.
“Nodon” esa...
Baribir “nodon” ligicha qoldi.
(Ixtiro)

Albatta, Abdurahmon Akbar she‘rlarida ham aynan shu mazmunni uchratmasak-da, o‘zidagi shakliy izlanishlar bilan mazkur asar ham yangilik bo‘ladi. Bolalar uchun manna shunday so‘zlarni topish ularni zukkolikka o‘rgatadi. Yangilanishlar borasida shakldan mazmunga qarab borish ham yaxshi yo‘nalish hosil qilgan. Avval shakliy izlanishlarda ko‘zga tashlanayotgan navatorlik, keyinchalik mazmunga ko‘chishi, albatta, quvonarli. Abdurahmon Akbar she‘rlaridan ham ijtimoiy mazmunlar topish mumkin. Zero, “She‘r mazmuni ijodkorda emas, balki uni tushunadigan odamda rivojlanadi”, deganda naqadar haq edi Potebnya. Ba‘zan o‘quvchi talqini ijodkor ko‘zlagan maqsadga yaqinlashmay, pastlab qolsa, ayrim kitobxonlar borki, ular hatto ijodkor nazarda tutmagan qirralarni ham ocha biladilar va shu orqali she‘r yoki asar mazmunini yana-da rivojlantiradilar, unga yangicha mazmun baxsh etadilar. Bolalarning zehni ham shunday, ular dunyoni kattalar ko‘rgan ko‘zdan boshqacharoq, beg‘uborroq nigoh bilan ko‘radilar. Ular anglagan narsalar balki kattalar olamida mutlaq qabul qilinmaydigan tushunchalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Abdurahmon Akbar she‘rlaridagi shakliy izlanishlar o‘quvchini o‘ziga jalb qiluvchi vosita vazifasini ham o‘taydi. Buni qaysidir ma’noda bolalarni kitobxonlikka, she‘riyatga oshufta bo‘lishga bir chorlov sifatida ham qabul qilish mumkin. Ayniqsa, bu xususiyat «Raqamli she‘rlar» turkumida ayonlashadi.

“Raqamli she‘rlar” turkumiga qaytadigan bo‘lsak, mazkur turkumdan joy olgan barcha she‘rlarda o‘quvchilar raqamli so‘zlar bilan tanishadilar:

3li o‘tkir o‘roqqa
O‘xshar bu tun oy.
Osmon g‘oyat seryulduz,
3qunlarga boy.
(“Ertakchi”)

“So‘zlarning bu taxlit g‘alati shakli o‘quvchini hayron qoldiradi. Bunday shakliy izlanishlar she‘rlarning qiziqarliligi va o‘qishliligini ta‘minlaydi. Yosh she‘rxon uchun bunday kutilmagan, noan‘anaviy “hodisalar” g‘oyat hayratlanarli, albatta. Shuningdek, bu she‘rlar bolalarni o‘ylashga, fikrlashga, izlanishga undaydi, o‘rgatadi”[1;31], – deb yozadi mazkur she‘rlar haqida bolalar shoirlari Tursunboy Adashboyev va Dilshod Rajab “Satrlardan taralgan mehr” kitobida.

Yuqorida har bir izlanish ma‘lum zarurat yuzasidan vujudga kelishi haqida fikr bildirildi. Xo‘sh, mazkur izlanishlarga ham ma‘lum zarurat bor edimi? Ha, chunki insonlar bu davrda badiiy adabiyotdan uzoqlashayotgan edi, ayniqsa, bolalar kitobxonligi masalasi shunday bir muammoli ediki, bolalarni kitobga chorlash, ularda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish qiyin masalaga aylanib qolgandi. Shaklparastlik urchigan bir pallada bolalarni shakliy izlanishlar orqali badiiy adabiyotga qaytarish, qolaversa, ularni shunchaki she‘r o‘qishga emas, endi u bilan “muloqot qilishga” – undagi xatolarni topish, teskari so‘zlarni topish yoki raqamli so‘zlarni o‘qishga undash orqali adabiyotning yangi bir xususiyati kashf etildi. Endi bu kabi she‘rlar bolalarni biroz bo‘lsa-da mehnat qilishga majbur qildi. Va shuni unutmaslik kerakki, she‘rda hamma narsa to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilavermaydi, uning tagzaminida yuksak mazmun yashiringan bo‘lishi mumkin. Yuqorida misol tariqasida keltirilgan she‘rlarda raqamlar shunchaki yashirilgan bo‘lsa, boshqa she‘rlarda butun bir mazmun berkitilgan bo‘lishi mumkin. Shuni hisobga olgan holda tub mohiyatni aniqlashga bolalarni o‘rgatuvchi vositalar sifatida shakliy izlanishlarni olishimiz mumkin bo‘ladi.

Shakliy izlanishlarning eng yirik ko‘rinishlarini mumtoz adabiyotimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu shaklni ham butkul rad etmaslik kerakligini eslatib turadi. Masalan, she‘riy shakldan nasriy shaklga o‘tilishi, oddiy xalq uchun tushunarli, ravon, tilli sodda asarlar yaratilishi ham bir zarurat – ommani

ham badiiy adabiyot bilan tanishtirish zarurati orqali vujudga kelgan bo‘lsa, she’riy janrlarning o‘zida uchrovchi shakliy o‘zgarishlarga ham ma’lum omillar ta’sir ko‘rsatgan. She’riy vaznlar ham shakliy izlanishlarning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Aruz, barmoq, oq she’r, nasriy she’rlar ham ma’lum bir ehtiyoj, adabiy ehtiyoj o‘laroq maydonga kelganini alohida ta’kidlash kerak. Mazkur yangilanishlar zamon oralab, yana adabiyotga qaytishi mumkin. Ular ham ma’lum davr yoki o‘sha davrda yashovchi o‘qirman talabi bilan yuzaga kelgan. Shakldagi izlanishlarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, mazmun biroz ortda yuradi, qay ma’nodaki, mazmun tez ko‘zga tashlanmaydi. Ammo shakl “manaman” deya o‘zini tez ko‘rsatadi. Shu jihatdan u tashqi va birlamchi bo‘lmagan vosita hisoblanadi. Birlamchi bo‘lmagan degan tushuncha undan tamoman voz kechishni anglatmaydi. Balki undan to‘g‘ri foydalanish kerakligini eslatadi. Chunki bola ongi tashqi ta’sirlarga nisbatan ancha sezuvchan va u dastlab borliqni ko‘zlari bilan idrok qila boshlaydi, u uchun noodatiy, g‘ayrioddiy bo‘lgan narsalar uning yodida tezroq qoladi. She’rning mazmun tomoniga ham bevosita ta’sir etadi. Yangi-yangi ma’nolar tashishda vosita vazifasini bajaradi. Vositaning kuchi shundaki, u asosga eltuvchi yo‘l. Usiz asosga yetish murakkab bo‘ladi.

“Poetik janr va shakllardagi izlanishlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, badiiy-estetik ma’noni ifodalash usullari, yo‘llarining shunchalik kengligini shoirlarimiz salohiyatining daraja miqyoslarini ko‘rsatadi. Zero, janr va shakliy izlanishlar badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy mazmunni berish barobarida, iste’dodning imkoniyatlarini ham ko‘rsatadi”. [3;97].

Yuqorida o‘zbek bolalar adabiyotidagi so‘nggi davrdagi shakliy izlanishlar shoir Abdurahmon Akbar ijodi misolida ko‘rib chiqildi. Albatta, bu kabi asarlarni bolalar adabiyotida ko‘plab uchratish mumkin. Va bugungi kunda o‘zbek bolalar she’riyatida shunday bir zarurat borki, u o‘zida shaklni ham, mazmunni ham jo etgan holda yangi adabiyot yasay olishi va bolalar uchun ularning ehtiyojini chin ma’noda qondiradigan, ularni to‘yintiradigan bo‘lishi kerak.

Yozish oddiy hodisa emas. To‘g‘ri yozuvchilikni anchayin kishilar ham uddalashi mumkin. Ammo so‘z san’atini yaratish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ijod, ijodkorlik haqidagi qarashlar o‘zining tugal ta’rifiga ega bo‘lgan emas. Zotan, mavjud qoliplardan o‘tilgandagina haqiqiy san’at asari yaratiladi [3;89].

Mazkur mavjud qoliplar goh shaklda, goh mazmunda ko‘zga tashlanadi. Shu davrgacha bo‘lgan o‘zbek bolalar adabiyoti yoxud bolalar uchun yaratilgan asarlarda mazmuniy tadrijiylik bo‘lgan, albatta. Undagi mazmun evrilishlari zamon silsilasida yaqqol ko‘zga tashlandi. Ba’zan obrazlardagi, ba’zan bosh g‘oyadagi o‘zgarishlar bilan ma’lum ma’noda o‘zbek bolalar shoirlari va yozuvchilar yangilik qildilar. O‘zbek mumtoz adabiyotida Navoiy “Xamsa” siga kiritilgan ayrim hikoyatlar, xususan, “Hayrat ul-abror”dagi maqolatlarga ilova qilingan hikoyatlar bugungi kunda bolalar uchun moslangan holatda ham kitobcha shaklida chop etilgan. Qolaversa, maktab o‘quvchilarining 5-sinflari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsliklarida ham Hazrat Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan “Rostlik bobida” maqolatiga ilova qilingan “Sher bilan durroj” hikoyati ham so‘zimizga isbot bo‘la oladi. Mumtoz adabiyotda bolalar uchun mo‘ljallangan deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan asarlarda yaqqol ko‘zga tashlangan mavzu bu – didaktika. Mazkur asarlar orqali insoniyatni tarbiyalash, unga nasihat qilish, to‘g‘ri yo‘lga boshlash ko‘zda tutilgan. Ularning aksariyatida inson real hayotda qanday ekani emas, balki inson aslida qanday bo‘lishi kerakligi haqida pand-nasihatlar, ibratli hikoyatlarni uchratishimiz mumkin. Shu jihatdan mazkur davrda yaratilgan asarlarga pandnoma ruhida deb sifat berish o‘rinli. Yuqoridagi “Sher bilan durroj” hikoyatida ham to‘g‘rilik, rost so‘zlash kerakligi uqtiriladi. Bu an’ana, ya’ni bolalar adabiyotining didaktik xususiyati haligacha saqlanib qolgan. Bugungi kunda ham tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan asarlar salmog‘i bolalar adabiyotida yetakchilik qilib kelmoqda.

“She’r bilan durroj” hikoyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu yerda ko‘zga tashlanadigan yana bir narsa borki, mazkur xususiyat mazmunning bir ko‘rinishi sifatida akslanadi. Ya’ni obrazlar tizimi. “She’rning poyetik o‘ziga xosligini ta’minlaydigan yetakchi badiiy vosita bu – obrazdir. Shu bois chinakam iste’dod egasi yorqin va betakror obrazlar yaratishga alohida diqqat qaratadi. She’riyatdagi mavjud obrazlarga yangicha badiiy libos kiydiradi, uni ohorli mazmun bilan boyitadi. Har bir davr o‘z xususiyatlaridan kelib

chiqib, adabiyot oldiga, she'riyat oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yadi. Bu esa, poetik tafakkurda evrilishlarni yuzaga keltiradi. Bu maqbul hodisadir" [3;67].

Hikoyatdagi obrazlarni bugungi kun asarlarida uchraydigan obrazlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ularda o'xshashliklar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, majoz orqali insonlardagi xarakterlarni turli jonivorlarga ko'chirish o'sha davrlarda ham bo'lgan bo'lsa, hozirda ham bunday xususiyatli asarlar minglab topiladi. Demakki, o'sha davrlarda insonlarda didaktikaga ehtiyoj bo'lgan. Ularga tarbiya beruvchi, turli qing'ir yo'llarga kirib ketishlarining oldini olishga qaratilgan asarlar yaratish bashar va zamon ehtiyoji bo'lgan va shu ehtiyoj o'laroq ular maydonga kelgan. "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" kabi bir qancha asarlarning ham aynan shu xarakterda ekani so'zimizning dalili bo'ladi. Bu davr adabiyotidagi o'ziga xosliklardan yana biri ularning islom bilan oziqlantirilganidir. Barcha asarlarda tarbiya diniy ko'rinishga ega bo'lgan, aslida tarbiya so'zi ham bevosita din bilan bog'liq ekanini inobatga olsak, mazkur yo'nalish eng to'g'ri hisoblangan. Badiiy asarlar orqali yozuvchi, shoirlar islom ahkomlari, u buyurgan amallar bilan xalqni tanishtira boshlagan. Asarlar hamd va na't qismlari bilan boshlangan va ulardan keyingi boblar ham islom haqida bo'lgan. Bir tomondan, bu ham davr talabi, u adabiyot oldiga qo'ygan vazifalardan biri edi. "Adabiyot atomdan kuchli" degan edi Abdulla Qahhor. Va adib ushbu fikrlari bilan u qanday vazifalarni bajara olishiga ishora qilgan.

Navoiy zamonidan to'jadic adabiyotigacha bo'lgan davrda yuqorida tilga olingan didaktik xarakter umumiy mavzu ko'lamida yetakchilik qilib kelgan. Jadid adabiyotida ham didaktik xarakterli asarlar yozilmadi, deyish mutlaq xato bo'ladiki, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot" degan chaqiriqlar ayni shu davrda yuzaga chiqdi. Bu davrda ko'zga tashlangan asosiy xususiyat ma'rifiy mavzudagi asarlar yaratilishi bo'ldi. Jadidlar endi bolalarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularga ta'lim berish ham hayotiy zarurat ekanini qayd etdilar. Ular nafaqat badiiy adabiyot orqali, balki darsliklar yaratish, o'quv kitoblari nashr qilish bilan maqsadlari sari intildilar. Behbudiyning "Kitob ul-atfol" (Bolalar uchun yozuv kitobi), Abdurauf Fitratning "O'quv", "Ona tili" darslik kitoblari shular jumlasidandir. Millatni ma'rifatli qilishga bo'lgan harakatlar ham o'sha davrlar uchun ulkan zarurat ediki, o'sha davrda millatning ziyolilari ko'paymasligiga qaratilgan tadbirlarga qarata bu bir isyon edi. Va buning boshida ham adabiyotchilar, ziyolilar turgani bejiz emas. Ayollarning ma'rifatli bo'lishiga qaratilgan ishlarning barchasi adabiyotda, she'riyatda, nasrda aks etdi. Bolalar uchun yaratilgan o'quv kitoblari bir vaqtning o'zida onalar uchun ham edi. Chunki millat onalari ta'lim ko'rmagan edi o'sha davrlarda. Umuman olganda, ma'rifatparvarlik davri adabiyoti adabiyotdagi yangilanish, izlanish, haqiqatga qaratilgan g'oyalar jamlanmasi edi. Bugungi bolalar adabiyoti voris sifatida ham didaktik, ham ma'rifiy an'analarni davom ettirib kelmoqda. O'sha davrlarda bolalar uchun yaratilgan asarlar asosan ta'limiy xarakter kasb etib, bolalarni o'qitish, ularni savodli qilishga qaratilgan edi. Millat ziyolilari o'z oldiga millatning ziyoli bo'lishini maqsad qilib qo'yganlar va bu yo'lda ularga adabiyot, ta'lim, matbuot qo'shqanot bo'lib xizmat qilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" asarida ham bosh g'oya aynan o'qimagan, ma'rifatdan bebahra odamning holati hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur Turkiston musibatidan olingan ibratnamo uch parda, to'rt manzarali fojiada farzandi ta'limiga e'tiborsiz bo'lgan ota-ona holatiga ham baho berilib, ularning oqibatlariga ko'zgu tutiladi. Zero, fojiada domla tilidan aytilgan quyidagi so'zlar aslida muallifning o'kinchi, isyoni, xalqiga qaratilgan da'vati edi: «Ajoyib, sababi nadurki, o'qutmaysiz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ham ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur; O'qumoq barcha musulmong'a, erkak va yo xotun bo'lsun, farz endi» [5;19]. Garchi mazkur asarlar bolalar adabiyotining namunalari hisoblanmasa-da, jadid adabiyoti namoyandalari yaratgan darsliklar, ularning xalq uchun yozgan boshqa asarlarida ma'rifatparvarlik ruhi yetakchilik qiladi.

Keyingi davrlarda bolalar adabiyotida ham ijtimoiy masalalar bo'y ko'rsatdi. Xususan, mustaqillikka erishishga bo'lgan intilish sobiq ittifoq davri adabiyoti namunalarining yetakchi xususiyati hisoblandi. Bu davrda ayniqsa, o'z so'zini to'g'ridan to'g'ri kattalar adabiyotida yetkazib berishga qiynalgan ijodkorlar bolalar adabiyotidan foydalandilar. Umuman olganda, mazkur ketma-ketlikda xususiylashishni

ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bolalar uchun yaratilgan asarlarda dastlab umumiy mavzular qamrab olingan bo‘lsa, ular asta-sekinlik bilan xususiylashib borgan. Islomga yo‘g‘rilgan didaktik xarakterdagi asarlardan ma’rifatparvarlik ruhida asarlarga, ulardan ijtimoiy yuk ortilgan asarlarga o‘tildi. Xususiylashish haqida gap borar ekan, asarlarning ijtimoiylashuvida ham ma’lum xususiylashish jarayoni mavjudki, uni shaxsiylashish deb ataydilar. Ya’ni davr ijtimoiy muammolari inson sari borib uning shaxsiy dardiga aylanish jarayoni nazarda tutiladi. Adabiyotshunoslikda “Adabiyot ijtimoiy bo‘lishi kerakmi yoki u ko‘ngil ishimi?” degan savol ancha muhokamali hisoblanadi. Bu borada har davr adabiyotshunoslari o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirib, goh u, goh bu tomonni yoqlab keladilar. Lekin har narsada me’yor bo‘lgani kabi adabiyot tarozining ikki pallasini muvozanatda tutib turishi kerak bo‘ladi: ham ko‘ngil kechinmalari, ham davrning ijtimoiy muammolari qalamga olinishi kerak bo‘ladi. Bu Ozod Sharofiddinovning “Cho‘lponni anglash” maqolasida aytilganidek, adabiyotni yangi tuzumning maddohiga aylantirish, uni siyosatning mute bir oqsochi qilish [5;19]. emas. Albatta, yuqoridagi jumlar tamoman boshqa vaziyatda aytilgani ayon. Ya’ni adabiyotni butunlay ijtimoiylikning xizmatkoriga aylantirmay turib, undan ijtimoiy muammolarga qarshi kurashishda vosita sifatida foydalanish mumkin. Bunda ijodkordan yuksak mahorat talab etiladi. U ijtimoiy muammolarni o‘z qiyinchiliklari sifatida baholashi, o‘z dardi sifatida qabul qilishi kerak. «Albatta, chinakamiga shaxsiylanish uchun ijtimoiy dard qalb qozonida obdan qaynashi kerakki, olovining taftidan shoirning yurak-bag‘ri jizg‘anak bo‘lishi tayin. Faqat buning uchun ulkan haroratli qalb, beqiyos ijodiy matonat, bir so‘z bilan aytganda, chinakam san’atkorlik iste’dodi taqozo qilinadi. Ayon bo‘lyaptiki, ijtimoiy dardning tom ma’nodagi shaxsiylanishi hamma ijodkorlikda yoki bir ijodkorning barcha asarlarida birdek kuzatilishi mumkin emas. Qiyomiga yetmagan ijtimoiy ijtimoiy dard aks etgan asar esa shoir, dasturilamal, tashviq yo chaqiriq, xullas, har ne bo‘lishi mumkin-u, badiiyatdan yiroq tushadi» [4;48]. O‘zbek bolalar she’riyatida ham xuddi shu sifatlarni o‘zida jamlagan asarlar bilan barobar turli ijtimoiy mavzular qiyomiga yetgan, ijodkor qalbida shaxsiylashib ulgurgan muammolarni ask ettirgan asarlar ham vujudga keldi. Bu asarlar bilan adabiyot davr jihatdan oldiga qo‘ygan vazifalarni bajara oldi. Ijtimoiy mavzular ham ko‘lami jihatdan keng yoki tor ma’no kasb etishi mumkin. Ijtimoiy muammo birdan ko‘zga tashlanmasligi asarning ichki va tashqi ma’no kasb etishini anglatadi. Bunday asarlarga yuqorida ko‘pqatlamli deya baho berilib, ularning umumadabiyot mulki ekani aytiladi. Masalan, shoir Xudoyberdi Komilovning “Yong‘oqning shikoyati” nomli she’ri sakkiz misradan iborat:

Kinga aytay
Fig‘onim,
Kinga aytayin
Ohim?
Kaltakladi
Bog‘bonim
Kaltak —
O‘zimning shoxim.

Oddiy hayotiy haqiqat – yong‘oqpishgandan so‘ng kaltak-tayoq bilan qoqadilar. She’rdakaltaklangan yong‘oq daraxtining arzi-nolasi keltirilgan ekan, uning asosiy dard-shikoyati kaltaklanganidagina emas, balki u kaltak o‘z shoxi novdasidan yasalganida. O‘zida unib-o‘sib, kamol topgan shox-novda endi go‘yo dushmanga aylanib, bog‘bon qo‘lidagi kaltak holida o‘z ona daraxtiga zarba bo‘lib tegmoqda. Kichik she’rda katta bir falsafiy ma’no-fikr mujassamki, kaltak – o‘z tug‘ilgan yeri, Vataniga xiyonat qiluvchi kimsalarning umumlashma obrazidir [1;31].

Ijtimoiy hamda intim lirika tahlilida bir she’rni tamoman intim, yoki aksincha, tamoman ijtimoiy deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bir she’rda har ikki ma’no yuzaga chiqishi mumkin, masalan, mazkur she’rda ham ikki ma’noni ham anglash mumkin. Intim lirik kechinmalar o‘laroq she’rda insonning ba’zan o‘z yaqinlaridan, o‘z do‘stlaridan olgan zarbalari nazarda tutilmoqda deb tushunish ham mumkin, albatta. Hayotiy haqiqat shuki, insonga o‘z yaqinlari – o‘z shoxlaridan ham ozor yetadi va yuqoridagi she’r kitobxon vaziyati, kechinmalari tahlilidan kelib chiqib shunday talqin qilinsa ham

bo'ladi. Buni she'rning tashqi ma'nosi deb atash o'rinli sanaladi. Va bu ham bevosita ijtimoiylashuv bilan bog'liq ekani yuqoridagi intim va ijtimoiy lirikani bir-biridan ayro tasavvur qilish mumkin emasligiga isbot bo'ladi. Bundan tashqari, holat ham to'g'ri tanlanganki, badiiy mantiq, ya'ni o'z novdasidan yasalgan kaltak bilan daraxtning savalanishi hayotiq mantiqni rad etmagan, uni to'ldirgan va bu shoir tomonidan badiiylashtirilgan. Asarda e'tiborni tortuvchi yana bir tagma'no bor. Daraxt qachon kaltaklanadi? Albatta, uning mevasi pishib yetilgandan so'ng uning mevalari kaltak bilan qoqib olinadi. Shunday ekan, shoir yana bir narsaga ishora qilmoqda: mevali daraxtga tosh otadilar va yakuniy xulosada unga otilgan toshlar o'zidan ekanligi, o'z tanasidan ekanligi yanada ayanchli bo'lganini ko'rish mumkin. Bu bilan shoir mevali daraxtga tosh otiladi, degan ma'noni ham yashirin berib ketganki, u kitobxon dunyoqarashi, uning badiiy quvvati bilan tahlil qilinganda oydinlashadi. She'r qisqa, tasvir tugal, obrazlar nihoyatda teran ma'no kasb eta olgan. Bugungi bolalar adabiyoti ham aynan shu kabi she'rlarga ehtiyoj sezmoqda. Xudoyberdi Komilov, qolaversa, shoir zamondosh bo'lgan qator ijodkorlar ijodida shu kabi ijtimoiy muammolar aks etgan pishiq asarlarni uchratishimiz mumkin. Albatta, bu davrda faqat ijtimoiy mavzudagi asarlar yaratilgan degan xulosadan yiroqmiz. Didaktik, ma'rifiy, sof yumoristik va boshqa turfa xarakterdagi she'rlar ham yaratilgan, ammo mazkur yo'nalishdagi asarlar yetakchi o'rinni egallab kelganini e'tirof etish mumkin.

Binobarin, shakliy va mazmuniy izlanishlar bir-birini to'ldirib borgan. Yillar davomida shakl va mazmun yangilanishlari sayqallanib, davr va bashariyat ehtiyoji o'laroq yangi ma'no kasb etib bordi. Bugun ham tom ma'noda bolalar adabiyoti yangilanishga ehtiyoj sezmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adashboyev T., Rajabov D. Satrlardan taralgan mehr. – T.: Turon zamon ziyo, 2017. – B. 146.
2. Hamroyev K. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida kompozisiya. – T.: Muharrir, 2012. – B. 79.
3. Ozod Vatan saodati. 1-jild. She'riyat. – T., Adib nashriyoti, 2013. – B. 407.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018. – B. 269.
5. Sharofiddinov O., Cho'lponni anglash. – Toshkent: "Yozuvchi", 1994. – B. 48.
6. To'xlijev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning III bosqich o'quvchilari uchun darslik. – T.: Bayoz, 2015. – B. 688.

KAVSAR TURDIYEVA IJODIGA CHIZGILAR

Xurshida Xamrakulova,

filologiya fanlari doktori,

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotining namoyandasi shoira Kavsar Turdiyeva ijodi haqida fikr yuritilgan. Shoiraning turli mavzudagi she'rlari tahlil qilingan. Ijodkorning Vatan, tabiat bodisalariga bag'ishlangan asarlarida shoira mahorati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, bolalar folklori, poetik mahorat, Vatan madhi, mahalla, bolalik, qo'shiq, ssenariy, hikoya, she'r*

Ona Vatan haqida yozish, uni kuylash, undan hayratlanish uchun ijodkor muvozanatdan chiqqan olishi lozim. Shundagina tug'ilgan fikrlar o'z-o'zidan she'r bo'lib quyiladi. Kavsar Turdiyeva ijodida Vatan mavzusi alohida o'rin tutgan. U Vatanning har bir go'shasi, puchmog'i, har bir zarrasida ulkan olamni kashf eta oladi. Vatanni anglash uchun qadriyatlarga quloq tutish lozim. Zero, Vatan o'zining qadriyatlari bilan bir butun. Shoira Kavsar Turdiyeva ijodida Vatan mavzusi juda keng. Bu tushuncha har bir ko'cha va mahallada, oila va uning qadriyatlarida rangin tus oladi. U so'zni ham o'ynatib, ham

o‘ylatib ishlatadi. Shu asnoda kitobxonni fikrlashga undaydi. Toshkent ko‘chalarga bag‘ishlangan turkum she‘rlarda tasvirdagi injalik, har bir detalning tashbehlar bilan sayqallanishi she‘rga go‘zallik bag‘ishlaydi. Turkum **“Kimga quyosh, kimga oy, Toshkent ko‘chalarga boy”** degan umumiy nom ostida birlashgan. Unda poytaxtning qirq oltita ko‘chasi o‘zini ta‘riflab beradi. Har bir ko‘cha o‘zining muxtasar va mukammal ta‘rifiga ega:

Noming ne desa har on,
Deyman Temur Ko‘ragon.
O‘ylab ko‘ring-chi picha,
Sarkarda o‘tgan necha?
Ammo kimga qay zamon
Tan bergan butun jahon.
Jahonni qilgan hayron –
Bobomiz Sohibqiron.
Ruhi kezar yurt bo‘ylab,
Najotkor so‘zin so‘ylab.
Ko‘chamda bordir haykal,
Shaharga bergan sayqal. (**“Amir Temur ko‘chasi”**)

Kavsar Turdiyeva bolaning tabiatini yaxshi biladigan sinchi shoirlardan. U so‘zlarni chertib ishlatadi, shuning uchun ohang bo‘lib quloqqa yoqimli eshitiladi. Qisqa satrlardagi quyma fikrlar bola xotirasida uzoq vaqt qoladi.

Dono va buyuk bobom,
Jahonga suyuk bobom.
Nomi el ardog‘ida,
Go‘zal nazm bog‘ida.
Yaratgan ajib doston,
Va “Xamsa” beshta doston.
Merosi nechuk ulkan,
Anglar o‘qigan, bilgan. (**“Alisher Navoiy ko‘chasi”**)

Har bir ko‘cha o‘zining muhim jihatiga ishora qiladi. *“Tinchlik mening ko‘rkimdir, poydevorim – erkimdir”* (“Mustaqillik ko‘chasi”), *“Ko‘chamda bordir haykal, Shaharga bergan sayqal”* (“Amir Temur ko‘chasi”), *“Menda sira so‘lmas gullar, Qushlar yayrar chamanda. Qizlar esa qo‘g‘irchog‘in Ismin qo‘yar Samanta”* (“Tinchlik ko‘chasi”), *“Bizda barcha kuylaydi, Va kuy haqda o‘ylaydi, So‘z qo‘shiqdek jaranglar, Va musiqa taralar”* (“Bastakor ko‘chasi”), *“Kim tezroq tandir yoqar, kim chaqqon poshna qoqar, Oshpaz, etikdo‘z, chevar, O‘ynashar musobaqa”* (“Musobaqa ko‘chasi”), *“Deyman har bir insonga, Kelib keting mehmonga. Qulfsiz eshik darvoza, ko‘nglimiz ochiq rosa”* (Mehmondo‘st ko‘chasi”), *“Vatani – bizning ko‘cha, Shiftlarga qurar uycha. Har kuni uchib kelar, Bahordan xabar berar”* (“Qaldirg‘och ko‘chasi”), *“Chaqaloq kirgach yo‘lga, Farzinni olib qo‘lga, So‘ngra esa minib ot, Deydi: “Shohni qildim mot”* (“Shahmat ko‘chasi”), *“Hamma ko‘chalar soz-u, Ammo eng zo‘ri “Orzu”. Bizga keldingmi demak, Ayt biror orzu-tilak”* (Orzu ko‘chasi), *“Kelsin desangiz omad, Bo‘ling doim salomat. Sog‘lik eng katta boylik, Ko‘cham shundan chiroyli”* (“Salomat ko‘chasi”). Bu ko‘chalarning juda ko‘pi hozirda shu nomlar bilan ifoda etiladi. Shoir har bir ko‘chaning nomlanishidan shu ko‘chaga mos fazilatni topa oladi. Ayni damda bu fazilatlar har bir insonda bo‘lishi orzu qilinadi:

Sehrgar tushib pastga,
Nimadir dedi asta.
O‘shandan buyon doim,
Mening nomim muloyim.
Bizda tuzilgan lug‘at,
Eng yaxshi so‘zdan faqat.

Salom, hormang, tasanno,
Kechirasiz marhabo.
Bizda yomon so'zlashmas,
Hatto yomon o'ylashmas,
Odamlarning yuzidan,
Tabassum hech arimas,
Qarilar ming yil yashar,
Yoshlar esa qarimas. (**"Muloyimlik ko'chasi"**).

Bolalar uchun ijod qilish jo'n bir hodisa emasligini Kavsar Turdiyeva butun bir ijodi davomida isbotlab berdi. Kavsar Turdiyeva ijodida mahalla mavzusi alohida o'rin tutadi. Shoiraning "Obod mahallam bo'ylab", "Mahalla imorat", "Mahalla – ota-ona", "Mahallaga qaytgach" she'rlarida mahallaga bo'lgan muhabbat yarq etib ko'zga tashlanadi. "*Mahallam ajib ko'rkam, U ham bir kichik o'lkam*" deb yozsa, bir o'rinda "*Mahalla – imorat*", "*Mahalla ota-ona*" deb ta'riflanadi. Mahalla ta'rifi uchun alohida turkum she'rlar yaratgan shoira nazarida mahalla vatanning beshigi, qadriyat o'laroq baland pardada kuylanadi.

Badiiy asarning qisqaligi, sodda va tushunarli tilda yozilishi bolalar adabiyotining muhim belgilaridan hisoblanadi. "Mahallamizda hashar" she'rida hasharning mohiyati to'rt qatorda ifoda etiladi, hashar nima degan savolga qahramonlarning bajaradigan vazifalari javob bo'lib keladi: Ya'ni she'rga yuklangan didaktik g'oya quruq axborot yo'sinida emas, obrazlar yordamida o'quvchiga yetkaziladi:

Mahallamizda hashar,
Akamga dedi: Bashar.
Men g'ingshidim Basharga
Men ham boray hasharga.
U der: – Sanjar qilar loy,
G'isht quyadi Olimtoy,
Loy uzatadi Abror,
Shamshod ko'tarar devor,
– Berayin qanday ishni
– Menga – jim o'tirishni. (**"Mahallamizda hashar"**)

Mahalla Kavsar Turdiyeva hayoti va ijodida alohida qadriyat tusini olgan. Shu sababli mahallaning har bir qismi uning ijodida aks etgan. Mahallaga bag'ishlangan turkum she'rlari "*Mahalla go'zal, ko'rkam, u ham bir kichik o'lkam*" nomi ostida berilgan bo'lib, o'n sakkizta she'r joy olgan. Turkumda "Qandolatchilar do'koni", "Gulchilar rastasi", "Novvoylar mavzesi", "Zargarlar guzari", "Chevarlar uyi" kabi kasb-hunar egalari o'rinlashgan joylar, "Sartarosh qo'shig'i", "Etikdo'z qo'shig'i", "G'aroyib fermer qo'shig'i", "Duradgor qo'shig'i", "Temirchi qo'shig'i" kabi turli kasb egalari haqidagi, "Mening soqqam", "Ko'zboylog'ich", "Bekinmachoq", "Quvlashmachoq" kabi o'yin turlariga bag'ishlangan she'rlar berilgan. Shoira ajib bir zakiylik bilan har bir narsa va va shaxsda mahallaa xos qadriyatlar ustuvorligini ta'kidlaydiki, bu undagi badiiy mahoratining yuksakligini ko'rsatadi.

Kavsar Turdiyeva ijodida tabiat mavzusi salmoqli o'rin egallaydi. Unda yurtimiz tabiatining xilma-xil tasviri, bor ne'matlari, fasllar tarovati, oylar zarofati-yu, dorivor giyohlar sharofatigacha qalamga olingan. Shoira o'zi ta'kidlaganidek, "tabiat – zo'r muallim". "Oymomamiz ochildi, o'n ikki oy sochildi" mavzusiga birlashgan har bir oy ixcham tavsifi bilan ko'ngilga o'rnashib qoladi. Bu she'rlar bog'cha bolalari va birinchi sinf o'quvchilari uchun juda mos. Shuning uchunki, she'rlar to'rt va besh bo'g'inli, bir turoqli, aksari o'zaro qofiyalangan misrali, har bir oyning sifati kichik lavhaga joylashtirilgan ixcham satrlardan iborat:

Yanvar oyi,
Qorga boyi.
Yil ertasi
Qish o'rtasi.
Chang'i, chana,

Nima yana?
Sovuq shamol,
Uyingga bor. (*“Yanvar”*)

Kavsar Turdiyeva qisqa lavhalardan katta umumlashma mazmun chiqar oladigan ijodkor. Qorga boy bo‘lish, yilning o‘rtasi ekanligi, chana, chang‘i, shamol kabi muhim detallar bilan yanvar obrazini mukammal aks ettira olgan.

Tarnovda chak-chak,
Erir sumalak.
Vaqtim o‘tdi deb,
Qish joni halak.
Bahor o‘t yoqar,
Eshikni qoqar.
Qarg‘a qor-qorlar,
Bu so‘nggi qorlar. (*“Fevral”*)

She‘r shunchaki ma‘lumotlar yig‘indisiga aylanib qolishi kerak emas. Shoir har bir obrazga ma‘lum vazifa yuklaydi, pirovardida obraz – manzara o‘zini namoyon etadi. Zarur o‘rinda tilga kiradi. “Vaqtim o‘tdi” deb “qishning joni halak” bo‘lishi-yu, bahorning “o‘t yoqib” eshikni qoqishigacha barchasi tabiiy. Bolalar adabiyotida xos muhim jihatlardan yana biri shuki, tasvirga tortilgan obyekt – holat, narsa, manzara bolaga tanish bo‘lmasa, asar qimmatini yo‘qotadi. Chunki bola ko‘rgan narsasidan xulosa chiqaradi. Shu ma‘noda tarnovdagi sumalakning chak-chak erishi, qarg‘aning qor-qorlashigacha bolaning tasavvurida qayta jonlanadi, obrazli tafakkurga yo‘l ochadi.

Derazangni art,
Yana keldi mart,
Sumalak yesang,
Ariydi ming dard,
Bahordan darak,
Uchadi varrak,
Nishonlar bayram,
Navro‘z va onam. (*“Mart”*)

Odatda, qish faslida derazalarga kelyonka tutiladi. Bahor kelishi bilan boshlanadigan yumushlardan biri ana shu kelyonkani olib tashlashdan boshlanadi. Demak, qish ichi “zanglagan ko‘ngillar” (Cho‘lpon) derazalarni artish bilan tozalanadi. Sakkiz qatorlik misralarda bir qator ochqich so‘zlardan foydalanadiki, bola sumalak ming dardga davo ekanligi, mart oyi bahordan darak berishi, varrak uchirish mahali boshlangani, Navro‘z va onalar bayrami shu oyga taalluqli ekanligi haqida ma‘lumotlar ham oladi. Shu tariqa o‘quvchi aprel oyi dalaning yashnashi, lola mavsumi, ekin mahali ekani, may oyi pilla terish mavsumi ekanligi, iyunda olcha, gilos, o‘rik kabi mevalarning pishib yetilishi, iyul oyida “qaynar tuproq, kuyar oyoq” bo‘lishi haqidagi faslning xususiyatini aks ettiruvchi lavha, avgustdagi “qovun sayli”, mustaqillik bayrami va maktabning boshlanishi bilan ta‘tilning tamom bo‘lganini anglatuvchi sentyabr oyi, hosil bayramiga ega oktyabr, hirmonlarning rostlanishi va qirovli kunlarning boshlanishidan darak bergan noyabr oyi, Qorbobo va Qor qizning sovg‘a olib kelishi bilan yilga yakun yasovchi dekabr haqidagi hayotiy va jonli lavhalar bolaning ko‘z oldida jonlanadi, ongda muhrlanadi.

Bu kabi jonli tafsilotlar va tashbehlarga boyligi jihatidan shoiraning yil fasllariga bag‘ishlangan she‘rlari alohida ajralib turadi:

Oppoq hamma yoq,
Oyna oq bo‘yoq.
Sovuq qilan ish.
Qay fasl bu? Qish! (*“Qish”*)

Qishda oynaning muzlashi bilan oq bo‘yoqda manzara hosil qilishini anglatuvchi “Oyna oq bo‘yoq” tasvirida mazmunning boyligi va ifodaning bo‘rtiqligini kuzatish mumkin. Qish manzarasiga

xos “Bo’g’otda qator, Sumalaklar bor. Qayragandek tish” misrasi qishning ayovsizligini, “Yo’llar yaxmalak, Yurish jonsarak, O’tish ham tashvish” misralarida kishilar holatini, “Qizarar yuzlar, Qo’l-oyoq muzlar, Urilgandek nish” kabi sovuqning shiddatini aks ettirishga xizmat qilgan lavhalarda butun bir fasl borligicha namoyon bo’lgan. Agar rassom rang bilan tasvir yaratsa, Kavsar Turdiyeva so’zni jilolantirib manzara hosil qiladi. Bu manzaralar tasvirni ichdan nurlantirgani bilan go’zallikka oshno qiladi. Natijada, o’quvchi shoira chizgan lavhalarda keza boshlaydi, uni butun vujudi bilan his qiladi. Buni shoiraning “**Kuz**”, “**Yoz**”, “**Bahor**” kabi she’rlarida ham kuzatish mumkin:

Jonlanar tuproq,
Kurtaklar uyg’oq,
Toshadi anhor,
Qay fasl? Bahor!
Nozlanar g’uncha,
Har ochilguncha
Qalbi beg’ubor
Qay fasl? Bahor!
Ko’rgancha tushlar
Qaytadi qushlar
Turnalar qator
Qay fasl? Bahor!

“Qay fasl?” – deb berilgan so’roq she’r bandlarida bot-bot takrorlanib, “Qish”, “Kuz”, “Yoz”, “Bahor” degan javob so’zlari bilan bir butun kompozitsiya hosil qiladi. Tuproqning jonlanishi, kurtaklarning uyg’onishi, g’unchaning nozlanishi, izlarning chopgancha yalpizni izlashi, boychechakning dutor chalgandek o’ynashi “Qay fasl?” – deb berilgan so’roqga “Bahor!” – degan javobni asoslaydi. She’r misralarining besh bo’g’inli qisqa satrlarda yozilishi esa o’qish ritmini kuchaytiradi.

To’rt faslda ona yurt tabiati boricha bo’y ko’rsatadi. Badiiy tasvir lavhaga, undan o’quvchi qalbiga muhrlanadi. Takroriy so’zlar bandlardagi mazmunni ta’kidlashga xizmat qiladi. Pirovardida, o’quvchi go’zallikka oshno bo’ladi, she’rning quyma misralari xotirasiga joylanadi:

Chopgancha izlar
Yalpizni izlar.
Ismaloq ham bor
Qay fasl? Bahor!
Pishar sumalak,
O’ynar boychechak.
Chalgandek dutor,
Qay fasl? Bahor!
Go’yo to’lin oy,
Bayramlarga boy
Shodligi bisyor,
Qay fasl? Bahor!

Kavsar Turdiyevaning tabiat ne’matlariga bag’ishlagan bir turkum she’rlari “*Salom, dala-tog’lardan, Dorivor giyohlardan*” deb nomlanadi. Bu turkumda qirqqa yaqin dorivor giyohlarning nomi uchraydi. Albatta, ijodkorning uzoq yillik mehnat faoliyati shifokorlar orasida kechayotganini inobatga olsak, kasbiy sinchilik va badiiy nafosat uyg’unligi mana shu she’rlarida ham qirralarini namoyon qilgan.

Termasin-ey bedana,
Kerak bo’lar sedana.
Tish og’rig’in bosishga,
Ko’z og’rig’in yozishga.
Tinchlantirib asabni,
Yo’qotishda g’azabni. (“*Sedana*”)

– Tog‘da o‘sgan ravochman,
Asli ikki qulochman.
Har tomonga yozdirib,
Qo‘ysang toshga bostirib,
Qarsillatib yeysan-a,
“Ishtaham zo‘r!” – deysan-a. (**“Ravoch”**)

Shoira har bir giyohni ta’riflar ekan, ularning tuzilishi, foydali xususiyatlari, turli nomlarda atalishi, qo‘llash usullarigacha bayon etadi. Bu o‘rinlarda ijodkorning tibbiyot ilmidan ham boxabarligi, o‘simliklarning biologik xususiyatlarini nozik o‘rgangani ayon bo‘ladi. O‘rni bilan giyoh va mevalar o‘zlarini ta’riflaydi, zarur o‘rinlarda kitobxonga maslahat ham beradi. “*Meni yo‘qlab kebturing, mevalarim yeb turing*” (“Do‘lana”), “*Bargimni ter, cho‘chima, Undan qochar qichima*” (Chilonjiyda), “*Boshing og‘risa sening. Shakarga solgin meni. To‘yib ye shu tolgondan, Hech qolmaysan armonda*” (Kashnich), “*Bo‘lay desang doim sog‘, Ko‘p-ko‘p yegin sarimsoq. Qaynatmada qaynatgin, Dimlamada yayratgin, qovurib ko‘r tuzini, so‘ngra yegin o‘zini*” (“Sarimsoq”), “*Ajoyib o‘t sano bor, Shifosida ma‘no bor, Qotib qolsa ichingiz, Uni damlab ichingiz*” (“Sano”), “*Taning darmonga chanqoq Bo‘lsa yegin ismaloq. Og‘risa jigar, taloq Yana yegin ismaloq, Bo‘lsa kamqonlik charchoq Yeyavergin ismaloq*” (“Ismaloq”) kabi foydali maslahatlar borki, u kattalarni ham befarq qoldirmaydi. Ayrim giyohlar o‘zlarining turli nomlarini ham sifatlashni esdan chiqarmaydi:

– Nomimni derlar mavrak,
Zig‘irak, goh marmarak.
Sertuk yarim butaman,
Davolay deb kutaman. (**“Mavrak”**)
Ko‘pdir nomim va turim
Bitta otim zubtutum,
Bir nomim – baqayaproq,
Baqamas, o‘tman biroq.
Aybim senga, nomi ko‘p:
Yana biri bargizub.
Darmonlarim oshlovchi,
Tuzatishga boshlovchi.
Yaralarni pishirgum,
Yorib darrov tushirgum. (**“Zubtutum”**)

She‘rlar tahlil shuni ko‘rsatadiki, muallif mumtoz ilmiy she‘riyatimiz an‘analarini bolalar adabiyoti misolida davom ettirayotir. Ayni vaqtda bolalar she‘riyatiga ilmiy yondashuv, turli uslub va mavzular, ifodalar misolida alohida bosqichga ko‘tarilayotir. Bolalar adabiyotiga tibbiy yondashuv shoiraaning 2022-yilda bolalarning sevimli jurnali “Gulxan”da chop etilgan “Mikrob, Virus va Salomat qiz haqida ertak”ida mavjud. Ertakni o‘qish jarayonida ertak qahramoni Salomat degan qiz Mikrob va Virusga qarshi kurash boshlaydi. U tabiat ne‘matlaridan foydalanadi.

Qo‘liga to‘rva olar,
Unga solar sarimsoq,
Piyoz, qalampirmunchoq,
Yalpiz va yerqalampir,
Na‘matak va zanjabil,
So‘ng yasab ancha nikob,
“Yuringlar!” deydi shu tob.

Shoira ijodida tabiat va tibbiyot she‘riyati bilan birga yashaydi. Ular o‘zaro bir-birini taqozo qiladi.

Tabiat mavzusi rang-barang, xilma-xil. Kavsar Turdiyevaning “Hayvonot bog‘i” turkumi ana shu rang-baranglikdan oziqlangan. Bolalar she‘riyatida eng ko‘p uchraydigan mavzulardan bir ham hayvonot olami bilan bog‘liq. Turkumda qirqqa yaqin hayvon va qushlarning fe‘l-atvori ochib berilgan. Ular

orasida yengil mutoyiba bilan o'zini fosh qiluvchi obrazlar kitobxonni o'ziga rom qiladi:

Kirib kelib ko'chadan,
Pochtachi der Jo'jaga:
– Tug'ilgan kunga Kalxat
Yuboribdi taklif xat.
– Mayli boraman faqat
Kalxatvoy bersin tilxat.
Qo'pol so'z demaslikka,
Mehmonni yemaslikka. (**“Ehtiyot shart”**)
Mehmon kuzatar So'na:
– Bo'pti, Mushukvoy, jo'na!
Surbet Olapar, xayr,
Tezroq dumingni qayir.
Sen ham xo'roz – qizilpat,
“Tuyog'ingni” shiqillat...
Xullas,
Goh biz tomonga
Kep turinglar mehmonga. (**“Qo'pol mehmon”**)

Kavsar Turdiyeva tabiat hodisalari va tabiatdagi mavjudotlardan obraz yarata oladigan shoira. Bu obrazlar o'z qiyofasini o'zlari namoyon etadi. Ya'ni gap-so'zlari bilan o'zini fosh etadi. Shu tariqa bolaning ko'z oldida yangi xarakter, yangi portret namoyon bo'ladi. Kavsar Turdiyeva bolalar adabiyotining katta vakili. Ilmiy tadqiqotlar olib borishga loyiq salmoqli ijodiy merosga ega ijodkor. Bir-ikki maqolalar yoki dissertatsiyalarda qisman o'rganilganligi uning ijodiyoti haqida to'la tasavvur bermaydi. Shu ma'noda ijodkor poetik olami, asarlari badiiyati, umuman ijodi bo'yicha monografik tadqiqotlar olib zarur. Kavsar Turdiyeva asarlarini bosqichlarga bo'lib o'rganish davr bolalar adabiyoti xususidagi qarashlarni boyitadi, va bu adabiyotni xolis baholash imkoniga ega qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K. Turdiyeva. Dunyoni saqlar bolalar. – T.: “Bekinmachoq-plyus”, 2012.
- 2.K.Turdiyeva. Kasblar. Professions. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016.
- 3.K.Turdiyeva. Sog'inchlar sochilgan bekatda. – T.: Yurist-media markazi. 2011.

MUXAMMAS-QASIDALARDA VAZN VA MAVZU MUTANOSIBLIGI

Shahnoza Raxmonova,

filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq adabiyotida yaratilgan muxammas-qasidalartablilga tortilgan. Ularning vazn xususiyatlari, o'lchov imkoniyatlari, qofiya tizimi o'rganilgan. O'rni bilan adabiyotshuslikdagi fikrlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *aruz, vazn, muxammas-qasida, hazaj bahri, mujtass bahri.*

Qasida arabcha “qasd” so'zidan olingan bo'lib, *maqsad, niyat, intilish* ma'nolarini bildiradi. Bu she'riy janrga mansub asarlar ko'pincha muhim tarixiy voqyealar, tarixiy shaxslar, shohlar madhiga bag'ishlangan bo'lib, xuddi oda kabi tantanovar uslubda yuzaga kelgan [Umurov, 2004:88]. Qasidaning ko'pincha taxallussiz, g'azalga xos qofiya tartibida ekanligi ko'rinadi. Ushbu janr hajm jihatidan chegaralanmagan. “Unda baytlar soni 12 tadan kam bo'lmasligi kerak. Oxirgi chegarasi necha bayt

bo‘lishi haqida klassik adabiyotimizda ham, hozirgi zamon adabiyotshunosligida ham barqaror fikr aytilgan emas” [Nosirov, 1979:129]. Qasidalar mavzusiga ko‘ra vassf, madh, hajv, marsiya, munajat va falsafiy qasidalar bo‘linadi. Turkiy adabiyotidagi ilk qasida “Devonu lug‘otit-turk”da “qo‘nug‘” shaklida uchraydi [Yusupova, 2016:62]. Sharq mumtoz adabiyotida qasidaning mavzu doirasi ancha kengayib, uning poetik belgilari barqaror bo‘lib kelgan.

XIX asrning boshlarida adabiyotshunoslikda muxammas shaklidagi qasidalar vujudga kela boshladi. “XIX asrning boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitida amalga oshirilgan tajribalar natijasida muxammas janrining yangicha ko‘rinishi – muxammas shaklida qasidalar yaratilgan” [Is‘hoqov, 2014:128]. Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida Nusrat hamda Maknunning forsiy tildagi muxammas-qasidalar keltirilgan. Nusrat qalamiga mansub muxammas-qasida 16 banddan, Maknunga tegishli muxammas-qasida esa 27 banddan iborat. Quyida Nusrat qalamiga mansub forsiy tildagi muxammas-qasidaning birinchi bandini keltiramiz:

Bihamdillabki, shud davron mo‘tiyi shohi dinparvar,

V – – –/ V – – –/ V – – –/ V – – –

Bahori zindagoniy yoft rangi tozagi az sar,

V – – –/ V – – –/ V – – –/ V – – –

Kulohi xusraviy dar sar, libosi ofiyat dar bar,

Bisoti komroniyro az o‘shud ravnaqi digar,

Faridun manzalal Bahromkin sultoni bahru bar... [Is‘hoqov, 2014:128]

Ko‘rinadiki, Nusrat qalamiga mansub forsiy tildagi muxammas-qasida hazaj bahrining *bazaji musammani solim* (ruknlari va taqti‘i: *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun* V – – – /V – – – /V – – – /V – – –) vaznida bitilgan. Hazaj musammani solimning asosini qisqa hijodan so‘ng uch cho‘ziq hijo kelishiga asoslangan mafoiylun aslining solim tarmog‘i tashkil qiladi. Muxammas-qasida uchun tanlanlangan dinparvar, az sar (boshidan), dar bar (yoqilgan), digar (boshqa), bahru bar (davom etishga ruxsat) singari mujarrad qofiyaning qo‘llanilishi she‘rning ohangdorligini ta‘minlagan.

Turkiy she‘riyatda Mohlaroyim Nodira ijodida ham muxammas-qasidalar uchraydi. Nodira ijodidagi “Saltanat bahridda paydo bo‘ldi yakto gavhariy” deb boshlanuvchi muxammas-qasida uning o‘g‘li Muhammadaxonning dunyoga kelishi munosabati bilan yozilgan. Uning dastlabki bandi quyidagicha:

Saltanat bahridda paydo bo‘ldi yakto gavhariy,

– V – –/ – V – –/ – V – –/ – V –

Subhi davlatdin tulu‘ etti humoyun axtariy,

– V – –/ – V – –/ – V – –/ – V –

Munfaildur mohruvidin oftobi xovariy,

Sa‘di akbardur xaridori jamoli mushtariy,

Kim erur oliy nasab shahzodalarni sarvari. [Nodira, 2001:320]

Nodira o‘zining muxammas-qasidasini “turkiy” deb ataluvchi *ramali musammani mahzuf* (ruknlari va taqti‘i: *foilotun foilotun foilotun foilun* – V – –/ – V – –/ – V – –/ – V –) o‘lchovida yaratgan. Shoir she‘r uchun mumtoz qofiyaning mujarrad turidan mohirona foydalanadi. U o‘z she‘ri uchun *gavhariy*, *axtariy* (yulduz), *xovariy* (quyosh), *mushtariy* (sotib oluvchi, xaridor), *sarvari* (yo‘lboshchi, yetakchi, boshliq) singari qofiyadosh so‘zlarini tanlab oladi. Nodiraning mahorati va yuksak poetik didi qofiya uchun tanlangan bunday saltanatga xos yuksak so‘zlarda ko‘rinadi. Misralarda shahzoda gavharga, yulduzga, yuzi esa oyga tashbeh san‘ati vositasida o‘xshatilgan.

XX asr ikkinchi yarmi she‘riyatida Chustiy ijodida ham “Navro‘z”, “Norin”, “Yurak” qasidalar mavjud. Shoirning “Yurak” qasidasi muxammas shaklida yaratilgan. Qasida hajman 10 band, 50 misrani tashkil qiladi:

Bir yurak bordirki, mustahkam po‘lat qo‘rg‘oni bor,

. – V – –/ – V – –/ – V – –/ – V ~

Unda saqlangan xazina bebaho vijdoni bor,

. – V – –/ – V – –/ – V – –/ – V ~

Aqlu hush otliq salobatliq necha posboni bor,

Nayzalar teshmas, o'q o'tmas, ishqdan qalqoni bor,

Unga vaslin va'da qilgan mehribon jononi bor. [Chustiy, 1992:290]

singari band *ramali musammani maqsur* (ruklari va taqti'i: *foilotun foilotun foilotun foilon* –V – –/ –V – –/–V – –/–V ~) vaznida yozilgan bo'lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a... tarzida qo'fiyalangan. Mazkur o'lchov yuqoridagi vazndan oxirgi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Qasidaning qo'fiyalanmaydigan misralari esa *ramali musammani mahzuf* o'lchovidadir. Shoir muxammas-qasidada *qo'rg'on, vijdon, posbon, qalqon, jonon* singari murdof qo'fiyalarni qo'llash orqali she'rning ta'sirchanligini oshirgan. She'rda Chustiy yurakda "mustahkam po'lat qo'rg'oni, bebaho vijdoni, salobatliq necha posboni, ishqdan qalqoni, mehribon joni bor"ligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, muxammas janri o'zining badiiy takomiliga yetib, muxammas-qasida, muxammas-marsiya kabi poetik shakllar rivojlandi, uning yangicha ko'rinishlari vujudga keldi. Muxammas-qasidalar dastlab forsiy tilda Nusrat va Maknun ijodida hazaj bahri vaznlarida yaratilgan bo'lsa, keyinchalik esa Nodira, Chustiylar "turkiy" deb ataluvchi ramal bahrida bitishdi. Bu bilan esa o'zbek aruzi tizimida muxammas-qasidalar yangi vazn va mavzular bilan boyidi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019. – B. 182.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: О'zbekiston, 2014. – Б. 228.
3. Нодира. Девон. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 333
4. Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 129.
5. Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърлятида арузнинг поэтик шакл ва мазмун такомиллидаги ўрни. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Т., 2020. – 182 б.
6. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: 2004. – Б. 288.
7. Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992. – Б. 390

G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK "MEN" I TASVIRI

Tozagul Matyoqubova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

\Annotatsiya

Ushbu maqolada G'G'ulom lirik "men"ining o'ziga xos jihatlarini o'rganilgan. Unda shoirning she'rlari tablili misolida ijodining o'ziga xosligi yoritilgan. G'G'ulom she'riyatida voqelikning dirik sub'ekt ruhiyatidan o'tkazib ifoda etilishi kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar. *She'r, tuyg'u, lirik "men", kechinma, falsafiy umumlashma, rubiy kechinma, badiiy mahorat.*

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida akademik G'afur G'ulomning o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, uning she'riyati falsafiy mazmundorligi, insonparvarlik g'oyalarining chuqur ifodasi, nozik tuyg'u-kechinmalar ifodasi bisyorligi bilan ajralib turadi.

Badiiy ijoddagi har bir detal, har bir obraz, har bir unsur inson va uning turfa xil kechinmalarini u yoki bu jihatdan tasvirlashga qaratiladi.

Shoirning "Qish" she'ri 1941 yilning 17 dekabrda yozilgan. U Rossiya uchun qadrdon bo'lgan quyunli qish manzarasini

Nol minus qirq ikki gradus... faqat

Daryolar yaxbasta, billurin ko‘prik,
Izg‘irin bo‘ronlar nurday yugirik,

O‘rmonlar g‘uvillar, uvlar betoqat [G‘afur G‘ulom, J.2. 1984: 26] tarzida chizadi. Jo‘n suvning muzlab kristal holatga kelishini billur - tiniq va qimmatbaho oq shishadan qilingan narsaga o‘xshatish, izg‘irinli bo‘ron shiddatini nur tezligiga qiyoslash va o‘rmonlar g‘uv-g‘uvini jonlantirish, tashxis san‘ati qo‘llash orqali unga insonga xos betoqatlik nisbatini mantiqiy asosda ko‘chirish chinakam poetik nigohni talab etadi. *Archa yaprog‘ida muzdan pardalar.../ Mum shamli qandilday quduq lablari*, - singari tasvir ob‘ektini boshqa narsa-hodisaga o‘xshatish orqali G‘.G‘ulom yorqin va bo‘rttirilgan ifodaga erishadi. Buning siri tashbeh qo‘llayotgan shoir o‘xshatilayotgan narsa-hodisaning umumiy xususiyatlarini yaxshi bilgani yoxud metaforik fikrlashga moyilligidagina emas. Chunki izg‘irinli kunda qoraqarag‘ay ignabargida qotgan muzni ko‘rkam pardaga, quduq og‘zining aylana chetidagi qorlar erib oqishi va qayta muzlashi natijasida hosil bo‘lgan naysimon muz parchalarini bir necha sham qo‘yiladigan qandilga o‘xshatish uchun kishida ulkan xayoliy kenglik, tabiatning har bir narsa-hodisasida nafislik va nurli ilqlikni his qilish salohiyati ham bo‘lishi lozim.

Darhaqiqat, shoir tabiat G‘.G‘ulomni borliqning har parchasida oddiy nigoh bilan payqash mushkul bo‘lgan yupqa to‘qima – pardasigacha ko‘ruvchi botiniy nigoh, ulug‘ Cholg‘uvchi (Olloh) notalaridan taralayotgan ajib navolarni tinglaguvchi qalb bilan siylagan edi. Shuning uchun u inson tafakkuriga xos analogiyalar asosida metaforik tarzda fikrladi. Tilimizning boy an‘analariga tayangan holda o‘z g‘oyaviy-estetik maqsadiga erishish uchun poetik matnda jonsiz narsa-hodisalarga jonli sifatlar ato etdi. Manzaraning jonli, ta‘sirchan ifodasiga erishdi.

G‘.G‘ulom g‘oyaviy-estetik maqsadiga ko‘ra qish qadim Rusning odatiy hayot tarziga dahl qilmaydi. Jumladan, pechkada qizarib pishayotgan non xush bo‘yi olamni tutadi. Borshga limmo-lim qozon qaynab-toshadi. Vanya gitarasini ting‘irlatsa, sho‘x-shodon qizlar navbahor yoshlikka xos gurunnga sho‘ng‘ishadi. Egniga tulup va oyog‘iga kigiz etik kiyib chana sudrayotgan besh yashar Olegning yoqutday lablaridan kulgu arimaydi. Qish sovug‘ini butkul unutgan bolakay shodon qahqaha otadi. Xullas, quloqqa chalingan ushbu tovushlarning barida qizg‘in hayot simfoniyasi mujassam. Chunki, ular shoir simpatiyasi orqali tasvirlangan.

Dushman lashkari bu qishdan osoyish topolmay, shovushday qirov bog‘laydi va muzlaydi. Bu so‘z G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami, 2- jild 26-betida “*shovutday*” tarzida noto‘g‘ri berilgan. Bizningcha, “*shovushday qotadi*”, ya‘ni *qirov bog‘laydi yoki muzlaydi* shaklida ifodalanishi kerak. G‘.G‘ulom yozadi:

Holingizga boyqushlar kuladi: Ku-ku!
Chunki ruslarga xos qadrdon qish bu.

Sharq poetik tasavvuriga ko‘ra qaerdaki yirtqich boyo‘g‘li kulgusi baralla yangrar ekan, bu bexosiyatlik belgisi sanaladi. Chunki boyqushlar makoni xarobazordir. Demak, shu o‘rindayoq shoir sodir bo‘ljak jirkanch taqdir sababchilaridan biri sifatida qishni ko‘rsatish orqali fashizmning mash‘um taqdiriga ishora qilgan. Muhimi, matonatli xalq bilan birlashgan Rus iqlimi ham g‘animlardan o‘ch olish, yovga qiron solish va uning go‘rkoviga aylanishga qasdlangan.

Shoir voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berish bilan cheklanmay, peyzaj tasvirining qahramonlar ruhiyatiga turlicha ta‘sirini ham ko‘rsatadi. Masalan, *Yovga qiron solgan qadrdon qish bu... / Yov qochar, chekinar, uvlar, betoqat* cingari o‘rinlarda shoir qahramonlar ruhiyat-holatini ularga bo‘lgan antipatiyasidan kelib chiqib ochadi. Demak, “Qish” she‘ridagi peyzaj tasviri syujet voqealari asoslanishi va rivojiga kontrastli fon asosida turtki bergan. Lirik sub‘ekt ruhiyatidan o‘tkazib berilgan ifoda esa, o‘sha kayfiyatning suratiga aylangan.

Rus qishi belgi-sifatlaridagi o‘ziga xos fazilat shundaki, u shu elning suyukli farzandlariga qalqon va aksincha, yurt dushmanlariga qopqondir:

Rossiya qishining xislatlari bor,
U yov uchun qopqon, bizlarga qalqon,
Moskvadan qocharkan shumshuk Napoleon

Ming bir bahonani qilsa ham takror,
Bu bizningcha oddiy arpa uni-ku,
Ammo haqiqatan qadrdon qish bu.

Filologiya fanlari doktori J. Jumaboeva G'. G'ulomning tarixga munosabati haqida to'xtalar ekan: *"G'afur G'ulomga nisbatan shoir - tarixchi deyish ham, tarixchi - shoir iqtibosini qo'llash ham o'zini teppa-teng oqlaydi. U "Tarixchi bo'lmasdan ulkan shoir bo'lish qiyin", - degan fikrlarning haqiqatligini isbotlagan ijodkorlardandir"* [Jumaboeva J. 1999: 20], – deb yozadi.

Shoirning ushbu she'ri misolida olimaning fikrlari nechog'lik to'g'ri ekanligini kuzatishimiz mumkin. G'.G'ulom "shumshuk" deb baholab, qilmishlariga nisbatan nafratini yashirmayotgan kishi aslida Fransiya davlat arbobi va harbiy sarkardasi - imperator Napoleon I (*Napoleon Bonapart, 1769-1821*) dir. Shoir bu o'rinda uning olti yuz qirq ming kishilik *"Buyuk armiya"* si bilan siyosiy-iqtisodiy ustunlik da'vosida 1812 yilda Rossiyaga qilgan bosqinchilik yurishlari halokatli yakun topganini nazarda tutgan.

Ma'lumki, o'shanda komondon M.I.Kutuzov Moskvani jangsiz vaqtinchalik tashlab chiqsa ham, unga asl sarkardalarga xos tadbirkorlik, qahramon xalq lashkari qo'llovi bilan bir qatorda, qahraton Rus sovug'i ham yaqin madadkor bo'lgan edi. Natijada, Napoleon I qo'mondonlikni tashlab qochib, armiyasini butkul yo'qotgan. Sharmandalaricha mag'lub bo'lgan bu kimsa Neman, Polsha va Kyonigsbergdagi ta'qiblardan o'takasi yorilib bazo'r Parijga yetib olgan. Umrining so'nggi yillarini Sant-Yelena orolida asirlikda o'tkazishga mahkum etilgandi.

Qirq ikki gradus..., Gitler akillar:

"Bizning chekinishga qish bo'ldi sabab"

Yuqoridagi misralarini o'qir ekanmiz, fashistlar "dohiy" si baqiroqligini itning akillashiga o'xshatib, bepisand qarash nazarda tutilsa, Napoleon I tarixini eslash G'.G'ulomning asl muddaosi emasligi oydinlashadi. Chunki, diqqat qilinsa, Napoleon I va Adolf Gitler shaxsiyati - dunyoga hukmronlik da'volari, qo'shinlari Moskva ostonalariga yaqinlashib qolishgani va hatto har ikkalasi o'z qilmishlariga javob berishdan qo'rqishlari jihatidan ham olis va yaqin tarix o'zaro mantiqan tutashadi. G'.G'ulom aksariyat she'rlarida aynan shu mushtaraklikni nazarda tutadi. Tahlil qilinayotgan "Qish" she'ri ham bundan mustasno emas.

Shoir Rossiyada mazkur faslda yuqori atmosfera bosimi hukmron bo'lishi, ayrim joylarda havo harorati benihoya sovib ketishiga alohida e'tibor qaratgan. "Xalqi va iqlimi birlashgan mahal Fashizmga o'lim hukmidir tumor" singari misralardan ayon bo'ladiki, G'.G'ulom tarixga murojaat qilarkan, kurashda xalq kuchi, mardlik, chidamlilik, fidoiylik juda muhimdir. Shu bilan birga, adolat tantanasi yo'lidagi harakatlar ona tabiat tomonidan (*Olloh ajri mukammal ekanini ochiq aytolmagan - T.M.*) qo'llab-quvvatlanadi, degan konsepsiyani himoya qilgan. Ehtimol, shoir mustahkam milliy e'tiqodga tayangani bois ham komil ishonch bilan poetik xulosa chiqara olgan. Ya'ni baralla ovoz bilan fashizmga nisbatan ayovsiz o'lim hukmini o'qigan. G'.G'ulom xalq kuchi to'fondan ham qudratli ekanini ta'kidlash niyatida:

Nuh to'foni endi oddiy kulgudir

Xalqim bu boshlagan yurish oldida,

Yoki yalang sahroda tuyoq izida

To'plangan bir hovuch bemaza suvdur.

singari satrlarni bitadi. Mazkur band o'zbek jadid shoiri Cho'lponning "Xalq" she'ridagi: "Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir, Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir... Xalq qo'zg'olsa kuch yo'qdirkim, to'xtatsun, Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi" [Cho'lpon, J.1. 1994: 20], misralariga ruhan ancha yaqin turadi. Ammo Cho'lpon "xalq" tushunchasi ostida ozodlikka tashna turkistonlik mazlumlarni, G'.G'ulom esa fashizmga qarshi qo'zg'algan "sovet xalqi" ni nazarda tutadi.

Shubhasiz, milliy tuyg'ularga to'yingani jihatdan Cho'lpon she'riyati benihoya yuksakda turadi. Ammo mohiyat e'tibori bilan G'.G'ulom ham yurt ozodligi va uning boshidan ko'lankani ketkazish haqida qayg'uradi. Butun kuch xalqda ekaniga ishonadi va hamisha uning bilan hamdam bo'lishga chorlaydi.

Afsuski, qaltis va tahlkali davrda yashagan G'.G'ulom har qadamda nihoyatda siyosiy xushyor

turishga katta majburiyat sezgan. Jumladan, o‘zining xalq bilan doimo birga ekani, o‘tmishdan butkul uzilganini ta’kidlab borishni kanda qilmagan. G‘.G‘ulom ulkan to‘fon samoviy yomg‘ir va yerning to‘rt burjidan chiqarilgan suvdan paydo bo‘lgani, uzoq umr ko‘rgan Nuh payg‘ambar [Qur‘oni Karim, 1992: *Anqabut surasi, 14-oyat*] o‘z qavmini hidoyatga chorlab qilgan da’vatlari javobsiz qolgach, kofirlarni jazolashni so‘rab qilgan iltijosi [Qur‘oni Karim, 1992: *Shuaro surasi, 118-119-oyatlar*] natijasi ekanini bilardi. Halokatning bosh sababi bandaning Ollohga kufr keltirishi va najot manbai imondan ekanidan ogoh edi. Biroq, shoir “to‘fon” haqida gapirish asnosida diniy qissalar afsona, o‘z davri voqeligi real haqiqatligini tasdiqlashga majburiyat sezgan. Ana shunday o‘rinlarda uning “men” ligi “biz” bilan birikib ketgan. Bugungi kunda ularni zamonasozlik yuzasidan aytilgan fikrlar tarzida izohlagan ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaboeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. DDA. -T.: 1999. 20- b.
2. Islamjon Yakubov. Çağdaş özbek romanlarının poetik yapısında şarki ve türkülerin yeri/ Dil ve edebiyat araştırmaları i karabük üniversitesi yayınları: 53 Karabük – 2020.
3. Islamjon Yakubov. Dynamics of character //International Scientific Journal Ukraina, 2016. - № 5
- Matyakubova Tozagul. Folk spirit and style in artistic creativity // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) Insiya, February.2020.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: «Ma’naviyat», 2000.
5. Tozagul Matyakubova. Gafur Gulom ve Nazim Hikmet şiirlerinde mustereklikve bireysellik // Guncel sanat. Saye 2, 2011, -S. 63-65
6. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 jildlik. J.1. –T.: Fan, 1983
7. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 jildlik. J.2. –T.:Fan, 1984.
- 9.G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 jildlik. J.3. –T.: Fan, 1985
- 10.Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. I jild. – T.: Adabiyot va san‘at, 1994.
- 11.Qur‘oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima / Tarj. Alouddin Mansur. - T.: Cho‘lpon, 1992.

ALISHER NAVOIY IJODIDA RAQIB OBRAZINING RAMZIYLIK XUSUSIYATI

Zuhra Mamadaliyeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ramziy obrazlar, xususan raqib obrazining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan. Obrazning folklor va mumtoz adabiyotdagi tadrijiy rivoji tahlil qilingan. Navoiy ijodi, xususan “Xamsa”dagi variantlari va ularning o‘ziga xosligi o‘rganilgan. Xusrav, Ibn Salom, Muqbil, Jaypur kabi obrazning real variantlaridan tashqari g‘addor taqdir, inson fe‘l-atvori kabi mavhum talqinlari borasida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Xamsa”, raqib, Xusrav, Muqbil, Jaypur, Ibn Salom, taqdir.*

O‘zbek mumtoz adabiyotida ramziylik tushunchasi mumtoz matnni tahlil qilishda muhim omil bo‘lishi bilan birgalikda uning tarkibiy qismi, shakl va g‘oyani bog‘lab turuvchi unsur sifatida ham e’tiborga molikdir. Umuman, ramz – simvol istilohlari nafaqat adabiyot, balki muayyan millat va xalq umummadaniyatining ajralmas bir qismi sifatida ham ahamiyatlidir. Ramz haqida atoqli olim, akademik Izzat Sulton quyidagicha ma’lumot beradi:

“Ramz – voqelikning timsolidir. Voqelikning aynan o‘zi go‘zal emas, uning timsoli go‘zaldir. Illo tosh emas, toshga yo‘nilgan xayol go‘zal. Adabiyotning ilohiy kuchi – aynan shu xayolni yorita olishda ko‘rinadi. Ijod yaratishdir. Yaratish esa ilohiyotga daxldorlikdir. Yaratish zavqi barcha zavqdan, yaratish

azobi barcha azobdan yuksakroqdir. Go'zallik yaratish esa – bu ilohiyotni charxlashdir” [3:106].

Ramz tasviriy va amaliy san'atda, xalq marosim va urf-odatlarida, davlat va millat, aslzodalarning oilaviy va sulolaviy belgilari sifatida ham qo'llanilgan. Ushbu maqolada esa faqat ramziy obrazlar xususida fikr yuritiladi. Masalan, “Layli va Majnun” sevgi qissasi ikki yosh o'rtasidagi fojeali muhabbatga bag'ishlangan asar hisoblanadi. Lekin Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy kabi tasavvuf ijodkorlari o'zlarining badiiy niyatlaridan foydalanib bu qissaga ilohiy muhabbat haqidagi ma'no yukladilar. Bu o'rinda o'quvchi Laylining ilohiyot mazhari ekanligini bilsa, nur ustiga nur – hikoyaning har ikki ma'nosini tushunadi, biroq matn osti ma'nosi anglanmaganda ham o'quvchi mutlaqo bebahra qolmaydi: u Laylining iztiroblari yoki Majnunning fojeasidan sof go'zallik va muhabbat izlaydi, qahramonlar bilan birga quvonadi, ko'z yosh to'kadi, xullas ta'sirlanaveradi.

Bunday asarlarning tagma'nosi, ya'ni ramziyligini bilish esa xos adabiyot ixlosmandlarining ishi bo'lib, danakni chaqib, mag'izini yeyishga o'xshash ma'lum tajriba, mehnat talab qiladigan va oqibatda rohat baxsh etadigan faoliyatdir. Hozirgi kunda bunday tagma'noni bilish asarni jo'n emas, bor ohori va go'zalligi bilan tushunish, his etish kabi asl kitobxon uchun zarur bo'lgan xususiyatlardan sanaladi. Shu bilan birgalikda asar ramziyligi, ramziy ma'nolarini tekshirish, tahlil qilish adabiyotshunoslikda ham hali oxiriga yetmagan, dolzarb muammolardan sanaladi.

Bunday ramziy xususiyatlar Alisher Navoiy “Xamsa”sida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Shunday ramziylik xarakteriga ega bo'lgan obrazlardan biri raqib obrazidir.

Raqib obrazi adabiyotda uzoq yillik takomil yo'liga ega. Ildizi miflardagi yovuz ruhlarga, olam muvozanatini izdan chiqarishga va odamzodni tanazzulga boshlashga xizmat qiladigan turli iblis va devlarga borib taqaladi. “Avesto” mifologiyasida insonga dushmanlik qilgan, olam muvozanatini buzishga va yovuzlik g'alabasiga xizmat qiladigan devlar nafaqat bir kishiga, balki umuminsoniyatga raqib hisoblanishgan.

Xalq og'zaki ijodidan ma'lumki, har bir romantik ruhdagi epik ijod maxsulida, qahramon, uning yori, do'sti va raqibi ishtirok etadi. Bu muhim to'rtlik ishtirokida asar kompozitsiyasi tuziladi, syujeti yaratiladi va konflikti rivojlanadi. Jumladan, qadimgi ertaklarda uchar otlar, ko'k bo'ri, parilar, ezgu niyatli devlar qahramonga do'stlik qilgan bo'lsalar, yomon niyatli, ya'ni qora devlar, ajdaholar, yalmog'iz va boshqa salbiy ottenka tashigan mifologik qahramonlar unga yovuzlik qilishgan. Niyatiga yetishga to'sqinlik qilishgan, joniga qasd etishgan. Bu obrazlar keyinchalik ancha reallashib, insoniy shakl-shamoyil ola bordi. Endi podshohning qiziga talabgorlik qilib, uning shartlarini bajarayotgan shahzodaga uning akalari, oddiy yigitga o'zini yaqin deb bilgan odamlar raqib bo'lishdi. Albatta, boshqa personajlar singari raqibning ham, asarda, muayyan maqsadi bo'ladi. Bu maqsad, aksariyat hollarda, boylik, davlat, ma'shuqa, taxt va hokazolar hisoblanadi. Xalq dostonlarida raqib obrazi, xuddi do'st obrazi singari ancha reallashdi. “Alpomish” dostonida qalmoqning qirq alpi, Maston kampir va asosan, Ultontoz kabi personajlar bu vazifani bajardilar.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda xuddi do'st obrazi singari raqib obrazining ham vazifalari shakllandi. Bular quyidagilardir:

- Raqib, avvalo bosh qahramon bilan niyatdosh bo'lishi kerak. Bir niyatni maqsad qilmaganlar orasida raqobat bo'lmaydi. Bu niyat ma'shuqa, taxt, boylik va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi; raqib yovuz bo'lishi, qahramonga nomardlarcha xalaqit berishi kerak. Unga mardlik, odamgarchilik begona. Aks holda u ijobiy qahramonga dushmanlik qila olmasdi;

- Raqib qahramonga qasd qilishi, uni o'ldirish yoki ma'nan mahv etishi talab etiladi. Asar syujeti mana shu jarayon – qahramonning yashab qolish va niyatiga yetishga intilishi, raqibning esa unga qasd qilishi, uni yashashga va niyatiga erishishiga yo'l qo'ymasligi jarayonida rivojlanadi;

- Raqib bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ular bir nechta bo'lganida qahramonga navbatma-navbat zarba berishlari lozim bo'ladi. Raqib qahramonga o'zi bilmagan, xohlamagan holda ham yomonlik qilishi, xalal berishi ham mumkin. Raqib obrazi real va noreal (taqdir) timsolida ham shaxslashadi.

Mana shunday tamoyillarni qabul qilgan holda rivojlangan va og'zaki ijoddan ta'sirlangan mumtoz adabiyotning romantik epikasida ham raqib obrazi eng muhim hamda baquvvat obrazlardan bo'lib

qoldi. Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”ida bu obraz sahro va jazirama singari tabiat kuchlari timsolida akslangan bo‘lsa, “Gul va Navro‘z”da Chin xoqoni, shayx Najdiy, qaroqchi Yaldo singari bir nechta raqibni ko‘ramiz. Ular navbatma-navbat bosh qahramon - oshiq faoliyatiga salbiy ta‘sir etib, maqsadiga yetish uchun xalal beradilar. Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayho”da Zulayhoning turmush o‘rtog‘i raqib hisoblanadi. U Yusufga bevosita yomonlik qilmasa-da, uning mavjudligi Yusuf va Zulayho orasidagi hijron va judolikka sabab bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlarida bu obrazning vazifasi qat‘iylashib, o‘rni mustahkamlandi. “Farhod va Shirin”da Eron shohi Xusrav obrazi raqiblikning hamma vazifalarini a‘lo darajada bajaradi. Bu haqda adabiyotshunos olim N. Mallaev “Xusrav – yomonlikning mujassami. Xusrav bilan Farhod o‘rtasidagi konflikt dostonning bosh konflikti” [2:165], degan fikri bilan obrazning dostonidagi vazifasiga juda to‘g‘ri baho bergan. Ya‘ni, Xusrav Farhodni hiyla bilan asir oladi, unga so‘z bilan kuchi yetmay, ma‘naviy jihatdan mag‘lub qilolmagach, jisman yo‘q qilishga kirishadi. Salosil qo‘rg‘onida bandi qiladi. Shiringa ta‘sir qilib, uning ko‘nglidan Farhodga bo‘lgan ishqni yo‘qotishga intiladi. Buni ham amalga oshira olmagach, uni jisman mahv etmoqchi bo‘ladi. Makkora kampir vositasida buni amalga oshiradi, biroq bu ham uning katta xatosi edi. Bu harakati bilan u Shirinni butunlay yo‘qotib qolmay, taqdirdan qasos kelib, o‘zi ham ko‘p o‘tmay halok bo‘ldi. Obraz haqida fikr bildirgan sharqshunos Ye. Bertels “Bunday sharoitda Xusrav, albatta, fors an‘anasi nisbat bergan barcha ijobiy xislatlardan mahrum bo‘lishi kerak. U Navoiyda makkor va zolim, qo‘rqoq, shafqatsiz va qonxo‘r shoh. Agar Xusravning o‘limi Nizomiyda hamdardlik uyg‘otsa, bu yerda u o‘quvchida chuqur qoniqlik hosil qiladi. chunki shoh haqli ravishda jazolandir” [1:238], deydi.

Istiqoldan keyin Navoiy asarlarining botiniy ma‘nosini sharhlash an‘ana tusiga kirgach, ushbu obrazning ramziy tomonlari ham topila boshlandi. Tadqiqotchi M. Ibrohimova “Bu dunyo inson ruhi va ruhi mutlaq orasida to‘siq bo‘lgani kabi, Xusrav ham oshiq va ishq mazhari o‘rtasidagi eng katta g‘ovdir. Navoiy dunyo timsolida dunyoning barcha razilliklari, chirkin tomonlari, dog‘uliklarini ko‘rsatadi”, degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, Navoiy tasviridagi raqiblarning boshqa birortasi qahramonning joniga qasd qilishgacha bormaydi. Inson hayotini kamolotga yetish uchun imkoniyat va oliy qadriyat deb bilgan hazrat Navoiy Xusravning bu qilmishini “Tarixi muluki Ajam” asarida ham qoralaydi va halokatining sababini ham “falakning intiqomi” deb aholaydi.

“Layli va Majnun”dagi Ibn Salom raqib obrazining navbatdagi ko‘rinishidir. U ham xuddi Zulayhoning eri kabi bosh qahramon Majnunga hech bir xalal bermaydi. Hatto uni tanmaydi ham. Biroq uning mavjudligi va Layliga oshiqligining o‘zi uni Majnunni raqibi bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

“Sab‘ai sayyor” asosiy hikoyatidagi Bahrom va Diloromni ajratgan real bir qahramon yo‘q. Bu o‘rinda Bahromning mastlikdagi qarori va Diloromning takabburligi sabab bo‘ladi. Demak, bu o‘rinda raqib obrazi mavhumlashadi va Navoiy lirikasida bo‘lgani kabi, taqdir, falak obrazlarida ramzlashdi. “Sab‘ai sayyor” yordamchi hikoyatlarda esa real raqiblarni ko‘ramiz. Axiyning raqibi bo‘lgan savdogarlar uning davlatini egallash niyatida joniga qasd qiladilar. Zayd Zakhobning raqiblari ham uni obro‘sizlantirib, oqibatda o‘ldirish niyatida uning firibgarligidan shohga xabar berib, zindonga soldiradilar. Ma‘sudning raqiblari ham uning davlati va erishajak mansabi kerak. “Mehr va Suhayl”dagi Suhaylning raqibi bo‘lmish Jobir buni o‘zi ham bilmaydi. Kasbi qaroqchilik bo‘lgan Jobir Suhaylga bir asir sifatida qaraydi va uni zindonga solgach, unutadi. Biroq, Jobir Suhayl sevgan qiz Mehrga ko‘ngil qo‘ygani uchun ham unga raqib hisoblanadi. “Muqbil va Mudbir” hikoyatidagi ikki hamroh ham o‘zaro hayot yo‘llarida omadga intilish, erishi yo‘lida raqibdirlar. Ko‘ringanidek, bu dostonida raqib obrazi talqini murakkablashdi va uning tasvir tamoyili ham kengaydi. Voqealar rivoji jarayonida Ma‘sudning raqibi Ballu va Jaypur, beshinchi hikoyat qahramoni Suhaylning raqibi Jobir, oltinchi hikoyat qahramoni Muqbilning raqibi Mudbir ochiqdan-ochiq mag‘lub bo‘ladilar va qilmishlariga yarasha jazolanadilar. Biroq yettinchi hikoyat qahramoni Diloromning raqiblari bo‘lgan saroy sozandalari va Xorazm shohi uning ruhiyatidagi nazokat va jasorat tajassumi kabi tuyg‘ularni ko‘rib, unga qoyil va maftun bo‘lishadi. Bu o‘rinda yovuzlik jazolanmaydi, balki ezgulikka aylanadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida bosh qahramon Iskandarning raqiblari xuddi xalq dostonlari kabi bir nechta bo'lib, bosh qahramonga navbatma-navbat dushmanlik qilishadi. Dastlab, Iskandarning yosh podshohligida Eron shohi Doro uni mahv etmoqchi bo'ladi. So'ngra Kashmir podshosi Mallu, Chin xoqoni, so'ngra devshivat odamlar va chumolisifat maxluqlar, Ya'juj-ma'jujlar qabilasi unga qasd qilmoqchi bo'ladi. Bu raqiblarining hech qaysisi o'z niyatiga yetolmaydi. Iskandar dengiz safaridan so'ng o'zi xastalanib, vafot etadi. Demak, bu o'rinda ham taqdir, kajraftor charxning o'zi bosh raqib sifatida gavdalanadi.

Ushbu maqola bo'yicha quyidagicha xulosalarga kelindi:

- xalq og'zaki ijodidan shakllanib kelayotgan raqib obrazi miflar, afsonalar va ayniqsa ertak va dostonlarda mavhum mifologik qahramonlardan konkret personajlargacha shakllanish bosqichini bosib o'tdi;

- folklorda shakllangan raqib obrazining xususiyatlari mumtoz adabiyotda rivojlandi. Jumladan, raqibning bitta yoki bir nechta bo'lishi, asar qahramoniga niyatdosh ekanligi, uning joniga qasd etishi, niyatiga yetishiga to'sqinliklar qilishi kabi xususiyatlar rivojlanib, kuchayib bordi.

- Raqib obrazi folklordagi holatidayoq ramziylik kasb etib ulgurgandi. Ya'ni, bosh qahramon ezgulik, go'zallik, jasorat, matonat ramzi bo'lgani holda uning raqibi yovuzlik, chirkinlik, qo'rqoqlik va xiyonat ramzi sifatida maydonga chiqdi.

- Raqib obrazi Alisher Navoiy “Xamsa”sida turli xil variantlarda aks etgan bo'lib, ularning eng mukammali “Farhod va Shirin”dagi Xusrav obrazi hisoblanadi.

- Navoiy “Xamsa”sida obrazning g'addor taqdir ma'nosida ramzlashgan mavhum timsoli ham takomillashdi. Bu, ayniqsa, “Saddi Iskandariy”da Iskandarning so'nggi raqibi timsolida aniq va ravshan namoyon bo'ldi.

- Obrazning “Xamsa”dagi boshqa variantlari ham raqiblikning barcha shartlarini bajarish bilan birga uning turfa tomonlarini aks ettirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bertels Ye.E. Navoiy. Tarjimon: Mirzaev I. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015.
2. Malliev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 2018.
3. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.

XORAZM DEVONLARIDA GUL TASVIRI VA TIMSOLI

Sohiba Umarova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqola XIX - XX asr boshlarida Xivada Muhammad Rahimxon II Feruz zamonida yuzaga kelgan madaniy-adabiy muhit, toshbosma nusxalarning tayyorlanishi, devonchilik an'anasining rivojlanishi, qizil gul tasviri va timsolining yuzaga kelishi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Feruz, kutubxonachilik, toshbosma, nusxa, qizil gul, shahzoda, shoirlar, tasvir, tashbeh.*

Xorazm qadimdan madaniyat, san'at va adabiyot markazlaridan biri bo'lib, bu yerda xattotlik maktablari ham keng rivojlangan. “Uch xonlik davridagi madaniy hayotda yetakchi o'rinlardan birini ishg'ol qilgan va ma'rifat makoni hisoblangan kutubxonalarning eng boyi saroy kutubxonalari hisoblangan, Saroy kutubxonalari nasldan naslga o'tgan sari yangi kitoblar bilan boyib borgan”[Murodov, 1971: 9]. Aynan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xivada bevosita Muhammad Rahimxon II – Feruz topshirig'i bilan kutubxonalar tashkil etish, qo'lyozmalarni asrashga e'tibor ko'chaygan. Ma'lumki, Xiva matbaasida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida chop etilgan tarixiy, adabiy-ilmiy asarlar Xiva xonligidagi maorif

va fan rivojiga katta hissa qo‘shgan. Aynan “Xiva toshbosmasi 1874 yilda ishga tushirilgan bo‘lib, unda ilk chop etilgan asar Munis Xorazmiyning “Devoni Munis” asari bo‘lganligi aniqlangan” [Aminov, 2020].

Sayyid Muhammad Nosir to‘ra bin Sayyid Muhammadyor to‘ra bin Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashagan Xorazm adabiy-madaniy muhiti vakillaridan biri, shahzoda shoir edi. “Muhammad Rahimxon II Feruzning qarindoshlaridan Abdullohjon to‘ra hamda Nosirjon to‘ralarning ham o‘z shaxsiy kutubxonalari mavjud bo‘lgan. Nosirjon to‘ra Feruz davrining taniqli shoir va ma‘rifatparvarlaridan hisoblanadi” [Erkinov A., Polvonov N. Aminov H, 2010: 22]. Sayyid Muhammad Nosir to‘ra Sultoniyl qo‘lida saqlanayotgan xususiy kitoblariga o‘z muhrini bosgan yoki nomini yozib qo‘ygan.

Xiva qo‘lyozmalari o‘zining go‘zal arxitektonikasi bilan o‘z davrida boshqa qo‘lyozmalardan ajralib turishi bilan birga, devonlarning toshbosma nusxalari ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Xususan, Muhammad Rahimxon Feruz davrida ko‘chirilgan devonlar bo‘trog‘dagi barglari bilan chizilgan bir dona qizil gul rasmi bilan bezatilgan bo‘lib, bunday kitoblar shohning nazari tushgan yoki homiyligida tuzilgan. Zero, qizil gul tasviri unvonlarga qo‘yiladigan ornament sifatida toshbosma asarlarda bosilgan. Masalan, Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 569 raqamli qo‘lyozmada bir nechta devonlar kiritilgan. “Devoni Sultoniyl” matni tugagandan so‘ng alohida varoqda aval shaklidagi ramkaga chiroyli gul rasmi va kitob oxirida ham yana aval shaklidagi ramkada gul solinganini ko‘ramiz. Bundan tashqari shu fondga 3049 inventar raqamli toshbosmada ham kitobning oxirida gullar rasmi bosilgan.

E‘tiborlisi, devonlarda bosilgan qizil gul tasviri aynan sohibi devonlar she‘rlarida timsol sifatida gavdalanadi. Aynan Feruzning ushbu:

Gul yuzing ochib, ey gul, majlisim guliston qil,

Mehri orazing uzra kokiling parishon qil...[Feruz, 1994: 63] – baytida shoir gul yuzli yoriga Gul deb murojaat etib, uning bilan suhbatini gulistonga aylanishini aytmoqda. Feruz devonida “Bazmimga keldi ul pari ruxsorin aylab gul bukun...”, “Bir dam aylab holima, lutf oshkor, ey gulbadan...”, “Gul emas rang ichra gulgun orazi gulnoricha...” kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallarda ham gul timsoli shoirning maqsadini bayon etishda badiiy poetik vazifani bajargani ayon bo‘ladi.

Yuqorida nomi keltirilgan shahzoda shoir Sayyid Nosir to‘ra Sultoniyl devonida 10dan ortiq janr uchraydi va uning she‘rlarida ham gul timsoliga ko‘plab murojaat etiladi. Sultoniyl Ogahiyning “Vah ne balodur bilmadim ey dilrabo qoshu ko‘zing...” deb boshlanuvchi g‘azaliga yozgan muxammasini shunday boshlaydi:

Ey gul ko‘zumga bo‘lg‘oli jilva namoyon qoshu ko‘zing,

Yoqti tanim ishq o‘tig‘a subhu maso qoshu ko‘zing.

Aylab jafolar o‘lturur ey dilrabo qoshu ko‘zing,

Vah ne balodur bilmadim ey dilrabo qoshu ko‘zing,

Kim bir nazarda soldi o‘t jonim aro qoshu ko‘zing.

Bobojon Tarroh – Xodim devonida ham qizil gul timsoli bir necha g‘azallarda keltirilgan. Masalan, shoirning “Bir tun kelib, kulbam aro, ey gul‘uzor, ey gulu‘zor...”, “Kelgil ochib ruxsor, ey gul piraxan, gul piraxan...”, “Bog‘ ichra och ruxsor, ey g‘unchalahan, g‘unchalahan...”[Xodim, 2014: 103] kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallarida gul, gulzor, gul piraxan kabi tashbehlar keltirilgan.

Ahmad Tabibiy devonida qizil gul poetik jihatdan o‘ziga xos tasvirlanadi. Ahmad Tabibiy forsiyl she‘rlari jamlangan 7083-raqamli devonning 103-g‘azali shoirning “Gasht izhor chu dar sahn gulistoni guli surx” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali 11 baytdan iborat bo‘lib, mazmuniga ko‘ra oshiqona, oshiqning qizil gulga murojaati orqali hijron iztiroblari ifodalanadi. Shu jihatdan Tabibiyning “Gasht izhor chu dar sahn gulistoni guli surx” g‘azalini murojaat shaklida yozilgan she‘rlar sirasiga kiritsak bo‘ladi. Ammo zohiriy ma‘nolari bilan birga qizil gul ta‘rifi keltirilgan ushbu g‘azalda botiniyl ma‘nolar ham ifoda etiladi, umuman, Tabibiy forsiyl she‘rlarida ijtimoiyl-madaniyl hayotga shoirning shaxsiyl munosabati, kayfiyati ham aks ettadi, deyish mumkin.

Mumtoz poetika tarixi va keyingi davr she‘rlarida ham qizil gulga murojaat tarzida yozilgan

g'azallar ko'p uchraydi. Aynan, Hamza, Sadridin Ayni, Abdurahmon Mushfiqiy kabilar ijodida qizil gul yoki "guli surx"ga bag'ishlangan she'rlar bor.

Xulosa shuki, Sayyid Muhammad Rahimxon soniy – Feruz o'z davrida shoirlar ijodini qadrlagan, ularga homiylik qilgan va devonlar tuzilishiga maxsus ahamiyat kasb etuvchi vositalar, xususan, qizil gul rasmini kiritgan. Qizil gul mavzusi Feruzdan tashqari Sultoniy, Sa'diy, Xodim, Tabibiy, Asad, G'oziy kabi shoirlar ijodida kuylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov H. Xivadagi ilk o'zbek matbaasi. <https://einfo.lib.uz/index.php/2020/10/17/hivadagi-ilk-uzbek-matbaasi/>
2. Bobojon Tarroh – Xodim. Devon. – T.: "Tafakkur qanoti", 2014.
3. Muhammad Rahimxon Feruz. Elga shohu ishqqa qul. Devon. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 63.
4. Tabibiy. Devoni Tabibiyi forsiy. دیوان طبیبی فارسی Qo'lyozma. Inv. Raqami 7083. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti.
5. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2000.

HUSAYN BOYQARO IJODIY MEROSINING TURKIYADA O'RGANILISHI

Xusnigul Djurayeva,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya

Maqolada temuriy sarkarda, shoh va shoir Husayn Boyqaro – Husayniy "Devon"i hamda "Risolai Husayn Boyqaro" asarining chet el kutubxona, qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nusxalari haqida so'z yuritilgan. Xususan, Husayniy ijodiy merosining Turkiya davlatida mavjud qo'lyozma va faksimeli nusxalari haqida fikr bildirilgan. Husayniy hayoti va faoliyati, shaxsiyati, shoirlik mahoratining turk olimlari tomonidan o'rganilishi tadrijiy ravishda kuzatilgan. Turk olimlarining Husayniy ijodiy merosi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil uchun tanlab olingan.

Kalit so'zlar: Xuroson, Hirot adabiy muhiti, qo'lyozma, xattot, g'azal, an'ana, badiiy mahorat.

Turkiy xalqlar qadim tarix va madaniyat sohibi bo'lib, ajdodlarimiz orasidan o'z nomini abadiyatga daxldor etgan buyuk siymolar, shoh va shoirlar ko'plab yetishib chiqqan. O'tmishga nazar solinsa, aksariyat zodagon, amir, bek va sultonlarning saltanatdorlik faoliyati ilm-fan, badiiy adabiyot, ma'naviy hayot bilan bog'liq. Hatto, "Avesto", "Dinkard", "O'rxun-Enasoy" bitiklarining yaratilishi ham zodagon va hoqonlar shaxsiyati, faoliyati bilan chambarchas. Shu ma'noda Turon zaminida yashab o'tgan bobolarimizning ibratli hayot yo'li, shaxsiyati, bebaho ilmiy-ijodiy merosini o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish muhim vazifadir.

Temuriy sarkarda, shoh va shoir Sulton Husayn Boyqaro XV asr ikkinchi yarimi, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan zullisonayn shoirdir. Husayn Boyqaro Xuroson davlatining hukmdori o'laroq, Hirot adabiy muhitiga sarkorlik qildi. Uning davrida Xuroson muzofoti barcha jabhada taraqqiy etdi. Poytaxt Hirot shahri Sharqning eng gullagan markazlaridan biriga aylandi. Zahiriddin Muhammad Bobur iborasi bilan aytganda "kordon va sohibtajriba" Husayn Boyqaro zamonida fanning barcha sohalari rivojlandi, el-yurt nisbatan osoyishta umrguzaronlik qildi. Sulton Husayn rahnamoligida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy singar buyuk mutafakkirlar Sharq uyg'onish davrining benazir siymosi sifatida faoliyat yuritdilar.

Dunyo navoiyshunosligida Alisher Navoiy ijodiy merosi asrlar davomida o‘z davridan bugungi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning buyuk do‘stligi, hamkor va hamrozligi tarixdan ma‘lum. Alisher Navoiy ilmiy-ijodiy merosi o‘rganilar ekan, Husayn Boyqaro – Husayniy shaxsiyati, faoliyati ham tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan. Husayniy hayoti va ijodiy merosi nafaqat o‘zbek olimlari, balki uzoq Sharq va G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan. Husayniy qalamiga mansub “Risoi Sulton Husayn Boyqaro” asari hamda “Devoni Sulton Husayn Boyqaro” she‘rlar to‘plami o‘z davrida zamonasining mashhur kotiblari Sultonali Mashhadiy va Sulton Muhammad Xandon tomonidan qayta-qayta kitobat qilingan. Bugun Amerika, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Afg‘oniston, O‘zbekiston singari davlatlar kutubxona, qo‘lyozmalar fondida shoh va shoir Husayniy “Devon”ining qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Ayni mana shu holat ham Husayniy ijodiy merosiga bo‘lgan qiziqish va e‘tiborni kuchaytiradi. Shu o‘rinda Turk husayniyshunosligi, Turkiya davlati qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan Husayniy “Devon”i va “Risoi”ining qo‘lyozma nusxalari xususida so‘z yuritish maqsad qilindi.

Turk olimlarining Husayniy faoliyati va merosini o‘rganishga oid ishlarini ikki xil guruhlash mumkin:

1. Husayniy asarlarining Turkiya va boshqa davlatlarda mavjud qo‘lyozmalarini o‘rganish.
2. Husayniy she‘riyatdagi uslub va til xususiyatlarini tadqiq etish.

Turkiyada birinchilardan bo‘lib, Husayn Boyqaro hayoti va faoliyati, ijodiy merosini tadqiq etgan olim Ismoil Hikmat Ertaylondir. Butun umrini turkiy xalqlarning klassik adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlagan Ismoil Hikmat Ertaylon nafaqat Turkiya davlati, balki Dog‘iston, Qrim, Ozarbayjon, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan turkiy adabiyot namunalarini jiddiy o‘rgangan. Turkiy adabiyotning daho shoiri Navoiy yashagan davr, zamon va muhitni o‘rganish asnosida Husayn Boyqaro saltanatdordligi, asarlarining qo‘lyozmalari bilan tanishib chiqqan, bir qo‘lyozmani ikkinchisi bilan muqoyasa qilgan. Natijada Ismoil Hikmat Ertaylon 1945-yil Istanbulda “Risoi Sulton Husayn Boyqaro” asarini nashr ettiradi. 1946-yilda esa “Devoni Sulton Husayn Boyqaro” chop ettirildi. Ushbu nashr “Oyo Sofiya” kutubxonasidagi 3911-raqamli Fotih qo‘lyozmasining faksimel nusxasi sanaladi. Ismoil Hikmat Ertaylonning talabchanligi tufayli Husayniy “Devon”ining ushbu nashriga 150 g‘azal bilan birga qo‘lyozmada mavjud bo‘lmagan boshqa g‘azal, muxammaslar ham kiritilgan. Ismoil Hikmat Ertaylonning husayniyshunoslikdagi izlanishlari shu yo‘nalishda turkolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini o‘tagan.

Turkiyalik yana bir tadqiqotchi Sevda Kaman Husayniy “Devon”ining Turkiya va boshqa davlatlarda saqlanayotgan qo‘lyozmalarini o‘zaro chog‘ishtirib, manbalaridagi farq va tafovutlar, she‘rlarning bayt va misralarning tartibi hamda sahifalarga ishlangan miniatura bezaklariga alohida e‘tibor qaratgan. Asosga olingan qo‘lyozmalarning har birini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan xususan, Sevda Kaman “Hüseyin Baykara Divanı’nın İngiltere ve Fransa’daki nüshaları üzerine” nomli maqolasida shoh va shoir Husayn Boyqaroning Turkiya va Yevropa mamlakatlaridagi qo‘lyozmalarini tarixiy-qiyosiy usulda o‘rgangan. Sevda Kaman Angliya milliy kutubxonasining Turk qo‘lyozmalari katalogida Or. 3493 raqami bilan ro‘yxatga olingan Husayniy “Devon”i qo‘lyozmasi bilan Parij milliy kutubxonasida Suplementuro 933 raqami bilan qayd etilgan qo‘lyozmani o‘zaro solishtirib chiqqan. Har ikki qo‘lyozma ham Husayn Boyqaro buyrug‘i bilan zamonasining mashhur kotibi Sultonali Mashhadiy tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Sevda Kaman ana shu jihatga e‘tiborini qaratib, Hirotda Sulton amriga ko‘ra kitobat qilingan bu nusxalarining Husayn Boyqaro devonining ilk qo‘lyozmasi sifatida qadrlanishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlaydi. Muallif maqolasida Angliya va Fransiya’dagi bu ikki nusxaning sahifalariga tushirilgan miniatura va tasviriy san’at namunalarini ham atroflicha izohlashga harakat qilgan.

Husayniy devonining Angliya nusxasi g‘oyat nafis bo‘lib, faqat 9 varaqdan iborat. Bu nusxada Husayniy she‘rlaridan tanlab olingan eng sara g‘azallar o‘rin olgan. Qo‘lyozmaning ilk ikki sahifasi naqshinkor bo‘lib, g‘azal misralari rangli va oltin suvi bilan ziynatlangan, matnning ayrim sahifalari zoye’ bo‘lgan. Sevda Kaman har ikki nusxada Husayniy g‘azallarining berilish tartibi, ularda bayt va misralarning salmog‘i, tushib qolgan so‘z va misralar haqida qo‘lyozmalarga tayanib aniq dalillar keltiradi. Maqolada

Turkiyada Husayniy hayoti va ijodini o'rganishga doir olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlarga ham keng murojaat qilingan. Sevda Kaman Turkiya milliy kutubxona va qo'lyozma fondlarida mavjud "Devoni Sulton Husayn Boyqaro" dastxatlari haqida fikr bildirganda Fuod Kuprilizoda, Ismoil Hikmat Ertaylon, Talip Yildirim singari Husayniy ijodini o'rgangan olimlarning ishlaridagi fakt va xulosalariga tayanadi.

2002-yil Anqara universitetida Talip Yildirim tomonidan "Hüseyin Baykara. Divanı (Metin – İnceleme – Dizin)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Mazkur tadqiqotda Talip Yildirim Husayn Boyqaro – Husayniyning jasur sarkarda, temuriy hukmdor sifatida ulug'lab, turli kurashlar va taxt uchun urushlar bilan o'tgan umriga qaramay o'z davrida ilm-fan, madaniyat sohasiga katta ahamiyat berganiga urg'u qaratadi. "U o'z davrida Hirotga olimlar va san'atkorlarni to'plab, ularga zarur hurmat-ehtirom ko'rsatgan. Arxitektura, tasviriy san'at, kitobat, ziroatkorlik ishlari bilan Hirot XV asrda mashhur bo'lgan. Markaziy Osiyoda muhim ilmiy va madaniy markazga aylangan. Ayniqsa, Alisher Navoiyga Husayn Boyqaroning ko'rsatgan cheksiz mehr va hurmati adabiyotimizda alohida o'rin tutadi". [Talip Yildirim, 2002: 5]. Talip Yildirim Husayn Boyqaro saltanatdorlik faoliyatini tarixiy manbalar asosida tadqiq etib, uning ilm-ma'rifat, san'at homiysi sifatidagi faoliyatini keng yoritadi. Hatto, Alisher Navoiy she'riyatidan keyingi o'rinda turuvchi asar sifatida "Devoni Sulton Husayn Boyqaro"ni ko'rsatadi. Husayniyning shoirlik faoliyatini Navoiy an'analari davom ettirilgan badiiy meros sifatida baholaydi. Tadqiqot ishida Husayniy "Devon"ining 8 ta qo'lyozmalari o'zaro qiyoslangan.

Talip Yildirim "Devon" qo'lyozmalarini matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o'rganib chiqqan, natijada Husayniy "Devon"ining tanqidiy matnini yaratgan. Tayyorlangan matnda 201 g'azal, 2 muxammas, 6 ruboiy va 3 bayt o'rin olgan. Tadqiqotchi Husayniy "Devon"ining qo'lyozmalarini o'zaro chog'ishtirish jarayonida Fotih kutubxonasidagi 3806-qo'lyozmani tayanch manba sifatida belgilagan. Shu bois Talip Yildirim yaratgan Husayniy "Devon"i tanqidiy matnidagi farqlar Fotih nusxasi asosida ko'rsatilgan. Talip Yildirim tadqiqotining Husayn ijodi bo'yicha Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlardan farqli va o'ziga xos jihati shundaki, "Devon"dagi har bir g'azal tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilgan, bayt va misralardagi so'z va jumlarlar eski turkiy til (XI asr) bilan qiyoslanib, Husayniyning so'z tanlash mahorati, turkiy til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanishi g'azallar tahlili asosida yoritilgan. Tadqiqotning lug'at qismida matnda tanlab olingan so'zlarning ma'nosi ko'rsatilgan, so'zlardagi qo'shimchalar va ularning qo'llanilishi izohlangan. Talip Yildirim Husayniy "Devon"i qo'lyozmalarini tarixiy-qiyosiy usulda o'rganib, shoir siymosining o'z davri adabiy muhitida tutgan o'rni, Husayniyning ijodkor sifatidagi mavqei, turkiy til va adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, Husayniy poetik niyatining qabariq jihatlarini uning g'azallarida aks etishini adabiyotshunoslik va adabiy manbashunoslik, tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan.

Turkiyada Husayniy ijodiy merosining o'rganilishiga oid kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, turk olimlari XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi turkiy adabiyot rivoji, Hirot adabiy muhitining yirik namoyondalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, ijodiy merosini o'rganar ekan, zamonasining yetakchi shoiri sifatida Husayn Boyqaro – Husayniy biografyasi, hukmdorlik faoliyati, shoirlik mahoratini ham zo'r qiziqish bilan tadqiq etishgan. Bu holatni Husayniy asarlarining qo'lyozma nusxalari Turkiya fondlarida mavjudligi bilan ham izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. İsmail Hikmet Ertaylan. Risâle-i Hüseyin Baykara. İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Yayınları. – İstanbul, 1945.
2. İsmail Hikmet Ertaylan. Divan-ı Sultan Hüseyin Mirza Baykara "Hüseyinî". Türk Edebiyatı Örnekleri V. İstanbul Üniversitesi Yayınları. – İstanbul, 1946.
3. Sevda Kaman. Hüseyin Baykara Divanı'nın İngiltere ve Fransa'daki nüshaları üzerine. VI. Yıldız Uluslararası sosyal bilimler kongresi. – İstanbul, 12-13 aralık 2019.
4. Talip Yildirim. Hüseyin Baykara. Divanı (Metin – İnceleme – Dizin). – Ankara, 2002.

NUQRA ERKKA TASHNA YURAKLAR

Muhayyo Yo‘ldosheva,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Har qanday millatning millatligini belgilovchi besh birlikdan biri – til hisoblanadi. Tilning boy, chiroyli, ildizi chuqur, o‘zi mansub bo‘lgan millatni qay darajada identifikatsiya qila olishi uning adabiyotida namoyon bo‘ladi. Ya’ni har bir ijodkorning so‘zlarga evrilib qog‘ozdan joy olgan tuyg‘ulari, kechimleri o‘zbek degan millatning pasport ma’lumotlarini tashkil qiladi. Shu bois so‘zni bilib, tuyib, ayab, ketma-ketlik tartibigacha e’tibor berib qo‘llash lozim. Surxon qizi Nargiza Odinayevaning “Muallaq lahza” to‘plami bunga yorqin dalil. Nargiza so‘zni teran anglaydi, bor ranglari bilan yarqiratib ishlatadi, ko‘z oldingizga tasvirni shundoqqina keltiradi-qo‘yadi.

Shamol tebratadi avgustni,
Ko‘ylagin yechar saraton.
Rangpar bo‘lib qoldi yer usti,
Etagini to‘ldir, kuz, uyg‘on.
To‘lg‘oq tutgan shomni oralab
Shoshiladi qushlar iniga.
Kimdir shunda shamsni avaylab
Solib qo‘yar ko‘k xurjuniga.

Nargizaning ko‘zlari muntazam takrorlanadigan odatiy hodisalar zimnidagi noodatiy holatlarni ilg‘ab oladi. Avgustda yozning eng issiq payti – chilla kiradi. Jazirama issiqda quyosh bir joyda turib qolganday, havo quyuqlashib ketganday nafas olish qiyinlashadi. Tomirlardagi qon suvsizlik va issiq tufayli quyulib kishini qiynagani kabi quyoshning ayovsiz tig‘lari ham havoni quyuqlashtirib yuborgan. To‘satdan esgan shamol esa uni tebratib, havoni yurishtirdi. Shamol esganda ko‘tarilgan chang, yuzga urgan epkin, daraxtlar qimirlashi shoiraga ko‘ylakni yechib, qizib yotgan badanni sovtutishni eslatadi. Quyoshning asta botib o‘rnini tunga bo‘shatishini “kimdir shamsni avaylab, solib qo‘yar ko‘k xurjuniga” tarzida tasvirlaydi. Shamol tufayli bezovtalanib uchgan qushlar yana o‘z iniga qaytishi, daraxtlarning qisirlashi, suv shildirashi – butun tun simfoniyasi yangi kunning, tongning dunyoga kelishiga tayyorgarlik ko‘rayotgan tabiat tovushidir.

Nargiza tabiat hodisalari yordamida ko‘ngil evrilishlarini, ruhiy holatni aniq chizadi:

Chayqalib turibman, umrim uvishgan,
Yelkamni kepaklab elar shamollar.
Ko‘zning ko‘rganidan yuragim pishgan,
Mendan bir musofir olislab borar.

Odatda, momolarimiz shamol payti g‘alvirda don-dunlarni elab kepakdan ajratishgan. Shoirayashash davomida duch kelgan, ko‘nglini kir qilgan, ruhini egallab boshlagan qurumlardan xalos bo‘lishga tirishadi. Ammo bu oson emas. Mudom qo‘llaydiganimiz “Boshga tushganni ko‘z ko‘rar” maqolini go‘zal shaklda “ko‘zning ko‘rganidan yuragim pishgan” deya davom ettiradi. Ko‘z ko‘ngilning oynasi, u ichkaridagini tashqariga namoyish qilish bilan birga tashqaridagini ham ko‘ngilga ko‘rsatadi. Ko‘rganlari shoiraning toza, erksevar ruhiga to‘g‘ri kelmadi, asl meni unga begonalasha va uzoqlasha boshladi. Tajribasi odamga nisbatan qo‘llanadigan “g‘o‘r, pishmagan” iborasini Nargiza munofiqlik, xiyonat, manfaatgagina qurilgan munosabatlarni ko‘ra-ko‘ra charchagan yuragiga nisbatan “pishgan” tarzida ishlatadi.

Bandamiz
Hukmiga jonimiz vatan.
Osmonga qo‘lini ochgan bog‘lardan
Havoga to‘sh urib uchadi qushlar...
Shoiraning nigohi juda o‘tkir, tasavvuri boy. Osmonga bo‘y cho‘zgan daraxtlarning shamolda

to'liqlanishi unga duo so'rab ochilgan qo'lni, u daraxtlardan potrab uchgan qushlar esa o'sha daraxtlar tilayotgan so'zlarni eslatadi. Nargiza atrofidagi hech bir narsani befarq o'tkazmaydi, har birida o'ziga uyg'un, ko'nglini tarjima qilishga qodir jihatni ko'radi. Shunchaki kuz oyida shunchaki yog'ayotgan yomg'ir uning uchun to'lib ketgan ko'ngilning ko'zlardan yoshga aylanib toshib chiqishidir.

Tuproqman, dengizman, yo'lim tobora,

Yomg'irga qo'shilib yog'adi ko'ngil.

Dil – kuygan musofir, ortingga qara –

Noyabr... atrofda yana kuz hosil!

Havo sovub qish yaqinlashganda issiq o'lkalarga uchib ketayotgan qushlar chug'uri butun dunyoning, odamlarning, tabiatning tovushidir. Issiq kunlar o'rnini sovuq egallashi bilan tobora hafsalasi pir bo'layotgan, odamlarga, yaxshilikka ishonchi, mehri, tafti yo'qolib sovub borayotgan ko'ngil orasida o'xshashlik borligiga diqqat qaratadi.

Shamollar qiblaga qanday yo'l solar,

Zaminning ustida boshlandi qishlar.

Bo'g'zida borliqni chayqatib borar

Bog'lardan "Xudo" deb uchgan u qushlar.

Surxonning so'zlardan betakror she'rlar yaratadigan zargar qizi shafaqni "Qaboqlari qizargan kun orqasida" deya tasvirlaydi, ko'ngildagi ko'zda namoyonligiga "Men aytib beraman ko'zingga qarab, Nimalar yo'qligin kafting ichida" ("To'rt tomon" she'ridan) tarzida ishora qiladi. Uning "Borliqning kulgusi yetmish xil rangda, Dildagi xalovat qushlarday daydi", "Faqat sukunatdan tug'ilgan she'rman", "Eng go'zal izlarni chizadi, Tuproqqa sudralgan etaklar" ("Vatan siyrati" she'ridan), "Otamning yelkasi bir shahar – Biz qurgan orzular turadi", "Tushlar, sizga kechagidek yig'olmayman, Ko'zlarimga qarab bering, tinchlikmikan", "Yo'l topolmay oyog'imga yo'l surinar" ("Yigirma va o'ttizimning orasida" she'ridan) kabi misralari so'zni qanchalar nozik va chuqur bilishi, puxta egallab olgani va shu bois istalgan holatni oson chiza olishini ko'rsatadi. Shamol deraza tavaqalarini ochib yopishini "Nafasi entikib qo'yar darchaning" yoki qovjirab qolgani tufayli hidi dimoqqa gupillab urmay qolgan archani "islari eskirib ketgan" deb ta'riflash uchun ko'zlar qanchalar tiyran, tasavvur qanchalar boy, fikrlar tez bo'lishi kerak?

O'zgartmadi undov yukini,

Shu nuqtada taqdirga kirdim.

Derazaning bitta ko'zini

Yuragimni otib sindirdim.

Umuman, Nargiza Odinayevaning ijodi bizning adabiyot inja tuyg'ularni tasvirlashga, betakror manzara yaratishga, odamni taftish qilib, uni bor yaxshi-yu yomonligi bilan ko'rsatishga, o'qirmanlarni hayratlantirishga qodir ekanligining isbotidir. Bu, shukurki, adabiyotimizda siyrak hodisa emas — Gulhayo O'rolovaning "Ruhafzo" to'plami ham yuqoridagi kabi yuqori saviya, ingichka va inja tuyg'ular, betakror badiiy manzara yaratgan she'rlardan tashkil topgan. Gulhayo borliqda yuz berayotgan har bir hodisani o'ziga xos nigoh bilan kuzatadi, biz kunda ko'rib guvohi bo'layotgan, ko'pda e'tibor ham qilmaydigan holatlarni she'riy satrlarga butunlay yangi qiyofada muhrlab qo'yadiki, ular bir vaqtning o'zida ham tanish, hamda notanish tuyuladi:

Kurtak ochayapman

O'sayotirman

Qishning ibtidosi farahni kiyib.

Baxtlarga qo'limni cho'zayotirman

Bori qayg'ularning rizqini qiyib.

Ko'hna dunyo boqar sirli, jilmayib,

Yangi umid oqar tomirlarimdan.

Yorug' misralarim ortar kun sayin,

Bugun minnatdorman sha’n yillarimdan

O’tli ruhiyatni kiyib jismimga
Jilvagar hayotga bir ko‘z-ko‘zlayman
Yarashib ketadi hayo ismimga,
Egn toza, fusunkor so‘zda so‘zlayman.

Vujudim his qilmay qo‘ydim, to‘g‘risi,
Shuurim vaznsiz chuchmallikni yer.
Men doim yukungan samoviy iloh:
“Sen faqat yurakdan iboratsan”, der.
...Men faqat yurakdan iborat undov!

Ko‘rinayaptiki, Gulhayo O‘rolova ijodida fikrni ifodalashdan ko‘ra, ruh manzaralari tasviri ustuvorlik qiladi. Unga kutilmagan izlanishlar yot bo‘lmagani holda milliy o‘ziga xoslik sezilib turadi. Ayni jihat Gulhayo she’riyatining asosini tashkil etadi. Shoiraning she’rlari takror va takror o‘qib ham ko‘nikilgan yaxlit fikr va xulosani ilg‘ab olish qiyin:

Sag‘ir qolgan hislarim-la
Chorasiz entikaman
Qadim ohangni tinglab.
Nuqra erkka tashnalar yurtidanman,
Bo‘g‘zim erk.
Tomirlarimdan
Erk sog‘inchi tomar chakillab...

Behol yiqilaman
Bo‘m-bo‘sh tiynatimga
(axir osonmas)
Zil-zambil gunohni ortmoqlab yurish.
So‘ng hech narsa bo‘lmagandek
Xotirjam, mamnun
Hayot ko‘zlariga tikilib turish

Bu she’rdan hissiy lazzat olish uchun intellektni zo‘riqtirish kerak bo‘ladi. “Aslan Zanjirbandman, nigohim – kishan” deb boshlangan she’r “Aslan Zanjirbandman, Nigohlaring – erk” tarzida tugallanadi. Ya’ni safarni o‘zidan boshlab Unda tugatayapti. Gunohlari zanjiriga bandi qilib tashlangan kimsa kimning ko‘zlarida erkni ko‘ryapti? Ishqdir, poklikdir, mas’umlikdir, samimiyatdir balki qurum bosib og‘irlashgan ruhni tozalab-poklab oqlaydigan va ozod qiladigan? Shunga javob topmaguningizga qadar she’r mantig‘i sizga ochilmay turaveradi. Gulhayo bir she’r matnining ichida vazn, qofiya singari talablardan qochadi, boshida “Aslan Zanjirbandman, nigohim – kishan” shaklida yaxlit satr bo‘lib kelgan xabar oxiriga borib “Aslan Zanjirbandman, Nigohlaring – erk” tarzida ikki satrga bo‘lib tashlanadi. Bu shakliy o‘yin nigoh o‘zidan o‘zgaga qaratilganiga urg‘u beradi, ma’nosini kuchaytiradi. Va an’anaviy shaklga Gulhayoning tuyg‘ulari sig‘maydi ham. Ko‘nglidagi vazni, ichki musiqani, dilidagi gapi, tuyg‘usini ko‘p nuqtalar, chiziq, misrama-misra so‘z ko‘paytirib borish yordamida ifodalashga harakat qiladi:

Qachonlardir...
Dard siniqlarin
Bilmay bosib olgan olgan edim men.
Onaginam ko‘zyoshin artib,
Dedim: “O‘tib ketar, mening ko‘nglim keng”.
Gulhayo she’riyatining yaqqol ko‘zga tashlanib turuvchi, botiniy muntazamlilikni ta’minlovchi,

she'riy nutq ta'sirini bir necha barobar kuchaytirib beruvchi jihati uning shakliy tizimlilikka rioya qilmasligidadir.

Sevgilim...

Muhabbatga to'liqmi yoding?

Taxayyul bor, bamisli sharob.

Ko'ksim to'la ishqing, faryoding

Orzular – yot, ilinlar xarob

Ko'rinayaptiki, muntazamlikning yo'qligi o'qirmanning zavq olishiga halal bermaydi, tasavvurini to'la ishlatishga undaydi, uni cheklab qo'ymaydi. She'rdan Gulhayo nazarda tutgan ma'nodan butunlay farq qiluvchi, hatto uning aksi bo'lgan mazmunni chiqarish imkonini beradi. She'rni o'qiyotgan odam o'z ruhi, kayfiyati, tushunchasi, saviyasidan kelib chiqib, zarur ohang tanlaydi, kimdir uchun hijronning, yana boshqasi uchun visolning tasviriga aylanadi.

Qo'llaringda turar o'shal jom –

Ko'nglim manim.

Qismatim manim.

Aytgil tilak, aytgil qadahso'z,

Ruhafzoga ulansin tanim.

Jom - toshdan qattiq, shishadan nozik ko'ngil timsoli. U - ishq makon topishi muvin bo'lgan yagona qal'a. Nega Gulhayoning ko'ngli o'zgada? Bu yerdagi so'z o'yini o'qirmanni zavqlantiradi – kimgadir ishq tushish – ko'ngil berish deyiladi. Qiz ko'nglini bergani uchun ixtiyori o'zidamas. Bor yo yo'q bo'lishi, qismati uning qo'lida. Bu ko'ngilni qaytib olgani bilan foydasi yo'q, chunki u ishq bilan, birovning yodi bilan to'lgan. Ko'ngil berilgan odamning nafasi, gapi – hayotbaxsh. Shu bois uning dediklari shoiraning ruhsiz jismiga ruh bag'ishlaydi.

Yuqorida aytilgani kabi, har bir ijodkor o'zidagi ruhiy holatlarni aniqroq yetkazib bera olish uchun qo'llayotgan tili nozikliklarini puxta egallagan bo'lishi zarur. Busiz o'zini anglatish, tuyg'ularini so'zda namoyon qilish imkonsiz. Gulhayo va nargiza ana shunday ijodkorlardan. Ularning ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos badiiy hodisadir. Shye'rlarida so'z o'zining qudrati, shiddati, jozibasi bilan to'la namoyon bo'ladi. Ijodkorlar so'zni jonlantiradi, tuyg'ularni nafaqat his etish, balki ko'rish imkonini ham beradi.

LIRIKADA JOMI JAM TALQINI

Matluba Jabborova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz lirikada an'anaviy jomi Jam obrazining badiiy talqini yuzasidan mulohaza yuritiladi. Jomning turli ma'no qirralari, badiiy ifodasi, tasvir imkoniyatlari tahlil etiladi. Jomi Jam obrazining paydo bo'lishi, lirikaga kirib kelishi va an'anaviy obrazga aylanish jarayoni ochiqilanadi.

Kalit so'zlar: an'anaviy obraz, jomi Jam, lirika, mumtoz adabiyot, g'azal.

Jamshid jomi ko'pgina baytlarda maishatparastlik, ishratbozlik timsoli sifatida qo'llanadi. Buning boisi afsonalarga ko'ra, shoh Jamshid jomni yasatganidan so'ng maishatga berilib ketadi, o'ziga bino qo'yib, manman va takabbur odamga aylanadi. Ushbu afsonaning turli xil variantlari bor. "Ajam shohlaridan Jamshid shunday jom ixtiro qilibdiki, uning ichidagi sharob aslo tugamas va u olamni o'zida aks ettirib turar ekan. Shunday qilib, "jomi Jam" – tunganmas boylik va ishrat, shukuhu saltanat ramzi". [Komilov, 2009:225] Mana shu naql asnosida badiiy adabiyotdagi an'anaviy jomi Jam timsoli

ko‘pincha ishratparastlik va mol-dunyoni anglatuvchi bir badiiy detal sifatida qo‘llanadi. O‘zbek mumtoz she‘riyatida jomi Jam timsolining turlicha talqinini kuzatish mumkin.

a) Jomning ko‘ngil ma‘nosidagi talqini. Hofiz Xorazmiyning g‘azallarida an‘anaviy jomi Jam timsoliga murojaat qilinadi.

Safo izdar esang, sof et ko‘ngulni,

Safoyi ishq jomi Jamda yo‘qdur. [Hofiz Xorazmiy, 1981:111]

Ma‘nosi: Agar poklikni, pok muhabbatni istayotgan bo‘lsang, bu poklanish amallarini ko‘ngilni pok etishdan boshlagin. Chunki bunday “safoyi ishq” – poklik hatto jomi Jamda ham yo‘q. “Safo – riyozat chekishdan ko‘ngilning poklanishi”, “Poklik – ta‘bning nopisand yomon xislatlardan tozalanishi... ko‘ngilning ag‘yor, ya‘ni g‘ayri yordan, g‘addor dunyodan yuz o‘girishi”dir. [Komilov, 2009:222] Bu o‘rinda jomi Jam o‘tkinchi dunyo, ishratparastlik timsolidir. Shoir demoqchiki, dunyoni butkul poklashning imkoni yo‘q, shu boisdan o‘z ko‘nglingni dunyo g‘uborlaridan pok et. Har bir inson o‘z ko‘nglini pok etsagina, olam ham poklanishi mumkin. Muallif pok qalbli, toza ko‘ngilli insonlar orqali dunyoni g‘ubor va changlardan poklashni istaydi.

Keltur, ey yor, muvofiq jomi may Hofizg‘akim,

Jomi mayni muftisi bechora topsa Jam bo‘lur. [Hofiz Xorazmiy, 1981:161]

Ya‘ni tasavvuf adabiyotida jom – ko‘ngilga, may esa ishqqa, ilohiy ishqqa muqoyasa qilinadi. Bu o‘rinda ishq yo‘lida g‘urbat chekkan oshiq – lirik qahramon o‘z ma‘shuqasidan “jomi may” – ishq bilan limmo-lim to‘lgan qalbini so‘rayapti. Agar yor unga marhamat ko‘rsatib, ko‘nglini tuhfa qilsa, bechora oshiq xuddi jomga egalik qilgan Jamshiddek ishq yo‘lida shohga aylanadi. Hofizning dastlabki baytida “jomi Jam” poklikdan xoli, o‘tkinchi dunyo timsolida tasvirlansa, ikkinchi baytda yorning muhabbatiga sazovor bo‘lgan oshiqning ko‘ngli jomga egalik qilgan Jamshidga qiyoslanadi.

“Muhabbatnoma”ning bir o‘rnida shoir soqiyga murojaat qilib, jomi Jamni keltirishni buyuradi.

Kel, ey, soqiy keturgil jomi Jamni,

Kishining ko‘nglidin may yur g‘amni. [Xorazmiy, 1987:19]

Ey soqiy, menga Jamshid jomini keltirgil, zero ki ko‘nglimdagi g‘am-tashvishni faqat ushbu jomdagi may ketkazadi. Mayning qudrati shundaki, uni ichgan odam olovlanib yonmaydi, ishq o‘tida jizg‘anak bo‘lmaydi. Bu may ishq mayi bo‘lgani bilan oshiqning ko‘ngliga osoyishtalik olib kiradi, ishq yo‘lida quvvatlantiradi, dardiga malham bo‘la oladi. Ishq olovi taftini faqat ishq mayi pasaytirishi mumkin. Ushbu o‘rinda maydan sarxushlikni istayotgan lirik qahramon holatini yor vaslini istagan va unga yetishgan, bundan sarmast bo‘lib dunyo g‘amlarini unutgan oshiq qiyofasiga mengzash mumkin.

Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asaridagi bir baytda shoir jomi Jamni bo‘laklarga bo‘ladi, undan hamma bahramand bo‘lishini xohlaydi.

Elikka jomi Jam olmish shaqoyiq,

Eram bog‘i bikin bo‘lmish hadoyiq. [Xo‘jandiy, 1987:52]

Jomi Jamdan ellik kishi umidvor bo‘lsa, u parchalanib oltmishga ham bo‘lish mumkin. Ishqdan umidvor kishilarga Bog‘i Eram – jannat ham o‘z chegarasini yashiradi. Ya‘ni agar sen ilohiy ishqni istasang, unga oshufta bo‘lishni xohlasang, u jannat kabi hadsiz, chegarasiz. Bu ikki tushunchaga nisbatan (jannat va ishq – M.J.) tugab qolish yoki yetmay qolish degan so‘zlarni ishlatib bo‘lmaydi. U barchaga yetadi, hamma undan bahramand bo‘lishi mumkin. Allohning marhamati keng.

Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,

Kechar dunyo g‘animat tut bu damni. [Xorazmiy, 1987:60]

Lirik qahramon soqiyga murojaat qilib, bu o‘tkinchi dunyoni g‘animat bilib, menga Jamshid jomini keltirgil, deb buyuradi. Chunki u qisqa umri davomida ishqdan bexabar o‘tib ketmoqchi emas. Shu boisdan, soqiyga – Allohga murojaat qilyaptiki, menga Jamshid jomini – ishqqa limmo-lim to‘lgan ko‘ngilni berki, har bir fursat g‘animat va men ishqdan mosuvo qolmay.

Mumtoz lirikada jomi Jam timsolining yana bir istilohiy ma‘nosi qo‘llaniladi. Bu o‘xshatish tasavvufiy tushunchalar negizida vujudga kelgan bo‘lib, u ma‘rifat bodasi bilan limmo-lim orif ko‘nglini

anglatadi. Quyidagi baytda jomi Jamning ana shu ikkinchi ma'nosiga ishorat qilinadi.

Rindi sharobxonag'a inkor qilmakim,

Mardum hazor zavq bila jomi Jam chakar. [Hofiz Xorazmiy, 1981:175]

Jomi Jam xarobot, mayxona timsollari bilan birga qo'llaniladi. Ushbu maskanda oshiq ishq sharobidan bahramand bo'ladi Tasavvufda ushbu maydan bahramand bo'lgan oshiq qiyofasi – yorning go'zalligini ko'rib mast bo'lgan yoki ma'shuqa marhamatiga musharraf bo'lib, o'zligini butkul unutgan sarxush holatda tasvirlanadi. Muallif lirik qahramonga mayxonada kishilar ming zavqu shavq bilan jomi Jamdan bahramand bo'lishayotganini va rindlikni inkor etmasligini ta'kidlaydi. Ushbu o'rinda Jamshid jomi tushunchasida ishq bilan limmo-lim ko'ngil nazarda tutilgan. Hofiz Xorazmiyning quyidagi baytida shu fikrga yaqin misolni uchratamiz:

Jomi Jam ichra sharobi ishq bo'lmasa mudom,

Jomi Jam bilmangiz onikim erur sangu safol. [Hofiz Xorazmiy, 1981:34]

Agar ko'ngilda ishq mayi bo'lmasa, bo'sh idishni jomi Jamga tenglashtirmang, uni tosh yoki sopoldan nima farqi bor? Xalq og'zaki ijodida ham ishqsiz ko'ngilga nisbatan "Dardi yo'q – kesak, ishq yo'q – eshak" deyiladi. Shoir tasavvuridagi ishqqa to'la qalb ham go'yo sharob bilan liq to'la Jamshid jomidir. Ushbu baytda shoir jomi Jam timsolidan foydalanib, insonda yurak bo'lsa-yu, unda ishq bo'lmasa, unda uni yurak emas, tosh deyish ma'qulroq ekanligini ta'kidlaydi.

Bu davrda Hofiz chu mayi ishqni ichdi,

Jom izdayu Jam bo'ldi, saranjom tiladi. [Hofiz Xorazmiy, 1981:154]

Hofiz ishq mayidan bahramand bo'lgach, go'yoki jomni qo'lida tutgan, olamning eng ajoyibotiga ega bo'lgan shoh Jamshid kabi bu dunyodan boshqa ta'masi qolmadi, o'ziga "saranjom"lik tiladi. Chunki lirik qahramonning yashashdan muddaosi ishq mayiga oshufta bo'lish edi va maqsadiga erishdi.

"Haqiqatnoma"da shunday bayt mavjud:

Ketur, soqiy, ravon o'l jomi Jamdin,

Xalos etgil mani bu dardu g'amdin. [Sayyid Qosimiy, 1987:151]

Ey soqiy, menga jomi Jamni olib kel, toki men unga boqib, o'z yorimning vaslini ko'ray, hijron dardidan xalos bo'lay. G'am-tashvishda qolgan oshiq – lirik qahramon rivoyatlarda madh etilgan o'sha mo'jizaviy jomdan oinai jahondek dunyoda bo'layotgan barcha voqealarni, tasviru hodisotlarni ko'rish mumkinligiga umid qilib, uni keltirishini so'raydi. Oinai jahon orqali o'z yorini ko'rishni va hijron dardidan xalos bo'lishni xohlaydi.

b) Jomning dunyo, borliq, mol-mulk ma'nosidagi talqini:

Boda ichkim, charx jomi sirrini Jam bilmadi,

Garchi ul yuz Jam kibi mayxoraning davrin bilir. [Navoiy, 2011:199]

Shoir baytda aylanuvchi charxni Jamshid jomiga o'xshatadi. Charx sirlari nihoyatda murakkab. Jamshid may davrasida jom aylanishidan qanchalik boxabar bo'lmasin, bu jom sirlarini bilmay o'tib ketdi. Olam sirlarini bilish mushkul, yaxshisi, boda ichmoq darkor. Baytda Jamshid jomi olam timsoli sifatida zikr qilingan.

1. Alisher Navoiy she'rlarida jomi Jam mavzusiga ko'p bora murojaat etiladi. Shoir g'azallaridagi adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan tahlil qilingan jomi Jamning o'ziga xos talqini alohida ahamiyatga ega. "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoni "G'aroyib us-sig'ar"ning dastlabki "*Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo*" deb boshlanuvchi g'azalida shoir o'zining ilohiy muhabbatini, sog'inchini *may, jom, soqiy* kabi badiiy timsollar orqali ifoda etadi. Ushbu g'azal navoiyshunos olimlar tomonidan tahlil etilgan¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

2. Xorazmiy. Muhabbatnoma //Muborak maktublar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

3. Xo'jandiy. Latofatnoma //Muborak maktublar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

4. Hofiz Xorazmiy. Devon. 1-2-jild.– T.: O'zbekiston, 1981.

5. Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma // Muborak maktublar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987.
6. Aliybek Rustamiy. Adiblar odobidan adablar. – T.: Ma’naviyat, 2003.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009.
8. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar. – T.: Tamaddun, 2012.
9. Xo‘jaev T.R. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor. Filol. fan. nomz. diss. – T., 1996.
10. Nurmonov F.I. Xizr obrazining genezisi va uning o‘zbek folkloridagi talqini. Filol. fan. nomz. diss. – T., 2007.
11. Jabborova M. Jamshid’s image in Navoi’s lyrics. News of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan. Series «Of Social and Human sciences». Almaty, NAS RK. №1(329) 2020. – P. 191-198.

CHO‘LPON VA ROBINDRANAT THOKUR: ADABIY TA’SIR MASALALARI

Shahlo Hojiyeva,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,

Annotasiya

Mazkur maqolada hind adibi Robindaranat Thokur va o‘zbek shoiri Abdulhamid Cho‘lpon o‘rtasidagi ijodiy mushtarak jihatlariga e‘tibor qaratiladi. Cho‘lponning badiiy tarjima borasidagi mahorati hamda ijodiy o‘rganish masalalari haqida mulohazalar bayon qilinadi. Qiyosiy-tahliliy va tahliliy-tipologik tahlil metodidan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: Robindaranat Thokur, Abdulhamid Cho‘lpon, ijodiy ta’sir, ijodiy izdoshlik

Sharq va G‘arb madaniyati qiyosiga yuksak umuminsoniy mezonlar asosida yondashish, masalaning tub mohiyatidan, ildizidan kelib chiqib fikr yuritish, Vatan va millat manfaati nuqtai nazaridan baholash – mutafakkir jadidlar ma’naviy-axloqiy ta’limotining bosh xususiyati. Shu o‘rinda akademik Naim Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishni o‘rinli deb bildik: “XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkistonga yetib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon kabi yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi tug‘ilgan asrning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Turkiya, va Eronda sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabar ham shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi”. [1. Naim Karimov, 11-bet].

Robindranat Thokur (1861-1941) osiyolik adiblar orasida birinchilardan bo‘lib Nobel mukofotini olganligi barchaga ma’lum. Cho‘lpon Thokur ijodini “Sharq bilan G‘arbni bog‘laydigan ma’naviy-badiiy ko‘prik”, deya yuksak baholangan. Thokur shoir, adib, dramaturg, sozanda-bastakor, rassom, axloqshunos, faylasuf, siyosiy publitsist, ma’rifatparvar muallim sifatida sermazmun faoliyat yuritgan mutafakkir. Uning ona yurtga bo‘lgan muhabbati Cho‘lpon e‘tiborini tortgan bo‘lsa ajab emas. Ushbu ma’rifatparvar insonga bag‘ishlab Cho‘lpon ikkita yirik maqola bag‘ishladi. “Ulug‘ hindiy” va “Tago‘r va tago‘rshunoslik”, she‘rlaridan namunalar tarjima qildi.

Cho‘lponning Robindronath Thakur (Rabindranat Tago‘r) ijodiga murojaatini uning o‘z shaxsiy qiziqishi natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Buning zamirida buyuk shoirga xos katta va ulug‘ maqsad bor edi. Bu turkiy xalqlar adabiyotining Tago‘r hind adabiyotini olib chiqqan darajaga yetkazish g‘oyasi edi. Tago‘r XX asr boshida “dunyoda eng o‘tkur adibga berilaturg‘an Nobel mukofoti”ni qo‘lga kiritish orqali hind adabiyotining shuhratini ham orttirdi. Cho‘lponda mazkur g‘oya bo‘lganini uning “Ulug‘ hindiy” maqolasida avval o‘zbek, so‘ng turkiy adabiyotlar orasida nisbatan ilg‘or bo‘lgan tatar, ozarbayjon va usmonli adabiyotini qisqa tahlil qilib, eski uslubdan yangisiga juda sekin borilayotganidan

taassuf chekadi. Lekin juda oz bo'lsa-da umid borligini ham unutmaydi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlarini eslashni lozim topdik: "Sharq klassiklari, ayniqsa, turk va hind yozuvchilarining asarlari bilan, shuningdek, Ovro'pa va rus adabiyoti bilan puxta tanish edi. Shuning uchun 15-16 yoshlaridayoq ma'rifatparvarlik g'oyalarini qabul qilishga tayyor edi. Shuning uchun Cho'lpon yoshligiga qaramay, Turkistonning taqdiri to'g'risida, millatning istiqboli haqida chuqur qayg'urish bilan o'ylay boshladi. U ham jadidlarga ergashib, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan-bir yo'li ma'rifat degan e'tiqodga keldi" [2. O. Sharafidinov, 67-bet].

Cho'lpon turkiy adabiyotda eski ruhni saqlagan holda yangi (G'arbga xos) shakllarni o'zlashtirish tamoyilini ilgari surishi, shu yo'l bilan bu adabiyotning ilg'or adabiyotlar qatoriga qo'shilishiga ishonchi ham ana shu kichik maqolada ayon bo'ladi. Shuningdek, maqolada shoirning Tago'r ijodidan uchta she'rni tarjima qilib nashr ettirganini ham bilib olish mumkin.

Cho'lponning ikki qismdan iborat "Tago'r va tago'rshunoslik" maqolasi ham uning mazkur g'oyasi ruhida yozilgan. "Rabindranat Tago'rni madaniy olamning hammasi taniydir. Madaniy olamga nisbatan ancha ketda bo'lg'an bugunigi turk-tatar sho'ro jumhuriyatlari xalqlari ham uni anchadan beri taniydilar". [3.]. Bu fikrdan shoir Tago'rning shuhrati bilan birga o'z xalqining "madaniy olamga nisbatan ancha ketda" ekanidan ichki og'riqli bir dardi borligini izhor qilayotgani ham tushuniladi.

Cho'lpon Thakurdan o'rganganlarini uch qismga ajratib kuzatish mumkin: 1) falsafiy mushohada; 2) mavjud narsa-hodisalardan poetik obraz yaratish va 3) she'r shaklini ma'lum qonuniyatlardan chiqmagan holda o'zicha yaratish. Kuchli ijtimoiy ma'noga ega "G'afat" she'riga u "ulug' hindiy"dan shunday epigraf oladi: "...Biz olam kitobini yanglish o'qiymiz-da, "U bizni aldaydir", - deymiz". Bu falsafa she'rga juda mos tushgan.

Tonglarning sirlari to'rni keng yoyganda,
Biz g'ofil, uyquning qa'rda qolamiz.
To'lgan oy ko'klarda suzilib borganda,
Biz qo'pol, to'nglikning qahrida qolamiz.
Yolg'onlar, aldashlar boshlangan damlarda,
Uyqumiz ochilib, borliqqa chiqamiz.
Bir zamon: qilichlar hech turmas qinlarda...
Shul zamon biz hatto ko'klarga uchamiz.
Derlarki: "Oylarning nurida vafo yo'q!"
Demaslar ularki: "Ayb bizda, biz buzuq!"

Cho'lpon Thakurning ikki she'rini tarjima qiladi: "Chiroqlar", "Hoy yo'lovchi qiz". Uning maqolalarini kuzatadigan bo'lsak, aslida ular ko'proq bo'lganiga amin bo'lamiz. Yuqorida eslangan "Ulug' hindiy" maqolasining o'zida uchta tarjima haqida so'z borgan edi. O'sha uchta tarjima uch hikoyasi hisoblanadi, bular "Qog'ozdan qayiqchalar", "Oq bulutlar bilan to'lqunlar", "Ko'ngilchanlik" kabi kichik hikoyalar. Bular haqida quyiroqda gaplashamiz. Hozir she'riy tarjimalar haqida fikr yuritsak.

"Chiroqlar" she'rida chinni chiroq, sopol chiroq va Oy, "Hoy yo'lovchi qiz" yo'lovchi qiz obrazlari orqali qadr-qimmat va ozodlik tushunchalari haqida fikr yuritiladi. Har ikkala she'rda ham shakllar asosiy yo'ldan chiqilmagan holda an'anaviy qoliplar istisno qilinadi:

"Chiroqlar" she'ridan:
*Bir ayvonning tokchasida
To'la nurli chinni chiroq
Poril-poril yonar edi
Oyning to'lgan kechasida
Nurlar sohib quchoq-quchoq.
O'ziga xo'p bino qo'yib,
O'z nurini o'zi suyib
Tig'larini sochar edi... [3.31-bet]*

Cho‘lpon hind adibi va shoiri Robindranat Tagor ijodi bilan tanishar ekan, nihoyatda ta’sirlanadi. Bu ta’sirni “Ulug‘ hindiy” maqolasida bayon etadi. “Shu narsani yuragim duk-duk urib yozdim, - desam, yo ishonasiz, yo ishonmaysiz.

Lekin yuragim shamol tekkan yaproqday qaltiraydir... Bir xil zavq – “nash’a” bilan qaltirag‘an yuragim butun tanimni silkitadir va qo‘lim ham shu orada yengilgilgina chayqalib turadir”.(31-bet) “Ulug‘ hindiy” maqolasidan olingan parchadan anglashiladiki, Cho‘lpon yangilik istayotgan, izlayotgan paytda Tago‘rdan o‘shani topganday bo‘ladi. Bu o‘rinda adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning quyidagi fikrlariga qo‘shilmaslikni iloji yo‘q: “... Buyuk hind shoiri va mutafakkiri Rabindranat Tagor siymosini targ‘ib qilishga bag‘ishlanganday ko‘rinadi. Biroq aslida esa Cho‘lpon Tagor bahonasida o‘zbek adabiyotining rivoji qay yo‘ldan borishi kerakligi haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. Maqolada Tagor asarlari ideal darajasiga ko‘tarilgan chinakam san‘at namunalari sifatida talqin qilingan. Xo‘sh, Cho‘lpon Tagor ijodini qay jihatdan ideal ijod deb biladi? Shunisi muhimki, Cho‘lpon bu to‘g‘rida fikr bildirar ekan, faqat o‘zbek adabiyoti yoxud o‘zbek yozuvchilarinigina nazarda tutmaydi, balki, umuman, yangi adabiyotning XX asr boshlarida adabiyotga kirib kelgan Sharq yoshlarini nazarda tutadi” (71-bet)

Cho‘lpon “Tago‘r kim?” maqolasida: “Tago‘rning she‘rlari hammasi degunday kuyli, kuylari – xalq kuyi. Uning har bir she‘ri o‘z kuyi bilan xalq orasida o‘quladir, u o‘z she‘rlariga kuylar ham topadir, no‘ta ham yozadir. Bu ulug‘ kishi to‘g‘risida uzunraq yozishni birorta jiddiy asari o‘zbekcha chiqar vaqtqa qoldirib, bu safar uning bir ashulasini tizma yo‘li bilan tarjuma qilib beramiz. (Adabiyot bo‘lumida)”.(3, 38-bet). Bu yerda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining Adabiyot bo‘limida bosilgani ma‘lum qilingan va “Hoy yo‘lovchi qiz” she‘ri tarjima qilinib, e‘lon qilingan. Nima uchun Cho‘lpon tarjima uchun ushbu she‘rni tanladi degan savol tug‘ilishi mumkin.

Men bilaman, oh, bilaman seni,

Hoy yo‘lovchi qiz!

Dengizdan nari ma‘buding seni,

Hoy yo‘lovchi qiz!

She‘rda yangicha usul, yangicha ohang, yangicha obraz, yangicha ramz va nozik his-tuyg‘ularning borligi Cho‘lponni o‘ziga jalb qilgan bo‘lsa ajab emas. U yangilik izlayotgan vaqtda, Thakur asarlaridan topadi, ilhom oladi.

Ko‘rdim: kuz fasli – tong otar chog‘da,

Ko‘rdim: ko‘klamda – oy botar chog‘da,

Ko‘rdim: qalbmida sirlik uchmoqda,

Hoy yo‘lovchi qiz!

Yiroq ko‘klarga ko‘zni solaman,

Qo‘shiqlaringni tinglab qolaman,

Sening yo‘llaringda qurbon bo‘laman,

Hoy yo‘lovchi qiz!

Butun dunyoni ko‘rdim men. Mana,

Kelib turibman belgisiz elga,

Eshiging oldida mehmonman senga,

Hoy yo‘lovchi qiz!

Thakur ozodlik harakatining radikal yo‘ldan ketmadi. U asarlarida ozodlikka erishishning ma‘rifiy yo‘lini tanladi. U shunday fikrlarni qayd etgan: “Ma‘rifatsiz ozodlik bu hali ozodlik emas. Ozodlikning eng uzun, eng mashaqqatli yo‘li bu ma‘rifat yo‘lidir. Ma‘rifat bilan anglanmagan ozodlik, yana qayta boy berilishi mumkin. Faqat ma‘rifatgina ozodlikni abadiy qila oladi” deb aytgan edi, Cho‘lpon ta‘biri bilan aytganda “ulug‘ hindiy”.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jadidchilik harakatining faollaridan bo‘lgan Cho‘lpon, Thakur ijodini o‘rgandi, tarjimalar qildi, yangi ruhdagi adabiyotni yaratgan “ulug‘ hindiy”dan hayratlandi.

Uning ma'rifat yo'lida qilgan xizmatlarini yuqori baholadi va unga ergashib ijod qilishni maqsad qilgan edi. Ma'lum darajada maqsadiga erisha oldi desak xato bo'lmas. Bu ikki ijodkorning asarlari bugungi kunda ham, yosh avlod uchun boy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: “O'zbekiston”. 2008. Б.-532.
2. Шарафиддинов О. “Ижодни англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. Б. - 640.
3. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. Б.- 486.

EY, NUBUVVAT XAYLIG'A XOTAM BANI ODAM ARO, GAR ALAR XOTAM, SEN UL OTKIM, BO'LUR XOTAM ARO

Zarina Sayliyeva,
Buxoro davlat universiteti
dotsenti

Annotatsiya

Alisher Navoiyning “Badoye' ul-bidoya” devonida hamd, na't va mav'iza yo'nalishidagi ma'rifiy-badiiy g'azallardan keyin badiiy-ma'rifiy g'azallar joylashtirilgan. Ma'lumot o'rnida, Alisher Navoiyning lirik she'rlari jami 8ta devonga jamlangan. “Badoye' ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”) – shoirning o'zi tuzgan ilk rasmiy devoni sanaladi.

Kalit so'zlar: devon, g'azal, hamd, na't

Navoiy ham o'z dostonini shu an'anaga amal qilgan holda Olloh hamdi bilan boshlab, bu masalaga maxsus bob bag'ishlagan. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xudoning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o'simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini o'z yuksak aqli, har bir insonga mehri bilan boshqarib, harakatga keltirib, bir-biriga bog'lab, qovushtirib turishini katta shavq-zavq bilan tasvirlagan. Biz tahlilga olgan ushbu g'azal devon tarkibidagi 6- na't g'azal hisoblanadi. Dastavval, g'azalning to'liq matnini keltirishni joiz deb bildik.

Ey, nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, bo'lur xotam aro.
Yuz eshiging tufrog'iga surta olg'aymenmu deb
Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro
Anjum ichra orazing me'roj shomi o'ylakim,
Tushsa durri shabcharog'i har taraf shabnam aro.
Ne chun kiymish qaro har yon solib jabrig'a chok,
Firqatingdin Ka'ba gar qolmaydurur motam aro?
Sof ko'nglida yuzung mebrini go'yo asramish,
Tush chog'i har kun quyosh aksi emas Zam-zam aro.
Mash'ale bo'lmish malak ilgida ravzang boshig'a
Oy charog'i har kecha bu nilgun toram aro.
Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin
Zarra-zarra jismi bir-biridin to'kuldi g'am aro.
Yo'l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog'ila
Maqdaming to yetmadi ul vodiyni xurram aro.
Itlarning maxsusu mahzundir, Navoiy, koshki,
Kirsu bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro.

[Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1989. – B.17].

Ushbu baytda Navoiy payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning yuksak sifatleri, barcha payg‘ambarlardan ajralib turishlari ifoda etilgan:

Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro

Gar alar xotam, sen ul otkim bo‘lur xotam aro

Nubuvvat – payg‘arlik, elchilik

Xayl – guruh, tun qorong‘uligi

Bani Odam – Odam avlodi, insonlar

Xotam – uzukning ko‘zi, muhr

Nasriy bayoni:

Ey, odam bolalari ichida payg‘ambarlik muhriga loyiq ko‘rilgan Zot

Agar ular uzuk bo‘lsalar, sen ularning yoqut ko‘zisan

Bayt tahliliga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak Muhammadning hayoti va tarjimai holi siyratda, uning so‘zlari va qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar hadislarida bayon etilgan. Islom ta‘limotida Muhammad komil inson sifatida ta‘riflanadi. Sunnat payg‘ambarning hayoti barcha musulmonlar uchun namuna bo‘lishi kerakligi ta‘kidlanadi. Islom an‘anasida Muhammad hech qanday g‘ayritabiiy, ilohiy xususiyatga ega emasligi, balki hamma kabi oddiy odam, lekin Allohning chin va oxirgi payg‘ambari ekanligi qayd etiladi.

Muhammadning shakl-u shamoyillari, siyratu-sifatleri, insoniy fazilatlari, boshqa payg‘ambarlardan farq etadigan xususiyatlari to‘g‘risida u bilan birga yurgan, suhbatlaridan bahramand bo‘lgan sahobalar hamda nikohida bo‘lgan ayollari tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida ko‘plab asarlar bitilgan. Ushbu parchada ham payg‘ambarimizning barchadan g‘ayritabiiy va ilohiy xususiyatlari bilan ajralib turishlari tasvirlangan.

Yuz eshiging tufrog‘iga surta olg‘ay menmu deb

Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro

Yuz – kelmoq, kirmoq, yuzlanmoq

Eshik – dargoh, saroy

Charx – ko‘k, falak, osmon, taqdir,

Qasr – oliy qo‘rg‘on, qisqalik, qisqartirish

Nasriy bayoni:

Eshigingning tuprog‘iga yuz surish uchun

Quyosh har kuni samo qasridan tushadi.

Ushbu bayt payg‘ambarimiz (s.a.v)ning go‘zalliklari, tashqi ko‘rinishlaridagi mukammallik haqida bayon etilgan. Baytda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam insonlar orasida yuzlari eng chiroyli, tashqi ko‘rinishlari eng go‘zal kishi ekanliklari uchun quyosh har kuni go‘zal jamollarini ko‘rish uchun yuz bor samo qasridan olam aro tushishi yoritilgan. Sahobalar Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamni shu darajada vasflaganlarki, go‘yo siz U zotni ko‘rib turganday bo‘lasiz. U zotning yuzlari, yanoqlari, ikki ko‘zlari, qovoqlari, burunlari, bo‘yinlari, boshlari, peshanalari, og‘izlari, tishlari, ikki yelkalari, ikki kaftlari, ikki oyoqlari va boshqa a‘zolari qanday bo‘lganini o‘ta aniqlik bilan bayon etishgan. Bunga misol qilib Baro roziyallohu anhuning so‘zlarini keltirishimiz mumkin: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ikki yelkalarining orasi keng, sochlari ikki quloqlarining yumshoq joyigacha yetadigan zot edilar. Men U zotdan go‘zal kishini ko‘rmaganman”.

Anjum ichra orazing me‘roj shomi o‘ylakim

Tushsa durri shabcharog‘i har taraf shabnam aro.

Anjum – yulduz

Me‘roj shomi – ko‘kka ko‘tarilish kuni

Durri shabcharog‘ – kechani charog‘day yorituvchi dur

Nasriy bayoni:

Bu baytda payg‘ambarimiz go‘alliklari va Me‘roj kechasidagi voqealarga ishorat bor.

Sening yuzing yulduzlar orasida me‘roj tunidek,

Shabnamlar orasida kechani yorituvchi durdir.

Islom tarixida Muhammad (s.a.v) ning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayri (isro) hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishi (me'roj). Bu haqda Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda keng ma'lumotlar berilgan. Bu hodisa ilohiy mo'jizalar turiga kirgani uchun moddiylik va aqliy dalillar bilan chegaralanuvchi kishilar uni inkor etadilar. Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad (s.a.v) Jabroil (a.s) boshchiligida tunda ko'p yillik masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytganlar. Jumladan, yetti qavat osmon oraliqlarida o'zlaridan oldingi o'tgan yirik payg'ambarlar bilan muloqotda bo'lganlar. Jannat va do'zaxni tomosha qilganlar. 5 vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko'pgina asarlar mavjud. Jumladan, ushbu baytda ham payg'ambarimizning yuzlari me'roj kechasi kabi yorug' deb ta'riflanadi. Navoiy me'roj voqeasi bo'lib o'tgan tunni koinot jamoliga chiroy qo'shuvchi xolga o'xshatadi.

*Ne chun kiymish qaro har yon solib jabrig'a chok
Firqatingdin ka'baga gar qolmaydurur motam aro?*

Firqa – guruh, mazhab

Chok – yirtiq, yara

Nasriy bayoni:

*Nima uchun Ka'ba jabringdan qora kiyindi,
Seni mazhabingdan (Ka'baga) motam qolmaydi*

[Navoiy Alisher. MAT. 20 tomlik. 1-tom. Badoye' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1989. – B.17].

Ka'bayi muazzamani dastlab farishtalar bino qilganlar, so'ng Odam alayhissalom, so'ng o'og'illari Shis alayhissalom, keyin Ibrohim alayhissalom uni tiklaganlar. Muhaddis va muarrix imom Azroqiy (837 m. y. vafot etgan) bu haqida qayd etganlar. Ka'bai muazzamaning atrofi Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va Abu Bakr roziyallohu anhu davrlarida ochiq edi, devorlar bilan o'ralmagan edi. So'ng hazrat Umar roziyallohu anhu Ka'ba yonlarida joylashgan uylarni sotib olib sahnini kengaytirdilar va kishi bo'qyidan pastroq devor bilan o'radilar. Uning sahnini hazrat Usmon roziyallohu anhu, Ibn Zubayr roziyallohu anhu, Valid ibn Abdumalik ham yana kengaytirdilar. Valid ibn Abdumalik marmar ustunlar tikladi. Undan so'ng Mansur va Mahdiy ham Ka'bai muazzama sahnini kengaytirdilar. Shu bilan uning sahnini kengaytirish to'xtadi. Oli Saud hukmdorligi davrida Ka'bai muazzama atrofi hozirgi ko'rinishda yanada obod etildi. Baytda Ka'ba payg'ambarimiz (s.a.v)ning jabrlarida qora kiyganligi va qora kiyib motam tutayotganligi go'zal ifodalangan.

*Sof konglida yuzung mehrini go'yo asramish
Tush chog'i har kun quyosh aksi emas zam-zam aro*

Bayt mazmuni:

*Har kuni tush chog'ida go'yo quyosh aksi emas,
Zam-zamdek sof ko'nglida senga mehrini asrab qo'ygan.*

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning umrida quyosh tutilib, odamlarni namozga turg'izib qo'ydi va o'rnidan turdi va uzun qiyomni ijro qildi, so'ng uzoq vaqt egildi, yana o'rnidan turdi va uzoq qiyomni ijro qildi. birinchisidan qisqartirar, birinchisidan ancha vaqtgacha bosh egib, sajda qildi va sajdadini uzar edi, ikkinchi rak'atida ham xuddi avvalgi kabi qilgan va keyin namozni tugatgan Quyosh tutilsa, quyosh tutilib, Xutbani va'z qilib, Allohni ulug'lash va ulug'lashdan so'ng: « Quyosh va oy Allohning alomatlaridandirki, ular Allohning oyat-mo'jizalaridan ikki alomatdirlar. o'lim yoki hayotning bir qismini ko'rsangiz, Allohni eslab, takbir ayting, namoz o'qing va sadaqa bering!

(Hadid surasi, 154-oyat)

Navoiy ushbu baytni yozishda shu hadisga ishora qilgan. Payg'ambarimiz zam-zamdek sof ko'ngillarida Allohga bo'lgan muhabbatlarini asrashi ifodalangan.

*Mash'ale bo'lmish malak ilgida ravzang boshig'a
Oy charog'i har kecha bu nilgun toram aro*

Ravza – bog', jannat

Nilgun toram – ko'k rangli gumbaz

Nasriy bayoni:

Ushbu baytda oy charog‘i har kecha malak qo‘lida mash‘al chirog‘i bo‘lishi ta‘kidlab o‘tilgan.

Qum emas Bathodakim, mehri jamoling hajridin

Zarra-zarra jismi bir-biridin to‘kuldi g‘am aro.

Batho – Makka atrofidagi tog‘ oralig‘idagi dara nomi

Nasriy bayoni:

Bathodagi qum ham sening hajringdan

G‘amdan zarra-zarra to‘kildi

Navoiy Batho deganda, Makka shahriga ishora qilyapti. Makkadagi qumlar ham seni ko‘rish uchun g‘amdan zarra-zarra to‘kildi demoqchi shoir.

Yo‘l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog‘ila

Maqdaming to‘yetmadi ul vodiyni xurram aro.

Yasrib – Madina

Maqdam – qadam

Nasriy bayoni: To sening (Muhammad s.a.v) qadaming yetgancha, Yasrib shahri yuzini tirnog‘i bilan yirtibdi.

Itlaring maxsus mahzundur Navoiy, koshki,

Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro.

Mahzun – g‘amli, qayg‘uli

Mahrub – biror narsadan benasib

Nasriy bayoni: Koshki Navoiy sening yoningda yuruvchi itlaringga aylansa. Afsus, bundan hammamiz mahrummiz.

Alisher Navoiy badiiy san‘atlarni namoyish qilishda leksik imkoniyatlardan o‘ta unumli foydalanadi. Shariat va tariqatning komil jamiyat qurish hamda komil inson tarbiyasi uchun bir-birini taqozo etadigan tadrijiy, uzviy, uzluksiz bosqichli mantiqiy jarayondan iborat ekanligini asoslab borish, ulug‘ shoir g‘azallarini birlashtirib turuvchi umumiy g‘oyadir. G‘azaldagi so‘zlarning hammasi ramziy ma‘nolarga ega. Ulardan ayrimlarining ma‘nolarini ko‘rsatib o‘tdik. Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu g‘azallari bilan so‘zdan unumli foydalanishning yuksak mahoratini namoyish eta olgan. Alisher Navoiyning bu g‘azallari mukammal bir badiiy asar bo‘lib, unda Navoiy davri tili, mafkurasi, badiiy ijod xususiyatlarining muhim tomonlari o‘z aksini topgan. Shuning uchun Alisher Navoiy asarlarini o‘rganar ekanmiz, yo til, yo adabiyot, yo mazmun, yo shakl jihatlari bilan chegaranmaslik lozimdir. Asarni qanchalik chuqur o‘rgansak, shunchalik Hazrat Alisher Navoiy ijodining sirlar xazinasidan bahramand bo‘lib boraveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 1-том. Хазойин ул-маоний. Бадойиъ ул бидоя. -Тошкент: Фан, 1987, 720 б.
2. Rakhmiddinova S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO // SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 112.
3. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. «Девони Фони»: издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
4. 11. Бекова Н. Ж., Жалилова Л. Ж., Сайлиева З. Р. On a separate literary sources of the poetry collection” Sittai Zaruriya” by Alisher Navoi //Современная филология. – 2014. – С. 45-47.
5. Bekova N., Sayliyeva M. THE INTERPRETATION OF PRAISE IN THE EAST LITERATURE //Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии. – 2015. – №. 12. – С. 147-151.
6. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 784 б.
7. 7.Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали.//Шарқ юлдузи, 1987, № 3, 175-179-б.

8. 8.Соғуний Алихонтўра. Тарихи Муҳаммадий. -Тошкент, 1991, 222 б.
9. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). -Тошкент: Чўлпон, 1992. 672 б.
- 10.Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. 277 б.
- 11.11.Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1970, 173 б.
- 12.12.Ҳаққул И. Шеърят - руҳий муносабат. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989, 240 б.
- 13.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. -Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, 184 б.

ХОҲА ИҶОДИДА АН'АНАВИЙ ОБРАЗЛАР

Dilafroz Nazarova,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchi

Annotatsiya

Maqola Xoja hikoyatlaridagi an'anaviy obrazlar tabliliga bag'ishlangan. Unda Xojaning muhim axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy mazmundagi nasriy hikoyatlarida tilga olingan Sulaymon, Luqmoni Hakim, Sulton Mahmud G'aznaviy, No'shiravon, Iskandar, shoh Bahrom kabi obrazlar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Rumi, Nizomiy, Amir Xusrav, Sa'diy Sheroziy, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy merosining Podshohxoja ijodiga ta'siri va ularning an'anasini davom ettirgan izdosh sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: hikoyat, manba, xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, o'ziga xoslik, an'ana, badiiy mahorat, obraz.

O'zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, mavzu-mundariyasi boyib kelgan. Shu bois, an'ana va o'zaro ta'sir adabiyot hamda san'atning barcha turlariga tegishli bo'lgan ijodiy jarayon. Bunda ijodkor o'zidan oldingi ijod qilgan salafarlari tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mezon va qoidalariga asoslanib, ularning ba'zi tomonlarini takrorlaydi, qayta yaratadi, takomillashtiradi. Bir so'z bilan aytganda, "An'anaviy obrazlar – badiiy adabiyotda bir ijodkordan ikkinchi ijodkorga o'tib yuruvchi, ko'pchilikka tanish bo'lgan qahramonlar obrazlaridir. Bunday qahramonlar qachonlardir adabiyotga kirib kelgan va qattiq o'rnashib qolgan obrazlar bo'lib, har bir shoir uni qalamga olar ekan, yangi xususiyatlar bilan boyitadi" [Hayitmetov A, 1997: 208-210]. Adabiyotimiz namoyondalari orasida bu bosqichni o'tamagan, salafarining boy ijodiy merosidan uzilib qolgan birorta ijodkorni uchrata olmaymiz. Barcha ijod ahli salafarlari ijodidan ta'sirlanib qalam tebratgan. Shu singari o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja ham. Adib hikoyatlari mavzu mundariyasi, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta, pishiq yozilganligi, axloqiy-ta'limiy va ma'rifiy ahamiyatga egaligi bilan qimmatlidir.

Xoja ijodida an'anaviy obrazlarning ko'plab namunalarini ko'rishimiz mumkin. Bu an'anaviy obrazlar Xojagacha bo'lgan ijodkorlar ijodida ham uchraydi. Xususan, Rumi, Nizomiy, Amir Xusrav, Sa'diy Sheroziy, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy asarlarida uchraydigan Sulaymon, Luqmoni Hakim, Sulton Mahmud G'aznaviy, No'shiravon, Iskandar, shoh Bahrom va shu kabi bir qator an'anaviy obrazlar Xoja asarlarida ham mavjud. Adib bu obrazlardan foydalanishda salafarlari tajribalaridan unumli foydalangan hamda ularni qayta ishlab, badiiy jihatdan mukammal bo'lgan hikoyatlar yaratgan.

Xoja hikoyatlarining asosiy manbayi o'zi yashagan davr muhiti hisoblanadi. Bu davrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotini A.Ibrohimov "XVI asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari"da keng yoritgan [Ibrohimov A, 1976:7-33].

Xoja hikoyatlarining yaratilishida o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot namunalarining o‘rni katta. Ko‘pgina Sharq tillariga tarjima qilingan mashhur “Kalila va Dimna” asari va boshqa xalq ijodi namunalari bilan Xojaning yaqindan tanish bo‘lganligi aniq. Uning “Mahmud G‘aznaviy va boyqush”, “Sulaymon, pashsha va el”, “Iskandar va Chin hoqoni”, “No‘shiravon”, “Luqmoni Hakim” va boshqa hikoyatlari xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida yaratilganligi fikrimizning dalilidir.

O‘zbek yozma adabiyotida hikoyat janrining dastlabki namunasi sifatida Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida keltirilgan hikoyatlarni ko‘rsatish mumkin. Bu asar hikoyat va rivoyatlardan tashkil topgan. Undagi hikoyatlarning ko‘pchiligi diniy xarakterda bo‘lib, Rabg‘uziy ularning aksariyat qismini “Qur‘on” va boshqa diniy manbalardan olgan va shular asosida diniy-afsonaviy syujetga ega bo‘lgan hikoyat va rivoyatlar yaratadi. Masalan, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida Luqmoni hakim bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyat mavjud.

“Hikoyatda kelmish. Bir kuni xojasi Luqmonni bug‘doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekdi. Xojasi aydi: “Bug‘doy ek tedim, ne uchun arpa ekting?” Luqmon aydi: “Arpa eksa bug‘doy unmasmu?” Xojasi: “Unmas”. Luqmon aydi: “Andog‘ bo‘lsa sen ham yomonliq ekib, yaxshilik umid etmagil”. Xuddi shu hikoyat Xojaning “Miftohi ul-adl” asarida ham mavjud. Har ikkala ijodkor bir xil syujetdan foydalangan bo‘lsa-da, maqsad boshqa. Bu hikoyatini Rabg‘uziy yaxshilik va yomonlik kurashi sifatida bayon etgan bo‘lsa, Xoja “Tunu kun zulm qilursan, taqi qiyomatda savob umid etarsan” ya‘ni “Nima eksang, shuni o‘lasan” bilan yakunlaydi. [Podshohxoja, Inv № Д-4656. 147b – 148a].

O‘zbek adabiyotida she‘riy hikoyatning rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan shoirlardan biri Haydar Xorazmiydir. U Nizomiyning “Mahzan ul-asror” asarini o‘zbek tiliga ijodiy tarjima qilgan. Bu haqda N.M.Mallayev shunday yozadi: “Haydar Xorazmiy hikoyatning mohir san‘atkorlaridan biridir. U kichik hajmli hikoyatlarda katta va muhim bo‘lgan biror mavzuni yoritishga, xarakterli obraz va portretlar yaratishga muvaffaq bo‘ladi”. [Mallayev N, 2021:224].

So‘z mulkingning sultoni Alisher Navoiy lirik shoir, dostonnavis bo‘lishi bilan bir qatorda hikoyatlar ustasi sifatida ham mashhurdir. U faqat hikoyatlardan iborat bo‘lgan asar, ya‘ni hikoyatlar to‘plami yaratmagan bo‘lsa-da, uning “Hayrat ul-abror”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlaridagi hikoyatlar Navoiyni hikoyatnavis deb atashga haqli ekanligimizni ko‘rsatadi. Bu haqida V.Zohidov shunday fikr bildirgan: “Lison ut-tayr”da ma‘lum fikrni, da‘voni asoslash, uni illyustratsiya qilish uchun sharq adabiyotidagi traditsiya bo‘yicha hikoyachalar beriladi... Ular Navoiyning katta dostonlar muallifigina emas, ayni zamonda hikoyachilik ustodi ham ekanligini ko‘rsatib beradi” [Vohidov Z, 1961:31-34].

X-XI asrlardan boshlab fors-tojik adabiyotida falsafiy-didaktik xarakterdagi asarlar vujudga kela boshladi. Ularda ilgari surilgan g‘oyalarni asoslash, dalillash uchun kichik-kichik hikoyatlar keltirildi. XIII asrga kelib esa axloqiy-ta‘limiy ruhdagi asarlarga hikoyatlar kiritish an‘anaga aylandi. Buni biz Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa‘diy Sheroziy, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Hikoyat yozishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan ijodkorlardan biri Sa‘diy Sheroziydir. U o‘zining “Guliston”, “Bo‘ston” asarlari bilan fors-tojik adabiyotida hikoyatning rivojiga muhim hissa qo‘shgan. Xoja “Gulzor” asarini aynan Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asariga shakliy o‘xshatma tarzida yozgan.

Xoja ham yuqoridagi salafllari ijodidan bahramand bo‘lgan holda ular an‘analarini davom ettirib, “Miftohi ul-adl” va “Gulzor” asarlari bilan hikoyat janrining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Hikoyatlarida tilga olingan obrazlar salafllari ijodida takror va takror qo‘llanilgan bo‘lib, har biri bu obrazlardan o‘z qarashlari, g‘oyalari, maqsadlarini ochib berishda o‘rinli qo‘llaganlar. Masalan, birgina Iskandar obrazidan har bir ijodkor o‘ziga xos tarzda foydalanganlar. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining “Himmat humoyining balandparvozlig‘i ta‘rifida” [Alisher Navoiy, 2013:91-94] nomli bobida himmat to‘g‘risida so‘z yuritib, xulosa sifatida “Iskandar va gado” hikoyatini keltirsa, xuddi shu hikoyat Xojaning “Gulzor” asarida “Iskandar Zulqarnayn va darvesh shahzoda” [Poshshoxoja, 1962:30-31] sifatida keltiriladi. Faqat ikkala ijodkor talqini bir-biridan farqlanadi. Navoiy Iskandar Zulqarnaynni jahongirligi va adolatli shoh ekanligini birinchi o‘ringa qo‘yib, himmatni shohlikdan ustun bilsa, Xoja

bandasiga har qanday vazifani Olloh beradi, undan o'tib banda hech narsa qilolmasligini, har narsani faqat Ollohdan so'rash vojib ekanligini uqtiradi. Shu singari an'anaviy obrazlar ishtirok etgan hikoyatlar bir-biridan talqin, mohiyat nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Xojaning "Miftoh ul-adl" hamda "Gulzor" asarlarini o'rganib chiqish natijasida an'anaviy obrazlardan juda ko'p foydalanilganligining guvohi bo'ldik. Biz bu an'anaviy obrazlarni quyidagicha ikkita katta guruhga tasnifladik:

1. Payg'ambarlar, chohoryorlar, avliyolar, so'fiylar timsoli.
2. Afsonaviy qahramonlar, tarixiy shaxslar timsollari.

Birinchi tasnifga Muhammad (s.a.v), Iso, Nuh, Muso, Sulaymon, Dovud alayhissalomlar, Umar, Ali, Husayn roziyollohu anhular, Imomi A'zam, Tavis Yaman, Horun ar-Rashid va boshqalar.

Ikkinchi tasnifga esa Iskandar Zulqarnayn, No'shiravon, Luqmoni Hakim, Sulton Mahmud G'aznaviy, Bahrom Go'r va boshqalarni kiritish mumkin.

Tasniflardan ma'lumki, komil insonni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilgan didaktik adabiyot axloqiy mezonlarni Qur'oni Karim va Hadislarga tayanib belgilaydi. Bizgacha yetib kelgan didaktik asarlarda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu an'anani davom ettirgan Xoja ijodida ham Qur'oni Karim oyatlari va Hadislar sharhini uchramiz. "Miftoh ul-adl" asarida Imomi A'zam, Dovud alayhissalom, Iso alayhissalom, Muso alayhissalom, Luqmoni hakim, Sulton Mahmud G'aznaviy, Iskandar Zulqarnayn, No'shiravoni odil, Bahromgo'r va boshqalar; "Gulzor" asarida esa yuqoridagi asarda tilga olingan an'anaviy obrazlardan tashqari Sulton Sanjari Moziy, Sulaymon alayhissalom, Shayx Bahlul, Xorun ar-Rashid va hakozi obrazlarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq bir necha hikoyatlar berilgan. Har ikkala asarda ham xalq orzusidagi odil, insofli, diyonatli, xalqni o'ylaydigan, ular dardi bilan yashaydigan SHOH obrazi yaratilgan hikoyatlar mavjud.

Xoja hikoyatlarida eng ko'p qo'llanilgan obrazlardan biri Sulton Mahmud G'aznaviy obrazidir. Bu obraz Xoja ijodida 2 xil ko'rinishda qo'llanilgan. Ular:

1. Adolatli shoh
2. Oldin zolim shoh bo'lib, so'ng tavba qilib, zolimlikdan chekingan shoh sifatida tilga olinadi.

Xojaning ko'plab hikoyatlarida Sulton Mahmud G'aznaviyning adolatli shoh sifatida uchraydi. Masalan, "Sulton Mahmud G'aznaviy va Ayozi xos", "Sulton Mahmud G'aznaviy va tolibi ilm", "Sulton Mahmud G'aznaviy va bir kishi" kabi hikoyatlarida adolatli shoh sifatida ulug'lanadi.

Oldin zolim bo'lib, keyin adolatga yuz burgan hikoyatiga esa "Sulton Mahmud va vaziri Xo'ja Hasan" hikoyatini keltirish mumkin. Ushbu hikoyat "Miftoh ul-adl" asarining 4-bobi "Sultonlarga mute' bo'lmoqning bayoni"da keltiriladi. Hikoyat "Sulton Mahmud G'aznaviy zolim erdi, aning bir bisyor oqil, dono va odil vaziri bor erdi Xo'ja Hasan otlig'. Bir kun Sulton Mahmud birla ikkilari ovga chiqdi" bilan boshlanib, nogoh vaziri Xo'ja Hasanning boyqushlarning suhbatiga guvoh bo'lishi (qushlarning quda-anda bo'lishi...), oh tortib yig'lashi, sulton nega yig'layotganini so'rashi, vazir qushlarning suhbatini unga aytib berishi, ya'ni "Sulton Mahmud tirik bo'lsa, bir yildan so'ng yuz ming uy desang ham berayin" deyishi, Sultonning nima qilmoq kerak? Men shuncha zolimmanmi? Men tufayli bir yilda shuncha uy xarob bo'ladimi? Degan savollariga vaziri adl qilmoq kerak va zulm qilmoqdan tavba qilmoq kerak deb javob berishi, Payg'ambarimizning "Har kishi gunohdin tavba qilsa, gunoh qilmog'ondek bo'lur"[Podshohxoja, Inv № Д-4656. 155a-b, 156a-b] so'zini keltirishi va nihoyat Sulton Mahmud G'aznaviyning qilgan ishlarigan tavba qilib, adl qilgani, kechalari darveshlar libosini kiyib, miskinlarga ehson qilishi bilan yakunlanadi. Sulton Mahmud bilan bog'liq hikoyatlar yuqoridagi ijodkorlar ijodida ham mavjud. Ulardan farqli ravishda diniy tomondan urg'u berib, o'ziga xos tarzda yangi hikoyat yaratgan. Bu ham Xojaning mahoratidan bir darakdir.

Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik g'oyalari o'ziga xos tarzda ifodalangan bo'lib, bu g'oya insonlarga axloqiy va ma'naviy oziq beradi. Xoja xalqning yaxshi hayotga erishishini istadi, buning uchun esa xalq orasida adolatparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari yuksak o'rinda turishi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Shoh va uning amaldorlarini adolatli bo'lishga, xalqqa zulm o'tkazmaslikka chaqirdi, fuqarolar holidan xabardor bo'lib turishga undadi.

Hikoyatlarida ko‘p uchraydigan obrazlardan yana biri Sulaymon payg‘ambar obrazidir. Bu obraz hikoyatlarida adolat timsoli sifatida e‘tirof etiladi. Birgina “Sulaymon, pashsha va el” hikoyatida Xoja ikki tarafni tinglab, adolat bilan qaror chiqarish kerakligini, aks holda, hukumdor adolatiga putur etishi mumkinligini qayd etadi. Buni Sulaymon payg‘ambar tilidan shunday bayon etadi: “Adolat qoidasi butururkim, ... ikkisin barobar so‘rmoq kerakdur, har so‘zlari bo‘lsa bir-bir oytg‘oylar, to hokim alarning so‘zini bilib hukm qilg‘oy” [Podshohxoja, 1962:47]. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida Sulaymon payg‘ambar haqida ma‘lumot berish jarayonida u bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyatlarni ham beradi. “Sulaymon va mo‘rcha” hikoyati ana shunday hikoyatlaridan biridir. Bu hikoyat Navoiy ijodida ham uchraydi.

Xoja yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Shu sababli ular an‘anasini davom ettirish asnosida o‘zining ijodiy maqsadlarini aniq qo‘ya olgan adib kichik hajmli, ammo mazmuni keng bo‘lgan hikoyatlarni yarata oldi. Bu uning XVI asr nasriy hikoyat taraqqiyotini belgilashda o‘ta ahamiyatlidir. Buning isboti sifatida A.Tohirjonov maqolasidan izoh keltiramiz: “Xojaning “Maqsad ul-atvor” asarining “Hikmati hokim” deb nomlangan xotima bobida Jaloliddin Rumiy, Nizomiy, Amir Husrav, Hofiz, Amir Sa‘diy, Sanoiy, Firdavsiy, Salmon Sovajiy, Lutfiy, Amir Shohiy, Kotibiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ so‘z ustalarini eslab o‘tadi. O‘zining ana shu shoirlar an‘analarini davom ettirib, g‘azal, ruboiy, mustazod, masnu‘ qasidalar yaratganini va nihoyat ana shu didaktik asarini yozishga kirishganini xabar qiladi” [Tohirjonov A, 1975:70-73]. Bundan ko‘rinadiki, Xoja o‘zidan oldin yashab o‘tgan ijodkorlar ijodini puxta bilgan.

Xojaning “Miftohi ul-adl” va “Gulzor” asarlari XI asrdan o‘ziga xos an‘ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir, – deya e‘tirof etadi, – R.Vohidov [Vohidov R., Eshonqulov H, 2006: 514].

Nizomiy, Shayx Sa‘diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning an‘analarini davom ettirib, kichik hajmli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta‘limiy, insonparvarlik ruhidagi hikoyatlarini “Miftohi ul-adl” hamda “Gulzor” asarlariga jamlagan. Lekin har ikkala asarning tili jonli xalq tilida bo‘lib, sodda Nizomiy va Navoiy asarlariga nisbatan ancha ravondir. Asarda tushunilmaydigan arabcha va fors-tojikcha so‘zlar juda kam uchraydi. Mazmunni xiralashtiradigan ortiqcha, keraksiz tasvirlash, bayon qilish yo‘q. Ixcham, aniq va lo‘nda yozilgan.

Xoja hikoyatlarida o‘z davrining muhim jihati hisoblangan, ahamiyatga molik bo‘lgan axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy, siyosiy masalalarini ilgari surdi va ularni insonparvarlik nuqtayi nazardan turib yoritdi. Adolat, to‘g‘rilik, halollik, poklik, saxiylik, ilm-ma‘rifat, insonparvarlik mavzulari hikoyatlarining bosh mavzusiga aylandi. Ana shu mavzularni ochib berishda an‘anaviy obrazlardan unumli foydalandi, yangidan yangi ma‘no tovlanishlarini ko‘rsatib bera oldi. Podshohxoja hikoyatlari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir. Ularning zamiriga chuqur insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolatparvarlik g‘oyalari singdirilganligi bilan hozirgi kunda eskirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq syujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o‘zining axloqiy-didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo‘qotmagan. Ular bugun va kelajak uchun birday xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xoja qaysi mavzuga murojaat etmasin ularni chuqur insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, o‘ziga xos obrazlar yaratdi. Xoja o‘zbek og‘zaki va yozma hamda fors-tojik adabiyoti asosida mavzu jihatidan rang-barang, nasriy hikoyatlarni yaratgan ulkan san‘atkor. Adib asarlarida ifodalangan g‘oyalar bugungi kun uchun ham ibratli, ham dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаахмедова М. Хожа. – Т.: Фан. 1975. – Б. 134.
2. “Miftohi ul-adl” ning qo‘lyozma nusxasi. Inv № Д-4656. – В. 210.
3. Саъдий Шерозий. Гулистон. Бўстон: тўплам. – Т.: Ғафур Ғулом. 2021. – Б. 264.
4. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (энг қадимги даврлардан XVI аср охиригача) Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2006. – Б. 528.

5. Иброҳимов А. XVI аср адабиётининг асосий хусусиятлари. – Т.: Фан, 1976. – Б. 208.
6. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 8-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
7. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Фан, 1997.
8. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи (Энг қадимги даврдан XVII асргача). – Т.: “Kafolat print company” нашриёти, 2021. – Б. 542.
9. Тоҳиржонов А. Хожанинг янги топилган асари//Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. №3. – Б. 70-73.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA FANO VA BAQO TALQINI

Husan Maqsudov,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallaridagi irfoniy-so'fiona ma'no-mazmun, xususan, fano va baqo tushunchalarining badiiy talqini haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, faqr, zobid, mayxona, dunyo obrazlariga shoir yuklagan yangicha ma'nolar tabilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *fano, baqo, orif, ma'rifat, Haqiqat, o'zlik*

Alisher Navoiyning tasavvufga oid qarashlari, irfon falsafasi, asosan, orifona g'azallarida aks etadi. Mazkur turdagi g'azallarda shoirning dunyoni bilish, mohiyatni anglashga intilish, Haqqa yetishish uchun harakat, nafsni yengish kabi masalalarni va, eng muhimi, shu sifatlarini o'zida jamlagan komil inson va komillik haqidagi g'oyalarni qamrab oladi. Mazkur g'azallarda tasavvufiy g'oyalar, xususan fano va baqo haqida shoirning qarashlari aks etganligini kuzatish mumkin.

“Fano” va “baqo” atamaları falsafiy-axloqiy tushuncha sifatida Sharq diniy-irfoniy, tasavvufiy, falsafiy, badiiy adabiyotida juda keng qo'llanilgan. Ikkala so'z ham arabcha bo'lib, fano “mavjud bo'lmaslik”, “yo'qlik” ma'nolarida kelsa, baqo fanoning ziddi sifatida “davomiylik”, “abadiylik” kabi ma'nolarni anglatadi [Баранов, 1957:81]. Baqo arab tilli izohli lug'atlarda ham “abadiylik”, “bardavomlik” va “sabit turish” ma'nolarida keladi. Asosan, narigi dunyo boqiylik sifatida tasvirlangan. Masalan, bir inson vafot etsa, “dorul baqoga safar qildi”, deyiladi [Ibn Manzur, 2016: 202]. Tasavvuf ilmi istilohida esa maqtanilgan xulq-atvorlarning muridda jam bo'lishiga aytiladi [Ansoriy, 2007: 128].

Tasavvufning rivojlanishi bilan turli tariqatlar paydo bo'lib, har bir tariqatning o'ziga xos xususiyatlari, ta'limot va intizom yo'riqlari shakllana boshlaydi. Shunday shakllanishlar jarayonida fano va baqo tushunchalari chuqur tasavvufiy-irfoniy ma'no-mohiyat kasb eta boshlaydi.

Fano va baqoga tasavvufda inson ma'naviy-ruhiy kamolotining asosini tashkil qiluvchi tushunchalardan eng asosiylari deb qaraladi. “Fano” – yo'qlik, mavjud bo'lmaslik ma'nosida bo'lib, to'liq shakli “al-fanaau fillah”, ya'ni “Allohga foni bo'lish”dir. Kengroq tushunilganda, fano – inson o'zligi va bandalik maqomini Haq taolo barobarida yo'q deb bilmoq, riyo, ujb (o'ziga zeb berish), dunyoga muhabbat qo'yish kabi barcha mayl-istaklardan voz kechib, butun olam va undagi xilqat – yaratilgan Xoliqning (uning ulug'ligi, boqiyliqi) oldida hech narsa emasligini teran anglamoq, bashariy sifatlardan qutulib, ilohiy sifatlar bilan botin olamini bezamoq, ziynatlashni anglatadi. Fanolikda dilda Allohdan boshqaning o'yi, muhabbati qolmasligi, amalda esa yomon xulq, gunoh, ayb va g'afolatning bartaraf bo'lishi lozim.

Diniy ta'limotga ko'ra, avvali va oxiri mavjud har qanday narsa fanolikka mahkum, ya'ni foniidir. Muqaddas kalomimiz bo'lmish “Qur'oni Karim”ning bir necha o'rnida fano va foniilik haqida aytib o'tiladi: “Sizning huzuringizdagi narsa tugaydir. Allohning huzuridagi narsa esa, boqiydir...” (Nahl, 96) [Qur'oni karim, 2020, 196], “(Yer) yuzidagi barcha jonzor foniidir” (Rahmon, 26) [Qur'oni

karim, 2020, 238]. Ushbu oyatlar fano va baqo nazariyasining tamalini tashkil etgan bo‘lib, mazkur oyatlar bilan Yaratgan zot bu dunyoning bebaqoligi, undagi jamiki narsalar insonlarning o‘zlari kabi alaloqibat fanolikka yuz tutishini ta’kidlab, bandalarining foniylar dunyoga aldanib qolmasligiga da’vat etadi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham bir hadisi shariflarida “Hech qanday (yaxshi) hayot yo‘q, magar oxiratdagi asl (abadiy) hayot bor”, - deb bu dunyoning o‘tkinchiligi va oxiratning abadiyat olami ekanini ta’kidlaganlar.

Umuman, yuqoridagi kabi oyat hamda hadislarida fano-baqo tushunchalari o‘tkinchilikdan abadiyatni farqlash, degan tor ma’noda emas, bil’aks, yaxshidan yomonni, ojizlikdan qudratni, ma’naviy tubanlikdan ma’rifiy yuksaklikni, bir so‘z bilan aytganda, barcha noqislikdan ma’naviy-ruhiy Komillikni anglab yetish lozimligi o‘z ifodasini topgan.

“Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” so‘zligida ta’kidlanishicha, fano va baqo atamalarini ilk bor Abu Said Xarroz qo‘llagan [Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at, 2016: 61]. Xarroz mazkur istilohlardan bahs yuritib, o‘zining tarqi va tabiatidagi barcha sirlarni shu ikki so‘zda mujassamlashtirgan. Hol, tavhid, maqom, jam, tafriqa, vajd kabi yuzlab tasavvufiy tushunchalar atroficha tushuntirib berilgan “Al-Lum’a” asarida Abu Said Xarrozning fano va baqo haqidagi quyidagi ta’rifi keltiriladi: “Fano – bandalik ixtiyor-irodasidan butkul uzilmoq, baqo – ilohiy mushohadada boqiy qolmoqdir” [Sarroj, 1996: 217].

Yuqoridagi oyatlar va ularning ma’no-tafsirlariga tayanib, baqoni ikki xil anglamda tushunish mumkin: 1. Avvaldan mavjud bo‘lmay, keyinroq paydo bo‘lgan, lekin hech qachon foniyl bo‘lmaydigan (zavol topmaydigan) borliqlar. Masalan, oxirat, jannat, do‘zax kabi. 2. Ibtidosi bo‘lmagan va intiho ham topmaydigan Zot – Alloh va uning sifatleri boqiylikning mutloq o‘zidir. Shuning uchun ham Navoiy:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birga oxirkim,

Anga yo‘q ibtido paydo, munga yo‘q intiho paydo, —

deb aynan Alloh hamda uning zot-u sifatining zavol topmasligiga urg‘u bergan edi.

Fano va baqo tushunchalarini tadqiq qilarkanmiz, buning uchun mazkur tushunchalarning Sharq xalqlari falsafiy-axloqiy, adabiy-estetik tafakkurida tutgan o‘rnini belgilab olish muhimdir. Shu boisdan, fano va baqo haqidagi tasavvuf ta’limoti namoyandalari qarashlarini, qolaversa, Navoiy mutolaa qilgan, ilhomlangan va ijodiy ta’sirlangan manbalarni o‘rganish hamda o’sha kitoblardan kelib chiqib Navoiyning fano va baqo borasidagi qarashlariga yondashmoq kerak, desak xato bo‘lmaydi.

Navoiy bir qator nasriy, ilmiy-tarixiy, biografik va epik asarlarida o‘zi o‘qigan kitoblarni sanab o‘tadi. Ulug‘ mutafakkir shoir qayd etgan e’tiroflar, ayniqsa, uning ustozlari va maslakdoshi Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yozilgan “Xamsat ul-mutahayyirin” va Sharqda o‘tgan shayxlar va so‘fiy zotlar haqida ma’lumot beruvchi “Nasoyim ul-muhabbat” singari asarlaridan o‘rin olgan.

Navoiy “Xamsat ul-mutaxayyirin”da Abdurahmon Jomiy rahbarligi ostida “Lavoyeh”, “Sharhi ruboiyot”, “Lavome”, “Nafohat ul-uns”, “Ashi’a ul-lamaot”, “Shavohid un-nubuvvat”, Xoja Ubaydulloh Ahrorning “Risolai volidiya”, Xoja Muhammad Porsoning “Qudsiya”, Xoja Abdulloh Ansoriyning “Ilohiynoma”si kabi falsafiy-tasavvufiy asarlarini mutolaa qilganini aytib o‘tadi [Navoiy, 1996: 72].

“Nasoyim ul-muhabbat”da jami 100 dan ortiq kitob nomlari zikr etilgan bo‘lib, ular orasida Hujriviylarning “Kashf ul-mahjub”, Qushayriylarning “Risolai Qushayriya”, Sulamiylarning “Tabaqot us-sofiya”, Abdulloh Ansoriylarning “Manozil us-soirin”, Muhammad bin Munavvarning “Asror ut-tavhid”, Abu Is’hoq Dehlaviylarning “Asror ul-avliyo” asarlarini alohida sanab o‘tish mumkin [Ramazonov, 2001: 14].

Shu o‘rinda bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Navoiyning fano va baqoga qiziqishi shunchaki tasodif emas. U hatto forsiyl she’rlari uchun maxsus Foniyl taxallusini qo‘llagan. Fano holini yashamasdan baqoga erisholmaslik uchun so‘fiy va mutasavviflar fanovashlik, foniyl sifati ga alohida ahamiyat berishgani Navoiy tomonidan ham takror-takror ta’kidlangan [Haqqul, 2017: 44].

Xo’sh, Navoiy mazkur so‘fiyona tushunchalarning mohiyatini qachon va qanday qilib teran anglay olgan, his qilgan? Nazarimizda, bu avvalo, muhit bilan bog‘liq. Navoiy ta’lim-tarbiya olgan va kamol topgan muhitda komillikka erishish yo‘lidagi muhim bosqichlardan bo‘lgan fano va baqo

tushunchalariga alohida e'tibor bilan qaralgan va mazkur tushunchalar ma'rifat, axloqni tarbiyalashning asoslaridan biri sifatida ko'rilgan. Navoiyning biografik xaraktergan ega, shuningdek, falsafiy-axloqiy asarlardagi fikrlar buni to'la tasdiqlaydi. Shoirning so'fiyona qarashlarining shakllanishida ustoz-hammaslari orasida, ayniqsa, Abdurahmon Jomiy va Sayyid Hasan Ardasherlarning o'rni alohida, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buni zikr qilingan mutasavvif shoirlarga bag'ishlagan kitoblarda Navoiyning o'zi ham alohida ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlarining muayyan qismini orifona g'azallar tashkil qilgan bo'lib, mazkur g'azallarda tasavvufiy g'oyalar, xususan fano va baqo haqida shoirning qarashlari aks etganligini kuzatish mumkin. Shoirning barcha she'rlarida, u xoh hamd, xoh na't g'azallar bo'lsin, xoh oshiqona yoxud rindona g'azallar bo'lsin – har birida irfoniy ma'no-mazmun mujassam. Ular o'zlikni, odamni, olamni va, albatta, Ollohni tanish va anglash yo'lidagi izlanishlar samarasidir. Dunyoni mukammal idrok etish, zotni sifatda, mohiyatni hodisada ko'ra olish, o'zlikni anglash kabi masalalar orifona g'azallarining bosh g'oyasi va asosiy mazmunini tashkil etadi

Shoirning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti devonlarining ham birida yuzdan oshiq g'azallarda fano va baqo istilohlari qo'llanganki, ular turli tushuncha hamda timsollar bilan umumso'fiyona va umumfalsafiy mazmun-mohiyat kasb etgan. Navoiy fano va baqo bilan mavjud dunyoning mohiyatini ochib berishga urinadi, shu bilan birga bu foni dunyoda inson umrini behudaga sarflamasligiga chaqiradi:

Kirgil fano yo'lig'a, Navoiyki, dahri dun

Bu umri besabotu madorig'a arzimasi (Badoye' ul-vasat, 223-g'azal).

Fanolik yo'liga kirish insonni boshqalarning ikkiyuzlamachiligi va jabr-u zulmidan xalos etadigan ma'naviy-ruhiy himoya vositasi hamdir:

El nifoqin ko'rmayin desang, Navoiyki, foni bo'l,

Chunki sen chiqsang arodin, kimga qilgaylar nifoq (Badoye' ul-vasat, 309).

Navoiyning ko'plab g'azallarida davr ahlidan noliq, ularning ilmsizligi, mehr va oqibat tuyg'usidan yiroq ekani, xudbinlik va tubanlikka to'la ishlaridan nadomat chekish kabi kechinmalar aks etgan. Navoiy aynan shu holatda ulardan o'zini fano ila yiroq tutadi:

Ey Navoiyki, istasang davr ahli zulmidan xalos,

Ul fano dashtig'a gomu bora olg'oningcha bor (Navodir ush-shabob, 145).

Fano tariqi baqo martabasiga yetish yo'lidagi eng asosiy yo'l. Bu yo'lda inson o'z nafsin tarbiyalaydi, vujud-u ruhidagi noqisliklarni isloh qiladi.

Fano tariqida har kim hosil etti rusux

Riyovu zuhd aning ollida erur mansux (Navodir ush-shabob, 107) –deganda Navoiy aynan shunga urg'u bergan edi.

Shoir fano va baqoning mohiyatini ochishda ko'plab timsol-obrazilardan foydalangan, chunonchi, nafs, zuhd va zohidlik, mayxona, pir-murshid, o'zlik kabilar g'azaldan g'azalga ko'char ekan, o'ziga xos falsafiy-irfoniy mazmun-mohiyat, joziba kasb etib boradi.

Quyidagi baytga e'tibor qarating:

Buzug' ko'ngulga fano bo'lsa kom, cheksun ranj

Ki, ranj chekmasa hargiz muyassar o'lmas ganj (G'aroyib us-sig'ar, 92).

Ushbu baytda shoir "buzug' ko'ngul" deb hayot tashvishlaridan tolgan, Haq tomonidan e'zozlanadigan orif inson uchun dunyo noraso makon ekanligini anglab yetgan insonni nazarda tutmoqda. Mazkur inson bu tashvishlardan qutilmoq niyatida bo'lsa, fanoni maqsad qilib olishni shoir uqtirar ekan, bu yo'lning mashaqqati va ranj-zahmati borligini ta'kidlayotir. Darhaqiqat, so'fiy shoirlardan Mashrab aytmoqchi, mashaqqat chekmaguncha, yorga yetib bo'lmaydi.

Baytdagi ganj – fanolik maqomidan keyin erishiladigan ilohiy fayz, Haqqa vosillik. Shoir mazkur baytda fano yo'li tafsilotini tushuntirar ekan, mazkur holatni tamsil san'atidan foydalangan holda izlanib, turli sinov va mashaqqatlardan o'tmasdan turib ganj – boylikka erishib bo'lmaslikka muqoyasa qiladi.

Haq vasliga muyassar bo'lishdek oliy maqsad bilan yashayotgan so'fiy uchun dunyoga, uning quvonch-u tashvishlariga, moddiyatga berilish hamda bog'lanish pashshadek mavjudotga tenglashish

bilan barobar. Olloh bunday dunyoni barchaga – insonga ham, boshqa jonivorlarga ham, hatto kofirga ham ravo ko‘raveradi. Ana shu illatlardan qutulib, soflanish yo‘lini shoir bir o‘rinda tushuntirar ekan, mazkur mazmunni tanosub san‘ati asosi go‘zal tarzda ochib beradi:

Ajab emastur, agar topti gavhari maqsud

Birovki bo‘ldi fano ashki bahrida g‘avvos (G‘aroyib us-sig‘ar, 271).

Navoiy ko‘plab g‘azallarida maqsadga – Haqqa yetish yo‘lini tasvirlashda ko‘proq xuddi yuqoridagi kabi dengiz (bahr) tamsil qiladi. O‘xshashlik-tasodifni qarangki, shoir “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan olingan yuqoridagi baytga hamohang yana bir bayt borki, uni o‘rta yosh lirikasiga oid devonining aynan 271-g‘azalida keltirib o‘tadi:

Bo‘lmayin g‘arqi fano, istamag‘il gavhari vasl,

Dur topilmas, kishi to bahrda bo‘lmas g‘avvos (Badoye ul-vasat, 271).

Kimki fano dengiziga sho‘ng‘ib, u yerdan maqsad gavharini olib chiqsa, ajab emas, degan mazmun anglashilgan baytni va, umuman, fanoning mohiyatini anglash uchun Y.Bertelsning fano haqidagi fikrlarini keltiramiz: “Shuni qayd etish kerakki, ko‘pchilik tasavvuf nazariyotchilari uchun fano – so‘nggi marra emas, budda dinidagi nirvanadan yana bir muhim farqi – fanoning ortidan uning mantiqiy natijasi bo‘lmish baqo keladi: o‘zining muvaqqat, o‘tkinchi “men”i barbod bo‘lganini sezib, inson mutlaq ruh dengiziga sho‘ng‘iydi, bu bilan ilohiy mohiyat kabi boqiy yashayajagini uzil-kesil his etadi. Bu boqiylikni anglab yetish holatidir, ayonki, u tolib erishishi mumkin bo‘lgan eng oliy holatdir (Bertels, 1965: 38)”.

Baytda qo‘llanilgan maqsad gavhari – gavhari maqsud tushunchasi fanodan keyin keladigan baqo maqomining badiiy ifodasi. Fano maqomida chekkan iztiroblar, mashaqqatlar, ya‘ni ko‘z yosh to‘kib hosil etgani – fano dengizida g‘avvoslik qilgani evaziga u boqiylikka erishmoqda. Buni shoir gavhar, bahr, g‘avvos kabi so‘z-obrazlar tanosubida tushuntiradi. Shunisi e‘tiborliki, Navoiy ijodini yaxshi o‘rganish uning biror she‘ri yoki baytida o‘rta qo‘yilgan muammoning sharhi yoxud izohini ikkinchi bir g‘azal yo baytdan topish imkonini ham beradi. Jumladan, shoirning yuqoridagi fikrlarini uning quyidagi bayti yordamida izohlash ham mumkin:

Fano bahrig‘a cho‘mmoqdin g‘araz tolibqa vasl o‘ldi

Ki, g‘avvos o‘lmakiga g‘arq o‘lub, gavhar erur bois (Badoye’ ul-vasat, 91).

Shunday qilib, fano bahri – orif inson erishgan ma‘rifat va haqiqat olami; g‘avvos – oriflikka talabgor solik; gavhar – Haq huzuri, buzilmaydigan, o‘zgarmaydigan va abadiy ma‘naviy-ruhiy halovat manbayi bo‘lgan maqom. Shoir bunda qadimiy hunarlardan biri – dengizga sho‘ng‘ib gavhar olib chiqish kasbiga ishora etgan: gavhar – dengizda chig‘anoq (sadaf) ichida hosil bo‘ladi va g‘avvoslar suvga sho‘ng‘ib, uni topib olib chiqadilar. Bu juda xavfli va mashaqqatli kasb, jasorat va ko‘p yillik mashqni talab qiladi. Shu bois ham tariqat soliki g‘avvosga o‘xshatilgan. Gavhar esa eng oliyqiyamat, buzilmaydigan, doim bir xil jilolanib turadigan tosh – boylik, ya‘ni parvardigor jamoli, ilmu hikmati timsoli. Solik fano bahriga sho‘ng‘imasdan bu boylikka ega bo‘lolmaydi. Ana shunday dunyoviy tashbeh va tasvir bilan Navoiy hazratlari ilohiy ma‘rifatga erishish mashaqqatini tushuntirgan.

Shoir ko‘p o‘rinlarda fano mohiyatini izohlar ekan, insonni o‘z o‘zligidan (nafs illatlaridan ajralolmagan “men”ni) qutulish kerakligini qayta-qayta taqrorlaydi.

Dema, ne sud erur fano harimig‘a xos

Yana ne sud kerak o‘zlugungdin etsa xalos (Badoye ul-bidoya, 298).

Chindan, “Fano yo‘liga kirishdan foyda-maqsad (sud) nima, deb so‘rash shartmi, qachonki u insonni o‘zligidan xalos etishga imkon bersa!” Fano yo‘liga kirgan inson o‘zligidan xalos bo‘lmog‘i lozim. Nega? Chunki mana shu o‘zlik yuki odamzodni nafs va uning illatlari bilan, dunyo va uning quvonch-u tashvishlari – butun moddiyat bilan chambarchas bog‘lab tashlaydi [Mullaxo‘jayeva, 2005: 63].

Buni shoir bir o‘rinda shunday ifodalagan edi:

Talab yo‘linda avval foniyo‘lg‘il

Ki, yo‘q bu yo‘lda o‘zluqdin og‘ir band (Badoye ul-vasat, 123).

Baqoga maqomiga yetishib, Haqning ilohiy inoyatiga yetishishning asosiy sharti foniylikka erishish, unga esa o'zlikdan xalos bo'lish orqaligina yetish mumkin. Tasavvuf yo'liga kirgan solik shariat bosqichida o'zligini anglash bilan bog'liq masalalarga qiziqadi va ularning barchasiga ana shu bosqich darajasida javob topadi. Baytdagi band so'zi zanjir, ip, arqon ma'nolariga ega. Bu baytda u ko'chma – majoziy ma'noda kelmoqda, ya'ni vujudning ruh uchun band ekanligini ifodalangan. Demak, iboradagi majoziy ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilmoqda. Tariqat bosqichi maqomlarida esa u ana shu anglangan o'zlikdan kechish jarayonini boshidan o'tkazadi. Tariqatning so'nggi maqomi (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, hayrat, tavhid maqomlaridan keyin) fano haqiqatga – baqoga erishishdagi bosh maqsad bo'lgani uchun ham, ko'pincha, tariqat yo'li fano nomi bilan ham ataladi. Qism bilan umumni nomlash usulini qo'llagan shoir fano harimi tushunchasi orqali tariqat yo'lini nazarda tutadi. Baytda takrir san'ati, insho san'atining amr va nahiy usuli qo'llanilmoqdaki, uning ko'magida shoir o'z fikrini o'zgaga murojaat tarzida ifodalab, masalaning muhimligiga e'tiborni qaratadi.

Navoiy fano va baqo masalasida riyokorlik, xo'jako'rsinlik, tama' va muhtojlikni qoralaydi, mazkur tushunchalarni asl so'fiyona g'oyalarga qarshi qo'yadi:

Navoiy, ahli fano dayri halqasin xush tut,

O'zungni zuhd-u riyo majma'ig'a qotquncha (Badoye ul-vasat, 552).

Navoiy g'azallarida xonaqah ahli – shayx, zohid va mug'bachalar ahli zohir sifatida tasvirlanadi, ularning barchasi bir sifat – ujb va riyo sifati sohiblaridir. Shuning uchun ham shoir xonaqoh shayxidan emas, tariqat yo'lini bosib o'tgan piri komilning rushdiga muhtoj:

Shayxdin zuhdi riyoysi kasb o'lur, yo rab, qani

Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay (Badoye ul-vasat, 621).

Yoki:

Shayx ila ahli riyoysi dayr piri birla rind

Kim, fano ichra keraktur piring irshodi ko'p (Badoye ul-vasat, 67).

Yuqoridagi mazkur baytlarda asosan tazod (pir-zohid; zuhd-irshod) va tanosub (shayx, pir, halqa, irshod) san'atlari qo'llangan bo'lib, shoir ushbu tasvir vositalari yordamida fikrlarining yanada hayotiyroq, yanada falsafiyroq ifodalanishini ko'zlagan.

Navoiyning so'fiyona-irfoniy g'azallarini ko'zdan kechirish, tadqiq etish jarayonida fano va baqo, ularga bog'liq falsafiy-tasavvufiy tushuncha, timsol hamda obrazlarning ko'proq g'azalning maqta'si (oxirgi bayt)dan oldingi, shuningdek, maqta'da kelganligining guvohi bo'ldik. Xo'sh, bu bir tasodifmi yoki shoirning badiiy maqsadimi?

Odatda, maqta'dan oldingi baytda g'azalda qalamga olingan mavzu va masala g'oyasi kulminatsion nuqtaga ko'tariladi, she'rda qo'yilgan badiiy-estetik, falsafiy muammo o'z yechimini topadi. Shuning uchun ham mazkur baytni g'azallarining poetik-estetik markazi, deyish mumkin. Shoirning she'r aytmoqdan g'arazi (badiiy niyat-maqsadi) aynan shu baytda ochiqqlanadi. Maqtada esa lirik qahramonning masala mohiyatidan kelib chiqadigan xulosaviy nuqtayi nazar aks etgan bo'ladi. Fano va baqo (umuman, shoirning asosiy tasavvufga oid qarashlar)ning aynan maqta' va undan oldingi baytlarda kelishi ushbu masalaning Navoiy lirikasidagi darajasini ko'rsatadi, bu bilan foniylik va boqiylik maqomi shoirning estetik ideali, hayotiy maslagi ekanligiga to'la ishonch hosil qilish mumkin.

“Xazoyin ul-maoniyy” kulliyotidagi orifona g'azallar, eng avvalo, shoirning irfoniy-so'fiyona qarashlarini o'zida mukammal aks ettirgan – islom falsafasi, tasavvuf falsafasi g'oyalarini badiiy teran umumlashtirilgan san'at asarlaridir. Mazkur g'azallarda inson umrining, tiriklikning mohiyatini anglash va anglatish istagi asosiy o'rin tutadi.

Fanoning tarixi, asl mohiyati va ilmiy-nazariy, falsafiy-irfoniy talqinlarini bilish tasavvuf sir-asrorlarini yetarli darajada bilish va anglang bilan teng turadi, deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur ikki tushuncha tasavvuf ta'limotining muhim rukn – asoslaridan biri. Zero, tasavvufdan murod Insoni komil, buning uchun esa, albatta, “o'zlik vujudi”ni buzib (ya'ni insoniy-nafsiy mayl-istaklardan qutulib), yangi o'zlikka yerishish, Haqni topishdir. Navoiy g'azallarida boshqa tushuncha va obraz-timsollar kabi fano va baqo ham chuqur falsafiy mohiyat kasb etgan, shoir ularning mazmunini yordamchi vositalar – obraz, timsol, ramz va tasviriy vositalar yordamida yanada jozibador qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baranov V. Arabsko-russkiy slovar. – Moskva, 1957.
2. Ibn Manzur. Lisonul arab. 1-juz. – Qohira, 2016.
3. Zakariyyo ibn Muhammad al-Ansoriy. Notoijul afkorul qudsiyya fi bayani sharh Risalatul Qushayriyya. – Bayrut: Dar al-kutubil ilmiyya, 2007.
4. Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tafsiri. – Toshkent: Sharq. 2-3-juzlar.
5. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. / Mas‘ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Sharq, 2016.
6. Abu Nasr Sarroj Tusiy. Al-Luma‘. – Istanbul, 1996 (turk tilida).
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n ikkinchi tom. – Toshkent: Fan, 1996.
8. Ramazonov N. Navoiy ijodida faqr talqini faqir obrazi. Mongrafiya. – Toshkent: Fan, 2015.
9. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish: 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2015.
10. Mullaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida iasavvufiy timsol va badiiy san‘atlar uyg‘unligi (“Badoye’ ul-bidoya” devoni asosida): Filol. fan. nomz. diss. -Toshkent, 2005.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA VAZN MASALASI

Quvonchbek Mamiraliyev,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada istiqlol davri o‘zbek lirikasida she’riy vaznlarning muvozanati masalasi ta’lil etilgan. Yangi o‘zbek she’riyatida barmoq vazning asosiy vaznga aylanishi, ijtimoiy muhitning she’riy vaznlarga ta’siri kabi jihatlariga ham munosabat bildirilgan. Bir she’rning ikki xil vaznga ham mos tushaverishi kabi masalalar ham ta’lil qilingan.

Kalit so‘zlar: *vazn, she’riyat, aruz, barmoq, janr, ijtimoiy muhit, she’r, obraz.*

Istiqlol davri o‘zbek lirikasida mumtoz adabiy janrlar va ularni zamonaviy she’riy shakllar bilan uyg‘unligi, tasavvufiy ohangdagi she’rlarning barmoq vaznida yoki modern shakllari ko‘rinishida istefoda etilishi, mumtoz adabiyotga yaqinlik, bir she’rda bir nechta tuyg‘ularning qorishiq holda kelishi (paralelaks) natijasida badiiy modifikatsiya hodisasining namoyon bo‘lishi kabi nazariy masalalar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotiga nazar solsak, unda she’rlarning ko‘proq shakl xususiyatlariga ko‘ra janrlarga ajratilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, tuyuq to‘rt misradan iborat bo‘lishi, ramali musaddasi maqsur vaznida yozilishi, asosan, *a-a-b-a*, tajnisi qofiyaga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunga yana ruboiyni, qit‘ani misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, bu holat musammatlar (musallas, murabba‘, muxammas, musaddas, musabba‘ musamman, mustasne‘, muashshar) da aniq ko‘rinadi. Anglashiladiki, o‘zbek mumtoz lirik janrlari ko‘proq shaklga bo‘ysungan, o‘zgarmas turg‘un holatda. To‘g‘ri, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining ma‘lum bir davrlarida turg‘un janrlarga e‘tibor kuchli bo‘lgan, ammo vaqtlar o‘tishi bilan janrlarga erkinlik berish, ijodkor laboratoriyasi degan masalalar ham ko‘tarilmoqda va bunda she’riy janrlarni ma‘lum qoliplar bilan chegaralab qo‘yishdan voz kechilmoqda.

Hozirgi she’riyatimizning, ya’ni barmoq vaznida yozilgan va modern she’rlarning ma‘lum bir janrlarga mansub yoki mansub emasligi haqidagi fikrlar anchayin bahstlab. Akademik Izzat Sulton mumtoz lirik janrlar haqida fikr bildirib, ular hozirgi she’riyatimizda uchragani bilan janrlarga ajratish urf emasligini ta’kidlaydi. Olimning aytishicha, “... she’riy shaklda yozilgan har qanday asar she’r nomi bilan ataladi. Har bir lirika asari dastavval she’rdir, undan keyin ma‘lum bir janrga (g‘azal, ruboiy, doston, poema, qo‘shiq va hokazolarga) mansub asardir”[3; 256]. O‘z vaqtida adabiyotshunos Izzat Sulton falsafiy lirika, ishqiy lirika, siyosiy lirika kabi tasniflarga munosabat bildirib o‘tadi va bu buni ilmiy asosga ega emas deb ta’kidlaydi. Mazkur fikrga o‘z navbatida adabiyotshunos D.Quronov

[5; 242] ham qo'shiladi va mazmunning o'zi janrni belgilovchi asos bo'la olmaydi, bunday yondashuvda janr mohiyati buzib tushunilgan bo'lib chiqadi, janr – eng avval shakl hodisasi, muayyan mazmun tipini shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi shakl hodisasi, deya munosabat bildirib o'tadi.

Olima N.Afoqova o'zbek jadid adabiyotidagi she'riy shakllar taraqqiyotini tadqiq etar ekan, adabiyotshunoslikda janrlar masalasi hamisha munozarali bo'lib kelganligini ta'kidlaydi: “Barmoq vaznidagi she'rni ruboiy, g'azal, tasmit, qit'a kabi janrlar sirasiga kiritish janriy tasnifda mazmunni birlamchi hisoblash; g'azal-qasida, muvashshah-g'azal, tuyuq-ruboiy kabi atamalar esa janrni mazmun va shakl uyg'unligida tushunish hosilasidir” [6; 161]. Ko'rinadiki, mazmun va shakl uyg'unligidagi she'riy shakllarda janrlar modifikatsiyasini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, adabiyotshunos olim she'riy shakl va janrni ham farqlash lozimligini bayon qiladi. XIX – XX asrlarga qadar Yevropa she'rshunosligida lirik janrlar va she'riy shakllar deyarli farqlanganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham lirik janrlar qamrab olingan mazmun-mohiyatidan, she'riy asar pafosidan kelib chiqqan holda belgilangan. Poetik shakllarning o'z ichki qonuniyatlari mavjud bo'lib, ularda qofiya, band tuzilishi, misralar soni aniq belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra, oda, elegiya, qo'shiq, epitafiya kabilar janr; sonet, rondo, rondel kabilarni esa she'riy shakllar deya ta'kidlaydi, olim Nodira Afoqova. Bunga yana shuni misol qilib qo'shish mumkinki, mumtoz she'riyatimizdagi musammat turlarini va tarkibband, tarji'bandlarni ham janr sifatida emas, balki she'riy shakl sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir.

O'z davrida Abdurauf Fitrat ham “She'r va shoirlik” va “Adabiyot qoidolari” kabi ilmiy asarlarida vazn, janr, umuman, she'r masalalariga o'zining nazariy qarashlarini bayon etgan. Fitrat she'rning ikki turli ekanligini ta'kidlaydi:

1) Manzum she'rlar (tizim she'rlari); 2) mansur she'rlar (sochim she'rlar). “Sochiq she'rlar (mansur she'rlar) uchun “vazn” va “qofiya”ning teyishligi bo'lmasa ham so'zlarning hunarlicha (san'atkorona) bo'lishi teyishlidir” [1; 8]. Albatta, mansur she'rlar deyilganda oq she'r, sarbast, erkin vazndagi she'rlar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Fitrat vazn va qofiyasi bo'la turib, she'r bo'la olmagan she'rlar mavjudligi aytib o'tadi yoki, aksincha, vazni va qofiyasi bo'lmasa ham, she'r deb ataladi. Jumaladan, Fitrat Cho'lponning “Kleopatra” she'rini sochim yo'sinida yozilganligini, vazni, qofiyasi yo'qligini, biroq u she'rdir, deya fikrlarini asoslaydi. Bundan ko'rinadiki, Fitrat she'r qonuniyatlari haqida fikr bildiradi, ammo she'rning janrlari masalasiga to'xtalmaydi. Barmoq vazni bizning milliy vaznimiz ekanligi hamda aruz bizning tilga yaramaganligini ham aytib o'tadi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim M.Qo'shjonovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratsak: “Odatda, aruz sotsialistik-psixologik motivlarni lirik qahramonning intim hayoti orqali ifodalashga moyil. Demak, aruzda ma'lum bir shakl chegarasi bo'lganidek, ma'no chegarsi ham bor...” [2; 41]. Istiqlool davri o'zbek she'riyatida aruz vaznidagi ko'plab janrlar davr va badiiy tafakkur evrilishlari bilan qayta boyidi, bir qator o'zgarishlarga uchradi. An'anaviy janrlar istiqlool davrida bevosita barmoq vazni ta'sirida yangi hayotga qadam qo'ydi.

Adabiyotshunos U.Hamdammov o'zbek she'riyatining barmoq vazniga o'tishida Cho'lponning o'rini beqiyos ekanligini ta'kidlar ekan, bu hodisa birdan ro'y bermaganini ham e'tirof etadi. Xalq qo'shiqlariga hamohang she'rlarning paydo bo'lishi, aruz vazni uchun xos bo'lgan janrlar endi ijtimoiy mavzularni shoir xohlaganidek tasvirlab bera olmasligi barmoqqa o'tishni taqozo etgan [4; 304]. Umuman olganda, badiiy adabiyotdagi janrlarning paydo bo'lishi uchun xalq og'zaki ijodi muhim rol o'ynagan. Xalq lirik qo'shiqlari, mavsum-marosim qo'shiqlari buning eng yorqin namunasi hisoblanadi. Chunonchi, bugungi o'zbek adabiyotining, xususan, she'riyatining ildizlari “Qur'oni Karim”, xalq og'zaki ijodi, mumtoz sharq nazmi namunlariga borib taqaladi. Lirik janrlarning o'rni va ahamiyatini belgilovchi omillardan yana biri – ijtimoiy hayot, insonlarning dunyoqarashi, uni qanday idrok etishi, tafakkuridagi evrilishlaridir. Bizningcha, inson tafakkuri, uning botiniy va zohiriy olami domiy o'zgarishda ekan adabiyot ham doimo o'zgarib boradi.

Professor U.Hamdammov yangi o'zbek she'riyatini tadqiq etar ekan, lirikada vaznlar almashinuvi va uning omillariga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, olim she'rning asosida bo'layotgan o'zgarishlar, aruzdan barmoq vazniga o'tishdagi jarayonlar borasida qator tahlillarni amalga oshirgan. Jumaladan, 1890-yili yozilgan Furqatning “Vistavka xususida” she'ri mumtoz she'riyatimizdagi masnaviy shaklida

yaratilganligi, biroq ijodiy niyat va ana’naviy shakl bir-biriga muvofiq emasligini ta’kidlaydi olim. “Vistavka xususida” she’rning vazni, til unsurlari, ifoda tarzi, poetik obrazlari mumtoz she’riyatga mos, mazmuni esa publitsistik asar ekanligi, shuningdek, she’rning ba’zi o‘rinlarida rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning mavjudligi aruz ohanglariga uyg‘unlashmagan [4;199]. Muallif bunga sabab qilib ifodalanyotgan yangi mazmunning mavjud shaklga mos kelmasligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, she’rning mazmunidagi o‘zgarishlar, yuqorida aytilganidek, jamiyatdagi o‘zgarishlar, davr kayfiyati bilan bog‘liq hodisadir. Shu davrlardan boshlab yangi mazmun poetik shaklning o‘zgarishiga ehtiyoj seza boshlagan edi. Bundan tashqari, adabiyotshunos U.Hamdamiy shunday she’rlarni misol qilib keltiradiki, ular ham aruz vaznida, ham barmoq vazniga mos tushadi. Masalan, Muqimiyniing “Ko‘nglim sandadur” murabbi xalq ohanglarida yozilganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu murabba aruzda yozilganiga qaramay, 11 bo‘g‘inli 6+5 tarzida turoqlangan barmoq vazniga ham to‘la mos kelishini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, olim Hamza devonidagi 5 ta murabbdan 3 tasi ham aruz, ham barmoq vazniga mos kelishini qayd etadi. Shu bilan birga, Muqimiyniing “Sayohatnoma”lari aruz rajazi musammani solim vaznida yozilganiga qaramay, barmoqning 5+3 yoki 4+4 tarzida turoqlangan 8 bo‘g‘inli o‘lchoviga muvofiq kelishi ham alohida ta’kidlanadi.

Umuman olganda, Hamza va Abdulla Avloniyniing milliy she’rlaridan boshlab aruzdan barmoqqa siljishlarni kuzatishimiz mumkin. Adabiyotshunos U.Hamdamiy: “20-yillardagi shiddatli o‘zgarishlar, keskin g‘oyaviy kurashlar ruhi she’riyatdagi vazniy o‘zgarishlar sur’atini ham oshirdi. Shu yillardan boshlab barmoq vazni ustuvor maqomga ega bo‘ldi” [4; 213], – deya o‘zbek she’riyatidagi vazn hodisalariga baho beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur yillarda erkin she’r va sarbast alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo o‘zbek she’riyatining ritmik asosi barmoq vazni bilan belgilangan. Ayni mazkur jarayon she’riy janrlarning ham shakliy va mazmuniy o‘zgarishlariga – janrlar modifikatsiyasiga sabab bo‘lgan.

Ko‘rinadiki, istiqlol davri o‘zbek she’riyatida barmoq vaznida yozilgan she’rlarda aruzga qaraganda imkoniyat kengroq. Sababi barmoq bizning milliy vaznimiz ekanligi barmoq vaznida yozilgan she’rlarda turkiy so‘zlardan foydalanish mazkur vaznni yanada sayqallaydi. Chunki aruz vaznidagi she’rlarda, asosan, bo‘g‘inning cho‘ziq va qisqaligi muhim ekan, unda arabiy-forsiy so‘zlarga ehtiyoj tug‘iladi. Biz o‘z tilimizda, she’riyatimizda turkiy so‘zlarimizni qo‘llab uni go‘zallashtirishimiz uchun ham barmoq vaznida yozilgan bitiklarga ehtiyoj sezishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 8.
2. Қўшжонов М. Сайланма. 2 жилдлик. 1 жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашрети, 1982. – Б. 41.
3. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – Б. 256.
4. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияси. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 213.
5. Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – Б. 242.
6. Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти. Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 2005. – 161 б.

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA MODERNIZM

Zoya Sarsenbaeva,

PhD., DSc. doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada modernistik adabiy oqimlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarning ushbu ikki xil madaniy va lingvistik kontekstdagi tasviri ifodalangan. Ushbu qiyosiy tadqiqot ingliz va o‘zbek adabiyotidagi modernist yozuvchilarning zamonaviy davr muammolari va o‘zgarishlariga, jumladan,

urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy va madaniy me'yorlardagi o'zgarishlarga qanday munosabat bildirganini o'rganadi. Maqolada har bir an'anadagi asosiy matn va mavzularni tahlil qilinib, ingliz va o'zbek yozuvchilarining modernizm rivojiga qo'shgan o'ziga xos hissalarini, shuningdek, ularning o'xshash usullarini yoritishga harakat qilingan. Lingvistik, madaniy va tarixiy kontekstlarni tadqiq qilish orqali modernizmni global adabiy hodisa sifatida tushunishimizni chuqurlashtirish, shu bilan birga uning ingliz va o'zbek adabiyotida ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy, modernizm, lingvistik, madaniy, kontekst, obrazlar, ramzlar.*

Ingliz va o'zbek adabiyotidagi modernizm muammosining ahamiyati uning madaniy va adabiy o'zgarishlarni ikki xil, ammo bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kontekstda tushunishdagi ahamiyatidir. Bu yerda uning ahamiyatini ta'kidlaydigan bir nechta asosiy fikrlar mavjud va ular quyidagicha: 1. Ingliz va o'zbek adabiyotida modernizmni o'rganish turli adabiy an'analar o'rtasidagi g'oyalar, ta'sirlar va innovatsiyalar almashinuvini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ikki tildagi modernistik harakatlarni taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish orqali olimlar madaniy almashinuvlar adabiy yo'nalishlarni qanday shakllantirishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. 2. Ingliz va o'zbek adabiyotida modernizmni o'rganish ushbu adabiy oqimga global nuqtayi nazarni taqdim etadi. Bu olimlarga turli til va madaniy kontekstlarda modernistik estetika, mavzular va uslublarning turli ko'rinishlarini tan olishga yordam beradi. Ushbu qiyosiy yondashuv modernizmning universal jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi, shu bilan birga uning mahalliy o'zgarishlari va moslashuvlarini ta'kidlaydi.

3) Madaniy o'ziga xoslik va ifoda: Modernistik adabiyot o'z ijodkorlarining madaniy o'ziga xosligi va tajribalarini aks ettirib, ingliz tilida so'zlashuvchi va o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoalarning ijtimoiy, siyosiy va intellektual kontekstlari haqida tushunchalar beradi. 4) Adabiy yangilik va tajriba: Modernizm adabiy shakl, uslub va mazmunga innovatsion va eksperimental yondashuvlari bilan ajralib turadi. Ingliz va o'zbek tillarida modernistik adabiyotni o'rganish orqali olimlar turli til va madaniy kontekstlarda yozuvchilar tomonidan qo'llanilgan keng ko'lamli adabiy uslublar va yangiliklarni o'rganishlari mumkin.

5) Madaniyatlararo dialog: Ingliz va o'zbek adabiyotidagi modernizmni o'rganish turli millatga mansub olimlar, yozuvchilar va kitobxonlar o'rtasida madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi. Qiyosiy tahlil va talqin qilish orqali olimlar til, madaniyat va intizom chegaralarini bog'lab, o'zaro tushunish va bir-birining adabiy an'alarini qadrlashni rag'batlantirishlari mumkin.

Modernizmning tugallanmagan loyihasi haqida J. Habermasning so'zlariga ko'ra, modernizm postmodernizm bilan tugamadi, u hali ham "ochiq oxiri" bor, ya'ni XVIII asrda ko'tarilgan asosiy savollar va XX asrning boshlarida olingan. Modernizmga oid bir qancha monografiyalar muallifi P. Folkner modernizmni kengroq o'rganishni ta'kidlaydi [Habermas, 1992], bu uning fikricha, P. Brukerning "Modernizm Postmodernizm" [Brooker, 1992] maqolalari to'plamiga olib keladi. 1950-yillardan boshlab G'arb universitetlarida modernizm o'rganila boshlandi, dunyo bo'ylab o'n minglab magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, bu esa G'arbda modernizmga qiziqish borligini tasdiqlaydi. Modernizm bilan bog'liq masalalarga ixtisoslashgan o'nlab davriy nashrlar mavjud. 1980-yillarning boshida D.H. Lorens (1885–1930) asarlariga mualliflik huquqi Kembrij universiteti nashriyoti tomonidan nashr etilishi orqali yangilandi. Yozuvchining 80 jildlik to'plami. Vulfning (1882–1941) mualliflik huquqi yozuvchi vafotidan 70 yil o'tib, 2012-yilda tugadi [Woolf, 1925]. 1970-yillardan hozirgi kungacha, modernistlarning xatlari, kundaliklari va arxiv materiallarini nashr etish davom etmoqda.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek adabiyotidagi modernizm muammosi muhim ahamiyatga ega, chunki u olimlarga globallashtirgan dunyoda madaniyat, til va adabiy innovatsiyalar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni o'rganish imkonini beradi.

Modernizm adabiy oqim sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lib, an'anaviy ifoda shakllariga qarshi chiqdi, yangi uslub va mavzularni o'z ichiga oldi. Ingliz adabiyoti modernistik estetikani shakllantirishda katta o'rin egallagan bo'lsa-da, bu harakat boshqa madaniy kontekstlarda, jumladan, o'zbek

adabiyotida ham o‘z aksini topdi. Ingliz modernizmi shakl, til va hikoya tuzilishi bilan tajriba o‘tkazish bilan tavsiflanadi. Virjiniya Vulf, Jeyms Joys va Eliot kabi yozuvchilar ko‘pincha ingliz modernizmida asosiy shaxslar sifatida tilga olinadi [Woolf, 1925]. “Missis Dalloway” va “Ulyss” (“Ulysses”) [Woolf, 1925] kabi asarlarda Vulf va Joys inson ongi va tajribasining murakkabliklarini ifodalash uchun ong oqimidagi hikoya va parcha-parcha hikoyalardan foydalanadilar. Eliotning “The Waste Land” (“Chiqindi yer”) [Eliot, 1922] she’ri birinchi jahon urushidan keyingi jamiyatning umidsizlik va parchalanishini aks ettiradi, madaniy tanazzul tuyg‘usini uyg‘otish uchun bir nechta ovozlari va madaniy havolalardan foydalanadi.

O‘zbek adabiyotida modernizm sho‘rolar davrida yozuvchilar an‘ana va zamonaviylik, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ziddiyatlarga qarshi kurashayotgan bir paytda vujudga keldi. Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi yozuvchilar jadal o‘zgarib borayotgan jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlar, o‘zlik va ma‘no izlash mavzularini tadqiq qildilar [Qodiriy, 1927]. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani an‘ana va taraqqiyot o‘rtasida qolgan shaxslarning kurashlarini aks ettiruvchi o‘zbek modernistik adabiyotining zaminini asari hisoblanadi.

O‘zbek zamonaviy shoirlaridan biri Rauf Parfi modernizm Sharqda paydo bo‘lgan, lekin G‘arbda o‘zining individualligini topganini, bu esa modernizmning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini belgilab beradi, deb hisoblaydi. O‘zbek adabiyotida modernizmning ibtidosi Abdurauf Fitrat va Cho‘lpon ijodida borligi hamma tomonidan qabul qilingan. Biroq zamonaviy adabiyotimizdagi bu yutuqlar Sovet Ittifoqining siyosiy pozitsiyasi va 30-yillardagi ziyolilar qatag‘onlari tufayli o‘zbek modernizmiga chek qo‘ydi. Kommunistik asoslangan boshqaruv shakli, sotsializmni qo‘llab-quvvatlovchi mamlakat adabiyoti ittifoqning mafkuraviy fikrlarini aks ettirish vositasiga aylandi. Biroq bu jarayon o‘zbek adabiyotida ramziylik harakatining rivojlanishiga olib keldi. Bu borada Rauf Parfining erkin she‘rlari misol bo‘la oladi. Shoir siyosiy tazyiq tufayli o‘zining barcha fikr va munosabatlarini yashirin va ramziy tilda ifodalab, shakldagi til chegaralarini ortga surdi. Muallifning o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan she‘riy texnikasi keyinchalik o‘zbek zamonaviy she‘riyati haqidagi tushunchalar shakllanishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Ulug‘bek Hamdam, Faxriyor kabi tanqidchi va yozuvchilar jahon miqyosida shuhrat qozongan. Romanlarning mashhurligi va tan olinishi modernizmning umumiy ta‘riflaridan ko‘ra, ularning o‘z yo‘lini qanday yaratganligi bilan bog‘liq.

Ingliz va o‘zbek modernizmi tajribaning parchalanishi va o‘ziga xoslikni izlash kabi ma‘lum mavzuli tashvishlarni o‘rtoqlashsa-da, ular bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ingliz modernizmi ko‘pincha G‘arb jamiyatining individualistik axloqini aks ettiradi, xarakterlarning ichkiligini va voqelikning subyektiv tabiatini ta‘kidlaydi. Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek modernizmi sovet hokimiyati davridagi ijtimoiy-siyosiy kontekstda shakllangan, yozuvchilar jamoaviy o‘zlik, millatchilik va mustamlakachilik merosi masalalari bilan kurashgan. Ingliz va o‘zbek modernistik adabiyoti bir-biridan farqli bo‘lishiga qaramay, keyingi yozuvchilar avlodlarini shakllantirib, butun dunyo adabiy oqimlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan holda abadiy meros qoldirdi. Modernizmning eksperimental uslublari va tematik tashvishlari doimo o‘zgarib turadigan dunyoda ma‘no va ifoda uchun davom etayotgan izlanishlarni aks ettiruvchi zamonaviy adabiyotda aks sado berishda davom etmoqda.

Modernizm butun dunyo adabiyotida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa-da, uning namoyon bo‘lishi madaniy, tarixiy va lingvistik kontekstlarga qarab turlicha bo‘lgan. Ingliz va o‘zbek adabiyotidagi modernizmning qiyosiy tahlili bu oqimning turli jamiyatlarda aks-sado berishi va adabiy an‘analarni qanday shakllantirgani haqida tushuncha beradi. Ingliz modernizmi Yevropadagi jadal sanoatlashuv, urbanizatsiya va ijtimoiy qo‘zg‘alishlar fonida paydo bo‘ldi. Virjiniya Vulf, Jeyms Joys va Eliot zamonaviylikning individual ong va jamiyatga yo‘naltiruvchi ta‘siri bilan kurashdi [Woolf, 1922]. O‘zbekistonda modernizm mintaqadagi mustamlakachilik, millatchilik va madaniy tiklanish tajribalari bilan kesishgan. Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov kabi yozuvchilar o‘zlik, an‘ana va modernizatsiya mavzularini sovet hokimiyati va mustamlakachilikdan keyingi kurashlar kontekstida tadqiq qildilar. Ingliz modernistik adabiyoti ong oqimidagi hikoya, parchalangan tuzilmalar va simbolizm bilan ajralib turadi. O‘zbek adabiyotida modernist yozuvchilar madaniy o‘tish va ijtimoiy o‘zgarishlarning murakkabliklarini tasvirlash uchun hikoya shakllari, til va obrazlar bilan tajriba o‘tkazdilar. Qodiriyning

“O'tkan kunlar” va Aytmatovning “Jamila”sida O'rta Osiyo adabiyotida modernistik estetikaning ta'siri o'z ifodasini topgan [Qodiriy, 1927]. Ingliz modernistik adabiyoti ko'pincha begonalashish, ekzistensial g'azab va tobora parchalanib borayotgan dunyoda ma'no izlash mavzularini o'rganadi. Bu mavzular Vulf, Joys va Eliot kabi mualliflarning asarlarida yaqqol ko'rinadi. O'zbek adabiyotida modernizm milliy o'zlik, tarixiy xotira, an'ana va zamonaviylik to'qnashuvi mavzulari bilan kesishadi. Yozuvchilar mustamlakachilik merosi, sovet davri va mustamlakachilikdan keyingi davrda davlat qurish muammolari bilan kurashadilar.

Ingliz va o'zbek adabiyotidagi modernizmni qiyosiy tahlil qilish orqali biz ushbu adabiy oqim qanday qilib geografik va madaniy chegaralardan oshib, zamonaviy tajribaning murakkab tomonlarini qamrab olganini chuqurroq tushunamiz. Ingliz modernistik adabiyoti ko'pincha G'arbiy Yevropa kontekstlari bilan bog'langan bo'lsa-da, uning o'zbek adabiyotidagi o'xshashliklarini o'rganish begonalashuv, o'zlikni anglash, jamiyatdagi o'zgarishlar kabi mavzularning universalligini ko'rsatadi. Modernizmni turli xil madaniy kontekstlarda o'rganish orqali biz uning doimiy dolzarbligi va jahon adabiy an'alariga ta'siri haqidagi tushunchamizni boyitamiz. Modernistik ruhdagi asarlar yo'qotish, qayg'u, chorasizlik, qo'rquv, ruhiyatning o'zgarishi, fojia motivlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Shu ma'noda o'zbek adabiyotidagi modernizmga xos unsurlar shaxs va borliq, olim va hayot, ruh va tana, din va osiylik kabi muammolarni talqin etishga qaratilgan bo'lib, uning A. Shopengauer, M. Shtirner, S. Kerkogor, F. Nitsshe, A. Bergson falsafasi bilan o'zaro uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Modernistik tendensiyalarda bitilgan asarlarda yo'qotish, g'am, chorasizlik, qo'rquv, fojia motivlari paydo bo'la boshlaydi, lekin asar mualliflari, dunyo modernizmidan farqli o'laroq, ruhiy inqirozdan chiqish yo'llarini izlaydilar va yorug' vaqtlar kelishiga umid bog'laydilar. Bu davrda omma adabiyoti ham faollasha boshladi. Nabijon Hakimovning bozori chaqqon bo'lgan sentimental ruhdagi asarlarini, Tohir Malikning “Shaytanat” romanini, Hojiakbar Shayxovning “Olis sayyora”, “Kelgindilar” kabi ilmiy-fantastik romanlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Zamonaviy o'zbek adabiy jarayonida realizm pozitsiyasi ancha kuchli. Misol tariqasida Abduqayum Yo'ldoshning “Bankir”, “Puankare”, Hakim Sattoriyning “Sog'inch”, Shodmon Otabekning “Agar oshiqligim aytсам...” kabi jamoatchilik va tanqidchilar e'tirofiga sazovor bo'lgan asarlarini keltirish mumkin. Bizningcha, realizm badiiy metod sifatida kelajakda ham asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Binobarin, adiblarimiz hali bu metodning ko'plab usul va vositalarini o'zlashtirishlari lozim. Demak, bu yangilangan realizm bo'ladi, deb aytishimiz mumkin.

Ingliz va o'zbek adabiyotida modernizmnining tadqiqi bu adabiy an'analarning zamonaviy dunyo murakkabliklari bilan bog'lanish yo'llarida ham umumiylik, ham o'ziga xoslikni ochib beradi. Butun XX asr davomida ingliz va o'zbek yozuvchilari jadal ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar bilan kurashib, innovatsion adabiy uslublar va tematik izlanishlar orqali zamonaviylik mohiyatini qamrab olishga intilishdi. Ingliz adabiyotida modernist yozuvchilar Virjiniya Vulf, Jeyms Joys, Eliot ong oqimidagi hikoya, parchalangan tuzilmalar va chiziqli bo'lmagan hikoyalar bilan tajriba o'tkazib, hikoya shaklini inqilob qildi. Ularning asarlari zamonaviy tajribaning parchalanishi va noaniqligini, shuningdek, chuqur begonalashish va umidsizlik hissini aks ettiradi.

Xuddi shunday, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi modernist mualliflar an'anaviy hikoya qilish uslublarini modernistik his-tuyg'ular bilan mohirona uyg'unlashtirgan, an'anaviy adabiy me'yorlarga qarshi chiqqan, o'zlik, ijtimoiy o'zgarish va madaniy mavzularini o'rgangan. Bu yozuvchilar o'zlarining til, tasvir va timsollardan innovatsion foydalanishlari orqali o'tish davridagi o'zbek jamiyatining murakkab tomonlarini tasvirlab berdilar, shu bilan birga o'zbek madaniy merosining doimiy dolzarbligini tasdiqladi. Ingliz va o'zbek adabiyotidagi modernizm madaniy kontekst, til va o'ziga xos estetik strategiyalar nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin bo'lsa-da, ikkala an'ana ham adabiy ifoda chegaralarini kengaytirish va zamonaviy davrning ekzistensial dilemmalari bilan kurashish majburiyatini birlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek adabiyotida modernizmni o'rganish zamonaviylik murakkabliklarini va adabiyotning inson tajribasining cheklanishini aks ettirish, tanqid qilish va yengib o'tishdagi mustahkam qudratini o'rganish uchun ajoyib obyektivni taqdim etadi. Har ikki an'anadagi

modernist yozuvchilar o‘zlarining shakl, uslub va mavzuiy mazmundagi innovatsion tajribalari orqali adabiy manzarada o‘chmas iz qoldirib, o‘quvchi va yozuvchilar avlodlarini shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda badiiy ifodaning o‘zgaruvchan imkoniyatlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Woolf, Virginia. Mrs. Dalloway. Harcourt Brace & Company, 1925.
2. Joyce, James. Ulysses. Sylvia Beach, 1922.
3. Eliot, T.S. The Waste Land. The Dial Press, 1922.
4. Qodiriy, Abdulla. O‘tkan kunlar. Sharq, 1927.
5. Aytmatov, Chingiz. Jamila. Progress Publishers, 1958.
6. Hobsbawm, Eric. Age of Extremes: The Short Twentieth Century, 1914–1991. Vintage Books, 1996.
7. Allworth, Edward. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance, a Historical Overview. Duke University Press, 1994.
8. Bekenova, Gulnoza. Modernist Tendencies in Uzbek Literature: A Comparative Analysis. Central Asian Literary Review, vol. 12, no. 2, 2018, pp. 45-60.
9. Smith, John. English Modernism and Its Influence on Uzbek Literature. Comparative Literature Studies, vol. 35, no. 4, 2017, pp. 112-127.
10. Rahmanova, Dilrabo. The Legacy of Modernism in Contemporary Uzbek Literature. Journal of Comparative Literature, vol. 25, no. 3, 2020, pp. 78-92.
11. Higgins, Linda. English Modernism and Its Global Influence. Modernist Studies Association Annual Conference Proceedings, vol. 10, 2019, pp. 145-160.
12. Habermas J. Modernity – an Incomplete Project? // Modernism /Postmodernism / Ed. by P. Brooker. L.; N.Y.: Longman, 1992. P. 125–139.
13. Modernism / Postmodernism / Ed. by P. Brooker. L.; N.Y. Longman, 1992.
14. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
15. Sarsenbaeva Z., Uteshova Z. Principles of Teaching Karakalpak Students English Speech Etiquette // Humanising Language Teaching. – 2022. – T. 24. – №. 4.
16. Сарсенбаева З. The Development Of Intercultural Competence As An Essential Element In Learning Efl // National Association of Scientists. – 2021. – T. 1. – №. 37 (64). – C. 21-24.

ERKIN A’ZAMNING IJODKOR OBRAZINI YARATISH MAHORATI

Shoxista Mahmudova,

Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada iste’dodli yozuvchilardan biri Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasi va “Yozuvchi” hikoyasidagi ijodkor obrazlarlarini yaratish mahorati tahlil qilindi. Ijodkor obrazlarining xarakteri va ruhiyatini tasvirlashdagi portretning o‘rni, asarlardagi Otashqalb shoir va “Domla” obrazlari yordamida davr fojialari ochib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: portret, xarakter, obraz, fojia, syujet, ijodkor.

Badiiy adabiyotda qahramon qiyofasini yaratish san’ati o‘ziga xos an’anaga ega. Qadim zamonlardan buyon qahramonlar ichki dunyosidagi bo‘hronlarni, ruhiyatidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda adiblar portret dan ham foydalanib kelishadi. Ba’zi ijodkorlar asarni portret tasviridan boshlasalar, boshqalari keyinroq portretga murojaat qilishadi. Faqat portret xarakter mohiyatini ochishga, ichki dunyosiga razm solishga xizmat qilsagina, o‘z o‘rnida berilgan hisoblanadi.

Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasi va "Yozuvchi" hikoyalarida ham qahramonning portreti o'ziga xos yo'sinda bo'y ko'rsatgan. Adibning portret yaratish bobidagi mahorati qissa va hikoyaning muvaffaqiyatini ta'minlagan jihatlardan biridir.

Qissa syujetini qatag'onga uchragan va keyinchalik vaqt o'tib oqlangan shoir xotirasiga bag'ishlangan xotira kechasi va o'sha kechada qatnashuvchi ishtirok etayotgan qahramonlar xarakteri tasvirlanadi. Qissadagi barcha voqealar Otashqalb shoirning butun hayoti davomida kechirgan azob-uqubatlari atrofida birlashadi.

"Shoirning to'yi" qissasidagi ijodkor Otashqalb shoir – ezilgan, xo'rlangan va ayni bir paytning o'zida irodasi sinmagan, e'tiqodi buzilmagan ijodkor. Asardagi voqealardan bu shoirning barcha fazilati qusurlari namoyon bo'la boshlagani sayin kitobxon xayolida oramizda uchraydigan sof vijdonli, mard va tanti, bir so'zli va jasur insonlarga mengzab ketadigan ijodkor siymosi gavalana boradi. Otashqalb – qalbi otashdek yonayotgan qahramonning ismi ham uning xarakterini ifodalaydi. Erkin A'zam tashqi jihatdan "*Qo'lbola aravachada o'tirgan bu odam nogironlikning jamuljam timsoli edi. Tizzadan kesilgan oyoqlarning po'ntig'iga kirza etikning qo'njidan yasalgan qoplama kiygizilgan, ikkala qo'lining ham tirsakdan pasti yo'q – isqirt, yag'iri chiqqan qora paxtalikning shalviragan yenglari yuqoriga qaytarilib, bilakka chandib qo'yilgan. Avji bahorning ilk oqshomi bo'lishiga qaramasdan G'aroyib muxlisning egnida qalin paxtaligu boshida eskidan eski quloqchin; soch-soqoli o'sib ketgan, qo'sqi. Tashqi qiyofasidan bu yurtning fuqarosiga o'xshamaydi, uzoqdan kelgan, juda uzoqdan – musofir*" [A'zam E, 2011:60], deb qahramonning tashqi qiyofasini portret orqali tasvirlaydi. Adib qahramon ichki dunyosini ham tashqi qiyofa tasviri bilan ochib beradi: "*Ammo uning asov, baroq qoshlar tagidan boqib turgan o'tli ko'zlarini ko'rgan odam bir seskanib tushishi muqarrar! Va uni shubhasiz og'ir bir savol o'rtay boshlaydi: bu qadar tanish ko'zlar kimniki?*" [A'zam E, 2011:60]. Endi yozuvchi qahramon ichki dunyosini "o'tli ko'z" ichki holatiga, ichki dunyosiga nazar orqali berishni boshlaydi. Shu bois, asosiy diqqatini qahramonning ichki dunyosini, fikr va tuyg'ularini tasvirlashga qaratgani uchun uning asarlarida ichki monolog salmoqli o'rin tutadi. "Ichki"ning ahamiyati shunda ko'rinadiki, tashqi voqea-hodisalarni adib qahramon ko'zi bilan ko'rsatadi va baholaydi. Vositachi – qissago'y xuddi borliqni tushuntirish imkoniyatidan mosuvo etilgandek, qahramon shuuri orqali harakat qiladi. Tipik sharoit va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlashning bunday yangi usuli ruhiyatga o'zgacha ta'sir etadi, asarni o'qish davomida kitobxonga kuchli hissiy-ruhiy ta'sir o'tkazadi.

Personaj xarakterini ochishda portret birlamchi muhim vazifadir. Yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, gavda holati kabi noverbal (og'zaki bo'lmagan) xatti-harakatlar ko'pincha personaj ko'nglida kechayotgan hislardan guvohlik beradi. E.A'zam qissada shoirning nafaqat tashqi qiyofasini, balki tashqi portret orqali shakllangan ruhiy olami – qalb dramatizmini chizishga bag'ishlaydi. Yozuvchi, ayniqsa, psixologik portret orqali qahramonlarining ahvoli-ruhiyasi, tiynati sirtiga toshgan holatini ustalik bilan tasvirlaydi: "*Musofir sho'rlikda qadam bosadigan oyoqning o'zi yo'qligidan u chaqqonlik bilan engashdi-da, qo'lga aylangan tirsaklarini ishga solib aravachasini tislantirdi. Ammo ketmadi, Ta'qibkorga tik boqib soqol-mo'y bosgan dahanini ochdi, o'zicha nimadir demoq bo'ldi, deya olmadi. Bu sho'rlikning boshqa a'zolari – oyoq-qo'li qatori tili ham kesilgan edi*" [A'zam E, 2011:61].

Tashqi ko'rinish ba'zida personaj xarakteriga ishora qiladi. Erkin A'zam Otashqalb shoirning portretini chizar ekan, uning nafaqat jismonan, balki ma'nan ham kamsitishlaridan o'zini himoya qila olmaydi. U ruhan azoblanadi. Ijodkorning qo'l oyog'i kesilgan, hattoki tili kesilganligi va uning nogironlar aravachasida ekanligi ramziy ma'noda tasvirlanadi. Uning ruhiyatida kechayotgan barcha his-tuyg'ularini, fikrlarini bildirishga umuman haqqi yo'qligi, bu aravada ijodkor davrning zanjirband she'ri timsolida ifodalanadi. Nogironlar aravachasi esa zanjirband she'rning qafasi misolida tasvirlanadi. Ijodkor jismonan nogiron emas, balkim qalban nogiron ekanligini voqealar asosida ochib beriladi. Yozuvchi ijodkor tabiatiga xos bo'lgan qiynoqlarni ochiq tasvirlamasdan bu vazifalarni asardagi detallar va portret yordamida ifodalaydi.

Qissada davr mafkurasi shaxs fojiasiga sabab qilib ko'rsatiladi. Otashqalb shoir shaxs fojiasi sifatida, Oqsoqol shoir, Mafkuraxonim, Ajoyib domla obrazlari davr fojiasi tasvirlanadi. Oqsoqol shoir Otashqalbning fojiasida bosh-qosh bo'lgan bo'lsa, Mafkuraxonim va Ajoyib domla davr maafkurasi nog'orasiga o'ynaydigan, ikki yuzlamachi insonlar obrazi sifatida jonlanadi. Davr zug'umidan qo'rqqan,

har bir so‘zi ssenariy asosida gapiradigan bu obrazlar jasoratli Otashqalb shoirga oyna-prizma vazifasini o‘taydi. Otashqalb shoir ham jismonan, ham ma‘nan majruh bo‘lsa-da, haqiqatdan tonmaydi, Oqsoqol shoir esa hatto vafot etishida ham qo‘rqoq va jur‘atsizligi sabab, haqiqat bilan yuzlasha olmaydi. Bu inson uchun juda katta fojia sanaladi.

Erkin A‘zamning “Yozuvchi” hikoyasi yozuvchi Shukur Xolmirzayevga bag‘ishlab yozilgan hikoya ekanligini muallif e‘tirof etadi. Hikoyadagi asosiy qahramon ijodkor obrazi “domla” deb atalib, qahramon ichki dunyosi muallif qiyofasidagi roviy tilidan retrospektiv (orqaga qaytib hikoya qilish) usuli orqali unga ta‘rif beriladi: *“U o‘rtamiyonagina yozuvchi edi... dunyoqarashi keng, jahon adabiyotidan xabardor, u mansabparast emas, aksincha, tortinchoq, kamtarin, hokisor bir yozuvchi edi. U yolg‘on yozishni bilmaydigan, hayotini adabiyotga bag‘ishlagan nashriyot muharriri edi”* [A‘zam E, 2007:13]. Ijodkor bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki davrda yashaydi. Muallif ijodkorni bog‘ bilan bog‘laydi, ya‘ni ijodkorning asari “Abadiy og‘ochlar” kabi har doim mag‘rur, egilmas va so‘nmas iroda sohibi ekanligini tasvirlaydi. Adib ijodkorning xarakterini to‘liq ochib berish uchun hikoyaga rais obrazini kiritadi. Bu obraz ijodkorga oyna-prizma vazifasini bajaradi. Hikoyadagi ijodkor obrazi ko‘proq tafsilot va munosabatlar orqali ochib beriladi. Xususan, E.A‘zamning “Yozuvchi” hikoyasi qahramoni “Domla” yoshi katta bo‘lishiga qaramay, yangi davrning yangi kishisi qiyofasini aks ettiradi. Asarda domla yozuvchilikka da‘vogar insonlarning orzusini amalga oshiruvchi ijrochi, kosib “ijodkor” shaxs sifatida ifodalanadi. Uning davrga xos asosiy xarakter belgilaridan biri, ijodiy faoliyatini “biznes”ga bo‘ysundirgan edi. Cho‘ntak dardiga muhtalo bo‘lgach, “Domla” yangi “kasbi”dan voz kechgisi kelmaydi. Yangi davr talabini o‘zicha anglagan yozuvchi ishdan bo‘shab olib, so‘lim bog‘ qo‘ynida asar emas, balki yangidan yangi “yozuvchi”larni yaratadi.

Dastlab, o‘zining bu ishidan xijolat bo‘lgan yozuvchi bora-bora bu bozor iqtisodi sharoiti, deb o‘zini-o‘zi yupata boshlaydi. Endi u o‘z qilmishini biznes deb oqlaydi. U yozuvchilikni havas qilgan raisni “odam qil”gani uchun ajr – mukofot oladi. Manfaatparast mudirning buyrug‘ini bajarish, pala-partish qo‘lyozmalardan katta asarlar yasash domlanning o‘zigada ma‘qul tusha boshlaydi. Endi domlanning o‘zi mo‘may daromad topish yo‘llarini o‘ylay boshlaydi. Qahramonning bu holati asarda: *“Xo‘sh, endi tirikchilik qanday o‘tadi? Buning ham yo‘lini yangi zamonning o‘zi ko‘rsatib berdi. Ta‘bir ma‘qul sanalsa, nashriyotni u uyiga – mana shu boqqa ko‘chirib keldi. Gap bu yoqda ekan deng! Sarson bo‘lib har kuni ishga qatnab yurmaysiz, bir tutam maoshga ko‘z tikib, rahbariyatning qosh-qovog‘ini poylamaysiz. Birgina alamli, armonli jihatini aytmaganda, bari naqd! Mo‘may biznes!”* [A‘zam E, 2007:17], – tarzida ifoda etiladi.

Bu tasvirlar zamonning zayliga bo‘ysunayotgan kishi ruhiyatini to‘liq ifoda etadi. Nafsning tuzog‘iga tushgan kishi kechagina o‘z amal qilgan yuksak axloqiy marralarni unutadi, pokiza ideallardan yuz o‘giradi. Erkin A‘zam qahramon ruhiyati tasviri orqali uning tabiatidagi o‘zgaruvchanlikni, olifta kimsalar yugurdagiga aylanishi sababini ishonarli asoslaydi. Hamisha muhtojlikda yashagan domla adabiy xizmatkorlik evaziga kelgan to‘kislikni omad, baxt deb qabul qiladi. Hikoyada yozuvchilikni havas qiladigan rais domlaga xizmati uchun uy sovg‘a qilganida, yozuvchining quvonchi ichiga sig‘may ketganligi tasvirlanadi. Asarda yozuvchi ruhiyatidagi ma‘naviy ojizliklar o‘ta xolislik bilan ifoda etiladi: *“Kechalari yotib uyqusi kelmaydi deng muharririmizning! Ko‘nglida bir quvonch gupurib, o‘rinlaridan turib ketaveradi. Odam bo‘lib kun ko‘rmagan boshiga bundayin omad qaydan keldi-ya, yo Olloh? O‘ziga o‘xshagan bir benavo, dardman xotini uzoq yili qazo qilib, uylangan yakkayu yolg‘iz o‘g‘li va ikki nevarasi bilan muharrir – beshavlon Chilonzorda uch xonali katalakdek uyda istiqomat qilardi. Mana, xudoyim berdi! Yetti uxlab tushiga kirmagan orzu bir lahzada ro‘yobga chiqdi-qo‘ydi”* [A‘zam E, 2007:14].

Bu tasvirda Erkin A‘zam zamonaning buyurtma asarlar yozadigan yozuvchilarni fosh etishni maqsad qilmagan, aksincha, tuzukkina ijodkorning ijtimoiy muhit va oilaviy sharoit, o‘z nafsini jilovlay olmaganligi bois shunday holatga tushib qolishi mumkinligini xolis tasvirlab beradi. Erkin A‘zam ma‘naviy tutqun, davrning manqurt ijodkoriga aylangan domla obrazining xarakterini ochib berishda hikoyadagi sutchi ayol obrazini oyna-prizma sifatida qo‘llaydi. Ya‘ni kitobxon tasavvurida birgina sutchi xotin obrazi o‘z ma‘naviyatiga xiyonat qilmaydigan beozor inson sifatida gavdalanadi. Ayniqsa,

kasalxonadan qaytgan yozuvchi bilan munosabati tasvirida sutchi ayol ma'naviyatidagi yuksaklik to'la namoyon bo'ladi. Sutchi ayol domlaning ma'budasi, pokiza ideali timsolida tasvirlanadi: *"Domlaning yana bir pinhona yupanchi bor – sutchi xotin. Har erta shu ayol sut ko'tarib kelganida ko'ngliga ajib bir nur kirgandek bo'ladi. Biror sabab bilan u ko'rinmay qolsa, o'zini qayga qo'yarini bilmay dilg'ash yuradi... Ammo nojo'ya biron fikrni xayoliga yo'latmaydi domla. Zinhor – bazinhor! U aslida sog'lom, shirin so'z bir oddiy qishloq ayoli edi. Oylab shaharga tushmay, ayol zotini kam uchratadigan domlaga esa bamisoli farishta bo'lib ko'rinardi"* [A'zam E, 2011:19].

Erkin A'zam bu ayol obrazi orqali hayotda har qanday sinovlarga bardosh berib, o'z ma'naviy qiyofasini o'zgartirmaydigan insonlarni aks ettiradi. "Poraxo'rlik axloqsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, boshqa axloqsizlarni ham yaratadi", – degan haq gap ekanini hikoyadagi yozuvchi obrazi misolida ko'rish mumkin bo'ladi. Jamiyat va uning bir a'zosidagi soxtakorlik Erkin A'zam hikoyasida bu darajada bo'rttirib tasvirlanmaganda, illatning mohiyati ochilmagan, ko'zga yaqqol tashlanmagan bo'lardi. Ijtimoiy hayot va odamlar ruhiyatiga shiddat bilan kirib kelayotgan bozorbop o'zgarishlar asar qahramoni ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatgani bois u kundan kunga o'z qiyofasini o'zgartirib, asl mohiyatidan uzoqlashib borgani hikoyada ishonarli tasvirlangan.

Erkin A'zam ijodkor obrazini qay tarzda tasvirlaganligi, adibning portretdan foydalanish uslubi, qahramon dunyoqarashi, xarakteri va bu xarakterlarni shakllanishida ijtimoiy sharoit, ijtimoiy muhit ta'siri qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin. Lekin yozuvchi qahramon portretini keng planda chizmay, ma'lum bir qirralarini tasvirlaydi. Har bir qirra qahramon yashayotgan muhit, sharoit haqida kitobxonga ma'lumot beradi. Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasidagi qatag'on shoir, "Yozuvchi" hikoyasidagi domla obrazi orqali esa adib bu muhit qahramonni qay darajaga olib kelishi mumkinligini tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin A'zam "Shoirning to'yi" qissasi va "Yozuvchi" hikoyasida ijodkor xarakterining barcha nozik qirralarini badiiy vositalar, hayotiy detallar asosida tasvirlaydi. Uning badiiy uslubiga xos yana bir jihat shundaki, yozuvchi obrazlarni g'oyaga moslashtirib tasvirlashni yoqtirmaydi. Imkoni boricha, u qahramonlarining hayotiy, o'z yo'li va tutumiga ega bo'lishini istaydi. Shu bois E.A'zam qissa va hikoyasidagi ijodkor obrazlari bo'g'iq muhitda ham to'g'ri yashashning choralarni izlayotgan, yo'l topishga intilayotgan kishilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Pakananing oshiq ko'ngli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 60.
2. A'zam E. Yozuvchi // Jannat o'z qaydadir. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 13.
3. Gruzenburg S.O. Psixologiya tvorchestva. – Minsk, 1923. – S 39.
4. Ilin Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – Piter, 2009. – S.35
5. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999. – B. 66.
6. Mahmudova Sh..A. Artistic psychologism in uzbek literature of the twentieth century// Omega science. – Kirov, 2019. <https://os-russia.com/arh-conf>
7. Mahmudova Sh.A. The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. – Nauchniy vesti, 2019

SHOIRA RA'NO UZOQOVA LIRIKASIDA TRANSFORMATSIYALANISH MASALASI

Yulduz Xaitova,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada, uzoq tarixiy va adabiy jarayonda shakllangan hamda takomillashib borgan an'analar, badiiy tafakkur tarzi, she'riyat, madaniyatga ixlosmandlik, boy adabiy manbalarning

mavjudligi vohada har jihatdan mukammal va qizg‘in adabiy muhitni vujudga kelgani haqida so‘z boradi. Bundan tashqari maqolada, shoira Ra‘no Uzoqova lirikasida transformatsiyalanish jarayoni tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: transformatsiya, poetik uslub, ruhiyat, shoira, badiiy ijod, obraz, mahorat, muhammas, g‘azal, she‘r.

Real borliqda kechayotgan voqelikka munosabat bildirish, ularni o‘z qalbidan o‘tkazish, hissiy mushohada yuritishda she‘riy janrlardagi ruhiyat masalasi shoirlar uchun eng optimal holat hisoblanadi. Transformatsiya so‘zi bir holatdan boshqa bir holatga aylantirishni anglatadi. Bu metodni AQSh olimi Z.Xarris taklif etgan. Keyinchalik bu metod adabiyotga ham ko‘chgan. Ustoz shoirlar uslubiga, ijodiga, she‘rlaridagi ifodaga ergashish, ularga tazmin, taxmis bog‘lash, umuman olganda, adabiyot tarixidagi an‘ana va qoidalarni zamoniy adabiyotga bir oz o‘z tafakkurida o‘zgartirgan holda olib o‘tish, ko‘chirish bu transformatsiya hodisasidir.

XX asr zamonaviy she‘riyatida mumtoz adabiy an‘analar ham davom ettirildi. Bu esa Ra‘no Uzoqova ijodida ham kuzatiladi. Shoira she‘riyatga kirib kelgan 30-yillarning oxirida hali g‘azalning shukuhi so‘nmagan, odamlarning qalbidan o‘chmagan edi. Ra‘no Uzoqova ijodida 14 ta g‘azal bo‘lib, ular shoiraning iqtidori haqida ma‘lum bir tasavvur bera oladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida asosan 7 baytli g‘azallar ko‘proqni tashkil qilsa-da, shoira ijodida 5-6 baytli g‘azallar salmoq jihatdan ko‘p. Kam uchrasa-da, ba‘zi g‘azallari 7 baytli, ba‘zilari 9 baytlidir. Shoiraning g‘azallari an‘naviy ishq-muhabbat mavzusida yozilgan bo‘lib, asosan, urushdan qaytmagan vafodor yor, farzandiga otalar nidosi kuyunchaklik bilan tilga olinadi. Masalan, “Ko‘kni tutgan turnalar” [1.112] radifli g‘azal shunday fikr yuritishimizga asos bo‘ladi:

*Ko‘kni tutgan turnalar, aytingchi, jonim qaydadir?
Iftixorim, shavkatim ham mehribonim qaydadir?*

*Yor yurgan ko‘chalarda izlaram har dam visol,
Dilda orom berguvchi qoshi kamonim qaydadir?*

*Qaydadir ul qaddi shamshod, lablari g‘unchaginam?
Yovni yakson aylagan ul qahramonim qaydadir? [1.112]*

Ra‘no Uzoqova jadid adabiyotida mardikorlarga bag‘ishlangan g‘azallardagi singari “qahramonim” sifatlashini qo‘llaydi. Bunday sifatlash Sidqiyning “Rabo(t)chilar kelishi” asaridagi “Sitamdiya rabo(t)chilar kelishi” deb nomlangan 90 satrlik manzuman eslatadi. Ammo o‘z o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, Ra‘no Uzoqova she‘ri Sidqiyning she‘ridagi mazmun va shaklni to‘lig‘icha o‘zida aks ettirmaydi. Shoira g‘azalida transformatsiya jarayoni yuzaga kelganini ta‘kidlash mumkin. Ikki ijodkor she‘rlaridagi asosiy motiv bir xil – ayriliq.

G‘azalning birinchi bayti turnalarga xitob bilan boshlanib, oxirgi bayti ham shu tariqa yakunlanadi:

*Turnalar, ey turnalar bir-bir kezib, aylang darak,
Keltiring tezdin xabar, jon-u jahonim qaydadir?*

Shoiraning xuddi shu ruhdagi g‘azallaridan biri “Sadoqat” [1.115] deb nomlanadi.

*Ko‘kragimda otdi tonglar yor seni ko‘rgan kecha,
Rashk etardi hatto sunbul kokilim o‘rgan kecha.*

*Ming balolarga duchor etsin sening dog‘ing meni,
O‘zganing shavqida ko‘ksim talpinib urgan kecha.*

*Bir nigohingga sadag‘a aylayin ming bir jonni,
Bosh egay, Ra‘no, nigor hijron tuning surgan kecha, – kabi misralarda hijron ishqida o‘rtangan*

ko'ngil iztirob chekadi. Ulug' Navoiydan tortib, to jadid ijodkorlarigacha "sabog'a", "bodi sabog'a" murojaat qilgan bo'lsa, shoira esa ilk bora "turnalar"ga murojaat qilib, o'z "yori joni"dan xabar olib kelishlarini so'raydi. O'ziga xos badiiy topilma yaratadi. Bu shoiraning o'ziga xos jihati.

Shoiraning Alisher Navoiy g'azaliga o'xshatma tarzida bitgan "O'ynar" [1.426] radifli g'azali quyidagicha:

*Oydin kecha bir parizod suv bilan o'ynar,
Ko'kdan inib suv ichra oy u bilan o'ynar.
Mavj uradi, chayqaladi dengiz har tomon,
Suv uzra qiz kokili shov-shuv bilan o'ynar...*

*Zarbasidan toglar ko'char Rustami zamon,
Mamlakatni bo'ston etar, "Oq oltin"ga kon...*

G'azalda bir parizod oydin kechada suv bilan o'ynashi, ko'kdagi oy ham tushib u bilan o'ynashi, qizning kokili ham suv uzra o'ynab, bundan dengiz quvonib mavjlanishi, quvonchga to'la parizodning qahqahasi samolarga eshitilib, quyosh bosh ko'tarib kelishi, ketmoni qo'lida yarqiragan Rustamga qiz suv tutishi, Rustam bundan kuch olib mamlakatni bo'ston oq oltinga kon etishi mohirona tasvirlanadi. G'azal maqtasida Shoiraning taxallusi keltirilib, kim o'zarda hech bir bahodir unga yetolmasligi ifodalanadi.

G'azal 6 bayt 12 misradan iborat. Qofiyadosh so'zlar suv, u, shov-shuv, ohu, suv, u. 3-5-baytlardagi misralar o'zaro qofiyalangan. Vazn saqlanmagan.

Alisher Navoiyning "O'ynar" [1.91] radifli g'azali matla'si va maqta'si quyidagicha:

*Zulfung ochilib, orazi diljo' bila o'ynar,
Hindubachaye sho'xdurur, suv bila o'ynar.*

*Mug' dayrida mast o'lsa, Navoiyni ko'rungkim,
Bir olma kibi gunbazi miynu bila o'ynar.
("Badoe' ul-vasat". 166-gazal)*

Alisher Navoiyning o'rta yosh lirikasiga doir bu g'azal shoirning o'rta yoshdagi badiiy kamolotini, o'rta yosh go'zalliklariga maftunligini, o'rta yosh ehtirolari in'ikosini ifodalab turibdi. Asarning mazmun-mundariyasi ma'shuqa jamolini vasf etishdan iborat. Ra'no Uzoqova g'azalida shakl to'liq saqlanmagan. Navoiy an'anasi davom ettirilgan holda har ikki g'azalda yor vasfi tasvir etilgan. Shoira Navoiyning uslubi, betakror so'z qo'llash san'atini o'z ijodiga ko'chirgan. Ammo mazmunda transformatsiyaga uchragan joylar ham bor. Masalan, shoira g'azalidagi yor Rustam obraziga ijtimoiy mazmun yuklamoqda. U lirik qahramonning oshig'i. Navoiy g'azalida esa butun bir asar yor vasfiga bag'ishlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ruhiyatning shakl transformatsiyasida namoyon bo'lishi buyuk ijodkorlarning asarlarini muhabbat bilan o'qish, chuqur o'rganish, ularning iqtidoriga, iste'dodiga taqlid qilish, shu yo'l bilan o'z ijodini kamol toptirish demakdir. Ushbu hodisa ijobiy bo'lib, poetik o'zlashtirish degan istiloh bilan yuritiladi. Albatta, bu to'liq taqlid degani emas. Har bir ijodkorning boshqalarnikiga o'xshamagan o'z yo'li, uslubi, estetik tafakkuri, so'z qo'llash mahorati bo'ladi. Aynan shu iqtidor ularni boshqa ijodkorlardan ajratib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узоқова Р. Бахт қўшиғи. Сайланма. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
3. Маматқулов С. Ўзбек тилида предекатив синтагманинг трансформацияси. - Тошкент: Университет, 1998
4. Eshboyeva O. Transformatsiya lingvistik tushuncha sifatida.// The journal of social sciences and researches. 2023-yil 4-yanvar.

5. Куронов Д. Шеърятимиздаги поэтик янгиланишнинг бир қиррасига доир айрим қайдлар // Китобда: Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Akademnashr. 2016.
6. Alisher Navoiy. Badoye ul-vasat. 166-g‘azal. 91-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Ингеборг, Балдауф . XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001.
8. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 350-353. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
9. Yulduz Hayitova Some strikes to the poem of the Shodmonkul Salom. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (102), 1033-1036.
10. Raimova S.(2019) Artistic interpretation of religious and educational issues of uzbek poetry in the period of independence.(As an example works of A.Aripov,A.Mahkam and A.Uktam) //ISJ Theoretical and applied sciences. – № 11 (71). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.

MUMTOZ ADABIYOTDA NAVOIYNING ROLI

Akbar Jumanov,
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy tilimiz va adabiyotimizning tengsiz yalovbardori bo‘lgan Alisher Navoiyning xalqimiz ma’naviyati rivojida ulkan xizmati, xususan, turkiy tilimizni va uning cheksiz imkoniyatlarini jahon miqyosiga olib chiqqanligi yoritiladi, o‘rganiladi. Qolaversa, ulug‘ mutafakkir, shoir ijodidagi badiiy san’atlarning ayrimlari haqida fikr yuritiladi, she’rlardan ayrim misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *so‘z sehri, poetik mahorat, beqiyos ijod, komil inson, she’riy san’atlar, mantiq, nafosat, irsoli masal.*

O‘zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligining asoschilaridan biri sanalgan Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o‘rin tutuvchi dolzarb muammolar nimalardan iborat hamda ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon va adabiy-estetik tafakkur rivojida nechog‘lik ahamiyat kasb etadi. Albatta, mavzuni keng yoritish uchun juda ko‘plab salmoqli tadqiqotlar talab qilinadi. Shu o‘rinda bir mulohazani aytib o‘tish o‘rinli. 1989-yilda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonunda o‘zbek tiliga emas, ona tiliga davlat tili maqomini berish to‘g‘risidagi bandlar belgilangan. Taniqli tilshunos olimlarimiz xotirlashlaricha, o‘sha paytdagi hukmron siyosat tufayli “o‘zbek tili” degan so‘zni ishlatishdan cho‘chishgan (N.Mahmudov).

Ming afsuski, mustabid sho‘ro davridagi hukmron sotsialistik mafkuraning taqiqlari natijasida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o‘rganilmasdan, aksincha, bunday harakatlar “o‘tmishni ideallashtirish”, “millatchilik” degan tamg‘alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. Eng yomoni shundaki, 1917-yil Oktyabr “inqilobigacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiyoti xon va beklar uchun yozilgan saroy she’riyatidan yoki diniy mazmundagi asarlardan iborat”, - deb, butunlay inkor ham etilgan edi. Chinakam millatparvar shoirimiz Cho‘lpon o‘zining 1919-yili yozgan “O‘zbekim” nomli she’rida ham faxr va armon bilan shunday satrlarni bitgan edi:

*Dunyoda hamma xalq qiziqan gavhardek bebaho ot edi,
Hurriyat bo‘lganda sen kelding semirgan otga minayin deb.
Og‘zingga mallalar bir tepdi, ma’rifat xaromdir sartga deb...*

Bu satrlarda tarixiy o‘tmishimiz va xalqimiz, millatimizning buyuk daholari bo‘lgan Beruniy, Farg‘oniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Navoiy va Bobur kabi ulug‘ ajdodlarimizdan qolgan bebaho ilmiy-adabiy merosimiz va uning mustamlaka davrida qadrlanmasdan, aksincha, inkor etilgani achchiq haqiqatdir. Adabiy merosimizga nisbatan johilona munosabat va nigilizm siyosatining ayanchli oqibatlarini

Yassaviy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, shoh va shoir Feruz, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi ulug' siymolar shaxsi va ijodiga nisbatan qilingan johilona munosabat va tahqiqlarda yaqqol ko'rinadi. Hatto Navoiydek buyuk daho ijodkorimizning dunyo tan olgan asarlariga nisbatan ham bepisandlik bilan munosabatda bo'lingan va asossiz kamsitib kelingan. Istiqlolimizdan so'ng o'tmish madaniy merosimizni va Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganish va haqqoniy baholashga sharoit yaratildi. Ayniqsa, so'nggi yillar yurtimizda Islom ma'rifati keng yoyilayotgani, xalqimiz qalbida muqaddas "Qur'on" va muborak hadislarga bo'lgan imon-e'tiqodi ortishi adabiyotning asl mohiyati, hayotiy va ruhoniyligi ildiz va manbalarini, xususan, Navoiy ijodiyotining ahamiyatini kengroq idrok etishimizda ham muhim asos bo'ladi. Badiiy-estetik tafakkur olamiga bunday yondashuv nafaqat mumtoz adabiyotimiz namunalari, balki hozirgi zamon adiblarimiz ijodidagi diniy motivlar, islomiy ma'rifat va e'tiqod g'oyalarining teran ildizlarini chuqurroq anglashimizga ham imkon beradi. Haqiqatan ham, buyuk so'z san'atkori, iste'dodli munaqqid Navoiy, eng avvalo, o'zining benazir shaxsiyati va adabiy-estetik qarashlarining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikni hamisha hayratga solishi tabiiy. Bu muhim haqiqat eng avvalo shunda namoyon bo'ladiki, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida, poetik mahorat va so'z san'atkorligi xususida Navoiychalik ko'p, chuqur va izchil fikr-mushohada yuritgan munaqqid jahon adabiy tanqidchiligi tarixida kamdan-kam uchraydi. Navoiyning o'zbek adabiy tanqidchiligi hamda adabiy-estetik tafakkuri rivoji oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'z davri adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb va eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik va o'ziga xos nuqtadonlik bilan hal etib bera oldi. Buyuk munaqqidning badiiyat, tanqid va adabiyotshunoslik borasida ko'p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari va salmoqli asarlarining samarasi sifatida XV asr va XVI asr boshida badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur sohasida yaxlit bir ta'limot maydonga keldi. Navoiy yaratgan ilmiy-nazariy ta'limot so'z san'ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham ijodiy dasturilamal bo'lib kelmoqda. Navoiy ijodi va g'oyaviy-estetik an'analari o'zbek shoir va yozuvchilarining badiiy-estetik tafakkuri shakllanishida muhim omil bo'lishi bilan birga Istiqlol davri adabiyoti va ma'naviyati uchun ham yukak ijodiy namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Navoiyning "Nazmda ham asl anga ma'ni durur" kabi ilhombaxsh badiiy va estetik an'analari nafaqat o'zbek adiblari ijodiga, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalari tomonidan ijodiy davom ettirilishi va ularning qudratli ta'siri alohida tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi. Alisher Navoiyning so'z vasfidagi falsafiy-estetik qarashlari ham teranligi va hayotiyiligi bilan eng qadimiy yozma yodgorliklar va muqaddas kitoblar- "Avesto", "Qur'on" va hadislarga borib bog'lanishi ham ularning ildiz-manbalarini qanchalik hayotiy va haqqoniyligiga ishoradir. Navoiy adabiy-estetik ta'limotining XX asr adabiyoti rivojidagi beqiyos o'rni va ahamiyati, ilhombaxsh an'ana va aqidalari o'zbek va boshqa xalqlarning ko'plab shoir va yozuvchilari tomonidan ijodiy davom ettirilishi muammolari yetarli darajada o'rganilmagan. Navoiy adabiy-estetik qarashlari o'zining teranligi, mavzu-muammolarining rang-barangligi, qamrov doirasining kengligi hamda badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi alohida diqqatga sazovordir. Shubhasiz, badiiy adabiyotning yuksak san'at ekanligi, ijtimoiy-estetik ahamiyati va ijodkor ma'suliyati haqidagi qarashlar Alisher Navoiy estetikasining asosiy mezonini, buyuk munaqqid qarashlarining markaziy nuqtasi hisoblanadi. Shubhasiz, Navoiyning boy ijodiy merosi so'z san'ati va adabiy tanqid ilmining keyingi yillardagi taraqqiyoti uchun ham yuksak poetik mahorat va ijodiy tajriba maktabi vazifasini o'taydi va bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Davrimizning mashhur shoiri O'ljas Sulaymonning **"Navoiy bo'lsam agar, Murodimga yetardim balki"** degan yuksak e'tirofi ham ana shu haqiqatning yorqin bir ifodasidir.

Afsuski, yoshlarimizda ona tili adabiyotimizni o'rganishga mehr va ishtiyoq sustlashgan va savodxonlik ham past. OTMga kirish testida Ona tili shart qilib qo'yilishi to'g'ri. Lekin bo'lajak filolog va pedagog-o'qituvchilar ona tili va adabiyotdan insho yozishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi. Boshqa yo'nalishlarda ham O'zbek tili adabiyoti o'tilishi zarur. Ammo ilmiy-nazariy tushuncha va qoidalar majmuasidan iborat fan sifatida emas, badiiyat va nafosatni qalban anglash, mustaqil fikrlash va ijodiy mushohadaga o'rgatuvchi san'at darajasida o'tilsa, yoshlarning **komil inson** bo'lishida beqiyos ahamiyat kasb etishi mumkin. Yoshlarimiz mumtoz asarlar (she'r va badiiy matnlar)ni tushunib yodlash, ulardagi badiiy so'z

jilolari va tag ma’nolarini hayot bilan va inson ruhiyati bilan bog‘lab tahlil etishni o‘rgansalar- ayni muddao bo‘lardi. Ko‘p yillik tajribam va talaba-yoshlar bilan doimiy muloqot davomida aniqlangan holatlardan bir-ikki misol keltiray. Navoiyning quyidagi satrlarining g‘oyaviy-badiiy ma’nosi haqida yuzlab talabalardan so‘ralganda, to‘rt-besh-tasi umumiyroq tarzda haminqadar javob berishga intildi. Holbuki, shu ikki satrda ham Navoiy inson umri mazmuni va ma’naviy kamoloti darajasi haqida teran fikr ifoda eta olgan:

*Kishi agar kishi bo‘lsa, o‘zin kishi demagay,
Qilurda hech ishin ham kishi ishi demagay*

Keyingi misralarda esa so‘z san’atining o‘ziga xosligi va badiiy haqiqatning talabchan kitobxonlarga ham kuchli ta’siri sharqona hikmat tarzida yoritilgan.

Alisher Navoiy ilmi badi’ga doir maxsus asar yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining “Majolis un-nafois”, “Xamsa” va boshqa ko‘plab asarlarida ilmi badi’ning ba’zi nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, Navoiy o‘z asarlarida ilmi badi’ga doir ayrim istiloh va atamalar sharhiga ham to‘xtalib, munosabat bildirib o‘tadi. Jumladan, maqlubi mustaviy san’ati haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “bu misra’ki “maqlubi mustaviy” san’atida aytibdur, dalil basdurkim: Mushi xari farrux shavam, Darki raqam qar kard”.

Alisher Navoiy ijodida **irsoli masal** san’ati keng qo‘llanilgan. Shoir ijodida bu san’atning istifoda etilishini uch xil holatda ko‘rish mumkin: 1) bayt tarkibida qo‘llanilayotgan maqol, matal yoki hikmatli so‘z “masal”, “masaldur”, “masalkim”, “derlar” jumalari yordamida keltiriladi:

*Chun masal bo‘ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud
Mushk isin yashursa bo‘lmas, bu masal mashhur erur.*

(G‘aroyib us-sig‘ar, 186-g‘azal)

*Buki, derlar: “Bordurur devor keynida quloq”,
Ul fazo davrida ko‘z yetguncha devor o‘lماغ‘ay.*

(G‘aroyib us-sig‘ar, 611-g‘azal)

Mubolag‘aning tablig‘ ko‘rinishi mumtoz adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy ijodida keng qo‘llanilgan: Tablig‘ – (ar.) aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘a. Bunda bo‘rttirib tasvir qilinayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga to‘g‘ri keladi va ba’zan qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, amalga oshishi ham mumkin.

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

(“Badoyi’ ul vasat”, 608 g‘azal)

Alisher Navoiy g‘azaliyotida **radd ul-qofiya** san’ati ancha faol qo‘llanilgan bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida uning turli ko‘rinishdagi 450 dan ortiq namunalarini uchratish mumkin. (Yo.Is’hoqov). Shoir she’riyatida radd ul-qofiyaning quyidagi ko‘rinishi qo‘llanilgan, g‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi ikkinchi baytda takrorlanishiga asoslangan:

*Bahor sensiz o‘luptur manga ajab do‘zax,
Qizil gul anda o‘tu oq shukufalardur yax.
Bahor sensiz agar do‘zax o‘lsa tong ermas,
Bibisht ichinda liqo bo‘lmasa erur do‘zax...*

(G‘aroyib us-sig‘ar, 108-g‘azal).

Turkiy adabiyot, xususan Alisher Navoiy ijodida **tajnisning**, asosan, quyidagi turlari keng qo‘llanilgan:

Tajnisi mukarrar – shaklan bir-biriga yaqin ikki so‘zning misra oxirida yonma-yon kelishiga asoslangan tajnis:

*Ishq erur andoq murabbiykim, qilur yetkach asar,
Bulbul o‘lg‘ay, ochsa yuz bir sarvi gulruxsor sor.*

(Badoyi’ ul-vasat, 158-g‘azal).

Alisher Navoiy ijodida **tazod** san’ati yuksak mahorat bilan qo‘llanilgan bo‘lib, shoir g‘azallarida ushbu san’atning ishlatilishida ikki xususiyat ko‘zga tashlanadi. Ba’zi o‘rinlarda Navoiy g‘azalning bir

yoki bir necha baytidagina tazod usulidan foydalansa, shoirning ayrim g'azallari boshdan oxirigacha ushbu san'at asosiga qurilganligini ko'ramiz. Masalan, quyidagi g'azal matla'sida birinchi misra faqat zid ma'noli so'zlardan tashkil topganligini ko'ramiz:

*Ne tirigmen, ne o'lug, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig' zormen.*

(G'aroyib us-sig'ar, 497-g'azal).

Alisher Navoiy ijodida **tamsil** san'atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi. Shoir lirikasida ushbu san'atning qo'llanilishida janrlararo tabaqalanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g'azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko'rinib, qit'a va ruboiyda bir she'r doirasida, tarji'bandda esa har bir band doirasida namoyon bo'ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog'lanib keladi. Natijada maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal, ya'ni bosqichli holat kasb etadi (Yo.Is'hoqov). Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g'azaldagi bayt doirasida namoyon bo'lmoqda:

*Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig' butkay ul,
Chunki qo'ymas yorag'a yopushqali marhamni su.*

(G'aroyib us-sig'ar, 511-g'azal)

Alisher Navoiy ijodida **tanosub** san'ati keng istifoda etilgan bo'lib, bu san'atning shoir lirikasida qo'llanilish holatini quyidagicha tasnif qilish mumkin: Bayt tarkibida ikki ma'no guruhiga oid so'zlarni keltirib, har ikki guruh orasidagi so'zlarni bir-biriga qiyoslash yoki qarshi qo'yish orqali tanosub san'atini qo'llash. Masalan,

*Xattining vasfin yozarmen kirpiku xoli bila,
Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod.*

(“G'aroyib us-sig'ar”, 120-g'azal)

Tashxis san'ati Alisher Navoiy asarlarida ko'proq tabiat lirikasi bilan bog'liq holatda namoyon bo'ladi:

*Yog'in ahvolinga yig'larki, ko'z och uyqudin
Kim, erur sayli mamarri bu ko'han dayri xarob...*

(Favoyid ul-kibar, 41-g'azal)

Navoiy ijodida insonga xos xususiyatlar faqat hayvonlar, qushlar, aniq narsalargagina emas, mavhumiy tushunchalarga ham ko'chiriladi

*Mungrayib andoq sinuq ko'nglum buzulurkim, sipehr
Bul'ajab holimg'a yuz ming ko'z bila hayron bo'lur.*

(G'aroyib us-sig'ar, 162-g'azal)

Alisher Navoiy ijodida **tazmin** san'atining istifoda etilishi aynan “Me'yor ulash'or” muallifi keltirgan mezonlarga mos keladi. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi ayrim g'azallarida boshqa g'azallardagi misralar aynan keltirilganligini kuzatish mumkin. Masalan, “G'aroyib us-sig'ar”dan 479-raqam ostida o'rin olgan:

*Ne tirikmen, ne o'luk, ne sog', ne bemormen,
Ayta olmonkim, firoqingdin ne yanglig' zormen*

Alisher Navoiyning epik she'riyati **tatabbu'** asosida yaratilgan bo'lib, uning “Lison ut-tayr” dostoni Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga, “Xamsa” tarkibidagi dostonlar esa Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy dostonlariga tatabbu' tarzida vujudga kelgan. Alisher Navoiy ijodida **husni ta'lil** quyosh, oy, yulduzlar, subh, shafaq, sham, gullar timsollarining harakati va holatini g'ayritabiiy, xayoliy asoslash orqali yor latofati ta'sirchan tarzda ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz.

*Oy falak xirgohida andin chekar yuzga sabob,
Kim ocha olmas yuzin ul mohi xirgoh ollida.*

(“Favoyid ul-kibar”, 569-g'azal)

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy mumtoz adabiyotda o‘ziga xos tarzda qalam tebratgan. Uning ijodidagi badiiy san’atlar ham har tomonlama mukammal, o‘zining badiiy nafosati bilan xilma-xil ifoda usullari bilan berilgani – o‘zbek tilimizning g‘oyatda boyligi va go‘zalligini, shuningdek, nozik va teranligini yorqin hamda jonli lavhalarda ifodalashini ko‘rsatib turibdi. Bularni chuqur o‘rganish yangi O‘zbekistonimizning yosh mutaxassislari uchun nihoyatda zarur, deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Somon yo‘li chechaklari. – Toshkent, 2004. – B. 215.
2. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). – T.: Akademnashr, 2013.
3. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. – T.: Mumtoz so‘z, 2011.
4. Hojiahmedov A. She‘riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
5. Qayumov A. Asarlar. 3 jild. – T.: Mumtoz so‘z, 2009. – B.147.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 1-2 jildlar. – T.: Fan, 1987-1988.

ERKIN A‘ZAM QISSALARIDA HAYOT HAQIQATI VA TALQIN MAHORATI

Bekzod Qarshiyev,

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti o‘qituvchisi

Annonatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek qissachiligidagi o‘zgarishlar, qahramon idroki, badiiy obrazning psixologik tasviri Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi” qissasi misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *obraz, assotsiatsiya, ichki nutq, badiiy xarakter, ramziylik.*

Keyingi davr jahon adabiyotshunosligida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, yangilanishlar milliy adabiyotimizga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Yangi-yagi oqimlar, yangi-yangi ijodiy metodlar vujudga kela boshladi. Dunyoga yangicha nigoh bilan qarash, eskirib, siyqasi chiqib ketgan biryoqlama fikrlardan farqli o‘laroq, insonni mushohadaga chorlaydigan, maxsus tayyorgarliksiz o‘qib, uqib bo‘lmaydigan yangicha uslubdagi asarlar yaratila boshladiki, bu badiiyat olamidagi rang-baranglikni, adabiy jarayondagi qizg‘in bahs-munozaralarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek nasrida tasvirning yangi shakllari, qahramon idroki asosiga qurilgan tom ma‘nodagi modernistik asarlar yaratilishi havaskorlik tarzidan ommaviylik tusiga kira boshladi. Bu uslubni dastlab Murod Muhammad Do‘st, Ikrom Otamurod, Olim Otaxonov ijodiyotida ko‘rgan bo‘lsak, bugungi kunga kelib, Erkin A‘zam, Nazar Eshonqul, Qo‘chqor Norqobil kabi nosirlar asarlarida ham guvoh bo‘la boshladik.

Ma‘lumki, adabiyot, so‘z ilmi inson ruhiy kamoloti, o‘zlikni anglash, insonning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Tarixiy ildizi baquvvat zamonaviy adabiyotimizda shunday nodir asarlar borki, ularni o‘qish va uqish asnosida bugungi yosh avlodning tafakkur sarhadlari yangi-yangi qutblarni zabt etishi, shubhasiz. Mana shunday asarlar yaratgan hassos nosirlarmizdan biri istedadli adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A‘zamdur. Yozuvchi xoh hikoya yozsin, xoh roman-u qissa yoki kinoqissa bo‘ladimi – bularning barchasi o‘zida juda ulkan adabiy estetik tafakkurni singdirgan purma‘no bitiklar sanaladi. Xuddi shunday asarlardan biri adibning “Shoirning to‘yi” qissasidir.

“Tarix, kechagi kun – bamisoli serishva jonon, har kim uni ta‘biga moslab olaveradi; davr shamoliga qarab o‘zgaravergani sayin chin haqiqatni aniqlash mushkullashib boradi”[E.A‘zam, 1988: 213].

Darhaqiqat, o'tgan davr silsilalarining zamon mafkurasiga qarab o'zgarib borishi, ming yillar davomida millat etaloni sifatida yodga olinadagin buyuk shaxslarning ulug' nomlari xalqimiz boshidan o'tgan qora kunlar davomida tarfa xil "shakl-shamoyil"ga solinganini bugungi davr unutkanicha yo'q. Ularning nomlari qora bilan yozilib, turli xil mafkuraviy o'yinlar iskanjasida qolib ketdi. Ijtimoiy-madaniy masalalarga kinoya, kesatiq va yumor bilan munosabatda bo'ladigan iste'dodli yozuvchi Erkin A'zam bunday mavzularda jim tura olmasligi tabiiy, albatta. Adibning "Shoirning to'yi" qissasi boshlanmasida berilgan ushbu parchani butun asar g'oyaviy-badiiy xususiyatini ochib beruvchi epigraf yanglig' idrok etish mumkin.

Qissadagi yana bir o'ringa e'tibor qaratsak: "Tiriklarga baribir oson ekan, tiriklar beshafqat ekan, o'liklarga qiyin, o'liklar chorasiz, ular o'zini himoya qilolmaydi"[E.A'zam, 1988: 227]. Ha, haqiqatan ham o'liklarga qiyin, ular o'z nomlarini tiriklar safida turib himoya qila olmaydi, ular odamlarning xotirasida o'zlariga bichilyotgan to'narni kiyib yashashga majbur. Toki haqiqat qalqib-qalqib suv yuziga chiqqunicha shu alpoz davom etadi.

Zahmatkash adabiyotshunosning quyidagi o'y-kechinmalariga e'tibor bering: "Kechagina o'zi yozib bergan gaplarni u hozir boshqa kishining og'zidan eshitib, xayolan solishtirarkan, matnga talay tahrir-u tuzatishlar kiritilganini sezdi. Avvalo, o'rinli-o'rinsiz "sovet" so'zi qo'shilgan edi: "yosh sovet shoiri", "boy sovet voqeligi", "sovet lirik she'riyati". Otashqalb shoir "sovet tuzumini tinmay ulug'lagan", "shonli o'ttizinchi yillarning qahramonona zafarlarini tarannum etgan emish! Unda nega qamaldi, nega "xalq dushmani" deb qoralandi?"[E.A'zam, 1988: 227]. Asar qahramonlaridan biri zahmatkash adabiyotshunos Mafkuraxonimga o'zi yozib bergan matnga kiritilgan ayrim o'zgarishlarni ko'rib, tafakkurida haqli savol paydo bo'ladi: Otashqalb shoir sovet tuzumini ulug'lagan bo'lsa, nega qamaldi, nega xlaq dushmaniga aylandi? Ha, bu o'sha Mafkuraxonimlarga o'xshagan kimsalarning "mafkurasi" natijasi o'laroq sodir bo'lgan qing'irliklarning bir bo'lagi edi, xolos.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Shoirning to'yi" asari hayot haqiqatining badiiy kartinasini yaratish mobaynida so'zlarning yashirin ma'nosidan badiiy topilmalar yarata olishi Erkin A'zamning o'zbek qissachiligida o'ziga xos yo'nalishga ega ekanligini, ong oqimi uslubiga mansub yangicha asar yaratgan, milliy prozimizga yangi uslub, ohang, ruh olib kirgan adib sifatida e'tirof etishga to'liq asos bo'ladi. Yozuvchi asarlarini o'qigan kitobxon xuddi asar qahramoni kabi qisqa muddat ichida, tashqi voqelik davomida o'z umrining muhim daqiqa va davrlarini ko'z oldiga keltiradi, mulohaza qiladi, o'zining har bir qadamda yo'l qo'ygan xatolari, yo'qotishlari, yutuqlari, firib, aldash, aldanish va hokazo kabilarni, xullas, bor hayotini imtihon qiladi. Shunday qilib, yozuvchi asarlarida tez-tez uzilib, yana tiklanib turuvchi mulohaza, fikr oqimi, xotiralar asarning ichki fabulasini tashkil qiladi. Obrazlarning o'z o'tmishiga munosabati juda faol va erkindir. Bu esa qahramon ruhiyatining ochib berilishida muhim vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam E. Yozuvchining bog'i. – Toshkent: "MASHHUR-PRESS", 1988, – B 213.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, 2004.
3. Жўраев Т. Онг оқими Модерн. – Фарғона, 2009.
4. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент, 2014.

XIX ASR OXIRI – XX ASRNING BOSHLARI XIVADAGI YANGILANISHLARDA KOMIL XORAZMIYNING O'RNI

Nigora Bo'tayeva,
JDPU o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida O'rta Osiyo siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, xalqning ijtimoiy ahvoli, yangiliklarning badiiy adabiyotda aks etishi, xususan, Komil

Xorazmiy ijodida ijtimoiy - siyosiy voqelikning tajassumi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish davri, ma‘rifatparvarlik, ijtimoiy voqelik, Xiva adabiy muhiti, matbaachilik, g‘azal, qasida*

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o‘ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma‘rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma‘rifatchilik; 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

O‘zbek jadid adabiyoti, asosan, mumtoz adabiy tajribalar, qisman jahon estetik tafakkuri zaminida shakllandi va takomillashdi. Bu xususiyat Xorazm adabiy muhiti namoyandalari ijodi uchun ham mushtarakdir. Afsuski, Xorazmdagi jadidchilik haqidagi qator tadqiqotlarda asosiy e‘tibor ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaratilib, jadid adabiyoti namunalariga yetarli baho berilmadi. (Begali Qosimov va Sharif Yusupovning “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” kitobidagi Bayoniy, Komil Xorazmiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Ahmad Tabibiy ijodiga doir fikrlari bundan mustasno). Ko‘p hollarda, Xorazm shoirlarining milliy uyg‘onish davri adabiy muhitidagi o‘rni e‘tirof etilsa-da, ularga nisbatan “jadid” atamasi qo‘llanilmay kelinmoqda [Saidjonova, 2016: 4].

Bu davr ziyolilari rus ilm-fani, tili va madaniyatini egallash, shu orqali, birinchidan, o‘zlikni anglashga va tiklashga urinish, ikkinchidan, zamona talablariga javob beradigan millat avlodini yetkazish yo‘lini tutdilar. O‘sha davr Xiva adabiyoti namoyondalari asarlarida jadidona ruhiyat u darajada sezilmasada, mumtoz janrlarda yozilgan asarlarda yangilikka intilish, zamondan norozilik kayfiyati anglashilib turadi. Xususan, ma‘rifatparvar shoir Komil Xorazmiy o‘z davri ilg‘or madaniyatining mashhur vakillaridan biri sifatida yuqoridagi jarayonlarning guvohi va ishtirokchisi ham edi. Komildagi iste‘dodni ko‘rgan Xiva hukmdori Sayid Muhammad (1856–1865) uni saroyga tortadi va u xon saroyida xattot, Muhammad Rahim II – Feruz (1864–1910) davrida esa mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida xizmat qiladi. [Бартольд, 1927: 113]

Iqtisodiy va madaniy aloqalar, shubhasiz, XIX asrning ikkinchi yarmida, O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shib olingandan so‘ng, har qachongidan ham yaqinroq va mustahkamroq bo‘lib qoldi. Bu davrda rus fani, texnikasini o‘rganish, rus tili va adabiyoti bilan yaxshiroq tanishishga qiziqish kuchaydi. Ilgari o‘z davlati territoriyasidan boshqa o‘lkalarni tasavvur qilolmaydigan, olamda nimalar yuz berayotganini yaxshi bilmaydigan xonliklar uchun Rossiya orqali butun dunyoga eshik ochildi. Shoir Komil Xorazmiy bilan Moskva, Peterburg shaharlariga borgan Muhammad Rahimxon II u yerdan qaytib kelgach, Xivada rus tilidan ta‘lim beradigan maktab ochtiradi [Turkiston viloyatining gazet, 1891: 35].

Xiva jadidchiligi marifatparvarligining rivojlanishida dastlabki davrda Komil Xorazmiy va Muhammad Rahimxon II ning o‘rni beqiyosdir. Sababi ular tomonidan tashkil qilingan matbaachilik bu harakatlarning debochasi bo‘ldi. 1874-yili Muhammad Rahimxon II ning tashabbusi bilan Xivaga Rossiyadan toshbosma dastgohi keltirildi. Erondan Ibrohim Sulton matbaachi saroyga taklif qilindi. Chunki Sharqda birinchi matbaa 1832-yil Eronda vujudga kelgan edi. Shuningdek, musiqashunos, Pahlavonniyoz Mirzaboshi tomonidan xonni majlislar tuzishga hamda tarixchi-yu, taraqqiyparvarlar bilan fikr almashishga, mamlakatdagi zo‘ravonliklar va poraxo‘rlikni tugatishga harakat qilindi. Xivada matbaachilikni rivojlantirish xalqni ma‘rifatli qilish sari qo‘yilgan dadil qadam edi. Bu harakatlarning

barchasi badiiy adabiyotda aks eta boshladi. Komil o'z asarlarida an'anaviy ishq-muhabbat, ma'rifatparvarlik, tinch-totuv yashash g'oyalarini targ'ib qiladi. Ammo shoir ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinni egalladi. Bunga shoirning «Kamol», «Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkand», «Tillo soat» kabi asarlari yaqqol misol bo'ladi. Komil 1891-yil sentabr oyida Peterburgga borayotib Toshkentda to'xtab, «Turkiston viloyatining gazetisi» tahririyatining iltimosi bilan «Toshkand» deb nomlangan qasida yozadi. Uning bu qasidasi o'zbek adabiyotida yangi ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan yirik she'riy asardir. Peterburg, Moskva, Toshkent kabi shaharlarni tomosha qilish, xalq ahvoli bilan tanishish shoir qalbidagi vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirdi. Vatan taqdiri va uning kelajagi shoirga tinchlik bermadi. Shuning uchun ham shoir o'z she'rlaridan birida:

Ne sud ochilsa gul, o'lsa bahor g'urbat aro,
Mengaki bo'lmasa yoru diyor g'urbat aro,
Ochilmadi chamaniston havomidin ko'nglum,
Ko'zimga gul erur andoqki, xor g'urbat aro.
Chiqay Vatan sadafidin dema guhar yanglig',
Garchi bo'lsa senga e'tibor, g'urbat aro,

– deb o'z elida, diyorida turib o'zini g'urbatda his qiladi. Komil birinchi bo'lib o'zbek nota yozuvini ixtiro qildi. Feruzning farmoni bilan «Tanbur chiziqlari» deb ataluvchi Xorazm notasini yaratdi va «Rost» maqomining bosh qismini notaga tushirdi. Komilning «Rost» maqomiga bog'langan «Murabbai Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylari notaga yozilgani holda hozirgacha saqlanmoqda va xonanda, sozandalar tomonidan kuylanmoqda. Shoirning bu ishini o'g'li Muhammadrasul Mirzo davom ettirib, Xorazm maqom kuylari uchun nota asosida musiqa yaratdi. Taniqli bastakor Matniyoz Yusupov esa besh jildlik Xorazm maqomlari kitobini nashrdan chiqardi va keng o'quvchilar ommasiga taqdim qildi. Komilning madaniy-adabiy merosi xilma-xil va boydir. Ularning ko'pchiligini an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusi tashkil qiladi. Bu mavzuda ko'p asarlar yozilgan bo'lsa ham, shoir unga o'zining yangi she'r-u dostonlari bilan munosib ulush qo'shdi. Xususan, shoirning:

Yig'latur oshuqlaring la'li labing xandasi,
Tubiyu shamshod erur sarv qadding bandasi
Husnu jamol avjining mehri duraxshandasi,
Ko'rsa mehr orazing, bo'lg'usi sharmandasi,
So'yla mango ey sanam, kimni sevar yorisan?

kabi otashin satrlari kishini beixtiyor maftun etadi, uni o'ylashga, fikrlashga undaydi. Misol uchun: «Yig'latur oshuqlaring la'li labing xandasi». Ajab, nima uchun oshiqni ma'shuqaning labini xandasi yig'latadi? Chunki oshiq sevgilisining vasliga yetolmaydi. U hijron azobida o'rtanadi. Ma'shuqa esa uning bu ahvolini labda xanda bilan tomosha qilib turadi. Ma'shuqa jafo qilsa ham oshiq undan nari ketolmaydi. Negaki, ma'shuqa benihoya go'zal. Uning qomatiga tubi-yu shamshod banda, gulgun yuzidan quyosh sharmanda. Qarang, shoir bir necha misraga qancha ma'noni jo qilgan. Navoiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning ijodi Komil uchun adabiy maktab bo'ldi. U o'z salafllari ijodini chuqur o'rgandi. Ularning asarlarida kuylangan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalaridan ijodiy foydalandi. Shuning uchun shoir ijodida xalqchillik g'oyasi alohida o'rin egalladi. Bu g'oya Komil asarlarining mag'iz-mag'ziga singib ketgan. Komil yashagan davrda Xiva xonligi Rus chorizmining vassali bo'lib, xalq turmushi nihoyatda ayanchli ahvolda edi. Zulm va zo'rliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shoir mehnatkash xalq hayotiga achindi, uni yengillashtirish choralarni izladi. Ammo topolmadi. Shuning uchun u xon va uning amaldorlarini insof va adolatga, mehr-shafqatga da'vat etdi:

...Gar oltin qasr esa johing, ulus holiga rahm etgil,
Sendek necha shahanshohni o'tkardi bu ayvon...

Komil o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirib, ijodiy rivojlantirdi. Shuning uchun uning ko'pgina asarlarida hukmron tabaqalarning johilligi, munofiqligi, shafqatsizligi fosh etilgan. Bunga shoirning «Tama», «Ro'za», «Mullo-imom» kabi she'rlari yorqin misol bo'ladi.

Komil Xorazmiy «Tama» radifli g'azalini quyidagi misralar bilan boshlaydi.

Ey ko‘ngul, zinhor qilma ahli davrondin tama,
Bor esa bu xasta jisinga agar jondin tama.

Komil e‘tiroficha, ahli davrondin tama qilish joningni xatarga qo‘yishdir. Misralar “Hayrat ul abror”da ta’kidlangan “Xomtama dahrda ranj chekadi” fikrlarni esga soladi. Komil fikrlarini davom ettirar ekan, xolis do‘st yo‘qligidan kuyinadi. Do‘stdan yaxshiroq kishing bo‘lmasa, undan tama qilma, deydi shoir:

Chunki yo‘q ermish jahon ahlida xolis do‘stlig‘,
Kimki ondindan yaxshiroq yo‘q, aylama ondindan tama.

Komil Xorazmiy tanqidiy qarashlarini davom qildiradi. Shoirilar asl sultonlik bu - qanoatda deydilar. Tamagir shoh esa, gadodan ham pastroq turadi. Raqibidan diyonatni istagan shoh gado qo‘lidagi nonni tama qilgan kabidir.

Xoni vaslig‘a raqibidin diyonat istamak,

Aylagan yanglig‘ gado ilkidag‘i nondin tama.

Ijtimoiy mazmundagi qarashlar g‘azal xotimasida tasavvufiy-falsafiy g‘oyalar negizida beriladi:

Olam ichra gar bo‘lay desang aziz-u arjumand,

Aylama Komil juz zilli subhondin tama.

Komil fors tilini ham yaxshi bilardi. Xiva xonligidagi adolatsizlik, jabr-zulmni, turmush illatlarini fosh qilishda fors tilidan ham unumli foydalandi. Shoirning «Alg‘iyos», «Zi bedodi gardun», «Dod az dasti charxi dun» mat‘lai bilan boshlanadigan g‘azallari isyonkorlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Fors tilida bitilgan “Alg‘iyos” asarini mazmunan tahlil qilinsa, shoirning o‘z davridan noroziligi isyon darajasiga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin.

Doimo aylanib yuruvchi davr hodisalaridan faryod,

Bu aylanuvchi charx tufayli yuz bergan voqealardan ham dod.

Ohim sovuq, chehram sariq, nolam dardli, vujudim garddek;

Ko‘z yoshim qon, qaddim nigun, qalbim so‘zon, dod.

Yor esa g‘ofil, hijron qotil, ahvol qiyin, dil xasta.

Shoir g‘azallarda odamlarni ezgulikka da‘vat etadi. Yomonlik qilishdan, qabohatdan nari yurishga chaqiradi. Komil mohir xattot edi. U ko‘pgina badiiy asarlarni va devonlarni chiroyli qilib ko‘chirdi. Ko‘plab xattotlar yetishtirib chiqardi. Ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrikon, Sharif Tarro devon, Matyoqub Xarrot devonlar shular jumlasidandir. Komil Xorazmiy va uning shogirdlari tomonidan ko‘chirilgan devonlar jahonning bir qancha mamlakatlari kutubxonalari fondlarida ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda. v Komil Xorazmiy xattot bo‘lish bilan birga mohir tarjimon ham edi. U XVIII asrda yashab o‘tgan Barxo‘rdor bin Mahmud turkman Mumtozning «Mahbub ul-qulub» asarini tarjima qilgan. Asar nasriy yo‘lda yozilgan bo‘lib, kichik-kichik hikoya va latifalarni o‘z ichiga olgan. Faxriddin Ali Safiyning «Latoif at-tavoyib» («Turli toifalarning latifalari») asarini tarjimasi ham Komil Xorazmiy qalamiga mansubdir. Kitobdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mashhur kishilar haqidagi hikoya va latifalar o‘rin olgan. Komil Xorazmiy bu asarlarni tarjima qilish bilan birga ularga ayrim o‘zgarishlar ham kiritgan, ba‘zi hikoyalarni qayta ishlagan, kitobning uslubini o‘z davridagi kitobxonlarning did va saviyasiga moslashtirgan.

Bir so‘z bilan aytganda, Komil Xorazmiy o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an‘analarini davom ettirdi va ilg‘or adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shdi. O‘z xalqini ma‘rifatli, diyorini ozod, obod, farovon ko‘rishni orzu qildi. Shoirning orzulari faqat bizning kunlarimizda ro‘yobga chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. История культурной жизни. – Москва: 1927.
2. Saidjonova Z. Jadidchilik va Xorazm adabiy muhiti // “Sharq yulduzi” jurnali, 2016. №4.
3. Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960.
4. Turkiston viloyatining gazet, 1891-yil, 35-son.

MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARIDA MILLIY QADRIYAT MASALASI VA OBRAZ PSIXOLOGIYASINING YORITILISHI

Mohira Soberova,

Jizzax davlat pedagogika universiteti
stajyor-o'qituvchi

Charos Karshiyeva,

JDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, avvalo, istiqlol hikoyalarida yangi davr nasriga xos bo'lgan o'zgarishlar, undagi shakliy va mazmuniy yangiliklar, mazmundagi qadriyat, insoniylik, ramziy va falsafiy masalalar atroflicha yoritiladi. Yangi davr hikoychiligida Abduqayum Yo'ldoshev hamda Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarining o'ziga xos bo'lgan jihatlarini ta'kidlab olinib ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, milliylik, insoniylik, ruhiy kechinma, xarakter-xususiyat, "Boy", "Jajman", qadriyat, "Bezori", hikoya.*

Badiiy ijodning har bir yo'nalishi – nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o'zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi. Mustaqillik yillarida o'zbek hikoyanavisligi o'ziga xos yangi adabiy estetik hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Badiiy ijod maydonida ijodkorlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keladi. Adiblar o'z ma'naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg'ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi. Mafkuraviylashgan eski adabiy siyosatdan boshqacha, ya'ni inson erkini qadrlash, Vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg'urish, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi qator mavzular bu davr hikoyanavisligida yetakchilik qildi. Vatan – ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu. O'zbek adabiyoti tarixida yurtning go'zal tabiatini, osmono'par tog'larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirlarini, bebaho ma'danlarini madh etgan nasriy asarlar ko'p yoziladi. Albatta, ularning badiiy saviyasi, ta'sir quvvati, yuraklardan joy olishi turlicha. Ayrim holatlarda adib Vatan so'zini ijod namunasida qo'llamasdan ham el-yurtiga mehrini izhor qilishi mumkin. To'g'risi, har qanday adabiy hodisalar, nasriy asarlar o'z-o'zidan ulug'vorlik kashf etmaydi. Asarning ta'sir quvvati uchun iste'dod darajasi va shu iste'dodni namoyon etish uchun sog'lom adabiy muhit muhim sanaladi. Hikoyada ta'sir quvvati, har bir ijodkorning o'z o'quvchisiga o'z aytar so'zi va o'ziga xos uslubi bo'lishi lozim. O'quvchi jahonshumul o'zgarishlar davrini o'z ko'zlari bilan ko'rgan katta avlod adiblari ijodida istiqlolga shukronalik, yo iftixor tuyg'ulari bilan sug'orilgan asarlarga duch keladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida nasriy asarlar o'z ko'lami va g'oyaviy-badiiy jihatdan tasvir imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Nasriy asar uchun har qanday hodisani u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar badiiy tasvir vositalari, obrazli tafakkur, insonning barcha ruhiy kechinmalari e'tiboriga ko'ra aks ettirish muhim sanaladi. Epik ko'lamdor roman yoki qissalarni o'qib, ma'lum bir davrning ijtimoiy-tarixiy hayoti, insonlarning turmush tarzi, o'y-kechinmalari, ishq-muhabbatdek bebaho his-tuyg'ularini tasavvur qilish mumkin. Ayni damda badiiy asar o'z muallifining dunyoqarashi, iste'dodi, shaxsiyatining kimligidan ham darak beradi. Abdullar Qodiriy "Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida, asosan, o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi", deb juda o'rinli fikrni yozgan edi. Mustaqillik davri o'zbek nasri tarkibidagi ayrim namunalar bilan muhtaram o'quvchilar quyi sinflarning "Adabiyot" darsliklari orqali tanishgan edi. Ammo uni yaxlit tasavvur qilish uchun bugungacha davom etayotgan adabiy jarayondan ham boxabar bo'lishlari lozim. Istiqlol yillarida tarixiy va zamonaviy mavzuda romanlar, dunyo adabiyoti tajribalaridan o'rgangan holda yaxshi qissa va hikoyalar yozildi. Hech shubhasiz, bu davrda yangicha yo'nalishlar, adabiyot maydoniga qadam tashlagani bunga misol

bo‘ladi. Biroq istiqlool iste’dodli yozuvchilarga qalbida uzoq saqlanib kelgan mavzularning badiiy talqini uchun imkon beradi. Xususan, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev kabi adiblar istiqlool yillarida mustabid tuzum davrida yaralgan qalbida qolib ketgan voqealarni “Sarob”, “Qorako‘z majnun”, “Oftob oyim”, “Muzqaymoq”, “Bandli burgut” kabi asarlarida bayon qildi. Bu hikoyalarni ayrimlarini o‘qigan bo‘lishingiz mumkin. Mustaqillik davri o‘zbek nasrida insoniy qadriyatlarni e‘zozlash, milliy urf-odatlarini qadrlash, mashhur tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin qilish, zamon qahramoniga munosib obrazlarni tasvirlash kabi tamoyillar yetakchilik qiladi. Mustaqillik davri nasrida inson va tabiat masalasi adiblar tomonidan ko‘p qalamga olindi. Zero, tabiat og‘ushidagi minglab, millionlab xilqatlarning o‘z fazilati, fitrati, xususiyati bor. Inson esa ular ichida eng go‘zal, eng mukarram. Badiiy asar ma‘lum bir zamonda muayyan ijodkor tomonidan yoziladi. Biroq u hamma davrlarda yashayotgan insonlar tabiatiga mos kelishi, o‘y-kechinmalariga ta‘sir ko‘rsatishi lozim. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotining nasr yo‘lida shunday badiiy puxta asarlarning yozilayotgani quvonarlidir. Xususan, tasvirlar suvratdan siyratga, oddiy ma‘lumotdan inson kechinmalariga – obrazli qilib aytganda, irmoqdan ummonga ulanayotgandek taassurot qoldiradi.

“Badiiy asar – insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin uni birinchi galda inson sifatidagi o‘y-fikrlari bilan yoritishi lozim: Jumladan, hikoya o‘quvchini qahramonga ruhan yaqinlashtiradigan janr sanaladi. Hikoyachilik janrining biri shundan iboratki, yozuvchilarning yuzaga kelgan ijodiy erkinlik tufayli noan‘anaviy ko‘rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni o‘ziga xos milliy xarakterlarni adabiyot maydoniga olib kirdi”. [2.24-bet] Asosan, milliy qadriyatlar, ma‘naviyat tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy hodisalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek yozuvchilari o‘z millatimizning tarixiy taraqqiyoti davomida betakror ona yurtimizning boy bo‘lgan urf-odatlari, madaniyat, mehnatkash insonlar bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandalaridek yashashlaridan ilhomlanib, do‘stlik va hamkorlik, umuminsoniy fazilatalar to‘g‘risida asarlar yozadi.

Adabiyotshunos U.Normatov qayd qilganidek: “So‘nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, adabiyotimiz chinakamiga xilma-xil bo‘lib boryapti...bizda ham milliy o‘zlikni anglash falsafiy jihatdan turli yo‘nalishga mansub asarlar paydo bo‘la boshladi”. Darhaqiqat, ayniqsa, hikoyachilik nuqtayi nazaridan olib qarasak qadriyat va milliylik, ramziy bo‘yoqdorlik yuqori o‘ringa ega. Misol tariqasida Xurshid Do‘stmuhammad ijodi namunasi bo‘lgan “Jajman” hikoyasida o‘ziga xos xarakter-xususiyatlarni yoritib beradi. Asarda “bozor tasviri” epizodi orqali odatlar, xalqning o‘zaro yozilmagan qonunlari, insonlararo munosabatlarni real, hayotiy voqealarni ramziylikka ko‘chishining guvohi bo‘lamiz. “Bozor hayoti” va “insonning kunlik tashvishi” kabi birikmalar keltiriladi. “...Hademay tong otadi olam nurga to‘ladi. Odamlar uyg‘onadi, bozor uyg‘onadi. Til darvozasi lang ochiladi, g‘ala-g‘ovur boshlanadi...tumonat toshib – shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi...tirikchilik bilan basharning tumshug‘idan jilov tortib yetovga soladi...bozor deya atalmish tovacha solib aylantiraveradi” [3.6-bet]. Hikoya qahramoni Zardo‘st bobo tilidan aytilgan bu fikrlarda ramziylikni anglab yetamiz. Bozor – bu hayot demakdir, degan tushuncha saqlanib qoladi va insoniyatning shoshib hayot kechirishi, nimagadir qattiq bog‘lanib qolgan tarzda turmush kechirishi orqali yashirin ma‘no yotadi. Ammo inson xarakterlarini, kechmishlarini ruhiy oynaga jamlagan holda, hayotda turli-tuman taqdirlarni, adolatsizliklarni bozor dealektologiyasi o‘z ichiga qamrab olgan. Asar haqida N.Davrboyeva yozadi: “Jajman – bu o‘rinda poraxo‘rlar, tovlamachilar, umuman aytganda millat ichidagi mitti-mitti yuhalar sifatida ko‘rinadi. Bu yuhalarni biz istagan nom bilan atashimiz mumkin”. Hikoyaning syujeti, kompozitsiyasi, tugun, voqealar rivojida kundalik munosabatlarga nisbatan insonparvarlik tamoyilini ifodalovchi axloqiy, ruhiy sifatga xiyonatni ko‘ramiz. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik har doim bir-biriga ziddiyatli ekanini Ahuramazda timsoli orqali tushunamiz. Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarini kuzatar ekanmiz, oddiy turmush tarzini yoritib berish orqali chuqur ma‘no-mazmunni, milliylikni aks ettirilishini ko‘ramiz. Ayniqsa, bosh qahramonlardagi ruhiy tushkunlikdan tortib epizodik obrazlarning qadriyatlarga yuzaki qarashlariga, ikkiyuzlamachilikka, kamtarlikni, sofdillikni o‘zlariga niqob qilgan tuban kimsalarga duch kelamiz. Yozuvchining “Bezori”, “Boy” kabi hikoyalari uning ijodiy shaxs konsepsiyasini va badiiy mahoratini belgilab bergan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi rivojlangan nasr

janrida qalam tebratayotgan yozuvchilardan, inson ijtimoiy munosabatlariga va ruhiy kechinmalarining murakkabligiga e'tibor berishliklari talab etiladi. Shuni anglagan holda, Abduqayum Yo'ldoshevning "Bezori" hikoyasida qahramon timsolida o'zligida bo'lgan xatoliklarni yengib o'tishga harakat qilayotgan "men" ini va bundan tashqari udumlarni, ma'rifatparvarlikni oyoqosti qilgan, ammo pushaymon bo'lgan insonlarning gunohkorlik hissini anglab yetamiz. Bu fikrlarga isbot tariqasida No'monjon obrazini keltiramiz."...Chiqmagan jondan umid qabilida kirish eshigi yoniga bordi. Semirib ketganidan qorni oldinga osilib tushgan, harsillab nafas olayotgan, yog'ochi chidamaganidanmi kattakon temir stulga yalpayib o'tirib olgan eshikbonning avzoyidan yaxshilik kutib bo'lmasdi" [4.11-bet] Undan keyin esa Eshikbonning quyidagi so'zlarini keltiradi: Qanaqa bo'larding yolg'onchi odamsanda. Bir yarim so'mlik belit uchun qizingni o'rtaga qo'yib qasam ichyapsan, iymonsiz... Bu orqali "otalik" burchi haqida o'ylab sharmandali holatga tushishdan qo'rqqan shaxsning aqliy va ruhiy tuyg'ulari yoritilgan. Abduqayum Yo'ldoshevning yana bir hikoyasi orqali insoniylik belgilarining qoralanishi, davr talabi bilan boylarga xushomad qilishi, insonning ruhiy oynasiga emas tabiiy boyligiga ko'proq urg'u berilgan – "Boy" asarida Xo'rozboyning bolaligi haqida bekorga keltirmaydi. Chunki yoshligida aqli noqis bo'lgan obrazning kun kelib butun qishloq boyiga aylanishini kim o'ylabdi deysiz. "Ahmoqqa zakun yo'q. Qani, ovuldan qaysi mard Xo'rozqul bila teng keladi, kim u bilan olishadi? Axir aslini olganda u hali bolaku, buning istiga haligidaqa..." [4.5-bet] Bu fikr orqali insonlar avval uning aqliy noqisligi uchun tortishmagan bo'lsa endi esa, uning boyligidan qo'rqib jim bo'lishganini bildiradi. Abduqayum Yo'ldoshev ham o'z asarlarida obraz psixologiyasini yorqin gavdalantirgan yozuvchilardan. Bugungi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan vakili taniqli yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshev o'z asarlarida oddiy insonlar xarakteri, ularning tabiati, umuman, sodda, kamsuqum insonlar dunyosini g'oyatda mukammal yoritgan ijodkor deyish mumkin. Yozuvchi yaratgan xarakterlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'plab kitobxonlar e'tiborini qozonib kelmoqda. Xarakter yaratish badiiylikning o'zak masalasi deb qaralishining boisi ham shundaki, xarakter badiiy ijodning juda ko'p unsurlarini o'zida jamlaydi. Izzat Sulton tavsiya etganidek, "Asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta'sir etish xosiyatiga ega bo'ladi".

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida davr va inson muammosi, davrning inson xarakteriga ta'siri va yozuvchining barqaror xarakterlar yaratish borasidagi mahorati ochib berilgan. Abduqayum Yo'ldoshev yaratgan xarakterlarni tushunish uchun uning birgina hikoyasini o'qib chiqish kifoya qilmaydi, negaki, bir asarida yaratgan obraz, xarakter boshqa bir asarida yaratilgan obraz va xarakterning mantiqiy davomidek tuyuladi. Istiqloq tufayli ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, demokratik jamiyat barpo etayotgan xalqimizda o'zining aqlu-idrokiga, intellektual salohiyatiga, yaratuvchilik kuchiga, ma'naviyatiga ishonch tuyg'ulari aks etgan va etayotgan badiiy ijod namunalari yanada ko'paymoqda. To'g'ri, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar ham bor. Ammo xalqimizda, fuqarolarimizda milliy o'zligini anglash va namoyon etish istagi barqaror qadriyatga aylanib borayotganini ham sezmaslik mumkin emas. Aynan shu istak O'zbekistonda kechayotgan demokratik jarayonlarga ma'no va yo'naltiruvchilik ruhini baxsh etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minova, T. S. (2022). BADIY ASARDA NUQTAINAZAR VA XARAKTER IFODASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
2. Xolmatov Doston. Hikoyalarda davr va qahramon masalasi. 2003.
3. Xurshid Do'stmuhammad. "Jajman". 1995.
4. Abduqayum Yo'ldoshev. "Bezori" hamda "Boy" hikoyalari.
5. Rustamova, I. I. (2021). Rhythm Views on the Plot of the Work. Badiy asar syujetida ritm ko'rinishlari.//International Journal of Innovative Research.–India, 8355-8357.
6. Rustamova, I., & Mamayusupov, S. (2022). AUTHOR'S POSITION AND STORY FUNCTION IN ABDULLAH QAHHOR'S STORY HEADLESS MAN. Oriental Journal of Social Sciences, 2(03), 120-127

7. Normatova M. The Use of Lexical Units Related to Food Names //International Journal of Social Science Research and Review. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 28-33.

“HAJNOMA” VA “HAJ DAFTARI”DA MUHAMMAD ALAYHISSALOM OBRAZI TALQINI

Dilfuza Avazova,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada Zokirjon Furqatning “Hajnoma” va Abdulla Oripovning “Haj daftari” asarlarida Muhammad alayhissalom obrazi talqini masalasi qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Ikki buyuk ijodkor asarlarida obraz tasvirining o‘zaro uyg‘un va farqli jihatlarini aniqlangan. Tahlillar natijasida ikki shoir estetik olami yuzasidan ilmiy xulosalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *tarji‘band, Rasul, me‘roj, obraz, ma‘rifiy g‘oya, badiiy talqin.*

Sharq mumtoz adabiyoti Islom aqidalariga tayanishi inobatga olinsa, bu adabiyotning eng yetakchi obrazi payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. bo‘lishlari muqarrardir. Rasuli akram faoliyati, yashash tarzi, xatti-harakatlari yuksak axloq asosiga qurilgani e‘tiboridan bu obrazning badiiy ahamiyati, ijtimoiy darajasi, umumbashariy miqyosdagi o‘rni ham beqiyos ekani ayon. Badiiy adabiyotda Rasululloh obrazining yorqin namunalarini ko‘p bo‘lsa ham, o‘zbekning ikki buyuk ijodkori Furqatning “Hajnoma” si va Abdulla Oripovning “Haj daftari” da mazkur buyuk siymo obrazi badiiy jozibasining yuqoriligi, estetik vazifasining muhimligi bilan alohida ajralib turadi. Har ikkala shoir ijodida bu obrazning umumiy va individual badiiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, qiyosiy tahlilga katta ehtiyoj bor. Ular dastavval Payg‘ambarimiz hayotiy a‘molining asosi sanalgan ummatga shafqat va mehr bilan bog‘liqdir. Ikki buyuk ijodkor ham insonlarning osiy va o‘z nafsiga jabr qiluvchi ekaniga, Rasuli akramning Tangri taolo huzurida o‘z ummatlari gunohini kechirishi uchun shafatchi bo‘lishiga urg‘u berishadi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘gli Furqat “Hajnoma” sida Payg‘ambarimizning me‘roji vasf etilar ekan, ayni shu xususiyat betakror badiiy talqin etiladi. Rasulullohning me‘rojda Buroqda samoga ko‘tarilib, Haq taolo bilan muloqot maqomiga erishgani mana bunday talqin etiladi:

Dedi Tangri: “Habibim, yo Muhammad,

Tila mandin bu dam: “Inna a‘toynak”.

Dedikim: “Ummatimni mag‘firat qil,

Erurlar osiyu saffoku bebok” [Furqat, 2023:119]

Ushbu iqtibosning dastlabki satrida “yo Muhammad” xitobi orqali nido san‘ati qo‘llangan. Shuningdek, “habibim” so‘zi sifatlovchi bo‘lib kelgan bo‘lsa, Qur‘oni karimning “Kavsar” surasidan olingan “Inna a‘toynak” iqtibos san‘atiga misoldir. Ko‘chirma yaxlit holda savolu javob san‘ati asosiga qurilgan. Bular, o‘z navbatida, shoirning badiiy mahoati nechog‘liq yuksak bo‘lgani isbotidir. Mazkur san‘atlar orqali me‘roj kechasi Haq taolo va Rasuli akram o‘rtasida bo‘lgan muloqotning poetik ifodasi berilgan.

Asarda Tangri taoloning xitobiga javoban Payg‘ambarimiz ummatining gunohi kechirilishini so‘rab javob qaytarishi, u zotning himmati oliy va ummatlariga mehri baland ekani teran ma‘rifiy mazmun va yuksak badiiyat mutanosibligida talqin qilinadi. Nurboy Jabborov fikricha: “Shoir nabiylar sarvarining faqat ummatlari g‘amini o‘ylagan mehribon zot bo‘lganligini ummatlarning osiyu saffoku bebok kabi sifatlarini ketma-ket keltirish orqali tansiqu-s-sifat san‘ati vositasida ifodalaydi” [Jabborov, dok.diss.2004:107]. Tansiqu-s-sifat san‘ati yaqin ma‘noli sifatlarini izchillikda, ketma-ket keltirish orqali fikrning ta‘sir kuchini oshiradi. Muallif badiiy niyatini mukammal ifodalashga xizmat qiladi. “Fununu-l-balog‘a” asarida ta‘sidlanganidek: “Tansiq lug‘atga so‘zning ulashib ketmagidur. Bu san‘atni ul jihattin tansiqu-s-sifot deb atapturlarkim, so‘zlaguvchi kalomda bir necha sifatni bir-biriga ulab ketar” [Husayniy, 1981:239-240].

“Hajnoma”da gunohkor ummat ahvoli ularning o'zidan ham ko'ra ko'proq Muhammad s.a.v.ga ayonligi, shu bois ularga Alloh taoloning huzurida yengillik tilab munojot qilayotgan pok qalbli Payg'ambar alayhissalom iztiroblariga e'tibor qaratiladi. Ayni shu o'ylar, ayni shu tuyg'ular millatning yana bir buyuk shoiri Abdulla Oripov qalbini ham junbushga keltiradi. Garchi oralarida qariyb bir asrlik masofa bo'lsa ham, ikkala ijodkor mazkur aarlaridagi ma'rifiy g'oyani ifodalashda darddosh, maslakdosh maqomida o'zaro yaqinlashadi. Ularning hasratlari achchiq, dardlari go'yo ochiq yaraday sirqirab turadi. Jumladan, Zokirjon Furqat qalbini to'liqlantirgan najib his-tuyg'ular Abdulla Oripov she'riyatiga mana bu tarzda ko'chadi va yangicha talqin etiladi:

Sizning murodingiz hidoyat erur,

Sho'rlik bandalarga inoyat erur. [Oripov, 2019:323].

Bu misralarda ham Rasuli akramning sho'rlik ummatlariga inoyat tilashi va ularni faqat va faqat hidoyat yo'ldan yurishga chorlashi aks ettiriladi. Har ikki shoir ijodida obrazdagi mushtaraklik nafaqat tuyg'ular ifodasida, balki, so'z tanlash va uni badiiy yuksaklikka olib chiqishda ham bo'y ko'rsatadi. So'zlarning har biri yuksak badiiy did bilan tanlanishi, obraz ayni shu so'zlar silsilasidan qad rostlashi va mukammalikka erishishi har ikki ijodkor uslubida hamda obraz yaratish mahoratida yaqqol namoyon bo'ladi. Mana bu ilmiy mezon har ikki shoir lirikasi uchun xarakterli ekanini ta'kidlash zarur: “She'r o'ziga xos organizm bo'lsa, so'z uning xujayrasidir. Organizm tirik bo'lishi uchun uning har bir xujayrasi sog'lom bo'lishi va nafas olib turishi lozim bo'lganidek, har bir so'z ham she'rga, uning qalbi bo'lgan obrazga o'z qonini berib turishi va uni harakatga keltirishi kerak”. [Karimov, nom.diss.1962:107].

Badiiy adabiyotda Rasululloh nuri haqida biri ikkinchisidan teran va badiiyati baland talqinlar bor. Olam shu nurdan yaralgani, u dastlab Odam safiyullohda zohir bo'lgani, avloddan avlodga o'tib, Payg'ambarimizning otalari Abdullohga va oxir-oqibat o'zlariga yetgani ifodalanadi. Bu haqda hazrat Navoiy mana bunday yozadi:

Nurunga tob ikki jahondin burun,

Har ne yo'q ondin burun, ondin burun...

Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,

Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato. [Navoiy, 2006:27].

Furqat ayni shu fikr talqinini davom ettiradi. Ayni shu nur sabab Rasululloh dunyoga kelganlarida yer yuzidan zulmatning ko'tarilganini, hatto o'sha lahzada osmondan ham nur yog'ilganini suvratlantiradi:

Ketibon yerdin olam zulmati ham,

Hamon dam yog'di nuri osmoniy.

Aslida, bu misralar orqali shoir payg'ambarimizning jaholatga qarshi kurashiga, ma'rifat va yuksak axloqni bashariyat o'rtasida keng yoyishiga, ezgulik nuri bilan olamni munavvar etish harakatiga ham urg'u beradi. Muallif yer va osmon, nur va zulmat zidligidan mahorat bilan foydalanib, *tazodning* go'zal namunasini yaratadi. Badiiy qashilantirish orqali o'z fikrlariga zeb beradi. Abdulla Oripov ham go'yoki ayni shu fikrlarga tayangandek, ularni davom ettirgan kabi: “*Siz – olam sarvari, Siz – nuri jahon*”, deya bu zotni ulug'laydi. Furqatda ham ayni shu ulug' zotga ehtirom, buyuk muhabbat tuyg'usi yaqqol namoyon bo'ladi:

Sha'bi me'roj naylayni g'uborin,

Ko'zig'a surma qildi Arshi a'zam.

Shoir *husni ta'lil* vositasida me'roj kechasida Payg'ambarimiz kovushining g'uborini Arshi a'zam ko'ziga surma qilganini betakror badiiy topilma darajasida tasvirlaydi. Abdulla Oripov esa ulug' salafi qarashlariga monand, lekin ohorli fikrlarni ifoda etadi. Shoir o'zini Payg'ambarimizning poylaridagi gardga qiyoslaydi, nihoyatda xokisorlik, kamtarlik bilan Rasulullohga murojaat qiladi:

Keldim ziyoratga, ozurda jonman,

Ranj-u balolardan to'ygan Insonman,

Sizning poyingizda gardman, to'zonman.

Shoir bosh egib o'zni zarra gardga mengzar ekan, tuyg'ularini, dardu anduhlarini ham aytib o'tadi,

ta’sirchan lirik kechinma ifodasi orqali o‘quvchini ham o‘z iztiroblariga sherik qiladi. Ranj-u balolardan ozor chekkan shoir dardi beixtiyor kitobxon qalbiga ham ko‘chib, unga azob beradi. “*Keldim biri ikki bo‘lmagan eldan*”, deya yozg‘rishi esa aslida shoirning dardi faqat shaxsiy dard-u qayg‘usi emasligini, millat g‘ami ekanini ko‘rsatadi.

Har ikki shoir ham bu qutlug‘ ma’voga kelar ekan, qalbida cheksiz bir shodlik, g‘urur, Payg‘ambar visoliga yetgani uchun ulkan shukronalik hissini tuyadi. Furqat Uhud tog‘i va u yerda payg‘ambarimizning g‘azo qilish voqeasini yodga oladi. Bu maskanda shahid bo‘lgan yetmish ikki jonning fidoliklariga havas qilgani holda:

Darig‘o, bo‘lsam erdi ul zamonda,

Qilur erdim alarga o‘zni qurbon, - deya ularga muhabbatini izhor etadi.

Zokirjon Furqat va Abdulla Oripovning haj ziyoratida yaratgan she’rlari zahirida Rasululloh obrazining o‘ziga xos ifodasi aks etadi. Shoirlar Payg‘ambarimizning bolalik kezlari, hayot yo‘llari, pand-u nasihatlari, mashaqqatlari – butun boshli hayotlarini o‘z she’rlarida aks ettirgani holda, Muhammad s.a.v. obrazini to‘la-to‘kis yaratishga, o‘quvchi qalbidagi o‘z Rasuliga bo‘lgan muhabbatni oshirishga intiladilar va nazarimizda, bunga erishadilar. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov ta’kidlaganidek: “Haj ziyoratiga har yili ming-minglab odamlar boradi. Har bir ziyoratchining qalbida o‘zgalar anglab yetishi mumkin bo‘lmagan sirlar yuz ko‘ratishi mumkin va bu tabiiy hol. Biroq chinakam shoirning ziyorati baribir odamzod uchun ko‘proq naf keltirsa kerak. Negaki, u boshqalar ko‘rmagan sirlarni ko‘ra oladi, o‘zga hech kim his etmagan tuyg‘ularni his eta biladi”. [Jabborov, 2020:137-140].

Haqiqatan, bu ikki ijodkorning Haj ziyoratiga borishi xalqimiz uchun nihoyatda katta ma’naviy ozuqa, adabiyot uchun ikki buyuk badiiy adabiyot namunasini berdi. Shoirlar ba’zan bir-biriga nihoyatda yaqin, bir-biriga uyg‘un fikrlarni, tuyg‘ularni ifodalaydi. Kezi kelganda esa bir tuyg‘u ifodasining davomi ikkinchi bir ijodkor lirikasida ohorli talqin etiladi.

Abdulla Oripov buyuk salafi Furqat ijodi va uning yuksak badiiy mahoratidan ma’naviy ozuqa olgan bo‘lishi tabiiy. Lekin “Haj daftari”da fenomenal shoir sifatida o‘ziga xos individual ijodiy tafakkurni namoyon eta bilgani kuzatiladi. Har ikki shoir faqat o‘zigagina xos yo‘lda, o‘zigagina tegishli bo‘lgan tuyg‘ular ifodasida kitobxonni hayratga soldi. Jumladan, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. obrazini yaratish jarayonida ham ayni yuqorida ta’kidlaganlarimiz uyg‘unlik, fikrlar silsilasi va davomiylik, shu bilan bir qatorda, Faqatgina Furqatning o‘zigagina tegishli bo‘lgan tasvir, Abdulla Oripovgina yarata oladigan badiiy kashfiyot go‘zal bir poetik hodisa sifatida yuzaga chiqdi va adabiyotshunoslar uchun katta bir ilmiy manba yaratishga asos bo‘ldi. Abdulla Oripov “Haj daftari” turkumi yaralishi uchun qaysidir ma’noda manba va turtki bo‘lgan “Hikmat sadolari”dagi “Hidoyat yo‘li” she’rini shunday yakunlaydi:

Rasululloh demish: Kimki haj qilsa,

O‘shadir dunyoda eng yaxshi jihod.

Ayni shu fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, har ikki ijodkorning Hajga borishi chindan ham adabiy-estetik tafakkur va ma’rifiy-axloqiy mezonlardagi jihodga tengdir. Zero, bu ziyorat asnosida yaralgan lirik namunalarda Payg‘ambarimiz hayot yo‘li obrazli tasvirlanadi, adolat, yaxshilik, poklik ulug‘lanib, insonlar nafsning makridan, gunoh amallardan qaytishga, Haq yo‘lida sobitqadam bo‘lishga chaqiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Zokirjon Furqatning “Hajnoma”si va Abdulla Oripovning “Haj daftari” turkumi ma’rifiy mazmun va badiiy talqin sintezi nuqtai nazaridan milliy adabiyotimiz tarixidagi noyob estetik hodisalardir. Ulargacha bo‘lgan boshqa ijodkorlarda haj ibodati jarayonini hamda Muhammad alayhissalom obrazini bu darajada ohorli talqin etish kuzatilmagan. Har ikki ijodkor haj ma’rifatini o‘ziga xos va yangicha ifodalagan. Haj ibodatiga borgan barcha insonlar ham ko‘rishi mumkin bo‘lgan hodisa va holatlardan hamma ham his eta olmaydigan haqiqatlarni tuyib, yuksak badiiy talqin etilgani har ikki asarning ma’rifiy-estetik qimmatini ta’minlagan. Mazkur ikki asarni turli aspektlarda kengroq miqyosda qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslikning galdagi vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
2. Jabborov N. Furqat hayoti va ijodiy merosining xorijdagi davri: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi: filol. fan. doktori... diss. – Toshkent, 2004.
3. Jabborov N. Abdulla Oripov. /Islom ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.
4. Karimov N.F. Hamid Olimjon poetik mahoratining ba'zi masalalari: filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1962.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Sharq, 2019.
6. Furqat, Zokirjon. Hajnoma. /Fasli navbahor o'ldi (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi N.Jabborov). – Toshkent: Adabiyot, 2023. -B.119
7. Husayniy, Atoulloh. Badoyi'u-s-sanoyi'. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.

UBAYDIY ADABIY MEROSI

Dilorom Hayitboyeva,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bugungi asrimizda Ubaydiy ijodini o'rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. O'zbek ruboiynavisligi taraqqiyotiga Ubaydiy ham o'zining munosib hissasini qo'shgan, ruboiy janri uchun belgilangan an'anaviy qonun-qoidalarga amal qilib qolmasdan, uni ma'no va mazmun jihatidan boyitishga, hayot bilan uyg'unlashtirishga, til va ifoda soddaligi, samimiyligiga erishishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati, merosi xususida, shoir hayoti va ijodining o'rganilish tarixi yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Ubaydulloxon, Qul Ubaydiy, tasavvuf, zullisonayn, kulliyot, "Devoni Ubaydulloxon", "Masoil us-salot", ruboiy, hikmat, tariqat.

Asli ismi Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon o'zbek mumtoz adabiyotida boy lirik merosi bilan ajralib turadi. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li. Otasining iltimosiga ko'ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o'z ismini bergan. "Alqissa, (Ubaydullaxon) tarix sakkiz yuz to'qson ikkinchi yilda yo'qlik biyobonidan borlik shahriga keldi va o'z valodati nuri(ning) ravshanligi bilan jahonni tamom yoritdi. Saodat maqtoqli otasining (Mahmud Sultonning) iltimosi bilan qutblar qutbi va aql egalarining qiblagohi hazrat Xoja Nosiriddin Ubaydulloh, Tangri uning saroylarini serob qilib, orom joylarini jannat qilsin, unga qutli oqibat Ubaydulloh deb ism qo'ydilar. O'z nomlarini berishlari (uning) zo'r marhamatlaridan bo'ldiki, shuning uchun (ham) uning bebaho asarlari va yaxshi nomlari(ning) oqibatlari foniy olamda boqiydir". [Хофиз Таниш ал-Бухорий; 1999: 59]. U otasining yolg'iz farzandi bo'lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan. Buning isbotini shoir ijodidagi quyidagi ruboiy orqali ham bilib olishimiz mumkin:

El, ko'plukni ko'zga nega yig'laysiz,

Yolg'iz kishidin ham necha kesilgaysiz.

Yolg'iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,

Yolg'izning erur yori Xudo – bilgaysiz. [Убайдий. Дийдор орзуси; 2007: 66].

Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxonga o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Ubaydiy o'zining hukumat ishlariga mashg'ul bo'lganligiga qaramasdan, shayxlik ham qilar edi, buni o'zining siyosati uchun ham lozim deb bilar edi. "Samarat ul-mashoyix"ning yozganiga ko'ra, Ubaydullohxonning

tariqat nisbati Avliyo Qoraxon otli bir shayx vositasi bilan Hakim Sulaymon otaga borib taqaladi, o‘zi uchun muridlar ham olgan. Jahr majlislarida ishtirok qilgan. Ubaydullohning yassaviylar bilan juda qat’iy bog‘lang‘aniga yana bir dalil, Yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiy No‘g‘ay otag‘a o‘z qizini berganidir. Ubaydulloh shoir ham mutasavvif shoirdir. Uning forsiycha yaxshi she‘rlar yozg‘anini “Muzakkir ul-ahbob”, “Majma ul-fusaho”, “Tazkirat us-salotin” kabi manbalar keng suratda bizga bildiradirlar. Ubaydullohning forsiycha she‘rlarida taxallusi ko‘proq Ubaydiy bo‘lib, ba‘zan Ubaydullohdir. Tasavvuf adabiyotiga beqiyos muhabbati va so‘fiylarga cheksiz e‘tiqodi bilan ajralib turganligi uchun Ubaydullaxonni Faxriy Hirotiy “darvesh kiyimidagi shoh” deb ta’riflagan bo‘lsa, Maxdumi A‘zam u haqda “darveshlarning muxlisi va e‘tiqodmandi, ammo bu faqir dil-u jonining mahbubi”, – degan edi.

Murshidg‘a, bale, muassir aqvol kerak,

Shoyista suluku yaxshi af‘ol kerak.

To so‘z degay ul hol yuzidin doim,

Ham anga fasih qolu ham hol kerak. [Убайдий. Дийдор орзуси; 2007: 76].

Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy ruhidan madad so‘rab, jang-u jadallarda g‘alaba qozongani, taxtga o‘tirgani, unga ergashib hikmatlar aytgani ma’lum.

Ayo do‘stlar, jondin kechib, ishq erkin tuttum mano,

Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano. [А.Хайитметов; 1991: 152].

Ubaydullaxon naqshbandiya tariqati g‘oyalarini ham o‘z hayoti va ijodiga singdiradi, bir so‘z bilan aytganda, shoir o‘sha davr Movarounnahrda keng tarqalgan ikki tariqatning g‘oyalarini o‘z hayoti va ijodiga singdirgan. Taxallusini “Qul Ubaydiy” deb tanlashi va darveshsifat, xokisorona hayot kechirishi yassaviya tariqatining ta’siri bo‘lsa, shohlik va shoirlikni barobar olib borishi naqshbandiylik tariqatining “Dil bayor-u dast bakor” falsafasining isboti bo‘ladi.

Ubaydullaxon “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy”, “Ubaydulloh” taxalluslari bilan o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o‘z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan. Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g‘azal, 430 ruboiyga yaqin, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi “Omonatnoma”, “Shavqnoma”, “G‘ayratnoma”, “Sabrnoma” manzumalari o‘rin olgan. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy g‘oyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek, arab va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning o‘zbek va fors tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida 3 tilda devon tuzgan birgina shoir ham Ubaydiydir. Xususan, o‘zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Shoir she‘rlarida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o‘ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

Ko‘plab shoh – shoirlar qatorida Ubaydiy hayoti va ijodi ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilmay kelindi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, shoir haqida bizgacha ko‘p manbalarda ma’lumotlar yetib kelgan. O‘z zamonasining tarixiy, ilmiy, tazkira asarlarida Ubaydiy siyosiy faoliyati, noyob iste’dod sohibi ekanligi, adabiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlarni ko‘ramiz. Zayniddin Vosifiyning “Badoe-ul vaqoe”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullonoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr-ul-asror”, Sayyid Roqimning “Tarixi Roqimiy”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, “Nafois ul-maosir” kabi asarlari va tazkiralarda Ubaydiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatiga doir mulohazalar va ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

XX asrning 20-yillaridan shoir tarjimayi holi va she‘riyati bilan qiziqish boshlangan. Bu yo‘lda A.Fitrat, O.Sharofiddinov, A.Ibrohimov, S.G‘aniyeva, A.Hayitmetov, H.Homidovlar bir qancha asarlarida, maqolalarida, M.Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida Ubaydiy hayoti va adabiy merosi ma’lum ma’noda tadqiq etilgan. Ergash Ochilov Ubaydiyning turkiy va forsiy ruboiylarini jamlab, “Diydor orzusi” nomi bilan 2007-yil chop ettirdi.

Chet el olimlaridan G.Vamberi, M.F.Kupruli, J.Ekman, Annemariy fon Shimmel shoh – shoir

hayoti va ijodiyoti bo'yicha ayrim tadqiqotlarni amalga oshirganlar [M.Абдуллаев; 2000: 5]. Bugungi asrimizda ham Ubaydiy ijodini o'rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda.

Ubaydullaxon kulliyoti yagona nusxada O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida (inv. №8931), "Devoni Ubaydulloxon" qo'lyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida (inv. e4904), "Masoiil us-salot" nomli terma bayozi Ko'niyodagi Izzatqayun xususiy kutubxonasida saqlanadi.

O'zbek ruboiynavisligi taraqqiyotiga Ubaydiy ham o'zining munosib hissasini qo'shgan, ruboiy janri uchun belgilangan an'anaviy qonun-qoidalariga amal qilib qolmasdan, uni ma'no va mazmun jihatidan boyitishga, hayot bilan uyg'unlashtirishga, til va ifoda soddaligi, samimiyligiga erishishga katta ahamiyat bergan. Ular dunyoning past-u balandini ko'rgan, hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, inson fe'lining turfa tuslanishlarini sinchklab o'rgangan, ilmi zohir va ilmi botinni o'zida mujassam etgan olim va orif insonning qalbidan qaynab chiqqan hikmatlardir. Ubaydiy ruboiylarida tilning boy imkoniyatlaridan, o'ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Shoir ruboiylarining tili sodda, uslubi ravon, fors-arab so'zlari nihoyatda kam, xalq jonli tiliga yaqin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Ubaydiy ruboiy janrida mahorat bilan qalam tebratgan. Uning 400 dan ortiq turkiy ruboiysi o'zbek she'riyatining ham mavzu, ham poetik jihatdan boyishiga xizmat qilishi bilan alohida tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Ҳайитметов. "Иззатни яхшироқ этмак керак" мақоласи. "Шарқ юлдузи", 1991, 10-сон, 152-бет
2. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 1999.
3. М.Абдуллаев. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Фил.фан.ном.дисс. – Т.: 2000.
4. Убайдий. Дийдор орзуси. Нашрга тайёрловчи Э.Очилов. – Т.: Шарқ, 2007.

MATNAZAR ABDULHAKIMNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Kumush Abdusalomova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining haqiqiy davomchilaridan biri Matnazar Abdulhakim she'riyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *So'z qo'llash, mahorat, mumtoz adabiyot, an'ana, tasavvuf, tarjima, tashbeh, lirik qahramon.*

Matnazar Abdulhakim – mutafakkir shoir. Uning she'rlarida ichki kechinmalar bilan fikr doimo uyg'unlikda keladi. Shoir hayotining hech kim e'tibor bermagan, bir qarashda ko'zga unchalik ko'rinmaydigan masalalariga-da e'tibor qaratadi. Mana shu kichkinadek tuyilgan muammolar o'ziga xos she'riy usul va vositalar bilan falsafiy tarzda o'z aksini topadiki, o'qiguvchi beixtiyor shoir aytayotgan fikrlar bevosita hayotimizdagi ulkan fojialarga dahldor ekanligini dabdurustdan his qiladi.

Men haq so'zni aytay, sen chida.

Men rost so'zim so'zlay qahr etma.

O'tmish o'tmishniki, azizim,

O'tmish bilan quruq faxr etma [Matnazar Abdulhakim.2008: 111]

Shu tariqa shoir o'qiguvchini o'z o'zini tahlil qilishga chaqiradi. Uning ko'ngli, o'y-xayollari, tasavvuri-yu tafakkuri, dunyoqarashi, butun borlig'i, hayoti va a'moliga ko'zgu tutadi:

O'tmishing bor. Bu, shaksiz, tole

O‘tmishing bor. Bu, baxt, albatta.
O‘tmish atlas, o‘tmish duxoba,
Lekin sen ham bo‘lmagin latta.

O‘tmish bilan chalg‘ib, unutma,
Bu kuningni bor qilishni ham
Qoyil qilding mag‘rurlanishni,
O‘rganib ol or qilishni ham [Matnazar Abdulhakim.2008: 111].

Mana shu uch bandning o‘ziyoq shoir bizda hanuzgacha urf bo‘lgan bobolarimiz, buyuk va shonli tariximiz bilan faxrlanish, maqtanish bilangina kifoyalib qolayotganimizni tanqid ostiga oladi. Xalqona pafos ruhida yozilgan ushbu xalqchil misralardan lirik qahramon qalbidagi achchiq hasratlar yaqqol sezilib turadi. U mana shu tarixga, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishga davat etadi, ulardan soyasida yashirinishni o‘ziga or deb biladi, o‘qiguvchining g‘ururiga, qalbiga ta’sir qilish orqali uni uyg‘otishga harakat qiladi.

Matnazar Abdulhakim she’riyati bir qarashda biroz jo‘nroq, sodda, oddiy, “hazm qilish”, anglash, tushunish juda ham oson tuyiladigan shoirga o‘xshaydi. Ammo uning ijodiy dunyosiga, ruhiy olamiga chuqurroq kirib borganingiz sari tuyg‘ularning naqadar quyuqligiga, tasvir va bayondagi ravonlikka, fikrlarining chuqur va zalvorli ekaniga, tafakkur darajasi yuqori ekaniga amin bo‘lamiz. Shoirning tashbehlari sodda, jumalari yengil bo‘lgani bilan, undagi mazmun va fikrning og‘irligi, chuqurligi hamda ulardagi mumtoz adabiyot an‘analarining o‘zgacha ko‘rinishlari, xalqonaligi bilan ajralib turadi. Shoir odam dunyosi haqiqatlarini, inson iztirobi va fojialarini o‘z dardidek ko‘radi. Uning otashin misralari zamirida butun xalq dardi bilan og‘rigan ozurda odamning achchiq nolalari yotadi. Shoir millat hayotiga ziyon keltiradigan oddiygina muammolarni keng qamrovda tasvirlash bilan birga, ko‘pchilik uchun xavotirli tuyilgan voqealarni ham sodda tarzda ifoda eta oladi. Bu talqinlar shoir yuragining haminqadar uyg‘oqligi, tuyg‘ulari, iztiroblari rostligi, samimiyligidan xabar beradi.

Bizda bordir bo‘ri haqiqat,
Bizda bordir quyon haqiqat,
Bizda bordir u yon haqiqat,
Bizda bordir bu yon haqiqat,
Oqshom haqiqatimiz mavjud,
Mavjud tag‘in sahar haqiqat,
Asal haqiqat bor bizlarda,
Bilarda bor zahar haqiqat.
Bo‘lak-bo‘lak haqiqat bordir,
Bordir parcha-parcha haqiqat [Matnazar Abdulhakim.2017]

She’rni o‘qiboq O‘zbek xalq maqoli yodimizga keladi: “Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi!”. Ammo shoirni qarangki, u hatto haqiqat yasab ham berish haqida aytmoqda:

Biz haqiqat yasab beramiz.
Istasangiz agar qay taxlit.
Faqat yagona haqiqat yo‘q,
Yo‘qdir bizda haqiqat yaxlit.

Mana shu she’rning o‘zidayoq shoirning ijodiy uslubi, yo‘li ko‘rinadi. Matnazar Abdulhakim dunyoni bosgan fisq-u fujur, adolatsizlik, yolg‘on va riyo ichida haqiqat topa olmagan lirik qahramon iztiroblarini badiiy g‘oya darajasiga ko‘taradi. Garchi bani basharning o‘z qonun-qoidalariva insoniyat uchun yaratilgan ko‘plab axloqiy ko‘rsatmalari mavjud bo‘lsada, ularga hech kim bog‘lanib qolishni istamaydi. Chunki bu dunyoda hammaning o‘z haqiqati bor. Zulmkor amaliga yarasha, olim ilmiga yarasha, kazzob kasbiga yarasha, xiyonatkor e’tiqodiga yarasha haqiqat yasaydi, bunga o‘zi-da ishonadi, atrofda qilarni ham ishontirishga harakat qiladi. Bu dunyo mana shunday parcha-parcha, bo‘lak-bo‘lak haqiqatlar to‘qnash keladigan, inson manfaatlari, intilish-u havaslari uchrashadigan katta maydondir.

Bu maydonda hech kim bir-birini tan olmaydi, bir-biri uchun kuyinmaydi, bir-biri uchun yonmaydi. Navoiy ta'biri bilan aytganda, "...Emas oson bu maydon ichra turmoqlik...!" Bunda hamma birdek manfaatli, birdek tan olinadigan yagona haqiqat yo'q. Shu sabab har qadamda duch keladigan riyo, xiyonat, munofiqlik, ko'pyuzlilik va razillik shoirning qalbini kundan kun battar eza boradi. Uning uchun haqiqat faqatgina oliy mezonigina bo'lib qolmay, balki butun butun bir makonga aylanmoqda. Ya'ni, shoir uchun borlik – haqiqat, haqiqatning yo'qolishi unida yo'qlikka sudraydi, u haqiqat bor joyinigina vatan hisoblaydi:

"Sira ham unitib bo'lar ekanmi,
Yodimda har lahza, har bir daqiqa.
Xorazm emasdur mening vatanim,
Vatanimdir mening – haqiqat.
Changallab oladi o'ylaganim sari
Yurakni kun-kundan battar g'am...

Yashayman quvg'indi qilinib,
Bo'lib badarg'a" [Matnazar Abdulhakim.2008: 63]

Matnazar Abdulhakim lirikasi – o'ziga xos ajib olam. Yuqoridagi she'rdan ma'lum bo'ladiki, shoir lirik qahramoni e'tiqodsizlik, beqarorlik va ko'pyuzlilik kabi illatlardan og'rinadi. "Xorazm emasdur mening vatanim, Vatanimdir mening – haqiqat." deb yozadi shoir, bu esa yodimizga Hazrat Navoiy bitiklarida kelgan Xusrav shoh va Farhod munozarasini yodga soladi:

"Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumroh?

Dedi: Majnun vatandir qayda ogoh!"

Badiiy ijod jarayonida shoir-u yozuvchilar doimo yangi so'z yasashga intilib keladilar. Chunki, so'zning bor imkoniyatlaridan imkon qadar keng foydalanishga intilish, ifodani yangicha tarzda berish zaruriyati shoir-yozuvchilarni shunday uslubdab foydalanishga undaydi. Shunga ko'ra, ularning asarlarida favqulotda o'zgacha so'z qo'llashlar – okkazonalizmlar vujudga keladi. Yangi o'zbek poeziyasining zabardast vakillaridan bir bo'lgan Matnazar Abdulhakim asarlarida okkazonalizm qo'llangan. Matnazar Abdulhakimning birgina she'rini o'qigan har qanday o'qiguvchi asl she'r ta'mini tuygan bo'ladi. Adabiyotimiz tarixida o'zidan ham avval she'riga haykal qo'yilgan shoir sifatida Matnazar Abdulhakim bir umr "ko'ngil kishisi" bo'lib yashadi, badiiy ijod va tarjima bilan shug'ullandi. Eng muhimi, so'zni sharafladi, uni o'z qalami ila yuksaklarga ko'tardi. Matnazar Abdulhakim ana shunday shoir, favqulodda noyob shaxs edi. Asarning *umrboqiyligi ham shundaki, u muallif vafotidan keyin ham yashayveradi, o'lmas asarga aylanadi. Uni o'qigan har biri kishi, u xoh she'r bo'lsin, xoh boshqa, egasining ham umriga umr qo'shadi, umid bera oladi, kimga borsa shuning ruhini-da ko'tara oladi. Haqiqiy asarning asl vazifasi ham shudir, aslida. Har gal benazir shoir Matnazar Abdulhakim she'rlarini o'qiyotganimizda shu haqda o'ylaymiz. Bu she'rlarini tadqiq etib xuddi Matnazar Abdulhakimni yoningizda nafas olayotganini his etamiz. U hech qanday fasl tanlamas, o'zgacha olam kishisi ekaniga bir iqrar "Iroda" she'rini keladi:*

Fasl tanlamaymiz. Hammasi bahor,

Qovjiraydi faqat yolg'on-yashiqqlar.

Biz abadiy nekbin. Mangu umidvor.

Biz — ko'ngli sovishni bilmas oshiqqlar.

Go'yo bu she'riyat aro bir donishmand kezib yurgandek tuyiladi. Borgan sari Matnazar Abdulhakim shaxsining adabiyot maydonida haybatli tog'dek namoyon bo'la borishining asosiy sabablaridan biri uning estetik idealiga bevosita bog'liqdir. Estetik ideal – ijodkor bir-butunligi, estetik ideal – ijodkor hayotining badiiy ifodasi. Yuksak estetik ideal – shoir hayotining, qaysidir ma'noda davomi hamdir. Agar shu nazariy tamoyil maydakashlik yoki o'tkinchi mafkuraviylik bilan cheklanib qolsa yoki turli g'iybat-u bo'htonlar girdobida qolib ketsa, ijodkorning "men"i, ijodkor sifatidagi qiyofasi, o'zligi, martabasi, badiiy olami yashirilib qoladi. Bunda ijodkor hech kimga yoki notanish "kimdir" ga aylanib qoladi. Vaholanki, bundayin bechora toifa adabiyot tarixida izsiz yo'qolmoqqa mahkumdur. Matnazar Abdulhakim she'riyatida esa his-tuyg'u, tafakkur, xayolot, ramz shoirning ulkan umuminsoniy dardi

orqali katta bir g‘oya doirasida o‘ziga xos adabiy voqelikka aylanadi va katta maqsadlar uchun xizmat etadi.

Qishlar va bahorlar, yozlar va kuzlar
Biz uchun barobar yangroq torlardir.
Yerga yog‘a olmay yongan yulduzlar
Bizlar qalovini topgan qorlardir.
Tog‘dek toqatlardan mumiyodek sirqib,
Do‘stlarga atalgan dil rozlarimiz.
Qanotimiz po‘lat. Hech bo‘lmas qirqib.
Jaranglab turadi parvozlarimiz .

Qur‘oni Karimdan o‘qiymiz, “Shuaro” surasida shoirlar o‘zlari qilmaydigan narsalarni aytadigan, so‘z chamanzorlarida adashgan iymonsiz bir toifasi sifatida bayon etiladi. Ammo “Illo” istisnosidan so‘ng, so‘zlari amallariga muvofiq keladigan shoirlarning ham borligi, ularning haq yo‘ldan adashmagani haqida aytiladi.

Haqiqat va Haq yo‘lda so‘zida sobit turmoq, lafzi, qalami bilan adolat, rostlik uchun kurashish, insonlarni ezgulikka chorlash Matnazar Abdulhakim she‘rlari tabiatiga xos xususiyat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov U. Ijodkor va davr. //O‘zbek tili va adabiyoti, 2002. N°6.
2. Hamdamov U. Yangi o‘zbek she‘riyati. -Toshkent: Adib, 2012.
3. Mustaqillik davri adabiyoti. -Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2006.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. -T.: Fan, 2007.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. -T.: Akademnashr, 2010.
7. Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek lirikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. FDU, 2009.
8. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
9. Umurov S. Detal va tafsilot. //Sovet maktabi, 1966. N°1.
10. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 1 jild, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2017.
11. Matnazar Abdulhakim. Tanlangan asarlar. 2 jild, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2017.
12. Matnazar Abdulhakim. So‘z chamani. Tuzuvchi Muhiddin Abdusamad. She‘rlar, nazm. Akademnashr, 2020.
13. Matnazar Abdulhakim. Ko‘prik. She‘rlar, nazm. Yangi asr avlodi, 2009.
14. Matnazar Abdulhakim. Mangulik jamoli. Xorazm Ma‘mun akademiyasi nashriyoti, Xiva, 2009.

AGIOGRAFIK JANRLARNING MAVZU YO‘NALISHI VA POETIK XUSUSIYATLARI

Zaxiriddin Sulaymanov,

*O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası tayanch doktoranti*

Annotatsiya

Maqolada sharq mumtoz adabiyotida nasriy didaktik asarning paydo bo‘lishi va ularning janr xususiyatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, agiografik yo‘nalishda yozilgan mumtoz adabiyotdagi janrlarga ta‘rif berilgan, o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Janr taraqqiyoti, badiiy xususiyatlari, kompozitsion qurulihi Mahmud Alining “Nahj-ul-farodis”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va fanga muallifi noma‘lum “Qisasi anbiyo” asarlari misolida ochib berilgan. Shu o‘rinda muallif mahoroti

masalasiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar. *Nasriy didaktik asar, janr, agiografiya, hikoyat, hikoya, hadis, kompozitsiya, sira, qissa, holat, tabaqot, manqaba, manoqib, maqoma, taskira, risola, shajara, tarix.*

Musulmon Sharq adabiyotida mazmun-mohiyat jihatidan agiografik asarlar qadimdan mavjud bo'lsada, bunday turdagi asarlarga nisbatan "sira", "qissa", "holat", "tabaqot", "manqaba", "manoqib", "maqoma", "tazkira", "risola", "shajara", "tarix" kabi janriy iste'lohlr qo'llangan va bu iste'lohlarning har birining alohida janriy xususiyatlari mavjud. Lekin har birini birlashtirib turuvchi shunday xususiyatlar borki, ularni hisobga olgan holda bugungi kunda bunday turdagi asarlarga nisbatan diniy-didaktik asarlar yoki agiografik asarlar deb atalmoqda va bu o'rinli. Bundan tashqari agiografik mazmundagi asarlarni hikoyat, rivoyat kabi badiiy janrlar bilan ham ifodalash ko'plab uchraydi.

Shu bilan birgalikda agiografik asarlarda tarixiylik ham muhim hisoblanadi, bunday asarlarni mavzu jihatidan tekshirib chiqilganda payg'ambarlar hayoti hamda aziz-avliyolarning manqabaviy hayot tarzi diniy-didaktik jihatdan aks ettirilgan bo'ladi. Shuning uchun agiografik asarlar adabiyotning obyekt bo'lishi bilan bir vaqtda tarix fanining ham obyekt hisoblanadi. Ammo bunday asarlar qayta ishlanishi natijasida afsonalar va badiiy yaratilqlar bilan boyib borishi natijasida tarixiylikdan uzoqlashib borgan. Biroq barcha aziz kishilar hayoti aks ettirilgan asarlarning hammasida ham bunday o'zgarish bo'lmagan. Shunday ekan hamma tarixiy asarlarni ham agiografiyaga kirita olmaymiz, tarixiylik va badiiylikni belgilovchi o'ziga xos o'lchovlar mavjud va bu belgilardan qaysi biri ko'proq namoyon bo'lsa bu asar shu guruhga mansub deb baholash kerak. Demak, o'rta asrlarda yaratilgan agiografik yo'nalishdagi asarlarni ifodalovchi janrlarni mavzu hamda badiiylik belgilarining mavjudligi jihatidan ikki guruhga ajratishimiz mumkin: 1. Estalik-memuar tipidagi janrlar: sira, holat, tabaqot, manqaba, manoqib, maqoma, taskira, risola, shajara, tarix. 2. Adabiy-badiiy uslubdagi janrlar: qissa, rivoyat, hikoyat, latifa, hikmat, xabar, foyda, munojot kabi. Yuqoridagi janrlardan kelib chiqib agiografik janrlarning mavzu yo'nalishlarining ham har xilligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi guruhga mansub janrlardan dastlabkisi "sira" hisoblanadi.

Payg'ambarlar hayoti va faoliyati, ko'rsatgan mo'jizalari haqida "sira" hamda "tazkirat ul-avliyo"larda uchraydi. "Sira" ar. (ko'pligi siyar) – 1) biografiya; 2) hayot tarzi; yaxshi xulq-atvor; yaxshi axloq; 3) obro-e'tibor; 4) tarix, hikoya yoki Muhammad s.a.v. ning umrlari, siyratlari" [Baranov, 1962: 486]. Musulmon agiografiyasiga oid dastlabki asarlar "sira"lar hisoblanadi va bunga oid asarlarning birinchisi "Siraru-n-nabi"dir. Janr nomini anglatuvchi "sira" istilohi (ko'plik shakli siyar) – yo'l, hayot tarzi kabi ma'nolarni anglatadi. "Sira" – musulmon tarixnavisligining payg'ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi alohida janrdir. Bu so'z payg'ambarning hayoti haqidagi asar janrini anglatuvchi istiloh sifatida birinchi marotaba Ibn Hishom (834) tarafidan Ibn Ishoqning (704-767) Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati haqidagi asarini tahrir qilish jarayonida ishlatilgan "ya'ni bu kitob Alloh rasulining hayoti bayonidir" deb qayt qilingan" [Nazarov, 2009: 19]. Lekin bu janr badiiy adabiyotda uchramaydi, ilk islom davrida vujudag kelgan -diniy- tarixiy asarning umumiy nomi hisoblangan. Bu yo'sindagi asarlarda badiiylik belgilari kam, tarixiylik muhim hisoblangan. Masalan, Voqidiy (747-823) ning "Kitob al-mag'oziy" ("Harbiy yurishlar kitobi"), Ibn Ishoq va Ibn Hishomning "Siyrat Rasul Alloh" ("Alloh elchisining hayot yo'li") asarlari bizgacha yetib kelgan, bu turdagi asarlardan keyingi asrlarda agiografik asarlarni yozishda unumli foydalanishgan.

"Tabaqot (tabaqaning ko'pligi; "qatlam", "avlod", "daraja") – ma'lum bir vaqt oralig'ida yashagan shaxslar, "avlodlar tarjimai holi" (biografiyasi). Arab tarixshunosligida tabaqot biografik janrning maxsus tarmog'ini tashkil etib, unda materiallar xronologik tartibda, avlodlar bo'yicha, eng dastlabkisidan so'ngisigacha (Muhammad s.a.v ning savdoshlari – sahobalar, so'ng ularning shogirtlari va b.) joylashtiriladi... bizagacha tabaqot turida yetib kelgan ilk asar Ibn Sa'd (784-845) ning "Kitob at-tabaqot al-kabir" dir" [Islom ensiklopediya, 2004: 219]. Lekin bu turdagi asarlarda muqaddas shaxslar keltirilgan bo'lsada, tarixiylik yetakchilik qiladi. Ayrim agiografiyaga oid jihatlari mavjud.

Bundan tashqari ya'na bir nechta janrlar bor, ulardan biri manoqib hisoblanadi. "Manoqib" (arab.

– fazilatlar) – tasavvuf tushinchasi. Biror ulug‘ zotning fazl va martabasini maqtab, ta’rif-tavsif qilish. Ko‘pincha shu haqidagi risola yoki asar tushiniladi. Masalan, “Manoqibi Xoja Axror” (Xo‘ja Axror tarifi), “Manoqibi Shoh Abdulloh” (Shoh Abdullohning tarifi va tavsifi) [Islom ensiklopediya, 2004: 151]. Manoqiblar tasvir etilayotgan shaxsning hayot yo‘li bilan tanish bo‘lgan kishilar: shogirtlari, tanishlari, maslakdoshlari tomonidan yoziladi. Bunday asarlarni yaratishdan maqsad dastavval, din peshvolarining qilgan ishlari va hayot yo‘lini kelajak avlodaga yetkazish va xotirada saqlab qolish bo‘lgan. Yozuvchilar bayon qilinayotgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini tasvirlashga harakat qilgan. Shuning uchun ham bunday asarlar tarixiy asarlarga yaqin turadi, badiiylik belgilari kam, xotira asar hisoblanadi. “Taboqat” janri ham xususiyatlariga ko‘ra shu janrga yaqin turadi. Agiografik janrlardan ya‘na biri “maqomat” hisoblanadi. Bu janr ham yuqoridagi janrlar sirasiga kiradi. Farqli jihati maqomatda shayx yoki avliyoning o‘ssish, ko‘tarilish, kamolatga yetish darajasi aks ettiriladi. Maqomat janri xususiyatlari haqida adabiyotshunos olim B.Nazarovning doktorlik dissertatsiyasida batafsil ma‘lumot keltirilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida agiografik yo‘nalishdagi tazkiralalar ham ko‘plab uchraydi. “Tazkira (ar. Zikr etish, tilga olish, eslash) – sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqida muxtasar ma‘lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar (odatda, bir necha bayt hajmida) keltiriladi va ijodiga umumiy tarzda baho beriladi. Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi tazkiralalar ham yaratilgan” [Quronov, 2013: 305]. XIV asrda turkiy tilda yozilgan yoki turkiy tilga tarjima qilingan tazkiralalar soni salmoqli hisoblanadi. Ulardan fanga muallifi noama‘lum bo‘lgan bir tazkiraning muqaddimasida quyidagicha parcha keltirilgan: “temam rag‘bat va i‘temod eyleyub ben faqir u hakim duasizima ishoret eyledikim evliyoulloh va mashoyih so‘zlarindin bir kitob te‘lif va tasnif eyleyem hemondem.. ulumm bahrine talup arabide Kisasu‘l-enbiyo kitobin bo‘lib arab tilinden turki diline do‘ndurdim so‘ngra parichada ushbu Teskirat ul-avliyo kitobin bo‘ldim forisi tilindan turki tiliga do‘ndurdim va ol ulunun ishoratini yirine kelturmakligi vojib ko‘rdim.. va bularning hikoyatin va siyratin o‘qimoq birla tangrining tahmatin qabul etmak durur.. va bu zaifa hayr duo izilar va tangridan tavfiq tilayib kitoba boshladim...” deya Ja‘fari Sadikla asarni boshlaydi. Bu parchadan ayon bo‘ladiki, asar Taskirat ul-avliyo tarjimalaridan biridir. Asarni arab tilidan Oydino‘g‘li Mehmed Bey XIV asrda tarjima qilgan, 300-350 sahifadan iborat. Shuningdek, bu davrga oid fanga muallifi noma‘lum bo‘lgan bir nechta tazkiralalar ham mavjud.

Shajara – lug‘aviy ma‘nosi daraxt, daraxtning yerdan yuqori qismi ma‘nosini anglatadi. Istilohiy ma‘noda tazkiraning bir turi bo‘lib, u muayyan nasab sulolasi yoki ma‘lum bir siyosiy, ilmiy, ijodiy, amaliy guruh, toifa, maktab namoyondalari silsilasi hayoti va faoliyatiga doir ma‘lumotlar majmuidan iborat. Agar shajara ma‘lum mazhab namoyandalari yoki tariqat pirlari silsilasi, ularning diniy va dunyoviy mavzudagi ibratli fazilatlar hamda faoliyatlari haqida yozilgan bo‘lsa, ya‘ni muqaddas tushunchalarning ma‘lum zotlarda zohir bo‘lishi yoritilgan bo‘lsa, uni agiografik asar sifatida baholash mumkin.

Ta’rix – tor ma‘noda ma‘lum shaxs yoki voqea haqida ham yoziladi. Agar u biror muqaddas zot to‘g‘risida bo‘lsa, agiografiyaga taalluqli hisoblanadi.

Ikkinchi guruhga mansub adabiy-badiiy uslubdagi agiografik janrlarning ko‘pchiligi alohida asar shaklida uchramaydi, balki boshqa diniy-didaktik yo‘nalishga mansub asar tarkibida keladi va asarni badiiy boyitishga hamda mazmun-mohiyatini to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi. Biror voqeani yoki tushinchani o‘quvchiga bu janrlar orqali yetkazish oson, sodda va tushunarli bo‘lgan. Shuning uchun bu janrlarni XIV asrga oid asarlar tarkibida ko‘p uchratamiz. Bu janrlardan biri “qissa” hisoblanadi. Qissa agiografik janrlardan eng faol qo‘llaniluvchi janr. Qissa haqidagi dastlabki nazariy qarashlar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ot at-turk” asarida keltirilgan. Muallif asarda bir qancha atamalarini keltirib, “sav” – qissa. *Qadimgi voqealardan xabar berish, aytish* yoki “risola, xat, kichik kitobcha... so‘z, nutq” [Qoshg‘ariy, 1963: 168] deb qayt qilib o‘tgan. Qissa janr sifatida xalq og‘zaki ijodidan o‘sib chiqqan bo‘lib, atama sifatida arabcha – hikoya, biror shaxs haqida so‘zlash kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Adabiyotshunoslikka oid lug‘atlarda quyidagicha keltiriladi: “Qissa (ar. قصه - hikoyat, sarguzash) – 1) xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan voqeband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini

hikoya qiluvchi rivoyaviy asar... O'zbek adabiyotida payg'ambarlar va avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi rivoyaviy asar ham qissa deb atalgan (mas., Rabg'uziy. "Qisas ul-anbiyo"). 2) epik turning hikoya va roman qatoridagi uchta asosiy janrdan biri, povest" [Quronov, 2013: 387]. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida birinchi turdagi "Qisas ul-anbiyo" lar juda ko'p uchraydi. Turk olimlaridan Ismat Jamil o'g'lining "14 yuzyila ait bir KISAS-I ANBIYA nusxasi uzarinda sentaks incelemeşi" [Ismet Camilogli, 1994: 16] nomli tadqiqotida Turkiya qo'lyozma fondlaridagi yigirmadan ortiq "Qisasul anbiyo" lar borligi haqida ma'lumot beradi (bu asarlar haqida keyingi boblarda to'xtalamiz). Shuni takidlashimiz kerakki, biz agiografiya janriga oid qissalar haqida so'z yuritdik, shuningdek, hozirgi adabiy jarayondagi "qissa" janriga mansub asarlar yuqoridagi xalq kitoblaridan farq qiladi. Bu haqida bir qancha disertatsiyalarda anchayin ma'lumot keltirilgan [Xolmurodov, 2008: 291; Yuldosheva, 2012: 155].

Agiografiyaga oid qissa janrining eng yaxshi namunalarini XIV asrda yaratilgan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi. Asar jami 72 qissadan iborat bo'lib, Hazrati Odamdand Muhammad (s.a.v) payg'ambarimizgacha bo'lgan davrdagi payg'ambarlar qissalari hikoya qilinadi. Asarning dastlabki qissasi "Qissai Odam safiy alayhi-s-salom" deb nomlangan bo'lsa, keyingi qissa "Qissai Qobil va Hobil" hisoblanadi, shu tariqa Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) gacha bo'lgan qissalardan iborat.

Shis haqidagi qissadan boshlab asardagi qissalarni bog'lab turuvchi obraz Muhammad alayhis-salom faol ko'zga tashlanadi. Keyin Hazrat Umar va Imom Shayx Jo'ybori haqidagi ikki hikoyat keltiriladi. So'ng Idris alayhissalom haqidagi qissa va undan keyin juda mashhur bo'lib, xalq og'ziga tushgan — Qissai Nuh nabiyl alayhis-salom qissasi keltiriladi. Unda aytilishicha, Nuhga odamlarni yakkaxudolik diniga da'vat etish buyuriladi. Itoat etmaganlar uchun to'fon haqida bashorat beriladi. Keyin o'g'illari Xom, Som va Yofasning musulmon bo'lishi, yana bir o'g'li Kan'onni otasining da'vat etgan diniga kirmasdan kofir bo'lgani, oqibatda uni to'fon halok qilgani haqida hikoya qilinadi. Shundan keyin Nuh Olloh taoloning buyrug'i bilan kema yasaydi va hamma hayvonlardan bir juftidan kemaga kiritadi. Nuh haqidagi voqealar diniyl manba'larda ham uchraydi. Biroq bu qissa badiiy jihatdan to'yintirilgan va kengroq berilganligi bilan xarakterlidir. Shu o'rinda Rabg'uziy o'z asarida tilga olgan Nuh payg'ambar timsolining Sharq she'riyatida tutgan o'rni va kirib kelishi haqida qadimiy kitoblarimizda juda ko'plab rivoyatlar bitilgan. Biz "Qisasi Rabg'uziy" asari misolida ko'rib chiqsak.

Kun tug'ardin kun botarg'a Nuh yalovoch da'vati,
Ellik o'ksuk ming yil erdi ul risolat muddati.
Kecha kunduy o'zi yolg'uz qazg'u, emgak yuklanib,
So'z eshitmaz kofir aro kunda ortdi zahmati.
Haqqa "rabbi lotazar" tebyalvorib qildi duo,
Bu ijobatda duodin qirq yil edi muxlati.
Din uchun ko'p qin tortib yuritu haq yorliqni,
Bizga so'kun emgak ichra qolmadi hech toqati.
"Vasna al-fulka" amri birla yo'ndi uch qat bir kemi,
Ani mindi yetdi ersa xalqqa to'fon haybati,
Yag'di yang'ur, esdi yellar, ostin-ustun olti oy,
Ko'rsa mundog' mundin ortiqmavlomizning qudrati,
O'zi qoldi uch o'g'il ham uch kelinlar yetagu,
Barcha o'ldi yuvib tugandi kufzu zulmat bid'ati.

Bu misralarni o'qiganimizda ko'z oldimizda odamlar boshiga kelgan balo ya'ni, "To'fon" balosi gavdalanadi. Bunda kofirlarga qarshi kurashgan Nuh alayhissalom da'vati xalqning Haqqa bo'lgan ishonch-e'tiqodini yetqazish uchun necha zahmatlar chekib, kofirlarning tuhmatiga uchragani va Allohdan To'fon balosini yuborishini so'ragani gavdalanadi. Haftalab, oylab yog'gan yomg'ir yer yuzini parchalab hech buyumdan nom-nishon qolmaydi. Allohga, uning so'zlariga ishonmay suvda g'arq bo'lgan kofirlar boshiga tushgan balo keyingi avlod uchun ham yetarli saboq bo'lishini xalq tasavvurlariga tayangan holda tasavvuf she'riyati an'anasiga bog'lanib ketadi.

Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari badiiy yaratilqlarga boy ekanligini, har tamonlama

mukammal asar ekanligi asarda keltirilgan birgina yuqoridagi Nuh alayhissalom qissani XIV asrda yaratilgan yana bir fanga muallifi noma'lum bo'lgan “Qisas-i anbiyo” [Ismet Camilogli, 2000: 271] asarida keltirilgan shu nomli qissaga solishtirib ko'rishda namoyon bo'ladi. Ikkala qissadagi voqealar syujeti deyarli bir xil bo'lsada lekin Rabg'uziyning qissasiga qaraganda XIV asrda yaratilgan qissada badiiy to'qimalar o'z o'rnida o'quvchiga tushinarli va qiziq bo'lishi uchun ko'p uchraydi. Masalan, XIV asrga oid qissada Nuh alayhissalomning onasi va otasi qanday uchrashib oyla qurganligi, shu davrda yashagan hukmdorlar bilan munosabati hamda Nuhning uch qizi hamda uch o'g'li va kofir bo'lgan bir o'g'li haqida voqealar bilan boshlangan bo'lsa, Rabg'uziyning qissasida faqat ismlari keltirib o'tiladi va asosiy voqealarga tashlab ketiladi. Lekin bu qissada farqli o'laroq Rabg'uziy qissaga Avj ibn Unuq, kemanding tog'ga qo'nishi voqealari, mushuk, sichqon, to'ng'iz, ilon, qaldirg'och, chivin, qarg'a, kabutar kabi hayvonlarga bog'liq bo'lgan qiziqarli hikoyalar bilan boyitganligini ko'rishimiz mumkin. Ikkala qissaning farqli jihatlar ham talaygina, masalan, muallifi noma'lum qissada Nuhning onasining ismi Qaynash deb berilgan bo'lsa, “Qisasi Rabg'uziy”da Shamxo binti Anursh deb berilgan. Shuningdek, kemanding qavatlarida ham farqni ko'rishimiz mumkin: Rabg'uziyda “Kema bitti, u uch qavat edi (birinchi qavatida choqva hayvonlari, ikkinchisida Nuh qavmi bilan, uchinchisida qushu qurtlar joy olgandi)” [Rabg'uziy, 1991: 19]. XIV asrga oid kitobda “*Nuh evvel tabaqaya odemiler qoydi ve odem tobuti dahi bileydi ve uch yuz o'n uch 'oso bileydi. Her bir 'oso bir Mursel peyg'amber ichun idi ve adlari ustinde yazluyidi ve ikinchi tabaqada 'avratlar ve qizlaridi. To Havvo tobuti bileydi ve uchunchi tabaqada yaban janavarlari ve do'rdunchi tabaqada qushlar ve beshinchi tabaqada yirtiji janavarlari, altinchi tabaqada ilanlar ve chiyanlar ve 'aqrebler ve yidinchii tabaqada piller ve arslanlar olurdi*” [Ismet Camilogli, 2000: 138]. Bundan tashqari ikkala qissani qiyoslab o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlar talaygina, kelgusida o'rganish tavsiya qilinadi.

Nuh (a.s.) obrazi mumtoz adabiyotimizda shoirlar ijodida mustahkam joy olgan. Tadqiqodchi olim T.Xo'jayev ma'lumot berishicha Nuh obrazi mumtoz adabiyotda poetik belgilari talqinidagi an'anaviylik masalasiga fikrini bildirgan bo'lib [T.Xo'jayev, 1995: 242], uning fikricha Nuh obrazi XV asr adiblari ijodida ikki belgisi orqali ya'ni to'fon va uzoq umri orqali namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki bu fikrlar mumtoz shoirlarimizga yaqindan ma'lum bo'libgina qolmasdan ularning ijodlarida ham yangicha ko'rinishda yoritila boshladi. Demak, qissa hayot murakkabliklarini hamda asosiy obrazning xarakteristik xususiyatlari hikoyaga nisbatan kengroq bo'ladi, ko'proq xranologik syujetdan foydalaniladi. “Bularning uslubiga “Roviylar rivoyat qilurlarkim”, “Ammo rivoyani axbor va noqiloni osor va muxaddisoni doston” kabi boshlanmalar, bobdan bobga yoki voqeadan voqeaga o'tishda “alqissa” bog'lanmasi xosdir” [Homidiy, 2011: 328]. Keyingi asrlarda qissachilik rivojlanishi natijasida agiografik qissalardan tashqari ishqiy-sarguzasht, axloqiy-ta'limiy, qahramonlik ruhidagi turli mavzularda qissalar yaratildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agiografiya atamasi XX asrga kelib sharq adabiyotiga kirib kelgan bo'lsada, lekin bu turkumga oid asarlar avvalda mavjud bo'lgan. Uzoq davr davomida turkiy adabiyotda qo'llangan qissa, holat, tabaqot, manqaba, manoqib, maqoma, taskira, risola, shajara kabi janrlarning agiogarflik belgilarini hisobga olgan holda birgalikda hozirgi kunda **agiografik janrlar** deb atash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Nazarov. Tasavvuf adabiyoti janrlari. – T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2009. – B. 19
2. Баранов Х. Арабско – русский словарь. – М., Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1962. – Б. 486.
3. Dr. İsmet Cemiloglu. 14. Yüzyıla ait bir kısas-ı enbiya nüshası üzerinde sentaks incelemesi. – Ankara, 2000. – S. 271
4. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Т.: “Akademnashr”, 2013. – Б. 305
5. Ислом енсиклопедия. А-Х. – Т.: “Ўзбекистон миллий унсиклопедияси” Давлат илмий

нашриёти, 2004. – Б.

6. Ismet Camilogli. XIV yuzyila ait bir KISAS-I ENBIYA nusxasi uzerinde sentaks injelemesi. – Ankara, 1994. – S. 16.

7. Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнги чораги). Филология фанлари доктори... дисс. – Тошкент: ЎзФа Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2008. – 291 б.;

8. Юлдошева С.А. Бадиий-биографик қиссалар поетикаси (“Қиссаи Иброҳим Адҳам”, “Қиссаи Сайид Насимий”, “Қиссаи Машраб” асарлари асосида). Филология фанлари номзоди ... дисс. – Самарқанд: Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети, 2012. – 155 б.

9. Қошғарий М. Девону луғотит турк. III том. – Т.: Фан, 1963. – Б. 168.

10. Hamidjon Homidiy. Daholar davrasi. – T.: “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – B. 328

YASSAVIY VA UBAYDIY IJODIDA HIKMAT JANRI

Yulduz Jo'rayeva,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada hikmatnavislik an'anasining asoschisi Ahmad Yassaviy hamda uning izdoshlaridan biri Shayboniylar sulolasi hukmdori shoh va ijodkor Ubaydullaxon hayoti hamda ijodi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Ularning ijodida salmoqli o'rin tutgan hikmat she'rlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikmat she'rlar, hikmatnavislik, an'ana, izdoshlik, folklor, tasavvuf, tarixiy haqiqat, nafs.

O'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi va taraqqiy etishida xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyosdir. Badiiy adabiyotdagi obraz, syujet, motivlar genezesi ham folklorga borib taqaladi. O'zbek mumtoz adabiyotining ilk namunalaridan tortib uning butun rivojlanish bosqichlarida so'z san'atkorlarining ijodiyoti shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodiyoti so'z san'ati namoyondalarini mehnatkash xalq dili va tili, turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlar, orzu-umidlari, armonlari bilan yaqindan tanishtirdi, ularda aks etgan g'oya va obrazlarning cheksiz olamiga olib kira oldi. Folklorning ta'sirida ko'plab yozma adabiyot namunalari oziqlanadi, shunday lirik janrlardan biri hikmat she'rlar hisoblanadi. [1] Eng qadimiy janrlardan biri hisoblangan hikmatlar turli ma'nolarni anglatadi. Dastlab lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo'lgan, uni aks ettiruvchi narsa - gap-so'z, fikr va sh.k.; donolik belgisi.

Hikmat janri haqida Kamol Eraslon shunday deydi, “hikmatlar bir kishining emas, Yassaviy darveshlarining umumiy fikr va inonchlarining mahsuli”. Bundan bilib olishimiz mumkinki, hikmat janri bevosita Yassaviy ijodi bilan chambarchas bog'liq. Hikmatnavislik an'anasining asoschisi, uning rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'shgan ijodkor Ahmad Yassaviydir. U turkiy xalqlar orasida yangi bir tasavvufiy tariqat yaratgan va tasavvuf she'riyatiga asos solgan mashhur mutasavvuf ijodkor. Abdurauf Fitratning aytishicha, Yassaviyning “adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'llaridir... uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti deb atalgan she'rlar bilan barobar” yurgan. [2] Bundan bilib olishimiz mumkinki, hikmat janridagi she'rlar xalq og'zaki ijodiga judayam yaqin turadi, tili soddaligi sabab ularda aks etgan ma'noning tushunilishi barcha uchun barobar. Ahmad Yassaviy birinchi bo'lib hikmatnavislik an'anasini boshlab, hikmat nomli she'rlar yozgan, “Devoni hikmat” ga tartib bergan. Yassaviy hikmatlarining bosh fazilati va xosiyati shundaki, ular, eng avvalo, she'rxonni Birlik kuchiga ishontiradi, ilohiy Birlik shavqi bilan ko'ngilni poklaydi. Uning hikmatlarini o'qigan kishi go'zal axloq va yaxshi amal, yuksak orzu sohibiga aylanadi, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da,

o‘tkinchi dunyo noz-ne‘matlaridan, go‘zalligidan yiroqlashib, ma‘no va mohiyatga yuz buradi. Buning sababi shuki, Ahmad Yassaviy asarlarida bosh maqsad orifona usulda vujudga kelgan g‘oyalar. Shuning uchun u o‘z ijod namunalariga hikmat nomini bergan. Aynan hikmat janrida yozgan asarlarida bu g‘oya o‘z aksini topgan hamda ularning sodda, xalqona tilda yozilganligi ham xalq orasida mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari hikmatlarida tarixiy haqiqatlarni aks ettirgan o‘rinlari ham mavjud bo‘lib, bu orqali shoirning hayoti bilan bog‘liq voqealarni bilib olish mumkin.

Adibning qachon tug‘ilganligi hamda vafoti haqida aniq ma‘lumotlar mavjud emas, biroq bir hikmatida shunday deb o‘tadi:

To‘rt yuz yildan keyin chiqib ummat bo‘lg‘ay,
Necha yillar yurub xalqqa xizmat qilg‘ay .

Quyidagi misralarda uning birinchi ma‘naviy ustoz Arslonbobdan ta‘lim olishni yetti yoshda boshlaganligi haqida aytilgan.

Yetti yoshda Arslon bobni izlab topdim,
Har sir ko‘rib parda birla bukib yopdi.
Subhi sodiq dushanbada yerga kirdim,
Mustafoga motam tutub kirdim mano.
Oltmish uchda sunnat dedi, eshtib bildim,
Mustafoga motam tutub kirdim mano.

Bu hikmati orqali payg‘ambarga motam tutish asnosida yer ostidan o‘zi uchun hujra qilib, qolgan umrini o‘sha joyda toat-ibodatda o‘tkazganligi aytilgan. Xalqimiz orasida eng mashhur hikmatlaridan namuna ko‘rib o‘tamiz:

Beshak biling bu dunyo, barcha eldan o‘taro
Inonmag‘il moling‘a, bir kun qo‘ldan ketaro
Ota-ona-qarindosh, qayon ketdi fikr qil
To‘rt oyog‘liq cho‘bin ot bir kun sanga yetaro.

Ushbu 4 misrada umrning asl mazmuni aks etgan deb aytish mumkin. Birinchi misrada dunyoning o‘tkinchiligi, hech kimga vafo qilmasligi haqida so‘z ketadi. Ikkinchi misra ham oldingi misra bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, unda mol-davlatga ko‘ngil qo‘yib unga ishonmagin, u ham sendan ketadi deyilmoqda. Keyingi misr-ada esa hech kim abadiy hayotga erishmasligi, eng yaqin insonlari ham kun kelib uni tark etishi haqida fikr yuritiladi. So‘nggi misrada umrning poyoniga yetishi “to‘rt oyog‘liq cho‘bin ot” o‘xshatishi bilan ochib berilgan. Hikmatda tushunilishi qiyin so‘zni uchratmaymiz, barcha so‘zlar xalq tilida qo‘llaniladigan, hamma uchun osongina anglab olinadigan so‘zlardan tashkil topgan bo‘lishiga qaramasdan, ular anglatgan ma‘no yuksak darajada, bu esa shoirning beqiyos ijod sohibi ekanligidan dalolat beradi.

“Ahmad Yasaviy, - deydi professor Najmiddin Komilov, - Qur‘on hikmatlari, hadislar mazmunini va tasavvuf g‘oyalarini qo‘shib kuylagan. Uni insof-u adolat, halollik va to‘g‘rilikni oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlat bilan bog‘lagan. U birinchi bo‘lib tasavvuf g‘oyalarini turkiylar orasiga yoyib, nafs va xudbinlik kabi ko‘pgina yomon illatlarni qattiq tanqid qildi”. [3]

Yassaviy hikmatlarining salmoqli qismida aynan – nafs, uni yengishga da‘vat etish masalasi o‘rin egallagan.

Nafs yo‘lig‘a kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldin ozib, toyib, to‘zub gumroh bo‘lur,
Yotsa-tursa Shayton bilan hamroh bo‘lur,
Nafsni tepgil, nafsni tepgil, ey badkirdikor.

Sodda, xalqona tilda bitilgan ushbu hikmat mazmuni ochiq oydin namoyon bo‘lgan. Unda nafs kishisi qay ahvolga tushishi, unga shaytonning tun-u kun hamroh bo‘lishi aytib o‘tilib, o‘quvchini nafsni yengishga takror-takror undashi bejiz emas. “Nafsim meni balodir, ne ko‘ylarga solodur” maqoli mazmuni bilan hamohanglik kasb etadi

Hikmatnavislik an‘anasi XII asrda to‘liq shakllangan, manbalarda Ahmad Yassaviyning birinchi

izdosshi deb Sulaymon Boqirg'oniy e'tirof etiladi. Uning "Boqirg'on kitobi" mavjud bo'lib, bu asari orqali uning she'riy ijodini bilib olishimiz mumkin. Hikmatnavis shoirlar ijodida bosh mavzu shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat mavzusi bo'lganidek, hikmatlarda solik va tolibi haqlarga maqsad sari qanday yo'l tutish zarurligi uqtiladi.

Shu o'rinda Yassaviy ijodidan namuna keltirib o'tamiz:

Har kim qilsa tariqatning davosini,
Avval borib shariatni bilmak kerak.
Shariatning ishlarini ado qilib,
Andin so'ngra bu da'voni qilmak kerak.
Shariatsiz dam urmaslar tariqatda,
Tariqatsiz dam urmaslar haqiqatda.
Ushbu so'zlar ma'lum bo'lar ma'rifatda,
Jumlasini shariatdin so'rmoq kerak.

Sulaymon Boqirg'oniy ushbu sifatlarni o'z shayxi Ahmad Yassaviyda mavjud ekanligini bir hikmatida tilga olib o'tadi:

Shariatni so'zlagan, haqiqatni izlagan,
Haqiqatni bildirgan, shayxim Ahmad Yassaviy.
Shariati orasta, tariqati payvasta,
Haqiqatda shoyista, shayxim Ahmad Yassaviy. [4]

Ahmad Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik an'anasining XVI asrdagi rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkor shoh va shoir Ubaydullaxon. U yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e'tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. Yassaviyshunos olim N.Hasan hukmdor Shayboniyxon hamda Ubaydullaxonning ijodida Yassaviyga ergashgan holda yozilgan she'r va hikmatlar borligini va ularni XVI asr o'zbek adabiyotidagi "yassaviy an'analari" sifatida ta'kidlaydi. [5] Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», «Ubaydulloh» taxalluslari bilan o'zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan "Kulliyoti Ubaydiy" devoni keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan (1583). Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g'azal, 430 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi "Omonatnoma", "Shavqnoma", "G'ayratnoma", "Sabrnoma" manzumalari o'rin olgan. Forsiy devonida esa 163 g'azal, 418 ruboiy, 7 qit'a, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarje'band va 3 muammo bor. Arab tilidagi merosi 35 ga yaqin g'azal, qit'a va fardlardan iborat. Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an'anasini rivojlantirgan. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan, bu hikmatlar Ahmad Yassaviyning hikmatlari ta'sirida yaratilgan bo'lib, ularning tili, uslubi, vazni va shakli o'zaro yaqin. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy g'oyalar yetakchilik qiladi. Shoir she'rlarida o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan, o'ziga xos xususiyatlaridan, xalq og'zaki ijodi namunalaridan mahorat bilan foydalangan. Uning ijodida hikmat she'rlar alohida o'rin tutadi. [6]

Ayo do'stlar, jondin kechib, ishq erkin tutum mano,

Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano.

Yuqoridagi misralarda o'zidan voz kechib ishqni, ya'ni Haqqa bo'lgan ishqni tanlagani, vahdat mayin ichish borasida qancha azoblar chekkanligi haqida so'z boradi. Shu o'rinda "vahdat mayi" tushunchasiga to'xtalib o'tamiz, tasavvuf ilmida "vahdat ul-vujud" ta'limoti mavjud bo'lib, uning ma'nosi "yagona vujud birligi" demakdir. Haqiqiy Borliq – bu Mutlaq zot – Parvardigorning yakka-yu yagona vujudidan iborat, boshqa mavjudliklar shu Vujudning ijodi, in'ikosidir. Vahdat mayi mutlaq zotga bo'lgan ishqqa yetishish uchun ichiladi.

Uch yuz oltmish daryo o'ta, yurmay kishi sud aylamas,

To'rt yuz qirq to'rt tog'din oshib, borisidin o'ttum mano.

Haqqa bo'lgan ishqqa yetishmoqlik uchun inson bosib o'tadigan yo'llarning uzunligi va qiyinchiligi ushbu misralarda aks etgan. "Uch yuz oltmish" hamda "to'rt yuz qirq to'rt" raqamlarini Yassaviy ijodiga hamohang tarzda yozilgan bo'lib, ikkala ijodkor ham bu sonlarni nafsni yengib, oliy ishqni manzil-u makon

etmoqchi bo‘lgan inson duch keladigan mashaqqatlarning ko‘pligi va turli xilligiga nisbatan qo‘llaydi.

Haq zikrini mag‘zi jondin chiqarmasang,
Uch yuz oltmish tomirlaring tebratmasang,
To‘rt yuz qirq to‘rt so‘ngaklaring qul qilmasang,
Yolg‘onchidir, Haqqa oshiq bo‘lg‘oni yo‘q. (A.Yassaviy)

Haq ishqini istagan kimsa butun vujudi-yu ruhi ila bu ishga tutinmoq uchun harakat qilmog‘i tasvirlangan Yassaviyning bu hikmati naqadar chiroyli so‘zlar zanjiri orqali vujudga kelgan.

Ilmli insonning go‘zal amal ila ish tutmoqligi, olim kishi uchun faqatgina ilm emas, balki ushbu ilmga amal qilmoqligi ham nihoyatda kerakligi haqida Ubaydiy hikmatida shunday keltiradi:

Olim kishi ilmi bila amal qilsa,
Rabboniyun zumrasinda doxil bo‘lur.
Ilmi bila amal qilmas olim, biling,
Nodonlarga doxil bo‘lur, johil bo‘lur.

Ilmiga amal qilmagan inson nodon kishiga tenglashtiriladi. Yassaviy bir hikmatida Nodon birla o‘tgan umr nori saqar, Nodon borsa, do‘zax andin qilgay hazar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Yassaviy hikmatlari jamlangan “Devoni hikmat” asari oradan necha asrlar o‘tishiga qaramasdan barcha davrlar uchun ahamiyatini yo‘qotmagan, shuning bilan birga hozirgi kun uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik an‘anasini davom ettirgan ijodkorlar orasida alohida e‘tiborga loyiq shaxslardan biri Ubaydiy hisoblanadi. Har ikkala ijodkorning hikmatlarida pand-nasihat, odob-axloq masalalari haqida so‘z yuritiladi. Ayniqsa ilmli inson fazilatlarini aytib o‘tilib, nodon kishidan yiroq bo‘lish, ilmiga amal qilmasdan nodon bilan teng bo‘lishlikdan ogoh bo‘lishga da‘vat etadi. Nafsni yengish haqida bir birida go‘zal hikmatlarni uchratishimiz mumkin. Shuni alohida aytish joizki, nafs masalasi har bir davrda mavjud, uni yengish avvalo insonning o‘ziga, iymoniga sobitligiga bog‘liq. Shunday ekan bu o‘tkinchi dunyoning hoy-u havaslariga ko‘ngil berib, nafs yo‘liga kirib Haqni unutmaylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Natan Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – Toshkent, 1974. 10 b.
2. A. Fitrat. Ahmad Yassaviy. Maorif va o‘qitg‘uchi. – Toshkent, 1927.
3. N. Komilov. “Komil inson haqida 4 risola”. Ma’naviyat. – Toshkent, 1996
4. Boqirg‘on kitobi. O‘zRFASHI, toshbosma, inv. N288. – 88b.
5. Kuliyoti Ubaydiy. O‘zRFASHI, qo‘lyozma, inv. N8981. – 699 b.
6. Hasan N. XVI asr o‘zbek adabiyotida Yassaviy an‘analari// O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2004. – N2. – B. 67-72

АБДУЛЛА ОРИПОВ ВА УЛМАМБЕТ ХЎЖАНАЗАРОВ ФАЛСАФИЙ УСЛУБИДАГИ МУШТАРАКЛИК

Мухаммеддин Бауетдинов,

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Аннотатсия

Мақолада қорақалпоқ шоири Улмамбет Хўжаназаровнинг фалсафий услубидаги айрим хусусиятлар ва унинг ўзбек адабиётининг ёрқин намоёниси Абдулла Ориповнинг фалсафий услубига муштарак томонлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: лирика, фалсафа, услуб, консепсия, мактуб.

Шоирлар табиатан бир-бирига ўхшамайди. Уларнинг дунёни тушиниши ва англаши, диди ва

ўлчамлари ҳар хил. Шунинг учун ҳам, улар доимо изланишда, ўзлигини топиш учун ҳаракатга бўлади. XX аср қорақалпоқ лирикасида ўз ўрнига эга шоир Улмамбет Хўжаназаров фалсафасига хос тушунчалардан бири бу – «ўзингни ўзинг англа» асосидаги антропологик фалсафанинг концепсиясидир. Бевосита бу концепсияда «инсон табиати, унинг келиб чиқиши ва мақсади, инсоннинг ҳаётдаги ўрни масаласи асосий масалалардан» ҳисобланади. Бу шоир фалсафасида материяга қарама-қарши абстракт тушунчалар бўлган ўй-фикрлар, ички туйғулар таъсирида «ўзингни ўзингдан излаш» тарзида намоён бўлади. Академик Ж.Базарбаев ҳам: «...фалсафий ўйлаш инсоннинг ўзини ўзи англашидан бошланган» [Базарбаев, 2010: 8] дея таъкидлаб ўтганди. Шоирнинг «Армон», «Ўйлар», «Баланд ҳаёллар», «Жоним суйган нарсага», «Тўхтама, тўхтамагин кўнглим», «Талпинаман яна», «Бази вақтлари» шеърларида мана шу хусусиятларнинг учқунлари кўринади. Мазкур шеърларда лирик субъектнинг дунёга, атроф муҳитга муносабати, мақсад ва ниятларига интилиши, шу йўлдаги лирик субъект ва лирик объектнинг диалектикаси кўзга ташланади. У.Хўжаназаровнинг «Дўстимга мактуб», «Менинг икки дўстим бор» шеърлари «ўзингни ўзингдан излаш» концепсияси асосида ёзилган бўлиб, ўтган асрнинг 60 йиллари қорақалпоқ шеърляти учун янгилик бўлганлиги билан ажралиб туради.

Шоирнинг «Дўстимга мактуб» шеъри [Хўжаназаров, 1976: 31-37] композитсияси икки қисмдан ташкил топган. Биринчи қисмда лирик қаҳрамон дўстини ўйлари билан ўртоқлашишга, дартлашишга чақиради. Унинг бошқаларга ўхшамайдиган характери тарифлай ўтириб, дўстининг ички портретини чизади. Унга кўра, лирик қаҳрамоннинг дўсти иккиюзламачи эмас, сир очмайдиган, шуҳратпаразликдан йироқ. Шу ҳислатлар шеърнинг ҳар бандида «ўхшамайсан» рефрени билан бошланиб баёнланади:

Усамайсан, мен айтсам тағы:

Мәртебесин күсеп баяғы

Кемшиликке жорта ашынған,

Бир бүклемин иште жасырған,

Көпти көрген яр-досларыма,

Кең пейили тар досларыма. (қорақалпоқ тилида)

Шеърнинг иккинчи қисмида эса, лирик қаҳрамоннинг характериға хос белгилар очилиб боради. Масалан, қалбидаги, онгидаги ташвишли ўйларни, одамларға ўз қарашларини яширадиган инсонни қуйидаги шеър сатрларидан пайқаймиз:

Жасыраман мәселен сеннен:

Эрўақ яңлы түсуме енген

Биреўлерди жек көреримди,

Бул дүняға көп көреримди!

Жек көриў хәм жақсы қәсиет

Себеби ол – ықлас хәм ниет

Оянарда болады пайда.

Сонлықтан да алтын сарайда, –

Былайынша «кеўил» делинген, –

Оған мәңги орын берилген. (қорақалпоқ тилида)

Чидамлилик билан ўзини босиб олган, ихтиросларға берилмай, ақл билан иш кўрадиган характер белгисини мазкур сатрлардан сезиш мумкин:

Мине, энди усы кәрада,

Қәтереге түсер араға

Төзимлилик, ақыл-парасат.

Былайынша ойлап қарасақ

Бизлер буған ырза болмаймыз,

Өзимизди мәзи зорлаймыз

Салтанатлы сынды бузбаўға,

Қызатуғын жерде қызбаўға.
Бара-бара буның хәммеси,
Жапсақ яңлы ертели-кеши
Жанымызға батады хәрўақ,
Мийимизге түседи салмақ.
Мине, Достым, усыннан баслап
Жас көкирекке салыр ҳалласлап
Лепирмеймиз, өйткени бизге
Несип еткен болыў тырысқақ,
Ақыл саўашында урыспақ! (қорақалпоқ тилида)

Адабиётшунос Иброҳим Ғафуровнинг таъкидлаганидек: «Мактуб, энг аввал, фикрлашга, атрофга сер солишга, яхши-ямонни танишга, ҳар нарсага мустақил баҳо беришга, ўз фикрига эга бўлишга, кузатувчанликка ўргатади. Шунинг билан бирга, мактуб ёзиш инсон ижтимоий фаолиятининг энг ёрқин кўринишларидан бири» [Ғофуров, 1998: 78]. Ҳақиқаттан ҳам, шоирнинг «Дўстимга мактуб» шеърида Иброҳим Ғафуровнинг фикридаги характерли белгилар кўзга ташланади. Шу хусусиятлар образли гавдалантирилади. Ҳаётнинг ўзгарувчан мавридлари ҳақида кенг масштабда фикрлаш ва мазкур фикрларни кенг қўламдаги шеърда бир композитсияда бир тизимга сола олиш, атроф муҳит билан ички конфликт ва уни образли тасвирлаб бериш Улмаббет Хўжаназаров фалсафасининг теранлиги ва шоирлик маҳоратини кўрсатади. Мана шу услубий хусусиятларни ўзбек адабиётида Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Рауф Парфи каби шоирлар лирикасида ҳам кўрамыз. Масалан, «Абдулла Орипов услубини теран фалсафийлик, шарқона донишмандлик, чуқур лиризм билан белгилаш мумкин» [Давронова, 2019: 229]. Шоирнинг лирик қаҳрамони инсон ҳаётининг ўткинчи эканлигини, унда яшашдан мақсад нима эканлигини англаш мақсадига ўзига саволлар беради:

Нимани ҳоҳлайман? Истагим нима?
Чангалзор шовқинин тинглаб тураман.
Япроқлар бандида кезган жимгина
Маъюс ва безовта кузни кўраман.
Унинг қўшиғида, унинг оҳида
Сезаман одамзод қалбин гоҳида. [Орипов, 1971: 64]

Абдулла Орипов лирикасида ҳам «ўзингни ўзингдан излаш» концепсияси етакчилик қилади. У кўпинча автобиографик, автопсихологик характерда кўринади. Адабиётшунос Адиба Давлатованинг таъкидлашича: «Абдулла Орипов ҳаётидаги ҳар бир ҳолат, йўлида учраган яхши-ёмон воқеалардан ибрат олди. Ҳаёт йўлидаги муваффақиятлар ва йўқотишлар, умид ва ишончсизлик шоир руҳиятида из қолдирди. Шеърларидаги вазминлик лирик қаҳрамон билан шоирнинг бирлигидан дарак беради. Шоирнинг ўзига хослиги фалсафий фикрни асар финалида бериши билан тушинтирилади» [Давлатова, 2021: 113]. Фалсафий хулосани шеърнинг финалида беришга интилиш У.Хўжаназаров лирикасига ҳам таълуқли. Шоир лирикасида фикрлар оқими шеър сўнгида кескин ўзгариб, бирданига фалсафий метафоризатсияланган фикрлар орқали хулоса чиқарилади. Мана шу нуқтаи назардан А.Орипов ва У.Хўжаназаров лирикасида фалсафий фикрларни бериш усулида яқинлик борлигини кўриш мумкин. У.Хўжаназаровнинг «Дўстимга хат» шеъри финали ҳам кутилмаган фикр бурилишида якунланади:

Уйқылайжақпан,
гәптиң ҳағында
Уйқым келмес,
қалған жағында
Хат күтемен сениң өзиңнен,
Сен – өзиңсең,
Мен ҳам – өзиммен. (қорақалпоқ тилида)

Демак, биз таҳлил қилаётган шеърдаги лирик қаҳрамоннинг дўсти – бу унинг ўзидир. Лирик қаҳрамон ўзининг ички портретини бера олиши, ўзи билан ўзи сирлашиши, мазкур сирлашиш ва дартлашиш давомида ўзи яшаб турган муҳит ўртасидаги конфликт натижасида ҳаётда ўз қадрини йўқотмайдиган мангу фалсафий фикрларни баён қилади. Ўтган асрнинг 60 йилларида қорақалпоқ лирикасида инсон руҳий ҳолатини ва фалсафасини бундай услубда бериш У.Хўжаназаровнинг алоҳида ютуғи сифатида таъкидлаб ўтиш ўринлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Базарбаев Ж. Эдеп философияси. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2010.
2. Хожаназаров У. Жылларым мениң. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1976.
3. Ғофуров И. Дил эркинлиги. -Тошкент: Маънавият. 1998.
4. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поетикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Қутбиддин шеърияти мисолида). Филология фанлари доктори (ДСс) илимий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 2019.
5. Орипов А. Руҳим. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
6. Давлатова А. Абдулла Орипов шеъриятида поетик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Тафаккур, 2021.

FAXRIYOR SHE'RIYATIDA VIZUAL TASVIR IMKONIYATLARI

Aziza Eshdavatova,

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada “vizual she'riyat” tushunchasi san'at chorrahasida paydo bo'lgan she'riy ijod mahsuli sifatida ko'rib chiqildi. Shoir Faxriyorning she'rlari misolida ba'zi vizual she'riy tajribalar ta'hlil etildi. Faxriyor XX asr boshlaridagi avangard shoirlari tajribasiga asoslanib, o'z asarlarida vizualizatsiya elementlaridan mustaqil semantik prinsip sifatida faol foydalanmoqda. She'riy matnni vizualizatsiya qilishning turli usullari Faxriyorga turli xil mazmundagi elementlar bilan to'ldirilgan obrazni yaratishga imkon berdi. Ular bir-birini to'ldiradi va inkor etadi, shu boisdan ham yuqori estetik tasvir maydonini yaratadi. She'rdagi vizual tasvir to'liq tushunilganda bir qancha ma'nolarni ochib beradi, keng ma'nolar tarmog'i va parallel ma'nolar vujudga keladi, bu esa she'riy matnning semantik boyligiga olib keladi. Tayanch so'zlar: vizual she'riyat, vizual effekt, rapsodiylar, Faxriyor, Chodirxayol

Zamonaviy she'riyat adabiy matnni vizualizatsiya qilish uchun son-sanoqsiz turli xil vositalardan faol foydalanmoqda. XX asrning o'rtalarida keng tarqalgan vizual she'riyat bugungi kunda juda dolzarbdir. Vizual she'riyat fenomeni xorijiy adabiy doiralarda juda mashhur. Biroq, O'zbek she'riyatida bu turdagi ijodkorlik yaqin vaqtgacha keng tarqalmagan. Vizual she'riyat tadqiqotchilari “vizual she'riyat” atamasining umumiy qabul qilingan yagona ta'rifi kela olmaydilar.

“Poetik atamalar lug'ati”ga ko'ra, “vizual she'riyat - she'riyat va tasviriy san'at chorrahasidagi avangard g'oya mahsuli; matnni tasviriy va semantik ma'nosini kengaytiruvchi grafik elementlar bilan vizualizatsiya qilish. Matn satrlari maxsus shriftlar, belgilar, emblemalar, chizmalar, naqshlar bilan birlashtirilgan va dekorativ tarzda ishlab chiqilishi mumkin” [Onufriev, URL: <http://rifmoved.ru/poet-3.htm>].

Aslida san'atning barcha turlarida vizuallik mavjud. She'rdagi vizuallik ham umumiy uyg'unlikdan ajralmaydi. “Tasviriy she'r grafik she'riyatning bir qismi, degan nuqtai nazar ham bor. Bunday holda shuni tushunish kerakki, grafik she'riyat she'r sifatida qabul qilinadigan asarlarga tegishli bo'lib, ularning maqsadini faqat matn orqali etkazish mumkin emas.” [Anikeeva, Proxorova 2008: 170]. Boshqa tadqiqotchilar vizual she'riyatni multimedia adabiyoti deb tasniflaydi va uni ijro va tarmoq

adabiy tajribalari bilan tenglashtiradi.

So‘nggi yillarda ko‘plab shoirlarning she‘riy namunalari o‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalishlar, janrlar va shakllar sinovini vujudga keltirmoqda. Xususan, A.Qutbiddinning “Tasavvur lahzalari”, “Izohsiz lug‘at”, Aziz Saidning “Tush”, “Yo‘l”, Faxriyorning “Ayolg‘u”, “Bo‘g‘zimdan sirqirar tovush – qon...”, “Oyloq kecha...” kabi she‘riy asarlarini hamda “Muchal yoshi”, “Yoziq” kabi dostonlarni, Bahrom Ro‘zimuhammadning bir turkum she‘rlarini hozirgi o‘zbek she‘riyatining yetuk namunalari deb e‘tirof etish mumkin. Bu she‘rlar shakliy izlanish qilishga, ijodiy tajribalar o‘tkazishga moyilligi, tafakkurda hissiy timsollar yaratishi bilan ajralib turadi.

Faxriyor o‘z ijodida vizual eksperimentlardan keng foydalanadigan she‘riyat olamining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biridir. Vizual she‘riyatning janr yoki yo‘nalish sifatidagi ko‘plab ta‘riflariga qaramay, Faxriyor vizual she‘riyatni - grafik va imlo me‘yorlari ataylab buziladigan she‘riy matn deb bilmaydi, aksincha o‘z misralariga milliylik va qadriyat mezonlarini singdiradi. An‘anaviy she‘riyat mezonlariga ko‘nikkan she‘rxon Faxriyor ijodidagi novatorlikni assotsiativ ravishda anglay olishi uchun ham adabiy bilimga ega bo‘lishi lozim.

“zamon tepkilaydi loyiningni tinsiz
sendan yasamoqqa
she‘r
kitob
uy
sevgi
baxt
baxtsizlikni...” [Faxriyor, 2017: 166]

“Chodirxayol” deb nomlangan ushbu she‘rda, avvalo, diqqat shaklga tushsada, har satrda turgan bitta so‘z ulkan ma‘no yuki bilan berilganini his etish mumkin. Go‘yoki umrning yo‘l xaritasidagi muhim bekatlar kabi... “she‘r, kitob, uy, sevgi, baxt, baxtsizlik...” – har insonning o‘z sayyorasidagi muhim manzillar kabi...

Vizual she‘riyatda asosiy maqsad ikki omilga qaratiladi. Bular: a)ongdagi tasvir, b)hissiyot.

Har ikki omil ham vizuallik orqali ifodalanadi. Bunda o‘quvchi nazari, avvalo shaklga tushadi, shakl esa ongda ma‘lum tasvirni yuzaga keltiradi hamda tasvirning nimaligi va holatiga ko‘ra hissiyot paydo bo‘ladi. She‘rni tushunishda va tafakkur qilishda ana shu hissiyot muhim rol o‘ynaydi. Albatta, she‘rxon bilan shoirning she‘rni anglashdagi falsafasi va bilimi, ayniqsa hissiyotlari bir xil bo‘lmazligi aniq. Chunki vizual she‘rlardagi ifoda vositasi an‘anaviy she‘rlardagi kabi faqat so‘zlar va tinish belgilardan iborat emas. Shoirlar vizuallikni ifodalashda o‘zlarini ko‘pam cheklamaydilar. Turli geometrik shakllar, paralellik, o‘ziga xos belgilar, tarixiy yoki zamonaviy miniaturalar kabi bir qancha vositalardan foydalanish tajribalari jahon adabiyotida ham xususan Faxriyor she‘riyatida ham mavjud. Shoirning “G‘avvos”, “Sezim”, “Bir odam”, “Geometrik bahor”, “Eligiyalar”, “Rondel I, II, III”, “Rapsodiya”, “Bozinger” kabi she‘rlarida vizual tasvirning chuqur badiiy imkoniyatlarini ko‘ramiz. “Rakurs” she‘rini shoir “bir xulosali ikki she‘r” deb izohlaydi. Ushbu she‘r “Izlam” to‘plamida keltirilgan bo‘lib, ikki xil shirftda yozilgan, ya‘ni sahifaning o‘ng tomonidan boshlangan satrlar oddiy shirftda, faqat kichik harflarda yozilgan bo‘lsa, sahifaning chap tomonidan boshlangan satrlar kursivda yozilgan. She‘rda birorta ham tinish belgilari ishlatilmagan. Yakunda sahifa o‘rtasidan xulosa “o‘yinni buzgisi kelmaydi parvardigorning” so‘zlari bilan berilgan. She‘rdagi misralar joylashuvi, yozuv shakli vizual effekt orqali yagona xulosaga kelishga yordam beradi. Ayni chog‘da ikki xil tasvir bilan mohiyatan bitta hissiy zanjir hosil qilish va shu zanjir bo‘ylab yagona xulosaga kelish mumkin. Hayot – o‘yin, bu o‘yinni tashkil etgan va kuzatayotgan Parvardigor bor!

Quyida “Rapsodiya” she‘ridan ham misol keltiramiz:

“umidni bog‘layman tushlarga
xushlarga
qushlarga

bog'langisi kelmas umidning
arqonini uzib qochadi
minilmagan asov ot misli
umidni bog'larga otaman
dog'larga otaman
tog'larga otaman
tog'langisi kelmas umidning
yuragingga alam sochadi
og'u misol achchiq dod misli..." [Faxriyor, 2017: 193]

Rapsodiya yunoncha "rhapsodia" so'zidan olingan bo'lib, doston qo'shig'i degan ma'noni anglatadi. Bunda ma'lum bir doston bayoni ifodalanib, turli epizodlardan tashkil topadi. Rapsodiyalar xalq qo'shiq va kuylariga asoslanadi. Rapsodiyalarni kuylovchilar rapsodlar deb atalgan. Aslida ularning ildizi Gomer dostonlariga borib taqalsada, Yevropa adabiyotida XVIII asrdan o'rganila boshlandi. Bu davrga kelib, rapsodiyalar ma'lum bir kuylarga asoslanib yozila boshlandi. O'zbek adabiyotida taqriban rapsodiyalar – xalq dostonlariga, rapsodlar esa baxshilarga to'g'ri keladi. Faxriyorning ushbu she'ri ham baxshiyona qo'shiq tarzida yozilgan deya olamiz. Sababi misralardagi qofiyalar bir ohang chizig'iga tizilgan, talaffuzda yengil va aniq. "tushlarga, qushlarga, xushlarga/ bog'larga otaman, dog'larga otaman, tog'larga otaman" kabi qofiyalar musiqiy ohangdorlikni bermoqda. Misralardagi ifodaning soddaligi xalq dostonlari uslubini oqlasada, qofiyalarning har biri alohida satrga tushirilishi shakl orqali o'quvchi ongiga vizual-hissiy kayfiyat ta'sirini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Faxriyor ijodidagi yangi shakllar va yangi ifodalar zo'rma-zo'raki emas, balki olamni idrok etishdagi hissiy yangilanish bilan, tuyg'ularning asov ifodasi bilan she'rxonning ruhiga kirib bormoqda. "She'riy satrlardagi asov ruh hech qanaqa qoliplarga sig'maydi, an'anaviy she'riy tizim talablarini, yozuv-imlo qoidalarini tan olmaydi, tinish belgilariga hojat qolmaydi. Mabodo satrlar mavjud qolip-aqidalariga solingudek bo'lsa, aminmanki, ruhiy-hissiy tarovatini yo'qotadi." [Ulug'bek Hamdamov, 2020: 153] O'ylaymanki, Faxriyorning ijodini anglaganlar shoirning o'z ta'biri bilan aytganda "tinsiz, uzluksiz, otsiz bir tuyg'u" bilan yuzlashadi. O'zligini topishga urinadi, izlaydi. Zotan, izlash azobi "topolmaslik singari qadim"dir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Онуфриев В. В. Словарь поэтических терминов в примерах [Электронный ресурс]. URL: <http://rifmoved.ru/poet-3.htm>
2. Аникеева Е. С., Прохорова Л. П. Визуальная поэзия как особый жанр // Вестник Кемеровского государственного университета. 2008. №2.
3. Faxriyor Izlam. – T.: Akademnashr, 2017. – B. 166-193.
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernism. – T.: Akademnashr, 2020. – B. 153.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Т.: Мумтоз сўз, 2014.
6. Йўлдош Ў., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016.
7. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010.

AHMAD A‘ZAM IJODINING O‘RGANILISHIGA BIR NAZAR

Dilbar Hasanova,

O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuvchi, adabiyotshunos, munaqqid, tarjimon Ahmad A‘zam ijodining zamondoshlari va adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilishi, yozuvchining o‘ziga xos ijod yo‘li haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tablil, talqin, obraz, yozuvchining o‘z “men”i, ki*

Iste’dodli yozuvchi, adabiyotshunos, munaqqid va mohir tarjimon Ahmad A‘zam 70-yillarda adabiyot maydoniga kirib kelgan avlodlardan biridir. Ahmad A‘zam o‘z davrining zabardast yozuvchisidir. Yozuvchining “Soyasini yo‘qotgan odam”, “O‘yning gardishi”, “Ming o‘limdan qolib”, “Odamning olasi” kabi hikoyalari, “Gul ko‘tarib ketayotgan erkak”, “Bir kam dunyo”, “O‘zim bilan o‘zim” kabi novellalari, “Hali hayot bor...” “Bu kunning davomi”, “Asqartog‘ tomonlarda” nomli qissalari, “O‘zi uylanmagan sovchi” va “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” nomli romanlari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan. Yozuvchi ijodida o‘z “men” ini anglashga intilish, o‘zligini topishga ehtiyoj, jamiyat va inson munosabatlari kabi mavzular yetakchilik qiladi. Ahmad A‘zam ijodida kinoya unsurlari ham alohida ajralib turadi. Xususan, yozuvchining “Odamning olasi”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov”, “Almisoqdan qolgan Karim”, “Noinsof Muso” hikoyalari qahramonlari kinoyaviy pozitsiyada tasvirlanadi.

Ahmad A‘zam ijodiga doir ko‘plab maqolalar e‘lon qilingan, shunday bo‘lsada yozuvchi ijodi keng monografik planda tadqiq qilingan emas. Yozuvchi ijodi turli rakurslarda kuzatishlar natijasida maqolalarga mavzu bo‘lgan. Xususan, M.Sheraliyeva o‘zining “Ahmad A‘zam hikoyalarida kinoya” nomli maqolasida yozuvchining “Odamning olasi”, “Noinsof Muso”, “O‘yning gardishi”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov” nomli hikoyalarida kinoya va uning yozuvchi asarlarida ifodalanish yo‘sinini tadqiq qilgan. M.Sheraliyeva: “Yuqorida ko‘rib o‘tilgan hikoyalar voqelik va qahramonga munosabat hamda syujet-kompozitsion xususiyatlariga ko‘ra yozuvchining latifanamo tipdagi asarlari bo‘lib, deyarli bir davrda yaratilgandir” [Sheraliyeva, www.ziyo.uz.] degan xulosaga keladi. Kinoya termini Ahmad A‘zam ijodida mahorat bilan tasvirlanganki, yozuvchi jamiyatdagi nohaqliklarga munosabatini asar qahramonlari va mavzusi orqali kinoyaviy tanqid ostiga oladi. Yozuvchi ijodida kinoya yuqori nuqtaga olib chiqilgan va mahorat bilan tasvirlangan.

Mahoratli adabiyotshunos, munaqqid Qozoqboy Yo‘ldosh “Kulgiga esh tasvirlar” nomli maqolasida yozuvchining “O‘zi uylanmagan sovchi” romani haqidagi fikr-mulohazalarini keltirib o‘tish bilan bir qatorda, asarning badiiy tahlil va o‘ziga xos pafosini ham qalamga oladi. Ushbu asar odamlar va ijtimoiy qatlamlararo munosabatlarga sinfiy yondashuvdan qutulgan bugungi o‘zbek adabiyotida fosh qilguvchi emas, balki sof, umidbaxsh kulgiga tabiiy ehtiyojning mahsuli o‘laroq yuzaga kelgan asar deyish mumkin. Adabiyotshunos Q. Yo‘ldosh: “Ushbu asarning bosh xususiyati o‘zbek tayanadigan ma‘naviy oyinlarning qadimiyligi hamda globallashuv tufayli xalqning bugungi turmush yo‘siniga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi tutumlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik va o‘zgachaliklardan tug‘ilayotgan kulgili holatlarni aks ettirishdan iborat” [Yo‘ldosh Q, 2018:318] deya asarning mohiyati va yozuvchining maqsadini ifoda etadi. Romanda Sulton, Dilorom, Nozim, Saodat, Orif, Davlat kabi obrazlar, ularning hayot tarzi asarda bir-biriga bog‘liq holda tasvirlanadi. Asarda muallif personajlarning biror xatti-harakati, o‘yini nazardan qochirmaydi, barcha timsollarning hamma jihatini hisobga oladi. Adabiyotshunos Q.Yo‘ldosh ushbu asarni “Hech kim va hech nima fosh etilmagan, inkor qilinmagan, balki xilma-xil, bir-biriga o‘xshamaydigan, ayni vaqtda bir-biriga juda o‘xshash odamlarning ichki dunyosi ko‘rsatilgan bu kinoroman adabiyotimizdagi o‘ziga xos estetik hodisadir” deya baholaydi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul “O‘ziga o‘zi gapirayotgan odam” nomli maqolasida Ahmad A‘zamning

“Vatan haqida yozolmagan she’rim”, “O’zim bilan o’zim”, “Odamoviga uch yoqlama qarash” novellalarini, “Noinsof Muso”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov” hikoyalarini tahlilga tortadi. Nazar Eshonqul: “Bu novellalarda “men” dan boshqa qahramon yo’q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu “men” ning o’zi, ya’ni o’zi bilan o’zi gaplashayotgan odam” [Eshonqul N, 2014:447] deya yozuvchining ijodiy pozitsiyasini belgilab beradi. Umuman olganda, Ahmad A’zam ijodida o’zi bilan o’zi gaplashayotgan odam obrazi alohida mohiyat kasb etadi. Inson fikrlay boshlar ekan, o’z “men” ini topishga intiladi. Fikr qilish uyg’onishning boshlanishi, uyg’onishning o’zidir. Yozuvchi ijodining keyingi davrida yaratilgan asarlarda bu xususiyatlar yaqqol ko’zga tashlanadi.

Rustam Mannopov “Asqartog’ cho’qqisiga yo’l” nomli maqolasida yozuvchining shu nomli qissasini tahlilga tortadi. Asarning bosh qahramoni Mahdi Ashrapov bo’lib, u Bahri Muhitga ketishga intiluvchi, qalbidagi fikrlar ziddiyati shiddatli tarzda kechgan holda tasvirlangan obraz. Qissada Isrofil aka, Shodi aka kabi obrazlar, Tangir, Hasanboy, Suyun, Haqberdi obrazlar asar kompozitsion qurilishida yetakchi ahamiyat kasb etadi. Asar bosh qahramoni Mahdi Ashrapov atrofida kechayotgan har bir hodisa va insonlar ruhiyatini taftish qilishga, fikr qilishga intiluvchi inson. Qissadagi insonlar taqdiri turfa xil rakurslarda taftish qilish orqali, insonning murakkab qiyofasi ko’rsatib beriladi. Ushbu qissa insonning ko’ngil kechinmalariga intilish, inson ruhiyati qirralarini yoritish, insonning murakkab ijtimoiy va ruhiy qiyofasini yaratish jihatidan alohida ajralib turadi. Zero, adabiyotshunos R.Mannopov ta’kidlaganidek, “Shunday asarlar bo’ladiki, yillar o’tgan sayin qadri oshib boraveradi. Yillar o’tgan sayin o’zing uchunlardan kuch-quvvat, zavq-shavq olaverasan. Asar qahramonlari bilan uzoq yillar hamdard bo’lib yashaysan” [Mannopov, Yoshlik, 2010-yil, 9-son]. Yozuvchi Ahmad A’zamning ushbu qissasi ham xuddi shunday asarlardan biri sifatida inson ko’nglining eng nozik o’y-kechinmalari, inson ruhiy olamining turli murakkab qirralarini yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Ahmad A’zam ijodi, uning o’ziga xos mahorati ko’plab adabiyotshunoslar tomonidan tahlilga tortilgan. Adib ijodida o’zlikni anglashga intilish, inson qalb kechinmalari tarannumi, jamiyatdagi illatlarni kulgiga olishda kinoyadan unumli foydalanish, insonlar, turfa taqdirlar o’rtasidagi munosabatlar qalamga olingan. Yozuvchi ijodida insonni o’z o’zini taftish qilishga intilish, o’z o’zi bilan suhbat qurayotgan inson obraziga ko’p murojaat etiladi. Ushbu maqolamiz orqali yozuvchi ijodining turli qirralari maqolalarda tahlilga tortilganligiga e’tibor qaratishga harakat qildik. Yozuvchi qalamga olgan mavzular o’z davri, nafaqat o’z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo’qotmaganligi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul N. Mendan “men” gacha. – T.: Akademnashr, 2014. – B. 447.
2. Mannopov R. Asqartog’ cho’qqisiga yo’l. – T.: Yoshlik, 2010-yil, 9-son.
3. Sheraliyeva M. Ahmad A’zam hikoyalarida kinoya. www.ziyo.uz.
4. Yo’ldosh Q. So’z yolqini. – T.: G’ulom NMIU, 2018. – B. 318.

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ASARI SYUJETIDA BADIY TASVIR VOSITALARI

Charos Shomurotova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” asarining tasviriy vositalari tahlil ostiga olingan. Badiiy adabiyotda adabiy shaklning yuzaga chiqishiga sabab bo’luvchi va unga adabiy mazmunni yuklovchi tasvir vositalari mavjud bo’lib, bular plastik tasvir vositalari ham deb nomlanadi.

Plastik tasvir vositalari syujetni jonli va haqqoniy, izchil va qiziqarli bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada romandagi badiiy tasvir vositalaridan uslub, badiiy psixologizm, obraz haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *uslub, obraz, badiiy psixologizm, Alisher Navoiy, plastik tasvir, syujet, qahramon, yozuvchi.*

Badiiy asar tirik va harakatlanayotgan organizm hisoblanadi va bu organizm ma’lum bir shakl asnosida o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Shaklning yuzaga chiqishiga esa har doim ma’lum bir vositalar zarurdir. Zero, ma’lum vositalarsiz shaklning aniq qiyofasini ko‘rish va anglash mumkin emas. Ayni shu jihatga ko‘ra badiiy asarni to‘liq shakllantiruvchi, undagi voqelik va syujetni, kompozitsiyani ko‘z oldimizda gavdalantiruvchi vositalar mavjud. Badiiy adabiyotda adabiy shaklning yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi va unga adabiy mazmunni yuklovchi tasvir vositalari mavjud bo‘lib, bular *plastik tasvir vositalari* deb nomlanadi. Plastik tasvir vositalari syujetni jonli va haqqoniy, izchil va qiziqarli bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. “Eposning spetsifik xususiyati – voqeabandlik, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so‘z vositasida o‘quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to‘laqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagiga monand, o‘zining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham eposdagi badiiy voqelik plastik tasvirlangan deb aytiladi” [Quronov D. 2010: 310]. Demak, eposda muallif rassom singari voqelikni, obrazlarni, holatni, qiyofalarni aniq tasvirlab, chizib, turli vositalar asnosida ranglantirib bo‘yab, o‘quvchining ko‘z o‘ngida konkret holda namoyon qiladi.

Badiiy tasvir vositalari. Asardagi plastiklikni ta’minlashda badiiy tasvir vositalarining o‘rni nihoyatda muhim. Aslida badiiy tasvir vositalari asarning bezagi, badiiy ziynatidir. Ular syujetning badiiyligini ta’minlaydi, kompozitsiyani yaxlitligiga xizmat qiladi. Badiiy tasvir vositalari anchayin ko‘p va ularning funksiyalari ham turlichadir. Muallif ulardan maqsadli va o‘rinli foydalana olishi nihoyatda muhim masala. “Tasviriy-ifodaviy vositalar nihoyatda ko‘p. Ular orasida arxaizm va neologizmlarni, jargonizm va professionalizmlarni, varvarizmlarni alohida-alohida ko‘rib o‘tish zarur” [Xudoyberdiyev E. B.98]. “Alisher Navoiy” romani tarixiy roman ekanligini inobatga olgan holda, dastavval, undagi arxaizmlar masalasiga to‘xtalish lozim. Isajon Sulton asarda arxaizmlardan faol foydalanadi. Asar tili o‘z davriga muvofiq tarzda yaratiladi. Arxaizmlar o‘zida *davr, ijtimoiy muhit, tilning umumiy va individual xususiyatlarini* aks ettiradi. Isajon Sulton boy badiiy tilga ega. Shu sabab u asarda arxaizmlarni nihoyatda o‘rinli tarzda qo‘llagan holda, bir necha asr oldingi millatning turkiy tili badiiyati va imkoniyatlarini ko‘rsatib bera oladi. Qolaversa, arxaizmlar asarda asosan saroy hayotini, ma’lum ijtimoiy qatlam nutqini ifodalashga xizmat qiladiki, bu holat muallifga ma’lum qiyinchiliklarni tug‘dirishi tabiiy holdir. Qolaversa, millatning ulug‘ shoiri, turkiy tilning asoschi bo‘lmish Navoiy nutqida arxaizmlarni o‘rinli qo‘llashning o‘zi yetmaydi. Ularni buyuk shoir nutqi, ifoda uslubi va salohiyatiga munosib tarzda qo‘llay olish nihoyatda muhim jarayondir. Shu sabab ham Isajon Sulton bunga nihoyatda jiddiy yondoshadi va arxaizmlar masalasiga alohida qarab ularni asardagi eng muhim badiiy tasvir vositasiga aylantiradi. Muallif odatda, barcha uchun tushunarli bo‘lgan, u qadar murakkab bo‘lmagan arxaizmlardan foydalanishga harakat qiladi: *Elning turli kentlarida, yozlog‘u qishloqlarida, uluslarida yashiringan, namoyon bo‘lishni istagan behisob so‘zlari birin-ketin tizilishib, arab-u fors kalimalari ila qavm-u qarindoshlar kabi saf-saf, yelkama-yelka, goh quchoqlashib, goh o‘tirishib, goh tizilishib, bayt-u g‘azal shaklida ma’nolarni hosil qilishardi.* Asardagi badiiy parchadagi arxaizmlar bugungi kunda ham to‘liq iste’moldan chiqib ketmagan. Faqat ularning sinonimlari ko‘proq iste’molda bo‘lib, kent, kalima kabi arxaik so‘zlar o‘zining dominantlik xususiyatini yo‘qotgan. Aslida: “Haqiqiy san’atkorlar arxaizmlardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanadilar, chunki eskirgan so‘z va iboralami haddan tashqari ko‘p qo‘llash badiiy asarning kitobxonga tushunilishini qiyinlashtirib qo‘yishi mumkin. Odatda, yozuvchilar arxaizmlardan imkoni boricha kam foydalanishga, ishlatganlarida ham o‘zlariga zamondosh bo‘lgan kitobxonga tushunarlarini topib qo‘llashga harakat qiladilar” [Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.B.102]. Isajon Sultonning romanida ham ayni shu prinsipga

guvoh bo'lishimiz mumkin. Yozuvchi imkon qadar o'quvchining diqqatini syujetdan boshqa narsaga chalg'itmaslikka, butun diqqatini asar voqeligiga qaratishga intiladi. Shu sabab ham arxaik so'zlardan foydalanish masalasiga alohida e'tibor bilan yondashadi. Faqat arxaizmlarga diqqatini qaratib asarning badiiyatini ham yo'qqa chiqazmaydi. Arxaizmlarni badiiylikka xizmat qildiradi va syujetning o'ziga xos plastik unsurini ko'rsatib beradi. Ammo tarixiy asarlarda har doim ham arxaik so'zlardan qochish o'zini oqlayvermaydi. Shunday o'rinlar mavjudki, syujetning liniyasidagi voqelikni mukammal tarzda aks ettirish uchun ham ba'zan bir qadar murakkabroq arxaik so'zlardan foydalanishga jazm qiladi. Asardagi quyidagi badiiy parchaga ahamiyat qarataylik: *Navoiy xizmatchilarning yillik qiladigan ishlarini ham birma-bir aniqlab chiqqan ekan, shularni bayon qildi. "mutavalli har yil yuz po'stin, yuz kapanak, yuz bo'rk, yuz kafsh, yuz ko'ylak, yuz tunbon sotib olib, har qaysini munosib tarzda ikki mudarris ittifoqi bila ehtiyoji borlarga ulashsin."* Bu o'rinda ba'zi so'zlar anchayin tarixiy bo'lib, bugungi kunda o'z iste'mol funksiyasini yo'qotgan: mutavalli, kapanak, tunbon. Ammo asarda muallif bu so'zlarga hech qanday izoh bermaydi, lug'at sifatida ham kiritmaydi. Yozuvchi nazdimizda, bu so'zlarni har bir kitobxon bilishi kerak degan mezon bo'yicha baholaydi. Shu tariqa arxaizmalar romanda muhim plastik unsurlardan biri sifatida syujet rivojida muhim o'rin tutadi.

Yozuvchi peyzaj yaratish jarayonida musavvirga aylanadi. Boisi tabiat tasvrini yetkazib berish, uni kitobxon ko'z o'ngida gavdalanitirish uchun roviy bo'lishning o'zi yetmaydi. Romanda ayni jarayon kuzatiladi. Musavvir ijodkor tabiat ranginliklari asosida syujetni boyitadi, voqelikni muayyan asos bilan harakatga keltiradi va plastik unurning badiiy kuchini ifoda etadi.

Obraz. Obraz asarning chinakam badiiyatini ko'rsatadigan plastik elementdir. Obraz tasvirlanar ekan, shu bilan bir qatorda u syujetni tasvirlashga ham xizmat qiladi. Ayni shu sabab uning badiiy funksiyasi ikki karra ortadi. Tarixiy romanlardagi bosh qahramonlar ko'pincha tarixiy konkret qiyofa va xarakterga ega shaxslardir. Ularni boshqa asarlardagi obrazlardan farqli qilib yaratish ijodkordan ma'lum saviya va badiiy tayyorgarlikni talab etadi. Zero, obraz tarixiy ideal bo'lishi barobarida estetik vazifani ham bajaruvchisidir. Yaxshilik va yomonlik tendensiyasi obrazlar va ularning harakatlari orqali konkretlashadi. Obrazlar asar syujeti davomida qaysidir ma'noda kamolga yetib boradi va mukammal qiyofa kasb etadi. Ularning badiiy jihatdan takomilga yetishi uchun ma'lum adabiy elementlar zaruriy hodisadir:

- ✓ g'oyalar;
- ✓ konfliktlar
- ✓ hissiy jarayolar va h.z.

Ayni shu vositalar obrazlarni xarakter sifatida shakllantiradi va ularga estetik vazifa yuklaydi. Tarixiy obrazlarga estetik vazifani yuklash ma'lum ziddiyatlar asnosida yuzaga keladi. Sababi "... taraqqiyot ziddiyatsiz bo'lmaydi, ziddiyatlar esa hayotda inon xarakteriga bog'liqdir. Demak, zo'r hayotiy xarakterlar mavjud bo'lgan joyda zo'r to'qnashuvlar, davr taraqqiyotini belgilovchi zo'r konfliktlar, kurashlar, "g'oyalar dramasi" mavjuddir" [Ėкy6ов О. 2019:150.]. Shu jihatdan "Alisher Navoiy" romanida qahramonlar ziddiyatlar ichida tasvirlanadi. Bu ziddiyatlar faqatgina bir necha shaxslar o'rtasida emas, balki shaxs va jamiyat, shaxs va uning o'zligi o'rtasida vujudga keladi. Natijada obrazlar reallashadi, ularning plastikligi ortadi. Aslida obrazni har bir o'quvchi o'z tafakkuri, o'z xayolot kelib chiqqan holda tasavvur qiladi. To'g'ri, muallif obrazning portretini yaratadi, uning ichki va tashqi olamini chizib berishga, so'z vositasida yaratishga urinadi. Shunga qaramay, har bir o'quvchi obrazni o'zicha yaratadi, hech kimning xayolida obraz ayni bir xil shaklda qad rostlamaydi. Shu jihatdan obraz boshqa plastik elementlardan farqlanib turadi. Ya'ni, u tasavvurda mustaqil holatda yaratiladi va individuallikka ega. Demak, plastik elementlar orasida har bir o'quvchi uchun yagona individuallikka ega unsur bu obrazdir. Birgina Alisher Navoiy obrazini minglab kitobxon minglab qiyofada xayolida gavdalanitiradi. Bu ham o'z-o'zidan muallif mahorati va iqtidoriga borib taqaladigan jihatdir.

Obrazlar o'zida bir necha jihatlarni aks ettiradi:

- ✓ his-hayajon;
- ✓ tarbiyaviy maqsad;
- ✓ uslub;

✓ ijtimoiylik

Ayni shu jihatlar umumlashgan holatda obrazlar chinakam badiiy adabiyot namunasiga aylanadi va adabiyotda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Obraz o‘zida yoki nafratni, yoki muhabbatni, yaxshilik va yomonlikni, yozuvchining mukammal uslubini, davrning qiyofasini ko‘rsatib turadi. Barcha obrazlarda ham ayni jihatlar yaqqol ko‘rinmagani bois ularning yashovchanligi uzoqqa cho‘zilmaydi. “Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratib, shu orqali mahoratini namoyon qiladi. Chunki ana shu hayot tasvirlari natijasida odamlarning yashash tarsi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlari ko‘rsatib beriladi. Bu esa badiiy asar syujetidan o‘rin olgan barcha voqealar silsilasida harakat qiluvchi xarakterlarni yuzaga chiqaradi” [Rahimov Z. 2022:15]. Natijada xarakterlar muhim plastik unsur sifatida asarning mukammalligini ta‘minlaydi. Obrazlar asar mobaynida xarakter darajasiga ko‘tarilar ekan, ularning syujetdagi ahamiyati ortib boradi. Natijada syujet va xarakter mutanosibligi, yaxlitligi yuzaga keladi. Birgina obraz asardagi eng katta plastik unsurga aylanishi va syujet rivojini ham boshqara borishi mumkin. Shu sababga ko‘ra plastik elementlar orasida xarakterga aylangan obrazlar voqelikni o‘zida jonlantirishda eng muhim manba vazifasini o‘taydi.

Bir so‘z bilan aytganda, yuqorida biz tahlil qilgan plastik elementlar yozuvchi tomonidan tanlangan va yaratilgan eng muhim vositalar bo‘lib, ular syujetning badiiy mukammalligini ta‘minlaydi. “Aslini olganda, san’atkor niyatining ro‘yobga chiqish darajasi, obrazlar mohiyatini ochishning chuqurligi, g‘oyaning aniqligi, umuman, badiiy asrning yaxlitligi, o‘qishliligi va badiiy-estetik kuchi ko‘p jihatdan syujet va kompozitsiyaning mukammalligi, mazmunga qay darajada muvofiqligi bilan bog‘liqdir. Asar syujeti va kompozitsiyasi yaxlit bo‘lishi uchun yozuvchi-san’atkor borliqdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur idrok etishi kerak”. [Раҳимов А. 2015:8]. Aynan shularning barcha-barcha hatto, plastik unsur darajasiga olib chiqilishi mumkin. Bu holat muallifning badiiy maqsadi va tanlovi o‘laroq yuzaga chiqadi.

Plastik elementlarda muallifning tafakkur tarzi o‘z aksini topadi. Ular voqelikni o‘zida aks ettirish jarayonida kitobxon tafakkuri bilan uyg‘unlashib boradi. Plastik unsurlarni yozuvchi tanlaydi va yaratadi. Ammo voqelikni o‘quvchi o‘z ongida yaratadi. Bu voqelik qaysidir o‘rinlarda muallifniki bilan uyg‘un bo‘lsa, qaysidir o‘rinlarda muallif va kitobxon tasavvuri tamoman farqli xususiyat kasb etadi. Eng muhimi, bu jarayonda syujetning izchilligi, qiziqarliligi va badiiy mukammalligi ta‘minlanadi. Plastik elementlarni xayolida mukammallashtirgan ijodkor keyin uni syujet tarkibiga olib kiradi va uning ajralmas qismiga aylantiradi. Ayniqsa, tarixiy voqelikni yaratish va uni kitobxon shuurida gavdalantirish plastik elementlarsiz yuzaga chiqmaydi. Yozuvchi o‘z dunyoqarashi va iqtidoridan kelib chiqqan holda o‘nlab plastik elementlarni syujet tarkibiga olib kirishi va syujetning mukammalashuviga erishishi mumkin.

Uslub. Uslub o‘quvchiga yozuvchini tanishtiradi. Chinakam san’atkor o‘z uslubi orqali badiiy asar betakrorligi va individualligiga erishadi. Uslub keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning funksiyalari keng va originallikka egadir. Bir ijodkor uslubiga xos bo‘lgan qirralar boshqa ijodkor ijodida takrorlanmaydi. “Demak, uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilish, ularning qalbidagi haqiqatni kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (o‘ziga xos) tarzda yaratish san’atidir” [Умров Х. 2002:236]. Ko‘ringanidek, uslubning funksiyasi individuallikka ega va ayni shu jihatiga ko‘ra uslub originallik mahsulidir. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida ham yozuvchi uslubiga xos originallik va individuallik bir qancha jihatlarida ko‘rinadi va ular alohida tadqiq obyekti bo‘lib xizmat qila oladi. Isajon Sultonning romanidagi uslubga xos bo‘lgan eng birinchi jihat mushohadalar, bayon tarzidagi *yoyiqlik, kenglik, falsafiylikdir*. Muallif o‘z bayon tarzini nihoyatda sekinlik bilan, keng qamrovda ko‘rsatib beradi. Mushohadalarining shoshilmasdan, izchil bayon etilishi hatto varoqlab cho‘zilgan o‘rinlarga ham asar mobaynida guvoh bo‘lamiz. Bu holat qaysidir ma’noda Oybek nasriga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham yodimizga soladi. Ammo uslubdagi pafos Isajon Sulton uslubining individualligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Demakki, yozuvchi uslubida yoyiqlik, kenglik bilan bir qatorda pafos, badiiy shukuh ham uyg‘unlashadi va uslubning originalligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ammo yozuvchi sun’iylikdan qochadi, o‘z mushohadalarini majburiy tarzda orttirib,

bo'rttirib tasvirlamaydi. Bu holat asar badiiyatiga zarar yetkazishini yaxshi anglaydi. Ayni shu o'rinda yozuvchi uslubning shaklning emas, balki badiiyat va mazmuniy betakrorlikning ko'rinishi sifatida ko'rsatib beradi. Uslub yozuvchi dunyoqarashining ifodasi va mahsuli hamdir. Bu "Alisher Navoiy" romanida yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyoqarashning betakrorligi uslubning ham betakrorligini ta'minlaydi, individuallikni namoyon etadi. Zero, "agar badiiy tafakkur tarzini anglatuvchi metod gneseologik (ya'ni badiiy bilish bilan bog'liq) kategoriya bo'lsa, uslub antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq bo'lib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Ya'ni uslub badiiy shaklning unsuri emas, unga xos xususiyatdir" [Quronov D. 2018:448]. Shu o'rinda yuqorida ta'kidlagan fikrlarimizga qaytishga to'g'ri keladi. Badiiy asar ma'lum organizm bo'lsa, bu organizmni hosil qiluvchi shakllar mavjud degandik. Demak, shaklning muhim badiiy xususiyatlaridan birini uslub tashkil etadi. Romanda uslub eng muhim plastik element sifatida namoyon bo'larkan, uslubning Isajon Sulton ijodiga xos bo'lgan bir qancha jihatlari ko'zga tashlanadi. Yoyiqlik, kenglik, pafosdan tashqari tilning o'ziga xosligi ham yozuvchining o'ziga xos ijodiy va uslubiy qirrasini ko'rsatib beradi. Yozuvchi tarixiy roman yaratish jarayonida tarixiy tilning muhim element ekanligini yaxshi anglaydi va bu masalaga alohida e'tibor qaratadi. Aslini olib qaraganda "adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz muzika bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi" [Sharafiddinov O. 1989:164]. Badiiy asar tili uslubni yuzaga keltirar ekan, eng avvalo, o'zida muallif individualligini ham aks ettiradi. Tarixiy roman tilini yaratish, unda yozuvchi qirralarini aks ettirish qiyin jarayon. Bu jarayonda muallif arxaizmga alohida e'tibor qaratadi. Arxaizm davrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini, muhitni o'zida aks ettiradi. Xuroson muhiti, saroy qatlamining tili, oddiy aholi foydalanadigan nutq, hududlarga ko'ra farqlanuvchi dialekt, lahjalardagi o'ziga xoslik – bularning barchasi muallif nazaridan chetda qolmaydi, ularning har biriga yozuvchi sifatida professional darajada yondashadi va badiiy asar tilining o'ziga xos tarzda uslubni namoyon qilishiga erishadi. Boisi, "tarixiy asarda davr ruhi, qahramonlarning o'ziga xosligi badiiy tilda yarq etib ko'zga tashlanadi. Til – xalq xazinasi. Har bir san'atkor shu xazinadan o'z ehtiyoji va mahoratiga ko'ra foydalanadi. So'z o'z o'rnida ishlatilsagina, uning "yuragi" ura boshlaydi. Birgina so'z bir kartinani, voqeani, qahramon ichki dunyosini nurlantirib yuborish, yozuvchi munosabatini bildirishi mumkin" [Расулов А. 2007:192]. Yozuvchi ayni shu holatga, so'zning yuragini urdirib yuborishga intiladi. Badiiy asar tilini o'ziga xosligini ta'minlash uchun eng avvalo, badiiy bo'yoqdorlikka alohida ahamiyat qaratadi. Asarda ijobiy va salbiy qahramonlar qiyofasi, nutqi, holatini tasvirlashda so'zning sinonimlariga tayangan holda vaziyatga muvofiq tasvir yo'nalishini topadi: *Majididdin kayfi chog', o'zicha bir kuyni po'ng'illab sahnini aylanib yurdi, gobida iljayib ham qo'yardi*. Ayni shu o'rindagi po'ng'illab va iljayib so'zlari obrazning xarakterini, qiyofasini ochib berish barobarida, muallifning ijobiy va salbiy qahramon yoxud holat uchun qanday usuldan foydalangan holda asar tilini shakllantirishini ham ko'rsatib beradi. Iljaymoq va po'ng'illamoq kabi ifodalar qahramon qiyofasini ochib berish uchun so'zlar ichidan tanlangan eng maqbul sinonimlar sifatida yozuvchi tomonidan tanlanadi. Aslini olib qaraganda juda ko'p asarlarda salbiy holatni aks ettirish uchun so'zlarning salbiy bo'yoqdorlikka ega variantini qo'llash odatiy hol. Ammo Isajon Sulton asarida muallif an'anaviy usulga yangicha xususiyat qo'shadi. Ya'ni har qanday holat va har qanday qahramon nutqini badiiy ziynatlagan holda ko'rsatib beradi. Ularni quruq so'zlar yordamida gapirtirmaydi, yoxud voqelikni quruq tasvirlashdan qochadi va badiiy pafosni kuchaytiruvchi elementlarni qo'shadi. "Alisher Navoiy" romanida badiiy til ikki qatlam nutqi holatida namoyon bo'ladi:

- ✓ muallif nutqi vositasida;
- ✓ qahramonlar nutqi orqali.

Yozuvchi har ikki qatlam tilini ham quruq nutq orqali gapirtirmaydi. Ulardagi tilning namoyish bo'lish holatini san'atga aylantirishga harakat qiladi. Zero, "Asar tili yozuvchi mahoratining bosh mezonini hisoblanadi" [Solijonov Y. B:4]. Tilning o'ziga xosligi plastik tasvirning aniq va jonli namoyish bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi va badiiy asardagi eng muhim plastik element sifatida bo'y ko'rsatadi. Bu romanda plastik elementlar uslubni, uslub esa davrni o'zida istifoda etishga yordam beradi.

Badiiy psixologizm. Plastik elementlar badiiy asarning mukammalligini ta'minlashga xizmat

qiladi. Har bir muallif plastik elementlarni turlicha tanlaydi va qo‘llaydi. Muallif yondashuvi va qarashlari o‘laroq plastik elementlar asarning jonliligini ta‘minlaydi, voqelikni gavdalandiradi. Bir so‘z bilan aytganda plastik elementlar yozuvchining mo‘yqalamidir. Mo‘yqalamlar qanchalik ko‘p va rang-barang bo‘lsa, rassom yaratgan asar shunchalik yorqin va betakror bo‘lgani singari, plastik elementlar asarda qanchalik turfa xillikka ega bo‘lsa, asar shunchalik badiiy jihatdan mukammallik kasb etadi. Isajon Sulton ayni shu holatga alohida e‘tibor qaratadi va asarda badiiy psixologizmning o‘ziga xos tarzda aks etishiga yordam beradi.

Bilamizki, adabiyotda psixologizmning uch prinsipi mavjud: *analitik prinsip, dinamik prinsip va sintetik prinsip*. Ularning har biri turli holatlarda yuzaga chiqadi va mualliflar qahramonlarning turli holatdagi ichki tuyg‘ularini ochib berish uchun qo‘llashadi. Psixologizmning analitik prinsipida qahramon his tuyg‘ularining tasvir va ifodasi yetakchilik qiladi, qahramon o‘y-fikrlar, turlicha hissiy kechinmalar girdobida tasvirlanadi. Dinamik prinsipda esa, qahramon ruhiy olami uning xatti-harakatlari orqali namoyonbo‘ladi. Ya‘ni qahramon xatti-harakati, qiyofasi uning ichki dunyosini belgilab beruvchi muhim omil sifatida yuzaga chiqadi. Sintetik prinsipda esa analitik va dinamik prinsip o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Garchi “Psixologizmning dinamik va analitik prinsiplari garchi bir-biriga qarama-qarshidek tuyulsa-da, lekin, ularni o‘zaro zid qo‘yish ham noo‘rindir. Bu prinsiplar ba‘zi romanlarda uyg‘unlashgan, qo‘shaloqlashgan holda ko‘zga tashlanadi. Bunday asarlarda qahramonlarning ruhiy dunyosi ularning xatti-harakatlari, qiyofalari orqali yechilishi bilan birga, ayni paytda, shu qahramonlarning fikr va hissiyotlari dialektikasi oqimi va rivoji ham beriladi. Bu xil romanlarda psixologizmning bu ikki prinsipi dialektik birlikda tahlil etiladi. Bu psixologizmning sintetik prinsipidir” [Umurov H. 2010:51].

Har bir badiiy asarda psixologizmning qaysidir prinsipi yaqqol dominantlikka ega. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida analitik prinsip yetakchilik qiladi. Bu prinsipning yorqin namunasi o‘zbek romanchiligida birinchi bor Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida kuzatiladi. Bunday asarlarda “voqealar tafsilotining tasviriga nisbatan “his-tuyg‘ular tafsiloti” tasviri birinchi o‘ringa chiqadi. Qahramonning ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o‘zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kechinmalarning rivoji va oquvchanligi keng tahlil etiladi” [Umurov H. 2010:49]. Isajon Sulton ham his-tuyg‘ular tasviri birinchi planga olib chiqadi va psixologizmning bu prinsipi orqali voqelikni o‘ziga xos tarzda aks ettirishga erishadi. Yozuvchi analitik prinsipdan quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanadi:

- qahramonlar olamini mukammal tarzda tasvirlash uchun;
- ijtimoiy va siyosiy voqelikka munosabat bildirish uchun;
- badiiy ta’sirchanlikni ta’minlash uchun;
- syujetning izchilligiga erishish uchun.

Ko‘ringanidek, muallif analitik prinsipni qo‘llar ekan, o‘z oldiga ma’lum badiiy maqsadni qo‘yadi. O‘quvchining o‘y-fikrini ham o‘zi ko‘zlagan maqsad tomon yo‘naltirishga erisha oladi: *Ha, inson ham qush kabi, hayotdan mamotga qarab uchgaydir. Kunlar-u tunlar, oylar almashar ekan, hayoti davomida o‘langu yaylovlarda don-dun tera-tera, subhu shomlar sayroq nolasi ila Parvardigorga iltijolar qila-qila, omonat inlar qurib, polapon ham ochadi. Bunchalar sodda hayot aro qusblarning turli-tuman yaratilishi, rang-u tuslarining va har birining sayrog‘ining o‘zgaligi insonlarni tamsil etib turmoqdadir. Zohir shundaydir, botinda esa jon qushi ham bordir, kishi jismida chirqillab turgaydir. Uning uchar manzillari tamom ila boshqa, xayol yetmas yuksaklardadir...* Bu fikrlar muallifga tegishli bo‘lib, uning inson, hayot, olam haqidagi o‘ylarini aks ettiradi. Insonning hayotdan mamotga qarab uchishi tasviri beixtiyor o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanadi, yozuvchi ruhiyatidagi tebranishlar, boshidagi o‘ylar kitobxon qalbiga ko‘cha boshlaydi. Hayotning o‘tkinchiligi haqida ko‘p bora eshitgan kitobxon jism ichida chirqillayotgan jon qushini ko‘rgandek, shuning bilan bir qatorda hayotning qadrini anglagandek bo‘ladi. Anologik prinsipning eng maqbul tomoni asardagi ruh, kayfiyat (xoh u muallifga tegishli bo‘lsin, xoh obrazlarga) o‘quvchi ruhiga ham ko‘chib o‘tadi. Qolaversa, asardan keltirilgan bu parcha *badiiy ta’sirchanlikni ta’minlash uchun* ham xizmat qiladi. Bu jihat asar badiiyatining va shu

bilan bir qatorda mazmun-mohiyatning ham individualligini ta'minlaydi. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, analogik prinsipdan o'rinli foydalanish eng muhim qoidadir. Agarda psixologizm prinsiplaridan (qaysi bir prinsip bo'lmasin) noo'rin foydalanilsa, badiiy asar saviyasiga nihoyatda katta darajada zarar yetadi. Bu holat ortiqcha shakl o'rttirishga intilish kabi taassurot qoldiradi. Sun'iy o'rttirilgan fikr-mulohaza kitobxonni zeriktiradi, qahramonlar badiiy nutqini ta'sirchanligini o'z-o'zidan kamaytiradi. Ayniqsa, analitik prinsip qo'llanishi jihatidan nihoyatda mushkul va yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Analitik prinsipni o'z o'rnida qo'llay olmaslik, unda ortiqchalikka berilish zerikarli roviylikni yoxud keraksiz va quruq maslahatgo'ylikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu jihatdan Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida aslida psixologizm masalasi anchayin chuqur va hatto alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganishni taqazo etadi. Bizningcha asar davomida ba'zan qisqagina ifodalash mumkin bo'lgan hikmatli fikrlar sun'iy tarzda cho'zib yuboriladi va bu kabi holatlar o'quvchini bir qadar toliqtiradi. Ammo asardagi voqealar ketma-ketligi va syujet liniyasining izchilligi asardagi bu kamchalikni yopib ketadi va o'quvchining e'tiborini o'zida olib qola oladi. Bu kabi holatlar asosan, she'riy misralar tahlilida kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: 2010. – B.310.
2. Умуров Х. Адабиёт назарияси. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 236.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 448.
4. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B.164.
5. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.192
6. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Том 1.: Гештальт и действительность. Шпенглер О. пер. с нем., вступ.ст. и примеч. К.А.Свасьяна. – Москва: Мысль, 1993. – С. 663.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Fan, 2010.
8. Ёқубов О. Сўз. – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2019. – Б.150.
9. Z. Rahimov. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi. – Farg'ona, 2022.
10. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015.

BEHZOD FAZLIDDIN LIRIKASIDA BADIY DETALLAR POETIKASI

*Muhammadqodir Toshpo'latov,
JDPU o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
I bosqich magistranti*

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy detal mohiyati va badiiy funksiyasi shoir Behzod Fazliddin she'riyati misolida tahlil qilingan. Lirik she'riyatda tafsillarning ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *detal, obraz, poetik unsurlar, badiiy kodlanganlik, konkretlik, lirika.*

Badiiy adabiyot katta va kichik obrazlar, poetik unsurlar ortidagi ulkan hayot polotnosidir, hatto birlik va yoki uchlik she'rlarda ham buyuk ma'nolar, tuyg'ular, voqeliklar o'zini namoyon etishi mumkin. Boisi birgina hassos so'z vositasida ijodkorning ko'ngil mulkidan kitobxon qalbi tomon yo'l ochiladi.

Badiiy asar, alalxusus, she'r badiiy qo'rg'on o'laroq idrok etilsa, bir qancha muhim birliklar uning tashkillanishida, ifoda planida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi adabiyottanuv mutaxassislari tomonidan ko'p marotaba ta'kid etiladi. Bu jihat e'tibori nuqtayi nazaridan olib qaralganda, badiiy

detalning badiiy asar kompozitsiyasida butun mohiyat ochqichi ekani ilmiy-nazariy manbalarda qayd qilinadi: “Badiiy asar kompozitsiyasida detallar muhim ahamiyatga ega. Detaillar asar mazmunini ochishda, asarni konkretlashtirishda hamda asarga tabiiylik, jonlilik, haqqoniylik baxsh etishda yordam beradi. Hatto bir detal orqali she’rning butun mazmuni yoritiladi” [Davronova, 2019: 22]. Adabiyotshunoslikda tafsil (detal)ni “san’atning eng kichik (miniatyur) modeli” (S.Dobin) sifatida ta’riflash an’anasi mavjud. Xususan, ruh evrilishlari eksperimentini ifoda yo’sinlarining an’anaviy tamoyilida ham yetuk namoyon etgan shoir Behzod Fazliddin she’riyatida badiiy detal katta yukka egadir. “...badiiy asarda topilgan va o’rinli qo’llanilgan kichik bir detal butun asarning g’oyaviy-badiiy barkamolligini ta’minlashda katta ahamiyatga egaligi” nuqtayi nazaridan Behzod Fazliddinning lirik she’riyatini tadqiq qilish tahlilning mohiyatini tashkil etadi.

Tabiatan ko’z ilg’amas ayrim unsurlar badiiy adabiyotda poetik detal sifatida istifoda etilarkan, o’z maqomidan yuksakroq darjdagi ma’nolarning ifodasi, anglami sari yo’l ochadi. Bu tafsillar o’z navbatida turli rakurslardan qaralganda turfa xarakterlarda, turlicha shakl-shamoyillarda namoyon bo’ladi. Ayniqsa, lirikada badiiy tafsilning qo’llanilishi his-kechimplarning vizuallik kasb etishida, assotsiativ fikr uyg’otishida muhim rol o’ynaydi. Lirikada ularning poetik ifodasida asosiy kategoriyaga aylanadigan ramziylik lirik obrazning u yoki bu jihatini yanada yaqqol aks ettirishi uning she’riy sathdagi muqim o’rnini ko’rsatadi. “...lirik tafsil umumiy va murakkab tushunchalarning alohida-alohida qirralarini aniqlashtirgan holda yagona umumiy tushuncha yoki tasavvurni vujudga keltirishga xizmat qiladi” [Mirzayeva, 1994: 10]. Shoir she’rlarida poetik tafsillar maqomida, xarakterida shu qadar o’ziga xosliklar mavjudki, ular ifodalanish tarziga ko’ra, yashirin va oshkor ravishda o’zaro dialektik munosabatni yuzaga keltiradi, ya’ni detallarning poetik tabiati, avvalo, ularning badiiy yaratiqda muayyan funksiyaviyligi bilan xarakterlansa, ularning ifoda planida, asosan, ikki usul namoyon bo’ladi:

1) konkretlik (bunda badiiy tafsil va uning ma’no qatidagi obraz yonma-yon keladi, ayrim o’rinlarda ularning lirik subyektga nisbatan munosabati ham ifoda etilib, ular tenglik ravishida bo’ladi, ya’ni detal to’g’ridan to’g’ri izohlanadi);

2) badiiy kodlanganlik (chunki har poetik detal, ramziy ma’no tashuvchi unsur zamirida kod bor desak yanglish bo’lmaydi. Bu usulda badiiy matnning leksik qatlamidagi bir unsur sifatida qo’llangan tafsilning izohi berilmaydi, talqin etilmaydi. Tom ma’noda o’quvchining salohiyati, tafakkuriga so’z beriladi).

Masalan, “detal – shaxs”, “detal – his-kechinma”, “detal – poetik topos”, “detal – poetik xronos”, “detal – lirik qahramon”, “detal – ijtimoiy voqelik” kabi qator poetik munosabatlarda shu holat mavjud.

Maishiy hayotning turli yo’llarida duch kelinadigan detallar qay jihat bilandir inson omiliga aloqadordir. Agar bu tabiiylik kasb etsa, uning o’rni yanada orta boradi. Xuddi shu jihat yuqorida ta’kidlaganimiz – “badiiy tafsil – shaxs” munosabatida namoyon bo’lishini quyidagi misralarda ko’ramiz:

Hozir yuragingda qorga nima bor,

Sen qachon gullaysan, Behzod Fazliddin?! [B.Fazliddin, 2008: 18]

Ifodaviylik nuqtayi nazaridan poetik detalda badiiy kodlanganlik ko’zga tashlanadi bu o’rinda. Shaxs nomi biryo’la ustsatr bilan aloqador anglashilib, detal qo’llanganini ko’rsatadi. Yoxud detalning shaxsga ishora ekani “Ko’zyoshlari zavq ulashgan **favvoram**an” misralarida ham mubolog’aviy yo’sinda, ham ochiq ifoda bilan namoyon bo’ladi. Ayni tarzidagi poetik munosabatni Behzod Fazliddin “Qayoqqa yo’l olar qalam – qalandar” misrasidagi qalam tafsili orqali ham bera olgan bo’lsa, quyida qo’llagani badiiy detal tom ma’noda detal-obraz maqomiga erishadi:

Riyoni bilmaydi azim daraxtlar,

Hech kimga sezdirmay qilar ibodat. [B.Fazliddin, 2008: 107]

Insoniyatga xos e’tiqod masalasida og’ochlarning yuqori mavqeda turgani, ularning ham timsolida chin musulimlikni ado etayotgan obid bandalar siymosini gavdalandiradi.

Shoir Behzod Fazliddin manzumalarida detalning badiiy funksiyasi ham ohori toza satrlardagi har bir so’z singari teran qiyofaga ega. Shoir she’rlarida mikroorganizm kabi o’rnashgan tafsillar o’z mohiyatida qator mazmunlarni ifoda qiladi. Ya’ni poetik detal va uning zamiridagi anglamlar aloqasi bir qadar kengligi ma’lum. Jumladan, Behzod Fazliddin she’riyatida shaxs va badiiy detalning o’zaro

munosabati quyidagi misralarda yanada yorqin va betakror obrazli ifoda etilgan:

Lazzatga g'arq bo'lib tasbeh aytarman,

Gar obid giyohlar safiga qo'shsa. [B.Fazliddin, 2012: 130]

“Tog'iston”dan olingan mazkur misralarda lirik qahramonning hayrat bag'ridagi ruhiy holati uning iqrorlariga imkon bergani holda istaklarning oshkor aytilayotgani bir taassurot sifatida fikr uyg'otsa, yuqoridagi parchada “giyohlar” detali asosiy poetik obraz – Tog'ga uzviy aloqalantirilgani va uni yaratishning muhim vositasiga aylangani badiiy tafsilning xos belgisini ko'rsatadi. Behzod Fazliddin lirikasidagi “detal – shaxs” munosabati tahlili so'ngida aytish mumkinki, uning she'rlarida detal vositasida, ommatan olganda, shaxsga, xossatan esa inson zotining turli maqomdagi ko'rinishlariga, masalan, do'st, dushman yoxud qarindosh-urug'ga ishora ko'rinadi.

Shu bilan bir qatorda, qalam tafsili shoir nazmida xuddi yetakchi obrazlar kabi mavqe tutadi, u asosan ijodkor shaxs, ijod, ijodkorlik qismati kabi motivlar ifodasida tez-tez ko'zga tashlanadi. Masalan, “Qalam – oq qog'ozda titragan ko'nglim”; “Yurakka botirib suraman qalam”; “Qalam menga merosmi qolgan, Bo'larmanmi najotga noil?”; “Yurak, bitta she'r tug'ib ber, bolam bo'lsin, Doyalari qo'lim bo'lsin, qalam bo'lsin” kabi bir ko'p she'riy tizmalarda qalamning badiiyat posongisida o'z salmog'iga ega bo'lganini ayta olamiz.

Lirik asar kompozitsiyada sujet ba'zi o'rinlarda muammoli masala sifatida qaralsa-da, bu turda uning funksiyasi epos va dramadagidan tamomila farq qilishini, she'riyatda voqelik lirik qahramon yoki shoir his-sezimlarining sababchisi o'laroq qabul qilinishini kuzatamiz.

Insoniyatning zohiran tadqiqi bevosita botiniy ko'lam, ichkin miqyos sari yo'l ochib, badiiy tafsillar orqali novizual (ko'rinmas) holatlar lisoniy-vizuallik kasb etadi. Muhimi, “detal – his-kechinma” juftligi xarakterida detal va insoniy sezim o'rtasida muayyan arxitektonika o'zini ko'rsatadi. Aniqroq qilib aytganda, har qanday tafsilning qaysidir bir jihati uning vositasida anglashilayotgan kechinma bilan badiiy aloqaga kirishadi. “Shu narsa sir emaski, tabiat predmetlari, turmush faktlari, tarixiy voqea-hodisalar nimasi bilandir shoir diqqatini tortgan, uni hayajonga solgan, o'yga toldirgan taqdirdagina poeziya hodisasiga aylanishi mumkin. Albatta, bir turli fakt she'riy nisbat, muqoyasa biror tafsil (detal) sifatida kelsa, boshqa biri bevosita yangi bir fikrga turtki-sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin” [Akramov, 1979: 153], – deydi adabiyotshunos olim B.Akramov o'zining “Voqelik tafsillari va obraz” nomli maqolasida. Bunga isbot sifatida Behzod Fazliddinning ushbu misralarida detalning his-kechinmalar ifodachisiga aylanganini ko'ramiz:

Axir, muhabbatning ko'chalaridan,

Yurakka tosh solib o'tib bo'lmaydi. [B.Fazliddin, 2017: 57]

Yoki:

Savollar tosh bo'lib urilar boshga. [B.Fazliddin, 2008: 52]

Har ikki parchada istifoda etilgan bir tafsil – tosh vositasida his-tuyg'ularning, hayot yo'llarida tuyulgan pushaymonliklarning aksi borligini kuzatish mumkin. Shuningdek, “Sevgi – men rangini anglolmagan gul” misrasidagi detal ham insoniy tuyg'uning yorqin ifodasiga xizmat etgan.

Shoir Behzod Fazliddinning lirik she'rlarida badiiyat unsuri – poetik detal boshqa badiiyat mezonlari, xususan, poetik topos va badiiy xronos mohiyatini ham o'zida aks ettiraroq qo'llangan. Masalan, “Yulduzlarga vatan – ko'zingiz” satrlarida qo'llangan detallar: “yulduz” va “ko'z” o'zaro munosabat orqali badiiy makonni – diydalarni namoyon etsa, “Umr – kundalikka o'xshagan daftar” misrasidagi tafsil – “daftar” vositasida mohiyatan vaqt – badiiy zamon o'zini ko'rsatadi.

Adabiyotshunosligimizda lirik asarlarda badiiy tafsil va uning o'ziga xos xususiyatlari, lirik obraz va poetik detal dialektikasi kabi masalalar ilk bor filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqovning “Lirikada badiiy tafsil” nomli maqolasida izohlangan. Jumladan, olimning ta'kidicha, “...lirik asarda shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalovchi – ko'p vazifali obrazlarni lirik obraz, lirik obrazning ayrim qirralarini ochishga xizmat qiluvchi, faqatgina bir vazifa o'tovchi obrazlarni esa poetik tafsil deb farqlash lozim” [Sarimsoqov, 1992: 10]. Shu nazariyaga tayangan holda B.Fazliddin lirikasiga nazar solar ekanmiz, badiiy detal va lirik qahramon dialektik munosabatining mavjud ekaniga, tafsil

lirik subyekt tavsifiga (bir vazifaga!) xizmat qilayotganini ko‘rish mumkin. Masalan:

Men – hayot bog‘ida omonat yaproq. [B.Fazliddin, 2008: 35]

Bu misrada tiriklik og‘ochida omonatgina saqlanayotgan barg detali timsolida shoir o‘quvchi ko‘z o‘ngida lirik qahramonning suratini chizadi, keyingi satrlarda davom etgan tafsilchilik – “To‘kilib ketaman erta, indin yo” – uni she‘rdagi yetakchi badiiy qiyofa bo‘lgan Vatanga yovuq olib boradi:

Shu qadar mangusan, shu qadar buyuk,

Ming bitta umrimga arziysan, Vatan. [B.Fazliddin, 2008: 35]

Yoxud shoirning:

Tangrimdan boshqasi yecha olmaydi,

Belimga boylangan belbog‘im – Vatan [B.Fazliddin, 2008: 40] satrlarida ham poetik detalning tabiatidagi milliylik vositasida ona yurtning tavsif etilgani ma‘lum bo‘ladi. Vatanparvarlik mazmunidagi manzumalar sirasida keladigan quyidagi parchada Behzod Fazliddin barg – ninalar qo‘sh tafsilini ko‘prik detali bilan ifodalagan xorijiy tilga aloqador istifoda etadi, ya‘ni chet tilini bilish natijasida ona tilini hurmat qilmaslik kabi jiddiy muammoga e‘tibor qaratadi, uning bizga yot kalimalarini obrazli tarzda ignalarga mengzaydi.

Filologiya fanlari nomzodi Dilorom Mirzayeva fikricha, “...lirik she‘rda yetakchi obraz bir yoki bir nechta bo‘lgani holda badiiy tafsil ijodkor mahorati bilan bog‘liq holda birmuncha ko‘p bo‘lishi mumkin” yoki “...lirik tafsil yetakchi lirik obrazga nisbatan faolroq vazifa o‘taydi”. Buni “detal – hayot”, “detal – taqdir” poetik munosabatida kuzatish mumkin. Jumladan, “Hayot – tushunmagan falsafam mening” yoki “Uyimni to‘ldirgan jimlikni buzib Hayotni eslatib yangrar qo‘ng‘iroq” satrlarida tushunilmagan falsafa hamda qo‘ng‘iroq tafsillarining badiiy funksiyasi shoir nazmida yetakchi mavqe tutgan obrazlardan biri Hayotni akslantirishga xizmat qilgan esa, quyidagi misrada gulxan detal o‘laroq taqdirga ishorani o‘zida tashiydi:

Taqdiring – rashkimga saboq bir gulxan. [B.Fazliddin, 2008: 65]

Poetik tafsil shoir nazmida xuddi mikroorganizm o‘laroq doim harakatda bo‘ladi, boshqa tafsillar bilan aloqaga kirishib, ijodkorning poetik niyatini qiyomiga yetkazadi. Xuddi shu holat iymon tushunchasi bilan aloqador quyidagi misralarda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Iymon – azim daraxtdir xo‘b,

Yaprog‘idan mevasi ko‘p. [B.Fazliddin, 2017: 96]

Bu o‘rinda daraxt, yaproq va meva badiiy detallari o‘zaro bir halqa yaratib, badiiy obraz – Iymon bilan munosabatga kirishadi, assotsiativ tafakkurni uyg‘otadi. Boisi poetik polotnodagi bunday “sirli” taranglashgan, siqiq badiiy ifodalarda ma‘no ko‘lamining haddini kengaytiradi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, poetik tafsil xarakteriga xos ramziylik bo‘rtiq aks etadi. Nazariy manbalarga ko‘ra, ramziylik – badiiy tafakkurning qadimiy vositasidir. Ayni ramziylik xossasi “Yuragim – oyoqlar tiqilgan chashma” satrida ham chashma orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da keltirilishicha, “Hayotni tipiklashtirishda, uni badiiy ifodalashda, qahramon xarakteri qirralarini ochishda, asar g‘oyasini ifodalashda, uning emotsional ta‘sir kuchini oshirishda badiiy detallar katta rol o‘ynaydi. Detal odatda, lo‘nda, aniq, yorqin va obrazli bo‘lib, asosan, tasvir obyektni sintezlashtirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Qisqa-yu sarmazmunlikka erishish – badiiy detalning xarakterli xususiyatidir” [Quronov, 2013: 74]. Ayni mohiyat ustma-ust qo‘yilgan quyidagi misralarda yakdil fikrning – Olloh taolo har bir yaratig‘iga hikmatini jo qilgan yoxud shoir fikricha, “*Hech ne‘mat behikmat etilmas ato*” [B.Fazliddin, 2012: 111] – ifodasiga badiiy asos bo‘lib xizmat qiladi:

1. *Balki bu ham yaxshilikkdir,*

Yog‘ayotgan toshlar – Haqning rahmati [B.Fazliddin, 2008: 132]

hamda

2. *Axir necha marta ishora qilding,*

Har bitta zarrangda yubording hikmat. [B.Fazliddin, 2008: 25]

Birinchi qo‘shsardagi detal – toshlarning insonlar shukronasiga sabab bo‘lgani voqelik ravishida ko‘rsatilgan bo‘lsa, keyingi ikki misrada poetik tafsil – zarra lirik qahramon kuzatuvi, ruhiy kechinmalarining

so'ngida yuzaga chiqadi.

Yoxud Behzod Fazliddinning quyidagi qiyosan berilayotgan misralarida ham poetik tafsillararo munosabat aks etadi:

*Arsh sari zinalar qo'ysam tavbadan,
Saodat asrini eslatsa, umrim* [B.Fazliddin, 2012: 111]

yoinki

*Avvalo, xatoni tanigan haqdir,
Tavbadan gul ekib borar iziga* [B.Fazliddin, 2008: 132]

kabi tipologik o'rganilayotgan satrlarda ularning o'zaro aloqasini bir tafsil, ya'ni tavbadan "yaralish" egallaydi. Har ikki holatda qadardagi gunohdan uzoqlashmoqqa urinayotgan lirik qahramon ruhi "tavbadan qo'yilgan zina" hamda "tavbadan ekilgan gul" vositasida ifodalanadi.

Behzod Fazliddin lirikasida umummohiyat, ruhiy holatlar ochqichi sifatida istifoda etilayotgan poetik detallar ayrim o'rinlarda badiiy mantiqqa muvofiqlik, konkretlik kabi mezonlar negizida sifatlovchilik vazifasini ham ado etadi. Misol uchun, quyidagi misralardagi loyqa tafsil sifatida sezimlarni aniqlab kelmoqda:

*Loyqa hislar bilan tag'in bulg'amay,
Tubigacha tiniq oqishni o'rgat.* [B.Fazliddin, 2012: 104]

Bu she'rda shoirning lirik qahramoni "Daryolar bag'riga sig'mas jilg'a..." ekanligini, o'z fe'li-xo'yining qat'iyatli ekanligini eslatib, o'ziga nisbatan talabchan, so'z-u harakatlarini taftish etishga tirishadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir she'rlarida detal mavhum tushunchalarni jonlantirish, mohiyatini ifodalash vositasi ekanini qator misralarda kuzatish mumkin. Metaforik ifodalarni "Qon qildi dardimning o'tmas pichog'i" yoki "Bag'riga tortadi xayollar – dengiz" misralaridagi tafsillarda isbot qila olamiz. Shuningdek, ba'zi she'rlarda qo'llangan poetik detal (quyidagi misrada – etak) orqali shaxsiyat, shaxsning mavqe-maqomi anglashilganiga guvoh bo'lamiz:

Etagingiz buncha baland, Mashrab bobo?! [B.Fazliddin, 2012: 159]

Shuningdek, shoir poeziyasida detallar vositasida yaratilgan obrazlarda xalqona iboralarning yangicha poetik talqini mavjud:

*Sho'r edi peshonam, tuz ko'rdi yana –
Bir o'zim bilaman, bir O'zi bilar.* [B.Fazliddin, 2017: 91]

Ayni pallada detal "sho'r" leksemasi bilan holatning tadrijiga ulgi bergan. "...har bir detal, holat va vaziyat badiiy tasvirda muayyan ma'noni ochishga xizmat qiladi. Poetik so'zning ishontiruvchi kuchi, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishidagi tuyg'u me'yori ana shu yerdan boshlanar ekan" [Rahimjonov, 2003: 62]. Ayni jihat e'tiboridan badiiy detal ifodasida bir qancha mezonlarning mavjudligi ular mohiyatida yuqori darajani belgilashi ayon bo'ladi. Tahlil va kuzatishlar xulosasi sifatida poetik detallarga xos mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: **a) tasvirda individuallik; b) betakrorlik; d) uyg'unlik; e) ramziylik; f) konkretlik – mavhumotni, majbuhl harakatni predmetli tasvirlash; g) muvaffaqiyatli topilganlik; h) jo'yalilik; tabiiylik; i) birlashtiruvchilik; j) badiiy mantiq va mohiyatga muvofiqlik; k) shartlilik.**

Xulosa qilib aytganda, poetik tafsil lirikada o'ziga xos va eng muhimi, yetakchi obrazga yondosh badiiy unsur sifatida qo'llanilib, unga aniqlik, badiiylik, ramziylik kabi bir qator ma'nolarni qo'shadi. Shu jihatdan Behzod Fazliddin poeziyasida konkret va badiiy kodlangan tarzda ifoda etilgan detallar she'rxonning tasavvur va badiiy tafakkuriga xizmat qiladi. Uning lirikasida detallar vositasida lirik qahramonning ruhiy olami, sajiyasi, tabiat, inson, ijtimoiy voqelik bilan munosabati yanada yorqin va yaqqolroq o'zini namoyon etadi, polifunksional unsur o'laroq muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akramov B. She'riyat gavhari. – Toshkent: 1979.
2. Davronova M. Hozirgi o'zbek she'riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she'riyati misolida). Fil. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.

Samarqand – 2019.

3. Fazliddin B. Kutmagan kunlarim, kutgan kunlarim. – Toshkent: “Akademnashr”, 2012. – B. 200.
4. Fazliddin B. Sen qachon gullaysan. – Toshkent: “Mehrirdaryo”, 2008. – 160 b.
5. Fazliddin B. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: “TAMADDUN”, 2017. – B. 112.
6. Mirzayeva D. Hozirgi o‘zbek lirik she’riyatida badiiy tafsil. Fil. fan. nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: 1994.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013. – B. 408.
8. Rahimjonov N. Asqad Muxtor poetikasi: risola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2003. – B. 72.
9. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // “O‘zbek tili va adabiyoti, 1992. № 5-6.

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA GAVHARSHOD BEGIM OBRAZI

Durdona Djalilova,

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
II kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar va temuriy malika Gavharshod begim obrazi gavdalanitirilgan. Ushbu maqolada malika obrazining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etilgan. Maqolada kerakli adabiyotlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: roman, obraz, janr, tarixiy voqelik, o‘tmish, tarixiy fakt, adovat

O‘zbek adabiyotida xalqimiz tarixining eng shonli zarvaraqlarini teran badiiy tahlil qilishga bag‘ishlangan bir qator yirik asarlar yaratilgan. Xalqimiz tarixining turfa bosqichlarini tasvirlash, millatimizning ijtimoiy va ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan iste’dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish, shuningdek, davlatchiligimiz tarixi va milliy qadriyatlarimizning tarixiy-hayotiy asoslarini oydinlashtirish o‘zbek tarixiy romanlarining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini tashkil etadi.

Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlar, xususan, romanlar, qissalar, she’riy balladalar xalqimiz tarixining badiiy solnomasidir. Shuning uchun ham milliy hurlik tufayli o‘zligini anglatotgan, ajdodlarining kim ekanligi, tarixiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalishi bilan qiziqayotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy manbalar bilan bir qatorda shu mavzudagi badiiy asarlar ham g‘oyat nodir ahamiyatga ega. Bizga ma’lumki, Odil Yoqubovga shuhrat keltirgan asarlar tarixiy romanlari – “Ulug‘bek xazinasi” bilan “Ko‘hna dunyo” bo‘ldi. Yozuvchining boshqa ijodkorlardan farqli jihati, tarixni xuddi ko‘rib turadi, tarix bilan bahslashadi, zamondoshlariga uzoq o‘tmishdoshlarining tajribalaridan guvohlik berayotganday bo‘ladi. U tarixga bugangi davr nuqtai nazaridan qaraydi”. [Karimov va boshqalar, 1999: 415].

Yozuvchi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani yuzasidan juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Asarning badiiy qimmatini, tarixiy haqiqat bilan bog‘liqlik masalasi va obrazlari tahlil etilgan. Ammo bugun tarixga munosabat tubdan o‘zgardi. Shu bois Mirzo Ulug‘bek va temuriylar tarixini xolisona o‘rganish, “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi Mirzo Ulug‘bek hayoti, fojiali o‘limiga bog‘liq tavsilotlarni bugungi kun nuqtai nazaridan o‘rganish lozimdir. Bizda tarixiy janrning ikki ko‘rinishi bor. Bir tur asarlarda tarixiy faktlarga izchil rioya etiladi; tarixiy hodisalarni badiiy gavdalanitirish yozuvchining asosiy muddaosiga aylanadi; ikkinchi tur asarlarda esa tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olinadi-yu, tarixiy faktlarning izchil ifodasi, tarixiy shaxslarning batafsil biografiyasi emas, balki shu

faktlar bahonasida muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolar ko'tarish, tarixiy faktlar orqali "gap aytish" birinchi o'ringa chiqadi. [Mirzayev, 2007:89].

"Ulug'bek xazinası" romani ikkichni turga mansub romanlar sirasiga kiradi. O'zbek adabiyotida ham o'tmish haqida asar yozishda tarixiylik bosh mezon bo'lishi lozimligini, tarix ne-ne avlodlarni kamol toptiradigan ulug' murabbiy ekanligini angladilar. [Zayniddinova, 1999:8].

Yozuvchi "Ulug'bek xazinası" romanida bir tomonlama talqingayo'l qo'ymaslik uchun Abdullatifdagi yovuzlikni, bir tomondan, uning shaxsiyatidagi taxtga, mansabga o'chlik ishtiyoqi, ikkinchi tomondan, manashu o'chlikka, ishtiyoqqa olib kelgan Gavharshod begimning tarbiyasi bilan aloqadorlikda izohlaydi. Uchinchi tomondan, Ulug'bek va farzandi Abdullatif o'rtasida sovuqlik, adovat tushishiga olib kelgan bir qancha ijtimoiy-siyosiy sabablar borki, adib o'rni-o'rni bilan romanda ularga ijtimoiy, psixologik determinizm (asos) sifatida ishora qilib boradi. Masalan, 1448-yilda Ulug'bek Tarnob yaqinida o'g'illari bilan Alouddavla ustidan qozongan g'alabani Abdullatif nomidan emas, balki Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Bu esa ota-bola o'rtasidagi kelishmovchilikka olib keladi. Bundan tashqari, Ulug'bek Hirot qal'asida saqlanayotgan mol-mulkni Abdullatif ixtiyorida qoldirmaydi. 1449-yilda esa Abdullatif o'z ulusida savdo solig'i – "tamg'a"ni bekor qiladi. Ulug'bek bu soliqqa katta e'tibor bilan qarar edi. XX asrning 70-yillari o'zbek adabiyoti masalalariga qo'l urgan tadqiqotchi, albatta, Odil Yoqubov ijodiga murojaat qiladi. Chunki adabiy oqimni boshqa bir o'zanga solib yuborgan, adabiy qahramonni ijtimoiy voqelik mahsuli emas, insoniy tuyg'ulardan ayri bo'lmagan tabiatning yaratig'i sifatida o'rganib, uning ichki qatlamlarigacha kirib bora olgan adib Odil Yoqubovdir. Uning tarixiy asarlarga badiiy ruh singdira olishdek psixologik tahlil mahorati ko'plab talqinlarga ham asos berdi. [Samandarov, 1992:26].

Odatda, farzandning yaxshi-yomon xislatlarini, eng avvalo, ota-ona payqaydi, demakki, uning birinchi tanqidchisi ham ota-ona bo'ladi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni muhim. Mirzo Ulug'bek buvisi Amir Temurning suyukli ayoli Saroymulkxonimning tarbiyasini olgan. O'z onasi Gavharshod begimdan esa yiroq bo'lgan. Bu holat ona va farzand orasidagi mehrsizlikni yuzaga keltirgan. Romanning bir o'rnida Ulug'bek xotiralari misolida Gavharshod begim qiyofasi gavdalanadi. Ammo bu xotira uning ko'nglida onasiga nisbatan iliq bir tuyg'u uyg'otmaydi. Aksincha, ko'z oldiga uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'ylak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'lidan tasbeh tushmaydigan kalondimog' ayol keladi. Yozuvchi uni "farishtasi yo'q, chehrasi sovuq ayol edi" deya tasvirlaydi. Yozuvchining Gavharshod begimga bo'lgan salbiy munosabati Ulug'bek nazaridan ham o'tkaziladi: "Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o'tiribdi hamki, Gavharshod begim toj-u taxtni o'z qo'lga oldi. Saroyni johil gumrohlari, hoqoni Saidni ko'rolmaydigan badxohlarga to'ldirib yubordi. Hirot fisq-u fujur uyasiga aylandi. Shohruh Mirzoni chalg'itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodlar orasiga nizo tushirgan, suyukli nabirasi Alauddavla bilan Abdullatifni bir-biriga qayrab solib qatl-u qirg'in chiqargan ham, e voh, shu volidai mehriboni Gavharshod begim bo'ldi!.." [Yoqubov, 1994:24].

Tarixda voqea-hodisalar bir marta yuz beradi, ammo unga munosabat davr va muallif nuqtayi nazaridan har xil bo'lishi mumkin. Mustaqillik yillarigacha temuriylarga munosabatda mafkuraning keskin munosabati yaqqol sezilib turgan bo'lsa, keyingi yillarda tarix sahifalarini yoritishda qarashlar biroz yumshadi. Muhammad Alining "Ulug' saltanat", Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanlarida Gavharshod begim obrazi o'zining yangi talqinlari bilan boyiganiga guvoh bo'lamiz. Shunga qaramay, Abdullatif va Gavharshod begim munosabatlari P.Qodirov talqinida ham murakkabligicha qolgan. Xususan, romanda Gavharshod begimning Alauddavlani Abdullatifdan ortiqroq suyishi, nihoyat, "Bu yerda o'gay bola bo'lib yashash jonimga tegdi! Alauddavla o'z tug'ilgan shahrida, hamma unga mehribon... Qachongacha momonga mute' bo'lib yurgaymen", - deyishida [Qodirov, 2018:20]. Abdullatifning savdoyiligiga mehrsiz o'sgani ham qo'shilib fojiasiga sabab bo'lgani anglashiladi.

Odil Yoqubov Ulug'bek fojiasining omillarini ko'rsatib o'tar ekan, bu omil birinchi galda, Abdullatifning tarbiyachisi sifatida Gavharshod begim bilan bog'lanishini ta'kidlaydi. Shubois Gavharshod begim qiyofasi salbiylik kasb etadi. O.Yoqubov qahramonlar tasvirida xolislikni saqlashga qancha urinmasin, ayrim mafkuraviy prinsiplardan chekina olmagan Gavharshod begim va diniy ulamolar tasvirida namoyon bo'ladi. Balki bu ham mafkura bilan kelishuvning o'ziga xos yo'lidir. Chunki

tarixiy shaxslar haqida yozuvchi biryoqlamalikka ega edi degan qarash o‘zini oqlamaydiki, roman yozilgan davrda Amir Temurga munosabat o‘ziga xos bo‘lgani holda asarning biror joyida Temurga salbiy fikr bildirilmaydi. Ulug‘bekning ilm-fanga qilgan xizmatini ta’kidlash uchun fojiasida mulkdor sinf vakillarining o‘rni kuchli bo‘lganini bo‘rttirish zarurati Gavharshod begimni faqat qora bo‘yoqda tasvirlanishiga sabab bo‘lgandir. Romanning qayta ishlangan nashrida ham Gavharshod begim qiyofasi o‘zgarishsiz qoladi.

Yozuvchi Abdullatifdagi mehrsizlikning asosiy sababini uning ota mehridan uzoqdao‘sganligi bilan izohlar ekan, uni to‘g‘ri asoslab beradi. Tabiiyki, o‘z ota-onasi qo‘lida tarbiyatopmaganfarzandning mehri ota-onasi bilan o‘sgan bolaga nisbatan ayricha bo‘ladi. Bunday farzandda o‘z ota-onasiga nisbatan tanqidiy ruh kuchli bo‘ladi. Xohlaymizmi-yo‘qmi o‘z farzandlarimizga bo‘lganmunosabatni oilada, nabiralar oldida ham muhokama qilamiz. Bu kabi muhokamalarning ta’sirida nabiraning o‘z ota-onasiga nisbatan munosabati o‘zgarib borayotganiga ahamiyat bermaymiz. Bu munosabat ota-onaning farzandga qanday munosabatda ekanligi bilan belgilanadi. Abdullatifning Ulug‘bekka sovuq munosabati Ulug‘bekning Gavharshod begimga nisbatan munosabatining ham keskinlashuviga sabab bo‘ldi. Albatta, Abdullatifga Ulug‘bekning munosabatida ham shu ruh saqlanib qoladiki, buni tabiiy deb qabul qilmoq lozim. Shu bois Ulug‘bek bir umr ikki farzandiga bir ko‘z bilan qaramadi. Bu esa Abdullatifning Ulug‘bekka va og‘a-inilarning o‘zaro adovatiga sabab bo‘ldi.

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asarini olib qaraydigan bo‘lsak, unda yurti boshqarish, hukmdorning atrof-muhitga e’tibori mansabidan ketayotgan hukmdorga esa atrofdagilarning munosabati masalasi, farzand tarbiyasi insonning axloqiy fazilatlar xususida alohida fikrlar berilganini ko‘ramiz. Bu asar yaratilgandan buyon olimlar, tarixchilar, adiblar, jamoatchilikni e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Tarbiyaviy qadriyatlar haqida fikr yuritir ekanmiz, bu asar barcha davrlarda ham ta’lim-tarbiya sohasida namuna bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N va boshqalar. XX asr adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999. – B. 415.
2. Mirzayev S. Saylanma. O‘zbek romanchiligi tarqqiyoti. —T.: O‘qituvchi, 2007. – B. 89.
3. Zayniddinova A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. – T.: G‘afur G‘ulom, 1999.
4. Samandarov I. O‘zbek tarixiy romanlarida tarixiylik. – T.: 1992.
5. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. – T.: G‘afur G‘ulom, 1994.
6. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018.

JIDDIY IZCHIL IZLANISHLAR SAMARASI, YANGICHA IJODIY BARKAMOLLIK ALOMATI

Safar Allayorov,

*Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya

Maqolada barcha muvaffaqiyatli chiqqan asil va betakror dostonlarda epik umumlashtirish kayfiyatining ustuvorligi, ma’naviy-intellektual bilim, ijtimoiy-ma’rifiy qarashlar, hayotiy motiv, fuqarolik pozitsiyasi va boshqa emotsional jihatlarini badiiy bo‘yoqlarda yaqqol ifodalashi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Doston, takomil, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, badiiyat.

Badiiy adabiyotning barcha turlariga xos bo‘lganidek, inja lutfu nafis hissiyot va dilbar tuyg‘ularga oshufta she’riyatda ham novator shoirning yangicha ma’naviy-intellektual yaratig‘i talab darajasidagi janriy xususiyatlarni o‘zida jamlagan bo‘lsa, ijodiy hodisaga aylanishi mumkin va muqarrar. Zero, insoniyat tamadduni shu paytga qadar qanday shaklu shamoyillarda shakllanib, takomil topganligi turli

ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasi va isbotini topgan. Bu xulosalarni muhtasir qilib, bir so'z bilan aytganda, bani inson yozuvni kashf qilishdan oldin og'zaki ijod bilan mashg'ul edi. Xususan, o'lkamizda ana shu qadimiy silsila natijasi o'laroq, "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari turkum dostonlar (*bugungi kunga qadar "Alpomish" dostonining 50 ga yaqin, "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining 100 ga yaqin variantlari ularni jonli ijro etib kelayotgan baxshilardan yozib olingan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Xorazm viloyatlarida bu jarayon hamon davom etayotgani quvonarlidir*), shuningdek, "Kuntug'mish", "Yusuf bilan Ahmad", "Yodgor", "Ravshan" kabi xalq og'zaki ijodi namunalari necha asrlar osha tildan tilga ko'chib, barqaror yashab keldi va hozirgi kunda ham o'z nufuzini zarracha yo'qotgan emas, aksincha, bag'oyat keng qamrovli salohiyati ila intellektual asr sanalgan yangi davr avlodlarini ham hayratga solmoqda.

Ma'lumki, doston – liro-epik janr, og'zaki va yozma adabiyotdagi eng katta hajmga ega bo'lgan epik asar. ***"Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlarsa ko'p bo'ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar nazm va nasrda, yozma adabiyotdagi dostonlar nazmda bo'ladi, bunda nasr voqealarni bog'lovchi vazifasini o'taydi. Yozma adabiyotdagi dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir.***[1]" Chunonchi, adabiy istiloh sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq og'zaki va yozma adabiyotdagi dostonlar hayotni, kishilik jamiyatining qahramonlar umrguzaronlik qilayotgan davrdagi o'ziga xos jihatlarini tasvirlash vositalari, usullari va badiiy bo'yoqlarining ranglari bilan bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Xususan, og'zaki ijod namunalari bo'lgan dostonlar ko'plab variantlarga egaligi, jamoaviyligi va an'anaviyligi bilan yozma adabiyot namunasi bo'lgan dostonlardan ajralib turadi. Bu hol odamlarning oddiy so'zlashuv tiliga ham sezilarli ta'sir qilgan: ba'zan "doston" so'zi qissa, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ham ishlatiladi.

Bizningcha, qaysi yo'sinda vujudga kelganidan qat'i nazar, avvalo, har bir san'at namunasi, dostonmi, balladami – yangi badiiy asar, ayniqsa, badiiy adabiyotdagi yangi janr inson yaratgan mo'jiza hisoblanadi. Zero, ***"Ijod – ob'ektiv qadriyatning kashf etilishi. Bu – ijodning natijasiga berilgan umumiy baho bo'lib, ijodkor faoliyatining mohiyatini, ijodiy jarayonning spetsifik o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ijodiy jarayonda shaxs bir qancha muammolar bilan bog'liq vazifalarni bajaradi. Mantiq nazariyotchilarining fikricha, ana shu muammolar atrofidagi xatti-harakatlar bilmaslikdan bilishga, faktdan bashorat va taxminlarga, taxminlardan kashfiyotlarga yo'nalgan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Demak, fikrimizcha, ijod – alohida shaxsning o'zigagina taalluqli va uning qiziqishlari, izlanishlari asosidagi muayyan faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish jarayonidir.***[2]"

Darhaqiqat, shunday. Yana bir faqat ijodgagina xos jihatni hisobga olish kerakki, har qanday yozilayotgan yangi asarga qo'yiladigan talablar dogma emas, demak, uni bitish – dunyoga keltirish jarayonidagi *"bilmaslikdan bilishga, faktdan bashorat va taxminlarga, taxminlardan kashfiyotlarga yo'nalgan faoliyat"* undagi kashfiyotlar – uning oliy darajadagi mahsulot ekanligiga kafolat sanaladi. Ehtimol, keyingi xuddi shunday turdosh asarlar uning darajasiga oid turli yangicha yondashuvlar nuqtai nazari, o'sha tadqiqotlarda ustuvor urg'u berilgan badiiy unsurlar bilan belgilanar, balki "fizik xususiyat" kasb etib, inkorni inkor qonuni amal qilar – bularni betaraf vaqt ko'rsatadi.

Bizningcha, har qanday yangi badiiy asar ham shakli, ham mazmuni, ham unda ifodalangan hayot tasvirlari bilan o'quvchida hayrat tuyg'usini uyg'otmog'i lozim. Agar ana shu hayratni aynan qanday fazilatlar hosil qilishini bilib olsak, fikr yuritish yo'nalishimizda aniq mulohazalar zuhur topadi. Natijada badiiy tahlilga jalb qilayotgan asarimiz qadri yanada aniq va yaqqol namoyon bo'lib, uning badiiy va ilmiy nufuzi bir qadar ortadi. Shu maqsadni nazarda tutib, ham muallif, ham ilmiy tadqiqotchi sifatida mazkur ilmiy ishning tadqiqot usulini teran ochish maqsadida, yangi badiiy adabiyot, xususan, she'riyatning novator namunasi o'z ijodim – shaxsan o'z oldimga qo'ygan asosiy talablar misolida muhtasir shaklda bayon etishim joiz:

birinchidan, har bir so'z san'ati namunasi, jumladan, yangi doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik

bo‘lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqeliklardan tortib, murakkab ijtimoiy vaziyatlarni munosib baholay olish darajotlari bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, asar ham shaklan, ham mazmunan mushtarak va bir-biriga nisbatan mutanosib bo‘lishi shart. Badiiy adabiyotda adabiy tur tushunchasi bor. Ya’ni, lirika, epos, drama – har biri o‘ziga xos yo‘nalishga ega: lirikada his-tuyg‘u, ichki kechinmalar; eposda voqea ifodasi, asar qahramonlarining taqdiri bayoni; dramada sahna sharoitida voqealarning rivoji, qahramonlar dialoglari vositasida hayotiy lavhalar tasviri o‘ziga xos real ahamiyat kasb etadi. Har bir janrga mansub asarlarni shakl (she’riy yoki nasriy), mazmun, hajm va yaratilishidan nazarda tutilgan maqsad birlashtirib turadi. Bir janrda yaratilgan asarlar muayyan shakl va mazmunga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bu talab hamisha shaklning mazmunga mutanosib bo‘lishini taqozo etadi. Zero, mazmunsiz shakl bo‘lmaydi. Odatda, shakl qanchalar ixcham, mazmun qancha keng ko‘lamga ega bo‘lsa, asar shunchalik yuksak qadru qiymat kasb etadi. Akademik Matyoqub Qo‘shjonovning ilmiy qarashlari ham shu mohiyatni ifodalaydi: **“Ma’lumki, birmazmunni ma’lum bir shaklda ifodalash masalasi badiiy ijodning bosh masalasidir. Mazmun borki, shakl bor. Mazmunsiz shakl to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas.”**[3]

Uchinchidan, badiiy asarda muallifning shaxsiy kechinmalari emas, balki individual va umumahamiyatli masalalar talqinida umuminsoniy muammolar ifodalanishi lozim. Albatta, har bir xalqning o‘ziga xos etnik xususiyatlari, milliy tabiati, ya’ni milliy mentaliteti mavjud. Ammo bu milliylik badiiy adabiyotda umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki er kurrasining turli mintaqalarida yashaydigan, turli din va millatlarga mansub xalqlarning hayotiy munosabatlarida bir-biriga mushtarak jihatlar juda ko‘p. Chunonchi, yashash tarzi va qaysi dinga e’tiqod qilishi yoki e’tiqod qilmasligidan qat’i nazar, har bir millatda Vatan, xalq, ota-ona, aka-uka, opa-singil, o‘gay ota, o‘gay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalar keng qo‘llaniladi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini esa, adolat, ezgulik, muhabbat, or-nomus, vijdon, haqiqat, mehr, oqibat kabi chin insoniy tushunchalar belgilaydi.

To‘rtinchidan, yangi janr har jihatdan talab darajasida – so‘z san’ati sifatida namoyon bo‘lishi bosh maqsad qilinishi lozim. Shaxsiy tajribamdan aytishim kerakki, kamina asos solgan zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi yangi janrlar sanalayotgan zarbuldoston ham, qo‘shsotr ham, eshsonetlar ham aynan ana shu talab asosida tarkib topgan. Zotan, har qanday ijodning san’at sifatini ta’minlaydigan asosiy omil – faqat o‘ziga xos va alohida sifatlarga ega badiiy So‘zdir.

Beshinchidan, har qanday yozma adabiy janr azaldan barqaror va abad bardavom badiiy adabiyotning tarkibiy qismi sifatida dunyoga keladi. Asar matnini teran mazmun bilan boyitib, go‘zal qilib turadigan omil esa, *“badiiy san’atlar”*, *“tasvir vositalari”*, *“she’r san’atlari”* deb ham ataladigan badiiy tasvir vositalariga bog‘liq.

Demak, ham shaklan, ham mazmunan mushtarak va bir-biriga nisbatan mutanosib tamomila yangicha badiiy asar namunasi – o‘ziga xos kashfiyot, asil va betakror ijodiy yaratiq, katta ehtimol bilan, yangi janr namunasi bo‘lishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotimizda yangi nazmiy janrlarning asilligi va betakrorligiga alohida e’tibor qaratilib, ularning o‘ziga xos ilmiy-ijodiy jihatlari atroflicha yoritildi. Shuningdek, kashfga doir ijodiy izlanishlar jamiyat a’zolarining ma’naviy-intellektual takomilida nechog‘li o‘rin tutishi, yangi ijodiy hodisalarning badiiylilik qiymati, baayni she’riyat shinaandalari va adabiyot muhoblari ma’rifiy-axloqiy madaniyatiga ko‘rsatayotgan ma’naviy-intellektual ta’siri, shu bilan birgalikda, mualliflarining fuqarolik pozitsiyasi xususidagi nozik va muhim masalalarni xolisona ilmiy tavsiflashga qaratildi.

Misol uchun, yuqoridagi talablarga ko‘ra, qiziqish bilan o‘qib chiqqan bir talay o‘quvchilar (*she’riyat muhoblari, adabiyot fani o‘qituvchilari, shu soba bo‘yicha ilmiy izlanuvchilar*) har ikkala zarbuldostonni chinakam adabiy-badiiy mo‘jiza deb atash mumkin, chunki ulardagi o‘ziga xoslik shu paytgacha umuman adabiyotda mavjud bo‘lgan tartib-taomillardan yuqori, mezonlardan a’lo, badiiy imkoniyatlardan esa, bir qadar ustunroqdir, deyishmoqda. Bu – bir talay ijodkorlarning ham nuqtai nazari. Biroq, ochiq aytish kerakki, ilk zarbuldostonni – adabiyotdagi yangi eng katta nazmiy janrni hamma ham chapak chalib qarshi olgani yo‘q. Avvaliga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining

She'riyat kengashida taniqli shoirlar, adabiyotshunos olimlar va kengash a'zolari ishtirokida qizg'in muhokama bo'lib o'tgach, so'ngra uni ijodiy qayta ishlash uchun mo'jaz tavsiyalar berildi. Bu borada mohir va dongdor adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo'ldosh shunday yozadi: ***"Odam va Omad" asarini o'qiganlarning ko'pchiligi unga zarbuldostoni nimasi tag'in, shunaqasiam bor ekanmi deganday qaradilar. Aslida biror bitikning qandayligi uning tasavvurimizga mos kelish-kelmasligi bilan belgilanmaydi. E'tiborimizga sakkiz doston qo'shiluvidan hosil bo'lgan bitta zarbuldoston asari havola qilingan. Bitikning yaxlitligi nimada? Sakkiz butunlikni o'zaro birlashtirib turuvchi mohiyat nimadan iborat? Bu dostonlar sakkizligida nima bor o'zi? Ulardagi tasvir o'qirmanga nimasi bilan qiziqarli va badiiy-estetik jihatdan ahamiyatli? Bitikni o'qish asnosida shu savollarga javob izlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qirman ham, sinchi olim ham asardan unda yo'q narsani emas, bor narsani qidirgani ma'qul.*** [4]"

Alhol ana shu yo'sinda ish tutgan, ya'ni *"asardan unda yo'q narsani emas, bor narsani qidirgan"* O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi She'riyat kengashining bir necha a'zolari yozma ravishda bildirgan ayrim fikr-mulohazalarga e'tibor qaratamiz: *"Safar Olloyor turkumdagi dostonlarning har birida Odamning botiniy va zohiriy sifatlarini qahramonning umumiy tiynati va ruhiyatidan kelib chiqib ta'riflaydi, – deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim, professor No'mon Rahimjonov. – Falsafiy-majoziy voqealarni birlashtiruvchi syujetlar tizimi yaratgan. Siz bizga zamondosh Odamning voqelikka, hayotga, odamlarga, kechmishu bugunga munosabati yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanadi (Adolat, Ezgulik, Go'zallik). Odam Banda – Do'st – Hamkor – Kas – Kishi – Voiz – Ajdod – Avlod – El – Xalq – Ulug' Sarbon – Millat – Elat kabi bir qator mavzu ko'lamiga xos adabiy qiyofalarda aks ettiriladi* [5]". Mamlakatimiz adabiy muhitida katta mavqe kasb etgan hurmatli domlamiz *"falsafiy-majoziy voqealarni birlashtiruvchi syujetlar tizimi yaratgan"* deb bejizga aytayotgani yo'q. Zero, ilk zarbuldostonning ipidan ignasigacha puxta o'rganib chiqqan dastlabki olimlardan biri u – yangi janrning dastlabki tadqiqotchilaridan. Garchi bu asar hali ko'plab ilmiy tadqiqot-taqrizlarni taqozo etsa-da, uning fikrlarini chetlab o'tib bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

Shu o'rinda mavzuga doir yana bir iqtibos keltiramiz: ***"Muallif bu dostonlarida bir ijodkor sifatida, qolaversa, shu yurtning farzandi-fuqarosi sifatida o'zining iqtidori, tafakkur tarzi, quvvai hofizasi darajasida o'zini hayajonga solgan tuyg'u va sezimlar haqidagi fikrlari, mushohada va munozaralarini dostonlararo mavzumondand majoziy she'r, hikoyat hamda "Dedi Safar" va "Dedimki men" tarzidagi yangi original badiiy talqinlarda taqdim etadi. Qaysidir ma'noda, o'z hayotida boshidan kechirgan voqea-hodisalarga sharh izlaydi. Inson umrining mazmuni, jamiyat va inson, borliq-mavjudotlar sarvari – odamzodning o'zga xilqatlardan farqini belgilovchi aqlu zakovati, insonning qalbi va undagi adolat, haqiqat, imon kabi tuyg'ular muqaddasligi haqida atroflicha mulohaza yuritadi.*** [6]" Ushbu fikrlarni yozgan katta shoir va tarjimon Muhiddin Omon *"dostonlararo mavzumondand majoziy she'r, hikoyat hamda "Dedi Safar" va "Dedimki men" tarzidagi yangi original badiiy talqinlar"*ni oson fahmlagan. Matn ohangidan ham sezilib turibdiki, bu yondashuvlar unga erish tuyulmayapti, aksincha, bir zamondosh ijodkor sifatida unda jiddiy qiziqish uyg'otgan.

Shuningdek, yana bir xuddi shunday malakali mutaxassis – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi She'riyat kengashi a'zosi Oygul Suyundiqova bu boradagi o'z aytar so'zini onalarcha mehribonlik bilan boshlaydi: ***"Men fursatdan foydalanib, katta iste'dod egasi bo'lgan shoir Safar Olloyorni ushbu yuragi nurlaridan to'kilgan jur'atli asari bilan samimiy tabriklamoqchiman. Bu asarda hali hech kim qo'l urmagan mavzuga ham chuqur yondashilgan. Albatta, jur'at ham katta narsa, jasorat bilan egizak bu so'z. Shuning uchun ham adabiyot maydonida yaratilgan har bir yangi asar xuddi o'sha ijodkorning shaxsiyatiga, irodasiga, boshqasa aytganda, hayotdagi ismiga o'xshaydi, judayam katta ahamiyatga ega.*** [7]" Nima ham derdik. O'rinli mulohaza ortiqcha bahs uyg'otmaydi. *"Bu asarda hali hech kim qo'l urmagan mavzuga ham chuqur yondashilgan"*ligi haqidagi haqqoniy e'tirofni ko'pni ko'rgan taniqli shoira, oqu qorani bexato

ajrata biladigan tajribali tarjimon aytayotganiga e‘tibor qaratish joiz. Chunki bu va undan oldingi muhlo hazalar biz fikr yuritayotgan ilmiy mavzuni to‘laqonli ravishda to‘ldirib, mazkur ilk janr bo‘lgan zarbuldostonning olamshumul yutuqlari borasidagi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Ilmiy tadqiqotimizning bu qismi yuqoridagi qismning, ya‘ni himoyaga olib chiqilayotgan dissertatsiyaning asosiy ilmiy jihatlarining bevosita uzviy davomi bo‘lganligi sababli yana o‘quvchi-mutaxassislar fikrini tinglashda davom etishimiz maqsadgu muvofiq keladi, deb hisoblaymiz. Chunonchi, ***“Safar Olloyor bu yirik uzviy asarini yozish va poyoniga etkazish uchun juda katta harakat va mehnat qilganligi yangi she‘riy shakllardagi originallikda ham, ijodiy yondashuvlardagi o‘ziga xos badiiy uslubda ham yaqqol sezilib turibdi. Mazkur asarda diqqatga sazovor muayyan davriy ijtimoiy-rubiy hodisalar badiiy yo‘sinda asarning bosh qahramoni bo‘lgan Odam ishtirokida uning botiniy va zohiriy sifatlarini ramziy-majoziy uslubda falsafiy mushohadalar bilan chuqur tahlil etish orqali muvaffaqiyatli ochib berilgan: teran ifoda, falsafiy talqin va tuyg‘ular – adabiyotda yangi obrazlar yaxlit badiiy kompozitsiyaga egaligi jihatidan yuksak e‘tirofga loyiq.*[8]”**, – deb yozadi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi She‘riyat kengashi a‘zosi, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi nazm va nasr bo‘limi mudiri Humoyun Akbar. Shubhasizki, mohir shoir va tarjimon ko‘p asarlar yozgan va boshqa tillardan ona tilimizga jahonning sara asarlarini o‘g‘irgan, ko‘p yillardan beri respublikamizning adabiy muhitini yoritguvchi eng nufuzli vaqtli nashri bo‘lgan “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining nazm va nasr bo‘limini boshqarib kelayotgan ham tajribali, ham talabchan ijodkorning bunday e‘tirofi, xususan, ***“asarda diqqatga sazovor muayyan davriy ijtimoiy-rubiy hodisalar badiiy yo‘sinda asarning bosh qahramoni bo‘lgan Odam ishtirokida uning botiniy va zohiriy sifatlarini ramziy-majoziy uslubda falsafiy mushohadalar bilan chuqur tahlil etish orqali muvaffaqiyatli ochib berilgan: teran ifoda, falsafiy talqin va tuyg‘ular – adabiyotda yangi obrazlar yaxlit badiiy kompozitsiyaga egaligi jihatidan yuksak e‘tirofga loyiq”*** deyilishi shunchaki andaza emas, balki betaraf va xolisona muhit – adabiyot kishisining haqiqiy dil iqrori sifatida jaranglaydi.

“Menga Safar Olloyorning “Odam va Odam” nomli zarbuldostonidagi hamma dostonlar yoqdi, – deb yozadi yana bir bilimdon o‘qirman-mutaxassis – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, taniqli shoir va huquqshunos Hol Muhammad Hasan. – ***Ikki yil avval Safar birdaniga to‘rtta dostonni menga o‘qishga olib borganida ich-ichimdan unga havas qildim, ozgina basadim ham keldi: nimaga u to‘rtta doston yozadi, desam, yana uchta doston olib bordi... Men bu asarlardan juda quvonib junbishgayam keldim, chunki biz e‘tibor qilmay yurgan oramizdagi shoir kattagina faylasufekan o‘z-o‘zidan. She‘riy shakllarni shunaqangi badiiy mahorat bilan keltiribdiki, ularning har biri bilan dostonni oxiriga etkazish – judayam mashaqqatli ish.*[9]”** Albatta, samimiyatda gap ko‘p. Ayniqsa, bunday mashvaratlarda, ya‘ni adabiyotga taqdim etilayotgan yangi janr muhokamasida qalb qa‘ridan qalqib chiqqan dildash e‘tirof – ortiqcha bo‘yoqsiz, andishani qo‘rqoq qilmay, ochiqchasiga ko‘ngil atalmish ezgulikda ham, yovuzlikda ham chek-chegara bilmaydigan antiqa xilqatni baralla ochib tashlash ziyoliman deb yurgan har qanday zotning qo‘lidan kelavermaydi. ***“She‘riy shakllarni shunaqangi badiiy mahorat bilan keltiribdiki, ularning har biri bilan dostonni oxiriga etkazish – judayam mashaqqatli ish”*** degan iqrorga kelish uchun adabiyot muhibi, avvalo, chinakam shoir bo‘lishi kerak. Ya‘ni, mard va mahoratli, iste‘dodli – Yaratgandan inoyat bo‘lgan qalami bor haqiqiy ijodkor bo‘lmog‘i lozim. Yo‘qsa, odam bolasi bunday dangal va samimiy munosabat yurgiza olmasligi kunday ravshan.

Alalxusus, bizgacha qilingan tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi, xususan, og‘zaki dostonchilik yozma adabiyotdan ancha oldin paydo bo‘lgani qayd etiladi. Tarixiy dalillarga murojaat qilsak, 1995-yili barcha turkiy tilli davlatlarda “Manas” eposining 1000 yilligi xalqaro miqyosda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-yanvardagi ***“Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida*** qarori hamda YUNESKOning 1999-yildagi tadbirlar rejasiga muvofiq O‘zbekistonda 1999 yil noyabrda “Alpomish” dostonining 1000 yilligi keng nishonlandi. So‘nggi tantanalar 1999-yil 6-noyabrda Termiz shahrida bo‘lib o‘tdi. Shu

munosabat bilan bu erda xalqaro ilmiy konfrensiya o'tkazildi va hokazo. Shunday ekan, bizningcha, yozma adabiyotning ildizi juda qadimiy. Chunki bundan 28 asr muqaddam bashariyatni larzaga solgan **"Iliada"** va **"Odiseya"** dostonlaridan tortib, biz fikr yuritayotgan **"Odam va Omad"** hamda **"Tabiat va Oqibat"** zarbuldostonlarigacha qancha yirik nazmiy asarlar yozilmadi. Ilmiy tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, barcha muvaffaqiyatli chiqqan asil va betakror dostonlarda epik umumlashtirish kayfiyati ustuvor bo'lib, bu badiiy mahorat jamiyat a'zolarining ma'naviy-intellektual bilimi, ijtimoiy-ma'rifiy qarashlari, hayotiy motivlari, fuqarolik pozitsiyasi va boshqa emotsional jihatlarini badiiy bo'yoqlarda yaqqol ifodalaydi. Baayni real ijtimoiy kelib chiqishi va turmush tarziga ko'nikma hosil qilib, yorqin kelajak haqidagi orzu-umidlarini mujassamlashtirishiga etarlicha o'ziga xos ko'nikma taqdim etadi. Basharti, ularning kompozitsiyaviy qurilishi va syujetlar tizimi bir-birlarini to'ldirib, bir-birlariga uyg'unlashib, yaxlitlik kasb etsa, bunday etuk dostonlarning epik xususiyatlari tarkib topgan badiiy mezonlarga tayanib, yangi ijodiy uslub va tajribalar asosida monumentallik darajasiga ko'tarila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 12 jildlik. 3-jild, jamoa., – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Dav. ilm. n-yoti, 363-bet.
- 2) Fayzulla Mo'minov, Nazira Toshpo'latova. "Jurnalistika sotsiologiyasi va psixologiyasi". 10-jild. –T.: "O'zbekiston". 2019.
- 3) Matyoqub Qo'shjonov. "Ijod mas'uliyati", to'plam, G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at n-yoti, – T.: Fan, 1981.
- 4) Qozoqboy Yo'ldosh. "Yangi ijodiy hodisa", so'ngso'z. "Odam va Omad", to'plam. – T.: "Akademnashr", 2018.
- 5) No'mon Rahimjonov. "Yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ifodasi", so'zboshi. "Odam va Omad", to'plam. – T.: "Akademnashr", 2018.
- 6) Muhiddin Omon. "Ijodiy imkoniyatlar namoyishi", so'ngso'z, "Odam va Omad", to'plam, – T., "Akademnashr", 2018. 200-bet.
- 7) Oygul Suyundiqova. "Jur'atli asar", so'ngso'z, "Odam va Omad", to'plam, – T.: "Akademnashr", 2018. 202-bet.
- 8) Humoyun Akbar. "Katta jasorat", so'ngso'z, "Odam va Omad", to'plam, – T.: "Akademnashr", 2018. 204-bet.
- 9) Hol Muhammad Hasan. "Qoyilmaqom asar", so'ngso'z. "Odam va Omad", to'plam, –T.: "Akademnashr", 2018. 205-bet.

MA'RIFIY ROMAN TEMATIKASI (NAIM KARIMOV ROMANLARI TAHLILI MISOLIDA)

Xumora Jo'raqulova,
ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimovning "Cho'lpon", "Hamid Olimjon" va "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy-biografik romanlari tematikasiga to'xtalib o'tilgan. Muallifning mazkur romanlarda maqsad qilingan mavzu va g'oyani ifodalash uslubi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Ma'rifiy roman, uslub, tema, tematika, g'oya.*

Akademik Naim Karimov qalamiga mansub "Cho'lpon", "Hamid Olimjon" va "Maqsud Shayxzoda" asarlarining mavzu ko'lami, qalamga olingan muammo ya'ni problemi, umuman tematikasiga bir nazar tashlasak. Asar tematikasi o'z ichida mavzu va problemani singdirgan bo'ladi.

Tematika tor ma’noda muayyan asarga qo’yilgan katta-kichik tema (mavzu)lar jami hisoblanadi. Mavzu – badiiy mazmun komponenti, asarda qo’yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy va shu kabi muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot material; Adabiyotshunoslikda mavzu (tema) termini ikki ma’noda ishlatiladi: 1) asarda tasvirlanayotgan hayot material; 2) asarda badiiy idrok etish uchun qo’yilgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa problemalar majmui. Asar tematikasi esa har ikkalasini nazarda tutadi. Hayotni keng ko’lamda aks ettiruvchi yirik hajmli asarlarda bosh mavzudan tashqari u bilan bog’liq bo’lgan boshqa bir qator tema (mavzu)lar ham qo’yiladi. Odatda bu mavzular o’zaro integrativ aloqada bo’lib, ular bir-birini to’ldiradi, biri ikkinchisini ochishga xizmat qiladi [Quronov, 2013:120].

Tema yoki mavzu— ijodkor tomonidan tanlab olingan va hayotning muayyan muammolarini umumiyLashtirgan voqealar tasviri, ana shu akslangan hayot (voqea) ko’rinishlarining mag’zini chaqish (fikriy tadqiqot va tahlil) va uni g’oyaviy-emotsional tarzda baholashdir. Ya’ni, ijodkor bir vaqtning o’zida uchta vazifani, bir-biriga bog’langan va chatishgan tarzda yaxlit maqsadni ko’zlab ish ko’radi:

1. Xalq va davrning milliy ko’rinishlari doimo aniq, tarixan konkretidir va har bir asarda ana shu ko’rinishlar ichidan tanlab olingan voqealar doirasi tasvirlanadi, bu tematikadir.

2. Badiiy asarda aks etgan ijtimoiy xarakterlarni yozuvchi tomonidan (g’oyaviy-badiiy) anglash (mag’zini chaqish), bu — problematika.

3. Tasvirlangan ijtimoiy xarakterga yozuvchining g’oyaviy-emotsional munosabati (muayyan xarakterni sevishi, ardoqlashi, e’zozlashi yoki ma’lum xarakterni qoralashi, rad etishi, undan g’azablanishi, aniq bir xarakterni bir vaqtning o’zida ba’zida ma’qullashi, ba’zida ayblashi va hokazo)

G’oyaviy mazmunning bu atributlari birlashadi va ayni paytda, asar qismlarini butunlikka olib keladi. Chunki badiiy asarning g’oyasi mazmunning turli tomonlarining yaxlitlashuvidan yuzaga keladi, bu yozuvchining obrazli, emotsional, umumlashtirilgan fikridirki, u xarakterlarni tanlashdan anglashdan, baholashdan kelib chiqadi.

Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy temaning ana shu ahamiyatidan kelib chiqib, uni adabiyotning ikkinchi unsuri (elementi) deb ataydi va shunday ta’riflaydi: “Tema avtor tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o’zi ko’rsatib bergan, ammo hozircha avtor tasavvurida hali to’la-to’kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib. avtorda ishlashga mayl uyg’otadigan g’oyadir” [Umurov, 2004:115].

Bu kabi nazariy talablar badiiy asarlarni shakllantirishda, ularni talqin va tahlil qilishda qo’l keladi. Ilmiy-ma’rifiy nasrda ham, problema albatta mavjud, zero, ularsiz hech qanday asar qog’ozga tushmaydi.

N.Karimovning “Cho’lpon”, “Hamid Olimjon” va “Maqsud Shayxzoda” ma’rifiy romanlarining bosh mavzusi adabiyotimizning bu uch buyuk vakili bo’lmish Cho’lpon, Hamid Olimjon hamda Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi hisoblanadi. Ammo buni shunchaki ilmiy yoritishni muallif ko’zda tutmaydi, balki ilmiylikka badiiyatdan jon ato etib tasvirlashni maqsad qiladi. Bu shoirlarning hayoti va ijodini ko’lamli tasvirlash va teran his etish, ma’rifiy maqsaddan kelib chiqib romanlarda XX asrda millat taqdiri, erk va ozodlik uchun bo’lgan intilishlar, xalqning siyosiy va iqtisodiy hayoti, ikkita jahon urushi, adabiyotimizning qamoqdagi mahbusdek nazorat va siquvga olinganligi, shaxs erki, oilaviy munosabatlar, muhabbat, eskilik va yangilik kurashi, shaxsiy va milliy manfaatlar, ma’rifat, taraqqiyot, milliy istiqloq, ijod olami va uning maftunkor sehri, ayovsiz sho’ro hukumati, o’tgan asr tarixi kabi qator mavzular ham ishlanadiki, ularning jami roman tematikasini tashkil qiladi.

O’nlab masalalar yoritilgan bu romanlar o’zining keng ko’lamligi, yarim asrdan ko’proq bo’lgan muddatni kerak bo’lsa ba’zi o’rinlarini kunma-kun, hatto soatma-soat barcha tavsilotlari bilan tiklaganligiga qoyil qolasan kishi. Shu qadar ko’p ma’lumotlarning berilishi va ayni damda birorta ham ortiqcha dalil yoki fakt asarga majburan “tiqilmagan”ligi Cho’lpon, Hamid Olimjon va Shayxzoda singari iste’dod sohiblarining real shaxs sifatida gavdalantirilishida tirgak vazifasini o’tagan. Har ikkala asardan ham sun’iy ravishda asarga joylangan materiallarni topa olmaymiz. Ularning hammasi asosiy g’oyani, mavzuni yoritish uchun xizmat qiladi. Zero, ijodkorni o’zi yashagan davrdan, uning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotidan, oilaviy muhiti va atrofidagi kishilardan, umuman jamiyatdan ayri holda tasvirlash shoir haqida hech narsa

demaslik bilan barobardir. Chunki adiblar o'zlari yashagan, ularni ijodga undagan, tuyg'ularini jumbushga keltirgan, e'tiqodlari va qarashlarini shakllantirgan, hayoti tarzini belgilab bergan va ilhomlantirgan muhit bilan bir butunlik hosil qiladilar.

Cho'lpon, Hamid Olimjon va Shayxzoda haqida yozishga ahdlangan muallif, albatta, sho'ro hukumatini, millat fojeasini, yurt kelajagini qalamga olmay iloji yo'q edi. Chunli har uchala shoir ham ana shu muhitda tug'ilib, voyaga yetib, uning jabr va sitamlarini ko'rib, vafot etganlar. Bu dahosan'atkorlar fonida yuqorida sanaganimiz, yondosh mavzular ham mahorat bilan yoritib berilganki, bu asarning naqadlik voqelikni ko'lamdor tarzda, ilmiy asoslab yaratilganligidan, va uning uchun katta mehnat va ko'z nuri sarflanganligidan dalolat beradi.

Muallif, nafaqat bu ijodkorlarning hayotini chuqur o'rgangan, shu bilan birga, tarihnin puchmoqlarigacha kirib brogan. Obyektini ular yashagan murakkab davrlar, inqiloblar, xalq qo'zg'olonlari, urush dahshatlari fonida kitobxon ko'zi oldida ilmiy-badiiy tarzda gavdalantirib bergan. Jumladan, har uch yozuvchi ham 1916-yil, iyul oyidagi xalq qo'zg'olonlarining va 1917-yil, fevral inqilobining shohidi bo'lganlar. Bu davrda Cho'lpon jadidchilik harakatlarining yetakchilaridan biri bo'lgan bo'lsa, Hamid Olimjon bola edi. Shayxzoda esa, Ozar yurtida bo'lgan. "Cho'lpon" ma'rifiy romanida muallif "mardikorlikka olish haqidagi farmon 1915-yil 25-iyunda chiqdi",- deb yozsa, "Hamid Olimjon" romanida "1916-yil 25-iyunda chiqdi",- deb beradi. Ammo, muhimi bu emas. Andijon xalqini oyoqqa turg'izgan bu voqea tavsilotlarini N.Karimov "Cho'lpon" ma'rifiy romanida "Afsuski, biz Cho'lponning Birinchi jahon urushi yillaridagi ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida, uning inqilob arafasidagi voqelikka munosabati haqida mukammal tasavvurga ega emasmiz. Lekin u oradan 20 yil o'tgach, biz izlagan savolga "Kecha va kunduz" romanida mufassal javob bergan" [N.Karimov. 2003. 69-bet]-deya mazkur tarixiy voqeaga ijodkorning "Kecha va kunduz" romanidagi Miryoqub va noib to'ra o'rtalaridagi suhbat orqali sharh keltirishni ma'qul ko'radi. Bunda muallifning o'zi qalamga olayotgan personali hayotini uning asarlari negizida asoslash, asarlarining biografik xarakterdagi sahnalarini teran anglashi, adabiyotshunos sifatidagi xususiyatlarini bosh planga chiqarayotgan bo'lsa, "Hamid Olimjon" romanida esa bu voqeani uning zamondoshi, do'sti, yozuvchi Nazir Safarovning "Ko'rgan kechirganlarim" kitobidagi ma'lumotlarga tayanib yoritganligi N.Karimovning tadqiqotchilik sifatlarini yuzaga chiqargan. Muallif bu davrda Cho'lpon bunday voqealarga "zudlik bilan javob berguvchi ijodkor" bo'lganini ta'kidlab, tuzum uning ijod namunalari e'lon qilinishiga mone'lik qilganini yozadi. Hamid Olimjonning esa keyinchalik inqilob davridagi bolalik kezlarini xotirlab yozgan she'rini keltirar ekan, shoirning o'sha davrdagi bolaligini kitobxonlar tasavvuriga singdiradi. Voqelikni bu kabi ko'rinishlarda berish uslubi, har ikki shoirning hayotini o'z kitobxoniga yaqindan tanitish istagi, muallifning oldiga qo'yan maqsadini ro'yobga chiqaradi. Belgilangan mavzu to'laqonli yoritiladi, g'oya ya'ni ma'rifiy niyat bajariladi. Andijonda, Jizzaxda va Toshkentda bo'lgan bu tarixiy to'ntarilishlar ijodkorlar hayoti bilan bog'langan holda, ularning asarlarida bo'y ko'rsatib, yurtimizdagi umumiy siyosiy va adabiy hayotni muallif ilmiy-badiiy tasvirlab beradi.

"Cho'lpon", "Hamid Olimjon" va "Maqsud Shayxzoda" ma'rifiy romanlarining mavzu ko'lami, ya'ni tematikasi o'zida birida Cho'lpon, birida Hamid Olimjon va birida Shayxzoda hayoti hamda ijodini yoritishni qamrab olgan bo'lsa, bu asosiy mavzuni yoritish uchun chor Rossiyasi, sho'rolar hokimiyati, ezilgan xalq, birinchi va ikkinchi jahon urushlari, ma'rifat, erk va ozodlik masalalari, teatr va vaqtli matbuot kabi mavzular ham qalamga olingan. Bu voqealarni muallif, ba'zan o'zi qalamga olayotgan ijodkorlari asarlarini biografik tahlil qilish orqali sharhlasa, ba'zan o'z xotiralariga, ularning yaqinlari bilan qilgan suhbatlariga, zamondoshlarining bu shoirlar haqidagi xotira va asarlariga tayanadi. Va shu mavzular kitobxonlarga faktik materiallar asosida yetkazib berilganki, bunda muallif o'z ob'ektini kitobxonlariga yanada yaqinlashtirgani, shubhasizdir.

- 1.Каримов Н. Чўлпон. Маърифий роман. – Т.: Шарқ, 2003.
- 2.Каримов Н. Мақсуд Шайхзода. Маърифий-биографик роман. – Т.: Шарқ, 2009.
- 3.Karimov N. Hamid Olimjon. Ma’rifiy-biografik roman. – Т.: Sharq, 2013.
- 3.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Т.: Akademnashr, 2013.
- 4.Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004.

NAVOIY QIT’ALARIDA NAFSNI TIYISH MASALASI

Aziza Almardonova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

I bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda Hazrat Alisher Navoiyning nafsga oid qit’alari saralab chiqilgan. Maqolada qit’a janri, uning rivoji haqidagi aniq ma’lumotlar yoritilgan. Qit’alar tarkibidagi nafsni tiyish, qanoatli bo’lish haqidagi she’riy misralar hayotiy misollar asosida o’rganilgan. Tadqiqotda statistik, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalangan holda qit’alarning nafs tushunchasi bilan bog’liq ko’rinishlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *Qit’a, Alisher Navoiy, nafs, qanoat, badiiy tahlil.*

Dunyo yaralibdiki, insoniyat yaxshi va yomon xulqlar qurshovida yashaydi. Bu olamda hech bir kishi yaxshi yoki yomon bo’lib tug’ilmaydi. Aksincha, qaysi bir yo’lni tanlash har bir odamzodning o’ziga bog’liq. Insonlar oilada, maktabda olgan tarbiyasi va ilmi bilan yaxshi xislatlar egasi bo’lib boradi. Shu bois bo’lsa kerak, buyuk allomalarimizning noyob xazinalarida rostlik, halollik, to’g’rilik kabi sifatarga ega bo’lish haqida ta’kidlanadi. Yolg’onchilik, bahillik, yomonlik kabi illatlar keskin qoralanadi. Bu durdonalarni o’qib, hamma birdek yaxshi tomonga o’zgarmaydi. Chunki har bir kishini boshqarib turadigan ichki dushmani – nafs bo’ladi. Yaxshi insonlar nafsiga emas, aqliga quloq solishadi. Va hayoti davomida doimo to’g’ri yo’lda, qalbi esa Ollohga bevosita bog’langan bo’ladi. Butun ijodi davomida insonlarni nafsiga qul bo’lmaslikka, uning har qanday nayranglariga ishonmaslikka, nafsni tiyib, ko’proq aqlga tayanishga chorlagan ijodkorlarimiz juda ko’p. Ayniqsa mumtoz adabiyotimiz namoyondalari ichida bu kabi qahramonlar ko’plab topiladi. Ulardan eng mashhuri, barchamizning xotiramizda o’chmas iz bo’lib, bir umrga muhrlangan, turkiylarning “shams – ul millati” – Alisher Navoiydir.

Barchamizga ma’lumki, Mir Alisher Navoiy ijodi bir necha asrlardan buyon olimlar tomonidan o’rganilib kelinadi. Lekin qarangki, bu daho ijodkorning yaratgan noyob xazinalari shu darajada ko’pki, o’rganganingiz sari yana yangi ma’nolarni anglay boshlaysiz. Quyidagi tadqiqotimiz Alisher Navoiyning qit’alari haqida bo’lib, ularda Navoiy nafsni tiyish orqali insonlarni to’g’ri yo’lga boshlaganiga guvoh bo’lamiz. Shu bois Mir Alisher Navoiyning “G’aroyib us-sig’ar”, “Navodir ush-shabob” kabi devonlaridagi qit’alarni tahlilga tortishga harakat qildik.

Mumtoz adabiyotimizda qit’a eng murakkab janrlardan biri bo’lib, barcha ijodkorlar ham bu janrda birdek qalam tebratmagan. Chunki qit’a yozishning ham o’ziga xos murakkabliklari bor. Yoqubjon Is’hoqovning “So’z san’ati so’zligi” kitobida qit’a haqida quyidagi ma’lumot uchraydi: “(ar.:bir narsaning bo’lagi, parchasi) – mumtoz she’riyat janrlaridan biri. Qit’ada qasida va g’azaldagi singari qofiyadosh matla bo’lmaydi, faqat baytlarning ikkinchi misralari qofiyalanadi. Bu janr matlasi tushib qolgan g’azal parchasiga o’xshab ketganligi uchun “qit’a” nomini olgan. Aslida qit’a mustaqil she’r shakli bo’lib, tugal mazmun va o’ziga xos uslubga ega...”[1. Исҳоқов,2014:273]. Aynan shu kitobda keltirilishicha, qit’a dastlab fors-tojik adabiyotida, keyinchalik turkiy adabiyotga kirib kelgan. Navoiygacha bo’lgan davrda

ham bir nechta ijodkorlar qit'a janrida ijod qilgan. Ammo Alisher Navoiy bu janrga o'zgacha sayqal bergan va uni yuksak san'at namunasiga aylantirgan. Boshqa shoirlar yozgan qit'alardan Alisher Navoiy qit'alarining yana bir farqi, ularning har biriga sarlavha berilganidir. Bu an'ana forsiy shoirlardan Anvari va turkiy shoirlardan Alisher Navoiy ijodida uchraydi ekan. Xo'sh, nega Navoiy har bir qit'aga alohida nom bergan? Buning sababi oddiy, sarlavhani o'qigan inson qit'ada qanday g'oya yetakchi ekanligini, uning yozilish sababini, shoirning maqsadini tezroq anglab oladi.

Alisher Navoiy qit'alarini turli falsafiy va hayotiy mavzularda yozishga harakat qilgan. Ammo ular orasida davlat amaldorlariga atab yozilgani ko'plab uchraydi. Xususan, quyidagi **"Devonda muhr bosqondin nafsiga shikast yetmagani uchun muhriga shikast bergani"** nomli qit'a aynan shu mavzuga bag'ishlangan :

*Chun manga lutfetti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog'im
Kim, g'ururi nafs sarkash man'iga,
Barchadin bo'lg'ay quyi o'lturmog'im,
Chun shikasti nafs hosil bo'lmadi,
Mundin o'ldi muhrni sindurmog'im.* [2. Навоий, 1989:498]

Bizga ma'lumki, Alisher Navoiy hayoti davomida turli lavozimlarda faoliyat olib borgan (muhrdor, hokim, vazir). Yuqorida tahlilga tortmoqchi bo'lgan qit'amiz muhrdorlik bilan bog'liq. Ya'ni bir insonni muhrdorlik lavozimiga kelib, faoliyati davomida nafsini mag'lub qila olmagan uchun o'z vazifasidan ketgani, muhrni sindirgani haqidadir. Bu qit'ada Navoiy har bir insonni, ayniqsa amaldorlarni o'z vazifasini suiste'mol qilmaslikka, doimo to'g'ri va halol bo'lishga undaydi. Buning uchun esa har bir kishi nafsini tiyishi lozimligini ta'kidlaydi. Shoir qit'alariga razm solsangiz, avtobiografik xarakter kasb etgandek tuyuladi. Ya'ni, Navoiy boshidan o'tgan hodisalarni qalamga olganini ko'ramiz. Taniqli adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov Navoiy qit'alari haqida shunday degan : *"Navoiy qit'alarining asosiy xususiyati shundaki, ular ko'proq traditsion mazmun va formalar bilan emas, balki to'g'ridan-to'g'ri hayot bilan, shoirning turmushi bilan bog'langan. Bu shoirning umri davomida yaratgan kundalik daftari, u yoki bu hodisalar munosabati bilan yaratgan badiholari majmuasi, hayotiy mushohadalari va xulosalaridir..."* [3. Хайитметов, 1961:52] Bu qit'a ham aynan Alisher Navoiyning hayoti va turmushi bilan bog'liq desak adashmagan bo'lamiz.

Mumtoz adabiyotimiz bevosita din bilan chambarchas bog'langan. Shoirlar o'z she'riy asarlarida diniy voqealarni yoki qahramonlarni ko'proq qo'llashga harakat qilishgan. Sababi insonlarning ongiga shu orqali kuchli ta'sir o'tkazish mumkin deb o'ylashgan. Alisher Navoiy ham qit'alariga hayotiylik berish maqsadida tarixiy voqealarga murojaat qilgan:

*Yuz tuman nopok erdin yaxshiroq
Pok xotunlar ayog'ining izi,
Lut o'g'lin ko'rki soldi tiyralik
Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi
Dahr aro yoqti siyodat mash'alin,
Pokravliqtin rasululloh qizi.* (Навоий, 1989:495)

"Pokrav niso ta'rifidakim inson onsiz xolidur va oludavash rijolkim nursizlikdin dajjoli bemisoldur" nomli yuqoridagi qit'a nafsiga qul bo'lib qolgan insonlar haqidadek go'yo. Qit'a sarlavhasidagi so'zlarni tahlil qilsak, qit'a ma'nosini tezda anglab olamiz. Pokrav – odobli, niso – ayol, oludavash – bulg'angan, rijol – erkak, dajjol – aldoqchi. Demak, qit'a odobli ayol va bulg'angan, ya'ni yomon erkaklar haqida ekan. Alisher Navoiy o'n ming xarom yo'lda yurgan erkakdan pok ayollar oyog'ining izi afzalroqligi haqida qit'aning birinchi va ikkinchi misralarida aytib o'tadi. Uchinchi va to'rtinchi misralarda bunga misol qilib Lut o'g'lini keltiradi. Xo'sh, u kim? Lut alayhis-salom – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri. Uning hayot yo'li tarixiy va diniy manbalar orqali barchamizga ma'lum. Diniy kitoblarning guvohlik berishicha, Olloh taolo Lut payg'ambari Sadum aholisining nopok ishlaridan xalos bo'lib, to'g'ri yo'ldan yurishga da'vat etishi uchun yuboradi. Lut alayhissalom

bu qavmni Ollohning yagonaligiga va bu nopok ishlari Xudoga xush kelmaganini uqtirishga harakat qiladi. Ammo nafsining quliga aylanib, shaytonning nayranglariga uchgan bu odamlar Lutning o‘zini bu yurtdan haydab chiqarmoqchi bo‘lishadi. Bu esa Olloh taologa xush yoqmaydi va Qur’oni Karimning “Naml” surasida shunday deyiladi: *“...Uning qavmining javobi : “Lut ahlini yurtigingizdan quvib chiqaring, chunki ular pokiza bo‘lishni xohlagan kishilardir”, deyishdan boshqa narsa bo‘lmadi. Bas, biz unga va xotinidan boshqa ahliga najot berdik. U (xotin)ning azobda qolguvchilar ichida bo‘lishini taqdir qildik. Va ularning ustlariga bir yomg‘ir yog‘dirdikki, bas, ogohlantirilganlarning azobi qanday ham yomon bo‘ldi”*. [4. Qur’oni Karim. 1992:265] Olloh Sadum aholisi ustiga tosh yomg‘iri yog‘dirgan edi. Sababi bu qavmning o‘nta yomon odati bor edi. Eng yomoni bachchavozlik (birjinslilik) bo‘lib, bu yomon odat Payg‘ambarimizga ham xush yoqmagan. Shu bois ham Olloh bu qavmni la‘natlagan. Alisher Navoiy ham aynan shu tarixiy voqeaga ishora qilib, bu misolni keltiradi. Insonlarni bunday nopok yo‘llardan yurmaslikka chaqiradi. Sadum aholisining boshiga tushgan holat barcha kishilarga o‘rnak bo‘lishini ta’kidlaydi. Lut qavmining yo‘q bo‘lib ketganidan keyin, Rasululloh qizi ya’ni pok ayollar yer yuzini o‘zlarining yaxshi amallari bilan yoritganini aytib o‘tadi.

Alisher Navoiyning yana bir qit‘asida esa, nafs **“o‘zluk imorati”** tushunchasi bilan qo‘llanadi :

Kimki o‘zluk imoratini buzdi,

Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.

Ul imoratni buzmayin solik

Bo‘la olmas bu naqdga molik. [5. Навоий.2011:496]

Mashhur “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kirgan qit‘adagi bu misralarda, shoir nafsni **“o‘zluk imorati”** deya, tasvirlaydi. Kimda-kim ana shu imoratni buzsa, uning iymoni mustahkam bo‘lganligini e’tirof etadi. Bu yerda huddi Ibn Sino va Rumi qo‘llagan “o‘lmasdan turib, o‘lish” konsepsiyasi mavjud. Aynan yuqoridagi misralarni taniqli navoiyshunos Ibrohim Haqqul quyidagicha izohlaydi : *“O‘zluk imoratin” buzib, naqdi fanoni qo‘lga kiritish bashariy sifatlardan forig‘ qudratli yangi bir ma’naviy “men”ga sohib bo‘lishdir. “O‘zluk imorati”, albatta, nafs. Undan qutulish iztirobi tasavvuf adabiyotidagi asosiy iztirobdir.*” [6. Haqqulov,2021:50] Demak, Ibrohim Haqqulning fikricha, nafsni yengan har qanday kishi, o‘z ichki “men”nini topa oladi. Ya’ni o‘zligini anglab, Haq jamoliga erishish mumkin. “Alisher Navoiy she’riyatida fano timsolining irfoniy mohiyati” maqolasi muallifi Alisher Razzoqov esa, “o‘zluk imorati”ni biroz o‘zgacha tahlil qiladi: *“O‘zluk imorati” – obrazli tushuncha. Inson tirikligini ta’minlovchi quvvatlar yig‘indisi – “nafsi hayvoniy”ni shu imoratning poydevori yohud ustunlari deyish mumkin. Kibru havo, manmanlik, molu davlat hirs, xudparastlik va mansabparastlik singari mayl hamda istaklar “o‘zluk imorati” ning jihozlaridir. U buzilgach, bularning barchasi barham topadi”*. [7. Razzoqov,2021:171] Har qaysi tahlilga e’tibor bersak ham, misralardagi mohiyat o‘zgarmagan. Asosiy g‘oya – nafsni mag‘lub etish, o‘zlikni anglash, komilikka intilish va Haq jamoliga yetishish. Alisher Navoiy ham aynan, shu g‘oyalarni ilgari surgan bo‘lsa, ajab emas.

Tasavvuf adabiyotida nafsni yengishning eng birlamchi shartlaridan biri qanoatli bo‘lishdir. Chunki sabrli va boriga qanoat qilgan har qanday insonning hayoti go‘zal bo‘lishi barchamizga ayon. Shu bois bo‘lsa kerak, tasavvufiy ruhda yozilgan deyarli barcha badiiy asarlarda qanoat bobi mavjud. Alisher Navoiyning ham bizga mashhur bo‘lgan “Xamsa” asari ichidagi eng birinchi doston “Hayrat ul-abror”dir. Aynan bu pandnoma ruhidagi dostonning 7-maqolati qanoatga bag‘ishlanadi. Dostonda Navoiy kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, qanoat uni boy qilishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Hazrat Navoiyning shu g‘oyasi quyida tahlilga tortmoqchi bo‘lgan qit‘amizga ham tegishlidek go‘yo. **“Qoni vasfidakim, “Alqanoatu kanzun lo yufno” mazmuni bila amal qilur va har necha nafi topsa qanoat qilmas”** nomli qit‘ada Navoiy nafsni tiyish orqali qanoatga erishish mumkinligini uqtiradi. Misralarga hayotiylik berish maqsadida misol qilib, qushlarni keltiradi:

Qanoat go‘shasin tutqilki, chun anqo bu da‘b etti,

Anga qushlar ichinda qurb qofida nishimandur.

Chu parvoriy tovug‘ning og‘zi tinmas tu‘madin garchi,

O‘lar oxir anga avval katak zindoni maskandur. (Навоий,1989:540)

Qadimgi Sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy deya ta'riflanadi. Anqo qushi. U insonlar ko'ziga ko'rinmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va boshqadan deb ta'riflanadi. Xalq orasida Anqo baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa, baxtli bo'ladi degan fikr mavjud. Alisher Navoiy ko'plab asarlarida ham bu qushni keltirib o'tgan. Xususan, qushlar haqidagi "Lison ut-tayr" dostonida. Qit'aning birinchi misrasida shoir qanoatni o'ziga odat qilgan Anqo qushi haqida aytib o'tadi. Ikkinchi misrada esa bu qush sabrli bo'lgani bois, Olloh qushlar ichida faqat unga butun yer yuzini o'rab olgan tog'da, ya'ni Qof tog'ida yashash imkonini berganini ta'kidlaydi. Keyingi ikki misrada esa xonaki tovuqni misol sifatida qo'llaydi. Ya'ni u qanoatsiz, boriga shukur qilmagani bois bir umr zindonda (katakda) yashashga majbur ekanligini izohlaydi. Tovuuqlarni yashash tarzini yaxshilab kuzatsangiz, ularni qanoatsiz ekanligiga yaqqol guvoh bo'lasiz. Chunki tovuq boqadigan kishilar yaxshi bilishadi, agar parrandalarni katakdan chiqarsangiz, ular egasi oldiga bergan donni emas, boshqa narsalarni ham olishga harakat qilishadi. Xalqimizda: "Besh qo'lini og'ziga solgan" iborasi uchraydi. Bu aynan tovuqlarga tegishli. O'ylashimcha, tovuqlarning nafs eng tuban nafs bo'lsa kerak. Sababi ularni faqatgina katakda bo'lgan hollarida qanoatli bo'lishga undash mumkin. Alisher Navoiy ham aynan shunga urg'u berib, bu ikki jonzoatni bir-biriga qiyoslagan. Aslida tovuqlar ham ozod yashashlari mumkin. Bu esa ularning o'ziga, xulq-atvoriga bog'liq. Insonlar ham aslida huddi shunday, Navoiy esa qit'aga majoziy ruh berish orqali uni yanada yaxshi tushuntirishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, nafs tushunchasi hech eskirmaydigan, umrboqiy mavzulardan biri. Uni har bir inson hayoti davomida tarbiyalab borishi mumkin. Aksincha bo'lsa, nafs insonlarni o'zining yo'rig'iga sola boshlaydi. Shunday bo'lmalik uchun har bir kishi halol bo'lishga, qalbini Ollohga bag'ishlashga harakat qilishi lozim. Ana shunda turmushi farovon, hayoti go'zal, topgan-tutganida baraka bo'ladi. Alisher Navoiy qit'alari bizni ana shu to'g'ri yo'lni topishimizga yordam beradi, desak adashmagan bo'lamiz. Hayotiy misollar orqali berilgan bu qit'alarni o'qib, har birimiz o'zimizni taftish qilishimiz aniq. Shu bois bu kabi she'riy misralarni ko'proq o'qib, tahlil qilsak, hayotimiz yanada go'zallashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Исҳоқов. Ё. Сўз санъати сўзлиги. Т.: Ўзбекистон, 2014. – Б. 273.
2. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. 20 томлик. 4-том. – Т.: 1989. – Б. 498.
3. Хайитметов. А. Навоий лирикаси. Т.: 1961. – Б. 52.
4. "Қуръони Карим". Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т.: "Чўлпон" нашриёти, 1992. 496 б.
5. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. 20 томлик. 3-том. – Т.: 1989. – Б. 540.
6. Haqqulov. I. Ma'naviy valodat va o'zlik kamoli. -T.: Alisher Navoiy va XXI asr, 2021. – B. 50.
7. Razzoqov. A. Alisher Navoiy she'riyatida fano timsolining irfoniy mohiyati. -T.: "Alisher Navoiy va XXI asr", 2021. – B. 171.

ZAMON VA MAKONNING MIFOPoETIK TALQINI

(Nazar Eshonqul hikoyalari misolida)

Nilufar Chuliyeva,

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti*

Annotatsiya

Keyingi yillar nasriy asarlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri mifologik qarash va mifopoetik shakllar vositasida olamni anglashga urinish ko'zga tashlanmoqda. Asarlarni bu jihatdan o'rganish muayyan ijodkor asarlari badiiyati, ijodiy konsepsiyasi va uslubi kabi qator masalalarda yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu maqolada ham Nazar Eshonqul ijodi, xususan,

hikoyalarining mifopoetik talqinini berish orqali hozirgi hikoyachiligimizning o‘ziga xos tamoyillaridan birini belgilash, badiiy zamon va makonning shakliy-vazifaviy xususiyatlarini ko‘rsatish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, badiiy zamon, badiiy makon, mif, mifopoetika, mifik usul, mifopoetik shakl, ongosti, ramz.*

Hozirgi o‘zbek nasrida ijodkorlar voqelikni tasvirlashda olamni mifologik anglash, bu yo‘lda mifik obraz va motivlardan foydalanish, mif sujetlarining poetik transformatsiyasi asosida asarlar yaratish asnosida jahon adabiyoti tamoyillarini o‘zbek adabiyot namunalarida aks ettirish, baqamtilashtirish yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu kabi asarlar tahlili va tadqiqi adabiyotshunosligimiz uchun yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini bermoqda. Shunday ijod namunalarini yaratayotgan adib Nazar Eshonqul nasri va uning tadqiqi shu jihatdan ham yondashilganda xarakterlidir.

Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasi o‘zbek hikoyachiligida yuqorida zikr etilgan badiiy xususiyatlar fonida alohidalik kasb etadi. Dastavval, asarning birinchi qatlamdagi mazmunini anglashga harakat qilamiz. Hikoya zamoni sobiq davrning istibdod yillari haqida xabar beradi. Qatag‘on siyosati, “quloq”lashtirish avj olgan qonli yillarning tasviri mavzusi adabiyotimizda keng qamrovga ega, albatta. Yozuvchi Nazar Eshonqulning ham aksariyat asarlariga bu mavzu yetakchilik qiladi. “Ajr” hikoyasida ham sobiq mafkura siyosati yetishtirgan manqurt – Unurning foni dunyodagi, o‘z vatanidagi qishloqdoshlariga qilgan johilligi haqida so‘z boradi. U hatto o‘z otasini ham ayamaydi. O‘g‘il eldoshlarining umriga zomin bo‘layotgan qilmishlarini otasi yoqlamagani uchun ham, mansab ilinjida ota mingan otni hurkitib, qoyadan qulatib o‘ldiradi. Bu holat yana padarkushlik hudkushlik ko‘rinishida davom etadi. Xalq qo‘shig‘idagi padarkushlik haqida to‘yda kuylagan qishloqdoshi Samad baxshini “padarkush deb meni aytding, sotqinsan» degan tuhmat bilan uzoq cho‘lga jo‘natib yuboradi. Begmat polvon, Hasan cho‘loqlarni ham qishloqdagi ta‘ziyaga borishgani uchun ayblab, umriga zomin bo‘ladi.

Hikoyada Zubayda, Samad baxshi, Begmat polvon, Hasan cho‘loq, Ne‘mat kal kabi obrazlar orqali real zamon va makon anglashilib turadi. Asardagi Zubayda obrazi eng begunoh, ma‘sum inson sifatida gavdalanadi. U so‘qirligi sabab bu dunyo tubanliklari, johilliklarini ko‘zlari ko‘rmaydi, bu esa qizning qalbi pokiza olam ekanining ramzi sifatida ifodalanadi. Matnda u ta‘rif etilgan lirizm shaklidagi monologlar hikoyaga ayricha ohang berib, uning bor ovozi qo‘shiq kuylashi olamni, jamiyatni poklovchi bir kuch, degan ramziy ma‘no ta‘kidlanadi. Hikoya matnida bu monologning bot-bot berilishi asar ohangini ta‘minlabgina qolmay, zamonlar almashinuvini ham amalga oshirish usuli sifatida qo‘llangan. Shuningdek, zamonning va makonning hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va jaholat kabi abadiy haqiqatlar oldida o‘z qoladigan va sanalgan bu tushunchalar bilan doimiy dialektik aloqada bo‘ladigan birliklar ekani to‘g‘risidagi g‘oya yaxlitlashadi.

Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi dialoglar orqali esa zamon va makon irratsionallik kasb etadi. U dunyo haqidagi tasavvurlar yo‘l, dala ramziy makoni orqali anglashiladi. Ya‘ni matnda quyidagicha tasvirlanadi: “Yo‘l naq jahannamga olib borayotganday harorat tobora ko‘tarilardi”, yoki “Yo‘l kesib o‘tgan dala esa huvillab yotardi, atrof ularning (Begmat polvon va Hasan cho‘loqning – N.Ch) sharpasidan kukunday to‘zg‘ib ketayotgan kuyindi suyaklar bilan to‘lgandi...” [Eshonqul, 2008:335].

Shu bilan birga, matnda yetakchilik qiluvchi badiiy vaqt – tun orqali ham ifodalanadi. Nazar Eshonqul sevib qo‘llaydigan mazkur badiiy vaqt birligi ramziy ma‘noga ega. Umuman, simvolizm fenomenal mavjudotning obyektivligini yengadi, metafora va ramzlar insoniyatning mavjudlik ufqlarini kengaytiradi. Shu kabi asarda anglashilgan u dunyo – arosat yoki jahannam manzarasi tun bilan qoliplanadi. Bu tunda va nihoyasiz yo‘lda o‘g‘il otani yelkasiga ko‘tarib, qirq yil tinmay qadam bosadi. Quyosh ko‘rmagan ko‘zlar, yelkalar toliqib, qirq yildan buyon tinimsiz nega, degan so‘roqqa tutilgan o‘g‘il “o‘zi tanlagan” yo‘lda azoblanadi.

Hikoyada badiiy vaqt shunchalik tezkorki, qisqa vaqtda bu dunyo va u dunyo makonlari almashinib boradi. Zamon ham, makon ham tasvirlar, dialoglar, monologlar orqali anglashiladi. Qahramonlarning kechinmalari tasviri orqali muallif hikoyaning ritmik tarangligiga, emotsional holatlarning dinamik

o'zgarishiga erisha olgan. Qahramonlarning mulohazalari, dialoglararo tezlik mos ravishda vaqtning ham harakatini tezlashtirgan, uning sig'imini zichlashtirgan. Muallif asar qahramonlarini inqirozli vaziyatlarga qo'yadi, ularni anglash uchun esa kitobxonga juda uzoq vaqt kerak bo'ladi. Natijada, hikoya zamoni va kitobxon zamoni o'rtasida keskin tafovut yuzaga keladi. Albatta, bu tabiiy hol: "yuk"i salmoqli ijod namunasini "hazm etish" doim murakkab kechgan. Matnning yana bir o'ziga xosligi, unda nafaqat zamon va makonni boshqaruvchi hikoyachi obrazi, balki badiiy muallif ham ko'rinmaydi. Bu adabiy hodisa esa zamon va makonning almashish, evrilish vaqtini yanada qisqartirgan va syujetni yaxlitlagan. Natijada ko'z oldingizda o'ta zich va puxta ishlangan kompozitsiya namoyon bo'ladi.

Y.M.Lotman ta'kidlaganidek, "Adabiy asardagi badiiy makon – bu davomiylilik bo'lib, unda personajlar joylashadi va harakat bajariladi. Aql-idrok doimiy ravishda o'quvchini badiiy va real makonni aniqlashga undaydi. Bunday idrokda haqiqat donasi bor, chunki uning fazodan tashqari munosabatlarni modellashtirish funksiyasi namoyon bo'lganda ham, badiiy makon metaforaning oldingi qismi sifatida uning real tabiati g'oyasini saqlab qoladi" [Лотман Ю.М. 1988:112]. Geografik makon va ongimizdagi makon badiiy asarda o'zaro uyg'unlashadi. Bu mutanosiblikning tasvir shakllari ham ramzlar asosida bo'lishi mumkin. "Ajr" hikoyasida makonning ramziy ifodasi o'laroq yo'l, dala, qabrison, g'or; real makonlar: muayyan qishloq, Ko'kqiya, Ko'kabuloq, Ko'ragon tog'i bo'lib, makonning har ikkala xili ham muayyan voqealar, holatlar kechuvchi faol manzil vazifasini bajargan.

Xususan, matnda qabrison o'zi o'lgan, ruhi uyg'oq tanalar mavjud makon sifatida tasvirlanadi. Qabrisondagi noma'lum ovoz – monolog shaklida o'z fikrlarini aytadi: "Narigi qabrning atrofini kimdir supurib-sidirayapti, supurgi shitiri eshitilayapti. Mening yonimda yotgan bolakay uyqu aaralash hiringlab kulib qo'ydi... Yerosti dunyosi naqadar bepoyon! Bu yerga odam qayta o'lmalik uchun keladi... Mening yon tomonimdagi qiz yana xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi. Oshiq yigiti bilan topib olishgan akalari uni qoyadan uloqtirishgan. U dunyo naqadar mudhish. Odamlar ustida hamisha yovuzlik hukmron bo'ladi..." [Eshonqul N. 2008:330].

Mazkur tasvirdan anglashiladiki, bu dunyo va u dunyo o'rtasidagi kichik manzil bu qabrisonidir. Muallif ushbu monolog orqali real va tasavvuriy makonlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradi. Mazkur tasvir sintezi orqali makondan makonga kitobxon nigohi zumda chevriladiki, har ikki makonaro masofa bir nuqtaga jamlanadi. Hikoyada ushbu tasvirdan keyin dialog orqali Ne'mat kalning o'z qizi va uning orttirib olgan bolasini bolta bilan chopib tashlangani xabari orqali foniy dunyo makoni anglashiladi. Shuningdek, yuqorida monologda aytilgan yovuzlik hukmronligi haqidagi fikr ushbu qora tasvir orqali dalillanadi. Ko'rinadiki, tasvirlararo bu ko'chuv asar g'oyasini to'ldirib boradi.

Yana bir ramziy makon nihoyasiz yo'l – u dunyoda ota va o'g'ilning suhbat kechadi. Ota o'z o'limidan keyin o'g'ilning qiyofasini ko'radi: ota uchun o'g'li tomonidan atay o'ldirilib, so'ng xo'jako'rsinga dod solganini ko'rish dahshatli edi. Ammo vaqt o'tib (matnda oniy lahzada) o'g'il o'ladi va o'z otasi bilan uchrashadi. U otasini opichlab, cheksiz, olov nafasi ufurib turgan yo'lni bosib o'tishga mahkum etilgan edi. Ota o'g'liga shunday deydi: "...sen qanchadan qancha odamlarga jabr qilmading, qanchadan-qancha begunohlarni qamab yoki ottirib tashlamading. Sen qilgan har bir ish uchun meni ularning ota-bobolari qistovga olishardi. Men esa o'sha yoqda endi yovuz niyatingning navbatdagi qurboni kim bo'larkin, uning marhum qarindoshlari ko'pmikan deb, yurak hovuchlab turardim... Sen o'liklar orasida qayta tirilar ekansan, hatto oddiygina "Nima uchun yashadim?" degan savolga ham javob bera olmaysan. Seni hatto oddiy o'liklar ham o'z saflariga qo'shmaydi, sen qum quyuni qoplab olgan sahroda yolg'iz o'zing abadiy kezib yurasan, abadiy! Bu sahro hech qachon tugamaydi; oylar, yillar, avlodlar tugaydi, lekin bu sahro hech qachon tugamaydi..." [Eshonqul N. 2008:324].

Tasvirdan ko'rinadiki, nafaqat makon, balki vaqt (zamon) ham ramziy ma'no tashib, tasavvuriy cheksizlik tomon birlashib ketgan. Natijada, hikoya mazmunida ramziy-metoforik makon va zamon ota obrazining muayyan fikrlarni ayta olishi uchun ham imkon bergan. Quyida shunday fikrlardan birini keltiramiz: "- Sizlarning katta xatolaring shuki, Uni ta'qib qildilaring. Unga qo'shib, hamma narsani ta'qib qildilaring. Aslida hamma narsaning boshlang'ichi U edi. Chunki U dunyoning ismi edi, U bu azaliy dunyoga ism bergan, zeb bergan usta edi. Dunyoni Undan ajratib olib bo'lmasdi... Sizlar buni tan

olmadilaring...” Mazkur ifodadagi U haqidagi fikrlarda Alloh, Yaratgan nazarda tutiladi. E’tiqodga ko‘ra, Allohni unutgan bashariyatning johillashuvi, yomon amallarning ko‘payishi yoki aksincha bo‘lishi orqali har kim u dunyosida qanday makon topishini o‘zi belgilaydi. Hikoyada bu orqali zamon va makon go‘yo sabab va oqibat falsafiy-dialektik kategoriyasi singari munosabatda tasvirlangani anglashiladi.

Hikoyaga boshqa bir jihatdan yondashilganda unda tizginsiz va turli yo‘nalishdagi vaqt oqimlari, turli chegaradagi yoki chegarasizlikdagi makon bizga mifopoetik zamon va makonga xos mujdalarni beradi. Zero, “Mifning betartiblik bilan chegaralangan spontan, halokatli yoki ongsiz jarayonlar bilan bog‘liq ba’zi jihatlari jamoaviy yoki individual ongni arxetip kuchiga bo‘ysundirish xavfini yashiradi” [Минделл А. 1993:182]. Mifopoetik makonning betartiblili, zamonning turli oqimga egaligi asar poetikasiga boshqa yana bir jihatdan yondashishni, tahlillashni talab etadi. Ushbu asarning mifopoetik talqinini bera olgan olimlardan biri N.Sizdikbayev shunday yozadi: “Hikoya inson hayotining o‘zaro bog‘liqligi, tarix va olam qonunlarining global muammolarini ota va o‘g‘il munosabatlarining to‘liq real tasviri bilan uzviy bog‘laydi. Hikoyada neo-mifologik o‘zgarishlarning asosi nafaqat odamni qilmishlari uchun mukofotlash syujeti va Edip kompleksining motivi, balki boshlang‘ich marosimining arxetipik motivlari bo‘lib, uning proto-syujet sxemasi 4 bosqichdan tashkil topgan: ketish (avvalgi oilaviy aloqalarning uzilishi); ramziy o‘lim; donolik sifatida o‘liklar yurtida ramziy qolish, ajdodlar tomonidan to‘plangan hayot haqida bilimga ega bo‘lish va qaytish (yangi sifatdagi ramziy tirilish)” [Сыздыкбаев Н.А. 2012:108] Hikoya go‘yoki insoniyat evolyutsiyasining shartli-ramziy ifodasiga o‘xshaydi. Tiriklik va o‘lim bilan yuzlashgan insonning asl qiyofasi haqiqat bilan, vijdon bilan to‘qnashadi. Bu yerda ezgulik va yovuzlikning azaliy kurashi mifologik tafakkur namunalarini yodimizga soladi: “Hikoya matni O‘rta Osiyoning ko‘plab xalqlari orasida mavjud bo‘lgan Qayumars afsonasiga borib taqaladigan tashbehlariga boy. Qayumars yovuzlik ruhi Ahrimanning yelkasiga chiqib, sayohatga otlanadi. Yovuzlik ruhi yelkasida o‘tirgan sayohatchining ko‘ziga ko‘ringan dunyo unga eng xira qiyofasida ko‘rinishi aniq” [Сыздыкбаев Н.А. 2012:108-109] Bu kabi dualistik qarash, aslida, har bir asarning tub ildiz xulosasidir. Chunki insoniyat yaralibdiki, aynan shu ikki qutb aro tortiladi: ba‘zan biriga yaqinlashsa, biridan uzoqlashadi.

Hikoyada e’tiborimizni tortgan yana bir ishora bu – cho‘loq chavandoz jangchi tasviri. Bu haqda ham N.Sizdikbayev tadqiqotida asosli fikrlar bor. Unga ko‘ra muallif ushbu obraz qadim tarix qahramoni, rivoyatlar sababchisi Sohibqiron Temurga ishora etadi. [Сыздыкбаев Н.А. 2012:111-112] Bizningcha ham, asardagi Ko‘ragon tog‘i bejiz tilga olinmagan. Bu makon ham “Ko‘ragoniy” nisbatiga, ya’ni Amir Temurga ishoradir. Umuman olganda, “neomifologizm tendentsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan asarlarning tipologik xususiyati shundaki, ulardagi mif vazifasini muallifning adabiy matnlarining o‘zi bajaradi, mifologemalarning rolini esa birlamchi miflardan iqtiboslar, perifrazalar va ishoralar bajaradi” [Савин П.Н. <https://cyberleninka.ru/article/n/prostranstvo-vremya-mifopoetiki-individualnogo-i-obschestvennogo>] Xullas, Nazar Eshonqulning “Ajr” hikoyasi zamon va makonning mifopoetik talqini orqali anglashiladigan haqiqatlar: sobiq davr siyosatining ziddiyatlari muammosi va uning ortida tom ma’noda Inson bo‘lib yashash, insoniylik shartlari haqidagi abadiy mavzular ko‘tarilgan.

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” Muallif hikoyaning tug‘ilish tarixi haqida shunday bayon qiladi: “Menga “Odam o‘z umrining rassomi, har kim qanday yashasa, shunday suvrat chizadi, kunlarni, umrni, umrning fasllarini chizadi” degan fikr kelib qolgan” [Eshonqul N. Akademnashr, 2014:121]. Hikoyadagi rassom chol ham aynan shunday - o‘z qismatining yaratuvchisidir. U sho‘ro mafkurasining balandparvoz g‘oyalari ta’sirida hayot kechirgan, maslak yuritgan, vaqt o‘tgach tanazzulga yuz tutgan g‘oyalar qarshisida hech kimga aylangan taqdir egasi. Asarda uch yil avval ro‘y bergan voqealar tarjimon yigit tomonidan hikoya qilinadi. Cholning uyi ijarada istiqomat qiladigan yigit nigohi orqali tasvirlanar ekan, muallif shu tarzda qahramon xarakteridagi ijtimoiy “yovviy”lik, yolg‘izlik, xarob bo‘lgan tuyg‘ular va aldangan o‘tmish odamining chirkin musibatiga ishora etadi: “Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursiga o‘tirgancha oldidagi suratromga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning

yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak, degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko'nglim ayniguday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim" [Eshonqul N. 2022:4] Eski uslubda qurilgan, vaqtida keng va hashamatli uylardan biri bo'lgan, keyinchalik tashlandiqlik qiyofasiga kirgan makon tasviri avval amaldor, so'ng esa yolg'onni rost deb xato qilganini anglagan zavolli bir kimsaga ishoradir. Makonning bunday tasviri qahramonning xarakter belgilari va ruhiyat qirralarini yanada yorqin ifodalashga xizmat qilgan deyish mumkin. Mazkur uy va tor ko'cha tasvirlariga xos parallelangan chol obrazi hikoyaning makoniy fonida begona, g'ayrioddiy, eskilik, soxtalik, pushaymonlik kabi ma'naviy belgilar tashiydi. Shuningdek, muallif uslubiga xos ramzlar esa hikoyaning voqelik ko'lamini kengaytirishga, asar g'oyasini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi: "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida butun millat fojiasining xronologik tartibi badiiy ramzlarda ochib beriladi va o'zbek millati tarixidagi yuz bergan milliy fojialarni bir qator ipga tizadi. Har bir rasm ostiga raqamlar qo'yiladi. Butun romanga arzigulik voqelikni yozuvchi kichik bir hikoyaga sig'diradi, ramzlar orqali fikrini ifodalaydi. "1957", "1947", "1937", "1928", "1926", "1921" yillar sanasi Turkiston tarixidagi qizg'aldoq rangiga bo'yalgan sanalar. Millat tarixining alamli kunlarini qisqa va lo'nda tarzda ayta olish, tasvir va talqindagi o'ziga xoslik yozuvchining mahoratidan xabar beradi" [To'laganova S. <https://oyina.uz/uz/article/888>] Demakki, hikoyada berilgan ulkan tarixiy vaqt hamda voqelik ramzlar orqali berilgan. Natijada kichik asarda badiiy vaqt qisqa tasvirli, ishoraviy, ammo sig'imi keng, zich o'lchovga ega bo'lgan.

Hikoya syujeti butun bir qish faslini qamrab oladi. Asardagi ushbu badiiy vaqt mavjud voqelikka uyg'un deyish mumkin. Rassom chol o'z umrining sovuq iqrorlarini qahraton, sokin qishda xulosalagach, bahorda ko'z yumadi. Bahor fasli hikoyada yangi davrning, yangi vaqtning tug'ilish ramzidir. Badiiy zamonning bu jihatdan o'zgarishi asarning ijtimoiy, milliy-tarixiy jihatlarini kengaytiradi. Shu o'rinda aytish kerakki, uslub jahoniy bo'lsa-da, tariximizning bu kabi qayg'uli, qora kunlariga ishora, sobiq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning shaxs tanazzuliga olib kelishi tasviri, xalq dardi kuylangani hikoyaning milliy asoslarini ko'rsatadi.

Mazkur hikoyadagi mifologizm haqida deyarli hech qanday tahlil, tadqiq yo'q edi. Faqat adabiyotshunos B.Jovliyevning dissertatsiya ishida bu masalaga atroflicha to'xtalanganini qayd etish joiz [Jovliyev B. – T.:2023]. Tadqiqotchi hikoyaning ko'pqatlamli ekanini ta'kidlab, ishda mifopoetik talqinini ham aks ettiradi. Asarga aynan maymun obrazining tanlanishi ham mafkuraviy mif ekanini yozadi: "Ma'lumki, Charliz Darvin ta'limotiga ko'ra, odam maymundan kelib chiqqan. Aynan shu ta'limotni sobiq ittifoq mafkurasi odamning kelib chiqishi hamda olamning yaralishiga, umuman, kommunistik kosmogoniyaga asos qilib oldi. Mifshunoslik tili bilan aytganda, maymun – sobiq ittifoq tuzumining "totemiga" aylangandi. Sobiq ittifoq mafkurasi odamning maymundan tarqalganini o'z ta'limotning asoslaridan biri sifatida talqin qilardi. Bu xil talqin ateizmning tub poydevori edi. Adib buni juda teran anglagan va shuning uchun ham tuzum ma'naviy tanazzulini ko'rsatishda aynan maymun obrazini tanlagan. Mifshunoslarning va mifning mohiyatini tahlil qilganlarning iborasi bilan aytganda, ayni insonning maymundan kelib chiqqani sobiq ittifoq tuzumining, A.F.Losyev nazarda tutgan mafkuraviy "mifi" edi. Nazar Eshonqul maymun obrazi bilan ana shu tuzumining siyosiy "mifi"ga ishora qiladi va istehzo tarzida hikoya so'nggida maymun odamni o'rmonga olib kirib ketayotganini, bu bilan bu tuzum ham, uning g'oyalari ham, qarashlari ham insonni hayvoniy mayllar va qonunlar hukmron "o'rmon"dan boshqa joyga boshlamaganini ramziy shaklda ko'rsatib beradi". [Jovliyev B. – T.: 2023:57-58]

Kempbell yozganidek: "Dinlar, falsafalar, san'at, ibtidoiy va tarixiy insonning ijtimoiy shakllari, fan va texnikaning ilg'or kashfiyotlari, hatto uyqu paytida bizni qiynab qo'yadigan oddiy tushlar ham afsonaning dastlabki, sehrli halqasining parchalangan ko'rinishlaridir" [Кэмпбелл Дж. <https://www.mirf.ru/book>]. Bu kabi jarayonlar inson va uning ongosti tuyg'ulari bilan uzviy bog'liqdir. Miflar va ongosti kechinmalari go'yo bir-birini yaxlitlovchidir, shu tarzda ular badiiy adabiyotda birlashadilar, yashaydilar.

Demak, Nazar Eshonqul asarlarining aksariyati bugun mifopoetik talqin etilganda o'zining yana-da

ko‘p qirralarini, qatlamlarini namoyon etadi. Nafaqat hikoyalari, balki yirik asarlari qissalari, romanlarining ham mifologik xususiyatlari, mifopoetik talqini adib ijodiga boshqa jihatdan yondashishni talab etadi; asarlarning badiiy xosligini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida). fil.fan.bo‘yicha falsafa dokt.diss.si. – T.: 2023.
2. Кэмпбелл Дж. Герой с тысячью лиц. <https://www.mirf.ru/book/>
3. Лотман Ю.М. В школе поэтического слова. Пушкин. Лермонтов. Гоголь. - М.: 1988. – 253 с.
4. Минделл А. Работа со сновидящим телом//Московский психотерапевтический журнал. - 1993.- № 2 - С. 181-213.
5. Сыздыкбаев Н.А. Художественный неомифологизм в литературе второй половины XX века. -Ташкент: Мумтоз сўз, 2012. -182 с.
6. Савин П.Н. Пространство-время мифопоэтики индивидуального и общественного. <https://cyberleninka.ru/article/n/prostranstvo-vremya-mifopoetiki-individualnogo-i-obschestvennogo>
7. To‘laganova S. XXI asr romanini Nazar Eshonqul yozsa kerak. <https://oyina.uz/uz/article/888>
8. Eshonqulov J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b
9. Eshonqul N. Mendan “men” gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 512 b.
10. Эшонкул Н. Ялпиз ҳиди / Қисса ва ҳикоялар тўплами. – Т.: Шарқ, 2008.
11. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.

A’ZAM O’KTAM SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZLAR: AN’ANA VA VORISIYLIK

Xurshida Nishonova,

*O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,
tayanch doktoranti*

Annotatsiya

Turli fan sohalarini vakillari, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, san’atshunoslar “obraz” istilohini o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib o‘rganganlar. Bir qaraganda obraz deganda ko‘z oldimizda san’at va adabiyotda hayotni o‘ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va harakterlar jonlanadi. Ushbu maqolada A’zam O’ktam she’riyatida obraz va uning tabiati, xususiyatlari, ijtimoiy, lisoniy, badiiy, psixologik jihatlari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. *A’zam O’ktam, poetik obraz, an’ana, vorisiylik.*

Poetik obrazlar biror adabiy muhit doirasida shakllanib, mukammallik kasb etadi va ma’lum vaqt oralig‘ida an’anaga aylanadi. Jamiyatsdagi insonlar tafakkurining o‘zgarishi bilan poetik obrazlarda ham yangilanish sodir bo‘ladi. O‘tgan asrning so‘nggi yillari shoir ijodida poetik obrazlar sof dunyoviy, milliy, ijtimoiy, asosga qurila boshlandi. Shu bilan bir qatorda mumtoz an’naviy she’riyatimiz ta’sirida ham poetik obrazlarda evrilish yuz berdi.

An’anaviy poetik obrazlar “*oshiq*”, “*ma’shuqa*”, “*raqib*”, “*do’st*” shoir poeziyasida yangicha talqin qilindi. Bu o‘zgarish mumtoz she’riyat ta’sirida, qolaversa, shoir e’tiqodi bilan bog‘liq holda ro‘y berdi. A’zam O’ktam ijodida ko‘zga ko‘ringan an’anaviy poetik timsollardan biri “shayton” bo‘lib, bu haqida “Rasululloh (s.a.v.) dan shayton insonning qon tomirlarida yuradi [1.317], degan hadis bor. Shaytonga qarshi kurashish, uni yengish qiyin. Shu ma’noda odam o‘zidagi shaytonning sifatlarini bilmagunicha shayton qiyofasini bila olmasligi Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Sulaymon Boqirg‘oniy ijodida talqin etilgan.

XX asrga kelib aksariyat ijodkorlarda, jumladan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Fozil Zohid ijodida

bu timsol yangicha talqin qilinadi. Ularda shaytonning sharridan himoyalaniş motivi ustuvor bo'lsa, A'zam O'ktam badiiy tafakkurida ham ana shu mazmun saqlanib qoldi. Faqat unga qarshi kurashishdagi "do'st" obrazini ifodalovchi timsollar o'zgardi. Bu Shoirning "*Ostonada*" she'rida ko'rinadi.

Shayton qancha bermasin pishang,

Bo'sag'adan xatlatmas axir,

Poyimdagi u kumush kishan,

Bo'ynimdagi bu tilla zanjir [2.10-bet].

ya'ni, "*kumush kishan*" (yo'l) va "*tilla zanjir*" (*imyon*) iboralari orqali Shoir "do'st" obrazini ramzlarga o'rab beradi. Ular orqali shaytonga qarshi kurashishga o'tlanadi.

Shoir murojaat etgan poetik obrazlardan yana biri "*it*" bo'lib, unga lirik qahramon qalb kechinmalari singdirilgan. Shoir tasavvuridagi qismatning falsafiy aks etishida "*it*" timsoli ham muhim. A'zam O'ktamgacha it Alisher Navoiyda yorga yetishish uchun vosita, Ogahiyda baxillik, tegmaganga tosh otish, ko'rolmaslik sifatini ifodalagan.

Taraqlardi darvoza tinmay,

Baqirardi bir to'da odam.

Chiqsam yotar bir it o'lolmay,

Qop-qora qon eshik ham, yer ham (2.19-bet).

Shoir A'zam O'ktam ushbu "Ijara uydagi hodisa" she'rida itga xos yaxshi va yomon jihatlarni kishilarga, ayniqsa, yo'lin yo'qotgan darbadar holatiga ko'chirib, xulosalar chiqaradi.

Bir ezildim, tiyolmay yoshni,

Bir sog'indim tug'ilgan yurti... (19-bet)

Shoir itning holiga achinish bilan qalbi shu itdek sarson ekanini ang'laydi. Aytish mumkin-ki, Shoir bu timsol orqali an'anaviy obraz "*oshiq*"ni tasvirlaydi. Oshiq esa Shoirning o'zi.

Shoir she'riyatida "*ma'shuqa*" obrazi ham o'ziga xos tasvirga ega.

Kel, desang –

Chopib so'ngaklarni

Shaqillatgim kelur (13-bet)

She'r mazmunidan bilish mumkin-ki, lirik qahramon ishq sehdan shunchalar ozib cho'p bo'lib qolgan-ki, yori chaqirsa, uning yoniga borgunicha terisi yopishib qolgan ustuxon "shaqillab" ketadi.

O'ldi deb aytsa ishonma

Yorni laqillatgim kelur.

Bormaydi til so'z deyarga,

Urmakkada bormas qo'lim.

Eshigingni kiprigim birla

Taqillatgim kelur (13-bet)

Shoirning nafaqat yori, balki, yoriga taalluqli bo'lgan har qanday narsa nozik. Shuning uchun oshiq yorning eshigini shaqillagan qo'llari bilan taqillatib, yorning diliga ozor bergisi kelmaydi. Shunda oshiqqa yordam uchun hijron yoshlarida yuvilaverib mayinlashib ketgan kipriklar yordamga keladi. Mana shu detal yorning tasvirini oydinlashtirish uchun juda mos keladi.

Yoki; *Berganing basdir qulingga, Dog'i so'raymanmu, egam?* misralarida Shoirning ruhiy kechinmalari o'z aksini topgan. «Qul»ga aylangan "oshiq" «Egam»dan yana so'rashga istihola qiladi. Ya'ni, qanoat va sabrni qismat etib belgilaydi.

"A'zam O'ktam o'ziga xos she'riy uslubga ega shoir. Shu bois uning she'rlari o'zidan bshqa hech kimga o'xshamaydi. Shuning uchun she'riy misralarda shoirning o'ktam ovozi kelib turadi: jiddiy, salobatli, ijtimoiyatli, kutilmaganda, favqulodda va tagdor. Ba'zan o'yinga solingan kinoyali, ammo ma'nodor:

Tilingizda o'sha xush navo,

Qo'lingizda o'zim bilgan soz.

Tanimayroq turibman ammo,

*Yangirganga o‘xshaysiz bir oz.
Iqbolingiz tag‘in ham kulsin,
Boshingizda so‘nmasin shu‘la.
Aravangiz muborak bo‘lsin,
Qulluq bo‘lsin yangi ashula [3. 4-bet].*

Shoir “Taraddud” to‘plamidagi “Bir kun”, “Bir tun” nomli mavzu va mazmun jihatidan ham tazodli she‘rlari orqali umr mazmuniga, inson qalbiga nazar solib, atrofdagilariga, do‘stlariga, ustoz-shogirdlar, hamzamonlari holiga, o‘z-o‘zining ichki meniga qayta-qayta nazar soladi.

*Tong yaqin!
Uzun kun boshlanar shu zum,
Tong – bu qora kunga bo‘lur nihoya.
O‘zingdan kerakdir o‘zingga hujum,
O‘zingga kerakdir o‘zdan himoya. [4, 62, 68-betlar].*

“Bir kun” shugina yakunga ega bo‘lib, “Bir tun”da o‘zlik nazar, tazarru va ofiyatga intilish ustuvorlik qiladi.

*Vujudim sog‘lomdir, biroq dil mayib,
Qilt etgim kelmayur, turarman shunday.
Birov salom desa, kundek jilmayib
Xayr degim kelar, xo‘mrayib tunday... (68-bet)*

Qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarga to‘la dunyoda yashashni osonlashtirish, po‘rtana urayotgan qalb iztrobларini sokinlashtirish har bir inson atalmish yaratqning e‘tiqodi bilan bog‘liq. Shoir she‘riyatiga xos xususiyatlarini yuqoridagi misralar vositasida teranroq tushunish mumkin. Asarda shoir ruhiyati bilan bog‘liq sog‘lom – mayib, salom – xayr, jilmayib – xo‘mrayib, muslim – kofir singari moddiy, ma‘naviy ziddiyatlar birinchidan shoir badiiyatining yuksakligidan dalolat bersa, ikkinchidan shoir detallar va she‘riy san‘atlar natijasida o‘z-o‘zini mudom taftish qilayotgan, mavjudligidan ko‘ngli to‘lmayotgan lirik “men”ning tasvirini yaratadi.

Badiiy adabiyot taraqqiyotida bizga yana bir poetik obraz ma‘lum. U “raqib”ga qarama-qarshi aspektda turib ko‘maklashuvchi “do‘st”dir. Uning eng ko‘p qo‘llanilgan varianti “ko‘ngil” bo‘lib, uni har bir ijodkor o‘zicha talqin qilgan. Shuning uchun ham bu timsolni talqin qilgan olimlar “ko‘ngil” so‘zi shaklan o‘zgarmasa-da, matnda o‘z mohiyatini o‘zgartira borganini ta’kidlashadi. Masalan, Lutfiyda “ko‘ngil” hukm etuvchi oshiq hayotini boshqaruvchisi, hayot sirlarini ochuvchi deb qaralgan. “Ko‘ngil” degan so‘zni tilga olish yoki ko‘ngil hayotiga tegishli fikrlardan she‘r yaratishni ijtimoiy an‘analar, xurlik bilan bog‘liq ko‘rinishi Cho‘lpon she‘riyatiga xos. A‘zam O‘ktam she‘riyatida ko‘ngil mutlaqo boshqacha mazmunda keladi.

*Ko‘ngil sendan rizodirman,
Biru bor ul desang basdir,
Senga izmimni berganman,
Jo‘shib mayli jinoyat qil.
Shoir yorga etishishda butun ixtiyorida ko‘ngilga topshiradi.
Anglay olmassan –
Ko‘ngilni – deydi Shoir. (69-bet)*

Chindan ham ko‘ngil yorga etishi vositasi oshiqning yo‘lboshchisi ekan, hamisha ochilmas haqiqat bo‘lib qolaveradi. “*Har qalb tirikchilik deya o‘rtanar*” satrida shoir ko‘ngilning “qalb” sinonimiga murojaat etgan. Tirikchilik domida qolgan qalb timsoli orqali mohiyatdan uzilib, maydalashayotgan insonlardan zada holda “*Qalbinga uqtirar aql o‘z so‘zin*” deya “do‘st” obrazining yana bir shakli sifatida aqlga ham murojaat qiladi. Demak, shoir “do‘st”ning e‘tiqod, tavba, toat shakllaridan foydalangan.

A‘zam O‘ktamning “do‘st” obrazlaridan yana biri “Ona”dir. “Onam fotihasi” she‘rida:

Endi sen hukumat odami, bolam,
Qo'lingga bir qog'oz berdi o'qitib.
Unutma – sen kimsan, kim ota-onang,
Yurma, qog'oz bilan elni qo'rqitib. (63-bet)

Ona duosi bilan farzand muvaffaqiyatga erishgach, kibrga erk bermay, insoniylik martabasini saqlab qolishga chorlov bor. Inson ulg'aygani sari, boylik, martaba, shon-shuhratga erishgani bilan, albatta, ona oldida u baribir bola. U hech kimni eshitmasligi mumkin, ammo onaning zaif tovushi:

Onangning bisoti faqat oq yo'ldir,
Seni tortib tursin, tuproq, ona til.
Qayda yurma, qancha umr ko'rma baribir,
Tobutda bo'lsa ham yurtingga intil. (68-bet)

Aytish mumkinki, “*Oshiq*” obrazi orqali banda, “*ma'shuqa*” deya Olloh, “*raqib*”da nafs, “*do'st*” sifatida e'tiqod, birlamchi qo'yilib, bu obrazlarning yangi shaklda zamonaviy she'riyat nuqtai nazaridan talqin qilinishi, birinchi navbatda jamiyat, millat tafakkuri, qolaversa A'zam O'ktam dunyoqarashi, shaxsiyati bilan bog'liq bo'lib, shoir shn'rlari mutolaasiga kirishgan o'quvchi e'tiqod ozodligi uchun, millat va yurtning obod kelajagi uchun qayg'urayotgan qahramon bilan to'qnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаммад Исмоил ал – Бухорий. Ал-Жоми ас-саҳиҳ. 4 жилдлик. 2 жилд. –Т.: 1997, – Б.382
2. Аъзам Ўктам. Зиёрат. - Фарғона: Янгиқўрғон, 1992. – Б. 64.
3. Яшар Қосимов. Уйғониш садолари. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 216.
4. Аъзам Ўктам. Тараддуд. Шеърлар. Т.: 1993, – Б. 80.

ADIB XURSHID DO'STMUHAMMADNING BADIY QAHRAMON YARATISH USLUBI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nozima Sulaymonova

FarDU tayanch doktranti

Annotatsiya

Uslub ijodkor shaxsi, xarakteri, uning fikr-tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning bevosita ta'siri orqali o'ziga xosligini namoyon etadi. Uslub bizni yozuvchining o'ziga xos badiiy olami va o'sha olamdagi original ifoda usullari va poetik hukmlar bilan tanishtiradi. Ushbu maqolada taniqli va mahoratli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning o'ziga xos uslubi va badiiy qahramon yaratishdagi mahorati haqidagi ayrim mulohazalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Xurshid Do'stmuhammad, uslub, badiiy mahorat, ijodiy idividuallik*

Badiiy adabiyot – inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan “mehnat faoliyati, “ruhiy faoliyat”, “estetik faoliyat” kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o'zi “aqliy”, “hissiy”, “ruhoni” faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shu ijodiy-ruhiy faoliyatda har bir ijodkor va yozuvchining o'ziga xos uslubi va alohida qahramon yaratish usuli mavjuddir.

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan, asarlari bilan o'quvchilar ko'nglidan joy olgan taniqli adib, jurnalist va yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad 1951- yili Toshkentda tug'ildi. O'rta maktabni bitirgach, 1969-1973 -yillarda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qidi. “Fan” nashriyotida, “Fan va turmush” jurnalida, “Qishloq haqiqati” gazetasida ishladi. 1986-yildan “Yosh kuch” jurnalida bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir sifatida faoliyat

ko‘rsatdi. Adibning dastlabki hikoyasi 1981-yili “Guliston” jurnalida, “Nigoh” nomli birinchi qissasi esa 1987-yili “Yoshlik” jurnalida e‘lon qilingan. “Hovli etagidagi uy” nomli birinchi kitobi 1989-yili nashr etilgan. Shundan buyon uning “Panoh”, “Oromkursi”, “So‘roq”, “Hijronim mingdir mening” qissalari, “Bozor”, “Donishmand Sizif” romanlari va o‘nlab hikoyalari chop etildi. Adibning “Jajman” (1995) kitobidan bir necha qissalari qatori “Mahzuna”, “Jajman”, “Ibn Mug‘anniy”, “Yolg‘izim – siz”, “Ko‘z qorachig‘idagi uy” singari hikoyalar ham joy olgan. Adib “Bozor” romani, “Hijronim mingdir mening” va “Ozod iztirob quvonchlari” kitoblari uchun 2000-yilgi “Ofarin” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ssenariy muallifi sifatida yaratilgan “Chayongul” televizion badiiy filmi (2000) keng tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. “Jimjixonaga yo‘l”, “Nusxakashning merosxo‘ri”, “Beozor qushning qarg‘ishi” va “Jim o‘tirgan odam” hikoyalari adibning keyingi yillar ijodida yangi sahifa ochdi.

Xurshid Do‘stmuhammad kitobxon tasavvurini o‘ziga rom etuvchi badiiy qahramonlarni yaratishdagi o‘ziga xos uslubi bilan tanilgan taniqli yozuvchidir. Shu o‘rinda adabiyotdagi “uslub” atamasiga biroz to‘xtalib o‘tsak: uslub (arabcha- tartib, usul, yo‘sin, tarz)- poetikaning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, badiiy asarning u yoki bu tarzidagi shakliy qurilishini belgilovchi prinsipdir. [1. Quronov.D. Adabiyotshunoslik lug‘ati, 2013: 341]. Uslub antropologik, ya‘ni ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. Uslubda namoyon bo‘luvchi ijodiy individuallig badiiy asarning barcha sathlarida birdek ko‘zga tashlanadi. Ilmiy muomalada “Uslub - odam” (J.Byuffon) degan qarashning mavjudligi bejiz emas: asar o‘zida ijodkor shaxsini ifodalar ekan, buni uslubda namoyon etadi. Masalan, A.Qahhorga xos jumla tuzish, A.Qahhorga xos rivoya, A.Qahhorga xos badiiy detallar funksionalligi, A.Qahhorga xos syujet qurilishi deyilishining boisiki shundaki, bularning bari A.Qahhor uslubi bilan, uning ijodiy o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Xurshid Do‘stmuhammad yaratgan qahramonlar “Sinchalak”dagi Saida singari harakatchan, tashabbuskor, kurashchan emas. “Nigoh”dagi Bek ham, “Panoh”dagi Ahmadali ham, “Oromkursi”dagi Ko‘klam Tongotarov ham, “Chayongul”dagi quyiqlikchiliklar ham, “So‘roq”dagi Bozor ham, “Hijronim mingdir mening”, “Men – sensiz, sen – mensiz”, “Kuza...”, “Katta ko‘cha”, “Yolg‘iz”dagi qahramonlar ham ko‘pchilikning biri bo‘lib, kuni o‘tganiga shukr qilib yashaydi. Ammo ular, masalan, Bozor o‘zini benarvon uradiganlar toifasidan sanamasa-da, juda ham go‘l, valakisalang deb ham bilmaydi [2. Do‘stmuhammad X. Qissalar. 260-bet].

Badiiy adabiyotning qaysi janrida bo‘lsin qahramonning ichki olamiga alohida e‘tibor beriladi. Ruhiyat olamiga e‘tiborning kundan-kun ortib borishi bugungi milliy istiqloq davrimizdagi badiiy tafakkurning oldiga qo‘ygan vazifalaridan biridir. Badiiy asar qahramoni talqinida psixologik tavsif muhim rol o‘ynaydi. Psixologik xarakteristikada muallifning ijtimoiy muhitga, qahramonlariga bo‘lgan munosabati ifodalanadi, kitobxonlarda ularga faol munosabat hislari uyg‘otiladi. Xurshid Do‘stmuhammad turmush voqeligini personajlarning turli vaziyatdagi kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog‘lab, tahlil etadiki, ayni jihat uning ijodkor sifatidagi uslubini belgilaydi. Personajlar kayfiyati, kechinmalari turli tomondan yondashilib, tahlil qilinishi esa yozuvchining asarlariga o‘ziga xos joziba bag‘ishlaydi.

Adib o‘z qahramonlarining ruhiy holatlarini, fikriy izlanishlarini tahlil etishga, uning eng intim qatlamlarini tasvirlashga intiladi. Psixologik tasvirga moyilligi F. Dostoyevskiy, F. Kafka, F. Ryunoske, G. Markes singari jahon adabiyoti namoyandalari uslubidan ta’sirlanganini ko‘rsatadi. Badiiy asarda qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo‘lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi “portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyutsinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir”. [3. Qo‘shjanov M. Oybek mahorati. 1965, 5-6- betlar.] Xurshid Do‘stmuhammad ijodida poetik vositalardan mohirona foydalanishi tufayli o‘z personajlarini ham tasviriy jihatdan hayratlanarli, ham hissiy jarangdor qilib o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantira oladi. Adib asarlarida voqelik personajlarning kayfiyati, holati, his-tuyg‘u, kechinmalari orqali aks ettiriladi. Ko‘z, nigoh, hovli etagidagi uy, kursi bu adib asarlarida personajlar ichki dunyosini, ulardagi o‘z-o‘zi bilan munozara qilib, ikkilanishlardan azoblanadigan odamlar olamini ochib berishda o‘ziga xos vosita vazifasini bajaradi. Adib qahramonlarining ayni narsalarga munosabatini ko‘rsatish asosida ularning hayotga

qarashlaridagi ajabtovur o'zgarishlar jarayoni bilan tanishtiradi. Chunki odamning fikrlashidagi o'sish, dunyoqarashidagi o'zgarish uning narsa-hodisalarga munosabatida namoyon bo'ladi.

Xurshid Do'stmuhammad uslubining asosiy jihatlaridan yana biri uning tafsilotlarga e'tibor berishidir. "Panoh", "So'roq", "Oromkursi"da, muallifning boshqa asarlarida ham adabiy qahramonning o'zi yashayotgan muhitga, undagi odamlarga munosabati va o'z-o'zi bilan munozarasi old planga qo'yiladi. Shuning uchun adib yaratgan asarlarida asosiy qahramonning o'z-o'zi bilan munozarasi asosiy o'rin tutadi. U atrofdagilarning o'ziga nisbatan munosabatini taftish qilar ekan, ularning qiyofasi, ko'z qarashi, gapirish ohangini xayolidan bir-bir o'tkazadi va diqqatini oshirgan muammoning yechimini topolmasdan ikkilanib, iztirob chekadi, o'zidan va boshqalardan shubhalanib, turli gumonlarga boradi. Insonni olqishlash yoki koyish oson. Eng og'iri eng mushkuli-uni tushunish. Yozuvchi qahramonlarining qismatini anglashga, kechmishi sahifalarini o'qish barobarida bizga ham tushuntirishga intiladi. Qahramon o'z qalbida qilt etib tebrangan hissiyot ma'nosini uqishga moyil va shu bilan barobar, tevarak-atrofidagi voqea-hodisalarni ham anglashga tashna. Ularning yuzaga kelishi, tug'ilishi, o'sishi, so'nishi bir-biriga bog'liq, biri-ikkinchisini to'ldiruvchi, boyituvchi jarayonlar. Yozuvchi o'z qahramonlarini eng nozik va qaltis holatlarga solib qo'yadi, borlig'ini, bu yorug' olamda borligini kuzatadi.

Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'alarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'zlashtirgan, doimiy izlanish, so'z va fikr qolipini yangilashga intilgan ijodkor. Adibning o'zi e'ti'of etganidek, "Uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turli tajribalarga qo'l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda, loaqal o'z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol".

Xurshid Do'stmuhammad personajlarning kayfiyati, kechinmalarini qalamga olish orqali har birimizga tanish voqelikni ko'rsatib beradi. "Katta ko'cha", "Nigoh", "Panoh", "So'roq"ni o'qiyotganida ko'pchilik ulardagi personajlar holatini o'zi ham boshdan kechirganini dabdurustdan eslaydi. Masalan, "Katta ko'cha"da personajlarning ichki kechinmalari: "O'rtada g'o'dayib turgan azamatboy S. Alievich uchun necha yillardan buyon xizmat oshiyoni vazifasini o'tagan keng, muhtasham xonaning odmi, lekin serviqor shiftiga rov nazar tashladi-da, turqiyu sumbatiga yarashgan katta-katta ko'zlarini ma'noli yumdi, so'ng ovozi chiqarmay, sovuq qotgan odamday kiftini dirillatganicha miriqib, biti to'kilib hiringladi. S. Alievich azaldan uning tayoq yutganday gerdayib va to'rsayib yurishini jini suymasdi, shunga qaramay, har safar ro'para kelishganida yigitning alp qomatini, shu kelbatiga havasmandligini alohida ta'kidlashdan erinmas, bunga sayin yigit tushmagur, banda-da, oftobda qolgan moyday suyulib ketar, S. Alievichning ko'z o'ngida so'xtasi sovuq, to'ng nuxsadan beg'ubor va sadoqatli o'rtoqqa aylanardi-qo'yardi. S. Alievich shuncha yillar mobaynida iqiga o'tirishmagan bu nusxa bilan murosa qilib kelishga o'zini majburlay olgani, mana, shu topda "g'arq pishib" hosil berayotganidan mamnun edi" [4. Do'stmuhammad X. Qichqiriq: Yangi hikoyalar. – 122-bet] tarzida tasvirlanadi. Adib asarlaridagi bu kabi o'rinlar o'zbek adabiyotida hayot hodisalari va odam obrazini gavdalantirish, insonning ichki olamiga kirib borishda dadil izlanishlar kechayotganidan darak beradi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodining yana bir o'ziga xos xususiyati uning ramzlardan keng ma'noda foydalanishidir. Ramzlardan foydalanish orqali Xurshid Do'stmuhammad o'z qahramonlariga ma'no va hissiyot qatlamlarini singdira oladi. Adib bu elementlarni sinchiklab tanlab, murakkab g'oya va tuyg'ularni ham nozik, ham kuchli tarzda o'z o'quvchisiga yetkaza oladi. Xurshid Do'stmuhammad tafsilotga e'tibor berish va ramziy ma'nodan foydalanishdan tashqari, hikoya qilishda ham o'tkir mahoratga ega. Uning har bir qahramonining o'ziga xos tarixi va shaxsiyati bor, ular ifodasi, holati va atrofi orqali nozik tarzda ishora qilinadi. Xurshid Do'stmuhammad o'zini to'laqonli va tirik his qiladigan personajlar yaratish orqali kitobxonni o'z dunyosiga jalb qila oladi va ularni har bir ijodi ortidagi voqealarni tasavvur qilishga chorlaydi.

Umuman olganda, adib mahorati har yilgi adabiy anjumanlarda doimo e'tirof etiladi [5. Abdulla Ulug'ov, 45-bet]. Xurshid Do'stmuhammad asarlaridagi personajlar o'zining o'y-mulohazalari "yuk"i ostida yashaydi. Ular muttasil mushohada yuritishi, o'zining faoliyati, ko'rgan-kechirganlarini

xayolan taftish qilishi, boshqalarning xatti-harakati, gap-so‘zi, so‘zlash ohangi, yuz-ko‘zidagi holatlarni sinchkovlik bilan kuzatib, tahlil etishi bilan boshqa adiblar asarlaridagi personajlardan ajralib turadi. Bu esa yozuvchining badiiy obraz yaratish mahorati va o‘ziga xos uslubi mavjudligidan dalolatdir. Xurshid Do‘stmuhammad o‘zining mahoratli yozuvchiligi, ramziy obrazlardan mohirona va o‘z o‘rnida foydalana olish uslubi tufayli nafaqat ko‘rinishda hayratlanarli, balki chuqur aks sado beruvchi personajlar yarata oldi. Tajribali adabiyotshunos bo‘lasizmi yoki oddiy o‘quvchi bo‘lasizmi, Xurshid Do‘stmuhammad ijodi va uning asarlarida qalamga olingan voqealar har bir kitobxonda unutilmas taassurot qoldirishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик луғати. (Д. Қуროнов ва б.) “Академнашр” Т. : 2013. – Б. 408.
2. Дўстмуҳаммад Х. Қиссалар. – Т: “Sharq”, 2001. – В. 512.
3. Қўшжонов М. Ойбек маҳорати. Т.: Бадий Адабиёт нашриёти. 1965. – Б. 120.
4. Дўстмуҳаммад Х. Қичқирик: Янги ҳикоялар. – Т: “Sharq”, 2014. – Б. 122.
5. Улуғов А. Ҳикояларда қалб акси. (2010 йил ҳикоялари ҳақида) // Sharq yulduzi. –Т:, 2011.

4 сон.

FAXRIYOR PRIZMASI: TASAVVUR TARBIYASIDAN IJTIMOIIY MAS’ULIYATGACHA

Otabek Safarov,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek modern adabiyotining taniqli namoyandasi Faxriyor ijodidagi o‘ziga xoslik tekshirilgan. Uning asarlarida yangilikka intilishning badiiy-hayotiy asoslari ko‘rsatilgan, shuningdek, Faxriyor she‘rlarini tushunish uchun adabiy ko‘nikmadan tashqari yondosh san‘at turlari va ilm-fanga oid bilimlarga ega bo‘lish taqozo etilishi ta’kidlangan. Bundan tashqari, Faxriyorning ijtimoiy faol shaxs ekani, mustaqil fikrlash va unga to‘siq bo‘luvchi omillar haqidagi chiqishlari ahamiyati zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlaridagi bitiklari orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Faxriyor, o‘zbek modern she‘riyati, badiiy tahlil

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan Faxriyor (Faxriddin Nizomov) ijodida tasavvur va tafakkur uyg‘unligini ko‘ramiz. Zotan, uning asarlaridan bahra olish, ma’no qirralarini kashf etish uchun ko‘ngil tarbiyasining o‘zi kifoya qilmaydi, balki aqlni charxlash, bilimni oshirish, zamon ilm-fani yangiliklaridan boxabarlik ham talab etiladi. Shu ma’noda Faxriyor adabiyotimizdagi haqiqiy “yangi shoir” (yozuvchi Ahmad A‘zam ta’biri)dir.

Tasavvurning moddiylashishi. O‘zbek she‘riyati o‘tmishda ham, bugun ham serqirra, sermahsul va yangiliklarga moyildir. XX asrning birinchi yarmida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom kabi shoirlar mumtoz she‘riyatdan bo‘lakcha – tamomila yangilangan yo‘lda muvaffaqiyatli ijod qilgan bo‘lsa, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Rauf Parfi, Usmon Azim singari keyingi avlodlar vakillari o‘zbek she‘riyatini yangi bosqichga ko‘tardi. E’tiborlisi – 90-yillarga kelganda zamonaviy dunyo adabiyotida kechayotgan yangilanishlarga muvofiq ravishda o‘zbek shoirlari yana ham o‘zgacharoq ifoda uslublariga murojaat qila boshladilar. Shu ma’noda Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Faxriyor singari shoirlar ijodida namoyon bo‘lgan modernistik hamda postmodernistik izlanishlar bir jihatdan mavjud adabiy uslublarga qanoat qilmaslik hissi bilan izohlansa, boshqa tarafdin yangicha dunyo odami tuyg‘ularini so‘z san‘ati orqali to‘laroq aks ettirishga harakat natijasi sifatida tushunilishi mumkin.

Professor Qozoqboy Yo‘ldoshning ta’kidlashicha, postmodern san‘at asarlari dunyoning betartib

(xaos)ligi, boshboshdoqligi, o'tkinchi va anglamsizligidan iborat postmodern manzarasini berish uchun ko'proq tasavvur, tush, ongsizlik singari holatlarni o'z tasvir ob'yekti va vositasiga aylantiradi [1. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M., 2016: 270]. Chindan ham, Faxriyorning ko'p she'rlari anglanmagan anglamlar, kechirilmagan hissiyotlar ifodasidan iborat. Masalan, uning "Kutilmaganlik", "Kayfiyat xulosasizligi" singari she'rlari hammaga tanish, hamma kechirgan, biroq hech kim aytmagan yoki qalamga olmagan hissiyotlar haqidadir.

*U ayolday keladi – kelsa,
Muhabbatday kelar daf'atan.
Gulday kelar shafolat qilsa,
U hech qachon kelmaydi atay [2. Faxriyor, 2004: 7].*

Inson soniyadan so'ng ne bo'lishini bilish imkoniyatidan mahrum. Birozdan keyin balki yaxshilik kelar, balki yomonlik – bu hozir, ayni daqiqada noma'lum va bu mavhumlik u haqda o'ylayotgan odamni behalovat qilaveradi. "Kutilmaganlik" she'ri shoirning ana shunday nomsiz kechimga nafaqat nom bergani, balki uning o'ziga xos belgilari – identifikatsiyasini ko'rsata olgani bilan yanada ta'sirlidir. Chindan ham, tuyg'ularga asir ayollik xilqatining, yurakni tuyqus egallovchi sevgining asl jozibasi ularning kutilmaganda voqe bo'lishi, oldindan baholab bo'lmas o'zgaruvchanligidadir.

Shoirning o'zgacha nigohi tufayli kutilmaganda kutilmagan tuyg'ularga oshno bo'lgan kitobxon ham beixtiyor lirik qahramonning savollari ortidan ergasha boshlaydi:

*Yana neday kelsin, aytingiz,
Xushxabarday kelsinmi kulib,
Yo kelsinmi uyda paytingiz
Adashgan bir itdayin ulib?*

*To'lov qog'oziday bir kuni
Yo pochtdan kelsinmi sizga,
Yo zamindan chiqsinmi unib
Gul singari – berguday qizga? (Faxriyor, 2004: 7).*

Kutilmaganlikni qanday kutib olish mumkin? Yorug'likdan umidsiz, mungli kayfiyatda kutsang-u ("Umidsizlik kabi tunlari // Kelsinmi u birdan cho'nglanib") birdaniga u omad, muvaffaqiyat bo'lib ("O'sha omad bo'lsa-chi agar // Baxt bo'lsa hech boshqa qo'nmagan?") chiqsa-chi? Yoki teskarisi – yaxshilikka tayyor bo'lib turganida neder ko'ngilxiralik qarshingda paydo bo'lsa, bamisoli jazirama o'rnini qahraton egallamaydimi... Xo'sh, nega shunday? Nima uchun aniq aytib bo'lmaydi? Chunki bu – kutilmaganlik, bu hodisaning tabiati o'zi shunday – "yo'l bermaydi tayyorgarlikka".

Shoirning badiiy mahoratiga xos yana bir jihat – so'zlarning o'quvchi tasavvurida qaror topgan mazmunini butkul bo'lakcha – zid ma'noda qo'llay bilishidir. Masalan, "siniq" so'zi xotiramizda butunga darz yetishi, yaxlitlikning boy berilishi bilan bog'liq tasavvur assosiatsiyasini paydo qiladi. Shunga muvofiq ravishda "ko'ngil siniqligi", "qaddi siniqlik", "orzu siniqligi" singari hayotning ravonligiga raxna yetganidan dalolat beruvchi obrazli ifodalar yaratilgan. Faxriyor esa mashhur "Geometrik bahor" asarida "siniq" so'zining biz ko'nikkan mazmuniga nisbatan antiteza yaratadi:

*Parvoz chizig'ini ming bor sindirar
(cho'ponallavich).
Yurak urishiday
uchishi bejo bu qushning,
Silliq bo'lolmaydi urmasligiday.
(Chiziqning har sinishi)
bir aldov yoxud
taqdir zarbasiga bitta chap berish,
o'ng berish imkoni bordir bir marta.
Umr uzoqligin ta'minlab berar*

unga siniqlar (Faxriyor, 2004: 128).

Chaqqon harakat va keskin burilishlarga imkonlilik – cho‘ponallavich (cho‘ponaldag‘ich) qushining tabiat in‘om etgan, hayot va mamot kurashida qo‘l keluvchi sifati. Boshqacha aytganda, bu jimitday qush osonlikcha tutqich bermaydi va bunda unga aynan keskin burilib-burilib uchish (nomidagi “aldash” ham asli shunga ishora) yordam beradi. Atoqli adib Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida keltirilgan *“cho‘ponallag‘ich qushi uchrasa ham tirik qo‘ymasdi”* [3. Xolmirzayev, 2005: 14] tasviri-da qahramonning g‘oyat o‘tkir merganligiga urg‘u berishga qaratilgan.

Asarda shoir cho‘ponallavich parvozidagi siniqlikni uning hayotiyiligiga zamin bo‘luvchi asosiy shart darajasiga ko‘taradi. Qushning har burilishida taqdir zarbalariga chap berish mahoratini ko‘radi. Tabiiyki, sapyor bir marta adashadi, deganlaridek, cho‘ponallavichning ham bir boragina o‘ng berishi hayotiga yakun yasashi mumkin...

Faxriyor she‘rlarini o‘qish nafaqat adabiy tayyorgarlik (she‘riy san‘atlarni tushunish, badiiy majozlarni ilg‘ash) ko‘nikmasini, shu bilan birga rassomlik, haykaltaroshlik kabi san‘atning boshqa yo‘nalishlari barobarida ilm-fan yutuqlariga doir bilimlarga ham ega bo‘lishni taqozo etadi. Yo‘qsa, she‘rlarning ma‘no qatamlari ochilmay sir bo‘lib qolaveradi. Masalan, “Havo manzaralari” asari bunga misol.

Dastlab shuni aytish kerakki, “To‘lqin va nigoh simmetriyasi” tarzida izoh berilgan mazkur asarning yozilish davri etib “2002” sanasi ko‘rsatilgan (Faxriyor, 2004: 138). Axborot asrida zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq yangiliklar shu qadar tezbki, hali birining mohiyatini tushunmasdan boshqasi bodrab chiqyapti, bugun hammaning damini ichiga tushirgan kashfiyot ertaga eskirib qolyapti. Shu ma‘noda “Havo manzaralari” muallifi tasavvur qudrati bilan keyingi davrlardagi yangiliklarni ancha ilgari ko‘ra bilgani e‘tiborlidir.

Insoniyat tarixining necha ming yillik tarixi tamaddun nuqtayi nazaridan bir taraf bo‘lsa, oxirgi bir asrda yuz ko‘rsatgan ilm-fan tadqiqotlari natijalari bir tarafdur. Shoir ana shu gorizontning ikki tarafini nigohlar va to‘lqinlarga ajratadi, ya‘ni odamzodning o‘z ko‘ngliga quloq tutgan damlaridagi hislari, tuyg‘ulari, izhorlarini “nigoh” ramzi bilan, texnokratlashayotgan inson qiyofasini esa “to‘lqin” timsoli yordamida ifodalaydi. Insoniyat tarixi – “nigohlar” tarixidan iborat, unda *“egali-egasiz milliardlab nigoh yuzadi”*, tevarak-atrofimiz orzu-armonli nigohlarga to‘la; bunday tasavvurda hatto osmon ham ochiq qolgan ulkan ko‘zga mengzaydi:

*Nigohlar ko‘zlarga qaytolmas,
bobolarning
olis yulduzlarga yo‘llagan
orzumand,
arjumand nigohlari.
Ko‘zlar o‘tib ketgan dunyodan
yo‘llagan nigohi qaytishin poylab
umidlarni changlatmoq uchun
bir mujda olarak
olis yulduzlarda, koinotlardan.
Darvoqe, osmon,
ochiq qolgan ko‘zidir kimning
osmon? (Faxriyor, 2004: 138)*

Darvoqe, shoir o‘tmishni ideallashtirish yo‘lidan borib, hamma nigohlarni pokiza demaydi, balki pok tiynatli insonning iltijoli qarashlariga muvoze tarzda insoniyatning azaliy yo‘ldoshi bo‘lgan illatlarni ham ta‘sirli ko‘rsatadi.

*Mana bu – iltijo, bunisi-chi – hirs,
Arqonday chuvalar oyoqlaringga
Mana bu uzun nigoh,
Egasi kimnidir
Kutganmikan yillab intizor?.. (Faxriyor, 2004: 140)*

Bu o'rinda hirsning "oyoqlarda arqonday chuvalanayotgani" bejiz emas. Tuban illat belgisi sifatida hirsli nigoh yuksakka boqmaydi, balki quyidan ko'z olmaydi. Ulug' Abdulla Oripovning "Ranjkom" dostonidagi farrosh xotinning achchiq ta'nasi yodingizdami:

*Sen-chi, rais, tayini yo'q xotinboz, nodon,
Bir qarashda ma'nilikday tuyular so'zing.
Lekin, ayt-chi, mening so'zim rostmi yo yolg'on,
Ayollarning ishtonidan uzilmas ko'zing [4. Oripov, 1989: 202].*

Faxriyorning mahorati shundaki, ifodalayotgan tashbihlari ko'pma'noli. "Uzun nigoh" majozii yo'lining uzunligini ham (kutiluvchining yo'li), nigohning yiroqlarga qaratilganini ham (kutiluvchini ko'rinmas yoqlardan izlash), ayriliqning davomiyligini ham (ko'p vaqtdan beri kutish) anglatadi.

"Havo manzaralari"da tamaddunning yangi davri to'liqlar timsolida tasvirlanadi. "Nigohlar davri"da odamzod – yaxshidir, yomondir – nedir tuyg'uga esh bo'lgan bo'lsa, "to'liqlar epoxasi" insoniyatni borgan sari texnokratlashtiryapti, yeru osmonni egallab olyapti ("osmon to'lib borar temir-tersakka")... Ochig'i, muallifning tasavvuri qo'rqinchli, bashorati umidsiz, xulosalari ayanchli, chunki endi "falak" ham "yaratgan"ga ma'nodosh emas:

*Endi fahsh ham ko'kdan kelar,
yo'ldoshlar maloik o'rnida
qismatingni boshqarar
yoki qo'g'irchoq kabi
ip emas,
to'liqlarga osib o'ynatar seni (Faxriyor, 2004: 141).*

Shoir asarni miqyosni juda keng oladi, butun insoniyat tasavvurida qoliplashgan tushunchalarni yangicha talqin etadi va shu orqali texnokratlashish nafaqat keng qirrali hayotimizni, balki undan ham kengroq bo'lgan xayolotimizni egallab olganiga urg'u qaratadi:

*To'liqlarni so'zga o'girar,
tasvirga o'girar
Jabroil o'rniga
shu bir telefon,
radiopriyomnik
yo televizor.
To'liqlar belgilar qismatimizni (Faxriyor, 2004: 143).*

Yoki:

*Isrofil burg'usi to'liqlin chaqirar,
qabul qila olmas to'liqlarni Isrofilning
burg'usi,
zamondan orqada qolgan Isrofil,
kim ham qiyomatga gunohkorlarni
burg'u chalib chaqirar endi? (Faxriyor, 2004: 160)*

Afsuski, to'liqlar bizni o'ynatishi, taqdirimizni belgilashi havoyi gap yo faqat shoirning tasavvuri mahsuli emas. Bugun bizning beixtiyor to'liqlar izmida harakatlanayotganimiz turli ilmiy tadqiqotlarda o'z isbotini topyapti. "2008 yilda Kembrij psixometriya markazi ilmiy xodimlari Mixail Kosinskiy hamda Devid Stilluel tomonidan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining psixologik portretini aniqlash maqsadida maxsus algoritm ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, 10 ta "layk" yordamida foydalanuvchi haqida uning kasbdoshlari, 70 ta — do'stlari, 150 ta — ota-onasi, 300 ta — turmush o'rtog'iga nisbatan ko'proq ma'lumot olishingiz mumkin. Singapur milliy universiteti olimlari yaratgan algoritm bilan foydalanuvchining oilaviy sharoitini 86 foiz aniqlik bilan ayta olasiz" [5. kun.uz].

Mana sizga shafqatsiz reallik! Allaqayda kompyuter ortida o'tirgan begona kas sizni bizni do'stimizdan, ota-onamizdan, umr yo'ldoshimizdan, hatto o'zimizdan (!) yaxshiroq bilsa?! Bu qanday holki, to'liqlar kayfiyatimizni, qismatimizni belgilasa, hatto sovetlar — o'sha, insonning insonligini

esdan chiqarishga uringan tuzum daxlidan ham omon chiqqan odamlar erki-ixtiyori endi *“mo‘miyoday zarra qolmay yig‘ishtirib olin”* ayotgan bo‘lsa... Bu qanday tuzum? Bu qanday hokimlik? Javob ham shuning ichida: to‘lqinlar hokimligi, axborot tuzumi... Shu ma’noda *“Havo manzaralari”* ogohlik qo‘ng‘irog‘iday yangraydi.

Shoirning so‘z qo‘llash bilan bog‘liq izlanishlari adabiyotshunoslarning doimiy e‘tiboridagi mavzulardan. To‘g‘ri, Faxriyorning qo‘llagan hamma so‘zshakllari barchaga ma‘qul kelmas, barcha tajribalari ham muvaffaqiyatli emasdir, biroq ana shu tajribalarning o‘ziyoq o‘quvchini o‘ylashga, so‘zning turli ma‘no qirralari haqida bosh qotirishga undaydi. Ki, nazarimda, shoirning asosiy maqsadlaridan biri ham shu – o‘quvchini fikr qilishga chorlashdan iborat.

Faxriyor asarlarida ramzlar, tashbehlar shu qadar qatma-qat, tasvirlar shu darajada quyuqlashib ketadiki, bir o‘qishda hammasidan zavqlanib, hammasini *“hazm qilib”* olib bo‘lmaydi. Qayta o‘qish, avvalgi mutolaada anglanmay, his qilinmay qolgan yoki shunga ulgurilmagan ma‘no qatlamlari haqida o‘ylab ko‘rishga harakat qilish zarur.

Fikr uyg‘oqligiga chaqiriq

Ijtimoiy tarmoqlar bugunimizning e‘tiborga molik voqealiklaridan biriga aylanib ulgurdi. *“Feysbuk”*, *“Instagram”*, *“Twitter”* singari tarmoqlarga ko‘pchilik kattalar yoshlarbop ermak, vaqtni o‘tkazish uchun andarmon bo‘ladigan vosita sifatida qarasa ham, aslida ularning xususiyatlari allaqachon bu qoliplardan tashqariga chiqib ketdi. Jumladan, xorijda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga eng so‘nggi yangilik, muhim va ishonchli bayonotlar manbasi o‘laroq qaralyapti. Mashhur siyosatchi arboblar, olim va fuzalolar, shoir va yozuvchilar fikrining qaymog‘ini, tadqiqotlarining mag‘zini, tutumining asosini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritishga, jamoatchilik ham ular haqida birinchi navbatda shu tarmoqlar orqali bilishga o‘rganib qoldi.

Ijtimoiy tarmoqlarda faol Faxriyor ham roziligi-yu noroziligini-yu tarmoqlarda birday bildirib boradi. E‘tiborlisi, uning *“Feysbuk”*dagi fiqralarida global muammolardan tortib, Sangijumon masalalariga qadar aks etadi. To‘g‘ri, tarmoq qisqalikni, lo‘ndalikni *“yoqtiradi”*, Internet o‘quvchilari uzundan-uzoq matnlarni (*longrid deyiladi bu ularning “sheva”sida*) o‘qishga toqatsiz, shunga muvofiq Faxriyorning fiqralari ham ixcham, kam so‘zda ko‘p ma‘noni anglash mumkin. Masalan, kunimizning og‘riqli ekologik masalalaridan biri bo‘lgan daraxtkushlikka munosabat bildirar ekan, shoir bu o‘zboshimchalik va hukumatning qat’iy siyosati o‘rtasidagi ziddiyatga (teskari proporsionallikka) e‘tibor qaratadi: *“To‘rtta daraxt kesuvchining tanobini tortib qo‘yishga kuchi yetmayotgan hokimiyatdan qanday qilib davlatni eplab boshqarishni kutish mumkin?”* Chindan ham, ekologik siyosatga boshqosh turishi lozim bo‘lgan Ekologiya vazirligi, deylik, ilbirs otib o‘ldirilganidan, chinor kesilganidan keyingina tilga kiradiki, beixtiyor to‘ydan keyingi xina naqli esga tushadi.

Darvoqe, Faxriyor fiqralarining asosiy xususiyatlaridan biri – ularda o‘zgarishi lozim bo‘lgan jamiyatni o‘zgartiruvchi ham aslida jamiyatning o‘zi ekani uqtiriladi. Boshqacha aytganda, jamiyatning yangilanishi fuqaroning o‘zgarishi emas, aksincha, fuqaroning o‘zgarishi jamiyatning yangilanishi sharti ekani haqidagi eski haqiqatning yangicha talqinlaridir. Uning bir fiqrasida umumzehniyatga xushomad qilish va nochorlik illati singib ketgani, bu esa pirovardida xalqning yagona kuchga aylanishiga to‘siq bo‘layotgani achchiq so‘zlar bilan ifodalanadi: *“Biz jamiyatdagi muammolarni hal etishni hokimiyatdan talab qilish yo‘lida Falastinni qo‘llab-quvvatlash darajasida ham birlasha olmaydigan, nochor, qo‘rqoq millatmiz. Lekin xushomad bilan maqto‘vni qotirib tashlashda oldimizga tushadigani bo‘lmasa kerak”*.

Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida Faxriyorning yumoristik qiyofasi ham namoyon bo‘ladi. Uning nozik kinoyaga yo‘g‘rilgan fiqralarida jamiyatdagi illatlar, bugungi kun kishisining hayotidagi muammolar grotesk uslubda hajv qilinadi. Masalan, 2020-yil 26-noyabrdagi fiqrasida u *“Oldingi renessanslar vaqtida ham gaz bilan elektr chirog‘i bo‘lmagan”*, deya bugungi ayrim kompaniyabozlikka berilish holatlarini tanqid qiladi. Boshqa bir fiqrasida esa kompaniyabozlik bugungi *“kitobxon”*ni ertaga *“ekofaol”*ga aylantirishi, biroq muammoning tub ildiziga e‘tibor qaratilmasa, tadbirlar tizimli tashkil etilmasa, vaziyat o‘nglanmasligi ta’kidlanadi: *“Bugun kecha kitob ko‘tarib chopib yurgan amaldorlarning hammasi ko‘chat ekuvchiga aylandi. Bu – yaxshi. Lekin ishga tizimli yondashilmay, kompaniyavozlik*

orqali hech narsaga erishib bo'lmashligini so'nggi besh yillik tarix ko'rsatib berdi. Yana iqlimimizga mutlaqo mos kelmaydigan archa bilan qarag'ay ekamizmi?"

Faxriyor soxtalikka murosasiz, ikkiyuzlamachilikning ayovsiz tanqidchisidir. Uning nazdida, chinakam vatanparvar odam *"jimgina yasbar... Vatanday"*. Xo'sh, unda ko'kragiga urib, har damda vatanparvarlikdan so'z ochadiganlar kimlar? Ularning maqsadi ne? O'ziga xos tashbih ustasi bo'lgan Faxriyor talqiniga ko'ra, bunday kaslar "aksiyadorlardir", "Vatan" otlig' "aksiyadorlik jamiyati"ning foyda tamaidagi ulushdorlari: *"Pulning quli bo'lgan odamdan vatanparvar chiqishi qiyin, chunki u hamma narsani pul bilan o'ldaydi. Vatanini aksionerlik jamiyati deb tasavvur qiladi va puli yetgancha qismini sotib olish uchun hamyonini ko'tarib keladi"*.

Garchand Internet tarmoqlarida Faxriyor ijtimoiy mas'uliyatli kishi sifatida chiqsa-da, baribir aksariyat hollarda muammoga ijodkor qalbi bilan baho beradi, ta'bir joiz bo'lsa, og'och ortidagi o'rmonni ko'rib turadi. Uning navbatdagi fiqrasida zamonaviy megopolislarning o'tkir muammosiga e'tibor qaratiladi: *"Katta shaharlarda yashaydigan odamning eng katta fojiasi – atrofida millionlab odam bo'la turib, o'zini yolg'iz his qilishi"*. Chindan, yolg'izlik kayfiyatiga berilish va uning oqibatida turli ruhiy-psixologik muammolar yuzaga kelishi dunyoning ilg'or jamiyatlarida ham o'tkir ijtimoiy masala sifatida sosiolog va psixoanalitiklar tomonidan chuqur o'rganilyapti. Boshqa bir fiqrasida esa Faxriyor tabiatdagi o'zgarishlarni shoirona ko'ngli bilan ko'radi: *"Bahorning yo'lga panjara ham, boshqasi ham to'siq bo'la olmaydi..."*

Faxriyor ijodi doimiy ravishda adabiy izlanishlarga boy. Yangilik esa hali yurilmagan yo'l, yetilmagan manzil, chiqarilmagan xulosalardan iborat. "Men Faxriyorni ko'pdan beri tanirdim, she'rlarini o'qiganman, o'zi bilan ko'p gaplashganman, lekin "Ayolg'u" muallifi, baribir, menga notanish bo'lib chiqdi yangi shoir sifatida", deb yozgandi taniqli adib, publisist Ahmad A'zam. [6, "Аёлғу", сўзбоши, 4-бет]. Shakliy-uslubiy yangilikka intilish shoirning keyingi ijodida ham yaqqol namoyon bo'lyapti. Yozuvchi Nazar Eshonqul ta'biri bilan aytganda: "Faxriyorning she'rlari nafaqat bugungi ommaviy madaniyat ruhidagi she'rlarga didi moslashgan olomon – o'quvchi, balki aksar adabiyotshunoslar uchun ham haligacha "rebus" bo'lib qolmoqda". Nazarimda, bu "rebus"ni har bir o'quvchi o'zi yechgani, yechim uchun tafakkurga zo'r bergani va bundan zavq olgani ma'qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёўлдош Қ., Ёўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
2. Фахриёр. Геометрик баҳор. (Ўнгарилган тушлар) – Т.: "Маънавият", 2004. Б- 192.
3. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар. III жилдлик. 2-жилд. Ҳикоялар. Т.: "Шарқ", 2005 – 464 б.
4. Орипов Абдулла. Ишонч кўприклари. Шеърлар, таржималар, драматик дoston – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1989. – Б.- 240.
5. <https://kun.uz/04548752>
6. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар ва дostonлар. – Т.: "Sharq", 2000. Б.-256.

MUSTAFO INTROVERT SHAXS OBRAZINING TIPIK VAKILI

Anzirat Abdikarimova,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Murod Muhammad Do'stning "Mustafo" qissasi va undagi bosh obraz Mustafo cholning o'zgacha introvert shaxsiyati, ruhiy olami haqida so'z boradi. Muallifning obraz yaratish mahorati haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Murod Muhammad Do'st, "Mustafo" qissasi, introvert shaxsiyati, personaj

Adabiyot insonni anglashga, uning his-tuyg‘ular olamini idrok etishga ko‘mak beradi, shu ma’noda adabiyotga insonshunoslik sifatida qarash uning birlamchi mohiyatini aks ettiradi. Insonning o‘y-kechinmalari, xayoloti, qalb sezimlari, ma’naviy olamini tasvirlashda badiiy so‘zning qimmatini beqiyosdir. Zotan, inson qalbida kechayotgan tuyg‘ularini, iztiroblarni, o‘kinch va armonlarini o‘z holicha tilida bayon eta olmaydi, unga jur‘at va ichidagi tug‘yonilarga mos so‘z yetishmaydi, bu o‘rinda badiiy adabiyot o‘z so‘zini ayta oladigan qudratli kuch sifatida nomoyon bo‘ladi. Shu badiiyatni so‘zga jo eta oladigan yozuvchi va shoirlar hisoblandi. Ular asarlari orqali jamiyatning, bashariyatning ich-ichidan yuzaga chiqara olmayotgan dil so‘zlarini, hayotga, dunyoga bo‘lgan munosabatlarini, yuksak maqsad va chin insoniy kechinmalarini turli rakurslarda ko‘rsatib beradi, kitobxonnni o‘ylashga, qahramonlarning ruhiy olamiga quloq tutishga o‘rgatadi. O‘zbek adabiyotida ham so‘zning tabiatini, uning nozik o‘ziga xosliklarini chuqur anglagan, so‘zga yuksak nafislikni hamohang eta olgan ijodkorlar talaygina, shular orasida Murod Muhammad Do‘st ijodi alohida ahamiyatga ega. Uning betakror badiiy olamga, kinoyaviy qochiriqlarga, o‘zgacha tabiatga ega qahramonlar aks etgan asarlari yillar o‘tsada o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q.

O‘zbek nasrining 70-yillar avlodi oddiy kishilarning, qishloq odamlarining asosiy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bevosita aloqador bo‘lmagan hayotini, milliy- maishiy turmush manzaralarini tasvirlashda yaxshi natijalarga erishgani tanqidchilikda ko‘p bor qayd etilgan. Jumladan, Murod Muhammad Do‘st ham yuqorida sanalagan idilliyaviy munosabat aks etgan asarlari (“Bir toychoqning xuni”, “Dasht-u dalalarda”, “Mustafo”) va “Galatepaga qaytish” qissasida milliy xarakterlar yaratish, davr kishilarining kundalik maishiy turmush manzaralarini tasvirlash borasidagi mahoratini namoyish etdi. [1. M. Sheraliyeva, 24-bet]. Shuningdek, yozuvchi oddiy odamlarning ham qalbida ulkan po‘rtanalar, tiliga chiqara olmaydigan armonlar, isyonlar, dard-u hasratlar bo‘lishini psixologik tasvir orqali badiiy so‘zda jonlantiradi. Buning misoli sifatida “Mustafo” qissasiga e‘tibor qaratilsa, unda Mustafo obrazi orqali o‘ziga xos introvert shaxs xarakteri nomoyon bo‘ladi. Introvert atamasi 1755-yildan boshlab ingliz lug‘atlarida atama sifatida mavjud bo‘lgan. Bu atama psixologiyada inson tiplariga nisbatan qo‘llangan. XX asrda Karl Gustav Yung “Psixologik tiplar” kitobida introvertlar (lotincha-ichkaridan) hayot energiyasi ichkariga yo‘naltiragan odamlardir. [2, Gustav Yung]. Ular uchun shaxsiy va ichki dunyo katta ahamiyatga ega. U tug‘ma introvert shaxs emas, lekin unda bunga nisbatan moyillik sezilsa-da butunlay o‘z qobig‘iga o‘ralib olgan deyish birmuncha haqiqatdan yiroqdek tuyiladi, balki u bosib o‘tgan yo‘l, taqdir, turmushning chigal o‘yini uni shu holga solgandir: “Mustafo kamyurim odam, juda qistov bo‘lmasa, uyidan ko‘p jilmaydi. Ba‘zida G‘uchchi chol bilan Ibodulla Maxsumga qo‘shilib, qishloqning to‘yiga boradi, azasiga boradi, o‘zi ham bir uzr-u bahona bilan elga osh ulashadi. Lekin bularning barisi, qishloqchilik, eldan chiqmaslikning vajidan... O‘zligicha aralashmaydi. Tortinadi. Hatto tug‘ishganlari bilan bordi-keldisi siyrak. Bazida shuni o‘ylab, o‘zi ham hayron bo‘ladi. Otasi bilan onasining ko‘zi ochiqligida hammasi inoq edi... [3. M. M. Do‘st. Mustafo]. Mustafoning kamsuqum bo‘lib qolishiga, odamlar qo‘shilmasligiga uning ruhiyatiga berilgan qattiq zarba – qizining qilgan gunohi edi, chunki u oriyatni, or-nomusni oliy qadriyat darajasida ko‘radigan shaxs edi. Uning birdan bir qizi-uning qadr-qimmatini, nomusi edi. Qizining “xato”si esa uning shusiz ham yara yuragini(o‘g‘li ham urushga ketib qaytib kelmagan edi) o‘rtadi, boshini egdi, shu sabab kechirmadi, o‘limi yaqinlashganini bilsa-da, qizining oh-vohlariga ham qaramadi. Nomus e‘tiqodining bir bo‘lagiga aylanib ulgurgan inson uchun kechirish og‘ir edi. Qissani o‘qish mobaynida Mustafoning bir so‘zligi, samimiyliigi, ko‘ngilchanligi, soddaligi anglashiladi. Bu ukasining o‘g‘li Usmonaliga qilgan yaxshiliklari, uning barcha xatolarini kechirishi, qo‘lidan kelgancha yordam berishida kuzatiladi. Mustafoning birdan bir umidi shu Usmonalidan edi. Mustafo o‘limidan keyin uyining chirog‘ini yoqib turadigan inson sifatida ko‘rardi uni. Usmonali ichkilikka mukkasidan ketgan, hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotgan edi, aslida uning qalbi pok edi, beg‘ubor edi, ammo o‘sha qiz sabab yuzi shuvut bo‘ldi, muhabbatdan ko‘ngli qoldi. Usmonali juda ta’sirchan edi, Tillaning uni rad etgani emas, balki odobsizligi boshini xam qildi. Mustafo va mulla Doniyorning sovchilikka borishi va u yerda ularga qilgan hurmatsizlik, ming yillik asriy an‘analarning

qadrsizlanishi, “zamonaviylik” niqobi ostidagi andishasizlik, axloqsizlikni yozuvchi mahorat bilan ko'rsatib beradi: “Mustafo o'sha eshitgan gaplarini tiliga oldi: “Sizda bir cho'ri bor, bizda bir bo'ri... Shularning boshini chetsak... “Mening qizim cho'rimas, o'z huquqi o'zining qo'lida”, – dedi ona bo'lmish. Mustafo shunday yaxshi gaplarning zoe ketganiga achindi. “Qizingga ayt, Oyparcha, - dedi mulla Doniyor. - Sovchi turgan joyda ko'p ko'rinmasin, bizdan sal uyalsin...”. Xotin qiziga hech narsa demadi. “Bugunning bolasi-da, mulla buva, - deb kuldi u. (31-bet) Milliy o'zbek an'alarining, urf-odatlarining eskilik sarqitiga aylanib borayotgani kitobxonni o'yg'a toldiradi. Yozuvchi asl qadriyatlar yillar o'tsa-da o'zining qimmatini, mohiyatini yo'qotmasligini, shu bois “soxta zamonaviylik” deb qon-qonimizga singib ketgan chin insoniy munosabatlar mujassamlashgan urf-odatlarga befarq qaramaslik lozimligini voqelik asnosida ko'rsatib beradi.

Qissaning yana bir e'tiborli jihati shundaki, qissadagi har bir chol obrazi jamiyatdagi ma'lum bir toifadagi insonlarning prototipi sifatida ko'zga tashlanadi. Qo'lidan hech bir ish kelmasa ham o'znini “aqli raso” deb biluvchi Nazar Maxsum (Muallif uni “bodiroq” deb ataydi), mard, tanti Raim oqsoqol, Ibodulla Maxsum, G'uchchi chol kabi personajlar qissaga o'zagacha ruh beradi. Ammo Mustafo ulardan o'zining mehnatsevarligi, mehribonligi, do'st-u yorlariga, hamqishloqlariga jonkuyarligi bilan ajralib turadi, u hammaning dardini his qiladi, ularga malham bo'lishga intiladi. Bu jihatlar uning qalbi, ma'naviy olami pok inson ekanligidan dalolat beradi. Qissanavis o'z asarida yuksak ma'naviyatli, ziyoli, ulkan maqsadlarga va g'oyalarga ega bo'lgan qahramonni asar markazga olib chiqishi mumkin edi, ammo ijodkorning maqsadi oddiy odamlar orasida ham ulkan qalbli, iymon-etiqodli insonlar borligini ko'rsatishdir. Zero, insonni ulug'lash, uning ezgu fazilatlarini qadrlash, e'tirof etish va jamiyatga o'rnak qilib ko'rsatish badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шералиева М. Хозирги ўзбек насрида киноя. – Тошкент: Akademnashr, 2016. Б– 24.
2. Yung falsafasi. uz.fashionrebelsbook.com>17195680-jungs-...
3. Мурод Муҳаммад Дўст. Мустафо. Қисса. Т.: Ёш гвардия. 1989. Б- 64.

ALISHER NAVOIYNING “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA RANG SIMVOLIKASI

Musharraf Abdiraimova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya

“Layli va Majnun” dostoni sevgi tarixidagi eng mungli va fojiaviy qissa hisoblanadi. Ushbu maqolada Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida uchrovchi ranglar simvolikasi va ular orqali ifodalangan poetik mazmun haqida mulohaza yuritiladi. Dostonda uchrovchi rang bilan bog'liq baytlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: “Xamsa”chilik an'anasi, “Layli va Majnun” dostoni, rang simvolikasi, doston.

Navoiy haqidagi dastlabki tadqiqot ishlari uning zamondoshlari tomonidan hali hayotlik chog'laridan boshlangan edi. Jumladan, Xondamir “Makorim ul-axloq” (“Yaxshi xulqlar”), Mirxond “Ravzat us-safo”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirilar yig'ini”) asarida Navoiy hayoti va shaxsiyatiga oid ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” sida Navoiy haqida shunday deydi: “Alisherbek— begi emas edi, musohibi edi” deya Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatga ta'rif bergan bo'lsa, Mirzo Haydar o'zining “Tarixi Rashidiy” asarida: “Uning (Navoiyning) asli uyg'ur baxshilaridan va uning otasini (ya'ni Navoiyning otasi) kichkina baxshi der edilar, oddiy kishilardan edi” — degan ta'riflarni

uchratamiz. [1. “Navoiyning qalb daftari”, 32-bet]. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” i ta’sirida yaratilgan “Bahoriston” (A.Jomiy) asari 8 ravza (bob) dan iborat bo‘lib, 7-ravzada 39 shoirdan biri sifatida Alisher Navoiyga to‘xtalib o‘tadi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta’kidlanadi. Husayn Boyqaroning “Risola”sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she’riyati hamda “Xamsa” asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir “so‘z mulkinging kishvaristoni, sohibqironi” deb ulug‘lanadi. [2. “Navoiyshunoslik”, 7-bet].

Alisher Navoiy merosini XX asrda A. Fitrat, V. Mahmud, A. Sa’diy, V. Zohidov, Oybek, Bertels, S. G‘aniyeva, I. Sulton, A. Qayumov, A. Hayitmetov, N. Mallayev, Abdug‘ofurov, B. Qosimov, Y. Is’hoqov, B. Sarimsoqov, Sh. Sirojiddinov kabi adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan o‘rganildi. Abduqodir Hayitmetov Navoiy ijodida “Layli va Majnun” dostonining o‘rni haqida: “Alisher Navoiy o‘z qahramonlarining ayanchli taqdiri orqali o‘z davridagi ezilgan xalq ommasining taqdirini ham aks ettirgan va bunday o‘rinlarda xalq ommasining keskin noroziligini ham ifoda etgan” [3. “Navoiy dahosi”, 45-bet]. Yana bir adabiyotshunos olim Olim Sharafiddinov o‘z tadqiqot ishida Navoiy hayoti va ijodi bilan bir qatorda “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostoniga oid maxsus bob ajratgan. Aziz Qayumov esa “Layli va Majnun” asaridagi Qays obraziga alohida to‘xtalgan. “Dostonning yakunlovchi bobida Navoiy bu g‘am dostonini “yig‘lay-yig‘lay tugatdim” deb xabar qiladi. Dardmand, ishqli kishilarni ulug‘laydi, yasama, qalbaki ishq egalarini qoralaydi. Shoir o‘quvchilarining ishq g‘ami bilan shod bo‘lishlarini va uni ham yod etishlaridan umidvor bo‘ladi” [4. “Alisher Navoiy”, 85-bet] deydi.

Alisher Navoiy “Xamsa” siga kiruvchi “Layli va Majnun” dostoni dastlab arab va fors xalqlarida turli xil rivoyatlar ko‘rinishida bo‘lgan. Bu qissani dastlab badiiy adabiyotga bir qator ijodkorlar yuzdan ortiq javob tariqasida o‘z asarlarini yaratishgan. Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z davrigacha 12 ta “Layli va Majnun” dostoniga javob yozganlarning ism-sharifini keltirib o‘tadi. [5. Layli va Majnun syujeti.].

Alisher Navoiy o‘zigacha yozilgan “Layli va majnun” haqidagi afsonalarni va Nizomiy, Ganjaviy, Jomiyar tomonidan yozilgan dostonlarni o‘rgangan va dostonning asosiy syujetini saqlagan holda unga yangicha ma’no berib, o‘zining “Layli va Majnun” dostonini 1484-yilda yozib tugatadi. [6. “Layli va Majnun”]. “Xamsa” tarkibiga kiruvchi uchinchi dostoni birinchi turkiy tilda yozgan dostoni bo‘lib, 3622 bayt, 38 bobni o‘z ichiga oladi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni ham boshqa shu nomdagi dostonlar kabi aruzning *bazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maf’uvlu maf’oilun fauvlun - - V/ V - V -/ V - -)* vaznida yozilgan, hamd—Allohning madhi, na’t—payg‘ambar madhi (3-bob), 5-bobda Navoiy N.Ganjaviy va A.Xusrav Dehlaviylarni madh qiladi. Dostonning beshinchi bobida dastlab so‘z ta’rifi berilgan. Navoiy so‘zga ta’rif berar ekan, uning olamdagi borliqlardan ham ilk yaratilganligini, uning dur-u gavharlardan ham tengsiz ekanligini ta’kidlaydi:

Aytib sovumas tarona sen-sen,

Olib qurumas xizona sen-sen.

(Sen aytib, eshitib sovimaydigan qo‘shiqsan. Qancha sarflasa ham bo‘shamaydigan xazina o‘zingsan.) Navoiy deyarli barcha doston va g‘azallarida so‘zni mana shunday “guhari sharif”, “bebaho gavhar” deya ulug‘lagan.

“Layli va Majnun” da rang simvolikasi. Badiiy adabiyotda rang simvolikasida ranglar, ularning har birida ma’no, ramz yashiringan bo‘ladi. Badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan ranglar “Vahdat ul-vujud” nazariyasi deyiladi va bu nazariyaning mohiyatida olam va undagi jamiki narsalar Olloh sifatlarining tajallisidir degan g‘oyaga asoslanadi. Bu tushuncha tasavvufiy va diniy tushuncha bo‘lib, shoirlar ijodida va ularning asarlarida talqin qilinadi.[7. S. O‘tanova, 45-bet]. Jumladan, Alisher Navoiy ijodi ham bundan holi emas. Navoiy ko‘plab asarlarini “Vahdat ul-vujud” nazariyasiga asosan yozgan va shoirning asarlarida, g‘azallarida rang bilan bog‘liq tasvirlarni uchratamiz. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim Y.Is’hoqovning ma’lumot berishicha: ““Xazoyin ul-maoniy”da rang bilan bog‘liq holda 31 ta g‘azal (“G‘aroyib us-sig‘ar”da 9 ta, “Navodir ush-shabob”da 7 ta, “Badoye ul-vasat”da 8 ta, “Favoyid ul-kibar”da 7 ta) bor”. [8. Y. Is’hoqov, 124-bet]. Asarlarda uchraydigan rangga aloqador ramziy-poetik ifodalar

obrazning takomilida asosiy o'rinni ifodalashi bilan bir qatorda, ayni paytda qahramon ruhiyatini, uning holatini ochishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy lirikasida sariq rang bilan bog'liq tasvirlar salmoqlidir:

Boshdinki qadam qilib durur mehr,

Istab seni bo'ldi **zafaronchehr**.

Nurafshon oftob boshini oyoq qilgancha, seni axtarib rangi zafaron bo'ldi.

Shu o'rinda aytish joizki, shoir yashagan muhitda ya'ni temuriylar davrida sariq rang hokimiyat, davlat ramzi sanalgan.

Ya'ni ko'rubon oni Qays mahzun,

Ruxsorini qildi **kahrabogun**.

Ham chehrasi rangi **kahrabodek**,

Ham ko'nglida qo'zg'olon sabodek.

Bir-biriga o'ralib ketgan shu'lalarni yel xazon bargi deb tasavvur qildi, hazin Qays uni(Layli) ko'rib, yuzi kahrabodek bo'ldi, chehrasi ham kahraborang, ko'nglida ham sabodek tug'yon. Ushbu baytda ham tashbex badiiy san'atini, hamda tashxis san'atini uchratamiz. Qaysning Layli yuzini ko'rganidagi holatini Navoiy ushbu go'zal tashbexlar yordamida jonlantirgan, ya'ni Qaysning yuzi kahrabodek-sap-sariq tusga kirib, aql-u hushini yo'qotishi va chehrasi ham kahrabo rangiga kirdi deydi. Navoiy sariq rang vositasida asosan oshiqning ma'shuqasiga erisholmagandagi holatini ifodalashda foydalangan.

Sorig' gul uza sabuhi yomg'ur,

Oltun tabaq ichra ko'rguzur dur.

Yoxud yaraqon o'tin qilib tez,

Sorig' yuziga bo'lur araq rez.

Sariq gul ustiga tushgan tong yomg'iri oltin tabaq ichra to'ldirilgan injularga o'xshar yoxud yaraqon (sariq kasalligi) kasali uning haroratini oshirib, sariq yuziga ter donalarini tepchitar edi.

Tadqiqotchi Sirdaryo O'tanova o'zining ilmiy dissertatsiyasida rang bilan bog'liq jihatlarni quyidagicha ifodalaydi: "Rang poetik unsur sifatida badiiy an'analar tadriji davomida rivojlanib, poetik tafakkurning barqaror elementiga aylanib borgan. Buni mumtoz adabiyotda ma'shuqaning yuzi, lablari **qizil**, zulfi, qoshi, ko'zi **qora**, xatti **yashil**, tanasi **sariq** yoki ushbu rangga yaqin qorishiq ranglar orqali tasvirlanganligidan namoyon bo'ladi. An'ananing muayyan rangdan faqat ma'lum obyekt bilangina bog'liqlikda (qora rangdan faqat soch, qosh, ko'z; qizil rangdan yuz, lab tasvirida va h.z.) foydalanish talabi ushbu ranglar va ular ifodalagan simbolik mazmun talqinini chuqurlashishiga xizmat qilgan". (S. O'tanova, Diss.)

Asarda eng ko'p uchraydigan ranglar quyidagi jadvalda aks etgan:

Sariq rang	Yashil	Qora rang	Ko'k rang	Lojuvard
Xazon rangi	Yoz yomg'iri yetgach aylading bot, Yer chakmanini yashil sakarlot.	Siyohitob Gohiki kasofat etti mahtob, Mehr oltunin aylading siyohitob	Moviy Jaybi aro tugma tiyru Nohid, Egnida tirozi Oy-u Xurshed. Yo'q-yo'qki, bu yetti jirmi moviy , Anda yetti chobuki samoviy .	
Za'faron Boshdinki qadam qilib durur mehr, Istab seni bo'ldi zafaron chehr.		Bu nav' qaro kun ichra qorib, Ya'niki, qaro tunim oqorib,		

Kahrabodek Kahrabogum Ya’ni ko’rubon oni Qays mahzun, Ruxsorini qildi kahrabogun, Ham chehrasi rangi kahrabodek, Ham ko’nglida qo’zg’olon sabodek.				
---	--	--	--	--

Alisher Navoiy asarlarida, xususan, “Layli va Majnun” dostonida uchraydigan qora rang bilan bog‘liq ruhiy holatlar, asosan, ta’sirchanlikni oshirishga, hayot murakkabliklari, qahramonlar bilan sodir bo‘luvchi turli ziddiyatlarni izohlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, **qora** rang qahramonning ichki dardini, uning g‘am-anduhlarini, hasratini ta’sirchan ifodalash uchun ham ishlatiladi. Dostonda qora rang omonim tarzda qo‘llanilib, juda ko‘plab ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Kun ganjin iturub ajdaholar,
Tun xayli kelib **qaro** balolar.

Ajdaholar quyoshning xazinasini yo‘qotib, uning o‘rniga tun ahli qora balolari bosdi. Bu yerdagi **qora** sifati balolarning dahshatini ko‘rsatib, baloning kuchini, ta’sirini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan va bu mazmun kun va tun so‘zlarini bir-biriga qarama-qarshi tarzda qo‘llab tazod san’atini yuzaga keltiradi va bularning barchasi baytdan anglashilgan mazmunning o‘quvchiga yanada ta’sirli tarzda ifodalanishiga xizmat qilgan.

Mujgon safining **qaro** balosi,
Ko‘zlar uza soyaning qarosi.
Yo‘q soyaki, to‘rt saf chekib zang,
Majmui libosi surmayi rang.

Kiprik saflari qora balodek, qora ko‘zlar ustidagi qora soyadek, soya ham emas, balki to‘rt qator saf tortgan surma rang kiygan zangi qo‘shinlaridir.

Xurshed ketib, kelib qaro shom,
Yo hajr kuni, vale sipah fom.
Yo hajr o‘ti bo‘tratib duxonin,
Aylab **qora** dahr xonumonin.

Quyosh ketib qorong‘u kelgan, yoki ayriliq kuni-yu, qora tusda edi, balki ayriliq o‘ti tutun burqsitib, dunyo xonumonini qaro qilgandir.

O‘t band ila bo‘ldi jilvagohim,
Mundoqmu azim emish gunohim?
O‘t oncha emaski bu **qaro** dud,
Yo‘q dudki, shom’I duda andud.
Jonimda oning **qaro** balosi,
Ko‘nglumda ham oning ibtilosi.
Tun yo‘qqi meni **qaro** bosibdur!
Yo ko‘hi g‘am-u balo bosibdur.

Turar joyim kishan bilan o‘tda bo‘ldi, mening gunohim shunday katta ekanmi? O‘ti-ku uncha emas, uning qora tutuni, balki mudhish qoraga bo‘yalgan shomi, jonimga qora balo bo‘lib, ko‘nglimni shu balolarga duchor etti. Oshiqning ishq o‘tiga duchor bo‘lishi bosqichma-bosqich kuchaya boradiki, oqibatda ishq o‘ti joniga qop-qora baloga aylanadi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rish mumkinki, Navoiy ijodida, xususan, “Layli va Majnun” dostonida qora va sariq rang yetakchi o‘rinni egallagan. Qora va sariq ranglar orqali shoir ko‘proq oshiq va ma’shuqning ruhiy holatini, kayfiyatini, qahramonlarning o‘y-kechinmalarini yanada yorqinroq ko‘rsatishda foydalangan.

“Layli va Majnun” dostonida ko‘p uchraydigan qora rang omonim tarzda qo‘llangan bo‘lib, gohida yorning qosh-u ko‘zining sifatlovchisi bo‘lsa, boshqa o‘rinda esa qahramonning baxtsizligini, kechaning qop-qora ekanligini, boshiga tushgan ishq o‘tining qora balodek ekanligini ifodalaydi. Navoiy ijodida qo‘llaniladigan qora rang haqida ham ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Shulardan biri adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulovning “Yana qora rang talqini haqida”gi maqolasida shunday deyilgan: “Turkiy qavmlarda islomgacha va islomdan keyin ham qora rangdan salbiy ma’no holat va hodisalarni xarakterlashda nechog‘lik keng foydalanishgan bo‘lmasin, haq ahli, ma’no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyada qora rangning muqaddasligiga shubha qilmagan. Sharq she’riyatida takror-takror ishlatiladigan “qora ko‘z” (chashmi siyoh), “qora zulf” (Zulfi siyoh), “qora xol”, “qora balo” singari o‘nlab istioraviy ibora va tashbehlar irfoniy haqiqatlar ifodasi uchun ham xizmat ettirilgan. Bunga ishonch hosil qilish uchun olim Ibrohim Xaqqiy Bursaviyning mana shu fikrlari bilan tanishmoq kifoya: “Siyoh (qora) zilli haqiqatga ishoradurki, ul nur ul-anvor olamidur. Agarchi nuri siyoh (qora nur) derlarki, muntahayul anvor erur. Shu bois Rasululloh (s.v) fathi Makka kuni qora dilband ila hozir bo‘ldilar. Chunki Ka’ba zoti ahadiyatga ishoratdur. Zot esa siyohdur. Zero, kunki idrok bo‘linmas v aul maqomga vosil bo‘lgan yana alvoni sifatdan tajarrud etish bilan vosil bo‘lur. Shu sababdan solihlarning ko‘pchilligi **qora abo** (jundan to‘qilgan qora to‘n—janda, xirqa-I.H) kiyurlar”. Qora abo (xirqa) kiyganlar siyahpo‘sh ham deyilganki, ular tariqatga yangi kirga soliklar bo‘lishgan. Bu yo‘lda ma’lum bir darajada ilgarilaganlarning xirqasi moviy (ko‘k) va sayri sulukni nihoyasiga yetkazganlarniki oq rangda bo‘lgan. Tasavvuf jarayoni keng taraqqiy topgan o‘lkalarda qora xirqali toliblar, ya’ni siyahpo‘shlarning soni ancha ko‘pchilikni tashkil qilgan.” [9. Yana qora rang talqini haqida]. Ushbu bildirilgan fikrlarga tayansak, Navoiy ijodida uchrovchi qora rang ham tasavvufiy qarashlarni o‘zida mujassam etadi. Navoiy rang vositasida badiiy tasvirni yaratar ekan, oshiqning qiyofasi bilan birga uning ichki olamini, his-kechinmalarini ta’sirchan holda ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida turkiy tilning jozibasini xalqona ohanglarda ifodalaydi. Navoiy yaratgan “Layli va Majnun” dostoni ishq haqidagi eng mungli qissa deb talqin qilinadi. Garchi Navoiyning dostoni ham Nizomiy, Dehlaviy, Ganjaviy va Jomiy yaratgan doston syujeti bilan bir xil bo‘lsa-da, Navoiyning dostonida g‘oya va mazmun o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi. Alisher Navoiy asarlarida, xususan, “Layli va Majnun” dostonida uchraydigan qora rang bilan bog‘liq ruhiy holatlar asosan, ta’sirchanlikni oshirishga, hayot murakkabliklari, qahramonlar bilan sodir bo‘luvchi turli ziddiyatlarni izohlashga xizmat qiladi. **Qora** rang qahramonning ichki dardini, uning g‘am-anduhlarini, hasratini ta’sirchan ifodalash uchun ham ishlatiladi. Dostonda qora rang omonim tarzda qo‘llanilib, juda ko‘plab ma’nolarni ifodalashga xizmat qilganligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2010. – Б- 376.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Toshkent: Tamaddun, 2018. - B. - 576.
3. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1970. – Б- 146.
4. Қаюмов А. Алишер Навоий (Шоирнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида лавҳалар) Т.: “Ёш гвардия”. 1976. Б- 160.
5. Tamikayeva O. “Layli va Majnun” syujeti. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. www.oriens.uz. – 2021.
6. Навоий Алишер. МАТ. IX жилд. Хамса. Лайли ва Мажнун. – Т.: Ған, 1992. Б– 356.
7. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Фил.фан.номзоди дисс. Т.: 2007. Б – 178.
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т.: Ған, 1983. Б -124.
9. Haqqulov I. Yana qora rang talqini haqida. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>

ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING “PUANKARE” HIKOYASIDA INSON VA DAVR MUAMMOSI BADIY TALQINI

Gulinor Xolmurotova,
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi tabilga tortilgan. Shuningdek, yozuvchining inson va davr muammolarini yoritishdagi badiiy mahorati, xarakter shakllanish jarayonlari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy adabiyot, obraz, xarakter, syujet, inson va davr muammosi, badiiy talqin.

Mustaqillik davri adabiyotini o‘rganar ekanmiz, unda faqat ijtimoiy-maishiy hayotni emas, balki qahramonning shaxsiyati, inson muammolari, uning ruhiyatini aks ettirish borasida ham qator yutuqlarga erishilganligiga amin bo‘lamiz. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim ta‘biri bilan aytganda, adabiyotimiz suvratdan siyratga, jamiyatdan insonga, tashqaridan ichkariga qaytayotgandek, irmoqdan dengizga ulanayotgandek. O‘z asarlarini davrning ijtimoiy-siyosiy muammolari bilan bezashni o‘zlariga ep ko‘rmagan, badiiy adabiyotni ramzlar tili, ezgulik va qabohatning mangu janggohi, inson qalbidagi cheksiz iztiroblar chizgisi ekanini his etayotgan yosh iqtidor egalari, imkon boricha, insonlarning botiniga, his-tuyg‘ulari to‘lqiniga, orzu-armonlariga diqqatni qaratayotgandek taasurot beradi [Bahodir Karim, 2018: 12]. Xususan, zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida shaxslar olami, ularning o‘ziga xos tuyg‘ulari, ichki kechinmalari yoritib berilgan hikoyalarni ko‘plab uchratish mumkin. Shu jumladan, yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” asari butun umr tinimsiz mehnat qilgan, ter to‘kib ishlagan, biroq maqsadiga yeta olmagan matematik olim obrazining ayanchli taqdiridan hikoya qiladi.

Asar kompozitsiyasida retrospeksiya usulidan (zamonda ortga qaytish usuli) foydalanilgan bo‘lib, bosh qahramon bundan o‘ttiz besh yil burun Moskvadan 120 rublga charm portfel sotib olish xotiralarini yodga olish bilan boshlanadi. Qahramonning xotiralarini shu charm portfel bilan boshlanishi, asarda mobaynida ushbu predmetga ko‘p bora murojaat qilinishining ham alohida badiiy maqsadi bordek. Matematik olim orzu-umidlar va zo‘r ishtiyoq bilan ushbu portfelni sotib olishi, unga alohida mehr bilan qarashi – qahramon qalbidagi ijodkorlikdan, ilmni ijod sanab, har bir detallga ham alohida mehr bilan yondashishidan darak beradi. Portfelga qo‘lyozmalarini solib yurishni, “*gabarihlari ulkanroq tumor yanglig‘*” bag‘riga bosib yurishni niyat qiladi. Portfel uning orzularidek ajoyib edi, ammo yil o‘tgan sayin olimning o‘zi singari portfel ham qariy boshladi: *bir asrning uchdan birini o‘tab-o‘tamay uning yuziga o‘xshab bujmayib, qarimsiq bo‘lib qoldi; bir xil joylarining terisi ko‘chgan, kal boshini eslatadi*. Olimning gipotezani yechish haqidagi maqsadi ham xuddi shu portfel kabi eskirib, oldingi jilovdorligini yo‘qota borardi. Endi u portfelini qo‘ynida quchoqlab yurmasa, *hov bir galgiday moshin-poshin turtib ketsa, qog‘ozlarining bari sochilib ketishi mumkin*. Asar boshidanoq adib portfel bilan bog‘liq ushbu xotiralarni beradi va matematik olimning maqsadlari ham portfelidan sochilib ketgan qog‘ozlar kabi har yoqqa tarqab ketishiga ishora qilmoqchi bo‘ladi, nazarimda.

“Puankare” hikoyasini o‘qir ekanmiz, aniq fanlarga asoslangan mantiqiy tafakkur va badiiy tafakkur o‘zaro uyg‘unlashib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Hikoyada nafaqat o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan dunyoqarash, insonlar turmush tarzi aks etganligi, balki aniq fakt va ma‘lumotlar bilan to‘yinganligi, olamga haqiqiy matematik nigohi bilan qaralganligi ham uning ta‘sirchanligi va ishonarliligini oshirgan. Yozuvchi hayot haqiqatini taftish etib, o‘zligini anglashga intilayotgan matematik olim obrazini yaratish orqali uning shaxsiyatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Bir qarashda asar mazmunida Puankare gipotezasiga yechim topishni maqsad qilgan va bunga erisha olmagan olimning ayanchli taqdiri turgandek bo‘ladi. Ammo yozuvchi Puankare gipotezasini ramziy ma‘noda qo‘llagan, nafaqat matematik olimning, balki bu dunyoga kelgan har bir kishining oxiriga yetishi kerak bo‘lgan gipotezasi mavjud. Hayotning asl maqsadini anglash, o‘z burch va vazifalarini idrok etish Puankare gipotezasiga

nisbat berilmoqda. Olim turmushning o'tkinchi tashvishlariga aldanib, o'z maqsadi – gipotezaga yechim topa olmadi. Oxir-oqibat umrining so'ngida: *“Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim...”*, degan alamli nido bilan yolvoradi. Yozuvchi qahramonning taqdiri, uning afsus-nadomati orqali kitobxonni vaqtini qadrlashga, hayotdagi missiyamizni ertaroq anglab, uni ado etishga, dunyo hoy-havaslariga aldanmaslikka chaqiradi.

Qahramon oliy matematikadan dars beradigan aniq fan kishisi bo'lsa-da, qalbida aniqlik bilan birgalikda go'zallik, badiiyatni ham biriktirgan ijodkor shaxs edi. Uning shu ijodkorligi hali hech kim oxiriga yetmagan Puankare gipotezasining yechimini topishga undardi. Ana shu ijodkorlik uni misli ko'rilmagan jumboqni yecha olishiga ishontirardi. Qahramonimizning boshqa matematiklardan, boshqa olimlardan farqi ham shu ijodkor qalbga ega ekanlikda edi, nazarimda. Boisi, u ilmiy rahbari bilan Puankare gipotezasining oxiriga yetish haqidagi fikrlarini bo'lishgach, ilmiy rahbar mutlaqo qarshilik qiladi va unga yechimi aniq bo'lgan boshqa amaliy mavzuni beradi. Tahliliy jihatdan nazar soladigan bo'lsak, nafaqat ilmiy rahbar, balki ilmiy kengash ham bu kabi javob izlab topilmagan, tesha tegmagan mavzulardan hadiksirar, bunday mavzularni hech kimga ilmiy ish sifatida tasdiqlab bermasdi. Axir, ular aniq fan odamlari: oxiri noma'lum bo'lgan jumboqqa butun umrini sarflashdan nima naf?! Undan ko'ra ilmiy rahbarning ta'biri bilan aytganda, tayyor amaliy ishlar orqali *“ikki yilda geometriya-topologiya mutaxassisligi bo'yicha fizika-matematika nomzodi bo'lib”* olish eng oson va qulay yo'l edi... Ilmiy ish bilan shug'ullanish, olimlarning ilmiy izlanishlari ma'lum darajada aks etgan ushbu sahna orqali yozuvchi bugungi kundagi olimlarning yuziga ko'zgu tutgandek bo'ladi. Yosh matematik ustoziga Puankare gipotezasini yechmoqchiligini aytganda, ilmiy rahbar uning ustidan kulgandek qilib: *“Yechim tuxumning ichida, tuxum sandiqda, sandiq yerto'lada, yerto'la esa hov anovi yoqda. Baland dorga osilib bo'yingizni sindirib yurgandan ko'ra, yigitcha, aniq amaliy ish bilan shug'ullaning. Davlat sizga sarob ortidan yugursin deb pul berib qo'ymaydi! Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi. Shunchalik aqlingiz zo'r ekan, hech o'ylab ko'rmadingizmi, nabotki, shunaqangi absurd mavzuni Ilmiy Kengash tasdiqlab bersa? Hech qachon bunday bo'lmaydi, yigitcha, hech qachon!”*, – [Abduqayum Yo'ldosh, 2022: 53] singari kinoyali so'zlarni aytib rad etadi. Yoki asar so'ngida shifokor tomonidan olimning qo'lyozmalari haqida: *“Bu qo'lyozmani tanish bir makulaturachiga topshirib yuboramiz. Har qalay, jamiyatga ozroq bo'lsa ham foydasi tegadi-ku. Hi-bi-bi. Tualet qog'ozi sifatida bo'lsa ham”*, [Abduqayum Yo'ldosh, 2022: 90] degan past nazar bilan qarashlar ifodalanadi. Mana nega bizning yurtidan Xorazmiylar, ibn Sino-yu Beruniylar chiqmay qo'ydi?! Mana nega bizning ilmiy yutuqlar dunyo tan oladigan yutuqlar emas?! Adib qahramonlarning mazkur suhbatlari orqali ushbu tizimda mavjud kamchilik va muammolarni bir qadar ochib berishga harakat qiladi. Holbuki, Ilmiy Kengash yangiliklar qilishdan cho'chimasa, qahramonimiz singari ijodkor olimlarni, ularning izlanishlarini ham moddiy, ham ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlasa, Puankare gipotezasi va shu kabi oxiriga yetilmagan olamshumul ilmiy kashfiyotlar bizning olimlarimiz tomonidan yaratilishi mumkin edi. Yozuvchi shu kabi hayot haqiqatlarini asar mohiyatiga mohirona singdirib yuborgan.

Hikoyada ustoz va shogird masalalari ham juda ishonarli va ta'sirli yoritib berilgan. Bosh qahramon qarib qolgach, Puankare gipotezasini yechishda o'ziga hamroh bo'ladigan shogird izlaydi. Oliy matematika darslarining oxirida talabalarga chalg'ituvchi murakkab masala berib, iqtidorli yosh matematikni qidiradi. Holbuki, olimning ilmiy salohiyati va iste'dodi bir o'zi gipotezaning yechimini topishga bemalol yetar edi. Demak, ramziy ma'noda qahramon o'ziga sherik emas, balki umid uchquni izlaydi. Orzulari ushlab uchun umid, dalda berib turadigan yoshlik quvvatini istaydi. Bu orqali yozuvchi har qanday kuchli o'qituvchiga uni maroq bilan tinglaydigan, tushunishga harakat qiladigan o'quvchi kerakligini hayotiy misol bilan keltirib o'tadi. Bundan tashqari, adib ko'p yillik o'qituvchilarga xos bo'lgan gapirish uslubi, ya'ni o'zi savol berib o'zi javob berishini matematik olimning ham nutqida aks ettiradi. O'qituvchi shunday holga kelib qolgandiki, nafaqat darsda, balki undan tashqari vaqtlarda ham nutqida ushbu kamchilik kuzatilar edi. Buni yangi shogirdi bilan bo'lgan suhbatda kuzatishimiz mumkin: *“Ochig'ini aytaman, shuncha yil dars berib, bu gipoteza mohiyatini tushungan, uni yechishga jazm qilgan talabani nima qilmadim? Uchratmadim. To'g'ri bu gipoteza yechimini topishga ancha*

vaqtimizni nima qilamiz? To‘ppa-to‘g‘ri, sarflaymiz” [Abduqayum Yo‘ldosh, 2022: 81]. Bu kabi nutqiy xarakteristika orqali o‘qituvchining hayotda qanchalik qiynalganini, turmush ikir-chikirlari uning asablarini holdan toydirganini anglab olish mumkin.

Bundan tashqari, asarda xalqimizda mavjud urf-odatlar: to‘y-hasham, sarpo-suruq, katta chilla, kichik chilla, mehmondorchilik, tug‘ilgan kunlar kabi an‘analar keltirib o‘tilgan. Qahramonning atrofdagi kishilar ta’siri ostida mazkur urf-odatlar bajaralishida me’yordan oshganligi, qarz-havola qilib o‘tkazganligi uning kelajagiga ta’sir qilmay qo‘ymadi. Endi uning hayotda bajarish kerak bo‘lgan missiyasi Puankare gipotezasiga yechim topish, ilmiy ish yoqlash emas, balki ikkita ishda ishlab bo‘lsa ham qarzlardan qutulish, oila boqish, har kuni turmushidan noliydigan xotinining diydoyolariga sabr qilib yashashdan iborat bo‘lib qoldi. Shu o‘rinda olimning o‘z maqsadiga yetolmaganida turmush o‘rtog‘ining ham ta’siri katta ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Qahramon otasining va’dalashuvi sababli hayotda hech qachon ko‘rmagan, o‘qimagan bir qizga uylanishga majbur bo‘ladi. Laborant qiz Munisaga g‘oyibona ko‘ngil qo‘yganligi haqida hech kimga churq etmaydi. Ushbu sahnalarda ham o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan uyat, andisha, va’dasiga vafo kabi fazilatlarini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, qahramon turmush o‘rtoq masalasida o‘ziga xos va mos birini tanlamaganidan butun umr pand yeydi. Ayolining tor dunyoqarashi, saviyasiz tushunchasi, bo‘lar-bo‘lmas diydoyosi, mol-u dunyoni umrning mazmuni deb tushinishi buyuk bir dahoning kelajagini, orzu-umidlarini yo‘q qiladi. Ayoldagi bu fe‘l-atvor, dunyoga tor nazar bilan boqish onasidan o‘tganligini hikoyadagi qator sahnalardan anglab olish mumkin. Qahramonning oilasiga uchinchi odam bo‘lib rahna soluvchi, qizini kuyoviga qarshi qilib qo‘yuvchi shaxs shu qaynona edi. Bunday tarbiya ko‘rgan ayol farzandlarini qanday tarbiyalashi mumkin, deysiz. G‘oyat iste’dodli matematikning zurriyoti bo‘lishiga qaramasdan, ona tarbiyasi tufayli ular *oddiy hosila ololmaydigan, logarifm bilan integralning farqini bilmaydigan*, o‘z otasini esa *“bo‘shang, hech ishni eplolmaydigan, umri chaqa sanab o‘tayotgan, boshqalarga o‘xshab bunday yaxshi yashashni ham bilmaydigan”* uquvsiz ota [Abduqayum Yo‘ldosh, 2022: 74] sifatida taniydigan bo‘lib ulg‘ayishadi. Adib Abduqayum Yo‘ldosh asarda ona-bola munosabatini aks ettirish orqali ona tarbiyasining hayot va turmushda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bergan bo‘lgan, nazarimda.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi bir voqelikni aks ettirishdan iborat bo‘lgan asar emas, balki o‘zlikni anglash va hayotdagi o‘rnini topish, maqsadlarni unutmaslik kabi azaliy va abadiy inson muammolarini yoritib beradi. Kitobxonni yoshlikning qadriga yetishga, maqsadlari yo‘lida maishiy hayotga aldanib qolmaslikka chaqiradi. Yozuvchi hikoyada umrning mohiyatini anglash zarurligi, o‘tkinchi hoyu-havas bilan andarmon bo‘lib, hayotga kelishning asl sababini unutib qo‘yish katta xatoligini matematik olim taqdiri misolida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 361.
2. Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare. – T.: Adademnashr, 2022. – B. 174.
3. Mirqosimova M., Rustamova M. Hozirgi adabiy jarayon. – T.: 2008. – B. 155.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Adakemnashr, 2013. – B. 406.
5. Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare. – ziyouz.com kutubxonasi.
6. Zaripova R. Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida xarakter va ruhiyat ifodasi. – Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference. – B. 45-48.

NODIR TALANT SOHIBI

Niyatqobil Ashurov,
JDPU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qisqa umr ko'rsa-da, o'zining noyob iste'dodi bilan adabiyot olamida o'chmas iz qoldirib ketgan yorqin siymolardan biri Usmon Nosir hayoti va ijodining muhim qirralari va poetik mahorati yoritiladi. Nodir talant sohibini mash'um sovet siyosati mahv etganligi dalillanadi.

Kalit so'zlar: davr, tarix, mash'um sovet siyosati, poetik mahorat, so'z san'ati, mafkura, adabiy muhit, sonet, dramaturgiya janrlari, badiiy tarjima.

Xalqimizning shonli tarixi kabi uning adabiyoti ham boy va rang-barangdir. Aslida, har bir xalq va millat tarixida shunday ulug' shaxslar bo'ladiki, ular o'zining favqulodda ulkan iste'dodi, ona-vataniga fidoyiligi va sadoqati bilan, el-yurtiga qilgan yuksak xizmati bilan katta shuhrat qozonadi va xalqining faxr-u g'ururiga aylanadi. "O'zining betakror iste'dodi, yuksak matonati va xalqparvarligi bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan otashin shoir, tarjimion va dramaturg Usmon Nosir xalqimizning mashhur farzandlaridan biridir" [Adabiyot, 2019: 23] Adabiyotimiz osmonida chaqmoqdek charaqlab namoyon bo'lgan va qisqa umr ko'rsa-da, o'zining noyob iste'dodi bilan ijod olamida o'chmas iz qoldirib ketgan yorqin siymolardan biri - Usmon Nosir edi. Namangan shahrida kambag'al kosib Mamatxo'ja oilasida tug'ilgan Usmonning bolaligi xuddi G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon va Mirtemirlarning hayoti singari g'oyat qiyin kechadi. G'am- g'ussaga to'la bu alamli yillarning og'ir iztiroblari haqida Usmon Nosir keyinchalik yozgan "Kechmish kunlarim" nomli avtobiografik manzumasida armon bilan shunday eslaydi:

*Men o'ksib tug'ildim,
Bir kosib otadan,
Bir g'arib onadan...
Turmush qiyin edi
Bizdek ko'plarga...*

Chorizm mustamlakasiga aylangan butun Turkiston o'lkasida o'sha yillari hukm surgan qashshoqlik va dahshatli ochlik minglab odamlarning yostig'ini quritadi va necha minglab oilalarni xonavayron qiladi. "Usmon Nosirning shoir bo'lib shakllanishiga ustoz Cho'lpondan tashqari rus va G'arb adabiyotining ilg'or namoyandalarining asarlari ham kuchli ta'sir ko'rsatgan". [Adabiyot, 2019: 184] Jafokash xalqimizning bu fojeali o'tmishi Usmon Nosirning ham bir qator she'r va dostonlarida chuqur hamdardlik bilan tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, "**So'zla, tarix-chol**" deb nomlangan she'rida ikkiyoqlama zulm iskanjasida yashagan erksiz va huquqsiz xalqning ayanchli qismati keksa Tarix tilidan quyidagi xalqona misralar orqali chuqur ifodalanadi:

*Men – qari,
Men ko'rdim
Bu yerda so'lganlar,
O'lganlar ko'rdim.
Qullar o'tdilar.
Ko'kragi qurigan
Tullar o'tdilar...
Bu yerda yuksaldi
Nola, fig'on, zor...*

Mustamlakachilik siyosati avj olib, mehnatkash xalq qullarcha yashashga mahkum etilgan suronli yillarda otadan yetim qolgan 4 yashar Usmon onasi Xolambibi bilan yanada nochor ahvolda qoladi. Namanganlik kosibning chevar qizi bo'lgan Xolambibi eri vafotidan so'ng (1916 -y) boylar xonadonida

xizmatchi bo‘lib, kir yuvib, arang tirikchilik o‘tkazadi va norasida Usmonni ulg‘aytiradi. Usmon ham to‘qqiz yoshigacha boylar xonadonida turli yumushlarni bajarishga, hatto gadolik qilishga ham majbur bo‘ladi. Mushtipar onasining kechalari aytib bergan xalq dostonlari va ertaklari yosh Usmonga taskin berishi bilan birga uning murg‘ak qalbida xalq og‘zaki ijodiga va adabiyotga havas va muhabbat uyg‘otadi. Nihoyat, 1921-yili Usmon Qo‘qonda yetim va kambag‘al bolalar uchun ochilgan 3-sonli maktab-internatga o‘qishga kirib, bu xoru zorliklar dan qutuladi. U yaxshi o‘qishi bilan birga Adabiyot to‘garaklarida faol qatnashib, 14-15 yoshidan she‘r va maqola yozishni boshlagan. Usmonning dastlabki she‘riy mashqlarini ko‘rib, uning iqtidorini payqagan o‘qituvchilari uni Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan tanishtiradi va bu uchrashuv bo‘lajak shoir taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab internatning “Bizning ko‘zgu” nomli gazetasida e‘lon qilinib turgan Usmonning she‘r va maqolalari tez orada Qo‘qon va Farg‘onadagi “Yangi Farg‘ona”, “Yangi yo‘l” va “Yer yuzi” kabi gazeta va jurnallarda ham chop etila boshlaydi.

1932-yilning kuzidan boshlab Usmon Nosir Samarqanddagi Pedakademiya (hozirgi SamDUning) filologiya fakultetida o‘qiydi. Talaba Usmon Nosirning “Bobomning falsafasi”, “Yoshlik” va “Bodom gullagan kechasi” kabi dastlabki she‘rlari Pedakademiyaning va Samarqand viloyatining ro‘znomalarida bosilib chiqadi. Shu yillari Usmon Nosir yaratgan yangi she‘r, hikoya, ocherk va maqolalari Qo‘qon va Farg‘onadagi gazetalarda ham muntazam nashr etib turilganligi uning ijodiy izlanishlari rang-barang va samarali bo‘lganligidan yorqin dalolat beradi. Xususan, Usmon Nosir noyob iste‘dod egasi ekanligi, tekkan joyini kuydirguvchi olovligi, ulug‘ va abadiy she‘riyatning diydasi oqib ulgurmagan shabnamligi, u hali qahqahaga aylanmay, lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassum ekanligi, uning she‘rlari ko‘z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot porasi ekanligi, she‘riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chaman ekanligi, sira xazon bo‘lmaydigan mo‘jiza bog‘ yaratib ketganligini ko‘plab shoirlarimiz ta‘kidlagan. Ko‘nglida ishq va dardi daryodek jo‘shqin, shoirona ilhomi seldek bo‘lgan Usmon Nosirning o‘ziga xos iste‘dodi haqida atoqli shoirimiz Erkin Vohidov hayrat bilan shunday yozadi: “Iste‘dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham-gavhar, iste‘dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor. Usmon Nosir iste‘dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq edi...” [Sariyev, 2018: 399]

Bu nodir iste‘dodning shakllanishi va kamol topishida ko‘p asrli mumtoz adabiyotimiz bilan birga rus va jahon adabiyotining ilg‘or an‘analari muhim bir omil bo‘lganligini ta‘kidlash lozim. Usmon Nosir lirikasida sevgi, yurak, muhabbat tushunchalari juda chiroyli va o‘xshatishlarga boy tasvirlanadi. “Mashhur tatar shoiri Xodi Toqtosh ham muhabbat haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: Muhabbat ul o‘zi eski narsa, Lekin har bir yurak uni yong‘orta (yangilaydi)”. Buyuk so‘z san‘atkorlari ijodidan ta’sirlangan va ularning hayotbaxsh an‘analarini novatorona davom ettirgan Usmon Nosir she‘riyatning asl mohiyati va ijtimoiy-estetik maqsadini xalqqa va ona-yurtiga xizmat qilishda deb biladi:

*Lirikam mening,
Yuvgan, Taragan,
Qaragan yurtning
Xizmatin qilishlik --
Vazifang sening*

Darhaqiqat, Usmon Nosir jonajon yurtimiz va xalqimizning sadoqatli bir farzandi sifatida o‘zining butun ongli hayoti, haroratli qalbi va iste‘dodini ona- Vatanga va uning ulug‘vor ishlariga bag‘ishlagan edi. “Usmon Nosir she‘riyati, avvalo, hayotiyligi, jozibadorligi va isyonkorligi, ayni chog‘da, sodda va ravonligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o‘rin olgan” [Mirvaliyev, 2018: 76]. Otashnafas shoirning samimiy qalb jo‘shqinligi bilan bitilgan “Yurak” nomli she‘ri bugun ham chinakam vatanparvarlik va fidoyilikning go‘zal bir ifodasi bo‘la oladi:

*Itoat et,
Agar sendan
Vatan rozi emas bo‘lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril, mayli, tamom o‘lsam!*

Shu o'rinda Usmon Nosir ijodini sinchkovlik bilan o'rganayotgan yirik olimlarimizdan biri Nizomiddin Mahmudovning muhim bir kuzatishini keltirish ham shoirning so'z tanlash va san'atkorona qo'llashini yaqqol namoyon etadi. Usmon Nosirning 2021-yili "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan "Ertani sevinib kut" nomli 113 sahifali mo'jazgina to'plamida **yurak, ko'ngil, dil** va **bag'ir** kabi ma'nodosh so'zlar 100 martadan ortiq qo'llangani tasodifiy emas. Aksincha, bu so'zlar shoir manzumalarining favqulodda o'ziga xos ustunlari desak, yanglishmagan bo'lamiz. Adabiyotga cheksiz e'tiqodi va betakror poetik mahorati bilan Usmon Nosir ijodiyoti she'riyatimizning keyingi davrida adabiyot olamiga kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfilar hamda ularga izdosh bo'lgan Shavkat Rahmon, Usmon Azim va Halima Xudoyberdieva singari yorqin talantlar uchun o'ziga xos bir mahorat sabog'i va ijod namunasi bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Serqirra talant sohibi bo'lgan Usmon Nosir adabiyotning deyarli barcha tur va janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi. Shoirning "Traktorobod", "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Yurak" va "Mehrim" kabi to'plamlaridagi ko'plab she'rlar o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni va yorqin lirik qahramonlari bilan 30-yillar o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Uning "Norbo'ta" va "Naxshon" kabi dostonlari yangi davr o'zbek poemachiligining yetuk namunalari qatorida o'quvchilar e'tiborini tortadi.

Usmon Nosir o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi janr bo'lgan sonet kabi dramaturgiya sohasida ham samarali ijod qilib, "Zafar", "Nazirjon Xalilov", "Dushman" va "Atlas" nomli bir nechta dramalar ham yaratgan. Ulardan ayrimlari 30-yillar boshida sahnalarda qo'yilgani uning zamondoshlari tomonidan bitilgan zarif xotiralarda ham alohida e'tirof etib o'tiladi.

Usmon Nosir iste'dodining yorqin bir qirrasini uning tarjimonlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shoirning Firdavsiy va Shekspir kabi daho san'atkorlar she'riyatidan qilgan tarjimalari, Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" kabi mashhur dostonlarini mohirona o'zbek tiliga o'g'irganligi uning ijodiy salohiyati nechog'lik ulkan bo'lganligidan guvohlik berib turadi. Yaqin do'stlari xotirlashicha, Lermontovning Usmon Nosir tomonidan yuksak mahorat bilan tarjima qilingan "Demon" tarjima-qo'lyozmasi noma'lum sabab yoxud kimningdir e'tiborsizligi, balki ayrim hasadgo'ylarning aybli bilanmi yo'qolgan. Hayratlanarlisi shundaki, Usmon Nosir ana shu yirik poemani to'liq yoddan aytib, qaytadan tarjimini tiklaganligi noyob bir voqea bo'lgan ekan.

Ming afsuski, betakror iste'dodi va jo'shqin ijodi barq urib turgan Usmon Nosir ham ulug' ustozlari- Cho'lpon, Fitrat va Qodiriylar bilan birga yovuz imperiyaning mustamlakachilik siyosatining qurboni bo'ldi. Hukmron mafkuraning qattol-dastyorlari Usmon Nosir she'rlaridan siyosiy xatolar topib, shoirni mutlaqo asossiz ravishda ayblashdi. Masalan, shoirning quyidagi satrlarini ham siyosiy xatoga yo'yib, Usmon Nosir sotsialistik davlatimizga qarshi g'oyalarni kuylayapti deb ayblashgan va uning she'rlarini nohaq qoralashgan:

*Yo'lchiman, manzilim ufqdan nari
Lojuvard dengizning tubiga yaqin.*

Ya'ni "lojuvard dengizning tubida, ya'ni kapitalistik davlatlarni orzu qilyapti degan ayblovlar bilan qoralashadi. Shu tariqa bu kabi she'rlarini sovet mamlakatiga tuhmat va ig'vo deb, uni ham "xalq dushmani"ga chiqarib, "sovet tuzumiga qarshi" degan tuhmatlar bilan 1937-yil qamashadi. Shoirning ustozlari Cho'lpon, Qodiriy va Fitratlar kabi u ham istibdod qurboni bo'ladi. Adabiyotshunoslarimiz haqli ravishda yozganidek, mash'um siyosat tufayli xalqimiz necha o'nlab yorqin iste'dodlaridan bevaqt ayrildi. Ularni hamisha iztirob bilan yodga olamiz. Mash'um zamon Usmon Nosirni 25 yoshida oramizdan yulib olib ketmaganida va yosh umri olis Rusiyada, Magadan va Kemerovo qamoqxonalarda xazon bo'lmaganida, u yana qancha yetuk asarlar bilan adabiyotimizni va ma'naviyatimizni boyitishi mumkin edi. "U oradan juda erta ketdi. Lekin o'zbek xalqining qalbiga uchqun tashlab o'tdi. Shuning uchun ham Usmon Nosirni baxtli inson deb aytish mumkin. Hozir qaysi o'zbek shoirining to'plamini qo'lga olmang unda albatta Usmon Nosirga bag'ishlangan she'r o'qiysiz. Demak, shoir berhayot! Demak, u o'lmagan!". [10:28] Bu jihatdan Abdulla Oripovning quyidagi armonli e'tirofi shoir shaxsiyati, nodir iste'dodini yanada yaqqolroq tasavvur qilishimizga asos bo'ladi: "Usmon Nosir deganda biz kimni

tushunamiz. U shunday iste’dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydiruvchi olovdir. Shoirning g‘oyat qisqa umriga nazar solgan kishi juda uzoq o‘ylarga tolisi shubhasizdir. Chunki bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko‘rib va his etib turasiz. Usmon Nosir ulug‘ va abadiy she’riyatning diyda sidan oqib ulgurmagani shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qolib ketgan nimtabassumdir. Uning she’rlari ko‘z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot qirralaridir”.

*Olovdek lovullab dil yonur,
Baxtliman janglarga yarasam!*

Nohaqlik jabr-u sitamlari va tahqir azoblaridan xastalangan shoirning o‘lim lagerlarida yozgan she’rlari va iltijo bilan bitgan maktublari ham uning metindek iroda-bardoshidan va so‘nggi daqiqalargacha Adolatga, yorug‘ kunlar kelishiga umidi so‘nmaganligidan guvohlik beradi. U bor-yo‘g‘i o‘n yil ijod bilan shug‘ullandi, ammo shu qisqa fursatda nomini abadiylikka muhrlab keta olishdek baxtga musharraf bo‘ldi. Shoir o‘zi chuqur ishonch bilan bashorat qilganidek:

*Bargdek uzilib ketsam,
Unutmas meni bog‘im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur,*

Ha, ona- Vatanni va she’riyatni jon-dilidan sevgan, qalbida Istiq lol yolqini barq urib turgan Usmon Nosirday yorqin iste’dod sohiblari mustaqil diyorimida hamisha qadrlanishi va e‘zozlanishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. G‘afur G‘ulom nashriyot – matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2019.
2. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 1-2 tt. – Toshkent: 1969-1970.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: 2008.
4. Vohidov E. Chaqmoq umri. Usmon Nosir. Unutmas meni bog‘im. – Toshkent: 1988.
5. Oripov A. Usmon Nosir haqida so‘z. O‘zAS.18 mart, 1983.
6. Qosimov U. Ijodni anglash yo‘lida. – Toshkent: 2015.
7. Mahmudov N. Usmon Nosir she’riyatida so‘z // O‘zbek tili va adabiyoti. №3. 2022. 3-7-b.
8. Sariyev Sh. Adabiyot. – Toshkent: 2018.
9. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. – Toshkent: Fan, 2007.

PARAMONNING ISTE’DODLI IJODKORI

Mohlaroyim Ne‘matjonova,
NamDU talabasi

Annotatsiya

Maqolada serqirra ijod sohibi Robiddin Is’hoqovning hayot va ijod yo‘li, hayot va ijod so‘qmoqlarida olgan saboqlari, adabiy merosi o‘rganilgan. Xususan, ijodkorning Namangan folklorini to‘plashdagi fidoyiligi va o‘zbek she’riyati rivojiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: folklorshunos, shoir, jurnalist, muallim, Paromon, “Farg‘ona ilhomi”, folklor namunalari, ilk she’riy to‘plam, O‘ng‘or bulbuli, shoir xotirasi.

O‘zbek va qardosh qirg‘iz xalqi folklorshunosi, muallim, shoir, qalami o‘tkir jurnalist, serqirra faoliyat sohibi Robiddin Is’hoqov 1927-yilning 20-mayida Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani Paromon qishlog‘ida zahmatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. “Yuksaklikdagi qo‘rg‘on, qal’a, makon, kent” kabi ma’nolarni bildiruvchi Paromon qishlog‘i Qirg‘iziston Respublikasi bilan tutashib ketgan O‘ng‘or tog‘ining yonbag‘rida joylashgan edi. Adibning otasi 1898-yilda tavallud topgan Isoq Tursunov 1932-yilda og‘ir xastalik oqibatida vafot etdi. Otadan erta yetim qolgan Robiddin

tarbiyasida ona tomonidan bobosi Mulla G'ofur domla, onasi Huriniso, akasi Muhiddin va opasi Umixonlarning o'rni alohida bo'ldi.

Yosh Robiddinning adabiyot olamiga kirib kelishida buvisi To'tixon otinoyining, shuningdek, onasidan tinglagan turli xil ertaklar, yor-yor va o'lanlarning ta'siri katta bo'ldi. U xalq og'zaki ijod namunalari ta'sirida el-yurtga, o'zining ona tili va adabiyotiga ulkan mehr qo'ydi. Bo'lajak ijodkorning Vatanga cheksiz mehr-muhabbati esa umrining so'ngiga qadar aslo tark etmadi. "Ona yurtining oshig'i bo'lmay turib, olam-jahonning oshig'i bo'lish behad mushkul. Ona yurt oshig'i bilim oshig'i hamdir. Chunki, ilm – Vatan xazinasidan bolalar miyasiga oqib kirayotgan mehr-muhabbatning bulog'i, gavhari donishmandlik ulushidir. Bu ilm bolaning miyasida bosqichma-bosqich balog'atga – kamolotga yetgach, asosiy urug'ni sochgan Ona Vatan – Ota makon himoyasiga tag'in xizmat qiladi"[4,62].

Robiddin Is'hoqov 1934-yilda Paromondagi boshlang'ich maktabning birinchi sinfida o'qishni lotin alifbosida boshlab, o'z ta'biri bilan aytganda, "yozilishi ruscha, o'qilishi o'zbekcha xatda" tugatgan. Oilaga katta ko'mak berib kelgan Mulla G'ofur domla qatag'on siyosati domiga tushadi. Shundan so'ng Robiddin akasi va opasi singari oilasiga ko'mak berish maqsadida maktabda o'qishni vaqtincha to'xtatishga majbur bo'ladi. El qatori dalada ishlaydi, ketmon chopadi, paxta teradi.

U yosh bo'lishiga qaramasdan, 1943-yilda jamoa xo'jaligi yoshlar tashkilotiga rahbarlik qila boshladi. 1946-yil 16-oktyabrda "1945-1946 yillarda front ortidagi shavkatli mehnati uchun" medali bilan taqdirlandi. Garchi urush tugab, omon qolgan yigitlar Paromonga qaytgan bo'lsalarda, hali iqtisodiy ahvol juda murakkab edi. U 1949-yilda Zarkent qishlog'idagi 30-o'rta maktabining 8-sinfiga o'qishga kelib, o'zidan ancha yoshroq bolalar bilan birga tahsil ola boshlaydi. Yotoqxonda yashab, o'qish bilan birga shu maktabning yoshlar tashkilotiga rahbarlik ham qiladi.

Bobosi, buvisi hamda onasidan olgan odobilmi saboqlari unishe'riyat olamiga yetakladi. 1949-1950 yillarda uning ijod namunalari dastlab maktab devoriy gazetasida, so'ngra tuman, viloyat gazetalari va turli-tuman uchrashuvlarda dunyo yuzini ko'rdi. 1951-yilda "Lenin uchquni" (hozirgi "Tong yulduzi") gazetasida paromonlik yosh shoirning "Birinchi nomzod" sarlavhali she'ri bosiladi. Bu o'z navbatida Paromon, Hazratshoh va Zarkent atroflarida shov-shuvlarga sabab bo'ldi. She'riyat, ijodga mehr-muhabbat o'z navbatida, Robiddin Is'hoqovni 1952-yilda Ulug'bek nomidagi Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga yetaklab keladi. Fakultetdagi ijodiy muhit va ustozlarining maslahatlari shoir ijodining gullab-yashnashi, uning faqat a'lo baholarga o'qishiga sabab bo'ldi.

Mashhur adib Adham Hamdam tomonidan tashkil qilingan "Farg'ona ilhomi" ijodiy to'garagida Odiljon Nosirov, Mahmudjon Ma'murov, Nuriddin Boboxo'jayev, Sanobarxon Hasanova, Oxunjon Hakimov, Yo'ldosh Sulaymon, Malika Mirzayeva singari qalam ahli uyushgan edi. Robiddin Is'hoqovning ijodiy kamolotida mazkur to'garakning o'rni alohida bo'lganligini e'tirof etish lozim. Keyinchalik O'zbekiston xalq shoiri Oxunjon Hakimov o'sha qaynoq, murakkab zamonlarni shunday eslagan edi: Kursdoshim – Robiddin Is'hoqov ochiqko'ngil, so'zamol, o'ta g'ayratli yigit edi. Og'zidan chiqadigan gapning yarmi she'r edi... Bilsak, u shoir ekan. Bizlar endigina she'r mashqini boshlagan havaskorlar unga hayrat ila boqar edik. U mening mashqlarimni erinmasdan ko'rib chiqib, jo'yali maslahatlar berardi...

Yaxshi esimda, xalq og'zaki ijodini o'rganish uning jon-u dili edi. O'sha 50-yillarning birinchi yarmilarida xalq maqollari va matallarini to'plash rusumga kirgan edi. Robiddin ham o'sha paytdayoq eldan necha yuzlab maqollari va qo'shiqlarini to'plab, Respublika yoshlar gazetasida chop ettirgan edi..." [4,7]

1958-yilda Namanganda nashr etilgan 50 sahifali "Namangan qo'shiqlari" nomli to'plam o'zbek va rus tillarida ham chop etildi. To'plamdan Robiddin Is'hoqov qalamiga mansub qator she'rlar o'rin oldi. Shu yillarda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib bordi. Shoirning "Ulkan yozuvchi va pedagog", "Tojik poeziyasining otasi", "Furqat ijodida ilg'or madaniyatning targ'ib etilishi", "Belinskiy va o'zbek adabiyotshunosligi", "Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarida xalqchillik", "O'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganish", "Xalq maqollarini to'plash

va o‘rganish”, “O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Navoiy obrazi” kabi maqolalari ketma-ket chop etildi. Izlanishlar samarasi sifatida 70 sahifali “O‘zbek xalq qahramonlik eposida xotin-qizlar obrazi” sarlavhali ilmiy tadqiqot ishi yuzaga keldi. Tadqiqot qo‘lyozmasi shoir-folklorshunosning uy-muzeyidagi arxivida saqlanadi.

1963-yilda Robiddin Is‘hoqovning “Qo‘shiq – yo‘ldosh yurgan yo‘limda” deb nomlangan ilk she‘riy kitobi “Yosh gvardiya” nashriyotida Erkin Vohidov muharrirligida bosildi. Ushbu kitob xususida Zulfiya, Mirtemir, Ilyos Muslim, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Tursunboy Adashboyevlar tomonidan iliq fikrlar bildirilgan.

O‘zbekiston Qahramoni, san‘at arbobi, adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov shunday xotirlaydi: “Men Robiddin akani 1963-yildan bilaman. Men Robiddin akaning nomlarini Mansur Afzalov, Hodi Zarif, Muzayyana Alaviya kabilar bilan o‘zbek xalq ijodining 35 tomlik kitobini nashr etish maqsadida xatti-harakat boshlaganimizda, juda ham ko‘p ma‘lumotlarni “yig‘uvchi: Robiddin Is‘hoqov” deya qayd etilganidan tanirdim...Shoirning “Yuz g‘azal”lari huddi o‘zbek xalqining yuragidan olib yozilganday. Ularda ezgu niyat namoyon... Maqol, matal, topishmoq, qo‘shiq, yor-yor kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari to‘plab, saqlab qolganlari shu yurt, Namanganning shon-shuhrati deya atalishga sazovor...” [4,10]

Umuman olganda, Robiddin Is‘hoqov tomonidan butun umri mobaynida sabr-toqat ila to‘plangan 30 tomdan ziyod xalq og‘zaki ijodi – folklor namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining oltin fondida saqlab kelinmoqda. “Yodnoma” ruknida “Hayqiriq”, “Mustaqillik bolalari”, “100 g‘azal”, “Quvnoq lahazar” nomli kitoblari Namangan nashriyotida chop etildi.

2006-yilda o‘nlab yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar qalamiga mansub xotiralar, bag‘ishlovlardan iborat “Robiddin Is‘hoqov zamondoshlari nigohida” deb nomlangan risola bosildi. 2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi, Xalqaro Firdavsiy mukofotining sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor Shoislom Shomuhammedovning taqrizi ostida deyarli 30 yil mobaynida yozilgan “Xalqnoma” (fardlar), “O‘ng‘or nafasi” nomli saylanmasi 2012-yilda nashrdan chiqarildi. 2007-yili Guljahon Mo‘minovanning “O‘ng‘or tog‘i kuychisi” nomi bilan yozilgan shoir va olim, muallim va murabbiy Robiddin Is‘hoqovning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan risolasi “Namangan” nashriyotida chop etildi.

Ulkan iste‘dod egasi Robiddin Is‘hoqov 1989-yil 5-martda vafot etdi. Undan qolgan adabiy meros hamon el xizmatida. Robiddin Is‘hoqov istiqlolni intiqib kutgan, mustaqillik uchun butun vujudi va qalami bilan kurashgan shoir va murabbiy edi. Vafotidan keyin uning daftarda qolgan satrlardan jamlangan kitobi ham bejiz “Mustaqillik bolalari” deb nomlanmagan. Yozuvchi va dramaturg Nuriddin Abbosxon Robiddin Is‘hoqov tavalludining 90 yilligi arafasida, ya‘ni 2017-yilda “Ustoz” nomli biografik romanini e‘lon qildi. 2002-yilda viloyat hokimi qaroriga binoan shoir yashagan xonadonda xotira lavhasi o‘rnatildi. Shuningdek, Namangan davlat universitetida faoliyat yuritib kelayotgan tarix fanlari nomzodi, dotsent Baxtiyor Is‘hoqovning sa‘y-harakatlari bilan Robiddin Is‘hoqov uy-muzeyi tashkil etildi. Shuningdek, uy-muzeyda kutubxona ham mavjud. Shoir tavalludining 75 yilligi nishonlangan 2002-yilda ajoyib adabiy va ijtimoiy an‘anaga asos solindi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limining tashabbusi bilan shoirning tavalludi kuni har yili uy-muzeyda Farg‘ona vodiysi yosh ijodkorlarining an‘anaviy Paromon seminari o‘tkazib kelinmoqda. “O‘ng‘or bulbuli” nomini olgan Robiddin Is‘hoqov yashab, ijod etgan tog‘ poyidagi bu xonadonda o‘nlab yangi iste‘dodli ijodkorlar kashf etilmoqda. Ijodkorlar umri ularning yashab o‘tgan yillari bilan emas, asarlari bilan o‘lchanadi. Bugungi kunda o‘zbek va qardosh qirg‘iz xalqi hofizlari Robiddin Is‘hoqov she‘r va g‘azallarini kuyga solmoqdalar. Ijodkorlarning arxividagi daftarlarda qolib ketgan qo‘lyozmalari hamon chop etilib, o‘z muxlislariga yetkazilmoqda. Shoir aytganidek:

*Donolar aqlidan yasalsa kema,
Aql dengizida suzardi hamma [3,5].*

Ushbu misralar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, yillar davomida insonlarni ilmga bo‘lgan

ishtiyoqini oshirib kelmoqda. Badiiy ijod va muallimlikni hamohang tarzda baravar yuqori darajada yuritish kishidan katta mas'uliyat va mehnat talab qiladi. Robiddin Is'hoqov mana shu mas'uliyatni anglagan holda, xalqimiz orasida adabiyotni targ'ib qilgan, aslo tinim bilmagan ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is'hoqov R. Hayqiriq. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 1997.
2. Is'hoqov R. Quvnoq lahzalar. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2002.
3. Is'hoqov R. Xalqnoma. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2007.
4. Is'hoqov R. Pedagog o'ylari. – Namangan: “Vodiy Media”, 2022.

LUQMON BO'RIXONNING “SIRLI MUALLIM” QISSASIDA O'QITUVCHI OBRAZINING YARATILISHI

Shahnoza Ibragimova

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallagan Luqmon Bo'rixonning “Sirli muallim” qissasidagi o'qituvchi obrazlari tabliil qilingan

Kalit so'zlar: obraz, muallim, najot, ta'lim tizimi, fidoiylilik

Inson qaysi bir kasbni yo hunarni o'rganmasin unga, albatta, yo'lboshlovchi, shu fanga yoki kasbga oid bilimlarni o'rgatuvchi bir ustoz darkor bo'ladi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'qituvchi muallimlar haqida: “Bu dunyoda qaysi ongli inson - qayerda ishlamasin, qanday kasb-u kor, lavozim egasi bo'lmasin, unga bilim va tarbiya berib hayotga yo'llagan muhtaram o'qituvchi va murabbiylari oldida hamisha qarzdorlik hissi bilan yashaydi”, – degan edi.[1] Darhaqiqat, o'qituvchi kishini kelajakda kim bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola uyda ota-onasidan tarbiya olsa, maktabda o'qituvchisidan ham tarbiya ham ta'lim oladi.

O'qituvchilarning fidoiyligi haqida qancha gapirsak ham kam. Ular haqida ko'plab she'rlar, asarlar ham yaratilgan. Butun bir boshli o'qituvchiga bag'ishlangan asarlar ham bor. Ana shunday asarlar sirasiga Luqmon Bo'rixonning “Sirli muallim” qissasi ham kiradi. Bu qissa to'liq o'qituvchilar hayotiga bag'ishlangan hisoblanadi.

Biz quyida ushbu asar, haqiqiy o'qituvchi qanday sifatarga ega bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritamiz.

Asar realistik uslubda yozilgan hisoblanadi. Qissaning bosh qahramoni Najot G'aybulli. Keling, oldin yozuvchi nima uchun asar qahramoniga Najot G'aybulli deb nom berganiga to'xtalsak. Biron kishi og'ir, mushkul ahvolga tushib qolsa, dardiga darmon bo'ladigan shaxs yoki narsaga najotga muhtoj bo'lib qoladi. Inson atrofdagilaridan yordam ololmagach g'oyibdan sirli tarzda keladigan najotga Ollohning mo'jizasi ro'y berishini kutadi.

G'aybulli so'zining ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, “sirli, ko'zga ko'rinmaydigan”, ya'ni “Olloh bergan tuhfa yoki Ollohning sir-u asrori” degan ma'nolarni anglatadi. [2;560] Yozuvchi bu ism bilan bizning ta'lim tizimimiz ham xuddi shunday “sirli najotga” muhtoj ekanligini aytmoqchi bo'ladi.

Bu ta'lim tizimini yaxshilash, o'z ustida tinmay ishlaydigan o'qituvchilar jamiyatimizga kerak ekanligini, bolalarimiz ko'proq bilim olishi kerakligini, ular ham jahonga yuz tutishini orzu qiladi. Yozuvchi bu istagining barchasini Najot G'aybulli obraziga singdirib yuboradi. Yozuvchi Najot G'aybullani ta'riflar ekan, uning yurish turishi-yu, kiyinishi, o'zini omma oldida erkin tutishi barchasini o'qituvchiga xosligini ta'kidlab o'tadi.

U birinchi marta maktabga kelganida, maktab direktori Qalqonov uni kiyinishi, o'zini tutishiga qarab komissiya deb o'ylaydi “Bir payt bo'sag'amda bir sharpa ko'ndalang bo'ldi. Shartta bosh ko'tarib qaradim. Qaradim-u beixtiyor o'rnimdan turib ketdim”.

“Taftishchi-yoov?! lip etib o‘tdi xayolimdan. Bunday o‘y kallamga behuda urilmadi. Axir, bo‘zag‘ada baland bo‘yli, kelishgan, yap-yangi qimmatbaho kastyum-shim, oppoq ko‘ylak kiygan yigit turar edi. Yuz ko‘zlaridan allanechuk nur yog‘iladi”. [2;82]

Ko‘zlarimni notanish yigitdan uzolmay qoldim. Haligi Hollivudmi-ey, Gollivudmi-ey degan joylarning kinoartistlariga o‘xshaydi, ko‘zlari chaqnab turibdi. Yoshi nari borsa o‘ttizlarda. Meni xayol qurg‘ur har yoqlarga olib qochadi”.

Najot G‘aybullaning nafaqat tashqi ko‘rinishi balki dars o‘tish uslubi ham boshqalarga o‘xshamasdi. Uning darsini tahlil qilishga ya‘ni “kamchiligini” topishga kirgan Norxol Xushboqova ham Najot G‘aybullaning darsiga butkul berilib ketadi, xayolan dengizga borib uning sho‘r suvidan ichib ko‘rganday bo‘ladi. Keyinchalik ham uning “ichib ko‘rgan bu sho‘r suvi” tomog‘iga tiqilaveradi. U o‘zi va boshqa o‘qituvchilarni Najot G‘aybullaning dars o‘tish uslubini solishtira boshlaydi. O‘zining qanday qilib muallimlik sohasiga kirib kelganini eslaydi. U otasi xohlagani uchun muallimlikka o‘qigan edi.

Boshqa o‘qituvchilar darsga kirgandan so‘ng o‘quvchilarni tinchlantirish, uyga vazifani so‘rashga darsning asosiy qismini sarflab yuborar edi. Yangi mavzuni esa hech kim tushunmasdi ham. Najot G‘aybulla esa darsda o‘quvchilarning yangi bilim olishiga e‘tiborini qaratadi. Bolalarga ko‘proq bilim berishga harakat qiladi. Mukammal insonning o‘zi yo‘q deganlariday u ham kamchiliklardan holimasdi. Uning aybi oliy ma‘lumotli emasligida edi. To‘g‘ri u bir necha marotaba o‘qishga kirishga harakat qilib ko‘rgan, lekin afsuski uddalay olmagan. Unda bolalarga bilim berish istagi shu qadar kuchli ediki, noto‘g‘ri yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘quvchilarga ilm, ma‘rifat ulashishga harakat qiladi. Xoh u o‘zining o‘quvchisi bo‘lsin, yoki boshqa o‘quvchi har bir bolaning yutug‘idan faxrlanardi. O‘qituvchi Boymurod akaning o‘quvchisi olimpiadada g‘olib bo‘lganda u Boymurod akadan ham ko‘p sevinadi. Lekin uni ko‘rolmaydiganlar ham talaygina edi. Xurramovich domla ana shunday ko‘rolmaydiganlardan biri edi. U Najot G‘aybullani fosh qiladi. Bu voqeadan ko‘p o‘tmay Najot G‘aybulla maktabdan ketadi va men yana, albatta, qaytib kelaman deb ayatdi.

Yozuvchi bu asari bilan nima demoqchi xalqning, millatning bolalariga chinakam bilim beradigan Najot G‘aybullaga o‘xshagan fidoyi muallimlar yana ko‘plab tug‘iladi. Ular xalqni ma‘rifatli qilish yo‘lida hech qachon charchamaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimovning 2015-yil 30-sentyabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan nutqidan. <https://kun.uz/107625?q=%2Fuz%2F107625>
2. Begmatov.I. O‘zbek ismlari ma‘nosi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashryoti, 2007.
3. Bo‘rixon L. Titrayotgan tog‘. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA SADOQAT (DO‘ST) OBRAZI

Shohsanam Ilashova,
JDPU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi zamonaviy adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega bo‘lib xalqning qalbidan chuqur joy olib ulgurgan Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi sadoqat (do‘st) obrazini turli yondashuvlar bilan tasvirlab berishi haqida so‘z boradi. Bu obrazlar hayotning achchiq qismlari yo‘lida urushning ko‘z ilg‘amas chirkin holatlarida ham, bir biriga yelkadosh bo‘lgan insonlar to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Po‘lat, Nikita, sadoqat, Yog‘du, Po‘latota Oychechak opa, Obraz, oila, Ulug‘bek Hamdam.

Roman (fron roman) – nasriy asar janri: muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon zamonda tasvirlangan asar. Roman janri markazida bosh qahramon

obrazi turadi. Ushbu romanda ham bosh obraz sifatida Po'lat ota obrazini ko'rishimiz mumkin. Ulug'bek Hamdamning ushbu romani barcha otalarga bag'ishlanganligi bilan bir qatorda katta davr mas'uliyatini ham qamrab olganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. O'tkir Hoshimov o'zining "Dunyoning ishlari" asari bilan butun onalarni tilda olgan bo'lsa, Ulug'bek Hamdam ushbu asari orqali otalar obrazini to'laqonli ochib berdi desak, adashmaymiz.

Bu romanda sadoqat, vaf o'ishonch kabi timsollar eng yuqori darajani egallab turadi. Shu bilan birgalikda bir oiladagi sadoqat ishonch bilan birgalikda tengma-teng holatda g'urur degan tushuncha ham o'z pardasini yaqqol ochib turadi.

Avvalo, biz sadoqat so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, hayotning og'ir sinovlaridagi, urushdagi girdobda bir-biriga yo'liqqan Po'lat va Nikita obrazlarini yaqqol misol qila olamiz. Quyidagi misralarda bunga guvoh bo'lasiz: "Kun-u tun Nikita Po'lat bir-birlarining soyalariga aylanishgandi. Hatto kishining o'z soyasi ham uning o'zi bilan Nikita va Po'lat birga bo'lganchalik birga bo'lolmaydi. Bulutli kunlarda soya insonni tark etadi. Bular esa yo'q!". [1.30]

Haqiqatdan ular shunday insonlarga aylangan ed. Kim o'ylabdi deysiz beshavqat urushning yolong'ochlagan qilichida qanchadan qancha mard va jasur o'g'lonlar bu olamni tark etdi, ammo ikki do'st so'ngi damgacha bir-birini qo'llab-quvvatlab vatan uchun kurashdi. Urush so'ngida ularning yo'li ayro bo'ldi. Biri chin do'nyoga, ikkinchisi hayot yo'lida, ular shunday do'st edi. Ularning o'rtasidan hattoki qil ham o'tmasdi. Hayot ularni shunday qismatlarini birlashtirgan edi.

Bu romanda insonning his tuyg'ularini junbushga keltiradigan obrazlar Yog'du va Po'lat obrazlaridir. Po'lat bir necha yillar mobaynida dastlab, urush zahmatlarini tortib, vatan deb kurashdi va shu kurash ortidan zax, zulmatda cheksiz bo'lgan qamoqxonalarda hayot kechirib, hayotdan ham toliqqan holda uyga ota-ona bag'riga qaytganda uni eng quvontirgan narsa bu ayoli, Yog'duning sadoqat ila kutib umr kechirgani bo'ldi. Uning "– Sizni kutmaslik mumkinmidi? Axir erimsiz, yo'ldoshimsiz, bir umr kutardim sizni " [1. 63]

Shu birgina jumlasini Po'latning hayotga bo'lgan muhabbatini qaytadan jonlanganday bo'ldi. Bu ham vafoning, do'stlikning oliy ko'rinishidir. Guvoh bo'lganimizdek, so'zlar inson qalbini qanchalik o'zgartirib yuboradi. Shundan so'ng buyuk adabiy tanqidchi Qozoqboy Yo'ldoshning quyidagi jummalari yodga keladi.

"So'z ilohiy ne'mat. Shu bois so'z aytish hamisha ulkan mas'uliyatdir. Jamiyat, millat yoki insonga qilinadigan zulm uning so'ziga zug'umidan boshlanadi degan edi." [2.4]

Haqiqatdan ham so'z, bu cheksiz koinotdir. So'z imonni to'g'ri yo'ldan egriga, egridan to'g'riga boshqara oladigan cheksiz sir-sinoatlardan biridir. Yog'du ham o'z umr yo'ldoshini kutmasligi, kutgan taqdirda ham unga bu so'zlarni aytish shart emas edi-ku, ammo unday qilmadi. Bu yerda yozuvchining mahoratini ham yuksak baholashimiz mumkin.

Sadoqat timsoliga yana bir misol O'tkir aka va Oychechak opa timsolida ko'rishimiz mumkin. Ular go'yo nigohlari bilan lom-lum demasdan ham bir birlarini nima demoqchi ekanliklarini so'zsiz anglab olardilar. "Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhum, naqadar zarur bo'lsa, buni kitobxonlarning qalbiga olib kiradigan obrazi shu qadar kuchli bo'lish kerak " [3.29]. Quyida sanab o'tgan barcha obrazlarimiz nihoyatda go'zal jihatlar bilan ularning dunyosini ochib berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ulug'bek Hamdamning barcha asarlarida inson obrazi ulug'lanib kelingan. Ushbu "Ota" romanidagi hech qaysi bir detal ortiqcha qo'llanilmagan desak mubolag'a bo'lmas. Bu asar orqali biz barcha o'zbek otalarining o'z farzandlariga qanchalik mehribonligini, shu bilan birgalikda otalik g'ururi, burchi ham yonma-yon turishiga guvoh bo'lamiz. Adibning bu asarini ikkinchi tomondan olsak, otalarining qalbida vatanga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatini, sadoqatini qanchalik yuksakligini ham yaqqol ko'rsatib bergan. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, adibning ushbu asari mavzuning haqqoniyligi va realligi bilan hamda tili va yozish uslubi bilab boshqa asarlardan farq qilgan. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon voqea hodisalar bilan birga yashaydi va shu bilan qatorda ularning ruhiyatida ham, o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – Toshkent: “Yoshlar matbuoti”, 2023. – B. 206.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbuot ijodiy uyi, 2018. – B. 503.
3. Usmon Qosimov. Adabiyot-estetik tafakkur. – Toshkent: 2023. – B. 179.

HALIMA XUDOYEBRDIYEVA SHE‘RIYATI XUSUSIDA BA‘ZI MULOHAZALAR

Barchinoy Abdirazzoqova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqola Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va she‘riyatining e‘tiborli tomonlariga bag‘ishlab yozilgan. Shuningdek shoira she‘riyatining ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati, insoniy tuyg‘ular, she‘riyat, badiiyat, janr.*

O‘zbek adabiyoti shunday go‘zal bog‘ki, unga kirgan qaytib chiqqa olmaydi. Bu bog‘da bir-biriga o‘xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan shoir va shoirlar bo‘y cho‘zaveradi. Halima Xudoyberdiyeva shunday ijodkorlardan biridir. Uning otasi ham, onasi ham go‘zallikning, ezgulikning, badiiy so‘zning qadrini tushunadigan kishilar edi.

“Mening anchagina asarlarim, jumladan, “Bir o‘rim soch tarixi”, “Sayram baxshi”, “Hindiqushdan nola keldi” she‘rlarim, “Ilinj” dostonim aynan onayizorim ta‘sirida bitilgan”, deb yozgan edi u. Shoiraning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi, intiluvchan, tirishqoq, kuchli iste‘dodi Toshkentga kelishiga sabab bo‘ladi. U Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti) ning talabasi bo‘ladi. O‘quvchilik paytlaridayoq she‘rlar yoza boshlaydi va o‘ziga xos iste‘dodi tufayli ulkan arbob Sharof Rashidovning nazariga tushadi va u kishi iste‘dodli shoirni qo‘llab quvvatlaydi.

Shoira she‘riyatining mavzu va ma‘no ko‘lami keng olamdirdi. Uning she‘rlarida sevgi-muhabbat, ayol, Vatan mavzulari ko‘p madh etilgan. She‘rlarida ichki olam qiyofasida ayol qalbining murakkab his-tuyg‘ularga alohida e‘tibor beradi. Adabiyotda ayolning go‘zal siymolarisiz, nozik qalblarisiz she‘riyatni tasavvur qila olmaymiz. Halima Xudoyberdiyeva To‘maris, Uvaysiy kabi ajdodlarining qiyofasidagi ijodkordir. “Tilovchiman” degan she‘rida shunday satrlarni ko‘rishimiz mumkin.

Borlig‘imni yaratganlar ishq o‘hlardan.

Qonlar, shonlar kechgan yovqur guvohlardan.

O‘ch olganda yigitlardan, gumrohlardan

To‘marisning qo‘llarini qo‘llovchiman.

Ushbu she‘rida shoiraning ayol ajdodlarga nisbatan munosib avold bo‘lish borasidagi qarashlar yog‘ilganligini ko‘rish mumkin.

Vatan jim turadi, ammo u haqda

Tog‘dan tushib kelgan tosh so‘z aytadi.

Bir sadolar kelar jim-jim kurtakdan,

Osmondan kelgan quyosh so‘z aytadi.

Satrlar “Vatan jim turadi she‘ridan olingan. Vatanning nomidan tosh, kurtak, quyoshning so‘z aytishi, ya‘ni Vatanning betakror maskan ekanligi uning tabiatida ham o‘z aksini topganligi izohlanadi. Shoira hech bir she‘rini shunchaki yozmaydi. Har bir qalamga oladigan so‘zi yuragidan, qalbining tub-tubidan chiqadi. Shu jihati bilan ham hech bir she‘ri boshqa shoirlarnikiga o‘xshamaydi. Shunday ekan, lirik turda voqea emas, his-tuyg‘u va kechinmalar ruhiyati tasvirlanadi, aynan o‘sha kechinmalar ham qandaydir kichik-kichik voqealar o‘zining lirik maqomdagi tasvirini namoyon etadi. Shoira shunchaki

yozishni istamaydi, uning yozganlari qalbi yaralangan dillarga darmon bo'lishni xohlaydi.

*Turayotgan qushga
O'xshayman juda,
Qushlarga o'xshayman
Uyg'onayotgan.
Ba'zi tomirlarim
Hali uyquda,
Ba'zi tomirlarimda
Qonlarim qotgan.*

Shoira olam va odam ruhiyatining obyektiv borliqqa munosabatini ifodalab, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlashni mohirona ochib beradi.

*Balki men sen deb ham o'lmasman,
Hech kimga ishonmas bisotim.
Men seni baholay bilmasman,
Sen mening hayotim, hayotim!
Istamasam, hayotni men chindan
Kitobdan yo'qolsa ismi-jim.
Sarg'aymay varaqlar ichinda
Kitobdan chiqadi hayotim.
Men seni kitobga yozdim-u...*

– deydi, Halima Xudoyberdiyeva. Bu she'r asl shoirning peshonasiga bitilgan yozuq, uni shoirlik martabasiga ko'targan shaxslik qismati. Bir so'z bilan aytganda "ijod bu eng avvalo tuyg'u, tuyg'uni esa abadiy nazorat qilish mumkin emas"ligini Halima Xudoyberdiyeva ijodida ko'rishimiz mumkin.

*Bilmam Alloh gul berganmi, xas bergan,
Ne bo'lsa ham dilin sarxush, mast bergan.
Nodiraga kaniz bo'lib sas bergan,
Halimasi, biyronidir o'zbekning.
Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu shoirga o'lim.*

Shoira shunchaki yozmaydi, shunchaki yashamaydi. Uning yozganlari hayot haqiqatlari umr yo'llarining past-balandliklari ifodalab berilgan. U hayotdan olgan saboqlarini qog'ozga tushiradi. Shoira o'zidan katta ijodiy meros qoldirdi. XX asr o'zbek she'riyatini Halima Xudoyberdiyeva ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyeva L. Hozirgi o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda. 2014.
2. Halima Xudoyberdiyeva. Ilk muhabbat. 1968. – B.11.
3. Halima Xudoyberdiyeva. Chaman. –B. 36.

2017-yilda "Ustoz" nomli biografik romanini e'lon qildi. 2002-yilda viloyat hokimi qaroriga binoan shoir yashagan xonadonda xotira lavhasi o'rnatildi. Shuningdek, Namangan davlat universitetida faoliyat yuritib kelayotgan tarix fanlari nomzodi, dotsent Baxtiyor Is'hoqovning sa'y-harakatlari bilan Robiddin Is'hoqov uy-muzeyi tashkil etildi. Shuningdek, uy-muzeyda kutubxona ham mavjud. Shoir tavalludining 75 yilligi nishonlangan 2002-yilda ajoyib adabiy va ijtimoiy an'anaga asos solindi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limining tashabbusi bilan shoirning tavalludi kuni har yili uy-muzeyda Farg'ona vodiysi yosh ijodkorlarining an'anaviy Paromon seminari o'tkazib kelinmoqda."O'ng'or bulbuli" nomini olgan Robiddin Is'hoqov yashab, ijod etgan tog' poyidagi bu

xonadonda o‘nlab yangi iste’dodli ijodkorlar kashf etilmoqda. Ijodkorlar umri ularning yashab o‘tgan yillari bilan emas, asarlari bilan o‘lchanadi. Bugungi kunda o‘zbek va qardosh qirg‘iz xalqi hofizlari Robiddin Is’hoqov she’r va g‘azallarini kuyga solmoqdalar. Ijodkorlarning arxividagi daftarlarda qolib ketgan qo‘lyozmalari hamon chop etilib, o‘z muxlislariga yetkazilmoqda. Shoir aytganidek:

Donolar aqlidan yasalsa kema,


Aql dengizida suzardi hamma [3,5].

Ushbu misralar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, yillar davomida insonlarni ilmga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib kelmoqda. Badiiy ijod va muallimlikni hamohang tarzda baravar yuqori darajada yuritish kishidan katta mas’uliyat va mehnat talab qiladi. Robiddin Is’hoqov mana shu mas’uliyatni anglagan holda, xalqimiz orasida adabiyotni targ‘ib qilgan, aslo tinim bilmagan ijodkorlardan biri hisoblanadi.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is’hoqov R. Hayqiriq. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 1997.
2. Is’hoqov R. Quvnoq lahzalar. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2002.
3. Is’hoqov R. Xalqnoma. – Namangan: “Namangan” nashriyoti, 2007.
4. Is’hoqov R. Pedagog o‘ylari. – Namangan: “Vodiy Media”, 2022.
5. Is’hoqov R. Harko‘ngil topsin murod. – Namangan: “Vodiy Media”, 2022.





ADABIYOT O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR



QOZOQBOY YO'LDOSHNING PEDAGOGIK QADRIYATLARI

Hoshimjon Ahmedov,

ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n

Annotatsiya

Mazkur maqolada taniqli olim Qozoqboy Yo'ldoshning pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Olim tadqiqotlaridagi yetakchi tamoyillar, pedagogik qadriyatlar ajratib olinib, ularning ahamiyati haqida mulohazalar bildiriladi. Bu xulosalarning milliy pedagogikamiz, xususan, o'zbek adabiyotini o'qitish tizimidagi muayyan ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Qozoqboy Yo'ldosh, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi, pedagogik qadriyatlar.

Har bir katta olimning muayyan qadriyatlari, qat'iyatlari (prinsiplari) bo'ladi. Jumladan, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldosh ham o'zbek adabiyotida metodik tavsiyalarni yangilash va zamonaviylashtirish tarafdorlaridan. Abdug'afur Mamatov Qozoqboy akani "To'g'ri so'zning qaysar odami" desa, Shomirza Turdimov "So'z zavqini tuyish"ni o'rgatadigan, anglatadigan olim, ustoz sifatida e'tirof etadi. [1, 198]. Aslida ham adabiyotshunoslikning, ham milliy pedagogikamizning benazir olimi bo'lmish Qozoqboy Yo'ldoshning pedagogik tadqiqotlari to'lig'icha adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirishga, uni yangi jahoniy bosqichlarga ko'tarishga bag'ishlangan. Doktorlik ilmiy ishi ham "Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" deb nomlanadi. "Bu asar maktablarda adabiyot fanini o'qitishda, ayniqsa milliy ruh ufurib turgan adabiyot darsliklari, majmualari, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishda har bir metodist-olim va o'qituvchi uchun metodologik asos bo'lib kelmoqda" (1. U. Dolimov, 25-bet). Ilmiy maqolalarining soni to'rt yuzdan oshadi. E'lon qilingan kitoblari – qirqqa yaqin. Demakki, olim to'lig'icha o'zbek milliy adabiyoti muammolari, adabiyot o'qitishning eng zamonaviy metodlari ustida o'ziga xos tadqiqotlar muallifi. "Bugun Qozoqboy Yo'ldosh qarashlari maktab adabiy ta'limiga singib, uning o'zanini butunlay o'zgartirib ham yubordi, ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi degan tushuncha oddiy holga aylanib ketdi" [2. Q. Husanboyeva, 354-bet]. Biz olimning ayrim muhim qat'iyatlariga, yanikim, bugunda metodika fanida dolzarb bo'lgan qarashlariga, tavsiyalariga to'xtalamiz.

"Adabiyot o'qitishning yetakchi tamoyillari"

1. *Maktab adabiy ta'limi uchun badiiy asarni o'rganishning o'zi asosiy maqsad emas, balki qalbi uyg'oq, ma'naviyati yuksak o'quvchini tarbiyalash yo'lidagi vositasidir.* [3, 282]

Ma'lumki, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq adabiyot darsliklari boshqa darsliklar qatori takomillashtirilishga yuz tutdi. Bir nechta darsliklar yaratildi. Ajabki, hali ham mukammalroq ko'rinishga kelgan emas. Bu tezisda aytilayotgan fikr shuki, dars rejasidagi asarni o'rganish chog'ida o'quvchi undan nimadir foydali bir jihatni o'zlashtirsin. Shunda uning ruhiyatida, ma'naviy dunyosida bir yaxshi ko'nikma, malaka hosil bo'ladi. Bu – inson ma'naviy-ruhiy dunyosini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Bizda ko'p yillardan beri maktab darsliklarida va umuman umumta'lim jarayonlarini optimallashtirishda ko'p tajribalar o'tkazib kelindi va aksari besamar ketganining ham guvohi bo'ldik. Ko'pincha maqsad va vosita ham almashtirib yoki chalkashtirib yuborildi. Pirovardida ta'lim va tarbiya ishining asosiy qahramoni – maktab o'quvchisi ikkinchi o'ringa surilib qoldi. Yuqoridagi tezis, ilgari surilayotgan qoida – asl maqsad va vazifalarni o'z joyiga qo'yishga qaratilgan. Mashhur amerikalik pedagog Jon Dyuning qayd etishicha, o'quvchini muayyan bir sharoitda yashashga o'rgatishning yagona yo'li – uning o'z qobiliyatlarini to'la namoyon etishga ko'maklashadigan muhitni yaratishdir, — deydi. [4].

2. *Maktab darsliklari mazmunini belgilashda fan mantig'i emas, didaktik mantiq ustuvor turishi maktabda adabiyot o'qitishning muhim tamoyillaridan biri ekanini hamisha yodda tutish lozim.* (3, 282)

Bunda ta'kidlanayotgan tezis shuki, avvallari fan mantig'i bo'yicha xronologik tartibda materiallar berilar, har bir ijodkorning eng muhim deb hisoblangan asari (parchasi) berilar edi. Bunda esa asarning

badiiy qiymati hisobga olinadi. Masalan, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanidan parcha berilar edi. Bu adibning eng katta epik asarlaridan biri, “sovet mafkurasining eng yaxshi namunasi” o‘laroq ham tahlil qilinadi. Endilikda uning o‘rniga Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasi, “Na‘matak” she‘ri berilmoqda. Ya‘ni, badiiy asar avvalo badiiy-estetik talabga javob berishi hamda adabiy ta‘lim dasturiga shu tamoyildan kelib chiqib tanlanishi lozim.

3. *Loqaydlikdan forig‘ bo‘lgan, hissiyoti uyg‘ongan, ruhiy mudroqlikdan xalos bo‘lgan o‘quvchilardagina ma‘naviy sifatlar shakllana boradi.* (283-bet)

Keltirilgan tezis – aslida adabiy ta‘limda erishish orzu bo‘lgan mezon. O‘qituvchining vazifasi – darsda loqayd, beparvo o‘tiradigan o‘quvchini harakatga keltirish. Uni nima qilib bo‘lsa ham darsga jalb etish. Ba‘zan, bunga erishish uchun noodatiy usullar talab qilinsa ham, pirovardida o‘quvchi dars muhitiga tushadi. Bu – pedagogikada muhim jihat hisoblanadi. Stiv Jobs ustozini shunday eslaydi: “Miss Xill katta konfetni ko‘rsatib, hamma vazifani qilib kelsam, uni menga sovg‘a qilishini va yana besh dollar qo‘shib berishini aytdi. Ikki kun o‘tib, men unga vazifalar bajarilgan daftarni tutqazdim. Bir necha oy o‘tib, sovg‘a va pullarga ehtiyoj qolmadi” [5. 27-bet]. Bu usulning naqadar samarali bo‘lganini Stiv minnatdorlik bilan eslaydi: “Qobiliyatli bolani missis Xill tirishqoqligi uchun “O‘zing qil” usuli bilan rag‘batlantirdi. Agar u bo‘lmasa, men bir kuni qamoqdan joy olishim turgan gap edi” (27-bet)

4. *Adabiyot darslarida badiiy so‘z qudratini bevosita his etmagan, uning ilohiy ta‘siriga berilmagan o‘quvchida tuyg‘u uyg‘onmaydi.* (283-bet).

Bu ta‘rifda keltirilgan “tuyg‘ulari uyg‘ongan” o‘quvchidan kelajakda balkim katta kashfiyotchilar, o‘z sohasining ustalari chiqishi tajribalardan ma‘lum. Dars jarayonida o‘quvchining faolligiga erishish albatta bu – katta yutuq. Lekin bunga har doim ham erishish qiyin. Har bir dars – alohida ruhiy-ma‘naviy holat taqozosi bilan o‘tadi. Va har bir dars uchun alohida o‘ziga xos yondashish usuli talab qilinadiki, buni tajribali ustozlar yaxshi bilishadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tahlilida ko‘pchilik “Siz o‘shami?” jumlasini eslab qoladi. Buni darsdagi tahlil davomida erishilgan eng yuqori samaralardan biri deb aytish mumkin. Yoki G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi “Xo‘sh innaykeyinchi?” so‘rog‘ini ham eslash o‘rinli. Qolaversa sinfni boshqarish, o‘quvchilarni mudom qiziqtirgan holatda ushlab turish hamda bolalar ong—shuuriga o‘rnashadigan nimalarnidir berish uchun o‘qituvchidan ham muayyan tajriba, hozirjavoblik kabi ko‘nikmalar talab qilinadi.

5. *Adabiyot darslarida o‘quvchilarni o‘rganilayotgan asardan qandaydir xulosa chiqarishga shoshiltirmaslik, ularni asarda aks etgan insoniy tuyg‘ularni his etishga, adabiy qahramonlar bilan tuyg‘udosh bo‘lishga odatlantirish kerak bo‘ladi.* (284-bet)

Ya‘ni o‘quvchini tezroq umum qabul qilgan xulosaga shoshiltirmaslik uqtirilmoqda. Chunki har bir o‘quvchi individual ruhiyat egasidir. Har kimning qabul qilish tezligi, ruhi-sajiyasi har xil. Albatta har qaysi yangi dars o‘qituvchi uchun yangi sinov. O‘ziga xos jarayon. Muallim bunga har tomonlama tayyor turmog‘i lozim. Mashhur gurji pedagogi Shalvo Amonashvilining qiziqarli metodlaridan biri – o‘quvchi o‘z fikrini ko‘pchilik oldida oshkora aytishga iymansa, uyalsa yo tortinsa – muallimning qulog‘iga aytishi ham mumkin ekan. [6].

6. *Adabiyot mashg‘ulotlari yetarlicha samara bersin degan o‘qituvchi o‘quvchilarga shunchaki tinglovchi yoki o‘quvchi deb emas, balki ularga pedagogik jarayonning teng huquqli ishtirokchisi, sherigi sifatida munosabatda bo‘lishi shart. O‘rganilayotgan badiiy asar – o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham birday o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan hodisa. Faqat o‘qituvchi asarni batafsil tahlil qilish malakasiga ega, hayotiy tajribasi kattaroq kishidir.* (285-bet)

Bu endi eng ilg‘or pedagogik qarashlardan biri. Bunda endi o‘quvchining darsga qiziqishini orttirish yo‘lida unga mazkur jarayonning teng huquqli ishtirokchisi ekanligini anglatish lozim. Chunki o‘quvchi pastdan yuqoriga qarab emas, balki yon-verisiga qarab fikrlasin. So‘z aytish, qatnashish huquqini hurmat qilish lozim. Toki o‘quvchi o‘zining mustaqil so‘zini aytmas ekan, natija ko‘ngildagiday chiqmaydi. Mashhur pedagog Suxomlinskiy aytadiki: “O‘quvchi darsda o‘zi kashf etgan yangilikdan shodlansin, mayli bu uning uchun tuganmas zavq manbai bo‘lib qolsin”. [6] Albatta bunday dars-saboq agar shunday tashkil etilgan taqdirda bamisoli bayramdagiday esda qoladi, albatta. Atoqli pedagog Yan

Amos Komenskiy qayd etganki, Buyuk yaratuvchi har bir inson ko'ngliga turfa tuyg'ularni joylagan, faqat uni endi doimo rivojlantirib borish zarur. [7]. Yana aytadiki, "Men o'qituvchilarning ustozlari bo'lishim mumkin, agar ularni nimagadir o'rgata olsam, men o'quvchi-bolaning shogirdi bo'la olaman, agar undan nimanidir o'rgana olsam".

Kuzatishlar shunga olib kelmoqdaki, milliy metodika taraqqiyotida uzoq yillar davomida muvaffaqiyatli ilmiy va amaliy kuzatishlar va tajribalar olib borgan Qozoqboy Yo'ldosh ustozning bugungi kunda muayyan pedagogik qadriyatlari shakllanib ulgurgan. Muxtasar qilib aytganda, milliy pedagogika tarixida Qozoqboy Yo'ldosh fenomenini quyidagicha ta'riflash mumkin bizningcha:

1. Qozoqboy Yo'ldoshning milliy pedagogika, xususan, adabiyot o'qitish borasida nashr qilingan ilmiy ishlari salmoqli ilmiy ahamiyatga ega.

2. "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" asari – milliy pedagogikamizda o'xshashi bo'lmagan, alohida olinganda ham katta ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

3. Qozoqboy Yo'ldoshning pedagogik qadriyatlari adabiy ta'limda namunaviy, dasturilamal xususiyatga ega.

4. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha olim olib borgan ilmiy-nazariy hamda amaliy kuzatishlar hosilasi o'laroq maydonga kelgan asarlari shu sohada fundamental asarlar sirasiga kiradi deb aytish mumkin.

5. Qozoqboy Yo'ldoshning pedagogik qarashlari adabiy ta'limning malaka oshirish jarayonlari uchun ham asos-manba vazifasini o'tay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. Т.: А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 354 б.

2. Қозоқбой Йўлдош. Жиловланмаган тафаккур маҳсули. Т.: "Тафаккур" нашриёти, 2023. – 628 б.

3. https://studbooks.net/1933558/pedagogika/glava_deyatelnost_dyui_znachenie_raboty_praktiki_obucheniya

4. Уолтер Айзексон. "Стив Жобс" (Биографик асар). Т.: "Hilol-nashr" 2019. – 624 б.

externat.foxford.ru/polezno-znat/gumannaya-...

https://studbooks.net/1842906/pedagogika/osnovnye_pedagogicheskie_idei_komenskogo

BADIIY ADABIYOTDA ODOB-AXLOQ MASALASINING BADIIY TALQINI

Gulbahor Qurbonova,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuvchi Nurali Qobul ijodi misolida badiiy adabiyotning insonlar ma'naviy-ruhiy olamiga ta'siri masalasi o'rganilgan. Har qanday sharoitda insonlardagi fazilatlar ulug'lanishi, illatlar qoralanishi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, axloq, robita, mentalitet, qimorbozlik, sadoqat, sotqinlik, tuyg'u, ma'naviyat, urush, muhabbat.

Adabiyot va axloq orasidagi bog'liqlik, robita haqida fikr yuritganda, muhim bir holatni qayd etmoq lozim. Axloq adabiyot uchun havo kabidir, havoning borligi sezilmaydi, lekin yo'q bo'lgan yoki kamaygan zahoti uning hayotiy zaruriyati bilinadi. Axloq chinakam badiiy asarning qon-qoniga singib ketgan bo'lib, uni ajratib ko'rsatish, ya'ni bu axloqqa tegishli, bunisi tegishli emas, deya tasniflash mumkin emas. Adabiyot butun turish-turmushi bilan yuksak insoniy axloqqa suyanadi va oxir-oqibatda

o‘z asarlari vositasida uni targ‘ib qiladi. Axloqiy-ma‘naviy tarbiya hech qayerda qonunlar kabi qat‘iy belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, xalq tomonidan o‘rnatilgan, belgilangan me‘yorlardir, asrlar davomida barqaror an‘analarda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qonun-qoidalaridir. Mana shu me‘yorlarga, yozilmagan qonun-qoidalarga amal qilib yashashimiz bizning axloqiy-ma‘naviy jihatdan qay darajada barkamolligimizni belgilaydi. Ba‘zi axloqiy mezonlar borki, ular qonun bilan ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, qimorbozlik.

Qimorga qaramlik – bu ko‘plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dastlab qo‘shimcha daromad topish, keyinchalik uning sirtmog‘iga tushib yutqazilgan pulning o‘rnini qoplash maqsadida kunlab, haftalab, oylab va hatto yillab ketkazilgan vaqt natijasida inson o‘z shaxsiy hayotiy ehtiyojlari uchun sarf qilishi kerak bo‘lgan bebaho ne‘matini yo‘qotadi. Tavakkalchilikka asoslangan qimor kabi o‘yinlar insonda umidsizlik va nochorlik hissiyotlarini keltirib chiqaradi. Yirik summadagi mablag‘ni yutqazish psixologlar fikricha, inson huzur-halovatini yo‘qotishga olib keladi va depressiya, migren, ichak kasalliklari va stress bilan bog‘liq boshqa muammolarga duch keladi. O‘yinga berilib ketganlar yotganida ham, turganida ham, har doim pul tikib yutish haqida o‘ylashadi. Oqibatda oiladagi mas‘uliyatini unutadi, ayol, bola munosabatlaridan uzoqlashadi. Inson o‘ziga, yaqinlariga va xayrli ishlarga ajratishi kerak bo‘lgan mablag‘larni, vaqtini, muhimi sog‘lig‘ini asossiz tarzda yo‘qotadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, badiiy ijodda qimorbozlik bilan bog‘liq voqealar keng o‘rin egallamaydi.

“Salom, tog‘lar” qissasidagi Yangiboy obrazi ham qimorga mukkasidan ketganligi sabab odamlar undan o‘zini olib qochadi. U haftaning uch-to‘rt kunini qimorda o‘tkazadi. Hatto Oyqor oshib o‘tib, ikki-uch kun tojiklar bilan qimor o‘ynab, yutib yoki yutqazib kelar edi. O‘z uyida ham tez-tez qimorbozlar yig‘ilishini o‘tkazib turar edi. Hech qachon oilasiga bir chaqa ham bermaydigan Yangiboy ana shu xasisligi (xotini va farzandlariga ehtiyojlari uchun pul bermasligi) va qimorbozligi sabab o‘z farzandi o‘limiga sababchi bo‘ladi.

“...O‘shanda hamma qimorbozlar Yangiboyning uyiga yig‘ilishibdi. Abdumajid ismli o‘g‘li har galgidek otasining tizzasiga suyanib o‘tirgan ekan. U, otasi ko‘rpaning ostiga qistirib qimor o‘ynayotgan puldan o‘g‘irlab onasiga berar, onasi uni qarz-havolalariga ishlatar ekan. O‘sha kuni u ko‘rpaning chetidan chiqib turgan bir so‘mlikni sekin tortganida otasi ko‘rib qolibdi. Uyalgan Abdumajid chordana qurgancha yerga tikilib qolibdi. Yutqazib alam qilib o‘tirgan otasi jahl ustida uning bo‘yniga bir musht uribdi. U: “Ih”, deya boshini yerga qo‘yibdi. Og‘zi-burnidan qop-qora qon ketibdi – shakar tomiri uzilib ketgan ekan...”

Onasi dod solib, eriga yopishibdi, qarg‘abdi. U xotin bo‘lib erini birinchi marta qarg‘ashi ekan. Eri uni shunday tepibdiki, sho‘rluk ayol ikki oy deganda zo‘rg‘a o‘ziga kelibdi. Bo‘yida besh oylik bolasi bor ekan, u ham nobud bo‘libdi. G‘oyibnazar onasi uchun juvonmarg bo‘lgan Abdumajidni ko‘p o‘ylardi...”. [N.Qobul, 2017: 65]

Shunday qilib, qonun tomonidan taqiqlangan, axloqiy mezonlar tomonidan ham qoralangan, dinimiz man etgan amallarni bajargan Yangiboy o‘g‘li – Abdumajidning, hali tug‘ilmagan go‘dagining qotiliga aylandi. Qimorbozlik butun bir oilaning halokatiga sabab bo‘ldi. Abdumajid yosh bo‘lsa ham otasining pulini so‘roqsiz olish uyat ekanligini bilib uyalib yerga tikilib qoldi. Butun oila mas‘uliyati yelkasida turgan ota esa farzandi va xotini ehtiyojini qondirish vazifasi ekanligini unutgan. Shu sabab ona bechora qo‘ni-qo‘shnilardan qarz-havola qilib kun kechiradi. Qimorda yutqazayotganligining alamini bolasidan olgan ojiz ota oxir oqibat farzandkush bo‘ldi.

Yozuvchi Yangiboy qimorboz voqeasi, Abdumajid fojiasini ishonchli tasvirlaganidan bu o‘rinda kitobxon qalbida qimorga ham, qimorbozga ham cheksiz nafrat uyg‘onadi. Bu o‘rinlar o‘qirmanlar uchun juda katta tarbiyaviy maktab, o‘rnak vazifasini bajarishi shubhasiz.

Tarixdan ma‘lum bo‘lgan eng dahshatli urushlardan biri – ikkinchi jahon urushi. Sovuq urush davri insonlarning ma‘naviy qiyofasi qanday ekanligini ko‘p jihatdan ko‘rsatib berdi. G‘oyibnazarga o‘xshagan vatanparvarlar birinchilardan bo‘lib, qishloqqa kelgan harbiy komissarlik ro‘yxatidan o‘tib, urushga jo‘nadi. Ammo Qamariddinga o‘xshashlar esa xoinlik to‘nini kiyishdi. “ – Hamma askarlikka yozilayotganmish.

- O'qor oshib, Panjakentga qochib ketayotganlar ham yo'q emas, — dedi bo'sh kosani dasturxonning chetiga qo'yarkan onasi.

- Bugun uch-to'rt kishi uyga kelmay, to'ppa-to'g'ri dalaning boshidan toqqa qarab ketdi...

- Ularning ichida Qamariddin ham bor deyishyapti-ku, — dedi ajablanib Toshbuvi.

- Undan faqat xoin chiqardi". [N.Qobul, 2017: 104]

Hayitda, bayram kunlari beva singlisini bir yo'qlamaydigan Samandarning o'g'li ham o'ziga o'xshash. Na qarindosh-urug'chilikni, na amma, na jigar tushunchalarini anglaydi. Qarindoshi Zulayhoga tegajaklik qilishdan ham or qilmagan bu yigit elga kelgan tashvishdan o'zini chetga oladi. Tojikistonga qochib ketadi. Qishloq yigitlarini birma – bir ro'yxatga olib, urushga jo'natayotgan Yusuf do'm ham o'z o'g'lini urushga jo'natmaslik maqsadida Dushanbega o'qish bahonasida qochirib yuboradi. Urushdan qochish ham xoinlikka teng. Lekin bugungi tinch zamonda ularni qoralashdan ham yiroqmiz. Yusuf do'm ham bir ota sifatida o'z o'g'lining hayotini saqlab qolish uchun qo'lidan kelgan tadbirni qildi. Qamariddin ham o'z jonini qutqarish uchun shu yo'lni tutgandir, ehtimol. Axir, hamma ham o'z jonini xalqi, vatandoshlari uchun fido qila olmaydi. Bu haqiqatni tarix ko'p bor isbotlagan.

Zulayho Qarshi uchgan cho'qqisining etagidan qurigan shox-shabba terib kelgani borganda, unga sovchi jo'natib, quruq qaytgan Qamariddin uning ortidan kelib, yo'lini to'sadi: "– Seni yaxshi ko'raman, Qorako'z! Mening uchun sen bir tomonu sendan boshqa butun dunyo bir tomon. Sen esa men bilan gaplashishni ham istamaysan. Nima, mening biror kishini yaxshi ko'rishga haqqim yo'qmi? ...Rahm qil! O'sha G'oyibnazardan qayerim kam? Sen meniki bo'lishing kerak, Qorako'z! Ishonaman, sen meniki bo'lasan! To'g'rimi, Qorako'z?". [N.Qobul, 2017: 87]

Qamariddinga uni sevmasligini tushuntirib yo'lda davom etmoqchi bo'lsa ham u Zulayhoni qo'yib yubormaydi: "Birdan tashlangan Qamariddin Qorako'zni mahkam quchoqlab oldi. Ikkisi ham yo'lining o'ng tomonidagi kichkina soylikka zarb bilan ag'darildi... Yiqilishi bilanoq Qorako'zning oyoq-qo'li bo'shashib, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. U harsangning ustiga yiqilgan edi. Qamariddin hamon uni qo'yib yubormas, bosh-ko'zi demay, to'g'ri kelgan joyidan o'par edi. Qorako'z jon alfozda uning badanini tishladi. Qamariddin alam bilan chinqirib, o'rnidan turib ketdi. Zarb bilan urilgan tarsakidan Qorako'z bir zum o'zini yo'qotib qo'ydi. Qamariddin yelkasini ushlagancha so'kinib dodlardi. Qorako'z butun kuchini to'plab o'rnidan turarkan, qo'lga ilingan toshni oldi. Bexos boshiga tushgan zarbadan Qamariddin gursillab yiqildi...". [N.Qobul, 2017: 89]

O'zini yo'qotib qo'ymay, qanday yo'l bilan bo'lsa ham or-nomusini himoya qila olgani, Qamariddinga taslim bo'lmagani va uni boplab jazolaganidan ko'rinib turibdiki, u Barchinoy, To'maris, Bibixonim, Xonzodabegimlarga xos va mos avlod. Unda ham o'ziga xos mardlik bor. Uyga qaytayotganida kech bo'lib qolgani uchun xavotir olib, uni izlab chiqqan onasi bilan G'oyibnazarga ko'z yoshlarini ko'rsatmay, bu voqeani sir tutishida ham uning aqli raso ekanligi ko'rinib turadi. Aytsa, ish chuvalashishi, gap-so'z ko'payishi, yigitlar mushtlashishi, jigarlar (aka-singil: Samandar-Qamariddinning otasi va Enaqiz-Zulayhoning onasi) o'rtasidagi munosabat battar chalkashishi mumkinligini sezgan holda bu voqeada u g'olib bo'lganligi uchun sir tuta qoladi. Bir necha kundan so'ng G'oyibnazar bilan bo'lgan suhbatda Qamariddinni cho'ponlar kaltaklabdi, degan vaqtda, "men urdim" yo'lto'sarlik qilgani uchun deb aytadi. Bundan ko'rinadiki, Zulayho har qanday holatda ham G'oyibnazarga yolg'on gapira olmaydi.

G'oyibnazar va Zulayhoning nikoh to'ylaridan hech qancha vaqt o'tmasdan Matqobil amaki urush boshlanganligi haqidagi xabarni olib keladi. Ishq otashida mast bo'lib yurgan juftlik uchun borliq faqat ishqdan iboratdek edi. Sovuq urush xabaridan so'ng G'oyibnazar urushga ketishga tayyorgarlik ko'ra boshladi, Toshbuvi, Enaqiz, Zulayholarning uzoq yig'i-sig'isidan so'ng G'oyibnazarning urushga jo'nab ketish kuni keldi.

O'z suygan insoningni olis manzilga, yana dahshatli olov bag'riga jo'natishdan og'ir narsa yo'q bo'lsa kerak dunyoda. Har qancha bo'lsa ham Zulayho o'zini tutdi. Hali kelinlik chillasidan chiqishga ulgurmay yorini urushga jo'natgan Zulayho uchun viqorli O'qor ham mung'ayib qolganday tuyuladi. "Salom tog'lar" qissasida Zulayho boshiga tushgan savdo – xotin-qizlarning urush tufayli yaqinlaridan uzoqda bo'lishi, yoridan ayrilish motivini jahon adabiyotida, xususan, qardosh xalqlar adabiyotida ham uchratishimiz mumkin.

Atoqli yozuvchimiz Odil Yoqubov: “Nurali Qobulning “Salom, tog‘lar” qissasini o‘qiganimda bolalik va o‘smirlik chog‘larim lop etib ko‘z o‘ngimda jonlangan edi. Og‘ir urush yillariga to‘g‘ri kelgan bu davr qanchalik mushkul bo‘lmasin, bolalikka xos nurli kechinmalarga boy edi. Nurali Qobul o‘z qissasida og‘ir urush davri voqealarini mana shu nurga, ham ma‘yus, ham bolalikka xos yorug‘ tuyg‘ularga yo‘g‘irib bera olgan. Shuning uchun ham “Salom, tog‘lar” qissasi kitobxonni loqayd qoldirmaydi. Qissa qahramonlari Qorako‘z bilan G‘oyibnazarlarning urush tufayli chilparchin bo‘lgan beg‘ubor sevgilari esa har qanday odamni ham chuqur hayajonga soladi”, — deb yozadi. [Yoqubov O. 1980: 2]

Urush shunday kulfatki, shunday yovki, u barcha ezguliklarni toptab yo‘q qilishga ham qodir. Yozuvchi O.Yoqubov aytganidek, bolalikka xos nurli kechinmalar ham, beg‘ubor sevgi ham ba‘zan unga bardosh bera olmaydi.

“Oy yorug‘ida nim tovlanib turgan muzliklar sari poyintar-soyintar qadam tashlab yurib ketdi... “Alvido tog‘lar! Yer yuzida hamma bir-birini sevadigan bo‘lganda, odamlar orasidan nafrat va xusumat yo‘qolganda, bizni abadiy uyqudan uyg‘oting! Biz shunda: “Salom, tog‘lar” – deya qayta tug‘ilamiz!” [N.Qobul, 2017: 138]

Muzliklar bag‘ri tomon oshiqayotgan Zulayhoning xayoliga kapitan Rusovdan kelgan xat keladi va orqaga qaytishga harakat qiladi. U iziga qaytmoqchi bo‘lib archaga yopishadi. Afsuski, qor ko‘chkisi barchasini tep-tekis qilib ketadi.

O‘z ijodini dastlab hikoyachilikdan boshlagan N.Qobul qissachilikka qo‘l urar ekan, uning qissalari birin-ketin dovruc qozona boshladi. Har bir yozgan qissasi yozuvchilar, adabiyotshunoslar, tanqidchilar tomonidan yuqori baholandi. Har qanday san‘at maydoniga mashqlar evaziga kirib boriladi. Mashqlaringizni kuzatuvchilar fikrlari bilan siz o‘z yo‘lingizni topib, insonlar uchun nimalar kerakligiga o‘rgana borasiz va xalq nimani xohlashini to‘la anglab yetasiz. Nurali Qobul ham so‘z san‘ati maydoniga she‘r va kichik nasriy asar – hikoyalar mashqi bilan kirib keldi. Dastlabki mashqlari ham e‘tibor va e‘tiroflarga sazovor bo‘ldi. She‘rlari xalq artistlari tomonidan qo‘shiq qilib kuylandi. Shundan so‘ng, qissa janrida barakali ijod qildi. Va eng yirik nasriy asarlar – roman, roman monolog, roman epopeya, roman pamfletlari bilan nafaqat o‘zbek, balki boshqa xalqlar adabiyotini ham zabt etdi. Asarlari chet tillariga, xususan rus, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq, turk, ingliz, ukrain, ispan, bolgar va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilindi. Sobiq ittifoqning M.Gorkiy, B.Polevoy mukofotlari laureati; Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti laureati; Xalqaro Chingiz Aytmatov akademiyasining akademigi.

Yuqorida keltirib o‘tganimiz “Salom, tog‘lar” qissasining dastlabki nashrida quyidagicha parcha asar tarkibida uchraydi: “Dabdurustdan toshlar shaqirladi. Qorako‘z cho‘chib tushdi. Qo‘rquvdan qo‘li bo‘shashib, o‘tini bog‘i yerga tushib ketdi. Bog‘i uzildi shekilli, shoxlar har tomonga sochilib yotardi. Qorako‘z qo‘rqib joyida turib qoldi. Qo‘rqa-pisa nimchasining cho‘ntagidan gugurt olib yoqdi-da, yerga tashladi. Namxush tog‘ shamolida ohista shitirlab turgan sarg‘ish xazonlar ohista lovullab yona boshladi. Bu voqealarning hammasi qandaydir qisqa muddatda sodir bo‘ldi. Yon tomondagi erkak kishining piching aralash xunuk kulgusi eshitildi. Qiyalikda nos chekaverib sarg‘ayib ketgan chirkin va orasi ochiq tishlari ko‘rinib, tirjayganча Qamariddin turardi.” [Xushboq, 2021: 22]

Qorong‘i, bo‘ri yoki odam ekanligini ajratolmayotgan qiz qanday qilib yigitning “nos chekaverib sarg‘ayib ketgan chirkin va orasi ochiq tishlari”ni, tirjayib turganligini ko‘rishi mumkin.

Qissadagi dalillanmagan, kitobxon ishonishi qiyin bo‘lgan bu epizodik sahna yozuvchi tomonidan keyingi nashrlarda olib tashlandi va quyidagicha chop etildi: “Dabdurustdan toshlar shaqirladi. Qorako‘z cho‘chib tushdi. Qo‘rquvdan qo‘li bo‘shashib, o‘tini bog‘i yerga tushib ketdi. Bog‘i uzildi shekilli, shoxlar har tomonga sochilib yotardi. Qorako‘z qo‘rqib joyida anchagacha turib qoldi.

Yon tomondagi erkak kishining piching aralash xunuk kulgusi eshitildi. Qamariddin...

Qorako‘z nafrat bilan, Qamariddin esa qandaydir yoqimsiz najot ko‘zi bilan bir-biriga tikilib, anchagacha jim turishdi.” [N.Qobul, 2017: 86]

O‘z xatosini tushunib, uni vaqtida to‘g‘irlash natijasida kitobxonning cheksiz mehriga sazovor, takrorlanmas qissa holiga keldi.

Umuman olganda, yozuvchi obraz tizimi tarkibiga kiruvchi personaj, detal, joy, makon, davr kabilarni asar kompozitsiyasiga mohirlik bilan birlashtirgan. Ularning badiiy-estetik ta'sirini oshirish uchun muallif nutqi, monolog, dialog kabi shakllaridan hamda turli badiiy tasviriy — ifodaviy vositalaridan unumli va o'rinli foydalangan.

“Salom, tog'lar” qissasida yozuvchining mahorati yana shunda ko'rinadiki, asar qurilishi faqat muallif nutqi va dialogik nutqlardan iborat emas. Monologik nutqlardan ham keng foydalangan. Buni asosan Zulayhoning o'zi bilan bo'lgan suhbatlarida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, peyzaj qissaning umumiy mazmun-mohiyatini ochishda muhim rol o'ynagan. Asar tili ravon, sodda, xalqchil. Undagi tabiat tasvirlari, obrazlar, xususan, Zulayho obrazi bilan tanishar ekanmiz, Norboy Xudoyberganovning “Nurali Qobul o'tkir ijtimoiy muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularni chuqur idrok etishga, beqiyos badiiy umumlashmalarni, original, yangi tiplar yaratishga astoydil kirishgan yozuvchi sifatida tanilyapti”, [Q.Nurali, 2015: 214]- degan e'tirofi qanchalar to'g'riligiga ishonch hosil qilamiz. Haqiqatda, “Salom, tog'lar” qissasi g'oyat murakkab palla – ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrdagi tog' qishlog'i odamlari hayoti, eng muhimi, ikki sevishtgan qalb egasi G'oyibnazar bilan Zulayhoning buloq suviday tiniq, shaffof muhabbati haqidagi ehtirolarga to'la yoniq qissadir. Adibning mahorati shundaki, u sevgining qudratini, ayriliq azobining qanday fojialarga olib kelishini o'ziga xos uslub, badiiy bo'yoqlarda ko'rsatdi. Kitobning so'nggi sahifasini yopganda muhabbat qo'ygan kishisidan ayriliqda yashash pirovard natijada fojiaga olib keladi, degan fikr qalbimizda aks sado beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurali Qobul. Johillik va qotillik: qissalar.T.: “IJOD-PRESS”, 2017. –B. 240.
2. Yoqubov O. Adabiyotimiz kelajagi. // O'zbekiston madaniyati. – 1980. №36.
3. Jovli Xushboq. Turkiy dunyo yog'dusi. Toshkent. 2021. –B. 65.
4. Qobul, Nurali. Kechikkan turnalar (matn): qissa va hikoyalari / N.Qobul. – Toshkent: “Tafakkur”, 2015. –B. 232.

ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNI FIKRLASHGA O'RGATISHDA KREATIV YONDASHUV

Oysuluv Musurmonkulova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarida adabiy ta'limda tarbiyaviy maqsad ustunligi, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, bilimlarini hayotiy ko'nikmalarga uyg'unlashtirish, asoslari haqida so'z boradi. Mavzular asosida ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish, adabiy jarayonlarda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullarning qo'llanilish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijodkorlik, kreativ fikrlash, anglash, noan'anaviy usullar, shaxsiy, muammo, sabr-iroda, ma'naviyat, ko'nikma.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadlar yo'lida har tomonlama etuk, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yosh avlodning tarbiyasi dolzarb va muhim sanaladi.

Yurtboshimiz e'lon qilgan qarorlarida [“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 572-son. 17. 09. 2021-y., “Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi 157-son. 27.08.2024-y. Hukumat qarorlari] yoshlar salohiyati uchun hamma imkoniyatlardan unumli foydalanishga chorladi. Shuningdek, ijod maktablari tashkil etish, o‘quv dastur va darsliklar tubdan takomillashtirish, uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta‘lim muassasalarida jahon ta‘lim standartlari asosida o‘qitish, ta‘lim-tarbiya uyg‘unligini ta‘minlash, savodxonlikni rivojlantirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Yurtboshimizning “San’at” fani kiritish takliflari ham aynan, ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uzviyligi va zamon talablari uyg‘unligi o‘zaro mos bo‘lishini, shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan qobiliyatlarini namoyon qilish, his-tuyg‘ularini aql bilan moslashtirish, ezgu fazilatlarini rivojlantirish, iroda, sabr-qanoat va dunyoqarash shakllari kuchaytirish vazifalar bilan hamohangdir. Bugungi suhbatimiz, so‘z san’ati haqida boradi.

Darhaqiqat, adabiy ta‘limning bu borada, maqsad va vazifalari ancha zalvorlidir. Bu haqda ustoz, “O‘quvchilarni so‘z san’ati va xususiyatlari bilan tanishtirish, adabiyotimizning ko‘p asrli taraqqiyot yo‘li, rivojlanish qonuniyatlari ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni, yirik so‘z sohiblarining hayoti va ijodiy faoliyati, adabiyotimizning tarixdan munosib o‘rin olgan badiiy asarlar haqida ta‘lim berish, badiiy adabiyotning kelajak muxlislarini tarbiyalashdan iborat” [Yo‘ldoshev, 2023:77] deb yozadi.

Adabiyotdan xabardor bo‘lmagan har qanday shaxsning insoniylikni anglashi qiyin kechadi... “Insoniylik tenglik, adolat, odamlar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar tamoyillariga asoslangan dunyoqarashdir”. [<https://uz.wikipedia.org/wiki/Insoniylik>]

Adabiy jarayondagi har qanday metodika o‘z tarozisiga insoniylikni qo‘yar ekan, o‘quv maqsadlarining natijaviyligi ortadi. Fransiyalik siyosat va davlat arbobi Fransua Gizo: “O‘zining dardini his qilgan inson u tirikdir. Boshqaning dardini his qila olgan esa haqiqiy insondir”, degan so‘zidan ham anglash mumkinki, yoshlarni har tomonlama savodxon qilishda insoniylik “markaz” hisoblanadi. Ya’ni, fan qachonki, maqsadiga eltuvchi poydevorni mustahkam tersa insoniylikka etaklaydi, yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib etishishlari ko‘mak bo‘la oladi.

Ustoz Q. Yo‘ldoshev, mayin isyon ohanglari, erk va g‘urur ohanglari, parda ortidagi tuyg‘ular haqida so‘zlarkan, ijodkorlarning nozik tuyg‘ulari haqida “Millat hayotidagi eng kichik o‘zgarishni ham tuyishni isbotlab bo‘lmaydi, bu ruhiyat bilan bog‘liq” [Yo‘ldoshev, 2018:131] deya izohlaydi.

O‘qituvchilik kasbi shuning uchun ham mashaqqatlidir. O‘quvchilarning ruhiyati, his-tuyg‘ularini tushunishi va to‘g‘rilik sari etaklashi, asarlar mohiyatini anglatishi oddiy ish emas.

Xo‘sh, adabiyot darslari o‘z maqsadiga erishyaptimi? Ba’zan, dars tahlillarida “o‘quvchilar tanqidiy fikr bildirdi”, “fikrlarini asoslab berdi” kabi muhokamalarga duch kelamiz. Xo‘sh, o‘sha tanqidiy fikr bergan o‘quvchilarning fe‘l-atvorida ijobiy tomonga o‘zgarish qanchalik?! Bu borada, o‘qituvchi xayoliy monitoring yuritadimi, progressni kuzatadimi? Misol uchun, taxminiy kuzatish, ko‘rsatmalar, maslahatlar berish, yaqindan gaplashish, e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, umumta‘lim maktablarida ustozlarning oiladagi muhit, imkoniyatlarning “aks ta’siri”, “texnika asri” o‘zgarishlari, globallashtiruv bola ongida salbiy qarashlarni vujudga keltirishi haqida so‘zlashadi.

Mantiqan ko‘rilganda, bola xulqidagi keskinlik, ziddiyatlarga beriluvchanlik yoki jinoyatga moyillik bir kunda paydo bo‘lib qolmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zgarishini uydagi ota-onadan tez ancha oldin sezadi. Darsda aynan, shu kabi illatlarni izohlashga urg‘u berilsa, o‘quvchi o‘z xatoliklarini anglaydi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchisidagi fazilatni rag‘batlantirish, illatlarining oldini olishni bilish lozim.

Ta’kidlash joizki, “G‘am qayg‘ularimizning barchasi boshqalar bilan munosabatlarimiz ta’sirida yuzaga keladi” [Shopengaser, 2020:170]. Ayniqsa yoshlar orasida tez xulosa sabab, kelishmovchiliklar kuzatiladi. Har qanday narsadan hikmat qidirishga, to‘g‘ri xulosalashga yo‘naltirish bu muammoning oldini olish imkonini beradi. Ma’lumki, muloqot jarayonida kishi har doim ham adresat (tinglovchi) bo‘lmaydi, ayni paytda adresant (so‘zlovchi, tinglovchiga o‘z fikrini uzatuvchi) vazifasini ham o‘taydi. Shuning uchun, o‘quvchilarning to‘g‘ri munosabatga o‘rgatish, mavzuni so‘zlaganda ravonlikni tushuntirish muhimdir. Darsda o‘quvchi nutqining “Kommunikativ qobiliyatlarning bir nechta guruhlari mavjud:

1. Hamkorlarga e'tiborni qaratish qobiliyati, ya'ni insonning xarakterini, uning kayfiyatini aniqlash; sheriklarning xatti-harakatlarining ifodasini o'qish, uni to'g'ri talqin qilish;
2. Mumkin bo'lgan sheriklar va ular o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratish qobiliyati;
3. Diqqatni kommunikativ vaziyatga qaratish qobiliyati. Ushbu mahoratning ahamiyati, asosan, muloqot qoidalarini sodir bo'lgan muayyan vaziyatga bog'liqligi bilan belgilanadi"[<https://intellect.ml/speech-development-of-preschool-children-2060>].

Zero, fikrlarini bildirishga, dunyoqarashga ega shaxsgina ijtimoiy borliqni borligicha qabul qila oladi, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri munosabatni anglatishda, avvalo, fikrlarini sog'lomlashtirish lozim. Adabiy ta'lim talablarida kreativ, ijodiy fikrlashga qaratilgan topshiriqlar ishlashda, matn tanlashda bu jihatlarga e'tibor qaratishi, muammolarga echim topishda qarorini o'zgartirishga imkoniyatlari uchun qulay vaziyatlar yaratishi, g'oyalarni ishonchli tarzda yozishi uchun nostandart fikrlar keltirishiga yo'naltirish muhimdir.

O'quvchilar biror topshiriq ishlaydimi, ijodiy bayon, esse yozadimi mustaqil fikrlari o'z qobiliyati asosida bir necha bosqichlarga duch keladi. Xayoliy tushunchalarni tasavvur qilish(fikrlash), muammoga o'zgacha echim topish(muammoni hal qilish), tushunchalarni so'zlarga aylantirish(grammatik), tushunchalarining samaralilarini tanlash (qaror), fikrlarini o'zgartirish (xulosa) kabi bosqichlarda ijodiy yondashadi.

Pifagor ta'kidlaganidek: "Avval senga yaqin joydagi narsalarni o'rganishga harakat qil, so'ngra sening nigohingdan uzoqdagilarni", deganlaridek, o'quvchilar ham avval oddiy tushunchalarni yozib, qaror qilishda o'zgartirish fikrlari ustunlik qiladi. Bu albatta, o'quvchilarda muammolarni samarali hal qilish, shaxsiy fikrlarini rivojlantirish, ko'rgan-bilganlari asosida o'ziga xos nuqtayi nazarlarini ifodalash ko'nikmalari ortishiga olib keladi.

Jumladan, ijodiy fikrlashning xususiyati haqida manbalarda quyidagilarni keltirilgan.

- Ochiq fikrlash: Yangi g'oyalar va istiqbollarni qabul qilish.
- Qiziquvchanlik: O'rganish va kashf qilish uchun kuchli istak.
- Tasavvur: Tasavvur qilish va yaratish.
- Tavakkalchilik: Noma'lum muammoga hal qilish.
- Moslashuvchanligi: Turli vaziyatlar va nuqtayi nazarlarga moslashish.
- Qat'iylik: Ijodiy ishlarga sodiq qolish.
- Hamkorlik: Innovatsion g'oyalarni yaratish uchun boshqalar bilan ishlash.

Ijodiy fikrlash kreativ fikrlash bilan bir maqsadda birlashsa-da o'ziga xos ilmiy asoslari mavjud.

Fikrlash yuzasidan, xalqaro dasturlarda(PIZA) o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda kreativ fikrlarini rivojlantirishni taklif qiladi. "Kreativlik" atamasi birinchi marta amerikalik psixolog va professor Joy Pol Guilford tomonidan kiritilgan. Kreativlikni rivojlantirish uchun asos divergent fikrlash bo'lib, u bir xil muammoning bir nechta echimlarini topishdan iborat.

Joy Pol Guilford kreativ fikrlashning beshta asosiy komponenti sifatida quyidagilarni keltiradi:

- moslashuvchanlik
- o'ziga xoslik
- ravonlik
- sezgirlik
- farazlarni rivojlantirish.

O'quvchilar kreativ yondashuvning ilmiy asoslarini tushunmaydi. Ammo, hech kim yozmagan qirralarini yozishni maqsad qilishadi. O'ziga xoslik, no'anaviy jihatlarga yo'naltirish muhim sanaladi. O'quvchilar o'z ijodiy ishlarida yoki topshiriqlar jarayonida muammoning yagona echimini qo'llab-quvvatlashadi va asoslashadi.

Tadqiqotchi Joy Pol Guilford ta'kidlagan, ravonlikda ko'p sonli g'oyalar mavjudligini izohlaydi, Ya'ni, qoliplardan, ma'lum chegaralardan tashqariga chiqish — stereotiplarga ergashmaslik va muammolarni hal qilishda turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlardan foydalanish uchun shaxsning ma'lumotlarga nisbatan "ochiq bo'lishi" kabi mezonlar keltiradi. Xorijiy tajribalar kuzatilganda,

o‘qituvchi berilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar nazoratida amaliyot kuchligi, bilim berish barorida fikrlash ustunligini ko‘rish mumkin.

Adabiy ta’limda bu yondashuv biz ko‘zlagan maqsadlarga mos kelishi yaqqol ko‘rinib turgan haqiqat ekan, o‘qituvchilar o‘z metodikalarida topshiriqlarni noan’anaviy shakllarini yaratishni davr taqozo qilayotganini anglash lozim.

Jumladan, oddiygina, savollarni o‘rinli berish ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga olib keladi. Misol uchun, Kim bu obraz o‘rnida o‘z fikrini bildiradi?, Fikringizga qarshi fikrlar nima deb o‘ylaysiz?, Muammoga besh sabab keltiring? kabi savollar ham o‘quvchilarni turli manbalarga kirishga majbur qiladi. Kreativlikning o‘ziga xosligi ham aynan, nostandart g‘oyalarni ishlab chiqishga qaratilgandir.

Jumladan, 6-sinf o‘quv dasturidagi 2 faslida Xalq og‘zaki, Alisher Navoiy ruboiylari, Abay she’rlari, Lengston Huizning “Rahmat sizga, xonim” kabi mavzular o‘tiladi. O‘qituvchi qaysi janrda topshiriq ishlamasin, matndan javob qidirmaslik, javoblarda bir qolipda tutmaslik, ya’ni ma’lumotlarni har tomonlama o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi, bir nechta nuqtayi nazarlarni shakllantirish, muammoni hayotga bog‘liq o‘rinlarda tizimlashtirish va echimlar uchun istiqbolli g‘oyalar keltirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa o‘quvchilarda mantiqiy yondashish imkonini beradi.

Misol uchun, xalq og‘zaki ijodida o‘qituvchi yodlaganlari bilan chegaralanib qolmaslik lozim.

1. She’rni o‘qing. Ro‘za aytib kelgan bolalarning so‘zlariga e’tibor qiling.

Ro‘zani uch tutib keldik sizga,

Ro‘zaning zakotini bering bizga.

Ramazon aytgan bilan to‘yamizmi,

Burungining qa’dasini qo‘yamizmi?

Matnda urf-odatga ishora qaysi fikrda to‘g‘ri ko‘rsatilganligini aniqlang.

A) uchta narsa olib keldik

B) zakotini bering bizga

C) berasiz deb, Sizga keldik

+D) qa’dasini qo‘yamizmi

Izoh: O‘quvchilar “uch tutib keldik”, “zakot”, “burungining qa’dasi”, “berasiz” so‘zini tahlil qilishadi.

O‘quvchining xatosi shuki, she’rni unutib javobga vaqt sarflaydi. Har bir javobda urf-odatga ishorani ko‘rish mumkin. Bunda, tag ma’nolarini anglash lozim..

2. Insonlarni bir-biriga mehmondo‘st bo‘lishga, hamkor, mehr-muruvvatli bo‘lishga saxiy, qo‘li ochiq bo‘lishga xizmat qiladigan qo‘shiqlar mavsum-marosim qo‘shiqlari hisoblanadi. Shu fikr haqida variant javobni belgilang va bir gapda asoslang.

+A) to‘g‘ri

B) noto‘g‘ri

Asos:

Izoh: O‘qituvchi baholashda asoslashiga ahamiyat berishi lozim. Fikrlarini bir gapga aylantirishda o‘quvchi amaliy echimlar taklif etish, qadriyat g‘oyalarni ilgari surish, boshqalar fikriga xayrixohlik bildirish nuqtalarida turganligini his etadi.

3. “Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar”. Ushbu hikmat ma’nosiga mos keladigan variantni aniqlang.

A) Duo olish kichik yoshlikdan boshlanadi.

B) Kattalar duosiga yoshlar sazovordir.

+C) Bolaning yaxshi odati kattalar duosiga sababdir.

D) Kattalar duosini olish bolalarga xosdir.

Izoh: Bu testlarni bajarishda, Navoiyning hikmati mazmunini yanada anglashga yo‘naltiradi. Katta mazmunni mushohada qiladi.

4. Abay she’rlarini o‘tishda mazmunini so‘rashdan ko‘ra turli topshiriqlar berib, ularning tushunganligini xulosalash mumkin.

1). She’rni o‘qing.

Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim,

Xayrin bildim, biroq yuz o‘rgulmadim.

Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq,
Kechikib qo'l cho'zdim-u, ulgurmadim

Ushbu she'rdagi "xayrin" so'zini qaysi ma'noda qo'llanganligini aniqlang(ikkita javob belgilanadi).

- A) xayrin-ehson B) xayrin- savob
+C) xayrin- natijasi +D) xayrin- ma'nosini

Izoh: Abay she'rini mazmuniga ikki javob o'ylash ularda fikrlashga yo'naltirishi bilan birga "Savob", "ehson" so'zlari ma'nosi kichik doirani, "ma'nosi" deganda keng doirada fikrlarni anglashiga qaratilgan.

2). Abay she'rini o'tishda yozma topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Bunda, kreativlikni rivojlantirishda "6-3-5 texnikasi" usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. "6-3-5 texnikasi" 1968-yilda nemis professori Bernd Rorbax tomonidan yozma ishlar uchun qulayligini ta'kidlagan. Bunda, 6 kishi 3 ta fikrini 5 daqiqa ichida yozadi. Qo'llashda ixtiyoriy o'quvchilar tanlanadi.

Topshiriq: "Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq". Fikr bildiring.

Qo'llanilish tartibi:

1. 6 o'quvchi 3 ta fikr yozishga vaqt belgilanadi.
2. Muddatda to'xtatilib, yozma fikrlar o'zaro almashtiriladi.
3. Ular o'qib yana qo'shimcha qilishi mumkin.
4. Jami o'quvchilar qarori asosida 3 ta fikr variantni tanlab olinadi.

Izoh: ajratilgan vaqt ichida g'oyalar tanlashga, saralashga, farqlashga, ta'hlil qilishga, fikrlashga yo'naltirish mumkin. Fikrlarni jamlashda ko'proq nuqtayi nazarlar paydo bo'ladi. Yozishda muammo haqida ko'proq bilib, ko'p o'zgartiradi, asosiysi, o'z kamchiliklarini tushuna boshlaydi. Muhim jihati, sara fikrlar yozish, katta maqsadlarni namoyon qiladi. Demak, yozishda o'z-o'zidan shaxsiy maqsadlari yotadi.

Maqsadni katta belgilash, fikrlarini ham noodatiy umumlashtirishga yo'naltiradi. Har qanday harakatda maqsad bo'lganidek, fikr maqsad paydo bo'lishi bilan boshlanadi. "Maqsadlar qanchalik yuqori bo'lsa, umidlar shunchalik yorqinroq bo'ladi" [Makgonigal, 2022:203]. O'qituvchi o'quvchilar yozgan fikrlarni "eng yaxshi fikr" sifatida qabul qilish, yozganlarini eng yaxshi xulosalar sifatida baholash mumkin. Binobarin, "Fikrsizlik – madaniyat kushandasi, ma'naviy o'lim! Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi" [<https://uza.uz/oz/posts/ta-lim-va-milliy-taraqqiyot>].

5. "Rahmat sizga, xonim" asari yuzasidan savollarga qisqa shaklda shaxsiy fikrlaringiz qisqa yozing.

Savollar	Shaxsiy fikrlar
Shu asarga siz qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?	
Rojer shunga majbur deb o'ylaysizmi? Uchinchi e'tirozingizni ayting.	
Nima deb o'ylaysiz, deyarli ko'pchilik, nega, bunday yo'l tutmaydi?	
Sizni qaysi orzu yomon fikrlar bilan chalg'itgan?	
Muallif nega, hech kimga kutmagan g'oyani ilgari surgan. Sizningcha hayotda shunday voqea bo'lishi mumkinmi yoki faqat asarlardami?	

Izoh: O'quvchilarni "Rahmat sizga, xonim" asari asosidagi fikrlarini yozishga yo'naltirar ekan, sirlichiga qolish, muhokamaga olib chiqmaslik mumkin, bu o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishiga olib keladi. Topshiriq qo'yilgan masala yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berishga qaratilgan.

Ma'lumki, tarbiyada – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida — bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi.

Xulosa qilsak, adabiy jarayondagi topshiriqlar xilma-xilligida emas, natija ola bilishdadir. Topshiriq mustaqil fikrlarini erkin bayon eta olish o'quvchilarda kelgusida xalqaro tadqiqotlarda xolis yondasha olish ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. O'quvchilarning bu kabi kreativ fikrlashga topshiriqlar ustida ishlashda, bir necha gapga birlashtirishga, bir so'zda ifodalashga ixcham shaklda tushuntirib, ko'proq amaliyotga vaqt sarflashga qaratish tavsiya etiladi.

Shuningdek, bahs-munozara deb vaqtni nazardan yo'qotmaslik jihatlarini muhim. Kornel “adabiyotning vazifasi masalasidagi bahsni g'oyat foydasiz deb biladi. Chunki «qoidalar asosida zavq baxsh etib bo'lmaganidek, foydasiz zavq baxsh etish ham mumkin emas» [Quronov, 2008:84] Kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan og'zaki topshiriqlarda o'quvchini to'liq eshitish boshqa masala. Shuningdek, topshiriqlar ustida ishlashda o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar hatto baholash mezonlarigacha taqdim etish, adolatli baholash biz kutgandan ortiq natijalarni berishadi. Adabiy ta'limda fanlararo dunyoqarash, empirik yondashuvlar, tushuntirish imkonini beruvchi intellektual vositalar muhim ahamiyatga ega.

Muhtaram Prezidentimiz “Ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish ko'p jihatdan bugun unib-o'sib kelayotgan, bizning davomchimiz suyanchimiz va tayanchimiz bo'lgan yosh avlodning zimmasi va mas'uliyatiga tushadi. Shu bois barchamiz o'zimizning muqaddas ota-onalik burchimizni jondan aziz farzandlarimizni nafaqat ham jismonan, ham ma'nau sog'lom qilib o'stirish, shu bilan birga, ularning har tomonlama barkamol avlod bo'lib, eng zamonaviy biz yashayotgan XXI asr talab qilayotgan intellektual bilim va boylikka ega bo'lgan insonlar bo'lib hayotga kirib borishni ta'minlashda ko'rishimiz ham qarz, ham farz” degan da'vatlari ila o'quvchilarni hayotga tayyorlashga ahamiyat berishimiz kerak.

Zero, ma'naviy barkamol, yuksak tafakkur, teran idrok, bilimdon har qanday kasb egasi jamiyatimiz rivojida munosib o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ. “Жилловланмаган тафаккур маҳсули”. – Тошкент: Тафаккур, 2023. – Б. 77.
 2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent, Yangi nashr, 2022. – B. 62.
 3. Йўлдошев Қ. “Сўз ёлқини”. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – Б.131.
 4. Қуроноф Д., Раҳмонов Б., “Ғарб адабий танқидий тафаккури тарихи осҳерклари” (Ўқув қўлланма-хрестоматия) — Тошкент, 2008. – Б. 103
 5. Makgonigal. K. “Iroda kuchi”. — Toshkent, 2022. – B.203.
 6. Jamoa. Tarjima. “Seni to'liqlantirayotgan hamma narsadan voz kech ” . – Toshkent, “Best Book”, 2022. – B.148.
- <https://uza.uz/oz/posts/ta-lim-va-milliy-taraqqiyot>
<https://uz.wikipedia.org/wiki/Insoniylik>.

NASRIY ASARLARNI O'QITISHDA EVRISTIK USULLARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Maxmuda Yuldasheva,

Alisher Navoiy nomidgi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchiga asarni faqatgina o'qitish, qayta so'zlatish bilan singdirish juda murakkabligi, har bir o'rganilayotgan badiiy asarni turli xil metod va usullar, didaktik o'yinlar bilan

qiziqarli qilib tahlilga tortish haqida fikr yuritiladi. Adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitishda evristik usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usullarni darsning har xil bosqichlarida, turli maqsadlarda qo'llash mumkin. Ya'ni yangi asarni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, epik asarlar.*

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Metodist olim Safo Matchanov ta'kidlaganidek: "Adabiyot haqida muayyan darajada bilim olmasdan, asar g'oyasi bilan hayot haqiqati o'rtasidagi aloqani farqlamasdan, tasvirlangan voqelikka yozuvchi munosabatini anglamasdan, o'qiganlarini umumlashtirish ko'nikma va malakasini egallamasdan turib, badiiy asar mohiyatini to'la ma'noda tushunib bo'lmaydi" [Matchanov, 1996: 22].

Adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitishda evristik suhbat turlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usul eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan bo'lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni yangi asarni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llanilishi mumkin. Evristik suhbat – o'qitishning savol-javob metodidir. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirganliklari, amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar tizimi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy hamda tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi. Olib boriladigan suhbat jarayonlari qiziqarli bo'lishi uchun suhbatni televizor yoki kompyuter monitoringi orqali asar qahramonlari yoki multfilm qahramonlarining aynan o'zlari olib borishlari mumkin. Natijada mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash jarayoni o'quvchilar uchun ham qiziqarli, ham maroqli mashg'ulotga aylanadi.

Italiyalik mutaxassis J.Rodari: "Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani", degan qarashlarni ilgari surgan edi. Ko'rinadiki, o'quvchiga asarni faqatgina o'qitish, qayta so'zlatish bilan singdirish juda murakkabdir. Har bir o'rganilayotgan badiiy asarni turli xil metod va usullar, didaktik o'yinlar bilan qiziqarli qilib tahlilga tortish kerak. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari:

- muammoni ko'ra olish;
- tafakkurining egiluvchanligi;
- voqelikni ijodiy tasavvur qilish;
- g'oyalarni generatsiyalash;
- eruditsiya;
- analiz-sintez;
- refleksiya qobiliyatlarini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi.

O'quvchilarning tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish masalasi bo'yicha o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi sohasida S.Dolimov, Q.Ahmedov, A.Tojiyev, O.Madayev, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, K.Abdullayev, S.Matchanov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov faoliyati davomida o'quvchilarda ijodga moyillikni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berik. Ularda ijodga moyillikni tarbiyalash, rivojlantirish borasida turli amaliy mashqlarni qo'lladik. Respublikamizdagi ijod maktablari o'quv dasturiga kiritilgan nasriy asarlar bilan tanishtirishda nafaqat matnni o'qib tushunish, so'zlash, o'qish yoki yozish, balki uning g'oyasi, muallifning badiiy niyati, obrazlar tizimi, obraz va obrazlilikka munosabat bildirish orqali hissiy zavqlanish, ma'naviy sifatlarini o'stirishga daxldor tahlil kompetensiyalari ham nazarda tutiladi.

Bu borada metodist olim Q.Yo‘ldoshevning quyidagi so‘zlari fikrimizni tasdiqlaydi. “O‘quvchi va talabalarni shunchaki muammo yuzasidan bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun intellektual kuchi tekshirilayotgan badiiy matnning mag‘zini chaqishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim” [Yo‘ldoshev, 2016: 114].

Ijod maktablarining 7–11-sinf o‘quvchilarini ijodkorlikka yo‘naltirish ishlari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. O‘quvchilarda ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Bular: muammoli ta‘lim, tadqiqot metodi, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot topshiriqlari va adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo‘llay olish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish kabilardan iborat. Qayd etilganlar adabiy materiallar ustida ishlash barobarida global tarmoq imkoniyatlari: ma‘lumotlarni izlash, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi forum va seminarlarda muloqot qilishni ham ko‘zda tutadi.

Adabiy ta‘lim jarayonida epik asarlarni tahlil qilish, ularni o‘quvchilar ongiga singdirish borasida metodist olimlarning fikrlari, tavsiyalari quyidagicha:

A.Zunnunovning fikricha: “O‘qituvchi maktabda o‘quvchilarni asarni o‘rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g‘oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko‘nikmalarini o‘stirishga, egallagan bilimlarini aql-zakovat, his-hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim” [Zunnunov, 1992: 84].

Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev epik asarlarning badiiy tahlili borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Ko‘pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi qahramonlardan g‘oya qidirishga tutinishadi va shu bois turli asarlardagi mutlaqo boshqa-boshqa personajlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g‘oyalar o‘xshash bo‘ladi, mutlaqo bir xil g‘oyalar ham ko‘p, lekin cheksiz olamda bir-biriga to‘liq o‘xshash bo‘lgan ikki kishi yo‘q. Badiiy asar va undagi qahramonlar tasviri esa, ayni shu o‘xshamaslikning, o‘ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozim” [Yo‘ldoshev, 2006: 221].

Professor Boqijon To‘xliyev esa: “O‘rganish uchun taqdim etilgan epik asarlar tahlilga tortilganda adabiyot o‘qituvchisi matn hajmidan kelib chiqqan holda uning bir qismini uyda o‘qib kelishga topshirishiga to‘g‘ri keladi. Asardagi personajlarning qat‘iy va haqqoniy tasviriga jiddiy e‘tibor qaratishi kerak bo‘ladi. Tahlil shunday yo‘lga qo‘yilgandagina timsolning o‘ziga xosligi, adibning san‘atkorligi namoyon bo‘ladi. Har ikkisining shakllanib kelayotgan shaxsning ma‘naviy kamolotiga o‘ziga xos ta‘siri bo‘ladi” [To‘xliyev, 2006: 74].

Professor S.Matchonning ta‘kidlashicha, “Ayrim o‘qituvchilar epik asarlar tahlilini jo‘nlashtirib, yozuvchini o‘quvchi bilan yonma-yon qo‘yib qo‘yadilar. Holbuki, o‘quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o‘tkazishda o‘quvchilar oldiga “Qahramonning bu ishi to‘g‘rimi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganda nima qilar eding?” kabi ijodiy, keng fikrlashga qaratilmagan savollar o‘rniga: “Shu vaziyatda qahramon o‘zini boshqacha tutishi mumkinmidi? Siz buni qanday tasavvur qilasiz?”... singari savollar qo‘yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug‘iladi” [Matchonov, 1998: 28].

Professorlar Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar hammuallifligidagi o‘quv qo‘llanmada quyidagi fikrlar ilgari suriladi: “Epik asar tahlilida obrazlar tasviri, voqealar rivoji, tili, unda ko‘tarilgan yetakchi g‘oyalarga e‘tibor qaratiladi. Matn mazmunidan badiiy hayotiy xulosalar chiqariladi” [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020: 232].

Bizningcha, o‘quvchilardagi ijodiy salohiyatni mustahkamlash yoki ijod qilishga undash uchun qiziqarli ijodiy mashqlar, adabiy kashfiyotchilik kompetensiyalarini shakllantiruvchi topshiriqlar berish hamda ushbu topshiriqlar orqali ulardagi yangi qirralarni kashf etishga, so‘zning latofatini yanada yaqindan his qilishga erishish mumkin.

Shu o‘rinda biz dars jarayonida nasriy asarlarni o‘rgatishda va o‘zlashtirishda foydalanish mumkin bo‘lgan hamda o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi bir qancha evristik usullarni ko‘rib chiqsak. Amaldagi dasturda berilgan 9-sinf adabiyot darsligidagi Uilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasini o‘tishda **“Grafik test” o‘yin texnologiyasidan** foydalanish mumkin. Ish tartibi quyidagicha o‘tkaziladi:

Har bir o'quvchiga avvaldan tayyorlangan maxsus jadvali varaqlar tarqatiladi (1-jadval). O'qituvchi mazkur mavzuga oid savollarni o'qiydi. O'quvchilar har bir savolga javob variantlardan mosini tanlab shu qatordagi katakni bo'yaydi. Jarayon yakunida hosil bo'lgan shakl (2-jadval) namunaviy shakl bilan solishtiriladi.

1-jadval

Grafik test					
№	Hamlet	Ofeliya	Gertruda	Goratsio	Qirol Klavdiy
1					
2					
3					
4					
5					

Namunaviy savollar:

1-qator: Asardagi aqlli, lekin zaif va irodasiz, yaqin insoni tomonidan barcha qilmishlari qoralangan obraz.

2-qator: Irodasiz, javobsiz muhabbat egasi, otasi vafotidan so'ng aqldan ozgan obraz.

3-qator: Haqiqatni izlash hamda uni qaror toptirish yo'lida o'zini aqldan ozganga solgan obraz.

4-qator: O'z otasi va Qirol Klavdiy qo'lida o'yinchoqqa aylangan obraz.

5-qator: O'z farzandi uchun tayyorlangan zahardan vafot etgan obraz.

4-qator: Asar qahramoni Hamlet barcha tashvishlari, shubhalarini bo'lishgan obraz.

3-qator: O'z akasining qotili, ehtiyotkor, ayyor, aqlli, ammo ikkiyuzlamachi obraz.

2-qator: O'zi kambag'al bo'lsa ham, ma'naviy jihatdan boy obraz.

O'quvchilar obrazlarga xos tavsiflarni to'g'ri topsalar, yuqoridagi jadvalda quyidagicha shakl paydo bo'ladi.

2-jadval

Grafik test					
№	Hamlet	Ofeliya	Gertruda	Goratsio	Qirol Klavdiy
1					
2					
3					
4					
5					

O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savollar tizimi asar mazmunining ochib berilishidagi izchillikni, chuqur tahlilni, yozuvchi maqsadini anglashga yordam beruvchi bosh va asosiy g'oyani anglab yetishga diqqatini qaratadi.

Keyingi usul **“Bashorat qilish” usuli** deb nomlanib, quyidagicha tashkil etiladi. O'qituvchi badiiy asar matnidan tanlab olingan tayanch so'zlar ro'yxatini o'quvchilarga taqdim etadi. Bu usulni qo'llashda e'tiborli jihati shundaki, o'quvchilar asar matni bilan tanish bo'lmasliklari kerak. O'quvchilar yakka yoki juft-juft bo'lib uni muhokama qiladilar va takliflar kiritadilar. Natijada mazkur tayanch so'zlar yordamida asar nomi va syujeti bashorat qilinadi. Ushbu usulni 8-sinf dasturida berilgan Isajon Sultonning “Shamolli kecha” hikoyasi misolida o'rganamiz.

Taqdim etiladigan tayanch so'zlar: aka, kecha, singil, buvi, shamol, qo'rquv, daraxt, buta, qamish, dahshat, yolg'izoyoq yo'l, qishloq, o'gay ona, qorong'ilik, yig'lay-yig'lay, yo'qotmoq, vahshiy hayvonlar, dasht.

“O'z-o'zingni angla” so'rovnomasi. Bu so'rovnomani chorak yakunida o'tilgan badiiy asarlarni takrorlash yuzasidan o'tkazish maqsadga muvofiq. Jarayon qanday kechadi? O'quvchilarga avvaldan tayyorlangan quyidagi jadval tarqatiladi hamda berilgan savollarga mos javob katagiga (+) belgisini

qo‘yish topshirig‘i beriladi. Bu so‘rovnoman 8-sinf adabiyot darsligidagi mavzular bo‘yicha ko‘rib chiqsak.

t/r	Javoblar Savollar	Ekzyuperi “Kichkina shahzoda”	Ch.Aytmatov “Oq kema”	A.Grin “Alvon yelkanlar”	X.Sultonov “Saodat sohili”	A.Dode “So‘nggi saboq”
1.	Uning qo‘li gul edi. Duradgorlik, egarchilik qilardi, yoshligidanoq pichan g‘aramlashning ustasi edi, kolxoz uchun shunday g‘aramlar yasardiki, qishda ularni buzishga ko‘z qiymasdi: yomg‘ir uning ustidan xuddi g‘ozning patida sirg‘angandek silliq tushar, qor esa tomning ikki nishabiga tushgandek tushib ketardi. Ushbu barcha qaysi asarga tegishli?		+			
2.	Jadvaldagi qaysi asar adib tomonidan o‘z rafiqa-siga arab yozilgan?			+		
3.	Qaysi adib: “Men kitobimning shunchaki ermak uchungina o‘qilishini aslo istamayman”, – degan edi?	+				
4.	Ushbu asarlarning qaysi birida devona obrazi uchraydi?				+	
5.	Orqa o‘rindiqlardagi qishloq odamlarining nima uchun bu yerda o‘tirganlarini endi tushundim. Ular tez-tez bu yerga — maktabga — kelib turmaganliklaridan afsusda edilar. Ushbu parcha qaysi asarga tegishli?					+

Adabiyot darsida o‘qituvchilar o‘quvchilariga yuqorida keltirilgan namunadagidek evristik xarakterdagi topshiriqlarni imkon qadar ko‘proq taqdim etishlari kerak. Olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar bilan muntazam tarzda evristik topshiriqlar ustida ishlash ularning matematika, ona tili kabi o‘quv predmetlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda aqliy, ijodiy hamda o‘quv faolligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Tabiiyki, evristik ta‘lim an‘anaviy ta‘lim o‘rnini to‘liq egallay olmaydi, lekin undan o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun an‘anaviy usullarga qo‘shimcha sifatida foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, yuqorida ish jarayonida qo‘llab kelingan bu usullar o‘zini samarali natijalarini berib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996. – B. 22.
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016. – B. 114.
3. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – B.84.

4. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Kamalak”, 2006. – B.221.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2006. – B.74.
6. S.Matchanov. Umumta'lim maktablarida mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 1998. – B.28.
7. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, – B.232.

JADID ADABIYOTIDA TA'LIM-TARBIYA MUAMMOLARI

Doniyor Yelmurodov,
JDPU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid adabiyoti nafaqat o'zbek xalqi hayotida, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti rivojida ham yangi va yuksak bir bosqich bo'lganligi, xususan, Abdulla Avloniyning so'z san'ati, badiiy mahorat va ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Jadid adabiyoti, Abdulla Avloniy, insoniy erk, jadidlar ijodi, haqqoniy ta'lim.*

Jahon adabiyotshunosligida muayyan davr adabiyoti va o'sha davrda yashab ijod etgan taniqli shoir va yozuvchilarning serqirra ijodini o'rganish muhim o'rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan Jadid adabiyoti nafaqat o'zbek xalqi hayotida, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti rivojida ham yangi va yuksak bir bosqich bo'ldi. O'zbek adabiyotida alohida bosqich bo'lgan jadidlar ijodi va faoliyatida dolzarb va o'tkir ijtimoiy – siyosiy va ma'naviy-axloqiy mavzular bilan birga ta'lim-tarbiya muammolarini chuqur va keng yoritganligi bilan ham jamiyat adabiy-ma'rifiy hayotida ulkan ahamiyat kasb yetishi yaqqol namoyon bo'lgan. Bu tarixiy voqelik Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbuslari bilan jadidlar hayoti va ijodiga bag'ishlab birgina 2023-yili ikki marta o'tkazilgan nufuzli xalqaro konferensiyalarda ham keng ilmiy jamoatchilik tomonidan faxr bilan e'tirof yetildi.[1.] Bu tarixiy anjumanlarning ulkan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-adabiy ahamiyati va samaralaridan biri sifatida yangi 2024-yildan boshlab nashr etilayotgan **“JADID”** nomli haftalik ro'znomaning respublikamiz adabiy va ma'naviy hayotida muhim bir voqea bo'lganligi ham shak-shubhasizdir.

Mazkur ro'znomada jadidlar hayoti va fidoiyligini o'rgangan olimlar uchun alohida rukn ochilganligi ham maqsadga muvofiq bo'lganini ko'rsatib o'tish lozim. Binobarin, betakror mazmun va umuminsoniy maqsad yo'lida maydonga kelgan jadid adabiyoti va uning buyuk namoyandalari hayoti va faoliyatini qancha tazyiq-ta'qiqlarga qaramasdan katta ijodiy jasorat bilan birinchilardan bo'lib va umrining oxiriga qadar yuksak ishonch-e'tiqod va cheksiz mehr bilan o'rgangan va bu sohada ibratli ijod namunalari yaratib ketgan adabiyotshunoslarning haqiqat nurlari bilan yo'g'rilgan asarlari yangi Renessans zaminini yaratishda ham beqiyos ilhomboxsh manba va o'ziga xos ijodiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir.

Biroq shuni ham afsus bilan ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Istiqlol va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan yog'rilgan jadid adabiyoti sobiq sovetlar davrida xolis o'rganilmagan. Jumladan, Abdulla Avloniyning ijtimoiy — siyosiy va adabiy-ma'rifiy faoliyati ham so'nggi yillarda professor Begali Qosimov, Ulug'bek Dolimov va Boybo'ta Do'sqorayev kabi olimlarimiz tomonidan ancha keng o'rganila boshlanganini hurmat bilan esga olishimiz adolatdan bo'ladi.[4.17-b.]

Bugungi kunda mamlakatimizda tarixga, xususan, yaqin o'tmishimizda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy jarayonlar, xususan, jadidchilik harakatiga, ta'lim-tarbiya masalasiga munosabat va e'tibor tubdan o'zgargan, shu bilan birga, tinch va osoyishta hayotimiz, ma'naviyatimizga turli tahdid va xatarlar kuchaygan bir vaziyatda jadidlar ijodi va jo'shqin faoliyati biz uchun suv bilan havodek zarur. Keyingi yillarda yurtimizda ma'rifatparvar bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyatini

o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilishi ham ana shunday ezgu maqsadlar bilan yog‘rilganligi muhimdir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Ulug‘ shoirlarimiz va jadid adabiyoti namoyandalarining ilmiy va ijodiy merosi xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yosh avlodni vatanga sadoqat va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi”. [1.]

Jadidchilik harakatining peshqadam rahnamolaridan biri sifatida tanilgan, ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning purma’no fikrlaridan biri shunday edi: “Xulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdir. Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobidan o‘z qadr-hissasini bilub olmaki lozimdur... Taraqqiy qilgan millatlarning hunar va san’atlarining barchasi ilm va nazari ibrat soyasida namoyon bo‘lub, olamni munavvar va musaxxar qilmishlar. Hazrati Ali roziyallohu anhu: “Dunyoda eng muntazam dorul-ulum nazari ibratdir. Ibrat ko‘zlarining pardasi ochilmagan kishilar dunyo kitobida yozilgan haqiqatni ko‘rolmaslar”, -demishlar” [3.26.] Abdulla Avloniy ham ta’lim-tarbiya sohasida buyuk mutafakkirlar aqidalari va an’alarini davom ettiradi. Ya’ni u kishilarni tor milliy, diniy belgi-xususiyatlar emas, ulardan yuksak turuvchi umuminsoniy maslakgina chinakamiga biri- biri bilan yaqinlashtiradi deb hisoblaydi. Abdulla Avloniy ijodi va tafakkurida yetakchi bo‘lgan bunday umuminsoniy fazilat va ilg‘or qarashlarining shakllanishi va rivojida Navoiy asarlari va shayx Sa’diylarning “Guliston” kabi mashhur dostonlarining ilhombaxsh ta’siri ham sezilib turishi muhimdir. Zotan, Istiqlol sharofati bilangina ulug‘ mutafakkirlarimizning betakror asarlari adabiyot va ma’naviyat darsliklarimizdan munosib o‘rin oldi. Endilikda yoshlarimiz sobiq sho‘ro davridagi, asosan, inqilobiy qo‘zg‘olonlaru sinfiy kurashlarni targ‘ib etuvchi mafkuraviy asarlar o‘rniga ko‘plab buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va ijodini keng o‘rganish imkoniga ega bo‘lganligi ta’limdagi jiddiy bir islohotdir. Bugungi kunda jahondagi baxtli va insonparvar davlatlardan biri sifatida e’tirof etilayotgan ozod va obod yurtimizda o‘zlikni anglash, eng avvalo, jamiyatimiz hayotidagi ulkan yangilanish va yuksak taraqqiyot bilan bog‘liqligi qanchalik chuqur haqiqat bo‘lsa, ma’naviyatimiz rivojida ulug‘ ajdodlarimiz merosi va milliy qadriyatlarimiz bilan birga islomiy ma’rifat va diniy-axloqiy qarashlarning ham beqiyos ahamiyati endilikda oftobday ravshan. Binobarin, Istiqlol tufayli chinakam insoniy erk va huquqqa ega bo‘lgan xalqimizning bag‘rikengligi, imon-e’tiqodi butun ligida uning diniy ixlos-ishonchi ham yorqin ifodalanganini alohida ta’kidlash lozim. Zotan, insonparvarlik g‘oyalari bilan oziqlangan Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy kabi zotlar asos solgan muqaddas g‘oya va tariqatlarning vatani ham shu muqaddas zamin imizdir. Ko‘ngillarga ruhiy xotirjamlik va shukronalik bag‘ishlovchi bunday ishonch-e’tiqodning mustahkam bo‘lishida ulug‘ allomalarimizning ilmiy va diniy-axloqiy hikmat-o‘g‘itlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Avloniy Turkiston Davlat Universitetining mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan ilk professorlaridan edi. 1906-yildayoq Mirobodda yangi tipdagi maktab ochib dars bergan Avloniy universitetga katta tajriba bilan kelgan edi. Chunonchi, 1920-yilning sentabrida Toshkentda dastlab erlar, so‘ngroq qizlar uchun o‘ziga xos maorif institutlari – o‘zbek ilm dastgohlari tashkil topdi. Ularning ilk tashkilotchilaridan biri Avloniy bo‘lgan edi. 1922-yilning 12-yanvaridan 4-dekabrigacha o‘zbek erlar o‘quv yurtida, 1923 yilning 10-martidan 3-iyuniga qadar qizlar o‘quv yurtida direktorlik ham qildi. Maorif sohasidagi yuksak xizmatlari uchun O‘zbekiston ziyolilaridan olti nafar kishiga Mehnat qahramoni unvoni berildi. Shulardan biri Abdulla Avloniy bo‘lganligi ham katta baxt edi.

Shundan boshlab, to umrining oxiriga qadar shu sohada samarali xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Avloniy mohir pedagog va hassos adabiyotshunos sifatida 1933-yildayoq o‘rta maktablarning 7-sinflari uchun “Adabiyot xrestomatiyasi” majmuasini tuzganligi ham tahsinga loyiqdir. Ya’ni hali o‘lkada sovet maktablari uchun darslik va xrestomatiyalar mavjud bo‘lmagan bir paytda maydonga kelgan bu kitobda 20 –30- yillardagi o‘nlab o‘zbek adiblari, Yevropa adabiyotining qator vakillari hayoti va ijodi haqida muhim ilmiy va biografik ma’lumotlar keltirilib, ularning mashhur asarlaridan namunalar beriladi. Ulardan xalqimizning butun bir yosh avlodi saboq olganligi ham Abdulla Avloniyning ulug‘ xizmatlaridan biri ekanligini faxr bilan tilga olish lozim. Avloniy hayoti va faoliyatining so‘nggi yillari ham to‘ng‘ich universitet dargohida samarali kechadi. U haqli ravishda universitetda o‘zbek filologiyasi fanining asoschilaridan bo‘lib tarixda unutilmas nom qoldirdi. Abdulla Avloniyning g‘oyat ibratli

ilmiy-pedagogik faoliyati XX asr boshidagi o'zbek madaniyatining juda ko'p jabhalarida samarali mehnat qilgan atoqli adib siymosini yorqin fazilatlar bilan yanada boyitishi shubhasiz. Jadid adiblarimizga xos mushtarak vatanparvarlik va millatparvarlik xislatlari biz uchun ham yeng oliy ibrat namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1999. 48 b.
2. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – Toshkent, 2011. 17 b.

OSKAR UAYLDNING “BAXTLI SHAHZODA” ASARINI O'QITISH

Norjona Qurbonova,

Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi

Annotatsiya


Hozirgi zamon o'quvchilarini jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish, jahon adabiyoti namoyondalaridan bo'lmish Oskar Uayld shaxsiyati, asarlari bilan tanishish, ularni 6-sinfo'quvchilariga qulay tarzda o'qitish muammoli masalalardan biri sanaladi. Mazkur maqolada Oskar Uayld va “Baxtli Shahzoda” asarini oson va samarali o'qitish muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ertak, qaldirg'och, Shahzoda, baxt, tarjimai hol, muammoli vaziyat, metodlar.

1-soatda:

Uygavazifa **“To'rttomon”** metodiasosida so'raladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning **“Tbroyim Yusupov va Xurshid Davron lirikasini solishtirish”** mavzusidagi bilimlari mustahkamlanadi. Metoddagi to'rt tomonni to'ldirishda o'quvchi yuqoridagi shoirilar ijodiga yondashadi. Yutuqlarimda – shoirilar ijodidan nimalarni o'rgana olgani, Kamchiliklarimda – yaxshi o'zlashtira olmagan taraflari, Qiziqishlarimda – qaysi she'rlariga qiziqqan va uning sababi, shiorimda – qaysi satrlarini shior sifatida tanlaganini yozadilar. Bu metod orqali o'quvchining xarakterini, darsni qay darajada puxta o'rganganini va she'riyatga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. O'quvchilar darsni qay darajada o'zlashtirganligiga binoan baholanadi.

Oskar Uayldning portretini o'quvchi tasavvurida gavdalantirish uchun yozuvchi haqida qisqa



videorolik yoki fotosurat taqdim etiladi. Darslikda berilgan tarjimayi holga qo‘shimcha tarzda o‘qituvchi yozuvchi shaxsiyatiga oid boshqa ma‘lumotlar ham aytib o‘tishi joiz. Yozuvchi tarjimayi holini o‘qitish masalasi va uning ahamiyati borasida Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova hammuallifligida yozilgan “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida quyidagi fikrlarni bejizga keltirmaganlar: ***“Yozuvchining tarjimayi holini va ijodiy faoliyatini o‘rganish, bir tomondan, o‘quvchilarga davr ruhini chuqurroq anglatish, ijtimoiy munosabatlarni ular qalbiga yetkazish, ularni milliy mafkura, milliy ma‘naviyatga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, adibning adabiyot ravnaqida va jamiyatda tutgan mavqeini, uning novatorligini ko‘rsatish orqali adabiy jarayonning rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglatish, yozuvchi shaxsining kamol topishi, ruhiy olami misolida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etish, eng muhimi, o‘rganilajak asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan voqea-hodisalar bilan tanishtirish, shu orqali parcha mazmunini to‘liq tushuntirish, imkon yaratish uchun xizmat qiladi, asarni o‘qish uchun havas uyg‘otadi”.*** [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020: 304,305]

Yozuvchi tarjimayi holini o‘qitishda qo‘shimcha materiallarga tayanish ham o‘qituvchidan mehnat talab qiladi, ham o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. B.To‘xliyevning yozuvchi tarjimayi holini o‘qitish borasidagi fikrlariga ham to‘xtalib o‘tish lozim: ***“Yozuvchining tarjimayi holini o‘rganishda uning o‘z fikrlaridan foydalanish ham keng tarqalgan usullar turkumiga kiradi. Ammo bunda ham me‘yor bo‘lishi shart. Chunki, ayrim hollarda yozuvchining o‘z so‘zlarida ham zamonaning, uni qurshab turgan muhitning, bularning yonida esa biz tasavvur qila oladigan va qila olmaydigan ko‘plab obyektiv va subyektiv omillarning kuchi ham bo‘lishi mumkin”.*** [To‘xliyev, 2010: 118,119]

Yuqoridagi metodist olim va olimalarning fikrlaridan kelib chiqqan holda, Oskar Uayld biografiyasi bilan tanishtirishni quyidagicha tashkil etish lozim: dastlab videorolik yoki adib portreti, darslikda berilgan ma‘lumot hamda yozuvchining mashhur fikrlaridan keltirish kerak. O‘qituvchi adibning fikrlarini turli jurnal va internet sahifalaridan topadi va o‘quvchilarning yosh doirasiga mos jumalarni saralab oladi. Quyida berilgan mashhur sitatalarni ***“80/20” metodi*** asosida tushuntiriladi. Mazkur metod orqali o‘quvchilarning tafakkuri oshadi, har bir o‘quvchida mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi, shuningdek, o‘qituvchi ham yozuvchini o‘quvchilarga tanishtirishda osonroq usuldan foydalanadi. 80 % fikrni o‘quvchilar aytishsa, 20% qismida o‘qituvchi fikrlarni umumlashtirib beradi:

“Bugungi odam har narsaning narxini biladi, ammo o‘z qadrini bilmaydi.

Nodon kamchilikni boshqadan, dono esa o‘zidan qidiradi.

Olamni qonunlar emas, shaxslar tebratadi.

Maqtov bamisoli xushbo‘y atir, mayli, ifor tarataversin, xushomadga aylanmasa bas!

Keksalar eshitganiga chippa-chin ishonadi. O‘rta yasharlar nuqul shubha qiladi.

Yoshlar esa hamma narsani bilaman deydi.

Xotira – bamisoli o‘zimiz bilan olib yuradigan kundalik daftar.

Do‘st boshiga ish tushsa undan ko‘ngil so‘rash oson. Ammo uning yutuqlaridan quvonish xiyla qiyin”. [Tafakkur, 2015:4]

Yozuvchi bilan tanishgach, ertak haqida o‘quvchilar bilan savol-javob qilinadi. O‘quvchilarga uch daqiqa vaqt beriladi va bu vaqt davomida ular shu paytgacha mutolaa qilgan ertaklari nomlarini yozishi kerak. Mazkur topshiriq ***“Yashil ruchka”*** metodi asosida tekshiriladi. Bu metodning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, o‘quvchilarni ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etadi. Chunki qizil ruchkada ularning xatolari ko‘rsatilganda tushkun kayfiyatga tushishlari mumkin. bu metodning yana bir afzalligi shundaki, o‘quvchi yanada faol bo‘lishga harakat qiladi. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Bundan so‘ng, ***“Baxtli Shahzoda”*** ertagini o‘qish uchun ko‘nikmalar beriladi. Hozirgi internet asrida barcha sohalar taraqqiy etgan. Shu boisdan, internet sahifalari orqali mazkur ertakning audio yoki multfilm variantini ko‘rish o‘quvchilarga tavsiya etiladi. Chunki jahon adabiyoti durdonalarini o‘qib tushunish bir qancha qiyinchiliklar keltirishi mumkin.

Har qanday asar matni bilan ishlashdan oldin adabiyot o'qituvchilariga metodist olim va adabiyotshunoslarning fikrlari bilan tanishishi tavsiya etiladi. Bu orqali ular o'z pedagogik mahoratini oshiradilar: *"Adabiy asarning, jumladan, epik turga mansub bo'lgan asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U o'quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratadi"*. [Zunnunov, 1992,16]

Uyga vazifa: Oskar Uayld tarjimai holi bilan tanishish, ertakning audio yoki multfilm variantini tomosha qilish. Asar matni bilan ishlashga tayyorlanib kelish.

2-soat:

Yangi mavzu: Oskard Uayld: "Baxtli Shabzoda" ertagi. Asar matni bilan ishlash.

Uyga vazifa so'rash: Bunda *"Issiq qahva"* metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Dostkaga turli rangdagi qog'oz qahva idishlari yopishtirilgan ko'rgazmali qurol ilinadi. Qahvalar ichida o'tgan dars bo'yicha savollar yozilgan bo'ladi. Mazkur metodning afzalligi, o'quvchilarning xotirasi oshadi, darsga diqqati jamlanadi, qoloq o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham metod nomiga qiziqqan holda darsga qatnashadi. Nega aynan metod nomi bunaqa, degan savol tug'ilishi tabiiy. O'quvchilar qahva ichidagi savollarga javob topadilar hamda qahva, ya'ni baho bilan siylanadilar.



Dastlab o'qituvchi asar matnidani parchani ifodali va obrazli tarzda o'qib beradi. O'quvchilar bu orqali ham zerikmaydi, ham ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi. O'qituvchi asarning qolgan qismini o'quvchilarga obrazga kirgan holda o'qitirish tavsiya etiladi. Ertak o'qib bo'lingach, ertakdagi tushunarsiz so'zlar bilan ishlanadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning ertak matni bilan ishlashida qulaylik paydo bo'ladi.

Uyga vazifa: Tushunarsiz so'zlar bilan ishlash. Asarni sinchikovlik bilan o'qish, chunki kelgusi darsdaha harbiro'quvchida ertak bo'yichashaxsiy xulosasi va obrazlarga qaydarajadayondashganini aniqlash lozim. Prof.Qozoqboy Yo'ldoshevning fikrlari ham buning yaqqol dalilidir: *"...qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkoniyatini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab etiladi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi"*. [Yo'ldoshev, 1996,127]

3-soat:

Mavzu: Oskar Uayld "Baxtli Shabzoda" ertagi: "Muhokama qilamiz" bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Jonlantirish.

Uyga vazifa so'rash tartibi:

1. *"Muammoli vaziyat"* metodi. Mazkur metod hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bugungi zamon o'quvchisining mantiqiy tafakkurini oshirish yetakchi masalalardan biridir.

Ushbu metod orqali tezkorlik, aniqlilik va yechimlilik masalalari ko‘tariladi. Quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

1. Nega asar bunday nomlangan?
2. Baxtli Shahzoda rostan baxtlimi?
3. Qaldirg‘ochdagi o‘zgarishlarga sizning munosabatingiz qanaqa?
4. Ertakdan o‘zingizga qanaqa taassurot ololdingiz?
5. Go‘zallik deganda nimani tushunasiz?
6. Shahzoda tirikligida baxtlimi yoki haykal holatida?
7. Bir vaqtlar hamma hurmat qilgan haykal va ko‘zlari o‘yilgan haykalga odamlarning munosabati sizga ma’qulmi?
8. Misr mamlakati asarda ko‘p tilga olinish sababini qanday izohlaysiz?
9. Shahzoda nima uchun Qaldirg‘ochdan shahardagi hayot haqida eshitishni istaydi?
10. Bolalarni jini suymaydigan Qaldirg‘och nega betob bolaga shabada taratadi?
11. Shahzoda butunlay ko‘r bo‘lib qolishdan nega qo‘rqmadi?
12. Saroy amaldorlari va oddiy xalq o‘rtasidagi tafovutlar sizga qanday ta’sir etdi?
13. Siz Qaldirg‘ochning o‘rnida bo‘lsangiz, Shahzoda bilan qolarmidingiz?
14. Shahzodaning yuragi sovuqdan yorildimi?

2. **“Zinama-zina” metodi.** Bu metodni qo‘llashning ikki xil usulini qo‘llash tavsiya etiladi. 1-zinalar tepaga qarab kengayib boriladi, 2-zinalar esa aksincha pastga qarab torayib boradi. 1-zinalarda Shahzoda va Qaldirg‘ochning ijobiy deb topilgan xislatlari, 2-zinada esa salbiy deb topilgan xislatlari yoziladi.

Yuqoridagi metodlar vositasida o‘quvchilar bilimi baholanadi, sust o‘zlashtirgan o‘quvchilar ogohlantiriladi. O‘quvchilarni noan’anaviy tarzda baholash tavsiya etiladi. Chunki darsga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi. Masalan, Shahzoda rasmi tushirilgan qog‘ozchalarni a’lo bahoda o‘zlashtirganlarga, Qaldirg‘och rasmi tushirilgan qog‘ozchalarni yaxshi o‘qiganlarga va qoniqarli o‘qiganlarga saroy amaldori rasmi tushirilgan qog‘ozchalarni daftariga yopishtirib baholash tavsiya etiladi.

“Jonlantirish” san’atini tushuntirishda **“FSMU”** metodidan foydalanish tavsiya etiladi. O‘qituvchi jonlantirish san’ati haqida tushuncha bergach, mazkur metodni qo‘llay oladi.

<i>F-fikr</i>	<i>S-sabab</i>	<i>M-mubokama</i>	<i>U-umumlashma</i>

Jahon adabiyoti namoyondalari va ularning durdona asarlarini o‘rganish 6-sinf o‘quvchilari uchun biroz qiyin. Shu maqsadda Oskar Uayld va uning “Baxtli Shahzoda” ertagini o‘qitishning yuqoridagi usullari tavsiya etiladi. Turli xil metodlar, obrazli o‘qish, muammoli vaziyatda yechim topa bilish bugungi zamon talabi sanaladi. O‘quvchi qalbida adabiyotga bo‘lgan muhabbat, jahonda yuz bergan voqealiklar va g‘ayritabiiy sarguzashtlarga qiziqib, ulardan ma’naviy ozuqa olish ishtiyoqi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. - Toshkent, 2022.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
- To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -Toshkent, 2010. – B.121.

4. Oskar Uayld. Taqlid asli e'tirofdir//Tafakkur, 2015. – № 4.
5. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.:O'qituvchi, 1992. – B. 16.
6. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. – B. 127.



MUNDARIJA

O‘ZBEK TILSUNOSLIGI MASALALARI

Nishonboy Husanov. Navoyining antroponimlardan istiora yaratish mahorati.....	4
Ravshanxo‘ja Rasulov. Fe‘l asosli gaplarning kontragent valentligi.....	8
Nurislom Xursanov. O‘zbek dramalarida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari.....	12
Muazzam Dedaxanova. Amaliy tilshunoslik obyektiining tarixiy ildizlari.....	14
A. Madaminov. O‘zbek tilida sintaktik derevatsiya usullari.....	16
Davlatyor Jumashov. Alisher Navoiy asarlarida shakldosh so‘zlarning qo‘llanilishi.....	19
Y. Shirinova. Ziddiyatli muloqotni yuzaga keltiruvchi ayrim omillar.....	24
Muhabbat Madaminova. Internet muloqoti sintaksopragmatikasi.....	27
Akbar Ruziyev. Pragmalingvistikada xususiy diskurs va uning oziga xo‘sligi.....	28
Qurbonova Farog‘at. Lingvistik tahlilda lug‘atlarning o‘rni va xorijda o‘rganilishi.....	33
Gulshoda Shoniyozova. O‘zbek punktuagrammalarining pragmalingvistik aspektida o‘rganilishi va uslubiy vazifa bajarish talqinlari.....	36
Mavludaxon Oripova. O‘zbek tilida sinesteziyaning voqelanishi.....	39
Maqsuda Xusanova. Tarixiy dignitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	42
Feada M. Samadbek. Afg‘oniston o‘zbek shevalarida ishlatilgan ravishdosh qo‘shimchalari.....	44
Marxabo Erkinova. O‘zbek tilida jargon, argo va slenglarning qo‘llanilishi.....	49
Sabohat Allanazarova. Matnlarning aspektga asoslangan hissiy tahlili.....	53
Shoxida Quraqova. Bugungi kunda piktogrammalarning o‘rni va ahamiyati.....	56
Munisa Isaqova. Xalqaro yuridik terminologiyaga lotin tilining ta‘siri.....	59
Maftuna Mamarasulova. Alla matnlarida milliy madaniyatning aks etishi.....	61
Mahliyo Xolmo‘minova. Vatan konseptining o‘rin-joy otlari bilan ifodalanishi.....	64
Abdumannonov Xojiakbar. Frazologik minimumda frazeologik birliklarning joylashtirish tamoyillari xususida.....	67
Ho Lim Song. Yangi o‘zbek yozuvida unli harflarining belgilanish jarayonida tatar tilshunoslarining hissasi.....	69
Бауыржан Сайфуллаев. Өзбек және қазақ тілдері контактының көркем шығармадағы ерекшеліктері.....	73
Gulshoda Ruziyeva. Dunyo tilshunosligida nutqiy aktlar klassifikatsiyasi.....	78
Shaxnoza Ismatova. Pragmatik tilshunoslik va siyosiy nutqlarning pragmatik xususiyatlari.....	79
Севапа Баратова. Matn va badiiy tilni yuzaga keltiruvchi vositalar.....	82
Elbek Ro‘ziyev. Siyosiy nutq diskursiv amaliyotning muhim elementi sifatida.....	90
Gavharoy Yormatova. Tilshunoslikda tolerantlik keng tushuncha sifatida va uning talqini.....	92
Xurshida Xaydarova. Izohli lug‘atlardagi farqli, takrorlanmaydigan taqlid so‘zlar talqini.....	95
Mashhura Yuldosheva. Xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo‘lishi (Tohir Malik asarlari tahlili asosida).....	99
Sarvinov Chariyeva. To‘ra Nafasov asarlarida toponimlarning joylashish o‘rniga ko‘ra izohi (Koson tumani misolida).....	101
Маржона Бегматова. “Shajarayi tarokima” asarida keltirilgan topononik birliklar tasnifi.....	104
Shohista Eshankulova. O‘zbek va rus tilidagi “mehmondo‘stlik” konseptli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	107
Shahboz Ismatov. Yozuv. Yozuvning paydo bo‘lishi.....	109
Gulasal Xayrullayeva. Turk va o‘zbek tillaridagi “aldoqchi so‘zlar”.....	112

TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Dilnoza Boymatova. Ona tili darsliklarida “gap bo‘laklari tartibi” mavzusini o‘qitish.....	118
Shahnoza Yunusova. Shiorlar reklama e‘loni sifatida.....	120
Manzura Narmatova. Xalq dostonlarida uy-ro‘zg‘or buyum va jihozlariga oid maishiy leksemalar (“Malika ayyor” va “Bahrom va Gulandom” dostonlari misolida).....	123
Nilufar Sultanova. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish.....	126
Berdibek Yusupov. O‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini turkiy xalqlar adabiyoti vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	128
M. Zaripova. O‘quvchilarning mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalariga innovatsion yondashuv.....	131
Zebiniso Davronova. Ona tili darslarida o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi.....	136
Hasamuddin Hamdard. Afg‘oniston hududidagi o‘zbek tili va adabiyotining taraqqiyoti garovi.....	140
Feruza Sharopova. O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga doir yondashuvlar.....	145

O‘ZBEK ADABIYOTI TADQIQ, TAHLIL VA TALQIN MUAMMOLARI

Qozoqboy Yo‘ldoshev. Egamanlik davri o‘zbek adabiyotining yetakchi belgilari.....	150
Nusratullo Jumaxo‘ja. “Navoiy” taxallusi imlosi va badiiy ma‘no miqyoslari.....	154
Islomjon Yakubov. “Otamdan qolgan dalalar” romani mavzu va uslubida kinoyaviy-satirik ruh.....	162
Usmon Qosimov. Adabiy tanqid adiblar nazdida.....	167
Marg‘uba Abdullayeva. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash.....	169
Zulxumor Mirzayeva. “Dahshat” “Kitobxon javobi” tajribasida.....	172
Gulnoza Jurayeva. Bolalar she‘riyatida shakliy-mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	176
Xurshida Xamrakulova. Kavsar Turdiyeva ijodiga chizgilar.....	182
Shahnoza Raxmonova. Muxammas-qasidalarda vazn va mavzu mutanosibligi.....	188
Tozagul Matyoqubova. G‘afur G‘ulom she‘riyatida lirik “men”i tasviri.....	190
Zuhra Mamadaliyeva. Alisher Navoiy ijodida raqib obrazining ramziylik xususiyati.....	193
Sohiba Umarova. Xorazm devonlarida gul tasviri va timsoli.....	196
Xusnigul Djurayeva. Husayn Boyqaro ijodiy merosining Turkiyada o‘rganilishi.....	198
Muhayyo Yo‘ldosheva. Nuqra erkka tashna yuraklar.....	201
Matluba Jabborova. Lirikada Jomi Jam talqini.....	204
Shahlo Hojiyeva. Cho‘lpon va Robindranat Thokur: adabiy ta‘sir masalalari.....	207
Zarina Sayliyeva. Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani odam aro, Gar alar xotam, sen ul otkim, bo‘lur xotam aro.....	210
Dilafruz Nazarova. Xoja ijodida an‘anaviy obrazlar.....	214
Husan Maqsudov. Alisher Navoiy g‘azallarida fano va baqo talqini.....	218
Quvonchbek Mamiraliyev. Istiqlool davri o‘zbek she‘riyatida vazn masalasi.....	223
Zoya Sarsenbaeva. Ingliz va o‘zbek adabiyotida modernizm.....	225
Shoxista Mahmudova. Erkin A‘zamning ijodkor obrazini yaratish mahorati.....	229
Yulduz Xaitova. Shoir Ra‘no Uzoqova lirikasida transformatsiyalanish masalasi.....	232
Akbar Jumanov. Mumtoz adabiyotda Navoiyning roli.....	235
Qarshiyev Bekzod. Erkin A‘zam qissalarida hayot haqiqati va talqin mahorati.....	239

Boʻtayeva Nigora. XIX asr oxiri – XX asrning boshlari Xivadagi yangilanishlarda Komil Xorazmiyning oʻrni.....	240
Soberova Mohira, Karshiyeva Charos. Mustaqillik davri hikoyalarida milliy qadriyat masalasi va obraz psixologiyasining yoritilishi.....	244
Avazova Dilfuza. “Hajnoma” va “Haj daftari”da Muhammad alayhissalom obrazi talqini.....	247
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy adabiy merosi.....	250
Kumush Abdusalomova. Matnazar Abdulhakimning soʻz qoʻllash mahorati.....	252
Zaxiriddin Sulaymanov. Agiografik janrlarning mavzu yoʻnalishi va poetik xususiyatlari.....	255
Yulduz Joʻrayeva. Yassaviy va Ubaydiy ijodida hikmat janri.....	260
Бауетдинов Мухаммеддин. Абдулла Орипов ва Улмамбет Хўжаназаров фалсафий услубидаги муш- тараклик.....	263
Aziza Eshdavlatova. Faxriyor sheʼriyatida vizual tasvir imkoniyatlari.....	266
Dilbar Hasanova. Ahmad Aʼzam ijodining oʻrganilishiga bir nazar.....	269
Charos Shomurotova. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” asari syujetida badiiy tasvir vositalari.....	270
Muhammadqodir Toshpoʻlatov. Behzod Fazliddin lirikasida badiiy detallar poetikasi.....	276
Djalilova Durdona. Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” romanida Gavharshodbegim obrazi.....	281
Safar Allayorov. Jiddiy izchil izlanishlar samarasi, yangicha ijodiy barkamollik alomati.....	283
Joʻraqulova Xumora. Maʼrifiy roman tematikasi (N. Karimov romanlari tahlili misolida).....	288
Aziza Almardonova. Navoiy qitʼalarida nafsni tiyish masalasi.....	291
Nilufar Chuliyeva. Zamon va makonning mifopoetik talqini.....	294
Xurshida Nishonova. Aʼzam Oʻktam sheʼriyatida poetik obrazlar: anʼana va vorisiylik.....	299
Nozima Sulaymonova. Adib Xurshid Doʻstmuhammadning badiiy qahramon yaratish uslubi haqida ayrim mulohazalar.....	302
Otabek Safarov. Faxriyor prizmasi: tasavvur tarbiyasidan ijtimoiy masʼuliyatgacha.....	305
Anzirat Abdikarimova. Mustafa Introvert shaxs obrazining tipik vakili.....	310
Musharraf Abdiraimova. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida rang simbolikasi.....	312
Gulinor Xolmurotova. Abduqayum Yoʻldoshning “Puankare” hikoyasida inson va davr muammosi badiiy talqini.....	317
Niyatqobil Ashurov. Nodir talant sohibi.....	320
Mohlaroyim Neʼmatjonova. Paramonning isteʼdodli ijodkori.....	323
Shahnoza Ibragimova. Luqmon Boʻrixonning “Sirli muallim” qissasida oʻqituvchi obrazining yaratili- shi.....	326
Shohsanam Ilashova. Ulugʻbek Hamdamning “Ota” romanida sadoqat (doʻst) obrazi.....	327
Barchinoy Abdirazzoqova. Halima Xudoyerdievaya sheʼriyati xususida baʼzi mulohazalar.....	329

ADABIYOT OʻQITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Hoshimjon Ahmedov. Qozoqboy yoʻldoshning pedagogik qadriyatlari.....	334
Gulbahor Qurbonova. Badiiy adabiyotda odob-axloq masalasining badiiy talqini.....	336
Oysuluv Musurmonkulova. Adabiy taʼlimda oʻquvchilarni fikrlashga oʻrgatishda kreativ yondashuv.....	340
Maxmuda Yuldasheva. Nasriy asarlarni oʻqitishda evristik usullardan foydalanish amaliyoti.....	344
Doniyor Yelmurodov. Jadid adabiyotida taʼlim-tarbiya muammolari.....	350
Norjona Qurbonova. Oskar uayldning “Baxtli shahzoda” asarini oʻqitish.....	352

Bosishga 2024 yil 15 faprelda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100_{1/32}. “EB Garamond” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
22.5 bosma toboq. Adadi 100 nusxa.
16/04-son buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Anorbooks” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Tasdiqnoma raqami №5566
Toshkent shahri, Qozirobod,
Kamolon darvoza, 2-uy.
(+99899) 335-66-00.